R. J. Vohidov, H.P. Eshonqulov

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI



O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Rahim Vohidov
Husniddin Eshonqulov

O’ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI

(Eng qadimgi davrlardan XVI asr oxirigacha)

Oliy va o’rta maxsus vazirligi tomonidan respublika universitet hamda pedagogika institutlari o’zbek filologiyasi fakul’tetlari bakalavriati ixtisosligining I-II bosqich talabalari uchun o’quv qo’llanmasi sifatida tavsiya etilgan

O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti Toshkent - 2006

Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O’quv qo’llanma. – O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’rmasi nashriyoti, 2006. 528 b.

Qo’llanma Respublika oliy o’quv yurtlari o’zbek filologiyasi fakul’tetlari bakalavriat ixtisosligining I-II bosqich talabalariga o’zbek mumtoz adabiyoti tarixi fanidan o’quv-qo’llanmasi sifatida mo’ljallangan. Unda bakalavriat ixtisosligi o’quv rejasida o’zbek mumtoz adabiyoti tarixi fanidan o’tilishi ko’zda tutilgan 166 soatlik ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarga doir mavzular haqida fikr yuritiladi.

Qo’lingizdagi kitobda eng qadimgi adabiy Yodgorliklardan XVI asr oxiriga qadar bo’lgan mumtoz adabiyot vakillari haqidagi ma’lumotlar qamrab olinadi. Mualliflar mustaqillikning ma’naviy merosni tadqiq qilish uchun yaratgan imkoniyatlarini inobatga olgan holda mavzularni milliy istiqlol mafkurasi tamoyillari ruhida oritishga urg’u berishadi.

Mas’ul muharrir: **B.N.Valixo’jayev**
O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zosi, jumhuriyatda xizmat ko’rsatgan fan arbobi, professor

Taqrizchilar: **H.G’. Ne’matov**
Filologiya fanlari doktori, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan xalq ta’limi xodimi, professor.

D.I.Salohiy
filologiya fanlari doktori.

MUQADDIMA O’RNIDA

Istiqlol Yuksak ilohiy ne’mat sifatida nafaqat turmush tarzimizga, balki madaniy-ma’naviy hayotimizga ham teran kirib bormoqda. Yurtdoshlarimizni barkamol shaxs qilib tarbiyalash yo’lidagi sa’y-u harakatlar boshida Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning turganligi va axloqiy-ma’naviy tarbiyaning Davlat dasturi maqomiga ko’tarilishi ham mustaqillik sharofati hisoblanadi. O’n besh yildirki, qatag’onga Uchragan an’analarimiz, islom dini va tasavvuf, uning badiiy adabiyotga ta’siri masalalarida ochiq-oydin mushohada yuritish imkoniyati tug’ildi. Shuning uchun bu jabhadagi ishlarimizda Yurt sarvarining quyidagi dono ko’rsatmalari g’oyaviy asos vazifasini o’tayotir: **“Xalqimiz asrlar osha yashab kelgan an’analari, urf-odatlari, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg’unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg’usini odamlar qalbi va ongiga yyetkazishi, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlilikni, adolat tuyg’usini, bilim va ma’rifatga intilishni tarbiyalash yo’lida xizmat qilmog’i lozim”.** (Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar. 3-jild, Toshkent: “O’zbekiston”, 1996, 283-bet)

Ozodlik tufayli badiiy asarni sun’iy tarzda soxtalashtirib tahlil hamda targ’ib qilish tamoyillariga xotima berildi. Bir davrda, birday tarixiy sharoitda ijod qilgan qalamkashlarni, yaxlit adabiyotni “diniy-mistik”, “feodal-saroy (klerikal)”, “xalqchil adabiyot” kabi bo’lakchalarga ajratishning noo’rinligi tobora oydinlashib qoldi. Yurtboshimiz o’rinli e’tirof etganidek: **“...Tafakkur ozod bo’lmasa, ong va Shuur tazyiqdan, qullikdan qutilmasa inson to’la ozod bo’lolmaydi”.** (O’sha kitob, 34-bet)

Shukronalar bo’lsinki, jannatmakon O’zbekiston bo’ylab bugun hur fikrlilik shabadasi esmoqda. Uning hayotbaxsh epkini mumtoz adabiyot olamiga, insonparvar dinimiz va tasavvufga ham sezilarli ta’sir o’tkazdi. Asrlar bag’rida bo’y cho’zgan mumtoz badiiy yaratmalarni o’z qonuniyatlari asosida tahlil va tadqiq qilish tobora teranlashib bormoqda. Tariqat pirlari asarlarini forsiydan turkiyga tarjima qilish, ilmiy tahlildan o’tkazish va nashr etish borasida jiddiy yutuqlarga erishildi.

“Inson va uning har tomonlama uyg’un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro’yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o’zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan

islohotlarning asosiy maqsadi vaharakatlantiruvchi kuchidir”,- deyiladi Kadrlar tayyorlashning milliy dasturida.

Ta’lim to’g’risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlashning milliy dasturini, ayniqsa, uning ikkinchi bosqichi – sifat pog’onasi talab-tamoyillarini hayotga tadbiq etish yo’lidagi harakatlar respublikamizda kun sayin qanot yoymoqda. Ayni paytda o’rta umumiy ta’lim maktablari Davlat standartlarining ishlab chiqilishi, fanlar bo’yicha takomillashgan Dasturlarning amaliyotga joriy qilinayotganligi quvonchli holdir. Qayd etilgan yangi dasturlarning afzalligi shundaki, unda bilimdon o’quvchini tarbiyalash bosh muddao bo’lmay, balki barkamol avlodni (shaxsni) Shakllantirish diqqat markazida tutiladi. Tabiiyki, bunday jarayonda badiiy adabiyotning, jumladan, umrboqiy qadriyatlarimiz, islomiy-tasavvufiy sarchashmalar va mumtoz asarlarning o’rni beqiyos kattadir. Ayrimlari aytilgan jihatlarni nazarda tutib, biz ilk tajriba sifatida mazkur qo’llanmani yaratishga jazm etdik.

Taniqli adabiyotshunos olim, professor N.M.Mallayevning “O’zbek adabiyoti tarixi” (XV asrgacha , 1-kitob) darsligining oxirgi nashridan ham chorak asrdan ziyodroq davr o’tdi. Shunday gapni akademik V.A.Abdullayev va professor G’.K. Karimovlarning “O’zbek adabiyoti tarixi” (2-3-kitoblar) darsliklari haqida ham aytish mumkin. Mazkur darsliklarda, birinchidan, sho’ro mafkurasining “quyuq changi” o’z asoratini qoldirgan bo’lsa, ikkinchidan, ularning nusxalari kamayib, kamyob bo’lib qoldi. Bular oliy maktabda mumtoz adabiyotni o’qitish borasida bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotir. Bugun Yozilayotgan ma’ruza matnlari ham zikri o’tgan bu boradagi talabalarimizning chanqoqligini yetarli darajada qondira olmaydi, albatta. Shularga ko’ra biz bu qo’llanmani Yozishga kirishdik. Buning uchun bakalavrlar tayyorlashga mo’ljallangan o’quv rejasidagi ma’ruza soatlari asos sifatida qabul qilindi. Shuningdek, o’rta umumiy ta’lim maktablarining yangi Dasturlariga tayanildi yoxud o’sha Dasturlardagi mavzularga alohida ahamiyat berildi. Shuni nazarda tutib, oliy va o’rta umumiy ta’lim maktablari Dasturlarida kuzatiladigan nomuvofiqlarni hisobga olishga ham harakat qilindi. Qo’llanmani yaratishda mualliflar uchun istiqlol davri adabiyotshunosligi yutuqlari yo’lchi yulduz vazifasini o’tadi. Bizning dastlabki tajribamiz mahsuli qo’llanmaning kamchiliklardan xoli emasligi tabiiydir. Sizning xolisona fikr-mulohazalaringiz, beg’araz tanqidingizdan umidvormiz, muhtaram o’quvchi! Ular, shubhasiz, qo’llanmaning takomillashgan nusxalarini yaratishda bizga qo’l keladi.

1- BOB
“O’ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI” FANIGA KIRISH

1.1.O’zbek mumtoz adabiyoti fan sifatida

Badiiy adabiyot tabiat gultoji sanalmish Hazrati inson bilan egizak dunyo yuzini ko’rgan san’at turlaridan biridir. Inson yaratilibdiki, o’zi yashayotgan borliq sir-u sinoatlari bilan oshno bo’lgisi, ulardan Yuksak shavq-zavq olgisi, ichki kechinmalari, orzu-intilishlari, ruhiy holatlarini o’zigagina hadya etilgan oliy ne’mat - so’zda badiiy, bo’yoqli tarzda ifodalagisi keladi. Adabiyot tarixi esa mana shu o’ziga xos murakkab hodisaning eng qadimgi davrlardan zamonamizgacha bo’lgan tarixiy taraqqiyot jarayonini o’rganuvchi fandir.

Badiiy ijod uning nodir namunalarini yaratuvchi ma’lum bir xalqning e’tiqodiy qarashlari majmuasidan bahramand bo’ladi. Shu ma’noda u o’sha xalq dunyoqarashi, ma’rifiy olami va ma’naviyatini badiiy aks ettiradi. Shunga ko’ra, alohida xalqlar nomlari bilan ataluvchi adabiyotlar vujudga keladi. Xalqimiz ma’naviy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi esa o’zbek adabiyotidir.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so’ng o’tmishni, fanlar tarixi, adabiy merosni o’rganishga jiddiy e’tibor qaratildi. Milliy o’zlikni anglash, milliy mafkura, ma’naviyat, ma’rifat kabilar Davlat dasturidagi dolzarb masalalar sirasidan ustuvor yo’nalish sifatida joy oldi. Shu jihatdan mamlakat Prezidenti I.A. Karimovning hozirjavoblik va donolik bilan aytgan quyidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi: **“Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o’zlikni anglashning o’sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, ularning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon hisoblaymiz”** (Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent:”O’zbekiston”, 1997, 137-bet).

Xalqimiz ma’naviy qadriyatlarini o’zida ifoda etgan o’zbek mumtoz adabiyotini o’rganish barkamol avlod qalbida milliy iftixor tuyg’ularini Shakllantirilishiga ulkan hissa qo’shishi bilan ahamiyatlidir.

1.2. O’zbek mumtoz adabiyotining tarkibiy qismlari

Uzoq yillar davomida o’zbek adabiyoti fan sifatida dastlab ikki qismga: “O’zbek adabiyoti tarixi” va “O’zbek sovet adabiyoti” nomlari ostida bo’linib o’qitilar edi. 1917-yil 25-oktabr bu ikki qism orasidagi chegara sifatida qabul qilingandi. Istiqloldan so’ng oliy o’quv yurtlari o’zbek filologiyasi fakul’tetlarida “Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti” kursi o’qitila boshlandi. U o’z ichiga xalqimiz tarixining nihoyatda ziddiyatli va murakkab, mafkuralar kurashi davri 1865-1929 yillar oralig’i adabiyotini qamrab oladi. Mustaqillik sharofati tufayli XIX asrning oxirlarida Shakllanib, XX asr boshlarida bo’y ko’rsatgan, 20-yillarda esa o’sha davrning g’oyatda shiddatli tazyiqlariga bardosh berib Chinakam adabiyotga aylangan jadid adabiyotini izchil va mukammal o’rganish imkoniyati vujudga keldi. Jadid adabiyotining mazmun-mohiyatini milliy uyg’onishning hayotbaxsh g’oyalari tashkil qilardi. Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti xalqimizning ko’p asrlik adabiiy an’analaridan bahramand bo’lgan badiiy tafakkurimizning porloq sahhfalaridan biri, ayni choqda bugungi yangi o’zbek adabiyotining tayanch sarchashmasi sanaladi. Shunday qilib, o’zbek adabiyotini dastlab quyidagi Uch qismga bo’lib o’rganish maqsadga muvofiqdir.

1. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XIX asr o’rtalarigacha).

2. Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti (XIX asr II Yarmidan XX asrning 20-yillarigacha).

3. Yangi o’zbek adabiyoti (1930-yildan hozirgacha).

O’zbek mumtoz adabiyoti xalqimizning qadim zamonlardan XIX asrning o’rtalarigacha vujudga kelgan noyob badiiy durdonalari haqida bahs yuritadi. Tabiiyki, bu ming yilliklarga cho’ziladigan jarayonda dunyo yuzini ko’rgan badiiy asarlarda xalqimizning dastlabki e’tiqodiy qarashlaridan tortib XIX asrning o’rtalarigacha yashab ijod qilgan qalamkashlarimizning irfoniy-falsafiy, adabiy-badiiy, ilohiy-ma’naviy qarashlari o’z ifodasini topgan. O’zbek mumtoz adabiyoti mana shu uzoqqa cho’zilgan murakkab jarayonda vujudga kelgan turli xil va janrlardagi badiiy asarlarni o’z ichiga oladi. Nazm va epos asrlar davomida o’zbek mumtoz adabiyotining asosiy xillaridir bo’lib, taraqqiy topib keldi. G’azal, ruboiy, qasida, masnaviy, muxammas, musaddas, qit’a, tarje’band, tarkibband (v.h.) masal, hikoya va shu kabilar esa keng tarqalgan adabiy janrlar sanaladi.

Kishilik tarixida Yozuv paydo bo’lmasdan avval badiiy ijod og’zaki Shaklda taraqqiyot bosqichlarini bosib o’tdi. Yozuv - insoniyatning eng muhim kashfiyotlaridan biridir. Xat kashf etilgandan so’ng badiiy ijod og’zaki va Yozma Shaklda Yonma-yon taraqqiy qila boshladi. Garchi og’zaki

adabiyot Yozma adabiyotning vujudga kelishi uchun ma’naviy zamin bo’lgan bo’lsa-da, badiiy ijodning bu har ikkala Shakli vaqti-vaqti bilan bir-birini to’ldirib, sayqallashtirib, boyitishda davom etdi. Natijada, «Tohir va Zuhro», «Bo’z o’g’lon», «Yusuf Ahmad», «Kitobi podsho Jamshid», Qissasi Farhod-u Shirin» «Kitobi dada Qo’rqut», «Qissasi Abo Muslim» singari ma’naviy durdonalar vujudga keldiki, bular xalq og’zaki ijodida yaratilib kitobiy adabiyotga yaqinlashtirilgan yoki Yozma adabiyotda vujudga kelib, keyinchalik xalq ijodi uslubida qayta “tahrir”dan o’tgan asarlardir. Shunday qilib, xalq kitoblari ham o’zbek mumtoz adabiyoti va ham xalq og’zaki ijodining tarkibiy qismi sanaladi.

O’zbek mumtoz adabiyoti yodnomalar (memuar), tarixiy asarlar hamda tazkiralarni ham o’z ichiga oladi. Ma’lumki, o’tmishda tarixnavislik badiiy ijod bilan qorishiq holda olib borilgan. Muarrixlar biror tarixiy voqea tafsilotlarini bayon qilishda badiiy uslubga murojaat etishgan. Jumladan, Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi hukamo va anbiyo», Abulg’oziy Bahodirxonning «Shajarai turk», «Shajarai tarokima», Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiyning «Firdavsul iqbol» kabi tarixiy asarlari, Shuningdek, Zahiriddin Boburning «Boburnoma» singari qomusiy kitobidagi badiiy lavhalar va She’rlar Yuqorida aytilgan fikrlarimizga Yanada quvvat beradi.

O’zbek xalqi uzoq yillar davomida Sharq musulmon olami, Shuningdek, Hindiston, Yunoniston, Gurjiston, Rusiya kabi mamlakatlar bilan siyosiy-iqtisodiy, tarixiy-madaniy aloqada bo’lib kelgan. Mana shu aloqalarning samarasi o’laroq tarjima adabiyoti ham vujudga keldi. O’zbek tiliga tojik, Eron, ozarbayjon, hind, arab va boshqa xalqlarning badiiy, ilmiy hamda tarixiy asarlari tarjima qilindi. Nizomiyning «Maxzanul-asror», «Xusrav va Shirin», «Haft paykar», Shayx Sa’diyning «Guliston», «Bo’ston», Nuriddin Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjir»), «Iskandar xiradnomasi», «Salomon va Absol», Badriddin Hiloliyning «Shoh va gado», hind donishmandlik xazinasining nodir namunasi «Kalila va Dimna», mashhur arab ertaklari majmuasi «Ming bir kecha», Mirxondning «Ravzat us-safo», Zayniddin Mahmud Vosifiyning «Badoye’ ul-vaqoe’» kabi asarlari shular jumlasidandir. Tarjima adabiyoti xalqlar o’rtasidagi o’zaro madaniy–adabiy aloqa va do’stlik rishtalarini mustahkamlashga, shuningdek, o’zbek xalqining jahon xalqlari adabiyoti bilan yaqindan tanishishiga xizmat qilib keldi. O’zbek tiliga tarjima qilingan asarlar muayyan tarixiy sharoitning ma’naviy ehtiyoji, talabi bo’lib, ular o’zbek Yozma adabiyoti va xalq og’zaki ijodi

tajribalarining Yanada boyishi, teran ma’no va quyuq ranglar bilan to’lishishiga ijobiy turtki bo’ldi. O’tmish adabiyotida qo’llangan tarjima istilohiga mazkur atamaning bugungi talqinlari nuqtayi nazaridan munosabatda bo’lmoq pand berishi, bir yoqlama xulosalarga olib kelishi mumkin. Chunki mumtoz mutarjimlar asliyatga hozirgi tarjimonlarga nisbatan ancha erkin va o’ta ijodiy munosabatda bo’lishgan. Oqibatda ular qalamidan chiqqan asarlarga nisbatan tarjimani qo’llash kamlik qilgandek bo’lib tuyula beradi. Qutb Xorazmiy XIV asrda fors tilidan o’zbek tiliga tarjima qilgan “Xusrav va Shirin” (Shayx Nizomiy), Sayfi Saroyi (XIV asr) o’zbek tiliga o’girgan “Guliston” (Shayx Sa’diy), Mavlono Xiromiy (XIX asr) o’zbekchalashtirgan “Chor darvesh”, «Ra’no va Zebo» “To’tinoma” kabi asarlar bilan kechgan ijodiy mehnat haqida ham ana shunday fikrni aytish joizdir. Ayrimlari eslatilgan fazilatlariga ko’ra, tarjima adabiyoti ham o’zbek mumtoz adabiyotining tarkibiy qismi sanaladi.

O’tmishda yaratilgan adabiyotshunoslikka oid asarlarni ham o’zbek mumtoz adabiyoti o’z ichiga oladi. Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul balog’a», «Davlatshoh ibn Baxtishohi Samarqandiyning «Tazkirat ush-Shuaro» Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Mezonul avzon”, “Muhokamat ul- lug’atayn”, “Nasoyim ul-muhabbat”, Bobur Mirzoning “Muxtasar”, “Aruz risolasi”, Fazliy Namangoniyning “Majmuat ush-shuaro” kabi asarlari shular jumlasidandir.

1.3. O’zbek mumtoz adabiyotining boshqa turdosh fanlar bilan aloqasi

Adabiyot boshqa fanlar singari borliqning sir-u sinoatlari, insonning ruhiy-ma’naviy olami kashfiyotlari haqida tasavvur beruvchi ilm tarmoqlaridan biridir. Bu jihatdan u boshqa fanlarga juda yaqin turadi. Adabiyotning fan va boshqa san’at turlaridan jiddiy farqi esa uning ifoda uslubida ko’rinadi. Fanning tarmoqlari hayot, borliq, inson taqdiri bilan bog’liq jarayonlarni ma’lum kuzatish, izlanish, tajribalar hosilasi bo’lgan umumlashmalarga tayanib, ularni ilmiy uslubda umumlashtirsa, adabiyot o’sha murakkab jarayonlarni obrazli badiiy aks ettirish bilan shug’ullanadi. Obrazlilik badiiy uslub vositasida vujudga kelib, kishining ruhiy-manaviy olamiga ta’sir etadi. Shuning uchun adabiyot jamiyatdagi muayyan tabaqa, toyifa, soha vakillariga mo’ljallanmay ommaviylik kasb etadi.

Badiiy adabiyotning obraz yaratuvchi muhim quroli so’z bo’lganligi bois o’zbek mumtoz adabiyoti bevosita til tarixi bilan uzviy aloqadorlikda ish ko’radi. Muayyan davrda yaratilgan badiiy asar o’sha davr til xususiyatlarini o’zida mujassamlashtirishi bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy

voqelik, xalqning irfoniy-ilohiy kuzatishlari, falsafiy mushohadasi, dunyoqarashi, urf-odatlarini ham o'zida badiiy ifoda etadi. Bu jihatdan o'zbek mumtoz adabiyoti ilohiyot, tasavvuf, tarix, falsafa, jug'rofiya, etnografiya (elshunoslik) singari fanlar bilan yaqin aloqada ish ko'rib, rivojlana boradi.

Badiiy adabiyot ilm-fan yutuqlaridan uzluksiz ravishda ijodiy istifoda etadi. Malikul-kalom, Mavlono Lutfiy Shoshiy qalamiga mansub quyidagi bayt fikrimizning Yorqin dalilidir:

Quyosh oydek yuzingning xijlatindin,
Qochib, to'rtinchi ko'k uzra chiqibtur.

Baytda shoir ma'shuqa yuzini oyga tashbeh qilib, tashxis san'ati vositasida quyoshga insonga xos xususiyatlarni ko'chirgan. Mazkur satrlarda quyidagi mazmun o'z badiiy ifodasini topgan: Quyosh Yorning oydek jamolidan xijolat chekadi va qochib to'rtinchi ko'kka chiqadi. Baytning Yanada to'liq mazmunini tugal anglash uchun Mavlono Lutfiy davri nujum (yulduzshunoslik) ilmiga oid ba'zi ma'lumotlarga ega bo'lish ham talab etiladi. Sharq-u G'arbda keng tarqalgan geotsentrik nazariyaga asosan Yer atrofidan boshqa sayyoralar aylanib turadi. Ularning har biri Yerga nisbatan ma'lum uzoqlikda bo'lib, yetti qat osmon tushunchasini izohlashga asos bo'lgan. Chunonchi, Oy Yerga eng yaqin samoviy jism bo'lib, mazkur sayyora - birinchi, Utorid (Merkuriy) - ikkinchi, Zuhra (Venera, Nohid) - Uchinchi, Quyosh - to'rtinchi, Mirrix (Mars) - beshinchi, Mushtariy (Yupiter) - oltinchi, Zuhal (Saturn) - yettinchi falakda deb tushunilgan. Yer atrofidan yetti sayyoraning Yuqorida keltirilgan tartib asosida aylanishi mumtoz ijodkorlar, jumladan, Yusuf Xos Hojib,Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy asarlarida, shuningdek, yetti qat osmon tushunchasi Qur'oni karimda ham Uchraydi. Mavlono Lutfiy Yuqoridagi misralarida ana o'sha har ikkala jihatni ham nazarda tutgan. Shoir baytda Quyosh to'rtinchi falak sayyorasi deb unga aniqlik kiritmasa-da, shunga ishora qiladi. Zero, She'riyatning vazifasi sayyoralarning fazodagi o'rnini anglatish bo'lmay, balki ilmiy kashfiyotlarga tayangan holda go'zal manzaralar yaratish, hayotiy-falsafiy qarashlarni ifodalash va badiiy rangni quyuqlashtirishdan iboratdir. Shunga ko'ra, quyosh Yorning jamolidan xijolat chekib, to'rtinchi ko'k uzra chiqqan, - deya baytda husni ta'lil san'atining go'zal namunasi hosil qilingan.

Ko'rinadiki, badiiy adabiyot uchun faqatgina sohaning tor qonuniyatlari emas, balki barcha fanlarning yutuqlariga tayanib ish ko'rish badiiyatning zaruriy taqozosidir.

1.4. O’zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot yo’li, davrlashtirish tamoyillari va u haqdagi bahsu munozaralar

Ilm-fan, san’at va madaniyat rivoji bevosita davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligi bilan chambarchas bog’liq. Adabiyot ham jamiyat taraqqiyot qonunlariga vobasta harakatlanadi, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqelik, fikrlar kurashini o’zida badiiy aks ettiradi. Masalaga shu nuqtayi nazardan Yondashadigan bo’lsak, o’zbek mumtoz adabiyotini muayyan tarixiy jarayonlar asosida davrlashtirib o’rganish va u haqda ma’lum umumlashma-xulosalar chiqarishga imkon yaratadi. Biroq adabiyot taraqqiyotining o’ziga xos qonuniyatlari inobatga olinmas ekan, bu xulosalar bir yoqlama mohiyat kasb etadi. Badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyat kasb etishi, unga turli adabiy oqimlarning ta’siri, ular o’rtasidagi fikrlar kurashi, rang-barang xil va janrlar taraqqiyoti, muayyan davrda yaratilgan badiiy asarlarning til xususiyatlari hamda so’z san’atining boshqa tamoyillarini nazarda tutib o’zbek adabiyoti taraqqiyot jarayonlarini tarixiylik nuqtayi nazaridan davrlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi.

O’zbek adabiyoti tarixini davrlashtirishda uni ba’zi podsholiklar, sulolalar nomlari bilan atash lozimligi haqida ham fikrlar bildirilgan. Biroq adabiyotning o’ziga xos taraqqiyot qonuniyatlari bunday qarashlarni to’la oqlamaydi. Adabiyotshunos N.M.Mallayev o’zining “O’zbek adabiyoti tarixi” kitobida o’zbek adabiyoti tarixini Yuqorida qayd etilgan qamrovli tamoyillarga ko’ra 6 davrga bo’lib o’rganishni tavsiya etadi. Olim undagi ayrim bosqichlarni ichki bosqich - etaplarga bo’lib o’rganish mumkinligini ham e’tirof etgan. O’zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirishda N.Mallayevning fikrlariga tayanish mumkin. Chunki mazkur masalaga doir bahs-u munozaralar o’zining yetarli yyechimini topmagan ekan, fanda qabul qilingan hukmron fikrga tayanish, uni o’quvchilarga taqdim etish pand bermaydi. Shu o’rinda kichik bir tahrirni e’tiboringizga havola qilishini lozim topdik. O’zbekiston mustaqilligi e’lon qilingach, XIX asr ikkinchi yarmi adabiyotini ”Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti” tarzida atash tamoyilga kirdi. Biz ham bu o’rinda uni qabul qilishni ma’qul ko’rdik. Shunday qilib, o’zbek mumtoz adabiyotini quyidagi asosiy taraqqiyot bosqichlariga bo’lib o’rganish maqsadga muvofiqdir:

1.Eng qadimgi adabiy Yodgorliklar.

2.X-XII asrlar adabiyoti.

3. XIII asr va XIV asr boshlaridagi adabiyot.

4. XIV asr o’rtalaridan XVII asrgacha bo’lgan adabiyot.

5. XVII asrdan XIX asr o’rtalarigacha bo’lgan adabiyot.

Eng qadimgi adabiy Yodgorliklar qadim zamonlardan Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning mushtarak adabiy Yodgorligi sanaladi. Shuningdek, X-XII asrlarda vujudga kelgan turkiy tildagi adabiyot ham faqat o’zbek xalqiga taalluqli bo’lmay, balki Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda yashovchi turkiy xalqlarning mushtarak ma’naviy boyligidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1.Badiiy adabiyotning o’ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.

2. O’zbek mumtoz adabiyotining tarkibiy qismlari deganda nimalar nazarda tutiladi?

3. O’zbek mumtoz adabiyoti qaysi fanlar bilan bevosita hamkorlikda ish ko’radi?

4. O’zbek mumtoz adabiyotining san’atning boshqa turlari va fanlar bilan uyg’un hamda tafovutli jihatlari haqida so’zlang.

5. O’zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot yo’li va davrlashtirish tamoyillari haqida nimalarni bilasiz?

Mavzuga oid tayanch tushunchalar.

1. Badiiy adabiyot. 2. O’zbek adabiyoti. O’zbek mumtoz adabiyoti Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti. Yangi o’zbek adabiyoti. Nazm va epos. Xalq og’zaki ijodi. Memuar va tarixiy asarlar. Tarixnavislik va badiiy adabiyot. Tarjima adabiyoti. Erkin tarjima. Obrazlilik. O’zbek mumtoz adabiyoti va til tarixi. Mumtoz adabiyot va elshunoslik. Fan yutuqlaridan ijodiy foydalanish yo’llari. Adabiyot tarixini davrlashtirish. Tarixiylik tamoyili. Adabiyot taraqqiyotining o’ziga xos qonuniyatlari.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. Toshkent: «O’zbekiston», 1994.

2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O’zbekiston», 1997.

3. Botir Valixo’jayev. O’zbek adabiyotshunosligi tarixi. X-XIX asrlar. Toshkent, «O’zbekiston» - 1993, 191 bet.

4. Mallayev N.M. O’zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. Toshkent: «O’qituvchi», 1976, 5-9- betlar.

5. O’zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik, I tom. Toshkent: «Fan», 1977, 7-18- betlar.

6. T.Mirzayev. Ma’naviy-madaniy merosni o’rganishning ilmiy-metodologik masalalari. “O’zbek tili va adabiyoti”, 1997, 4-son, 3-6-betlar.
7. I.Haqqul. Mafkura-tafakkur va taraqqiyot tamali. «O’zbek tili va adabiyoti». 1998, 3-son, 3-6-betlar.

II BOB
ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR

2.1. Qadimgi madaniyat. Turon - qadimiy adabiy-madaniy markazlardan biri.

Turon insoniyat madaniyati tarixining qadimiy go’shalaridan biridir. Arxeologik kuzatishlar bu zaminda uzoq o’tmishda ham kishilar yashashi uchun tabiiy sharoit mavjudligini tasdiqlaydi. Boysun tog’larining Teshiktosh darasida 8-9 Yoshli bolaning bosh suyaklari topilishi fikrimizning Yorqin dalilidir. Insoniyat tarixining ilk davrlari haqida ma’lumot beruvchi ushbu ashyoviy dalil neondertal odam zoti avlodidan bo’lib, yovvoyilik davrining quyi pag’onasida yashab o’tganligi aniqlandi (O’zbek adabiyoti tarixi. 1-tom, Toshkent - 1977, 19-bet). Umuman, Markaziy Osiyo hududida eramizdan ko’p ming yillar ilgari odamlar yashagan degan fikrlar mavjud. Kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o’lkamizda ilm-fan, madaniyat va san’at rivojlanib bordi. Xalqimiz madaniyati tarixi haqida yunon, xitoy, hind va arman tarixchilari kitoblarida, “Avesto”, Bexustun, Bundaxishn, O’rxun-Enasoy Yodgorliklari kabi bir qancha manbalar va Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Narshaxiy singari ulug’ olimlarimizning asarlarida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Qadimgi Turon hududi eramizdan oldingi birinchi ming yillik o’rtalarida Baqtriya, Marg’iyona, So’g’diyona, Xorazm, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Parkana (Farg’ona) va boshqa joylardan tarkib topgan edi. Bu yerlarda til va turmush tarzi jihatidan bir-biridan uncha farqlanmagan massagetlar, xorazmiylar, so’g’dlar, parfiyanlar kabi qabila va elatlar istiqomat qilishib, ba’zan ko’chmanchilik, ba’zan esa o’troq holda kun kechirishgan. Bular ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ovchilik va baliqchilik, keyinchalik esa chorvachilik va dehqonchilik bilan shug’ullanishgan. Dehqonchilik asosan toshqin suvlardan foydalanish asosida tog’ Yon bag’irlarida va soylik joylarda rivojlangan. Jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy, siyoiy-tarixiy, axloqiy-madaniy taraqqiyoti natijasida dehqonchilikda sun’iy sug’orishdan keng foydalanila boshlangan. Bunday jarayonning tadrijiy

takomili ishchi kuchiga bo’lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Natijada katta qabilalar ittifoqi, quldorlik davlatiga asos solinadi. Kishilarning bu Shakldagi uyushmalari ularning ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy hayotiga o’zining sezilarli ta’sirini ko’rsatdi. Kanal qazish, to’g’onlar qurish, sug’orish Shahobchalarini tozalash, mudofaa inshoatlarini qurish kabi ishlar amalga oshirilgan.

Qadim Turonda quldorlik davrida Maroqand (Samarqand), Kiropol (Hozirgi Tojikiston davlatiga qarashli O’ratepa Shahri) singari Shaharlar barpo etiladi, konchilik va hunarmandchilik taraqqiy qiladi. Arxeologik kuzatishlar va ba’zi manbalarning ma’lumot berishicha, o’lka aholisi konlarda mehnat qilishgan, mis va temir eritish asosida turli harbiy va mehnat qurollari yasash, kemasozlik, to’quvchilik, binokorlik, zargarlik kabi hunarlar rivoj topib, bu odamlarning savdo-sotiq ishlari bilan shug’ullanishlari va hatto neftdan foydalanishlari uchun imkon hozirlab beradi. Feodalizmning ilk davrlaridan boshlab sug’orishga asoslangan dehqonchilik, Shaharlar hayoti ham zaiflashgan. Yirik quldorlik Shaharlari o’rnini kichik feodal Shaharlari egallagan. Kishilar ko’proq hunarmandchilik, savdo-sotiq va boshqa ishlar bilan mashg’ul bo’lgan.

Ajdodlarimizning tabiat mo’jizalari oldidagi ojizligi olamda ezgulik va Yovuzlik kuchlarining muntazam to’qnashuvi mavjudligi to’g’risidagi tushunchalarini Shakllantiradi. Bular orasida kosmogonik tushunchalar alohida ahamiyat kasb etadi. Qadimgi kishilikning Quyosh kul’ti (Mitra)ga sig’inishi tabiatda ulug’ va foydali kuchlar - quyosh va suv (Anaxita suv ma’budasi) abadiy bo’lgan o’lka hamda ofat keltiruvchi kuchlar - zulmat va kulfat abadiy mavjud bo’lgan o’lkaning borligiga ishonish bilan bog’liq holat - hodisalar Shakllangan. Bu singari ajdodlarimiz topingan kul’tlar eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan zardushtiylik diniga qo’shilib ketadi. Qadimgi Turonda kishilar budda dini (buddizm), moniy dini (manixeizm), nasora (nestarian) xristianligi, yahudiy dini, Ellin xudolari (Zevs, Afina, Poseydon, Appolon va boshqalar)ga ham e’tiqod qilganliklari ma’lum. Ammo arab xalifaligi istilochilik harakatlaridan so’ng juda katta hududlardagi aholi uchun islom dini asosiy e’tiqod bo’lib qoladi (Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi, Toshkent, 1976, 30-bet).

Markaziy Osiyo xalqlarining katta qismi eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Eron tillari guruhiga mansub lahja va shevalarda so’zlashishgan. Bunday ahvol tilning Grek-Baqtriya davlati hukmronligi yillarida va Markaziy Osiyo ahmoniylar tomonidan istilo qilingan davrda ham rivojlanib borganligidan dalolat beradi. Ammo Baqtriya shohlari saroyida

grek tilining nufuzi sezilarli darajada baland bo'lgan. Turon hududida turkiy tilning Shakllanish va rivojlanish jarayoni xunnlarning bu yerga ko'chib kelishi hamda o'troqlashishi bilan bog'liq. Olimlarning fikricha, ularning aksariyati Oltoy tili shajarasining turkiy guruhiga mansub tillarda gaplashishgan. Xunnlarning dastlab eramizdan avvalgi II asrda Turon zaminida paydo bo'la boshlagani ko'pchilik qadimshunos va elshunos olimlar tarafidan e'tirof qilinadi. Ularning YYettisuv va Sirdaryo bo'yidagi cho'llarga ko'chib kelib mahalliy xalq - skif-massagetlar bilan chatishib ketishi eramizdan avvalgi II - I asrlarga to'g'ri keladi. Bu jarayonning davom etishi o'lkamizda turkiy tillar guruhining keng tarqalishiga imkon yaratadi. Shunday qilib, asosan, turk xoqonligi davlati davrida Shimoliy Enasoydan Mo'g'ulistongacha bo'lgan hududda turkiy til keng iste'molda bo'lgan. Markaziy Osiyodagi Eron tillari guruhiga mansub lahja va shevalarda so'zlashuvchi yerli xalq sekin-asta turkiy tillarda so'zlashuvchi aholi bilan chatishib ketib, turkiy tillarda so'zlay boshlaydi.

Markaziy Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardan Yozuvdan ham foydalanib kelishgan. Turon, Eron va ularga tutash o'lkalarda dastlab oromiy Yozuvi qo'llanilganligi juda ko'p manbalarda qayd etiladi. Greklar tomonidan Markaziy Osiyoning zabt etilishi bilan grek Yozuvi ham e'tibor paydo qila boshlaydi. Olimlarning fikricha, oromiy, grek, forsiy mixxat Yozuvlari ma'lum davrlar mobaynida ma'muriy hujjatlarda qo'llangan. "Avesto", Xorazm, so'g'd, kushon, run (O'rxun-Enasoy), uyg'ur Yozuvi va boshqa shunga o'xshash Yozuvlar esa eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida asta-sekin oromiy Yozuvi negizida paydo bo'lgan mahalliy Yozuvlardir.

"Avesto", Xorazm, so'g'd Yozuvlarining eng qadimgi xat turlaridan ekanligini arxeologik kuzatishlar asosida bizgacha yyetib kelgan Yodgorlik va ayrim manbalar tasdiqlaydi. Fanda "O'rxun-Enasoy" yoki "turkiy run Yozuvi" deb nomlangan Yozuv I asrda vujudga kelgan bo'lib, Shimoliy Enasoydan Mo'g'ulistonga qadar cho'zilgan hududda istiqomat qiluvchi xalqlar va qabilalar tomonidan keng qo'llanilgan. O'rxun va Enasoy daryolari bo'ylaridan topilgan V-VII asrga mansub Yodgorliklarda ham mazkur Yozuvdan foydalanilganligi ma'lum bo'ldi.

So'g'd xati negizida O'rxun-Enasoy Yozuvi bilan oldinma-keyin vujudga kelgan xat uyg'ur yozuvi nomi bilan Shuhrat topdi . Sharqiy Turkiston, Movarounnahr va Xurosonda uyg'ur yozuvi juda uzoq yillar tatbiq etildi. Arablar istilosidan so'ng yurtimizda arab yozuvi joriy etilgan bo'lsa-da, temuriylar davriga qadar uyg'ur yozuvidan foydalanildi. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonining Venadagi kutubxonada saqlanayotgan qo'lyozma

nusxasi, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si, Mavlono Lutfiy va boshqa shoirlarning ayrim She’rlari uyg’ur Yozuvida ko’chirilgan. Ilm-fan, madaniyatimiz tarixida arab Yozuvi muhim ahamiyat kasb etadi. VIII asrdan keng tarqala boshlagan arab yozuvidan o’zbek xalqi taxminan 1200 yil davomida istifoda etdi. Yusuf Xos Hojib “Qutadg’u bilig” dostonining Namangan va Qohira Shaharlarida saqlangan nusxalari arab yozuvida bitilgan eng qadimiy turkiy Yodgorlik sanaladi. Ko’rinadiki, Markaziy Osiyo xalqlari Yozuvdan juda qadim zamonlardan, eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o’rtalaridanoq foydalana boshlashgan va u madaniyat, ilm-fan, jumladan, adabiyotning rivojiga sezilarli ijobiy ta’sir ko’rsatgan.

Qadimgi Turonda ilm-fan taraqqiyoti jarayoni va darajasi haqida ma’lumot beruvchi Yodgorliklar bugunga qadar juda kam miqdorda yetib kelgan. Bizgacha saqlanib kelgan so’g’d taqvimi, Beruniy asarlari va boshqa Yozma manbalardagi ma’lumotlar Turon zaminning donishmand farzandlari fanning astronomiya, geometriya, geodeziya, fizika, kimyo va boshqa tarmoqlari bilan shug’ullanganliklari hamda ayni sohalarda sezilarli ijobiy muvaffaqiyatilarni qo’lga kiritganliklaridan darak beradi. Ayniqsa, falakiyot ilmining ikki jabhasi ilmi hay’at (astronomiya) va ilmi nujum (astrologiya) shu sarzaminda o’zining ma’lum taraqqiyot bosqichlarini o’tagan. Jumladan, otashparastlik dini vakillariga o’n sakkizta sayyora ma’lum bo’lgan. Bulardan yettitasi Quyosh (sayyora sifatida tushunilgan), Oy, Utorid, Zuhra, Mirrix, Mushtariy va Zuhal bo’lib, yetti sonining ilohiylashuviga sabab hisoblanadi. So’g’d, Xorazm va boshqa yerlardagi olimlar asosiy sayyoralar, yulduzlarni o’rganib, ularni nomlaganlar hamda Burj (Zodiak) sistemasini aniqlab olganlar. Shohlar saroyida munajjimlar faoliyat ko’rsatishgan. Ular goroskoplar tuzib, yulduzlar olamini kuzatishgan. Ayni choqda munajjimlar matematika, fizika, falsafa, tibbiyot kabi fan tarmoqlari bilan shug’ullanishgan. Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asaridan keltiriladigan quyidagi to’rtlik turkiy xalqlar fanning bu sohasi bilan qadimdan mashg’ul bo’lganliklarini tasdiqlaydi:

Qara to’nug kechursadim,
Ag’ir uni Uchursadim.
Jeti kanin qachirsadim,
Saqish ichra kunum tug’di.

Ushbu satrlarni prof. S. M. Mutalibov quyidagicha zamonaviy o'zbek tiliga uyg'unlashtirgan: «Qorongu kechaning o'tishini istadim, Og'ir uyquni qochirishni istadim, bir necha marta Yetti qaroqchi yulduzining aylanishini sanadim. Sanamoqda edim, kunduz quyoshi porlab chiqdi». (Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. II tom. Toshkent: "Fan", 1963, 265-266-betlar)

O'lkamizda qadimgi zamonlardan binokorlik, hunarmandchilik, kemasozlik singari sohalarning keng taraqqiy qilganligi ajdodlarimizning fanning zikri o'tgan sohalarida erishilgan yutuqlari natijasidir.

Arxeologik kuzatishlar natijasida Markaziy Osiyoning qator joylaridan turli davrlarga mansub juda ko'p Shaharlar, qo'rg'onlar, maqbaralar, xilma-xil istehkomlarning xarobalari aniqlandi. Xorazm vohasidagi Tuproqqal'a, Ko'zali qiz, Qo'yqirqilganqal'a, Yonboshqal'a, Farg'ona vodiysidagi Chust, Dalvarzin, Buxoro yaqinidagi Qizilqir, Varaxsha, Vardonze, Toshkent yaqinidagi Oqtepa va boshqa Shahar hamda qo'rg'onlarning qoldiqlaridan topilgan madaniy qatlamga doir ashYoyi dalillar qadimgi Turonning o'ziga xos arxitekturasi, tasviriy san'ati, ma'naviy olami haqida muhim ma'lumotlar beradi. Yurtimizda rassomchilik, naqqoshlik, haykaltaroshlik, musiqa va boshqa san'at turlari qadimdan rivojlangan. Yozma manbalar va keyingi yillarda qadimshunos olimlar izlab topgan Yodgorliklar shunday xulosaga kelish asosini beradi.

1932-yilda Termiz yaqinidagi Ayritomdan toshga ishlangan Uch cholg'Uchi ayol surati topiladi. Ularning qo'llaridagi musiqa asboblari rubob, arfa va do'mbiraga juda o'xshab ketadi. 1945-1947 yillarda ochilgan Tuproqqal'a saroyidagi III asrga mansub devor naqshlari va haykallar, shuningdek, shu yerdan topilgan arfa chaluvchi qiz surati qadimiy Turonda tasviriy san'at, naqqoshlik va musiqa qadimiy taraqqiyot bosqichini o'taganligidan Yorqin dalolatdir. 1938-yilda Buxorodan uncha uzoqlikda bo'lmagan Varaxsha saroyidagi II-VI asrlarga tegishli naqshlar va manzarali o'yma bezaklar ham shunday tasavvur hosil qilishga imkon beradi (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 35-37 - betlar).

2.2. Eng qadimgi og'zaki adabiyot Yodgorliklari

Dastlab og'zaki Shaklda paydo bo'lgan badiiy ijod yozma adabiyotning vujudga kelishi uchun keng imkoniyat yaratdi. Xalq og'zaki ijodiyotining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ilk yaratilgan Shaklini to'la saqlab qolmay og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'tib,

sayqallashib boradi. Shu yo'sinda badiiy ijod asarlarining turli variantlari vujudga keladi. Uzoq o'tmishda ajdodlarimiz tomonidan ijod etilgan badiiy so'z namunalarining ko'pchiligi tabiiyki, unutilib yuborilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, ba'zi tarix kitoblari, ilmiy asarlar, yozma Yodgorliklar va boshqalar ilk og'zaki badiiy ijod haqida ma'lum taassurotlarni hosil qilishimizga asos beradi. Bular Gerodot, Kteziy, Polien, Xores Mitilenskiy kabilarning tarixiy asarlari, shuningdek, o'rta asr tarixchilari Hamza Isfahoniy, Tabariy, Ma'sudiy, Beruniy, Saolibiy, Bal'amiylarning ilmiy, tarixiy kitoblari va tazkiralaridir. Mazkur tarixiy-ilmiy asarlarda xalq ogzaki ijodining ayrim namunalarining mazmuni hikoya qilingan bo'lsa, ba'zilaridan ayrim parchalar keltirilgan. Bulardan tashqari, «Avesto», «Bexustun», «Bundaxshin», «Denkard» singari yozma Yodgorliklardan ham qadimgi folklor namunalari o'rin olgan. Mashhur tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining qo'shiq, lirik She'r, maqol kabi janrlaridan namunalar keltiriladi. Qadimgi mif va afsonalar Firdavsiyning «Shohnoma»sida qayta ishlandi. Arab tilida yirik tazkira yaratgan Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimad-ad dahr" asarida (961-1038) o'sha qadimiy madaniy obidalarning namunalari keltirilgan. To'la nomi «Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr» («Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi») bo'lgan bu tazkiraning Qohira nashri 1801 sahifani tashkil etadi. Tazkira to'rt qismdan tarkib topadi. Uning oxirgi fasli O'rta Osiyoda nash'u namo topgan ijod ahliga bag'ishlangan bo'lib, ular 124 adibdir. Shulardan 48 nafari Buxoro farzandlari hisoblanadi. Buxorolik qalamkashlar zamona zayli bilan o'z asarlarini yo arab tilida yozishgan yoxud mavjud adabiy yaratmalarni arabchaga o'girish bilan shug'ullanishgan. Tabiiyki, tarjima uchun tanlangan asarlar qatorida xalq donishmandlik xazinasining noyob namunalari ham bor edi. Og'zaki ijod obidalarini yozma badiiy adabiyotga olib kirish jarayoni mumtoz adabiyotimizning aksariyat yirik hajmli asarlarida o'z ifodasini topib, takomillashgan. Ayniqsa, ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy «Xamsa»si tarkibidan joy olgan dostonlarda bunday noyob adabiy hodisa namunalarini ko'plab Uchratishimiz mumkin...

Bizgacha yyetib kelgan qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari miflar, afsonalar, qo'shiqlar, lirik She'rlar, qahramonlik eposlari va boshqa Shakldagi adabiy asarlardan iboratdir.

2.2.1. Mif va afsonalar

Tabiatning mo'jizaviy sir-u sanoatlari oldida juda ojiz qolgan ibtidoiy odamlar tabiiy hodisalar: chaqmoq chaqishi, dovul, suv toshqini, zilzila kabilardan dahshatga tushishgan, ularning kelib chiqishi, mohiyatini yetarli darajada anglashmagan. Ular osmon, yer, oy, quyosh kabilarni jonli narsalar sifatida tasavvur qilishgan. Shu bois kishilarga ofat keltiruvchi kuchlar (dushman)lardan xalos bo'lish uchun ezgulik kuchlari – (do'st)lardan madad so'rashgan, ularga topingan, ayrim hayvonlarni muqaddas deb bilishgan. Qadimgi kishilar ezgulik kuchlarini xudolar, ruhlar; Yomonlik kuchlarini esa devlar, jinlar tarzida tasavvurlarida gavdalantirishgan. Shu tariqa olamning tuzilishi, uning mohiyati, tabiiy hodisalarning vujudga kelish sabablari xususidagi ibtidoiy odamlarning xayoliy tasavvurlari mahsuli - miflar paydo bo'lgan.

Mif grekcha atama hisoblanib, so'z, rivoyatdan olingan bo'lib, dunyoning paydo bo'lishi, tabiat hodisalari, xudolar va pahlavonlar haqidagi to'qima afsonalardir. Mazkur miflar ibtidoiy odamlarning ezgulik bobidagi shirin niyatlarini o'zida badiiy ifoda etgan, ularga ruhan dalda bergan, doimo g'alabalar sari undagan. Baxt va baxtsizlik o'lkasi qahramonlari o'rtasidagi keskin kurash miflarning asosiy konflikti va mavzusi sanaladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» va boshqa ilohiy kitoblarda mohiyat e'tibori bilan shunday mavzularga uyg'un ohanglar nazarga tashlanadi.

«Avesto», shuningdek, «Bundaxshin»da aytilishicha, ikki olam: Yaxshilik va Yomonlik olami bor. Yaxshilik olamiga Ahura Mazda (Hurmuz), Yomonlik olamiga Angra Manyu (Axriman) boshchilik qiladi. Go'yo 3000 yil mobaynida bu ikki olam bir-biri bilan to'qnashmagan, olishmagan. Yaxshilik va nur olamidan xabar topgan Axriman unga qarshi kurash ochmoqchi bo'ladi. Hurmuz bu kurashning oldini olib, ikkinchi Uch ming yillikda osmon, suv, yer, o'simlik, hayvonlar kabi mavjudotlarni hamda birinchi insonni yaratadi. O'sha davrda zulm ham, kasallik va o'lim ham bo'lmagan ekan. Shundan so'ng Uchinchi davr (6000-8999) - kurash davri boshlanadi. Yer yuzi turli kuchlarning to'qnashuv maydoniga aylanadi. Axriman birinchi insonni o'ldirsa ham, kishilik urug'ini butunlay yo'qotib yuborolmaydi. To'rtinchi davr (9000-11999) da yaxshilik va nur kuchlari Yomonlik va zulmat ustidan g'alaba qozonadi. Yaxshilik va Yomonlik kuchlari o'rtasida shafqatsiz kurash manzaralari Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima (Jamshid), Gershasp, Elikbek va boshqalar obrazida mujassamlashtirilgan (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: "O'qituvchi", 1976, 43-bet).

Mitra - quyosh xudosi. «Avesto»da u bitmas-tuganmas kuchga ega bo'lgan pahlavon sifatida gavdalantiriladi. Qadimgi Turon va Eron xalqlarining mushtarak ma'naviy merosi bo'lgan «Avesto» Mirsodiq Mirsulton o'g'li Is'hoqov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda. Mutarjim ushbu muqaddas manbani o'zbekchaga o'girishda I. Steblin-Kamenskiyning ruscha tarjimasi, shu bilan bir qatorda, «Avesto» asl matni nashrlari va G'arbiy Ovrupa tillariga qilingan tarjimalariga tayanadi. «Avesto»ning M. Is'hoqov tarjimasida quyosh xudosi Mitra quyidagicha tasvirlanadi:

Mitraga topinurmiz,
Otlari serg'ayratga,
Keng tuyoqdor otliga,
Qonxo'r yov tomon yelgan
Zich saflarni Yorguvchi,
Yog'iy yurt yovlarining.

Mitra yelib borgan chog',
Qonxo'r yov sari tomon,
So'qishgan mamlakatlar
Lashkarlari oralab
So'zga xoin odamlar
Qo'lin ortidan tutar,
Ko'zlarin ko'rmas qilar,
Quloqlarin etar kar.
Oyoqlarin shol etar,
Kuchin qirqib zarbasin
So'zni buzgan yovlarning
Va el-yurt mamlakatning
Jazosin shunday berar
Yaylovi cheksiz Mitra,
Baxt uchundir namozim,
Baxt uchun ibodatim.

(«O'zbek tili va adabiyoti», 2000, 1-son, 63-bet)

Ardvi Sura Anaxita - yer, suv va unum ma'budasi. Professor M.Is'hoqovning izoh berishicha, Anaxita - Ardvi Suraning «pokiza, toza» ma'nosini anglatuvchi doimiy sifatidir. Bu sifatda Ardvi Suraning o'simliklar, nabotot homiysi, hosildorlik, farovonlikni ta'minlash ma'budasi ekanligi kabi vazifalari ham qo'shilib ketadi. Ardvi Suraning sopoldan ishlangan

haykalchalari qo’lida anor, bir tutam ko’k novda tasvirlanishi ham o’sha fazilati tufaylidir. Anohid tabiatning o’lmaslik ramzi hisoblanadi. «Avesto»da Vistarushning Ardvi Suradan Vivanxuxati daryosi oqimini to’xtatishni iltimos qilganidan so’nggi manzara asarda quyidagicha ifoda etiladi:

Ardvi Sura namoyon
Bo’ldi go’zal qiz misol.
Qurb-qudratli ulug’vor
Sarvqad bo’ychan nihol.
Go’yo ko’rkam zodagon,
Siymosidir nurafshon.
Oqizib jo’natdi-yu,
Bir zumda ikki bo’lib
Vivanxuxat suvini-
Bir qismini irg’atdi,
Bir qismini to’xtatdi.

(M. Is’hoqov tarjimasi)
(«O’zbek tili va adabiyoti», 1999, 3-son, 66-bet)

«Avesto» iste’dodli mutarjim va Shoir Asqar Mahkam tomonidan ham o’zbek tiliga o’girildi. Ushbu nusxa muqaddas kitobning 2700 yillik to’yi munosabati bilan Yuqori sifatda bosilib chiqdi. Ancha batafsil sharq-u izohlar bilan ta’min etilgan (umumiy hajmi 53 b.t. ziyodroq) «Avesto»ga professor T.Mahmudov kattagina so’ng so’z yozgan.

Kayumars afsonasi. Qadimgi Turon va Eron xalqlari orasida keng tarqalgan Kayumars afsonasining mufassal bayoni va uning turli nusxalari haqida Abu Ja’far Muhammad bin Jariy Tabariyning «Ta’rixi Tabariy» asarida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, Firdavsiyning «Shohnoma», Beruniyning «O’tmish avlodlardan qolgan Yodgorliklar», Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» asarlarida ushbu afsonaning tafsilotlarini Uchratish mumkin. Professor S.P.Tolctovning «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab», adabiyotshunos N.M.Mallayevning «O’zbek adabiyoti tarixi», hamda besh tomlik «O’zbek adabiyoti tarixi» kitobining I tomida (Toshkent, 1977) ushbu qadimiy afsona haqidagi ilmiy mulohazalar o’z ifodasini topgan. Olimlarning fikricha, Kayumars afsonasining asosiy manbasi «Avesto»dir.

N.Mallayev Kayumarsni Gaya Martan yoki Gavomard (ho’kiz kishi) deya atalganligini e’tirof etib, mifalogiyaga ko’ra, u Ahura Mazda tomonidan Yer yuzida yaratilgan ilk odam ekanligini qayd qiladi. Tadqiqotchi Kayumarsning ikki vujud: ho’kiz va odamdan tarkib topganligini aytib o’tib,

uni insoniyatning ashaddiy dushmani bo'lgan Axriman tomonidan o'ldirilishi, Kayumars jasadining ho'kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o'simlik, sigir va ho'kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo'lgani, odam qismidan esa insonning erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga kelganligini bayon etadi (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: "O'qituvchi", 1976, 45-bet).

Beruniy ham «O'tmish avlodlardan qolgan Yodgorliklar» asarida Kayumars afsonasining variantlari xususida to'xtaladi. Olimning fikricha, Kayumarsning «Girshoh» («Tog' podshohi») va Gilshoh («Loyshoh») degan laqablari bo'lgan. Kayumars afsonasining Beruniy asaridagi tafsilotlari N.Mallayevning mulohazalari uchun ham asos vazifasini o'tagan ko'rinadi. Afsonada hikoya qilinishicha, Axrimanning (iblis) Yomon qilmishlaridan xudo ham hayratda qoladi va Qodiri qudratning peshonasidan ter chiqadi. Shoda-shoda ter tomchilari artib tashlanganda, ulardan Kayumars tug'iladi. Xudo Kayumarsni Axriman yoniga jo'natadi. Kayumars Axriman yoniga yetib kelib, uning yelkasiga minib oladi va shu holda dunyoni aylana boshlaydi. Nihoyat, Axriman bir hiyla bilan Kayumarsni yelkasidan uloqtirib tashlaydi va uni ustiga minib olib eyajagini aytadi. Seni qaysi tomoningdan boshlab eyayin, - deya so'raydi Ahriman. Oyoq tomonimdan, deb javob beradi Kayumars va ilova qiladi: tokim bosh qismimga yetguningcha dunyo go'zalligidan uzoqroq bahra olib turayin. Ammo Kayumars Ahrimanning o'zi aytgan gapning teskarisini qilishini bilar edi. Ahriman Kayumarsni bosh tomonidan eya boshlaydi. Beliga yetganda, Kayumarsning urug'donidan ikki dona urug' yerga tushadi va ulardan o'simlik o'sib chiqadi. O'sha o'simliklardan esa bir o'g'il va bir qiz (Meshi va Meshona) paydo bo'ladi. Forslar ularni Odam va Momohavo deb biladilar. O'sha mo'jizaviy odamlar Yana Malhi va Malhiana deb ham atalganlar. Xorazmliklar esa ularni Mard va Mardona deb ataydilar (O'zbek adabiyoti tarixi. 5-tomlik. 1-tom. Toshkent: "Fan", 1977, 26-bet).

Jamshid afsonasi. Jamshid haqida Firdavsiy, Tabariy, Beruniy, Navoiy kabi shoir va olimlarning asarlarida qiziqarli ma'lumotlar beriladi.

N.M.Mallayev «Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti» nomli kitobida Jamshid haqidagi mulohazalarini bayon etarkan, uning «Avesto»da Yima nomi bilan atalganligini qayd etadi. Olimning fikricha, yetti yuz yil hukmronlik qilgan Jamshid zamonasida kishilar Ahrimanning zulmidan qutiladilar, muhtojlik, kasallik va o'lim yo'qolib ketadi. Yana shu kitobda qayd etilishicha, Yima adolatli hukmdor bo'lib, uning davrida qahraton sovuq va jazirama issiq, qarish va o'lish ham bo'lmagan ekan. Jamshid yer yuzini Uch baravar kengaytiradi, chorva mollari va turli xil qushlarni ko'paytiradi. Biroq qahraton

qish boshlanib, kishilarga ofat keltiradi. Qish o'tib qor va muzlar erib, yaylovlarni suv bosadi. Shunda Jamshid yana najotkorlik ko'rsatadi. U katta g'ovlar qurib, kishilarni va ularning mol-mulkini suv toshqinidan saqlab qoladi, uy-joylar quradi, ariqlar ochadi (Mallayev N. Navoiy va xalq ijodiyoti. Toshkent- 1974. 99-100-betlar).

Xalqimizning qadimiy bayramlaridan Navro'zning tantana qilinishi ham Jamshid nomi bilan bog'liqligi afsonalarda o'z ifodasini topgan. Hikoya qilinishicha, Navro'z Jamshidning Ozarbayjonga safar qilgan kuni emish. Jamshid u yerga kelgach, o'ziga bir shohona taxt yasattirib, turli qimmatbaho toshlar, dur-u javohirlar bilan bezatilgan tojini boshiga kiyib, taxtiga o'tiribdi. Bu orada quyosh chiqib, oftobning nuri Jamshidning toji bilan taxtiga tushibdi. Birdan butun tevarak atrof munavvar bo'lib ketibdi. Bu mo'jizani ko'rib, hayratlangan el-ulus Jamshid taxtiga o'tirgan o'sha kunni Navro'z, ya'ni yangi kun deb bayram qilgan ekan («Navro'z». Tuzuvchilar: T. Mirzayev, M. Jo'rayev. Toshkent: "Fan", 1992, 19-bet).

Gershasp afsonasi. Afsonalarda Gershasp obrazi xalqni ofatlardan qutqaruvchi qahramon sifatida tasvirlanadi. Shulardan bizgacha yetib kelgan Gershasp haqidagi bir afsonaning mazmuni quyidagichadir:

Bir ajdar kishilarga ko'p baxtsizlik keltiradi, qabilaning hayoti xavf ostida qoladi. Qahramon Gershasp ajdarga qarshi jangga otlanadi va ajdarning maskaniga qarab yo'l oladi. Gershasp tush chog'iga qadar ajdarni qidiradi, biroq uni topolmaydi. U o't yoqib, ovqat pishirmoqchi bo'ladi. Ajdar shunchalik katta ekanki, Gershasp ancha vaqt uxlab yotgan ajdarning ustida aylanib yursa ham, uni payqamabdi va o'chog'ini uning ustiga qurgan ekan. O't ajdarning badanini qizdiribdi va u vazmin qimirlay boshlabdi. Shundan so'nggina Gershasp ajdarning ustida kezib yurganini payqab qolibdi. Lekin Gershasp vahima va sarosimaga tushmabdi. U bu ulkan va dahshatli maxluqqa qarshi jang boshlabdi, qurollarini mohirlik bilan ishlatibdi, ajdarni yyengib, kishilarni uning halokatdan qutqaribdi (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi Toshkent: "O'qituvchi", 1976, 46-bet).

Elikbek afsonasi. Elikbek obrazi ham xalq afsonalarida Gershasp singari qahramon sifatida gavdalantiriladi. Bu afsona 1902-yilda Qoshg'arda qadimgi og'zaki adabiyotning «Chistoni Elikbek» degan muhim bir Yodgorlik matni kashf qilinishi bilan og'izga tushadi. Olimlarning fikricha, bu afsona matni taxminan VIII-IX asrlarga mansubdir. «Chistoni Elikbek» A. Fitratning «O'zbek adabiyoti namunalari» kitobidan ham o'rin olgan. «Chistoni Elikbek»ning to'la matni saqlanmagan, uning bizgacha yetib kelgan matnida quyidagilar bayon etilgan:

Jinlar Elikbekning qabiladoshlaridan ko’p kishini qirib tashlaydi. RakShosh nomli dahshatli dushman (ehtimol dev bo’lsa kerak) el orasida yuqumli kasallik tarqatadi. Fidokor Elikbek el-yurtni ofatdan qutqarib qolmoq uchun dushmanlarga qarshi jangga otlanadi. U bir chorrahada son-sanoqsiz jinlarga duch keladi. Ular kishilarni burdalab, qonlarini ichib, ichak-chavoqlarini badanlariga o’rab olgan ekanlar. Elikbekni ko’rgan jinlar vahimali shovqin-suron ko’tarib, unga yopirilib kela boshlaydilar. Biroq Elikbek bunday vahimadan qo’rqmaydi. Yo’lbarsdek jangga tashlanib, jinlarga qarata bunday deydi: «Ey jinlar, menga rost so’zlangiz, mening Shahrimdagi elni nega o’ldirasiz?! Mening bu o’tkir qilichimni ko’ring. Tanalaringizni burdalab, boshqa-boshqa tomonlarga tashlayin”. Jinlar yana vahima solib, qurol ishlatib, Elikbekni mavh qilmoqchi bo’libdilar. Biroq Elikbekka bas kela olmaydilar. Elikbek kuch-quvvati va shijoati bilan ularga dahshat soladi. Jinlar endi yolvorishga, Elikbekdan shafqat so’rashga majbur bo’ladilar. Jinlarni yenggan Elikbek ulardan Shaharning janub tomonida bir azim tolning kavagida yashovchi Uch ko’zli, olov tusli RakShoshning el-yurtga yuqumli kasal tarqatayotganligini bilib olib unga qarshi jangga jo’naydi (O’sha kitob 46-47-betlar).

Matnda Elikbekning RakShoshga qarshi kurashi tafsilotlari keltirilmagan bo’lsa-da, undagi ko’tarinki ruh, hissiyotning Yuksakligidan Elikbekning mardonavor kurashi natijasida g’alaba qozonganligini bilib olish qiyin emas.

Xubbi afsonasi. Turon xalqlari og’zaki ijodida kishilarning orzu-intilishlarini o’zida ifodalagan, ularga ruhan tetiklik bag’ishlab, qahramonlik ko’rsatishga undagan ko’plab afsonaviy qahromonlar obrazi yaratilgan. Shunday obrazlardan biri Xorazm mifalogiyasiga ko’ra suv xudosi sifatida talqin qilingan Xubbidir. Farg’ona vodiysida ham shu obrazga o’xshash Erxubbi haqida afsonalar mavjud. Quyida Xorazmda keng tarqalgan Xubbi afsonasining qisqacha mazmuni keltiriladi:

Juda qadim zamonlarda, Faridun va hatto Jamshid zamonasidan burun, Amudaryoda Xubbi degan bir yigit bo’lgan ekan. U bir qo’li bilan baliq tutar, ikkinchi qo’li bilan uni quyoshga tutar, baliq bir zumda pishar ekan. Xubbi shu xilda baliq yeb, Amudaryoda 700 yil yashabdi, daryoni qo’riqlabdi, biror Yomon ruh, hattoki, chivin ham daryoga yaqin yo’lashga botinolmabdi. Xalq suvga ma’mur bo’lib, shod-xurram yashar ekan. Biroq Jamshid zamonasiga kelib, Xubbi g’oyib bo’libdi. Kishilar uni osmon suvlari hukmroni bo’lgan qiz o’g’rilab olgan, deb faraz qilibdilar. Xubbi g’oyib bo’lgandan keyin Amudaryoga uning onasi kelibdi. U birinchi bo’lib qayiq yasabdi, kishilarni qayiqda suzish va dushmanlarga qarshi suvda jang qilishni o’rgatibdi. Biroq

kunlardan bir kun Xubbining onasi ham g’oyib bo’libdi. Lekin kishilar o’z homiylarini, Xubbi va uning onasini unutmabdilar. Ular qayiqlarda Xubbining onasi qiyofasini tasvirlabdilar... (O’sha kitob 63-bet).

Turon xalqlari folklorida qadim zamonlarda Yuqorida ko’rib o’tganimiz singari juda ko’p mifologik afsonalar yaratildi. Ular ma’lum ma’noda qahramonlik eposlarining vujudga kelishiga zamin hozirladi. Mifologik afsonalar yozma adabiyotda qayta ishlanib, yangicha mohiyat va mazmun kasb etib, insoniyat avlodiga Yuksak zavq, Vatanga, Ona-zaminga muhabbat va qahramonlik tuyg’ularini Shakllantirib yashashda davom qildi.

2.2.2. Qo’shiqlar va lirik She’rlar

Turon xalqlarining qadimgi qo’shiq va lirik She’rlaridan namunalar “Avesto”, “Devonu lug’otit turk” singari yozma manbalar bag’rida bizgacha yyetib kelgan. Ayniqsa, «Devoni lug’otit turk»da qadimgi turkiy xalq va qabilalarga oid badiiyat namunalari o’z ifodasini topganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Asar muallifi mashhur tilshunos olim Mahmud Qoshg’ariy ko’plab turkiy so’zlarning lug’aviy ma’nolarini izohlash uchun xalq og’zaki ijodi va qisman yozma adabiyot namunalaridan foydalangan.

«Devonu lug’otit turk»da keltirilgan She’riy parchalarning aksariyati uzoq o’tmishda zakovatli ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan Yuksak badiiy zavq va tafakkurning nodir mahsulidir. Ularning matni va ifoda uslubida juda ko’p qadimiy so’zlarning Uchrashi, arabcha kalima va islom diniga oid e’tiqodiy qarashlarning aks etganligi mazkur parchalarning qadimiyligidan dalolat beradi. Xuddi shunday fikrni Alp Er To’nga (AfrOsiyob)ga bag’ishlangan parchalar xususida ham aytish joizdir. (Bu haqda yana mufassal ma’lumot olish uchun murojaat qilinsin: Abdurashid Abdurahmonov. Alp Er To’nga. Toshkent, «Fan» - 1995, 4,1 bosma taboq; Yana Alp Er To’nga yoki AfrOsiyob jangnomasi. Toshkent, “Cho’lpon” – 1995, 2,0 bosma taboq). Devondagi She’riy parchalar g’oyaviy yo’nalishi va mavzusi jihatidan g’oyat rang-barangdir. Adabiyotshunos N.Mallayev Mahmud Qoshg’ariy asarida tez-tez ko’zga tashlanadigan «Qish bilan yoz munozarasi», «Ov» kabi badiiyat namunalarini kattaroq hajmdagi epik asarlarning parchasi bo’lishi mumkin, degan xulosaga keladi. Olimning shunday taxmini haqiqatga yaqin bo’lib, «Devonu lug’otit turk» tarkibida o’shanday xususiyatga molik parchalarning yana ko’plab Uchrashi Yuqoridagi fikrni quvvatlantirishga xizmat qiladi. Olim o’rinli ta’kidlanganidek: «Lirik turda esa mehnat qo’shiqlari,

qahramonlik qo’shiqlari, mavsum qo’shiqlari va marosim qo’shiqlari, ishqiy-intim She’rlar va boshqa janrlardagi asarlar yaratilgan hamda didaktik poeziyaning dastlabki namunalari axloqiy-ta’limiy She’rlar, maqol va hikmatli so’zlar vujudga kelgan» (O’sha kitob 63-bet). Devon muallifi «shoir so’zi budur», «donolar bunday deydi» kabi ta’kidlarni keltirish bilan ko’chirilgan iqtibosning yozma adabiyotga tegishli ekanligini ko’rsatishni nazarda tutgan bo’lishi mumkin. Ko’pchilik olimlar devondagi She’riy parchalar barmoq vaznida yozilganligini e’tirof etadi. Qo’shiq va lirik She’rlar asosan to’rt, ba’zan esa ikki misradan tarkib topgan bo’lib, to’rtliklar «a-a-a-b», «c-c-c-b» ... Shaklida qofiyalangan. Devonda keltirilgan She’riy parchalar orasida ilmiy va axloqiy-ta’limiy mohiyat kasb etadiganlari salmoqli o’rin tutadi. Ular ko’proq ikkilik Shaklida Uchraydi:

Undab ulug’ tabaru tavraq kelib jugurgil,
Qurg’aq jilin buzun ko’r qanda tushar qudi il.

Mazmuni:

Seni katta Yoshli odam chaqirsa, unga chopib bor,

Ochlik yillarida xalqing qayerga borishini kuzat,

U qayerga borsa, sen ham o’sha yerga bor. Xalqingga kelgan har qanday musibatlarda ularga mos bo’l (Mahmud Qoshg’ariy, Devonu lug’otit turk. II tom. Toshkent, 1963, 76-bet).

Ushbu She’riy parchada kishilar birlik, totuvlikka da’vat etiladi. Hayot sinovlaridan har kimning o’z xalqi bilan birgalikda muvaffaqiyat qozonishga chaqiriladi. Undagi g’oya bugungi kunimiz uchun ham muhim ahamiyatga ega bo’lib, umrboqiylik kasb etmoqda. Devonda ilmiy va axloqiy-ta’limiy xususiyatga ega bo’lgan to’rt misrali She’riy parchalar ham mavjud:

Yaj ko’rkina inanma
Suvlar uza tajanma
Esizligig anunma
Tilda(n) chiqar ezgu so’z.

Mazmuni:

Bahor ko’rkiga, uning rang-barang gullariga, chiroyliligiga ishonma, undan yaxshilik umid qilma. Suvga tayanma, chunki dunyo ne’matlarining shirinligiga, bahor go’zalligiga suyangan kishilar suvga suyanganlar kabidir. Yomonlikka otlanma. Tilingdan xalq sendan doim minnatdor bo’ladigan yaxshi so’zlar chiqar (O’sha kitob, 176-bet).

«Devonu lug’otit turk»dagi mehnat qo’shiqlari ovchilik, chorvachilik, bog’dorchilik va dehqonchilik bilan bog’liq jarayonlarni badiiy ifoda etadi. Shuningdek, undagi ayrim adabiy parchalar qabilalar o’rtasidagi jang

tafsilotlari va qabila bahodirlarining mardonavor kurashi tasviriga bag’ishlangan. Bunday qo’shiqlar rajaz deb ataladi. Rajaz - aruz bahrlaridan birini anglatadi. Dastlabki qo’shiqlarda barmoq bilan birga aruz namunalari ham nazarga tashlangan. Ikkinchidan, jang paytida aytiladigan, janggovarlikka, mardonavorlikka undovchi qo’shiqlar ham shu istiloh (rajaz) bilan yuritilgan. Quyidagi parchada dushmandan qasos olishga da’vat ohangi yaqqol nazarga tashlanadi:

Tong atarla jortalim
Buzruj kanin irtalim
Jasmil begin ortalim
Emdi jugut juvulsun.

Mazmuni:

Tong otishi bilan yo’lga tushaylik.

Buzrujning qonini (xunini) talab qilaylik (uning uchun o’ch olaylik), u yaqubalardan edi, o’ldirildi.

Basmillar begini yondiraylik.

Endi yigitlar to’planishi zarur (O’sha kitob, 367-bet).

Bunday She’rlar ba’zan urjuzalar deb yuritilgan. Urjuzalar ham rajaz bahrida yaratilgan va o’ziga xos talablarga ega bo’lgan. Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino bu sohada ancha ibratli ijod qilgan. Undan bizgacha o’nlab tibbiy urjuzalar (dostonlar) yyetib kelgan (Qarang: Abu Ali ibn Sino. Urjuza yoki 1326 bayt tibbiy o’git. Toshkent. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti – 1999, 160 bet).

«Devoni lug’otit turk»dagi og’zaki adabiyot namunalarining ko’pi mavsum qo’shiqlari va tabiat manzarasiga bag’ishlangan She’rlardir. Bular orasida «Qish bilan yoz munozarasi» alohida ahamiyat kasb etadi. «Devon»dagi «Qish bilan yoz munozarasi»da qishda qadimgi kishilarning qiynalganligi, issiq kunlar kelishini orziqib kutganligi o’zining badiiy ifodasini topgan. Nazarimizda, kishilar qadimda ezgulik va yomonlik kuchlari mavjud deb tasavvur qilganliklari singari yil fasllarining ham qish va yozdan iborat deb tushunishgan. Ayni choqda qish - Yovuzlik, yoz esa - ezgulik ramzi sifatida talqin etilgan. Quyosh zarrin nurlarining yer bag’rini qizdirishi Yovuz kuchlarning yyengilishini anglatgan. Shu bois yoz tasviriga aytilgan parchalarda, xususan, qishning savollariga berilgan javoblaridagi his-tuyg’u, ehtirosning Yuksakligi uning g’alaba qozonishiga qat’iy ishonchidan dalolat beradi. M.Qoshg’ariyning «Devoni lug’otit turk» asarida turkiy so’zlar ma’nosini arabchada izohlash mayli ham seziladi. Muallifning bunday urinishi «Qish va yoz munozarasi»ga doir to’rtliklarda ravshanroq kuzatiladi.

Olimlarimiz ushbu to’rtliklarni ma’lum tartibga keltirib, qadimgi munozara namunalarini tiklashga harakat qilganlar. Jumladan, N.Mallayevning Respublikamiz oliy maktab talabalariga mo’ljallangan darsligida xuddi shunday holat kuzatiladi:

Qish yoy bila to’qushti
Qingir ko’zunug’ baqishti
Tutishqali yaqishti
Utg’olimat o’g’rashur.

Mazmuni:

Qish yoz bilan to’qnashdi
Qing’ir (yomon) ko’z bilan bir-biriga qarashishdi.
(Bir-birini) tutib olishga intilishdi,
(Bir-birini) yutishga tirishar edilar.

Yana:

Yoy qish bila qarishti
Ardam yosin qurishti
Charik tutib ko’rushti
O’qtag’ali o’trushur.

Mazmuni:

Yoz bilan qish qarama-qarshi bo’lishdi,
(Ularning har biri) maqtanish yoyini qurishdi.
Qo’shin tuzib, (bir-birini) ta’qib qilishdi,
(Yoy) otish uchun bir-biriga yaqinlashishdi.

Yana:

Qish yoyg’iri suvlanur,
Er at manin yavruyur,
Iqlar ema savruyur,
At yin taqi tagrishur...
Sanda qo’par chazanlar,
Quzg’u singak, yilonlar
Duk ming quyu tumanlar
Quzruq tikrib yugrashur.

Mazmuni:

Qish yozga qarshi baqirib-chaqirib so’z boshladi:
Odamlar va qora mollarning eti menda pishadi, mustahkamlanadi.
Menda kasal kamayadi,
Odamlarning go’shtlari qotadi, o’zlari quvvatli bo’ladi...

Sanda ko’payar chayonlar
Chivinlar, ilonlar, pashshalar.
Minglab, tumanlab
Dumlarini qayirib izg’ishadi.

Muhimi shundaki, She’riy parchalarda qish va yozga xos manzaralar ancha rangin, ifodali va ta’sirchan ifodasini topadi. Bunday parchalarning e’tiborga molik yana bir jihati tabiat chizgilarining insonlar taqdiri bilan uzviy vobastalikda berilishida ravshan namoyon bo’ladi. Yoz tasviri badiiy ifodalangan misralarda zavq-u shavq ohangi baland bo’lsa, qish tasvirida uning ziddi ko’zga tashlanadi. Buni quyida keltiriladigan misollarda ham oydin his qilishimiz mumkin.

Balchiq baliq yugurulur,
Jig’oy Yovuz yigrulur,
Aringaklari ug’rulur,
O’zgUch bila avrishur.

Sanda qachar sundilach,
Manda tinar qarlig’ach,
Tatmag’ o’tar sunduvach,
Erkak tishi Uchrashur...

Mazmuni:

Loy-balchiq hamma yoqni qoplaydi,
Kambag’al, yupun kishilar qiynalib, mashaqqat chekadilar.
Barmoqlari sovqotib,
Og’iz yeli bilan (puflab) isitadilar.
Sa’va sendan qochadi,
Menda qaldirg’och rohatlanadi.
Bulbul nag’masi sevintiradi,
Menda (yozda) erkak va urg’ochi juftlashadi.

Yana:

Turli chyechak yarildi,
BarChin yazim qarildi,
Uchmoq yari ko’ruldi,
Tumlug’ yana kalgusuz
Qush qurt qamug’ tirildi...
Yinqa yana kirgusuz.

Mazmuni:

Turli chyechaklar ochildi,
(Yerga xuddi) chiroyli gilamlar to’shalganday.
Jannat yeri ko’rindi,
Sovuq qaytmas bo’lib ketdi.
Hamma qush va qurtlar tirildi...
Endi ular qorong’u inlariga qaytib kirmaydi.

«Devoni lug’otit turk»dan o’rin olgan bunday qo’shiq va She’rlar Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi turkiy xalqlarning mushtarak Yodgorliklaridir.

2.2.3. Qahramonlik eposi.

Turon zaminida yashagan xalqlar og’zaki ijodida vujudga kelgan qahramonlik yo’nalishidagi mif va afsonalar shu sarzaminda bahodirlik g’oyalari yo’g’rilgan ertak va dostonlarning Shakllanishida zamin hozirladi. Turkiy xalqlar folklorida qahramonlik eposi moziyning juda qadim qatlamlarida paydo bo’lgan. Eramizdan oldingi davrlarda yashagan yunon tarixchilari turkiy xalqlar og’zaki ijodining ertak, rivoyat, afsona singari janrlari mavjudligini o’z asarlarida e’tirof etishgan va ulardan ayrimlarining qisqacha mazmunini yozib qoldirishgan. Qahramonlik eposining ko’pgina namunalari muayyan tarixiy voqealar, aksariyat hollarda Turon xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor, qahramonona va fidokorona kurashi zaminida maydonga keladi. Shu bois ularda mifologik asarlarda bo’lgani singari tabiat Yovuzliklariga emas, balki ijtimoiy illatlar, zulm va zo’ravonlikka qarshi kurashgan Shiroq, To’maris, Zarina, Rustam, Siyovush va shunga o’xshash vatanparvar, fidoiy, mard va bahodirlar obrazi yaratiladi.

To’maris rivoyati. «To’maris» – mustahkam irodali , jasur va jangovar hukmdor ayol haqidagi qadimgi rivoyatlardan biridir. Yunon tarixchisi Geradotning (484-425) «Tarix» kitobida qisqacha mazmuni keltirilgan bu rivoyatda Eron shohi Kir bilan Turon zaminida istiqomat qilgan massagetlar qabilasi o’rtasida yuz bergan jang tafsilotlari o’z ifodasini topgan. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha:

(Hazar) Kaspiy dengizidan sharq tomonga qarab davomsiz tekislik cho’zilgan bo’lib, uning katta qismini massagetlar egallashgan ekan. Ahmoniy podshosi Kir ana shu massagetlarga qarshi urush boshlashni xohlab qoladi. O’sha yillarda massagetlarni ayol kishi - To’maris boshqarar edi. Kir To’marisni o’ziga xotinlikka olmoqchi ekanini aytib, massagetlar qabilasiga

elchi yuboradi. To’maris uning shum niyatini bilib, elchilarga javobini beradi. Shundan keyin Kir Araks daryosiga qarab yuradi va daryo ustiga ko’prik qura boshlaydi. Buni ko’rgan To’maris Kirga quyidagi xabarni yuboradi: «Biz bilamizki, sen tinchlikni xohlamaysan, basharti aytgan maslahatimizga kirmasang, massagetlar bilan to’qnashishni istasang , ko’prik yasayman deb ovora bo’lib o’tirma. Bizga aniq masadingni aytsang, biz senga xalaqit bermay, daryodan Uch kunlik yo’lga ko’chib ketamiz. Sen bemalol daryodan o’tasan. So’ng yuzma-yuz jangga kiramiz. Bordi-yu sen daryoning o’zing turgan qirg’og’ida urushmoqchi bo’lsang, uni ham ochiq ayt, bunga ham biz rozi, faqat nomardlik qilma!»

To’maris tanti kurashga shaylanadi. Kir esa hiyla-nayrang yo’liga o’tadi. U To’marisning o’g’li Sparganis boshliq bir guruh massagetlarni mast qilib, asir oladi. To’maris g’azab bilan: «Ey, qonxo’r Kir! Qilgan ishing bilan maqtanmay qo’yaqol! Sen mening o’g’limni yuzma-yuz jangda yengganing yo’q, uni makkorlik bilan sharob ichdirib qo’lga tushirding... Endi mening nasihatimga quloq sol, o’g’limni menga topshirib ziyon-zahmatsiz kelgan yeringga jo’nab ket... Agar so’zimga kirmasang, massagetlar tangrisi Quyosh nomi bilan qasamyod qilamanki, men senday ochko’z yuhoni qon bilan sug’oraman», - deydi.

Kir bu so’zlarga ahamiyat bermaydi. To’maris o’g’lining mastligi tarqab, o’ziga kelib, voqeani anglaydi va Kirdan qo’lini kishandan ozod qilishini so’raydi. Qo’li bo’shatilgach, u o’zini-o’zi halok etadi.

To’maris Kirga qarshi jangga otlanadi. Qo’shinlar o’rtasida og’ir va shiddatli urush boshlanadi. Raqiblar oldin bir-biriga yoy otishadi, keyin nayzabozlik va qilichbozlik qilishadi. Uzoq davom etgan qonli jangda massagetlar g’alaba qozonadilar. Ahmoniylar qo’shinining ko’p qismi qiriladi. Kirning o’zi ham halok bo’ladi. To’maris bir meshni inson qoni bilan to’ldiradi va Kirning kallasini qonli meshga tiqib, shunday deydi: «Sen makkorlik bilan meni o’g’limdan judo qilib, qayg’uga solding. Men o’z ontimga amal qilib, seni qonga to’ydirdim».

«To’maris» fojeaviy voqealari markazida farzandi o’limidan g’azablangan ona siymosi tursa-da, rivoyatda ijtimoiy ruh ham balanddir. Unda qabiladoshlarini bosqinchilar zulmidan ozod qilish, erkin va farovon hayot uchun kurash, muqaddas Ona- zamin osoyishtaligini muhofaza qilish g’oyasi yetakchilik qiladi. Shuningdek, rivoyatda asosiy qahramon To’marisning mustahkam irodasi, jangdagi tadbirkorligi va matonati ham o’zining Yorqin ifodasini topgan. To’maris jasur va matonatli ayol shijoatining, Ona-Vatanga cheksiz sadoqatning ramzi sifatida asrlar osha

insonlar qalbiga ezgulik urug'ini parvarishlab keldi va bu jonso'z rivoyat yozma adabiyotda qayta ishlandi. Jumladan, yozuvchi Mirkarim Osimning «To'maris» hikoyasi fikrimizning Yorqin dalilidir. Mazkur asar IX sinf adabiyot darsligidan ham o'rin olgan.

Mirkarim Osim rivoyatni qayta ishlarkan, dastlab cho'lga tashrif buyurgan bahor fasliga o'quvchi e'tiborini jalb etadi. Ko'klamdan masrur to'rg'aylarning osmonda parvoz etishi, rango-rang kapalaklarning parvozi, chyechaklarning xushbo'y hididan sarmast bo'lish bilan bog'liq tafsilotlar beriladi. Sahroyi azimga bahorning tashrifi mazkur hududlarda istiqomat qilayotgan insonlarga behad shodlik va tarovat hadya etadi. Biroq hayot faqat xursandchilik va ko'ngil xushligidan iborat emasligini yozuvchi qizg'ish qo'ng'ir bir ilonning o't orasidan o'rmalab kelib, atrofni tomosha qilgandek qaqqayib turgan yumronqoziqqa tashlanishi orqali ifoda etishga erishadi. Bu bilan adib odamlarni ogohlikka da'vat etgandek bo'ladi. Yozuvchi majoziy ishoralar orqali o'quvchi diqqatini To'maris momo voqealariga tortadi. Qaqqayib turgan yumronqoziq hikoyada Sparangis tarzida berilgan. To'marisning o'g'li Sparganis bo'lib, unga tashlangan ilon yozuvchi talqinida Kayxusrav, ya'ni ahmoniy hukmdor Kir timsolidir.

Yozuvchi kitobxonni massagetlar turmush tarzi bilan tanishtirish, uzoq o'tmishda yashagan qabilaning e'tiqodiy qarashlari haqida ma'lumot berish maqsadida to'y, kurash, elchilarni qabul qilish, tabiat injiqliklari, jumladan, qum bo'roni, jang tafsilotlari singari lavhalarning badiiy tasvirini mahorat bilan chizgan. To'maris momo davri ayollariga xos noyob fazilatlar esa Shak qabilasiga mansub Zarina obrazi vositasida tasvirlanadi. Yozuvchi bu obrazni tanlashda, nazarimizda, Zarina va Striangiya eposiga tayangan ko'rinadi. Mazkur rivoyat haqida quyida alohida to'xtalamiz.

To'maris Sparganisni Shak qabilasidan bo'lgan suluv Zarinaga uylantirish taraddudi bilan mashg'ul bo'lib, kelinni boshlab keluvchi quda-qo'noqlarni kutardi. Nihoyat, chopar mehmonlarning kelayotganidan xabar beradi. Shaklar massagetlar tomonidan iliq kutib olinadi, atrofi soyabon bilan o'ralgan aravalar sayhon joylardagi guldor namatlar ustidan ularga joy beriladi. Taomilga ko'ra, qo'y terisidan qilingan supralarda pishirilgan go'sht, meshlarda qimiz tortiladi. Kun botardan keyin kelin va uning dugonalari ham yetib kelishadi. Kuyov bilan kelinni ular uchun belgilangan soyabonli aravaga chiqarish oldidan udumga ko'ra, kurashga da'vat etiladi. Ayni lavhalar hikoyadagi eng qiziq sahifalardan biridir. Bunda Zarinaning jismonan baquvvatligi ko'zga tashlanadi. U ikki marta Sparganisni uloqtirib yuboradi hamda chalib yiqitishga harakat qiladi. Ammo Sparganis ham nimjon

yigitlardan emasdi va bo’sh kelmaydi. U kurashda kelinni yengadi. Yangalar suluv kelinchakni ovutish maqsadida: «Yarash-yarash», - deya baqiradilar. Bunday sahifalar orqali yozuvchi bu o’lka ayollari tabiatida jasorat, bahodirlik kabi fazilatlar tasodifiy bo’lmay, qonida borligi va mashqlar orqali Shakllantirib borilganini urg’u bilan ko’rsatishga erishadi. Shuningdek, hikoyadagi Eron shohi Kayxusravning To’marisga uylanish haqidagi taklifini massagetlar malikasiga yyetkazish uchun kelgan elChining: «Tavba, ayol kishi ham qurol taqadimi?» - deya hayratlanishi ham Yuqoridagi fikrni yanada quvvatlantiradi. Shuningdek, To’marisning qat’iyatli ayol ekanligini adib uning elchiga qarata aytgan quyidagi so’zlarida mahorat bilan tasvirlagan: «Hukmdoringga borib: «To’maris senga xotin, ulusi senga qul bo’lishni istamas ekan»,- deb ayt. Agar Shahanshoh bizga mehmon bo’lib kelsa, yaxshilab ziyofat qilamiz, oyog’iga qirq qo’chqor so’yamiz. Ammo qilich bilan kelsa, bari lashkarlarini qirib tashlab, ularning qonini o’ziga ichiramiz». Bu massagetlar hukmdorining ulusi oldidagi qasamyodi edi.

Kayxusrav kutilganidek, massagetlar o’lkasiga mehmondorchilik uchun emas, yurtni talash, boylik orttirish maqsadida kelishga harakatlar qila boshlaydi. To’marisning ayg’oqchilari Kayxusravning katta qo’shini O’kuz (Amudaryo)dan o’tish uchun ko’prik yasashga kirishganliklari haqida xabarni keltiradi. Hikoyada To’marisning jang ko’rgan dono chollar, ayollarni da’vat etib kengash chaqirganligi o’z ifodasini topgan. Unda Sparganis chollardan birining ko’prik qurayotgan eroniylarning o’sha yerda o’q-yoy bilan qurollangan merganlar bilan qirib tashlash haqidagi taklifini rad etadi. U: «Bunday qilsak, xorazmiylar, Yaksartning naryog’idagi Shaklar nima deydilar, bilasizmi? Massagetlar eroniylar bilan to’qnashishdan qo’rqib, ularni daryodan o’tkazmadilar, uzoqdan ularni o’qqa tutib ko’priklarini, sollarini buzib tashladilar, deb ayyuhannos uradilar», - deydi. Ayni lavhalar rivoyatda ham bor. Mirkarim Osim ham unga murojaat etadi. Muddao esa yagona: mard xalq va uning jasur yo’lboshchisi hiyla va notantilikka qarshidir. G’alaba halollik va shijoat bilan qo’lga kiritilmog’i zarur!

Mirkarim Osim asaridagi Sparangisning Kayxusrav tomonidan hiyla bilan asir olinishi va ular o’rtasidagi o’ta ziddiyatli munozara tasviri To’marisning o’g’liga bo’lgan Yuksak muhabbatidan darak beradi. Sparangisning o’limi oldidan Kayxusravga qarata: «Kuling-a, kuling... ko’p o’tmay yig’laysiz. Hiyla va makrlaringiz endi ish bermaydi, arslon terisini yopingan tulkilar...», - deya qat’iyat ko’rsatgani va ko’ksiga yaltiroq pichoqni sanchishi uning mardligidan so’zlaydi. Yozuvchi Sparangis qahramonligini uning dushmani tilidan quyidagicha tasvirlaydi: «Mard yigit ekan,- dedi

Kayxusrav bir ozdan keyin,- o'limni nomusdan afzal ko'rdi. O'lmaganda, ehtimol, ulug' sarkarda bo'lar edi».

Sparangining o'limi To'marisni qayg'u-alamlar iskanjasida qoldiradi. Zarina sochlarini yulib yig'lasa, To'maris qayg'usining zo'rligidan yig'lay olmasdi. O'g'lidan ajralgan To'maris Mihra (Mitra)ga iltijo qilib, quyidagilarni so'zlaydi:

- Ey, butun mavjudotni, yer-u ko'kni, suv va o'tni yaratgan Quyosh tangrisi! Sen ko'zingni ochsang, olam nurga to'ladi; ko'zingni yumsang, yer yuzini qorong'ulik lashkari bosadi. Odamlarga o't bergan ham sen, daryolarni toshirgan, ekinzor va o'tloqlarga suv bergan ham sen! Ey, ulug' Quyosh tangrisi, bizni eroniylarga xor qilma, dilimizga g'ayrat, bilagimizga quvvat ato qil, yuragimizga o'ch olovini sol! Qilichimizni o'tkir qil, toki, yurtimizni oyoq osti qilgan makkor dushmanni tor-mor aylab qullik balosidan xolos bo'laylik!»

To'marisning tilaklari ijobatga aylanadi. Yozuvchi: «Oftob nuri To'marisning yuziga tushib turar, go'yo Mihra nurli qo'llari bilan uni siylab, olqishlayotgandek bo'lardi»,- degan rangin ifodalarni keltirib, o'quvchini massagetlar g'alabasidan voqif etadi. Asar jangda halok bo'lgan Kayxusravning kallasini Zarina tomonidan keltirilishi va To'maris uni qon to'la meshga solib, mesh og'zini chilvir bilan mahkam bog'lashi tafsilotlari bilan yakunlanadi.

Mirkarim Osimning «To'maris» rivoyati asosida yaratilgan mazkur asari o'quvchini o'sha davr voqealari bilan yaqindan tanishtirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi taxayyulida jonlanib, uning qalami vositasida badiiylashtirilgan To'maris, Sparangis, Zarina singari obrazlarda mardlik, shijoat, Yuksak iroda, dushmanga nafrat kabi olijanob insoniy tuyg'ular mujassamlashgan. Asarda Kayxusravning Yovuzligi hamda hiyla-nayranglari mufassal badiiy ifodasiga ega. Hikoyada Yoshlarni ogohlikka da'vat etilishi uning muhim xususiyatidir.

Shiroq rivoyati. «Shiroq» eposida ham bosqinchilarga qarshi jang tafsilotlari asos qilib olingan. Unda Eron shohi Doro I (521-485) qo'shinlariga qarshi Turondagi Shak qabilalarining yurt tinchligi uchun olib borgan kurashlari o'z ifodasini topgan. Rivoyatda oddiy xalq vakili, cho'ponlik bilan shug'ullanuvchi Shiroqning vatanparvarlik, xalqparvarlik, tinchlik va hurlikni himoya qilish yo'lidagi jasorat va fidoyiligi ulug'lanadi. «Shiroq» eposining qisqacha mazmuni yunon tarixchisi Polien (eramizdan oldingi II asr)ning «Harbiy hiylalar» kitobida hikoya qilinadi.

Doro Shak qabilasiga qarshi yurish qiladi. Shak hukmdorlari Saksfar, Omarg, To'maris harbiy holatni o'zaro muhokama qilishayotgan paytda ularning oldida Shiroq nomli cho'pon paydo bo'ladi. U agar bolalari va nabiralarining tinchligi ta'minlansa, Doro qo'shinlariga qarshi borib, uni yengishini aytadi. Shak hukmdorlari unga va'da berishadi. Shiroq shu zahoti yonidan pichoq olib quloq-burnini kesib, ta'nasini jarohatlaydi va shak qabilasi hukmdorlari mayib qilgan kishiday, shikoyat qilib Doro oldiga boradi. Doroni ishontirish maqsadida mangu olov va muqaddas suvni shafe' keltirib ont ichadi. Doro Shiroqning holatini ko'rib, uning so'ziga ishonadi. Shiroq Doro qo'shinini «qo'chib ketgan» Shaklarning oldiga olib chiqadigan yaqin yo'lga «boshlaydi». Bu yo'l yetti kunlik masofa edi. Shuning uchun yetti kunga yetarli suv va ovqat olishni aytadi. Shiroq qo'shin bilan yetti kun yo'l yuradi va ularni suvsiz sahro o'rtasiga olib kiradi. Dushmanlarning suvsizlik va ochlikdan halok bo'lishi muqarrar bo'lib qoladi. Yettinchi kuni ham shaklardan darak topmagan qo'shin boshlig'i Ranosbat aldanganini sezadi va yo'l boshlovchidan shu haqda so'raganda, u: «»Men yengdim, yolg'iz o'zim butun boshli qo'shinni yengdim! Jonajon qabilam shaklar, ona tuprog'im boshiga kelgan baloni daf' qilib, bosqinchi Doro lashkarlarini halokatga olib keldim. To'rt tomoning har qaysisi yetti kunlik yo'l, istagan ta'rafingizga ketavering. Baribir, barchangizni ochlik va tashnalik yyemirib, nobud qiladi. Mening qonim esa shu yerda to'kiladi!» - deb chapak chalib, qah-qaha urib kuladi. Ranosbat Shiroqni chopib tashlaydi. Ko'rinadiki, «Shiroq» rivoyatida uzoqni ko'ra oladigan, fahm-farosatli, dushmanni yengish uchun o'ziga xos usulga ega bo'lgan xalq qahramoni obrazi yaratilgan.

«Shiroq» rivoyati ham yozuvchi Mirkarim Osim tomonidan qayta ishlangan. Bu hikoya ham 9-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan. Yozuvchi hikoyani Yaksart bo'yidagi cho'llarda o'tlarning qovjirashi tafsiloti tasviri bilan boshlaydi. Odatda, bu davrda Shak qabilalari sero't yaylovlarga ko'chish taraddudi bilan mashg'ul bo'lishgan va bu jarayon o'ziga xos bayram tantanalari tusini olgan. Hikoyada tasvirlanishicha, bu yilgi ko'chish oldingilaridan keskin farq qiladi. Qabila ahli ko'ngliga shodiyona sig'maydi. Ular tahlikali bir vaziyat oldida turishibdi. Yozuvchi ana shu holatni oq o'tovning qurollangan, jangavor soqchilar tomonidan qo'riqlanishi, qabila sardori Rustakning qavmning dunyo ko'rgan oqsoqollariga maslahat solishi kabi lavhalarda ko'rsatishga harakat qilgan. Bezovtalikning sababi nimada? Yurt taqdiri katta xavf ostida turibdi.

Rustak oqsoqollarga Eron shohi Doro O'kuzdan o'tib, Sug'diyani bosib olgani, darakchilarning xabariga ko'ra, Ranosbat boshchiligidagi

Darayavushning katta qo’shini shaklarga qarshi hujum qilishi haqidagi ma’lumotni yetkazadi. Yozuvchi oqsoqollar kengashini asarda atroflicha Yoritadi. O’tov eshigi oldida turgan qurolli yigit Shiroq degan bir cho’ponning kirishga ijozat so’rayotganligini bildiradi. Rustak uning kimligini so’raganida, savolga Shunday javob beriladi:

- Shiroq bizning urug’dan, butun umri cho’ponlik bilan o’tgan, - dedi Saksfar. - O’zi juda farosatli, dono, dostonchi chol. Eski chordevorlardan chayon ushlab, o’zini chaqtiradi. Og’riq sezmaydi. Aytishlaricha, Yoshligida ilon uni chaqib olganda allaqanday giyohlarni surtib tuzalib ketgan emish. O’shandan beri ilon-chayondan qo’rqmaydi. Shundan keyin o’tovga Shiroqning kirishiga ruxsat beriladi. Uning: «Eron Shohining askarlari Sirdaryo ostidagi qum donalaridan ham ko’p, ularni jangga chorlab yengish mahol. Shunday bir hiyla topmoq kerakki, dushmanning oyog’i toyib, jarga qulab tushsin», - degan taklifi barchaga ma’qul tushadi. Biroq hikoyada u rivoyatda tasvirlangan rejasini biroz sir saqlaydi. Shiroq yolg’iz Rustakning huzurida quloq-burnini kestirib chiqib ketadi. O’tovdan chiqqan Shiroqning holiga qarindoshlari juda aChinadilar. Yozuvchi Shiroqqing Darayavush huzuriga borishi va u bilan suhbatlashishi tafsilotlarini asarda mufassal bayon etadi. Hikoya so’ngida Ranosbat qo’shinini aldab bepoyon sahroning o’rtasiga olib borgan Shiroqning: « Men yengdim, Doro qo’shinini bir o’zim yengdim!» - deya qichqirishi va murodiga yetgani uchun muqaddas otash va suv xudosiga shukr qilib, allaqanday duolar o’qishi o’quvchini befarq qoldirmaydi. Yozuvchi Shiroqning «quloq burnini kestirish»i sababini asar so’ngida quyidagicha izohlaydi:

U Rustakning huzuriga kirganida Shunday degan edi:

“Agar mening bola-chaqam va nevaralarimni unutmasang, o’z shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim. Dushmanni daf qilmoq uchun bir hiyla o’ylab topdim. Umrim oxirlab qoldi, axir, bu dunyodan ketmoq kerak. Men el-yurt uchun o’limning shirin sharobini ichmoqqa qaror qildim... Gapimga quloq sol...»

Hukmdor uning gapini oxirigacha tinglab, fikrini ma’qullagan edi. Shunda u yonidan o’tkir pichog’ini olib, o’z quloq-burnini kesgan va go’yo o’z eliga xiyonat qilgan bo’lib, dushmanlar orasiga kirgan edi...

Mirkarim Osim hikoyada tasvirlagan Ranosbat obrazi Shiroq jasoratining yangi qirralarini ochishga xizmat qilgan. Aldanganini bilgan Eron sarkardalari Shiroqni kaltaklay boshlaydilar. Biroq Ranosbat ayYorlikka ayYorlik bilan javob berib, qo’shinni halokatdan saqlab qolmoqchi bo’ladi. U: «Agar sen bizga sahro quduqlari va chashmalarini ko’rsatsang, gunohingdan

kechib, So’g’diyada istagan qishloqlardan birini senga in’om qilardik», - deya va’dalar bera boshlaydi. Yozuvchi tasviridagi Shiroq juda farosatli, dono kishi edi. U Ranosbat hiylasini juda yaxshi idrok etadi. Unga javoban Shiroq: «O’z elimning dushmanlariga Yordam uchun uzatiladigan qo’limni kesib tashlaganim ma’qul», - deydi. G’azablangan dushman sarkardalari cho’ponni chopib, qiyma-qiyma qilib tashlaydilar.

Mirkarim Osim qalamiga mansub mazkur hikoyada xalq qahramoni Shiroqning xalqona-tarixiy qiyofasi o’z badiiy ifodasini topgan. Unda yozuvchi taxayyuloti asosida bosh qahramon jasoratining yangi-yangi qirralari kashf etiladi. Turon zaminida yashagan qadimgi qabilalarning bosqinchilarga qarshi o’ylab topgan tadbirlari va uning amalga oshishi, istilochilarga nisbatan Shiroqning o’tli qahr-g’azabi, nafrati mahorat bilan badiiylashtirilgan.

Zarina va Striangiya eposi. Bu eposning mazmuni sitsiliyalik tarixchi Diodor (eramizdan avvalgi I asrda) ning «Kutubxona» asarida tarixchi Kteziy (430-354) kitobidagi bayon asosida hikoya qilib qoldirilgan. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Shaklar shohi o’lib, uning o’rniga xotini malika Zarina qabilaga bosh bo’ladi. Tadbirli va shijoatli bu ayol qabilaning osoyishtaligi va mustaqilligini saqlab qolish uchun jonbozlik ko’rsatadi. Shaklar bilan Midiya o’rtasida qattiq janglar bo’lib o’tadi. Bu jangda malika Zarina katta shijoat ko’rsatadi. Biroq Midiya Shahzodasi Striangiya Zarinani yarador qiladi. Zarinaning botirligi va go’zal husniga maftun bo’lgan Striangiya uni asir olmaydi, atayin qochiradi. Oradan birmuncha vaqt o’tadi. Parfiya shohi Zarinaga uylanib, shaklarni o’ziga tobe qilmoqchi bo’ladi. Zarina uning taklifini rad etadi. Biroq shoh unga zo’rlik bilan uylanib, shaklarni qaram qiladi. Zarina qanday qilib bo’lsa ham, najot topib, qabilasining mustaqilligini tiklashga intiladi. Shu orada Parfiya bilan Midiya o’rtasida qattiq jang bo’lib, Midiyaning ko’p askarlari asir olinadi. Zarina asirlar Yordami bilan Parfiya shohiga qarshi kurashib, najot topish rejasini o’ylaydi. Asirlar orasida Striangiya ham bor edi. Zarina u bilan birga asirlarga bosh bo’lib, Parfiya shohiga qarshi qo’qqisdan hujum boshlaydi. Parfiya shohi yengiladi, asirlar ozod bo’ladi. Zarina najot topadi, uning qabilasi o’z mustaqilligini tiklaydi. Shu voqealar davomida Striangiya Zarinani sevib qoladi. Zarina Striangiyani mohir va botir jangchi sifatida hurmat qilsa ham, uning xotini borligi uchun uylanish haqidagi taklifini rad etadi. Striangiya bunga chidayolmay o’zini halok qiladi.

«Zarina va Striangiya»ni sevgi va qahramonlik qissasi, deb aytish mumkin. Olimlarning fikricha, Zarina tarixiy shaxs bo’lib, u shak hukmronlaridan biri edi. Qissada dushmanga qarshi birgalikda, ittifoq bo’lib

kurashish, sevgi-muhabbat, vafo va sadoqat, mardlik va jasorat, tadbirkorlik ulug'lanadi. Rivoyatdan o'rtaga chiqadigan yana bir haqiqat yurt mustaqilligi masalasidir. Insoniyat avlodi hamisha o'z istiqloli uchun shiddatli kurash olib borgan, bu yo'lda aziz jonini ham ayamagan. Ajdodlar ibrati biz uchun ham yo'lchi yulduzday xizmat qilmog'i zarur. Ona-O'zbekiston mustaqillikning o'n beshinchi ulug' dovoniga ko'tarildi. Bu ilohiy ne'mat samaralari hayotimizni barcha jabhalarida Yorqin ko'zga tashlanayotir. Prezident I.A.Karimovni sharaflovchi quyidagi satrlar hayotiy zarurat sifatida maydonga keldi:

Yo'lboshchisi dono yurtning kelajagi buyukdir,
Azaldan-da fozil rahbar el-yurtiga suyukdir.

Shu ma'noda, rivoyatlar mag'zidagi mohiyat bugun uchun, biz uchun zamondosh bo'lib, vatan taqdiri taqozo etganda, To'maris, Shiroq, Zarina timsolida **«barchamizniki bo'lgan hu aziz Vatan»**ni muhofaza qilishga chorlaydi.

Zariadr va Odatida qissasi. Sevgi va sadoqat g'oyalari o'zining go'zal ifodasini topgan «Zariadr va Odatida» qissasi tarixchi Xores Mitilenskiyning (eramizdan avvalgi IV asr) asari orqali bizgacha yyetib kelgan.

Midiya shohi Gishtaspning kichik ukasi Zariadr Hazar (Kaspiy) dengizidan Tanais (Sirdaryo)gacha bo'lgan hududlarni boshqarsa, uning narigi qirg'og'ida esa Omorg ismli shoh hukmronlik qilar edi. Bu shohning Odatida ismli go'zal bir qizi bor edi. Odatida bir kun tushida Zariadrni ko'rib, sevib qoladi va doim shu sevgi hijroni iztirobida qiynaladi. Zariadr Omargga qizini so'rattirib, sovchilar yuboradi. Lekin Omarg boshqa farzandi bo'lmagani uchun qizi Odatidani begona yurtga uzatishni xohlamaydi va uni o'z yaqinlaridan birining o'g'liga bermoqchi bo'ladi. Shunday qilib, Omarg qizini kimga berishini sir tutgan holda, to'y bazmini uyushtiradi. Bazm avjiga chiqqanda qizini chaqirib, unga: «Qizim biz sening to'yingni qilayapmiz, shu yerga o'tirganlardan qaysi birini yoqtirsang, o'shanga oltin qadahda may tutgin. Seni o'shanga beramiz», - deydi. Odatida atrofga qarab yig'ilganlar orasidan sevgani Zariadrni axtaradi, uni ko'rmagach, yig'laydi. Chunki qiz yigitga to'y bazmi haqida xabar yuborib, uni ogohlantirib qo'ygan edi. Zariadr o'sha daqiqalarda bir kemaChini yollab, uning Yordamida daryodan o'tadi va skif kiyimida bazm bo'layotgan yerga boradi. U ko'zlari Yoshga to'la, qo'lida qadah tutib turgan Odatidani ko'radi-da, unga yaqinlashib: "Odatida, men Zariadrman, mana men sen istaganingdek yoningdaman", - deydi. Qiz qo'lidagi qadahni yigitga tutadi. Zariadr Odatidani yetaklab, Yashirincha kemachi turgan yerga olib keladi va ular birgalashib Zariard yurtiga qochib ketadilar. Omarg qizining g'oyib bo'lganidan ogoh bo'lgach, xizmatchilarini bir-bir so'roq

qiladi. Qiz sevgisidan xabardor xizmatchilar, « biz hech narsa bilmaymiz», - deb javob qiladilar.

Ushbu qissada muhabbat va shaxs erki masalasi diqqat markazida turadi. Ota istagi hamda qiz sevgisining bir-biriga uyg'un kelmasligi, qissaning asosiy tugunidir. Omarg qizi Odatidani Zariadrga turmushga chiqishidan norozi bo'lsa-da , u Odatidaga xohlagan yigitiga oltin jomda qadah tutib, turmushga chiqish imkoniyatini saqlab qoladi. Bunday mayli bilan u qizining erki o'z qo'lida ekanligini namoyish qilmoqchi bo'ladi. Biroq Zariadr o'rnida tanlangan va istalgan o'zga kuyov qiz sevgisining toptalishi bilan barobar edi. Qissada oila quradigan har ikkala tomon: yigit va qizning nikohga o'zaro rozilik bildirishi muhim ekanligi Yorqin ifodasini topgan. Shuningdek, qissada tush lavhasining mavjudligi uning badiiy ta'sirchanligini yanada oshirgan. Umuman olganda, «Zariadr va Odatida» qissasi eramizdan avvalgi xalq og'zaki ijodining noyob namunasidir.

Rustam haqidagi qahramonlik eposi. Rustam bilan bog'liq qahramonlik eposlari qadimdan Markaziy Osiyo, Eron, Afg'oniston va boshqa o'lka xalqlari o'rtasida keng tarqalgan. Rustam haqidagi dastlabki asarlar so'g'dlarda paydo bo'lgan. Taxminan VI - VII asrlarda so'g'dlar tomonidan ijod qilingan «Rustam» qissasining ayrim parchalari bizgacha saqlanib kelgan. Manbalarda qayd etilishicha, Rustam (Rotastaxm) «Bahman Yashta» dostonida arab bosqinchilariga qarshi kurashgan pahlavon sifatida, qadimgi fors-tojik (parfiyon) dostonlari «Yodgor Zareran», «Daraxt asurik» va VI - VII asrlarda yaratilgan «Shahrixon Eron»da ajoyib qahramon, xalq uchun Shaharlar bunyod etgan inson sifatida tasvirlanadi. So'g'dlar tomonidan yaratilgan «Rustam» qissasi parchalarida asar bosh qahramoni Rustam devlarga qarshi kurashadi. Bu o'z navbatida Rustam obrazining takomillashib borganligini dalillaydi. Devlarga qarshi kurashgan Rustam sarguzashtlarining qisqacha tafsiloti quyidagilardan iborat:

... Rustam devlarni ularning o'z Shaharlari darvozalariga qadar quvib boradi. Ko'p devlar halok bo'ladi. Tirik qolganlari Shahar darvozasini berkitib oladi. Rustam g'alaba bilan qaytadi. Rustamdan mag'lub bo'lgan devlar g'azablanib, unga qarshi jangni davom ettirishga kelishib, unga qo'qqisdan hujum qilish rejasini tuzishadi. Son-sanoqsiz devlar ot-aravalarga, fil, cho'chqa, tulki, it va ilonlarga minib yo'lga tushadilar. Ularning bir qanchasi piyoda borar, bir qanchasi kalxatday parvoz qilar edi... Rustamning Raxsh nomli oti yaylovda o'tlamoqda, uning o'zi esa katta g'alabadan so'ng shirin uyquda edi. Uzoqdan devlarning paydo bo'lganini ko'rgan Raxsh Rustamni uyg'otadi. Rustam sarosimaga tushmaydi. U devlarni yaqin keltirish va

qo’qqisdan hujum qilish uchun qasddan orqasiga qarab ot surib ketadi. Uni quvib borayotgan devlar endi g’alaba qozonishlariga ishonishadi va har qanday bo’lsa ham Rustamni tiriklayin ushlab, qattiq jabrlashga ahd qilishadi. Lekin Rustam birdan otini dushman tomonga burib, devlarga hamla qiladi, ularga burgutday chang soladi. Devlar tumtaraqay qocha boshlaydi, ularning ko’plari o’ladi, anchaginasi yaralanadi...

Rustam qissasi yozma adabiyotda qayta-qayta ishlandi. Bu yengilmas pahlavon haqida talaygina yangi asarlar vujudga keldi. Xalq og’zaki ijodidan samarali foydalangan Ulug’ shoir Abulqosim Firdavsiy o’zining mashhur «Shohnomasi»da Rustamni bosh qahramon darajasiga ko’taradi va go’zal doston yaratadi.

Siyovush xaqidagi qahramonlik qissasi. Siyovush ham Rustam singari sevimli xalq qahramoni timsolidir. Ma’lumotlarga ko’ra, Siyovush «Avesto»da Siyovarman deb atalgan bo’lib, mifologik xudo obrazi sifatida tasvirlangan. Shunday tasvir qadimgi fors-tojik tilidagi asarlarda, jumladan, «Shohnoma» va Beruniy asarlarida ham saqlanib qolgan. Xalq ijodiyotida Siyovush afsonaviy qahramon timsolidan xalqning najotkori bo’lgan jasur inson qiyofasi tomon takomillashib borgan.

X asr tarixchisi Muhammad Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida Siyovush haqida xalq og’zaki ijodi namunalarini keltiradi. Ularning qisqacha mazmuni quyidagilardan iborat:

Siyovush Eronning Kayoniy shohlaridan Kaykovusning o’g’li ekan. Siyovush dilkash husn-u jamoli bilan zamondoshlarini o’ziga maftun qiladi. U o’gay onasining ishqiy ehtirosini rad etib, malomat va tuhmatga qoladi. U o’z pokligini isbot qilish uchun katta alanga ustidan ot surib o’tadi. Siyovush Turonga qarshi yurishda qatnashib, qahramonlik namunalarini ko’rsatadi. Tuhmatchi va hasadgo’y o’gay ona dargohiga qaytishni istamagan Siyovush qahramon AfrOsiyobning poytaxtiga qarab yo’l oladi. AfrOsiyob uni yaxshi kutib oladi. Siyovush AfrOsiyobning qiziga uylanadi. Janglarda botirlik ko’rsatadi. Biroq fitnachi amaldorlar Siyovush va AfrOsiyob o’rtasiga adovat urug’ini sochadilar. Fitnalarga ishongan AfrOsiyob Siyovushni o’ldiradi. Siyovushning o’g’li Kayxusrav bobosi AfrOsiyobdan ota o’Chini olib, uni o’ldiradi. Rivoyatlarga ko’ra, Kayxusrav xorazmiy shohlar sulolasiga asos solgan emish...

Tarixchi Narshaxiyning ma’lumot berishicha, Siyovush Buxoroda juda katta shuhrat qozongan. Uning jasadi shu erda dafn etilgan. X asrda ham Buxoro aholisi Navro’zda Siyovushning qabriga chiqib, qurbonlikka xo’rozlar

so’yib, uning sharafiga qo’shiqlar aytishar ekan. Bu qo’shiqlar xalq o’rtasida «mug’lar yig’isi» yoki «Siyovush qasosi» deb yuritilgan.

Turli manbalar asosida bizgacha yyetib kelgan og’zaki badiiy Yodgorliklar Turon xalqlarining juda boy folklori haqida ma’lumot beradi va ular Turon zaminda og’zaki badiiy ijodning xilma-xil janrlari takomillashib borganini tasdiqlaydi. Sharq xalqlari bilan Turon zaminda istiqomat qiluvchilar o’rtasida amal qilgan iqtisodiy-madaniy, siyosiy-ijtimoiy aloqalar badiiy adabiyotning rivojiga ham sezilarli ta’sirini o’tkazadi. Qadimgi mif va afsonalar, qahramonlik qo’shiq hamda qissalari har ikkala tarafning yozma badiiy adabiyoti ravnaqiga hissa qo’shadi, ulardan aksariyati esa qayta ishlandi, sayqallashtirildi.

2.3. Yozma Yodgorliklar

2.3.1.«Avesto» - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi

Qadimgi Turon-u Eron xalqlarining mushtarak Yodgorligi hisoblangan «Avesto» eramizdan oldingi VI asrlarda vujudga kelgan. Eng qadimgi dinlardan bo’lgan zardushtiylik islomga qadar O’rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Manbalarda e’tirof qilinishicha, «Avesto»ga Zardusht asos solgan. Yana bir qarashda ta’kidlanishicha, «Avesto» xudodan vahiy sifatida payg’ambar Zardushtga noil bo’lgan. Fanda Zardusht shaxsi xaqida munozarali fikr-mulohazalar mavjud. Tarixchi olim Tabariy uni «Zardusht bin Yunon» deb qayd etsa, Beruniy Zardushtni ozarbayjonlik Safid Tuman degan kishining farzandi ekanligini e’tirof etadi. Aksariyat manbalarda zardushtiylik dini Zaratushtra (Zardusht) ta’limoti deb ham ataladi. Shunday bo’lishiga qaramay, «Avesto»day qomusiy manbaning shakllanishi va takomilini bir shaxsning nomi bilan bog’lab bo’lmasligi ta’kidlanib kelinadiki, bunga qo’shilish mumkin.

«Avesto» 21 nash, ya’ni kitobdan iborat bo’lgan. Beruniyning ma’lumot berishicha, «Avesto» qo’lyozmasi o’n ikki ming molning (ho’kizning) terisiga oltin harflar bilan yozilgan. Yunonlar istilosi davrida ushbu kitobning Uch nusxasi mavjud bo’lgan. Iskandar ulardan birini kuydirib tashlashdan oldin undagi tib, astronomiyaga oid qismlarini yunon tiliga tarjima qildirgan. Shunday qilib, Aleksandr Makedonskiy “Avesto”ning bir nusxasini yo’q qilib tashlagan, bir nusxasini Yunonistonga yuborgan. Kitobning bir nusxasi esa zardushtiylikka e’tiqod qo’ygan kishilar tomonidan asrab qolingan.

Eramizning III asrida sosoniylar hukmronligi davrida zardushtiylik rasmiy e’tiqod sifatida tarqalganligi manbalarda qayd etiladi. Bu davrda

sosoniylar «Avesto»ni qayta tiklashni amalga oshiradilar. Uning mazmuni qo'shimchalar bilan to'ldirilgan holda tiklangan va pahlaviy tilida yozib chiqilgan. Shunday ijodiy urinishlar natijasida «Avesto»ning bizgacha saqlanib qolgan nusxalari bunyod etilgan.

«Avesto» Yodgorliklarining bizga ma'lum (hozircha) eng qadimgi nusxasi 1324-yilda ko'chirilgan bo'lib, bu mo'tabar qo'lyozma Kopengagenda saqlanadi. Mazkur kitob qayta tiklangandan so'ng unga qiziqishlar kuchaygan va Sharhli tarjimalar ham bunyodga kelgan. Sharhlar «Zand» deb nomlangan bo'lib, ularning namunalari bizgacha yyetib kelgan. «Avesto»ning ayrim nusxalarida o'sha zandlarning pahlaviy tilida yozilganligi kuzatiladi. Shuning uchun «Avesto» matni uning sharhlari bilan birgalikda «Avesto va Zand» yoki «Zand Avesto» atamalari bilan yuritiladi.

«Avesto» ayrim sharhlar bilan canskrit (qadimgi hind tili)ga va Ovropaning bir qator tillariga tarjima qilingan. «Avesto» mutarjimi tarix fanlari doktori, prof. Mirsodiq Mirsulton o'g'li Is'hoqov o'rinli e'tirof etganidek, ushbu noyob ma'naviy manbani o'zbek tiliga o'girish adabiy-ma'rifiy merosimizni o'rganish yo'lidagi muhim qadam sanaladi.

«Avesto»ning ko'p qismlari bizgacha yetib kelmagan. Shunday bo'lsa-da, mazkur kitob haqida mumtoz va bugungi tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ishlar asosida ma'lum tasavvur hosil qilish mumkin. «Avesto»ning «Yasna», «Videvdot» («Ventidot»), «Yasht», «Vispret» («Visparad») kabi qismlari fanga ma'lum. Bu nask (kitob)larning muayyan vazifalari bo'lgan. Jumladan, «Yasna» 72 bobdan iborat bo'lib, u namoz uchun zarur duolar sifatida talqin qilinadi. Yana «Yasna» qurbonlik qilish marosimida aytiladigan qo'shiqlar, xudolar madhiyasi va shu kabi diniy marosimlarga xos rasm-rusumlarni o'z ichiga oladi. Axura Mazda haqidagi xabar payg'ambar Zardushtga doir ayrim ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan o'n yetti Goh (Got) ham «Avesto»ning «Yasna» bo'limi tarkibida yyetib kelgan. Bu She'riy parchalar «Avesto»ning eng qadimiy izohlanishi, murakkab qismlari hisoblanadi. Chunki ayni ana shu satrlarda Zardusht yashagan qadimiy qatlam voqealariga ko'proq ishoralar qilinadi.

«Videvdot» 22 bobdan iborat bo'lib, mazkur sahifalar Axura Mazda va Zaradushtraning savol-javobi shaklida yozilgan. «Videvdot»ni Axura Mazdaning dushmanlari hisoblangan devlarni mahv etishga qaratilgan duolar to'plami ham deyish mumkin. «Vispret» esa 24 bobdan tarkib topgan bo'lib, namoz va zikr-u sano matnlarini o'z ichiga oladi. "Avesto"ning "Yasht" qismida 22 qo'shiq mavjud. Bulap Axura Mazdadan boshlab u yaratgan turli

ma’budlar sha’niga aytilgan, o’qilishi ko’p savobli hisoblangan alqov-olqish (gimn)lar to’plamidir.

“Avesto” haqida qimmatli ilmiy mulohazalarni bayon etgan ko’p sonli tadqiqotchilarning fikricha, zardushtiylik ta’limotida Axura Mazda azaliy va abadiy iloh sifatida alohida mavqega ega. Uning noming **“Yuksak daholi hukmdor”** ma’nosini anglatishi ham ushbu fikrni quvvatlantiradi. Bundan tashqari, har narsaga qodir iloh Axura Mazda dunyoning 12 ming yil davom etishini belgilab qo’ygan. O’sha ta’limotga binoan, dastlabki Uch ming yillikda ruhiy dunyo yetakchilik qiladi. So’ngra Angra Manyu yuzaga keladi. Axura Mazda barcha ezguliklar ijodkori bo’lib, borliqdagi hamma yaxshiliklarning boiskori u hisoblanadi. Yovuzlik esa Angra Manyu tarafidan ezgulikka zid o’laroq vujudga keltirilgan. Bu ikki kuch o’rtasidagi kurash ham uzoq tarixga ega. U to’qqiz yuz yil davom etadi. Shundan so’ng, Axura Mazda g’olib kelishi kerak. Angra Manyu esa qorong’ulikka haydaladi. Ikkinchi Uch ming yillikda Axura Mazda moddiy borliqni barpo etadi. Osmon, yer, suv, o’simliklar, xayvonot dunyosi yuzaga keladi. Nihoyat odam yaratiladi. Ana shu jarayonda Angra Manyu yovuz devlarni – o’z Yordamchilarini tayyorlaydi.

Uchinchi ming yillikda Angra Manyu o’z devlari bilan Axura Mazda yaratgan dunyoga xuruj qilib kirib keladi. U Aji (ilon) bilan birinchi inson - Gayumart (Kayumars)ni va uning doimiy hamrohi buqani o’ldiradi. Ammo ularning urug’lari yerga to’kilgani uchun yo’q bo’lib ketmaydi. O’sha urug’lardan odamlar va ezguliklar, hayvonot unib chiqib, ko’payadi. Ikki kuch o’rtasidagi keskin kurash esa davom etadi. Nihoyat ezgulik kuchlari g’olib chiqadi va yovuz kuchlarni yer ostiga haydaydi.

To’rtinchi Uch ming yillik Zaratushtraning tug’ilishidan boshlanadi. U yer yuziga o’z e’tiqodini targ’ib qiladi. Zaratushtra Uch o’g’il ko’radi va ulardan harbiylar, ruhoniylar hamda dehqonlar paydo bo’lib ko’payadilar.

O’n ming yildan so’ng ezgulik va yovuzlik kuchlari orasida oxirgi kurash boshlanadi. Qattiq yong’in sodir bo’lib yer usti va osti yonib ketadi. Zaratushtraning avlodidan bo’lgan Saots’yant halok bo’lgan dunyoni qaytadan tiklaydi. O’liklar tiriladilar, yerda abadiy hayot tantana qiladi.

«Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo’lishi bilan bir qatorda Turon-u Eron va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlarining tarixi, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tili, urf-odatlari, xalq og’zaki ijodi haqida ma’lumot beruvchi noyob qomusiy manbadir. Undan o’rin olgan afsonalar, qo’shiqlar ma’lum darajada xalq og’zaki ijodining qadimiy janrlari namunalarini o’zida mujassam etganligi bilan muhim adabiy ahamiyatga ega. Olimlarning fikricha, «Avesto»ni tashkil etuvchi afsonalar, gimnlar va

boshqa ijod namunalari uzoq yillar davomida Turon-u Eron xalqlari tomonidan yaratilgan va ular orasida keng tarqalgan, to'lishib, sayqallashib borgan. Keyinchalik ular birlashib «Avesto»ni vujudga keltirgan. «Avesto»ning qayd etilgan xususiyatlari uning madaniyatimiz tarixida muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Avestoshunoslar o'rtasida uzoq davom qilgan munozara uning paydo bo'lish vatani atrofida bo'ldi. Bahs va tortishuvlar natijasida g'arbiy hamda sharqiy nazariyalar shakllandi. «Avesto» tarkibidagi She'riy parchalarning pishiq o'rganilishi esa sharqiy nazariya foydasiga xizmat qildi. 2001-yilning 23-fevralida Urganch Davlat universitetida «O'zbekiston - «Avesto» vatani: O'tmish, bugun, kelajak» mavzusida ilmiy-amaliy anjumanning o'tkazilishi, prof. M.M.Is'hoqov tomonidan uning katta qismining o'zbekchalashtirilishi ham bu Yuksak ma'naviy- ma'rifiy sarchashma vujudga kelgan muqqaddas makonga aniqlik kiritish yo'lidagi jiddiy qadam vazifasini o'taydi. («Avesto» mundarijasi haqida yana mukammalroq ma'lumot olish uchun murojaat qilinsin: MELS Mahmudov. Komil inson – ajdodlar orzusi. Adabiy – falsafiy o'ylar. Toshkent, «Yozuvchi» - 2002, 9-35-betlar).

2.3.2. O'pxun-Enasoy Yodgorliklari

Toshga o'yib yozilgan adabiy tarixiy lavhalardan tarkib topgan qadimiy obidalar O'rxun va Enasoy daryolari havzalaridan topilganligi bois fanda shu nom bilan yuritiladi. Bu madaniy Yodgorliklar ilk bor Enasoy daryosi bo'ylarida mavjudligi aniqlanib, rus xizmatchisi Remezov, keyinchalik shved olimi Iogann Stralenberg va olim Missershmidtlar tomonidan ilm ahliga ma'lum qilindi. Enasoy obidasining "siri"ni o'rganishga XVIII asrning boshlaridayoq kirishilgan bo'lsa-da, dastlabki urinishlar natija bermadi. XIX asrning birinchi choragida Grigoriy Spaskiyning "Sibirskiy vestnik" ("Sibir' axboroti") jurnalida mazkur Yodgorlik haqida maqolasining e'lon qilinishi va bu maqolaning lotin tiliga tarjima bo'lganligi dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etadi. Biroq bu Yodgorlikni tekshirish va yozuvni o'rganish yo'lidagi harakatlar samarasiz yakunlandi.

Enasoy Yodgorliklarini o'rganishda rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrintsevning Mo'g'ulistonning Kosho-Saydam vodiysidagi O'rxun daryosi havzalaridan shunga o'xshash madaniy Yodgorliklarni aniqlashi muhim ahamiyat kasb etdi. Ulardagi matnlar noma'lum yozuvda bo'lishi bilan bir qatorda ayrimlari xitoy yozuvida va xitoy tilida bitilgan edi. Shunday qilib, fin-ugor ilmiy jamiyati hamda akademik V.V.Radlov boshchiligidagi rus

olimlarining O’rxun daryosi bo’ylarida o’tkazgan ilmiy ekspeditsiyalari shu madaniy Yodgorliklarni o’rganishga bag’ishlandi.

Daniyalik olim Vil’gel’m Tomsenning «bu madaniy Yodgorliklar turkiy xalqlarga taalluqli bo’lishi kerak» - degan taxmini to’g’ri bo’lib chiqdi. U dastlab “tangri”, “turk” so’zlarini, keyinchalik 1893-yilning 25-noyabrida barcha harflarni aniqlab, Yodgorlikdagi matnlarni to’la o’qishga muvaffaq bo’ladi. Akademik V.V.Radlov esa V.Tomsen va o’zining tajribalariga tayanib Yodgorlik matnini birinchi bo’lib rus tiliga tarjima qiladi.

Toshdagi bitiklar «sir»ining aniqlanishi turkiy xalqlarning dunyodagi o’z xoqonligiga ega bo’lgan qavmlardan ekanligini dalillashga xizmat qildi. VI asrning o’rtalarida shakllana boshlagan turk xoqonlarining davlati Turondan Dunay daryosigacha bo’lgan bepoyon hududni o’z ichiga olgan. Bu mamlakat O’rta Osiyo, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Oltoy o’lkalarida yashovchi turli xalq va qabilalarni o’zida birlashtirgan edi. Ayni xoqonlik unga yaqin va yondosh bo’lgan mayda-mayda hukmronliklarning uyushmasidan iborat bo’lgan. M.N.YAdrintsevning topgan Yodgorliklari ana shu hukmdorlardan Bilga xoqon - Mog’iyon (734-yilda vafot etgan) va uning ukasi Kultegin (732-yilda vafot etgan) qabr toshlariga o’yib yozilgan Yodgorliklardir. Shu vaqtlardan boshlab mazkur bitiklar fanda “O’rxun-Enasoy” Yodgorliklari, undagi yozuvlar esa turkiy run (run-sirli, Yashirin demakdir) yoki O’rxun-Enasoy yozuvi deb atala boshlandi.

Keyinchalik turkiy run yozuvining yangi-yangi topilmalari fanga ma’lum bo’la boshladi. Jumladan, N.M.YAdrintsev Ongin daryosi qirg’oqlaridan yangi Yodgorliklarni topishga muvaffaq bo’ldi. Er-u xotin Dmitriy va Elizaveta Klemenslar Selenga daryosi bo’ylaridan ikkita ustunga yozilgan turk xoqonlarining maslahatchisi To’nyuquqqa atab yozilgan katta Yodgorlikni kashf etdilar. Bulardan tashqari, 1896-1897-yillarda Avliyo ota (hozirgi Jambul) Shahri yaqinida, Talas daryosi bo’yida V-VI asrga doir beshta tosh Yodgorliklari va qog’oz , charm, yog’och, turli idish-tovoqlarga yozilgan ma’naviy obidalar topildi.

Ushbu qadimiy Yodgorliklarni dunyo turkiyshunoslari tomonidan sinchiklab ilmiy o’rganilishi hamon davom etmoqda.

Mazkur bitiklarni V.Tomsen va V.Radlovlardan keyin S.E.Malov, S.G.Klyashtorniy, I.V.Stebleva, X.O’rxun, T.Tekin, Najib Osim, G.Aydarov, o’zbek olimlaridan A.Rustamov, A.Qayumov, G’.Abdurahmonov, N.Rahmonovlar o’rganishmoqda. A.P. Qayumovning “Qadimiyat obidalari”, G’.Abdurahmonov, A.Rustamovlarning “Qadimgi turkiy til” nomli kitoblari

tarkibida ushbu Yodgorliklardan namunalar o'zbek tiliga o'girilib, nashr etilgan.

O'rxun-Enasoy obidalarining aksariyat qismini qabr toshlaridagi bitiklar tashkil etadi. Bulardan Bilga xoqon va uning ukasi Kulteginning qabr toshlaridagi She'riy parchalar muhim adabiy ahamiyat kasb etadi. Kultegin bitiktoshi Eltarish xoqonning o'g'li sharafiga o'rnatilgan bo'lib, uning muallifi Yo'llug'tegindir. Unda Kulteginning qahramonliklari, uning vatan, ona-yurt oldidagi buyuk xizmatlari sharaflanadi. Kultegin bitiktoshining akasi Bilga xoqon tilidan yozilganligi kuzatiladi.

Mog'ilyon so'nggi turk xoqonlaridan biri bo'lib, u «Bilga-qoon» - «ulug' xoqon» unvonini olishga musharraf bo'lgan. Qabr toshlaridagi bitiklardan ma'lum bo'lishicha, u juda ko'p harbiy yurishlar olib borib, mamlakati sarhadlarini ancha kengaytirgan. Mustahkam, qudratli va markazlashgan davlat barpo etgan. Shunday janglarning birida, 732-yilda Kultegin qahramonliklar ko'rsatib, mardlarcha vafot etadi. Kultegin bitiktoshida uning jang paytidagi xatti-harakatlari quyidagicha tasvirlanadi.

Qul-Tegin yadag'in o'playu tagdi,
O'ng Tutuq Yorjun yaruqlug' aligin tutdi.
Yaruqlug'da qoronqa anjuladi.
Ul sog' onda yo'qqusdimiz.

Mazmuni:

Kultegin piyoda holda dushmanga tashlandi,
Zirhli o'ng Tutuqni odamlari bilan (birga) tutib oldi.
Zirhdaligicha uni xoqon qoshiga keltirdi.
O'sha qo'shinni tor-mor qildik.
(O'zbek adabiyoti tarixi. I tom, Toshkent: «Fan», 1977, 74-bet)

Bitiktoshda Kulteginning ko'rsatgan qahramonliklari o'z ifodasini topgan. Satrlardagi tasvirdan uning hayotidan ibratli lavhalar o'quvchi ko'z o'ngida birma-bir gavdalanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Kultegin otasidan yetti Yoshda yetim qolgan. U amakisi va akasi xoqonligi davrida harbiy xizmatda bo'ladi, vatan uchun olib borilgan janglarda ishtirok etadi. Bitiklardagi qaydlarga ko'ra Kultegin 47 Yoshida vafot qilgan. Bitiktoshda ukasi vafoti tufayli qattiq alam va qayg'u iskanjasida qolgan Bilga xoqon iztiroblari quyidagicha tasvirlanadi:

Ko'rur ko'zum kurmazak,
Bilur biligim bilmazak bo'ldi,
O'zim saqintim,
Od tangri yasar,

Kishi o’g’li ko’p o’lgali to’rumas.

Mazmuni:

Ko’rar ko’zim ko’rmas bo’ldi.
Bilar aqlim bilmas bo’ldi.
O’zim qayg’urdim,
Faqat tangri ashaydi,
Kishi o’g’li o’lmoq uchun tug’ilgan
(O’sha kitob, 75-bet).

«Bilga xoqon» bitiktoshida ham uning hayoti, olib borgan kurashlari tafsiloti, inson shaxsi va ayniqsa, uning erki bilan bog’liq masalalar teran badiiy tahlil qilingan. Bitikdagi tafsilotlar Bilga xoqonning Tang’ut tarafga lashkar tortishi voqealari tasviri bilan boshlanadi. Undagi jang lavhalari faqat Bilga xoqon umri chizgilari bo’lmay, balki turkiy xalqlarning shonli tarixi cahifalari hamdir.

Yana shunday bitiktoshlardan biri harbiy sarkarda To’nyuquq nomiga bitilgan. Bitiktoshda o’yib yozilgan voqealar To’nyuquqning o’z tilidan hikoya qilinadi. O’sha tafsilotlar quyidagi so’zlar bilan boshlanadi:

Bilga To’nyuquq ban o’zum.
Tabg’ach elinga qilindim.
Turuk bo’dun Tabg’achqa ko’rur erti.

Mazmuni:

Men - Dono To’nyuquq erurman.
Tabg’ach davlatida tarbiyalandim.
Turk xalqi Tabg’ach davlatiga bo’ysunar edi...

To’nyuquq - ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi bo’lgan. Turkiy xalqlar Tabg’ach eliga qaram va uning hukmronligi ostida bo’lgan paytda To’nyuquq hamda Eltarish xoqon birgalikda yurt ozodligi uchun kurash olib boradilar. Shunday ozodlik harakatlari natijasida turkiy qavmlar qaramlikdan kutiladi va o’zining mustaqil davlatini barpo etadi. Bitiktoshda To’nyuquq rahbarligi ostida o’tkazilgan harbiy tadbirlar nisbatan mufassal badiiy talqinini topadi.

O’rxun-Enasoy bitiklari xotiralar, qabr toshlariga o’yib yozilgan tarix va marsiyalardan, turli xil hujjat, tamg’a, pul namunalaridan iborat bo’lib, V-VIII asrlarning juda qimmatli Yodgorligi sanaladi. Oltoydan Mo’g’ulistonga qadar cho’zilgan bepoyon hududda yashagan mazkur xalqlar va qabilalar tomonidan yaratilgan «To’nyuquq», «Uyuq-arxon», «Borliq», «Tuva» va boshqalar ham Kultegin va Bilga xoqon Yodgorliklari singari katta ilmiy va badiiy ahamiyatga egadir. Ularning matnlarida turkiy xalq va qavmlaridan qirg’iz,

uyg’ur, o’g’uz kabilarning nomlari tilga olinadi. Olimlarning fikricha, mazkur Yodgorliklarning tili bir-biridan birmuncha farq qiladi. O’sha tafovutli belgilarga tayanib, ba’zi Yodgorliklarning hozirgi qaysi turkiy tilning qadimgi ko’rinishi ekanligi xususida taxminiy fikrlar aytish mumkin. V.V.Radlov, V.Tomsen, S.E.Malov kabi olimlar Enasoy bo’yidagi ko’pchilik Yodgorliklarni qirg’iz tiliga mansub deb hisoblaydilar. Biroq barcha Yodgorliklar haqida birday fikr yuritib bo’lmaydi. Jumladan, O’rxun-Enasoy Yodgorliklarida qirg’iz, uyg’ur, tuva, turkman, o’zbek va boshqa turkiy tillarga xos leksik boylik hamda grammatik shakllar ham ko’zga tashlanadi. Shunga ko’ra, bu Yodgorliklarni turkiy xalqlarning mushtarak madaniy merosi sifatida o’rganish va talqin-u targ’ib qilish maqsadga muvofiqdir.

O’rxun-Enasoy bitiktoshlari til va yozuv Yodgorligi bo’lishi bilan bir qatorda tarixiy va adabiy manba maqomida muayyan badiiy ilmiy qimmatga ham molikdir. Chunki ularda V-VIII asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, turkiy xalqlar va qabilalarning urf-odatlari, e’tiqodiy qarashlari, badiiy ijodi namunalari o’z ifodasini topgan. Bitiktoshlarda She’riy misralarning Uchrashi, turli tarixiy voqealar ifodasida badiiy uslubdan foydalanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, qabr toshlaridagi marsiyalarning badiiylik darajasining birmuncha Yuksak ekanligi qiziqish uyg’otadi. Ular orqali vafot etgan kishining qiyofasi manzaralarini ko’z o’ngimizda gavdalantirishimiz va motam tutuvChining murakkab ruhiy holati bilan tanishishimiz mumkin. Tadqiqotchilarning fikricha, bitiktoshlardagi marsiyalar mazmun - mohiyati, badiiyati jihatidan «Devoni lug’otit turk»dagi marsiyalarga ancha yaqin turadi. (Bu haqda yana murojaat qilinsin: ИюВюСтеблова. Развитие тюрских поэтических в XI веке. «Наука», Москва – 1971, 298 стр.).

Shunday qilib, O’rxun-Enasoy Yodgorliklari V-VIII asrlarda yashagan turkiy xalqlarning noyob mushtarak madaniy merosi sifatida ajdodlarimizning ma’naviy-badiiy, ilmiy-tarixiy salohiyatining balandligi, qadimiy va boyligidan Yorqin nishonadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Turondagi ilm-fan, madaniyat va san’at taraqqiyoti haqida qaysi manbalarda ma’lumotlar beriladi?
2. Ajdodlarimizning e’tiqodiy qarashlari haqida nimalar bilasiz?
3. Turon hududida turkiy tilning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni haqida gapirib bering.
4. Markaziy Osiyo xalqlari qanday yozuvlardan foydalangan?

5. Qadimgi Turon xalqlari ilm-fani, qadimgi arxitektura Yodgorliklari, tasviriy va naqqoshlik san’ati xususida so’zlang.

6. Eng qadimgi og’zaki adabiyot Yodgorliklari qaysi manbalar orqali bizgacha yyetib kelgan?

7. Qadimgi mif va afsonalar haqida nimalarni bilasiz?

8. Qadimgi qo’shiqlar va lirik She’rlar haqida gapirib bering.

9. Qahramonlik eposi nima? Namunalar keltiring.

10.»To’maris», «Shiroq» rivoyatlari va Mirkarim Osimning shu mavzuga doir hikoyalari haqida so’zlang.

11. Zarina va Striangiya eposining qisqacha mazmunini hikoya qilib bering.

12. Zariadr va Odatida qissasi, Rustam va Siyovush haqidagi qahramonlik eposlarining o’ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo’ladi?

13. “Avesto” qanday kitob, u haqda nimalarni bilasiz?

14.O’rxun-Enasoy Yodgorliklari, ularning o’rganilishi tarixi va badiiy ahamiyati haqida so’zlang.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o’rtalarida qadimgi Turon hududi. Dehqonchilikda sun’iy sug’orishdan foydalanish. Xunn qabilalari. Grek, oromiy, forsiy mixxat yozuvi. «Avesto», Xorazm, so’g’d, ko’shon, run, uyg’ur, arab yozuvlari. Uch cholg’Uchi ayol surati. Mif. Axura Mazda. Angra Manyu. Anaxita. Kayumars. Mitra. Yima. Gershasp. Elikbek. Alp erto’nga. «Qish va yoz munozarasi». «Ov». To’maris. Sparganis. Shiroq. Ranosbat. Zarina. Striangiya. Zariadr. Odatida. Rustam. Siyovush. Kayxusrav. AfrOsiyob. «Avesto». Nask. «YAsna». “Videvdot” («Vendidot»). «YAsht». «Vispred» («Visparad»). Bilga xoqon. Kultegin. To’nyuquq. Eltarish xoqon.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. Toshkent: «O’zbekiston», 1994.

2. Prezident Islom Karimovning «Avesto» kitobining 2700 yilligiga bag’ishlab barpo etilgan Yodgorlik majmuining ochilishi marosimidagi nutqi. «O’zbek tili va adabiyoti», 2001, 6-son, 3-7-betlar.

3. Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahrfi mahosin ahl al-asr, «Fan», Toshkent – 1976, 652 bet.

4. Mallayev N. M. O’zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. Toshkent: «O’qituvchi», 1976, 27-78-betlar.

5. O’zbek adabiyoti tarixi. 1-tom, Toshkent: «Fan», 1977, 19-79-betlar.
6. «O’zbek mumtoz adabiyoti namunalari». 1-jild (Eng qadimgi davrdan XIV asrgacha) «Fan», Toshkent-2003, 331 bet.
7. Mahmud Qoshg’ariy. Devonu lug’otit turk. Uch tomlik. Toshkent: «Fan» 1960-1963.
8. S.P.Tolstov. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. «Fan» nashriyoti. Toshkent-1964, 440 bet.
9. Qayumov A. P. Qadimiyat obidalari. Toshkent, 1973 .
10. Qadimiy hikmatlar. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1987.

III BOB
X-XII ASRLAR O’ZBEK ADABIYOTI

3.1. X-XII asrlardagi madaniy hayot

Xalqimiz madaniyati taraqqiyotida X-XII asrlar alohida o’rin tutadi. Arablar istilosidan so’ng Movarounnahr deya nomlangan qadimgi Turonda yashovchi xalqlar Eron, Kavkaz, Hindiston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan o’rnatilgan madaniy aloqalarini yanada rivojlantirdilar. Bu o’lkada istiqomat qilgan alloma, olimlarning buyuk kashfiyotlari, yirik ilmiy asarlari yaratildiki, ular jahon ilm-fanining kamol topishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Turon zaminida arxitektura, tasviriy san’at, naqqoshlik, o’ymakorlik kabi madaniy hayotning bir qancha sohalarida jiddiy ijobiy o’zgarishlar yuz berdi. Adabiyot rivojida ma’lum jonlanish yuzaga kelganligi ko’zga tashlana boshladi.

VII asrning oxiri VIII asr boshlarida Markaziy Osiyo hududiga arablarning bostirib kirishi natijasida sharqiy va g’arbiy qismga bo’lingan Turk xoqonligi zaiflasha boshladi hamda tarix sahnasini istilochilarga bo’shatib berdi. Bu davrni ulug’ tarixiy burilish, mafkuralar, e’tiqodlar kurashi davri deb atash mumkin. Arablar istilosi qadimgi Turon xalqlari madaniyati taraqqiyotida o’zining jiddiy ijobiy va salbiy ta’sirini ko’rsatdi. Manbalarda qayd etilishicha, 705-yildan Qutayba ibn Muslim xalifaning noibi bo’lib Turonga kelgach, bosqinchilik harakatlari avj oladi. Shuningdek, mahalliy

xalqning ko’p asrlik madaniy Yodgorliklari yo’q etila boshlandi. Beruniyning ma’lumot berishicha, Qutayba Xorazm yozuvini bilgan va shu voha xalqlari og’zaki badiiy ijod namunalari ijrosi bilan shug’ullangan kishilarni, olimlarni turli yo’llar bilan ta’qib ostiga oladi va yo’q qilib yuboradi. Shunday qilib, arablar davlat ishlarida o’z tillari hamda yozuvlarini joriy qila boshlaydilar. Mahalliy yozuvlarning qo’llanish doirasi qisqaradi. Zardushtiylik diniga e’tiqod qo’ygan yerli aholi islom dinini tezda qabul qilmaydi. O’z e’tiqodiga sodiq qoladi. Movarounnahrda istilochilarga qarshi birin-ketin yirik xalq qo’zg’olonlari boshlanadi. 720-722 yillarda Divashtich rahbarligida Samarqand va Panjakentda shunday xalq qo’zg’oloni bo’lib o’tadi. Shuningdek, 750-751 yillarda Sharik boshchiligida Buxoroda xalqning norozilik kurashi sodir bo’ladi. Bular orasida 776-784 yillarda Buxoro, Samarqand, Nasaf va Keshda Muqanna boshchiligidagi xalq harakati hududiy ko’lami va o’zining uzoq davom etganligi, arablarga jiddiy qarshilik ko’rsatilganligi bilan ajralib turadi. Manbalar ma’lumotiga ko’ra, Muqanna arablar qo’liga tushmaslik uchun o’zini olovga tashlab halok qiladi.

IX asrda ham arablarga qarshi xalq norozilik harakati va qo’zg’olonlari jiddiy tus ola boshladi. Istilochilar qurol kuchi bilan buning oldini olish imkoniyati yo’qligiga amin bo’lishgach, mahalliy aristokratiya - zodagonlar vakillarini ishga solishga majbur bo’lishadi. Biroq bunday urinishlar ham kutilgan natijani bermaydi. Xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vafotidan so’ng uning ikki o’g’li Ma’mun va Amin o’rtasida 809-813 yillarda o’zaro toj-taxt urishlari bo’lib o’tadi. Movarounnahrlik zodagonlar Ma’munning xalifa bo’lishiga ko’proq xayrixoh edilar. Ammo arablarning xohishiga ko’ra, Amin taxt egasiga aylanadi. Ma’mun esa ukasiga qarshi kurashini davom ettiradi. Bu harakatni Tohir ibn Husayn boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari o’z Yordamlari bilan quvvatlantirib turishadi. 813-yilda Ma’mun Bag’dodni qo’lga kiritadi va o’zini xalifa deb e’lon qiladi. 812-yilda Tohir ibn Husayn Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlangan edi. Oradan bir yil vaqt o’tmay, u o’z mamlakatini mustaqil deb e’lon qiladi. Tohir ibn Husaynning ko’p vaqt o’tmay vafot etishi mustaqillikni to’la ta’minlash imkoniyatini bermaydi. Uning o’g’li Abul Abbos Abdullohning 830-844 yillardagi noibligi davrida mamlakat poytaxti Marvdan NiShopurga ko’chiriladi. Bu davrda Somoniylarning mavqeyi ancha tiklana boradi. Ular Movarounnahrning Samarqand, Farg’ona, Shosh viloyatlarida noiblik qilayotgan edilar. IX asrning o’rtalariga kelib Movaraunnahrdagi barcha viloyatlarni Somoniylar idora qila boshlaydi. Ismoil Somoniy hukmdorligi davrida Movarounnahr arab xalifaligi istibdodidan tamoman ozod etiladi. Somoniylar davlati ancha

markazlashgan, yirik davlat bo'lib, keyinchalik shu hududda qoraxoniylar, saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatining vujudga kelishi uchun siyosiy-tarixiy shart-sharoit hozirlab beradi.

Arablar qadimgi Turon madaniyatiga jiddiy talofot yetkazgan bo'lsalarda, ancha ilg'or g'oyalarga ega bo'lgan, insonni komillik darajasiga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi islom dinini olib kirdilar. Movoraunnahr aholisi bu dinni dastlab keskin rad etgan bo'lsa ham, doimiy targ'ibot va tashviqotlar natijasida islom dini qabul qilinadi. Islomda olamning yaratuvchisi yakka-yu yagona, azaliy va abadiy Allohdir, degan bosh g'oya hukmrondir. Muhammad alayhis-salom Alloh rasulidir. Qur'oni karim islom dinining muqaddas kitobi bo'lib, unda Shariatning tayanch ahkomlari asosiy aqida va g'oyalari o'z ifodasini topgan. Movarounnahrliklar bu dinni qabul qilibgina qolmay, keyinchalik uning otashin targ'ibotchisiga ham aylandilar. Ayniqsa, Imom Ismoil ibn al-Buxoriyning (810-871) buyuk xizmatlari musulmon olamida Yuksak ehtiromga sazovordir. Mashhur muhaddis olim Imom Ismoil ibn al-Buxoriy Muhammad alayhis-salom hadislari, ya'ni turli munosabat bilan aytilgan gaplari, ibrat, ko'rsatma va nasihatlarini hamda u kishining pok axloqi, najib xulq-atvoriga doir hikmatlarni yig'ib, "Al-jomi' as-sahih" ("Ishonarli to'plam") nomli to'rt jildli ulkan kitobni tuhfa qildi. Mazkur kitobdan muallifning yillar davomida olti yuz ming hadis ichidan tanlab olib, eng ishonchli hadislar sifatida taqdim etgan 7275 ta hadis o'rin olgan. Bu kitob Qur'oni karimdan keyingi muqaddas islomiy manba sanaladi.

Movarounnahrda arab xalifaligi hukmronligi tugatilgandan so'ng O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida o'z davlatchiligining shakllanish jarayoni ancha tezlashdi. Tojiklar yagona xalq sifatida tanildi. Movarounnahr, Xuroson va Eronning katta qismini qamrab olgan Somoniylar davlatida dariy (fors-tojik)ga davlat tili maqomi berildi. XI-XII asrlarda turkiy elatlar, jumladan, o'zbeklar Movarounnahr aholisining katta qismini tashkil eta boshladi. O'z mushtarak tiliga ega «to'qson ikki bori» (Turdi Farog'iy) turkiy qavmlardan iborat bo'lgan o'zbeklarning vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-madaniy shart-sharoiti tufayli adabiy tilining shakllanish jarayoni kuchaydi. Bu davrda qishloq xo'jaligining ancha taraqqiy topganligi manbalarda o'z ifodasini topgan. Shuningdek, hunarmandchilikning rivojlanishini ta'minlashda ham qishloq xo'jaligidagi samaradorlik o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Ishonchli manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, bu davrda qaysi joyning aholisi 32 hunarni bilsa, o'sha yerga Shahar maqomi berilgan. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Omul (Chorjo'y) kabi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy

markazlar ana shunday “32 xil hunar” egalari yashaydigan Shaharlar sirasiga kirar edi.

O’rta Osiyo xalqlarining X-XIIasrlarga oid arxitektura va san’atida hukmron mafkuraga aylangan islom dinining asosiy g’oyalari o’z ifodasini topganligi yaqqol ko’zga tashlanadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O’zgan, Marv kabi Shaharlarda ko’plab saroy, masjid, xonaqoh, madrasa, minora, tim, sardoba va boshqa binolar qad rostladi. Somoniylar, qoraxoniylar, Xorazmshohlar davrida qurilib, bugungi kunga qadar saqlanib qolgan tarixiy obidalar X-XII asrlarning muhim madaniy Yodgorligi sanaladi. Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi O’rta Osiyo arxitektura san’ati bu davrda yangi taraqqiyot bosqichiga yuz burganligining Yorqin namunasidir. Ushbu maqbara kub shaklida barpo etilgan bo’lib, tomi gumbaz qilib yopilgan. Gumbazning o’rtasida kichkina minoracha mavjud. Binoning bir xilda bezatilgan tashqi manzarasi bor. Uning ichki va tashqi tomoni naqshlar bilan bezatilgan. Ismoil Somoniy maqbarasini barpo etishda qadimgi me’morchilik an’analari saqlanib qolganligi ham sezilib turadi. Binoning tashqi burchaklaridagi ustunlar va unda ishlatilgan xilma-xil unsurlar shunday xulosaga kelish imkonini beradi.

Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida qurilgan noyob arxitektura Yodgorliklari uzoq yillar o’tishiga qaramay, tarovatini yo’qotmay, hamon salobat to’kib turibdi. Bulardan Navoiy viloyati Hazora qishlog’idagi Dehgaron masjidi (XI asr) va uning yaqinidagi «Raboti Malik» nomli katta hamda go’zal karvonsaroyni ko’rsatish o’rinlidir. Mazkur me’moriy obidalar o’z tarhi va qurilishi bilan san’at darajasiga ko’tarilganki, ularni hamon hayrat bilan tamosha qilish mumkin. «Minorai kalon» nomi bilan shuhrat qozongan Masjidi jomi minorasi esa Buxoro qadimiy binokorligining eng yaxshi Yodgorliklaridan biridir. Bu minora 1127-yilda Arslonxon hukmdorligi davrida qurilgan. XII asrning oxirida Vobkentda ham shunday minora barpo etildi. 1108-yilda g’oyat pishiq reja asosida Surxandaryo viloyati Jarqo’rg’on tumanida shunday noyob me’morchilik Yodgorligi hisoblangan minora qad ko’tardi. Keyinchalik qayta ta’mirlangan Buxorodagi Namozgoh va Mag’oqi Attoriy masjidi ham ana shu asrga oiddir. Qoraxoniy va Xorazmshohlar hukmronligi davrida vujudga kelgan tarixiy obidalar son jihatidan ancha ko’p. Urganchdagi Faxriddin Roziy maqbarasi, Amudaryo qirg’og’i yaqinidagi Doyaxotin raboti, Kaspiy dengizining g’arb tomonidagi Beleuli tosh raboti, Marvdagi Sulton Sanjar saljuqiy maqbarasi va Talxatanbobo masjidi, O’zganddagi Uchta maqbara va bitta minora O’rta Osiyo xalqlari me’morchilik san’atining X-XII asrlardagi go’zal Yodgorliklaridir.

IX-XII asrlarda arxitektura bilan bir qatorda san’atning boshqa turlari, jumladan, naqqoshlik, tasviriy san’at, musiqa ham ancha rivojlandi. Xattotlik ham muhim ma’naviy ahamiyat kasb etuvchi sohalardan biri bo’lib, keng tarqaldi va taraqqiy etadi. Yirik feodal davlatlarining vujudga kelishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ilmiy-madaniy, adabiy-badiiy aloqalarning avj olishi tufayli fanning falsafa, mantiq, riyoziyot, tibbiyot, tarix, tabiiyot, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi sohalari rivoj topdi. Arab tili Sharq mamlakatlari orasida ilm-fan tili sifatida shuhrat qozondi. Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganch, Marv, Balx, Bag’dod, Shom kabi Shaharlar Sharq olimlari hamkorligining markazi bo’lib qoldi.

O’rta Osiyodan yetishib chiqqan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abunasr Farobiy, Ahmad Farg’oniy, Abu Ali ibn Sino, Aburayhon Beruniy kabi qomusiy olimlarning ilmiy faoliyati natijasi o’laroq bu muqaddas sarzamin shuhrat taratadi, jahon ilm-fani, madaniyati xazinasiga bebaho durdonalar qo’shadi. Shuningdek, tarixchi va adabiyotshunoslardan «Kitob ul - maorif», «Kitob ush-She’r va-sh-shuaro» asarlarining muallifi Abdulloh ibn Muslim Marvaziy Dinovariy, «Zaynul-axbor» («Xabarlar ko’rki») nomli asar muallifi Abusaid Gardiziy, dariy tilida 30 tomlik kitob yozgan Abulfayzi Boyhaqiy, «Buxoro tarixi» kitobi bilan shuhrat qozongan Narshaxiy , «Tarixi muluki Turkiston» asari sohibi Majididdin Muhammad ibn Adnon, tarixchi Miskaveyx, tibbiyot rivojiga hissa qo’shgan olimlardan Ibn Xammor, Najibuddin Samarqandiy, matematik va astronom Muhammad Balxiy, huquqshunos Burhoniddin Ali Marg’inoniy, tilshunoslardan Abulqosim Zamaxshariy, Mahmud Qoshg’ariylar ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo’shdilar.

3.2. X-XII asrlar badiiy adabiyot taraqqiyotida yangi bosqich.

X-XII asrlar badiiy adabiyot taraqqiyoti uchun ham muhim bosqich bo’ldi. Bu davrda xalq og’zaki ijodining boy va xilma-xil asarlari vujudga keldi. Fors-tojik (dariy) va turkiy adabiy til shakllana boshladi. Bu tillarda ijod qilgan atoqli so’z san’atkorlarining nomi asrlarosha umrboqiylik kasb etgan o’lmas asarlari bilan yashab kelmoqda. Somoniylar davrida arab tili o’z hukmronligini birmuncha yo’qotib, mahalliy tillardan dariyga o’rnini bo’shatib bergan bo’lsa-da, Movarounnahr-u Xurosonda yashagan aksariyat shoirlar arab tilida asarlar yaratishda davom etdilar. Bu haqda niShopurlik mashhur olim, yozuvchi, adabiyotshunos, tilshunos va tarixchi Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038)ning «Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr» («Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi») nomli tazkirasi boy ma’lumot beruvchi

muhim manba sanaladi. As-Saolibiy juda ko'p Sharq mamlakatlarida bo'lgan. Jumladan, Arabiston, Iroq, Xuroson, Movaraunnahr, Xorazm kabi o'lkalarni kezib chiqqan. Manbalarda qayd etilishicha, uning 34 asari mavjud bo'lgan. As-Saolibiy nomini ko'proq uning «Yatimat ad-dahr» tazkirasi tanitgan. Tazkira to'rt qismdan tarkib topgan bo'lib, uning har bir qismi o'n bobga ajraladi. Ma'lumotlarga ko'ra, asar 995-1000 yillar mobaynida yozib tugatiladi. Keyinroq, taxminan 1020-yillarda muallif kitobni ikkinchi marta qaytadan ishlab, unga yana yangi shoirlar haqidagi ma'lumotlarni qo'shgan.

Tazkiraning to'rtinchi qismida Somoniylar sulolasi hukmronligi boshlanishidan g'aznaviylar davlati boshlarigacha yashagan shoirlar, turli mamlakatlardan Buxoroga kelib har xil lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan so'z san'atkorlari haqida ma'lumot beriladi. Mazkur qismning dastlabki Uch bobi Buxoroning o'zida yashab ijod etgan 48 shoirning hayoti va ijodiga doir qaydlardan iborat. Tazkiraning to'rtinchi bobi Xorazm shoirlaridan yettitasini o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu qismda asli niShopurlik bo'lib, Movarounnahrga kelib qolgan shoirlar ham kiritilgan. «Yatimat ad-dahr»da nomlari tilga olingan ijodkorlar arabnavis shoirlardir. Shunday bo'lishiga qaramay, ularning ayrimlari fors-tojik tilida so'zlashgan, hatto She'rlar yozgan zullisonayn adiblar hisoblanadi. Arab tilida ijod etgan shoirlardan ayrimlari fors-tojik tilidagi asarlarni arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanganlar. As-Saolibiy tazkirasida Abul Hasan al-Muammal, Abu-l Qosim Ismoil ash-Shajariy, Abu Ahmad ibn Abu Bakr al-Kotib, Abu Tayyib Muhammad ibn Hotim al-Mus'abiy, Abu-l Husayn Muhammad al-Murodiy singari movarounnahrlik tab' ahli haqida nodir ma'lumotlar va ular asarlaridan namunalar berilgan. «Yatimat ad-dahr»da ma'lumot berilishicha, Abu Tayyib Muhammad ibn Hotim al-Mus'abiy davlatni boshqarish, vazirlikda taniqli, odamlar bilan muomala-munosabatda dilkash, shirinsuxan va fozil inson bo'lgan. As-Saolibiy uning qo'lini kishini hayratga soladigan chaqmoqqa, qalamini qog'oz uzra kezuvchi sayyoraga, xatini mevali daraxtlar bilan qoplangan boqqa, notiqligini Utoridga qiyoslaydi. Utorid (Merkuriy) sayyorasi qadimdan yozuvchi va shoirlar homiysi sifatida talqin qilingani bois tazkira muallifi Al-Mus'abiy notiqligini shunday tashbeh bilan ulug'laydi. Tazkiranavisning ma'lumotiga ko'ra, Amir as-Sa'id Nasr ibn Ahmad son-sanoqsiz fazilatlarini nazarda tutib adibni vazirlik lavozimiga ko'taradi. O'zining suhbatdoshlari qatoriga qo'shadi, biroq ko'p o'tmay vazirlik uning boshiga yetadi va Al-Mus'abiy 938-yili vafot etadi.

Abu Tayyib al-Mus'biy Rudakiyning yaqin do'stlaridan bo'lib, salohiyatli zullisonayn shoir edi. Afsuski, X asrning birinchi yarmida

Buxoroda yashagan Al-Mus’abiyning adabiy merosidan namuna sifatida arab tilidagi 13 bayti va fors-tojik tilida bitilgan 14 bayt She’ri bizgacha yyetib kelgan, xolos. «Yatimat ad-dahr»da keltirilgan Movarounnahr va xurosonlik shoirlarning She’rlari qasida, vasf, hajv, marsiya, masnaviy, g’azal, urjuza janrlariga mansubdir. Ko’rinadiki, Movarounnahr va Xurosonda arab tili faqat ilm-fan sohasi uchungina emas, balki bu tilda noyob badiiyat namunalari ham ijod etilgan. Bunday adabiy hodisa xalqlar va adabiyotlar o’rtasidagi do’stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga, mavzu, g’oya, janr va badiiyat bobida ham tajriba almashinuvi uchun xizmat qilgan.

X-XII asarlarda dariy tilida vujudga kelgan badiiy adabiyot tadqiqotchilar tomonidan jahon madaniyati xazinasiga qo’shilgan bebaho durdona sifatida talqin etiladi. Fors-tojik tilining shakllanish jarayoni arablar istilosidan oldin boshlandi. VIII-IX asrlarda ijod etgan Abu Hafs So’g’diy, Abulabbos Marvaziy, Xanzala Bodgiziy, Muhammad Vasif va Firuz Mashriqiy kabi shoirlar dariy adabiy tilining shakllanishida muhim hissa qo’shdilar. IX-X asrlardan boshlab, Movarounnahr, Xuroson va Eronning katta qismini o’z hududiga birlashtirgan Somoniylar sulolasi hukmronligi davrida fors-tojik tilidagi adabiyot juda keng ko’lamda o’zining taraqqiyot bosqichlarini o’tadi. G’aznaviy va Saljuqiy hukmdorlari turkiy qabilalarga mansub bo’lsalar-da, nafaqat o’z hududlari, balki zabt etgan yerlarida ham somoniylar an’anasini davom ettirib, dariy tilini davlat tili va adabiy til sifatida qabul qildirdilar. Natijada X-XV asrlarda O’rta yer dengizidan Hindistongacha cho’zilgan katta hududda mushtarak adabiy til bo’lgan fors-tojik tilida jahonshumul ahamiyatga molik adabiyot vujudga keldi. Uning ijodkorlari faqatgina forsiyzabon shoirlar bo’lmay, hind, turkiy xalq vakillari bu mushtarak adabiyotning yirik namoyandalariga aylandilar. X asrning atoqli shoiri Rudakiy dariy adabiy tili va adabiyotining asoschisi sanaladi. Uni «Odamush-shuaro» («Shoirlarning odam atosi») deya ta’riflaganlar. Fors-tojik tilidagi adabiyot o’zbeklar tomonidan ham Yuksak qadrlangan. Jumladan, Daqiqiy, Unsuriy, Asadi Tusiy, Salmon Sovajiy, Umar Xayyom, Ubayd Zokoniy, Shayx Sa’diy, Xoja Hofiz kabilarning asarlari o’zbek muxlislari orasida ham keng tarqalgan.

Abu Abdulloh Rudakiy (855|65-940|42) Panjakentda dunyoga keladi. U Yoshligidan o’qishga juda katta ehtiros bilan qaraydi, She’riyatga qiziqadi. Ma’lumotlarga ko’ra, Rudakiy Samarqand madrasalaridan birida tahsil olayotganida uning shuhrati Somoniy hukmdorlariga borib yetadi. Shundan keyin uning hayoti mamlakat poytaxti Buxoro bilan bog’lanadi. Uni saroy xizmatiga jalb etadilar. Ammo qarilik chog’ida shoir quvg’inga Uchragan.

Rivoyatlarda bayon etilishicha, Rudakiyning hur fikrliligi uchun ko'zlariga mil tortganlar. Ayrim rivoyatlarga binoan, u tug'ma ko'r bo'lgan. Bir-birini inkor etuvchi bu qarashlarga rudakiyshunoslikda hamon qat'iy nuqta qo'yilgan emas. Inson erki, hurlik kuychisi bo'lgan shoirning keyingi hayoti iztiroblar iskanjasida o'tgan. Rudakiy avlodlarga o'zidan ulkan adabiy meros qoldirdi. Biroq uning asarlari davr to'fonlaridan o'tib, bizgacha to'la holida yetib kelmagan. Shoirning g'azal, ruboiy, qasida hamda pand-nasihat yo'nalishidagi dostonlari mavjuddir. Adibning "Qarilikdan shikoyat", "Modari may" («May onasi») qasidalari, Buxoro ta'rifiga atalgan "Bo'yi jo'yi Mo'liyon" madhiyasi va bir necha ruboiylarigina saqlanib qolgan. Uning boshqa asarlaridan ayrim parchalar ham zamonamizgacha yyetib kelgan. Manbalarda Rudakiyning "Kalila va Dimna" asari 12 ming baytdan ortiqroq ekanligi qayd etilsa-da, hozircha uning ming misrasigina fanga ma'lum, xolos.

Mashhur qomusiy olim Abu Ali ibn Sino tojik xalq to'rtliklari asosida ruboiy janrini yozma adabiyotga olib kirgan bo'lsa, niShopurlik shoir Umar Xayyom bu sohada shuhrat qozondi. Buxorolik shoir Daqiqiy qahramonlik dostonlari majmui "Shohnoma"ni yozishga kirishadi. Tuslik Abulqosim Firdavsiy Daqiqiy boshlagan bu xayrli ishni davom ettirib jahonga mashhur, o'lmas "Shohnoma"ni vujudga keltirdi. Mazkur an'anani XI asrda yashab ijod etgan shoir Asadi Tusiy o'zining "Gershaspnoma" asarida takomillashtirdi. X-XII asrlarda fors-tojik tilida ijod etgan ozarbayjonlik Xoqoniy, Falakiy, Mahastiy va Nizomiy Ganjaviylar badiiy adabiyot taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Ayniqsa, xamsachilik an'anasining Nizomiy Ganjaviy nomi bilan bog'liq ekanligi uni Sharqning buyuk shoiri va mutafakkiri maqomiga ko'taradi.

X-XII asrlar turkiy adabiy tilning ravnaq topishi, o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, turkman va boshqa xalqlarning shakllanish jarayoni, umumturkiy yozma adabiyotning vujudga kelishi va rivojlanishiga muhim bosqich bo'ldi.

Turkiy qabila va elatlarning O'rta Osiyoga ko'chib kelishi, ayniqsa, qoraxoniylar davrida kuchaydi. Ularning yerli aholi bilan chatishib ketishi bilan turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning nufuzi yanada oshdi. XII asrga kelib Yettisuv, Farg'ona, Xorazm, Toshkent, O'zgand, Sayram, Qashqar, Buxoro kabi Shaharlarda ham turkiy xalqlar soni ancha ko'paydi. Mahmud Qoshg'ariyning ma'lumot berishicha, turli turkiy xalqlarning chatishuvi va aralashuvi natijasida, o'g'iz, chigil, qipchoq lahjalari guruhidagi tillar singari umumiy so'zlashuv vositasi vujudga kela boshladi. Bunday mo'tadil vaziyat umumiy, mushtarak adabiy tilning shakllanish jarayonini tezlashtirdi. Mazkur hodisaning ro'y berishida qabilalar o'rtasida vujudga kelgan siyosiy-tarixiy,

adabiy-ma’naviy va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar, badiiy adabiyot, jumladan yozma adabiyot taraqqiyotining ta’siri beqiyos kattadir.

Mahmud Qoshg’ariyning “Devoni lug’otit turk” asaridagi xalq og’zaki ijodi va yozma adabiyot namunalaridan iborat She’riy parchalar turkiy xalqlarning ota-bobolari badiiy tafakkuri mahsuli bo’lganidek, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul - haqoyiq” dostonlari ham zikri o’tgan xalqlarning umumiy boyligi sifatida qabul qilinadi. Atoqli Sharqshunos olim Y.E.Bertels X asrda Buxoroda yaratilgan adabiyot haqida quyidagilarni e’tirof etgan edi: “Aslini aytganda, til nuqtayi nazaridan bu davr adabiyotini fors va arab adabiyotiga bo’lish haqiqatdan shartli narsadir. Aslida biz mavzu, uslub, tashqi ko’rinishi bir xil, faqat tildagina farqi bo’lgan yagona adabiyotga egamiz. Shuni ham aytish kerakki, shoirlar ko’p holda ikki tilni bilishgan va har ikki tildan birday osonlik bilan foydalanishgan, bir fikrning o’zini goh u, goh bu tilda ifoda etishgan”. Bu fikrni arab va fors tillarida yaratilgan adabiyot bilan yonma-yon vujudga kelgan turkiy tildagi badiiy so’z san’ati namunalariga nisbatan ham qo’llash o’rinlidir. Zero, qardosh xalqlar adabiyotining tayanch g’oyaviy manbasi Qur’oni karim, hadisi sharif bo’lganidek, “Qutadg’u bilig”, “Hibatul-haqoyiq” dostonlarining ham ma’naviy sarchashmalari ana o’sha nodir kitoblar sanaladi. Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg’oniy singari mutasavvif shoirlar bu ilohiy ne’matlardan yanada ko’proq bahramand bo’lgan o’z davrining ulug’ donishmandlari sanaladi. Demak, X-XII asrlar xalqlar do’stligi - adabiyotlar do’stligi, adabiy aloqalar rivoji uchun muhim davr bo’lishi bilan bir qatorda, badiiy so’z san’atining keyingi bosqichlaridagi rivojlanishi uchun muhim omil vazifasini ham o’tadi.

3.3.Mahmud Qoshg’ariy va uning «Devoni lug’otit turk» asari

Mashhur qomusiy olim, o’z davrining peshqadam ziyolilaridan biri Mahmud Qoshg’ariy qoraxoniylar sulolasi hukmronligi davrida, XI asr boshlarida Bolasog’unda dunyoga keldi.

Hozirgi Qirg’iziston hududida joylashgan bu makon qoraxoniylarning poytaxt Shaharlaridan biri edi. Ushbu davlat hududida Buxoro, Samarqand, Shosh, Qashqar singari madaniy markazga aylangan Shaharlar mavjud bo’lib, Qashqardan Amudaryogacha cho’zilgan ulkan kengliklar qoraxoniylar davlati tarkibida edi. Manbalarda qayd etilishicha, Isfijob (Sayram), O’tror, Shosh, Bolasog’un, Xo’tan kabi Shaharlar qoraxoniylarning poytaxt maqomidagi

qarorgohlari edi. Mahmud Qoshg'ariy tug'ilgan davrda mamlakat nisbatan iqtisodiy- madaniy yuksalishga erishdi.

Olimning to'liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Qoshg'ariy bo'lib, uning bobosi Qoshg'arda tug'ilgan, keyinchalik Bolasog'unga ko'chib kelgan. Shu sabab bo'lsa kerak, olim Qoshg'ariy nisbasini o'ziga qabul qilgan. Mahmud Yoshligidan ilm olishga o'zgacha ixlos bilan qaraydi. U dastlab qoshqarlik Husayn Xalifadan ta'lim oladi. Keyinchalik Samarqand, Buxoro, NiShopur, Marv va Bag'dodda tahsilni davom ettiradi. Turli ilmlarni o'rganadi, ayniqsa, arab filologiyasi hamda turkiy xalqlarning tili, turli qabila va urug'larning urf-odati, xalq og'zaki badiiy ijodiyoti bilan ko'proq shug'ullanadi. Mahmud Qoshg'ariy Yuqori Chindan boshlab Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoroga qadar cho'zilgan katta hududni kezib chiqadi hamda bu yerlarda istiqomat qiluvchi turkiy qavmga mansub qabila va urug'larning turmush tarzi, urf-odatlari, tili, kasb-kori, og'zaki va yozma badiiy ijodini zukkolik bilan sinchiklab o'rganadi. U turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirqizlar (qirg'izlar)ning Shahar, qishloq hamda yaylovlarini kezib lug'atlar to'pladi, turli xil so'zlarning xususiyatlarini o'rganadi. Natijada turk-arab lug'atining ilk namunasi bo'lgan "Devoni lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar to'plami")ni vujudga keltiradi.

"Devonu lug'otit turk"ning nusxalari XX asr boshlarida Istambulda topilib, ilm ahliga ma'lum etildi. Uning Istambul kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasi asar yaratilgandan ikki yuz yil o'tgach, Abu Bakr bin Abulfothat - Tasoviy Addimishqiy tomonidan ko'chirilgan. Kotibning ma'lumotiga ko'ra, u asl nusxa asosida kitobning yangi nusxasini kitobat qilgan. 1939-1941 yillarda bu kitob Bosim Atalay tomonidan hozirgi turk tiliga ayrim izohlar bilan tarjima qilinib, Uch jild hajmida nashr etildi. Sharqshunos olim S.Brokkel'man "Devon"ni nemis tiliga (Leyptsig, 1928) tarjima qiladi. Shuningdek, "Devonu lug'otit turk" juda ko'p tilshunos va adabiyotshunos olimlarning diqqatini o'ziga jalb etdi. Jumladan, A.K.Borovkov, A.N.Kononov, N.A.Baskakov, V.Reshetov, F.A.Abdurahmonov kabi olimlarning turkiy tillar tarixiga oid tadqiqotlarida "Devonu lug'otit turk"ka ko'p murojaat qilinadi. O'zbekistonda bu nodir manbaning ilk tadqiqotchisi va noshiri professor A.Fitratdir. Yyetuk adib va olim asar tarkibidagi barcha She'riy parchalarni yiqqan, ularni so'zma-so'z tarjima qilib, alohida lug'at bilan nashr ettirgan edi. Shuningdek, bu She'rlardan bir qismini o'zining «O'zbek adabiyoti namunalari» (Samarqand, 1926) nomli to'plamiga ham kiritgan. 1960-63 yillarda tilshunos olim S.Mutallibov tomonidan «Devonu lug'otit turk»ning o'zbek tiliga tarjima qilinib, ayrim izohlar bilan nashr etilishi, keyingi

tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Akademik A.Qayumovning «Qadimiyat obidalari» (Toshkent, 1973-yil) kitobida ham «Devon»dan tanlangan She'riy parchalar va maqollarning tarjimasi hamda qisqacha adabiy tahliliga o'rin beriladi.

Mahmud Qoshg'ariy turkiy tillar tarixini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi yana bir nodir asar «Javohir un-nahv fi lug'otit turk» («Turkiy tillarning nahv (sintaksis) durdonalari qoidalari»)ning ham muallifidir. Afsuski, bu asar bizgacha yetib kelmagan yoxud hozirgacha noma'lum qolib kelayotir. Shunday bo'lsa-da, u turkiy tillar grammatikasini ishlab chiqqan yirik va zabardast birinchi tilshunos olimdir.

«Devoni lug'otit turk» uzoq davom etgan ilmiy izlanishlarning mahsuli bo'lib, muallif hijriy 464-yilning jumodul-avval oyi boshlarida kitobning birinchi tahririni yozishga kirishgan. Muallif ma'lumotiga ko'ra, asar qayta-qayta tahrirdan o'tkazilgan. Uning to'rtinchi tahriri hijriy 466-yilning, jumodul-avval oyi 12-kuni nihoyasiga yetkazilgan. Shunday qilib, «Devonu lug'otit turk» milodiy hisob bilan 1074-yilda yozib tugatilgan. «Devon» muqaddima va lug'at qismidan tarkib topgandir. Muqaddimada «Devon»ning yaratilish sabablari, uni yozishda uzoq yillar olib borilgan ilmiy izlanishlar tafsilotlari, asarning qurilishi, «turkcha so'zlarning tuzilishi», «turk tabaqalari va qabilalari» kabi ko'lamli masalalar xususida teran ilmiy-nazariy xulosalar bayon etiladi. «Devonu lug'otit turk» davr kitobnavislik an'analari ruhida arab tilida yozilgan. Uning negizini tashkil etuvchi lug'at qismida muallif olti mingdan ziyodroq turkiy so'zlarning lug'aviy ma'nosini arab tilida izohlaydi. Asarning kirish qismida Mahmud Qoshgariy Rum (Kichik Osiyo)dan Xitoygacha bo'lgan yerlarga bajagnak, qipchoq, o'g'uz, yamak, boshqird, basmil, qay, yaboqu, tatar, qirgiz, chigil, tuxsi, yag'mo, igroq, jaru, jamul, uyg'ur, tangut, tabg'ach kabi turkiy xalqlar istiqomat qilganligini e'tirof etishi bilan birga zikri o'tgan qavmlar yashagan jug'rofiy hududlarni ko'rsatuvchi doira shaklidagi xaritani ham taqdim etganki, mazkur kashfiyot muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kitobning lug'at qismida so'zlarning joylashtirilishi tartibi arab tili grammatikasi qoidalari asosida beriladi. Unda fe'llar aniq o'tgan zamon shaklida keltiriladi. Shuningdek, so'zlar ulardagi harflar soniga qarab ajratib chiqilgan. So'zlarning muzoafligi (alif, yoy, vov harflarining yo'qligi)ga ham alaohida e'tibor qaratilgan.

Garchi «Devonu lug'otit turk» muallifi kamtarlik qilib, o'z asarini lug'at deb nomlagan bo'lsa-da, mazkur tadqiqot bugungi kun istilohlariga ko'ra faqatgina lug'at bo'lib qolmay, balki qadimiy taraqqiyot tarixiga ega bu tilning

fonetik, morfologik, leksik xususiyatlarini mukammal izohlab bergan to'la ma'nodagi qiyossiz bir qomusdir. Asarda ko'pgina so'zlarning kelib chiqishi, jumladan, O'rta Osiyo hududidagi ayrim Shaharlarning nomlari izohlanadi. Aytilganlar bilan bir qatorda nodir kitobda turkiy xalqlarning urf-odatlari, mavsum marosimlari, ular taqdiriga aloqador ba'zi tarixiy voqealar haqida ham noyob ma'lumotlar beriladi. Shu jihatdan quyidagi iqtibos fikrimizning Yorqin dalili bo'la oladi:

«Qaz - AfrOsiyob qizining nomi. Qavzin Shahrini shu qurgandir. Bu so'zning asli qaz (g'oz) o'ynaladigan joy demakdir. Chunki u shu yerda turar va shu yerda o'ynar edi. Shuning uchun ba'zi turklar Qavzinni turk Shaharlaridan hisoblaganlar. Shuningdek, Qum Shahri ham chegara hisoblanadi. Chunki Qum turkcha so'zdir. AfrOsiyobning qizi bu yerda ov qilar va o'ynar edi. Ba'zilar turk Shaharlari chegarasi Marvash-Shohijondan boshlanishini so'zlaydilar. Chunki Qazning otasi To'nga Alp Er - AfrOsiyobdir. U Tahrimasdan Uch yuz yil keyin Marvni bino qilgandir. Ba'zilar butun Movarounnahrni turklar o'lkalaridan deb hisoblaganlar. Uning bir oti Dizruyindir. U sariqligiga ko'ra, mis Shahri demakdir. Bu Buxoroga yaqindir. Bu yerda AfrOsiyobning qizi Qazning eri Siyovush o'ldirilgandir. Majusiy-otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib Siyovush o'lgan joy atrofida yig'laydilar. Mollar so'yib, qurbonlik qiladilar. So'yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to'kadilar. Ularning odatlari shunday. Butun Movarounnahr Yankanddan sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk Shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand, Semizkand; Toshkand, Shosh; O'zkand, Tunkand nomlarining hammasi turkchadir. Kand turkcha Shahar demakdir. Ular bu Shaharlarni qurdilar va shunday nom qo'ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, sungular Ajam Shaharlari kabi bo'lgan. Hozir Turk o'lkalarining chegarasi Abisgun dengizi bilan o'ralgan. Rum o'lkasidan va Uzkanddan Chingacha cho'zilgan. Uzunligi besh ming farsah, eni Uch ming farsah, hammasi sakkiz ming farsahdir («Devonu lug'otit turk» 163-164-betlar).

«Devonu lug'otit turk» adabiy qimmati Yuksak bo'lgan manbalardan biridir. Asarda Uch yuzga yaqin She'riy parcha va juda ko'p maqol hamda hikmatli so'zlar mavjud bo'lib, muallif ulardan turkiy so'zlarning lug'aviy ma'nolarini arab tilida izohlash uchun foydalangan. Mahmud Qoshg'ariy «Devon»ning muqaddimasida bu kitobni maxsus alifbo tartibi bilan hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezaganini qayd etadi. «Devon»dagi She'riy parchalarning aksariyati inson hayotining muayyan lavhalari tasviriga bag'ishlangan. Ularda

mehnatsevarlik, qahramonlik, ezgulik, sevgi va sadoqat ulug'lanadi. She'riy parchalar orasida badiiy jihatdan Yuksak qimmatga ega bo'lganlari ham Uchraydiki, ular olim yashagan davrga qadar turkiy nazm ancha ravnaq topganligidan dalolat beradi. Chunonchi:

Aqturur ko'zum yulaq,
Tush qilur o'rdak, yug'aq.

Mazmuni:

Ko'zimdan oqqan Yosh suvlari ko'llarga aylanmoqda,
Unga o'rdak va suv qushlari qo'nayotir.

Ko'rinadiki, ushbu iqtibosda odamning, aniqrog'i, oshiqning ruhiy holati, dil iztiroblarining mubolag'aviy tasviri yaratilagan. «Devon»da ko'rib o'tilganidek, muhabbat mavzusiga bag'ishlangan she'riy parchalar mavjuddir. Ularda ba'zan sevgilining vafosizligi badiiy ifoda etilgan bo'lsa, ba'zan hajr iztiroblarini boshidan kechirayotgan oshiqning o'tli nidolari tasvirlanadi:

Uzuk mani kuchayur,
Tun-nun turub yig'layu,
Ko'rdi ko'zum tavraqin,
Yurdi qolib ag'layu.

Mazmuni:

Sevgim mening kuchayur,
Kecha-kunduz yig'layman,
Ko'rdi ko'zim ketganin,
Yurtda yolg'iz qolmayman.

(O'sha kitob, 275-bet.)

Yalkin bo'lub barduqu,
Ko'nglum angar bog'laYu.
Qoldim orginj qadg'uqa,
Ishim uzu yig'layu.

Mazmuni:

Seviklim ketti uzoq,
Ko'nglim unga bog'layman.
Qoldim chuqur qayg'uda,
Uzzu kunlar yig'layman.

(O'sha kitob, 324-bet.)

«Devonu lug’otit turk»dagi badiiyat namunalarining aksariyati axloqiy-ma’naviy mohiyatga ega. Ularda Yoshlarni keksalarning o’gitiga quloq tutishga chaqiriladi. Yuksak insoniy fazilatlar ulug’lanadi. Mahmud Qoshg’ariy juda ko’p Yurtlarda bo’lib, ilm va ilmli kishini ulug’lovchi She’riy parchalarni ham to’plashga harakat qilgan. Asar matnida ularga keng o’rin berilganligi fikrimizni quvvatlantiradi:

Us es ko’rub yuksak qaliq qodi chaqar,
Bilga kishi o’gut berib tavraq uqar,

Mazmuni:

Karkas yirtqich hayvonlardan qolgan go’shtni (ovni) ko’rib, o’zini osmondan tashlaydi.

Donishmand kishilarni qiziqtiradigan ov—o’git-nasihatdir. Ular o’gitni eshitishlari bilanoq quloqqa oladilar.

Pand- nasihat, o’gitlarni tinglash va ularga amal qilish donishmandlik belgisi bo’lib, she’riy parchalarda katta hayotiy tajribaga ega kishilarning so’zlariga amal qilishga chaqiriladi:

O’rgan aning bidigin,
Kunda angar baru.
Qutquluqni tapingin,
Qo’zg’il ko’var naru.

Mazmuni:

O’rgan uning bilimin,
Borgil o’shal sari.
Qutlug’ ishga bo’ysungin,
Kibrni quv nari.

«Eng qadimgi adabiy Yodgorliklar» mavzusini Yoritishda «Devonu lug’otit turk» asosida bizgacha yyetib kelgan xalq og’zaki ijodi namunalari bilan tanishgan edik. Jumladan, lirik she’r va qo’shiqlar, «Qish bilan yoz munozarasi», «Alp Er To’nga marsiyasi» xususidagi mulohazalar bu kitobning badiiy qimmati benihoya yuksak ekanligini yana bir karra dalillaydi. Bulardan tashqari, «Devon»dan o’rin olgan xalq maqollari uning badiiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu maqollar qadimgi ajdodlarimizning uzoq yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqqan, ularning yuksak aql-u zakovatidan dalolat beruvchi yaxlit xulosalardir. Ularda inson hayotining deyarli barcha jabhalari qamrab olingan. Quyidagi keltiriladigan xalq maqollari ham «Devonu lug’otit turk»dan o’rin olgan:

Ikki bug’ra ichashur, o’tra ko’kagun angilur.

Ikki erkak hayvon olishadi, orada pashsha yengiladi.

Usuqmisha saqig’ qamug’ suv ko’runur.

Chanqagan kishiga har bir sarob suv bo’lib ko’rinadi.

Ko’p sukutga qush qo’nar, ko’rklug kishiga so’z kelir.

Shoxi ko’p va o’zaro chatishib ketgan daraxtga qush qo’nadi, yaxshi kishiga so’z (maqtov) keladi.

Ardam boshi tildir.

Adab va fazilatning boshi til.

Sabanda sandirish bo’lsa, o’rtugunda irtash bo’lmas.

Yer haydash vaqtida puxtalik bo’lsa, xirmonda anglashilmovchilik bo’lmaydi.

Bilga erig ezgu tutib so’zin eshit, ardamini o’rganibon ishka sura.

Ilmli, aqlli kishilarga yaxshilik qilib, so’zlarini tingla. Ilmlarini, hunarlarini o’rganib, amalga oshir.

Qut bilgisi bilig.

Baxt belgisi bilim va aqldir.

Alp chiranda, bilka tirakda.

Botir jangda , olim suhbatda sinalar.

Quruq qoshiq og’izka yapmas.

Quruq qoshiq og’izga yoqmas.

Etli, tirnoqli ezirmas.

Etni tirnoqdan ajratib bo’lmaydi.

Qarg’a qarisin kim bilur, kishi olasin kim topar.

Qarg’a qarisini kim bilur, kishi olasini kim topar.

«Devonu lug’otit turk» turkiy xalqlarning X-XI asrlargacha yaratilgan badiiy asarlari tug’risida nodir ma’lumotlarni o’zida mujassam etganligi bilan ham qimmatlidir.

3.4. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» dostoni – turkiy «Shohnoma».

Yusuf Xos Hojibning turkiy xalqlar adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, ulug’ mutafakkir shoir va davlat arbobidir. Shoir qalamiga mansub «Qutadg’u bilig» dostoni turkiy yozma badiiy adabiyotning ilk yirik namunasi bo’lib, Yusuf Xos Hojibdan bizgacha yyetib kelgan yagona adabiy meros sanaladi. Unda o’z davrining yetuk donishmandi, taraqqiyparvar

ziyolisi bo’lgan ijodkorning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, falsafiy-irfoniy qarashlari majmuasi o’ziga xos uslubda badiiy ifodalangan.

Yusuf Xos Hojib hayoti va faoliyati haqida juda oz ma’lumot saqlanib qolgan. Aniqrog’i, uning hayot yo’li to’g’risida muallifning o’z asari «Qutadg’u bilig» («Saodatga yo’llovchi bilim») dagi ayrim ishoralar asosida ma’lum tasavvurlar hosil qilish imkoniyatiga egamiz. Shoir qoraxoniylarning yirik madaniy markazlaridan va poytaxt Shaharlaridan biri Bolasog’un (Quz o’rdu)da tug’ilgan. Dostonning muqaddimasida adib o’zi dunyoga kelgan yurtni quyidagicha tasvirlaydi:

Munuqi turug’laq Quz o’rdu eli,
Tub-asli, nasabdin yurumish tili.

Mazmuni:

Buning tug’ilgan eli Quz o’rdudir,
Tub-asli, nasl-nasabidan tili so’z ochdi.

Shoir dostonni yozgan paytida Yoshi ellikdan oltmishga tomon borayotganini qayd etadi:

Tegurdi manga ellik yashim,
O’qir oltmish emdi manga kel teyu.

Asarda «Qutadg’u bilig»ning yozilish tarixi haqida keltirilgan ishoralar Yusuf Xos Hojibning tug’ilgan yilini aniqlash imkonini beradi. Shoir dostonda bu haqda quyidagi satrlarni bitib qoldirgan:

Yil altmish eki erdi to’rt yuz bila,
Bu so’z so’zladim man tutib jan sura.
Tugal o’n sakkiz oyda aydim bu so’z,
O’durdum, adirdim, so’z evdib tera.

Keltirilgan iqtibosdan ma’lum bo’lishicha, adib «Qutadg’u bilig»ni hijriy 462- (1069-1070) yilda yozib tugatgan. Asarni yozish uchun bir yarim yil vaqt sarflangan. Shoir dostonni yozishga kirishganda Yoshi ellikda ekanligini nazarda tutsak, uning hijriy 410- (1019) yilda tug’ilganligi ma’lum bo’ladi. Muallif «Qutadg’u bilig» dostonining Bolasog’unda yoza boshlagani, uni Qashqarda nihoyasiga yetkazganligini ham eslatib o’tadi. Yusuf Xos Hojib o’z asarini qoraxoniy hukmdorlaridan Tavg’ach Bug’raxon (Tavg’ach ulug’ Bug’ro qoraxon Abo Ali Hasan binni Arslonxon)ga taqdim etadi. Hukmdor shoirning mehnatini yuksak qadrlab, unga «Xos Hojib» (muqarrab, eshik og’asi) unvonini beradi. Shundan keyin u Yusuf Xos Hojib nomi bilan taniladi.

O’z davrining peshqadam donishmandlaridan biri bo’lib yetishgan Yusuf Xos Hojib fors-tojik, arab tillarini, badiiy adabiyot, tarix, falakiyot,

geometriya, matematika, tabiiyot, geografiya kabi fanlarni chuqur o'zlashtirgan. Muallifdagi ana o'sha bilimdonlik dostonda Yorqin izlarini qoldirgan. Jumladan, u dostonida zamonasining buyuk olimlarining axloqiy-falsafiy qarashlari, tib ilmiga doir noyob mulohazalarni targ'ib qiladi, zamondoshlarini aniq fanlarni o'rganishga da'vat etadi. «Qutadg'u bilig» dostoni qoraxoniylar hukmronligi davrining ma'naviy-ma'rifiy talabi, ehtiyoji sifatida vujudga keldi.

Ma'lumki, Qashqardan Amudaryogacha bo'lgan hududni qamrab olgan qoraxoniylar mamlakati markazlashgan yagona hokimiyatga ega emasdi. U bir necha mayda hokimliklarga bo'linib ketgan edi. Bular orasida poytaxti Qashqar bo'lgan Sharqiy Turkiston, yana biri poytaxti Bolasog'un bo'lgan Yettisuv, keyinchalik Movarounnahr istilo qilingandan so'ng poytaxti avval O'zgand, keyinroq Samarqand bo'lgan Movarounnahr dastlabki yirik hokimliklardan edi. Bular yana bir qancha mayda hokimliklarga ham bo'lingan. Qoraxoniylar sulolasining bosh hukmdori «tavg'achxon» yoki «tabg'achxon», hokimliklar boshliqlari esa «ilekxon» deb atalar edi. Ilekxonlar tavg'achxonga rasman qaram bo'lib, ular o'z hududlarini kengaytirish, rasmiy qaramlikdan qutilishga harakat qilar edilar. Shuning natijasida o'zaro toj-taxt kurashlari avj olar, mamlakat bundan katta talafat ko'rar edi. Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonini yozar ekan, avvalo, markazlashgan davlatni barpo etish, tavg'achxon va ilekxonlar o'rtasidagi ixtiloflarni tugatish g'oyasini badiiy ifodalashni o'z oldida asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shu bois adib didaktik mazmunga ega bo'lgan bu asarda davlatni idora qilish usullari, jamiyatdagi turli toyifa, tabaqa, ijtimoiy guruh vakillarining, jumladan, tavg'achxon, ilekxonlarning fe'l-atvori, davlat qurilishi, ijtimoiy tabaqa vakillarining jamiyatdagi o'rni kabi siyosiy-iqtisodiy , ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy masalalarni Yoritishga alohida ahamiyat beradi. «Qutadg'u bilig»ning bu xususiyatlari uni nizomnoma, siyosatnoma maqomidagi bir asar darajasiga ko'taradi. Yusuf Xos Hojib bu asarni yozishdan maqsad xalq oldidagi yana bir burchni ado etish ekanligini dostonning muqaddimasida quyidagicha qayd etadi:

Arabcha, tojikcha kitoblar o'qush,
Bizning tilimizga bu yumgi uqush.

Shoir o'rinli e'tirof etganidek, arabcha, tojikcha kitoblar ko'p bo'lib, bizning tilimizda mazkur kitob donishmandlikning ilk namunasi edi. «Qutadg'u bilig» dostoni o'z davrida keng shuhrat qozongan, turkiy tildagi eng yaxshi asar sifatida baholangan. Mazkur pandnomaning turli joylarda turlicha nomlar bilan atalganligini muallifning o'zi asar muqaddimasida faxr bilan ta'kidlaydi. Bu kitobni Chinliklar «Abadul-muluk» («Hukmdorlar

odobi»), mochinliklar (Sharqiy turkistonliklar) «Oyinul-mamlakat» («Mamlakatning tartib usuli»), Sharq elining kattalari «Ziynatul- umaro» («Amirlar ziynati»), Eronliklar «Shohnomai turkiy», ba'zilar «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar nasihatnomasi»), turonliklar esa «Qutadg'u bilik» deb nomlaganlar.

«Qutadg'u bilig»ning Uch qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri uyg'ur yozuvida ko'chirilgan bo'lib, Venada saqlanadi. Arab yozuvidagi ikki qo'lyozmadan biri Qohirada, ikkinchisi, Toshkentda saqlanmoqda. «Qutadg'u bilig»ning qo'lyozmalarini o'rganish, matnini nashrga tayyorlash sohasida Hammer Purgshtall, Jauberg Amedi, Herman Vamberi, R.Arat, V.Radlov, S.Malov, O.Valitova singari sharqshunos olimlar qimmatli ilmiy tadqiqotlar yaratdilar. O'zbekistonda «Qutadg'u bilig»ga oid ilk ishlarni professor A.Fitrat boshlab berdi. Olim uning ayrim parchalarini «O'zbek adabiyoti namunalari» (1926) kitobida nashr ettirdi. S.Mutallibov, G'.Abdurahmonov, N.Mallayevlar ham A.Fitrat an'anasini davom ettirdilar. 1971-yilda «Qutadg'u bilig»ni transkriptsiya va hozirgi o'zbek tiliga tabdili bilan Q.Karimov nashr qildirdi. Shuningdek, asarni hozirgi o'zbek tilida (nazm-u nasrda)bayon qilib, bolalarbop qisqartirilgan nashrini (Toshkent, «Yulduzcha» 1991) prof. B. To'qliyev amalga oshirdi. Yana «O'zbek adabiyoti bo'stoni» turkumida «Qadimiy hikmatlar» kitobi tarkibida «Qudadg'u bilig»ning kattagina qismi (G'.G'ulom nomidagi ASN, Toshkent, 1987, 89-413-betlar) nasriy bayonda o'quvchilarga taqdim etildi. Bu dostonni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish hamda nashr ishlari davom ettirilmoqda...

«Qutadg'u bilig»ning asliyati nasriy muqaddima bilan boshlanadi. Unda dostonning to'rtta yetakchi qahramonlari haqida ma'lumot beriladi. Ular: Kuntug'di, elig-hukmdor, adolat ramzi; Oyto'ldi - vazir, davlat ramzi; O'gdulmish - vazirning o'g'li (keyinchalik vazir) - aql ramzi va nihoyat O'zg'urmish - qarindosh, zohid ofiyat (qanoat) ramzidir. Doston ana shu qahramonlar o'rtasidagi munozara, savol-javob tarzida yozilgan. Ilm ahli o'rtasida mazkur nasriy muqaddima Yusuf Xos Hojib tomonidan emas, balki biror bir kotib qalami bilan yozilgan bo'lishi mumkin, degan fikrlar ham mavjud. Biroq Sharqshunos S.Malov muqaddima ham bevosita adib qalami bilan insho qilingan bo'lishi kerak degan, taxminiy xulosalarga keladi. «Qutadg'u bilig»ning hajmi (Namangan nusxasida) 6500 bayt (o'n Uch ming misra)ga yaqin bo'lib, 73 fasl-bobdan tashkil topgan. Uning dastlabki 11 bobi an'anaviy muqaddima boblaridan iborat. Bularda Alloh hamdi, Muhammad alayhis-salomga bag'ishlangan na't, to'rt xalifa ta'rifi keltirilgan. Shuningdek. yoz tavsifi, Bug'raxon madhi, yetti sayyora va o'n ikki burj, til odobi, ilmning

foydasi kabi masalalar tasviri ham muqaddimadan o’rin olgan. Dostonning bevosita Alloh hamdi bilan boshlanishini inobatga olsak, bizningcha, S.Malovning nasriy muqaddima haqidagi fikri haqiqatdan yiroq ko’rinadi. Negaki, dostonning nasriy muqaddimasi ham asar sujeti va unda ilgari surilgan yetakchi g’oyalarni o’quvchiga to’la yetkazish yo’lida xizmat qilishi lozim edi. «Qutadg’u bilig»ning muqaddimaviy fasllari orasida «Yetti kavokib va o’n ikki burj» deb nomlangan bob alohida ahamiyatga ega. Uning dastlabki satrlarida Allohning buyuk yaratuvchanlik sifati ulug’lanadi:

Bayat oti birla so’zug boshladim,
To’rutgan ichidgan kechurgan idim.
To’rutti tilak-tek tuzu alamig’,
Yaratti ajunqa kunug ham ayig.
Yaratti ko’r, evran tUchi evrulur,
Anin birla tazging ema tezginur.

Mazmuni:

Xudo nomi bilan so’zni boshladim,
Yaratgan, parvarishlagan, kechirgan egamdir.
Butun olamni o’z istagicha yaratti,
Olamda kun ham oyni Yoritti.
Falakni yaratti ko’r, doimo aylanadi,
U bilan birga charx ham aylanadi.

Yusuf Xos Hojib ushbu misralarni bitishda Qur’oni karim va o’zi yashagan davrning ilm-fani yutuqlariga tayanadi. Ko’chirganimiz satrlar uchun qur’oniy g’oyalar ma’naviy asos vazifasini o’taganligini «Yosin» surasidagi 40- oyati karimani keltirish bilan tasdiqlash mumkin. Unda shunday deyiladi: «Na quyosh uchun Oyga yetish mumkin bo’lur va na kecha kunduzdan o’zgUchidir. (Quyosh, Oy va yulduzlarning) barchalari falakda suzib yurur» (Qur’oni karim. Toshkent, 1992, 406-bet). «Qutadg’u bilig» falakiyot ilmi yutuqlariga tayanib, olamning tuzilishiga doir mulohazalarni maxsus bobda ifoda etgan ilk turkiy dostondir. Mazkur bobda Yusuf Xos Hojib o’n ikki burjni yetti sayyoradan ajratib ko’rsatadi hamda ularning ayrimlari juft-juft, ayrimlari esa toq ekanligini qayd etadi. Muallifning Shahodaticha, ularning Uchtasi - bahorgi, Uchtasi - yozgi, Uchtasi - kuzgi va nihoyat Uchtasi - qishki yulduzlardir. Dunyo to’rt unsurdan tashkil topgani singari yulduzlarning ham Uchtasi - olov, Uchtasi - suv, Uchtasi - shamol va Uchtasi tuproq bilan aloqador holda badiiy tasvirini topadi. Falakiyot ilmidan puxta xabardor bo’lmay turib, bunday mushohada yuritish qiyin edi.

Yusuf Xos Hojib zamonasining ulug' mutafakkiri sifatida davrining dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolarini qalamga oladi. Buni dostonning qisqacha mazmunidan ham ilg'ash mumkin:

Kuntug'di ismli odobli hukmdorning shon-shavkati, shuhrati yaqin va uzoq mamlakatlarga yetib boradi. Uning adolatli siyosatidan el mamnun edi. Oyto'ldi ismli g'oyatda barkamol donishmand, tadbirkor bir kishi Kuntug'di xizmatiga kirish istagi bilan uning poytaxtiga yo'l oladi. U musofirchilikda juda ko'p azob-uqubatlar chekadi, ayni choqda ko'ngliga yaqin Yor-do'stlar orttiradi. Oyto'ldi Ko'samish (Istanilgan) ismli do'stining uyiga mehmon bo'lib, Kuntug'di saroyiga borishining sababini hikoya qiladi. Ko'samish do'stining bu istagiga xayrixoh ko'rsatadi va uni Kuntug'dining Xos Hojibi bilan tanishtiradi. Shu tariqa, Oyto'ldi Kuntug'di bilan Uchrashadi. Podsho Oyto'ldining suhbatini, fikrlarini yoqtirib qoladi, uni saroyida saqlashga qaror qiladi. Kuntug'di Oyto'ldini har taraflama sinab ko'radi va nihoyat uning saroydagi faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uzoq yillar podsho saroyida xizmat qilayotgan Oyto'ldining mansab-martabasi oshib boradi. Shu bois podsho uni vazir etib tayinlaydi hamda butun davlat ishlarini unga ishonib topshiradi: Oyto'ldi vazirligida el-yurt yashnaydi. Biroq o'z yurti, oilasini sog'ingan Oyto'ldi hukmdordan ruxsat olib, ona vataniga qaytadi va birmuncha vaqtdan keyin o'sha yerda vafot etadi.

Oyto'ldining O'gdulmish ismli o'g'li bor edi. Ota xastalanib qolgan kunlarida, Yosh O'gdulmishga juda ko'p nasihatlar qiladi. Oyto'ldi pandiga, nasihatiga amal qilgan O'gdulmish Kuntug'di saroyiga yo'l oladi va podsho xizmatiga kiradi. O'gdulmish o'z aqli, zakovati hamda tadbirkorligi bilan otasi singari hukmdorning yaqin kishisiga aylanadi. Kuntug'di uni otasi o'rnida vazir etib tayinlaydi, davlatni idora qilish ishlari O'gdulmishga havola etiladi. O'gdulmish otasidan ham zakovatliroq, omilkor bo'lganligi bois el-yurtni yashnatadi, boyitadi. Kuntug'di vaziridan juda mamnun bo'ladi. Kuntug'di va O'gdulmish o'rtasida turli mavzularga doir suhbat, munozaralar bo'lib o'tadi. Oqil kishilarning davlat ishlariga katta foydasi tegishiga amin bo'lgan Kuntug'di davlat ishlari tobora ortib borganligi bois O'gdulmishni huzuriga chorlab, unga ko'maklashadigan yetuk kishi zarurligini aytadi. O'gdulmish bu ishga munosib O'zg'urmish ismli qarindoshi bo'lib, nihoyatda komil va layoqatliligi, biroq dunyo ishlaridan uzlatga chekinib, tog'ga chiqib ketganligini bayon qiladi. Hukmdor qanday qilib bo'lmasin, O'zg'urmishni saroyga olib kelishni O'gdulmishga topshiradi.

O'gdulmish O'zg'urmishning oldiga podshoning talabi bilan Uch marta boradi. Ikki marta O'zg'urmish tanlagan yo'lidan qaytmasligi, podshoning

davlati uchun naf keltiradigan biror fazilati yo'qligini aytib, Kuntug'dining taklifini rad etadi. Uchinchi marta podsho O'zg'urmishni xizmatga emas, uni bir ko'rish, suhbati, o'gitlaridan bahramand bo'lish uchun saroyga chaqirayotganini, agar kelmasa o'zi uning oldiga borishini O'gdulmish orqali yetkazadi. O'zg'urmish shu choqqacha O'gdulmish o'z manfaatini ko'zlab uni saroyga taklif etganini, so'nggi da'vat esa bundan mustasno ekanligini so'zlaydi va saroyga borishga rozilik beradi. Podsho ularni yaxshi kutib oladi. Kuntug'di bilan O'zg'urmish o'rtasida turli mavzularda savol-javob, munozaralar bo'lib o'tadi. O'zg'urmish yana tog' tomon yo'l oladi...

Vaqt o'tishi bilan O'gdulmish ham keksayib qoladi. Uning ham qo'liga hassa oladigan fursat keladi. Endi qolgan umrini toat-ibodat bilan o'tkazib, oxiratni o'ylash ma'qulmi yoki davlat ishlarini davom ettirish zarurmikin,- deya o'ylab, maslahatlashish uchun O'zg'urmishga Uchrashadi. O'zg'urmish umrni toat-ibodat bilan o'tkazish xayrli ekanligini so'zlab, unga davlat ishlarini davom ettirishni maslahat beradi. Oradan bir qancha vaqt o'tgach, O'zg'urmish xastalanib qoladi va vazirga xabar yuboradi. O'gdulmish qarindoshining oldiga keladi. Uning og'ir ahvoliga qayg'uradi. O'zg'urmish shunday ayanchli vaziyatda bo'lishiga qaramay O'gdulmishni o'z ishini davom ettirish uchun saroyga qaytishini talab qiladi. O'gdulmish saroyga qaytadi...

O'zg'urmish og'ir kasallikdan keyin dunyodan o'tadi. O'gdulmish esa o'z faoliyatini davom ettiradi. Doston shu tarzda nihoyasiga yetadi.

«Qutadg'u bilig» dostonida adolat timsoli bo'lgan hukmdorni nomlashda «quyosh», davlat timsoli vazirni ifodalashda esa «Oy» asos qilib olinadi. Shoir Quyosh va Oyning Uchrashib qolishi bilan bog'liq qadimiy mifologik afsonalarga murojaat etadi va ularni yangi talqinda o'z dostonida qo'llaydi. Bu hodisani»assotsiatsiya» deb nomlagan folklorshunos G'.Akramov ruhshunoslik fani yutuqlariga asoslanib, uni turli tuman harakat, taassurot yo bo'lmasa harflar, so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlar tarzida sharhlaydi. Assotsiatsiya tor ma'noda murakkab metaforalar shaklida namoyon bo'lsa, keng ma'noda, tasavvurda mavjud hol-hodisalarning (mif voqe'yligi, epos voqe'yligi, tarixiy muayyan sharoit voqe'yligi va boshqalar) muayyan sharoitga xizmat qildirishdir. Olimning fikricha, «Qutadg'u bilig» turkiy mifning ramziy modeli, g'oya va obrazlarini assotsiatsiya qilib, shu hodisaga murojaat etilgan birinchi asardir. G'.Akramov muallif uslubini, maqsadini teran ilg'agan holda quyidagilarni yozadi: «Qadimiy homiy xudolar «Qutadg'u bilig»dagi bosh qahramonlarda ilgari surilgan ma'no va g'oya bilan g'oyaviy-ramziy assotsiatsiya uyg'unlashadi. Yusuf Xos Hojib mif arsenaliga ijodiy yondashib, uni o'z davri g'oyalariga bo'ysundiradi. Hukmdor Kuntug'di ilm-

ma’rifat homiysi, odil; Oyto’ldi uning huzuriga keladi. Kun va Oy haqidagi qadimgi mifologik sujet modeli muallif talqini uchun imkoniyat ochib beradi (Akramov G’. Mif va yozma adabiyot munosabatlariga doir. «O’zbek tili va adabiyoti» 1996 yil, 5-son, 56-bet). Dostonga murojaat qiladigan bo’lsak, Oyto’ldining elikka (mansab, martaba ma’nosida) davlat sifatini ko’rsatishi, Kuntug’di elik Oyto’ldiga adl sifatini qanday ekanini aytishi haqidagi boblarda xuddi shunday hodisani kuzatish mumkin. Bunda doston muallifining asardagi ramziy obrazlarni nomlashdan ko’zlagan asosiy maqsadi, o’z ilg’or g’oyalarini targ’ib etishda ulardan foydalanishning mohiyatini to’g’ri ilg’aganligi sezilib turadi:

Elik aydi uqtum munun erdamin,
Bu Aytoldi atin ne ul bu senin.
Naku-ul munun manisini ay mena,
Bilayin, uqayin, bu tayin sena.

Kuntug’di elik Oyto’ldining nuqson hamda kamchiliklarini anglaganini so’zlab, nega bu nom bilan atalishini so’raydi va uning ishonch hosil qilishganligini aytadi. Bunday savol-javobning ikki taraflama bo’lib o’tganligi dostonda o’z ifodasini topgan. Dostonning keyingi bobida Oyto’ldi hukmdordan nomi nega «Kuntug’di» ekanining sababini surishtiradi. Bu savol-javob usuli G’.Akramov ta’kidlagan «qadimiy homiy xudo»larni mavzu va g’oyani ro’yobga chiqarish uchun qo’l kelganligidan Yorqin dalolatdir.

Qadimiy kishilar uchun ilohiylashtirilgan samoviy jismlar ilk turk-musulmon sulolasi - qoraxoniylar zamonasida yangi ma’no va talqinlarda qo’llanganki, buni quyidagi parchada ham ravshan kuzatish mumkin:

Bu Ayto’ldi aydi menin atimi,
Bo’gu menzatur ayqa qilqimi.
Bu ay tug’sa alinu edi az tug’ar,
Kuninga beduyur yuqaru aqar.
To’lun bo’lsa to’lsa ajunda yarur,
Ajun xalqi andin yaruqluq bo’lur.
Tugel bo’lsa ko’r ay bu ag’sa adiz
Yana ermu to’rgur ketar ko’rk meniz.
Yaruqliqi eksur yana yo’q bo’lur
Tug’ar kecha azin yana o’q-to’lur.
Menin bu o’zumma bu yanglig’ turur
Ara bar bo’lur-men ara yo’q bo’lur.

Parchada asar qahramoni Oyto’ldi oyga qiyoslanadi. Oy dastlab juda kichkina bo’lib, samoda ko’rinadi. Kundan-kunga to’lishib, Yuqoriga

ko’tariladi va to’lin oy qiyofasida olamni Yoritadi. Jahon ahli undan ro’shnolik ko’radi. Muayyan muddatdan so’ng uning (oyning) yemirilishi, kichrayishi, chiroyi ketib, nursizlanish jarayoni boshlanadi. Zikri o’tgan manzaralar turg’un emas, aylanishda, takrorlanishda davom etadi. Savol tug’iladi, nega shoir hammaga ma’lum bu hodisalarni hikoya qilayotir? «Qutadg’u bilig»da majoziylik baland. Shoir g’oyat teran falsafiy mushohada yuritadi, tabiiy jismlar va insonlar taqdiri o’rtasida yaqinlik, aloqadorlik tuyadi. Samoda kezib yurgan oyki, bir holatda turmas ekan, tabiatning mitti mo’jizasi inson ham o’z qiyofasini o’zgartiradi, uning «to’lishgan», va «kichraygan», «nursizlangan» davrlari bo’ladi. Bugungi navqiron Yoshlikning ortida (erta, tetepoya bo’lish jarayoni) bolalik pallasini eslatuvchi keksalikning turishi muqarrardir. Inson buni mushohada etmog’i, qarilik farog’atini umri bahoridayoq ta’min qilmog’i lozim. Quyosh ham samoviy sayyora, ammo u oyga o’xshamaydi. Uning holat-harakati, zoti va sifatlari o’zgarmasdir. Butun mulki borliq uning hayotbaxsh zarralariga ilhaq holatda harakat qiladi. Ayni tasvirda ham irfoniy-falsafiy mohiyat yashirin: Quyosh—mutlaq, azaliy va abadiy mo’jiza, Xudodir. Qarang, shoir bu haqda qanday satrlar bitib qoldirgan:

Kunung ko’r evrilmas to’lu-oq turur,
Yaruqluqi bir-teg talu-oq turur.
Menin ma qilinchim anar oshxadi
Ko’nilik bila to’ldi eksumadi.
Ekinchi tug’ar kun yarur bu ajun
Tuzu xalqqa tegrur yaqalmas o’zun
Menin ma to’rum bu yo’qalmas o’zum
Qamug’ xalqqa bir-teg ne qilqim so’zum.
Uchunchi bu kun tug’sa erka isig
Chyechak yazlur anda tuman min tusig.
Qayu yelka tegsa menin bu to’rum
El barcha etlug tash ersa ko’rum
Tug’ar kun yarug’ yarig’siz tamas
Qalug’qa yaruqluq berur eksumas
Menin ma qilinchim bu-ul belgulug
Tuzuka tegir barcha mendin ulug.

Allohda mujassam notakror sifat va fazilatlar Yusuf Xos Hojib uchun ham intilish mahzaridir. Shundan bo’lsa kerak, shoir o’zining majoziy va suyukli qahramonlarida ularning inishini orzu qiladi. Saroy va davlatdorlikning

sir-u asroridan voqif muallif uchun adolatdan yuksak orzu yo’q. Quyosh—Alloh, Quyosh—adolat, shoir tasvirida yonma-yon turadi.

Yusuf Xos Hojib Oy haqida fikr yuritganda ham: «Ajun andin Yoruqlik bo’lur»,- deya qayd etadi. Ammo oy hamma ko’rinishida ham birday «ajun»ni «yaru»ta olmaydi. Buning uchun oyning «to’lin bo’l»mog’i talab etiladi. Quyoshda esa bunday o’zgaruvchanlik yo’q. Ana shularga ko’ra, Kuntug’di adolatli hukmdor, Oyto’ldi dono vazir maqomida go’zal badiiy tasvirini topadi.

«Qutadg’u bilig» dostoni ayrimlari sanalgan fazilatlariga ko’ra, mulkdorlar uchun nizomnoma, siyosatnoma maqomidagi asar bo’lishi lozim edi. Shu bois dostonning aksariyat boblari qoraxoniylar davrining nozik ijtimoiy-siyosiy masalalari badiiy talqiniga bag’ishlangan. Muallifning shunday mayli aql-idrok timsoli bo’lgan O’g’dulmish timsoli misolida yaqqol ko’zga tashlanadi. Asarning faol obrazi O’gdulmish bilan Kuntug’di elikning davlatning tuzilishi, hukmron tabaqa vakillari: bek, vazirlarning xulq-atvori, ularning raiyat bilan munosabatlariga doir savol javoblarida muallifning o’shanday g’oyaviy niyati ravshan namoyon bo’ladi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojib turli-tuman kasb-hunar, amal-martaba egalarining fazilatlari haqida o’zining qimmatli fikr-mulohazalarini badiiy ifodalashga erishadi. Bunday lavhalar orqali shoir davlatni adolat va aql bilan boshqarish lozim, degan xulosaga keladi. Yusuf Xos Hojibning bunday olijanob qarashlari nafaqat mutafakkir yashagan zamon uchun muhim, balki bugun uchun ham ulug’ ahamiyat kasb etuvchi, mangulikka daxldor durdona fikrlardir.

Yusuf Xos Hojibning aqidasicha, bek – mamlakatning nufuzli hukmdori va u xudoning xohish-irodasi bilan shu mansab-martabaga munosib ko’riladi. Alloh kimga beklik ishini ravo ko’rsa, unga shu martabaga muvofiq idrok, farosat, ko’ngil beradi. Unga boshqalarda ko’rilmaydigan qobiliyat, yo’l-yo’riq, alohida iste’dod va ish yuritish uquvidan par-u qanot hadya etadi. Dostonda Kuntug’di elik va O’gdulmishning savol-javoblarida bekning dono, botir, sheryurak bo’lishi kerakligiga doir badiiy ishoralar o’shanday xulosaga kelish asosini beradi. shoir tasavvurida bek bilimli, zakovatli, mulohazakor, to’g’ri so’z, tadbirkor, qat’iyatli bo’lishi lozim. Ijodkorning fikricha, bek va bilim so’zlari yonma-yon turishi zarur:

Beg oti bilig birla bag’liq turur,
Bilig lom(i) katsa bag oti qalur.

Ko’rinadiki, shoir o’z mulohazalarini teran badiiy mushohada qilish, o’quvchilarga bo’yoqdor yetkazish maqsadida tutilmagan tashbehlar izlaydi. Uning «bilim» va «beg» so’zlarini tanlashi zamirida ham o’shanday muddao yotadi. Darhaqiqat, bu ikkala so’z bir-biriga ancha yaqin (arabcha yozganda) va

«bilik» so’zidan «lom» harfi olinsa «beg» so’zi qoladiki, shoir shu hodisani g’oyatda ta’sirchan ifodalashga muvaffaq bo’ladi. Shoirning fikricha, bek qanchalik bilimli, ma’rifatli bo’lsa, u olim va donishmandlarning qadriga yetadi. Shuningdek, asarda muallif hukmdorning raiyat oldidagi burch va vazifalari, ayni choqda, xalqning o’z begi oldidagi mas’uliyati haqida ham g’oyatda qimmatli mulohazalar bayon etadi:

Raiyat haqi bar saningda ko’r, Uch,
Bu haqni o’tagil, uzun qilma kuch.
Birisi elingda arig tut kumush,
Iyarni ko’dazgil, e bilgi o’gush.
Taqi bir budunqa to’ru ber ko’ni,
Ko’tur bir ekidin kuchin, ko’r ani.
Uchunchi emin tut qamug’ yo’llarig’,
Qarag’chig’, sakarchig’ aritg’il arig’.
O’tamish bo’lursan raiyat haqi ,
San o’tru haqing qul, ey elchi aqi.
Raiyat uza ul saning Uch haqing,
Tilagu ulardin, san ach qulg’aqing.
Biri - yarlig’ingni ag’ir tutsalar,
Neku ersa terkin, ani qilsalar.
Ekinchi - tidmasalar xazina haqi,
O’dinda tegursa, ey elchi aqi.
Uchinchi - yag’iqa yag’i bo’lsalar,
Sevaring kim ersa, ani sevsalar.
O’tamish bo’lursan o’zung haqlarin,
Ular ma o’tamish bo’lur o’z haqin.
Bu yanglig’ kerak beg yurisa yo’lug’,
Raiyat o’sh andag’ kerak, ey ulug’.

Mazmuni:

Raiyat haqi bor seningda, boq, Uch,
Bu haqni o’tagil, hadeb qilma kuch.
Biri - tut elingda faqat sof kumush,
Kuzat sofligini , ey zako xulqi xush,
Biri - xalqqa odil siyosat yurit,
Hal et birga bir zulmini ezgu tut.
Uchinchi emin tut jami yo’llarin,
Qaroqchi va rahzanni qo’yma barin.

O’talgan bo’ladi raiyat haqi,
Va so’ng sen haqing so’r , ey elchi saxi.
Raiyatda bordir sening Uch haqing,
Talab qil ulardin, sen och qulog’ing.
Biri - Yorlig’ingni aziz tutsalar,
Nima bo’lsa, darhol uni qilsalar.
Ikkinchi - xazina haqin tiymasa,
Kezi kelgach alon uni to’lasa.
Uchinchi - yovingning yovi bo’lsalar,
Sevaring kim ersa, uni sevsalar.
Haqing shu yo’sinda o’talgan bo’lur,
Ular ham shu tarzda haqini o’tar,
Yarashiq beg uchun erur ushbu yo’l,
Raiyat uchun ham munosib shu yo’l.

Keltirilgan iqtibosdan anglashiladiki, bekning raiyat oldida o’ta mas’uliyatli uchta burchi mavjuddir. Ulardan biri bek kumushning sofligini o’z qo’lida tutishi hamda xush xulqi va zakovati bilan uning tozaligini nazorat qilib turishi zarur. Bu bilan shoir pulning qiymatini ko’tarish, oltin va kumushning soxtalikdan himoya qilish hamda uni doimiy nazorat ostida tutish hukmdorning burchi ekanligini ta’kidlaydi. Adolatli siyosat yurgizish bekning xalq oldidagi vazifalaridan yana biridir. Buning uchun hukmdor xalq uchun ishonchli, mustahkam va to’g’ri qonunlarni chiqarishi lozim. Uchinchisi esa bek o’z tasarrufida bo’lgan mamlakat yo’llarini qaroqchilar hamda xarob qiluvchilardan tinch, osoyishta saqlamog’i lozim. Shundagina yurt sardori - bek o’z xalqi oldidagi vazifalarini ado etgan bo’ladi. Satrlardan kuzatiladigan yana bir haqiqat shundan iboratki, Yusuf Xos Hojib «bek» deganda yurt podshosini nazarda tutadi va uning oldida katta talablar qo’yadi.

Mamlakatda barqaror siyosat yurgizish uchun xalq ham o’z hukmdori oldida mas’uliyatni his etmog’i kerak. Bek ham raiyatdan uch narsani talab qilmoqqa haqli. Avvalo, bek tomonidan chiqarilgan Yorliq (qonun)larni xalq hurmat qilib, uni darhol bajarmog’i lozim. Ikkinchisi esa soliqlarni saxiylik bilan davlat xazinasiga topshirish xalqdan talab etiladi. Hukmdor oldidagi xalqning uchinchi burchi esa, bekning dushmaniga uning xalqi dushman, do’stiga esa do’st bo’lishi kerak. Shu yo’sinda bekning xalq, raiyatning hukmdor oldidagi haqi o’talgan bo’ladi. Bu yo’l bek uchun ham raiyat uchun ham munosib yo’ldir. Yusuf Xos Hojibning bunday dono qarashlari qoraxoniylar davlatida barqaror tinchlik o’rnatishga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Shoir «Kutadg’u bilig» vositasida Tabg’achxonni xalqqa

yaqinlashtirishga harakat qilgan. Uning bu sa'y-harakatlari turli ijtimoiy tabaqa haqidagi mulohazalarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir bekning yolg'iz o'zi mamlakatni boshqara olmasligini, buning uchun unga o'z ishlariga sadoqatli, halol, tadbirkor, donishmand kishilar bo'lishi kerakligini ta'kidlab, vazirdan tortib oshpazga qadar saroy ahllarining har birini alohida-alohida ta'riflaydi, ularning vazifa va burchlarini sanaydi. Jumladan, doston muallifi vazir va lashkarboshini davlatni, elni boshqarishning ikki jilovi deb biladi. Shuningdek, boshqa ijtimoiy tabaqa vakillariga ham hurmat va ehtirom bilan o'z munosabatini asarda ifoda etadi.

Yusuf Xos Hojib xayrli ishlar elchilar tufayli sodir bo'lishini, barcha insonlarga ham, jonivorlarga ham rizq-ro'z ulashuvchi dehqonlar ekanligini, hunarmandlar esa eng kerakli kishilar hisoblanishini «Qutadg'u bilik»da badiiy ifodalaydi.

O'z davrining ilm-fani yutuqlarini g'oyatda chuqur mulohaza-yu mushohadalari bilan teran o'rgangan va ularning mohiyatini nihoyatda yaxshi idrok etgan shoir «Qutadg'u bilig»da dunyodagi jami ezgu ishlar ilm tufayli ekanligini qayd etadi. Dostonda zamondoshlarini ilm-ma'rifat o'rganishga da'vat etish g'oyasi yetakchilik qiladi. Asarning muqaddimaviy boblari, ayniqsa, «Yetti kavokib va o'n ikki burj»da shoir nujum ilmi yutuqlaridan mahorat bilan foydalanadi. Bu bilan ijodkor olamning tuzilishi haqidagi falsafiy qarashlarini ilm-fan yutuqlari asosida o'quvchiga yetkazish bilan kitobxon qalbida borliq sir-u sinoatlarini o'rganishga muhabbat tuyg'usini paydo etadi. Uning yaralish va Yaratuvchi haqidagi mushohadalarining tayanch g'oyaviy manbai ilohiy kitob Qur'oni karim bo'lib, olamning tuzilishi haqidagi muallifning aqidalari mashhur qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy ta'limoti bilan uyg'undir. Yusuf Xos Hojib butun olamni o'z istagicha yaratgan Alloh quyosh va oyni Yorug' qilgani, falakning doimiy aylanishi, koinot Xoliqining yashil osmon ustida yulduzlarni paydo etgani, ularning bir toyifasi bezak bo'lsa, yana bir turkumi rahnamo, bir qanchasi esa yo'lni yo'qotganda yo'lchi bo'lishi, olam yetti qat osmondan tarkib topgani singari islomiy-ilmiy qarashlarni badiiy qorishiq aks ettiradi. Shuningdek, shoir geotsentrik nazariyani (Yer markazda, uning atrofidan sayyoralar harakatini) o'z asarida badiiylashtirgan. Uning fikricha, Yer markazda, uning atrofidan Sekantir (Zuhal-Saturn), Ung'ay (Mushtariy-Yupiter), Kurud (Mirrix-Mars), Yashiq (Quyosh), Savit (Zuhra-Venera), Orzu (Utorid-Merkuriy), Yalchiq (Oy) kabi sayyoralar aylanib turadi. Sekantir eng yuksaklikdagi sayyora bo'lib, u-yettinchi, Ung'ay - oltinchi, Kurud - beshinchi, Yashiq - to'rtinchi, Savit - uchinchi, Orzu - ikkinchi, Oy esa - birinchi falakda joylashgan. Yettinchi

samodan Yuqorida esa sobit turuvchi yulduzlar turkumi - burjlar bor. Shoir ularni quyidagi nomlar bilan ataydi: Qo'zi (Hamal), Ud (Savr), Erondiz (Javzo), Quchiq (Saraton), Bug'doyboshi (Sunbula), Ulgu (Mezon), Chazan (Aqrab), Yoy (Qavs), Ko'nak (Dalv), Baliq (Hut). Kitobxonni ilm-ma'rifatga undovchi ana shunday mulohazalar bilan oshno etgan shoir bularning barchasi bilim, aql va idrok kamoloti tufayli ekanligini e'tirof etib, quyidagi bayt bilan mazkur bobni tugatadi:

Basa aydim emdi manu yanluqug',
Ag'irliqi bo'ldi bilig o'z uqug'.

Dostonda olim va donishmand kishilarni saroyga da'vat etish g'oyasi singdirib boriladiki, bu ham ijodkorning ilm-ma'rifatni nihoyatda qadrlaganini dalillaydi. Kuntug'dining taklifi bilan qarindoshi oldiga borgan O'gdulmishga qarata ofiyat va qanoat timsoli O'zg'urmish uning o'z ilmi bilan elga nafi tegayotganini so'zlaydi. To'g'ri, garchi saroyda u biror rasmiy xizmatni bajarishga kirishmagan bo'lsa-da, O'zg'urmish o'zining manfaatli o'gitlari bilan Kuntug'di elikka ko'maklashib turadi.

"Qutadg'u bilig" axloqiy-ta'limiy yo'nalishga ega doston bo'lib, unda kishilar o'rtasidagi muomala-munosabat madaniyatining eng oddiy ko'rinishidan eng yuksak insoniy fazilatlari haqida fikr yuritiladi. Dostonning bir necha bobi odob va axloq masalalariga bag'ishlangan. «Til ardami» (Til odobi) nomli 7-bob ham shular jumlasidandir. Unda shoir tilning, ya'ni so'zlashning fazilatlari va qusurlari haqida fikr yuritadi. Ijodkor tilni o'qish, bilim olish vositasi sifatida sharhlaydi. Til bilan inson ro'shnolikka chiqadi. Ko'p va behuda so'zlash esa inson uchun ziynat emas. Ilohiy ne'mat bo'lgan so'zni har bir inson qadrlamog'i kerak. «Qutadg'u bilig»da yaxshi xislat va fazilatlarni ezgulik, salbiy illatlarni esa esizlik (yomonlik) deb atagan muallif jamiyat taraqqiyoti uchun komil inson, barkamol shaxs nihoyatda muhimligini teran idrok etadi. Shu bois shoir o'z asarida uylanish, bola tarbiyasi kabi mavzularga ham jiddiy e'tiborini qaratadi. Asarda keltirilgan O'gdulmish bilan O'zg'urmish orasidagi munozara buning Yorqin dalilidir. O'gdulmishning aqidasicha, dunyodan toq o'tish insonni bezamaydi. Jismoniy sog'lom inson (erkak va ayol) turmush qurib, farzand ko'rishi shart. Zero, bu o'z navbatida islomiy Shariatning ham qat'iy talabidir. Dostonda O'zg'urmish uylanish, yaxshi farzand ko'rish afzalliklarini e'tirof etib, o'g'il-qizning fe'l-u matlabi yomon bo'lsa, buning oqibati yaxshilikdan darak bermasligini ta'kidlaydi. Asarning boshqa o'rnida O'zg'urmish uylangan kishini kema minguvchiga o'xshatadi. O'g'il-qiz tug'ilsa, kema sinib, unga minguvchi halokatga uchrashi tayin degan xulosaga keladi. Asardagi bunday ziddiyatli fikrlar kitobxonni

mulohazaga chorlaydi. Doston xotimasida O'zg'urmish o'lim bilan olisha turib, uni ko'rishga kelgan qarindoshi O'gdulmishni tezda saroyga qaytarishi, u o'sha yerda bo'lsa, xalqqa nafi ko'p tegishini aytishi kitobxonning bu qahramonga bo'lgan fikrini charxlaydi. Yusuf Xos Hojib bola tug'ilishi bilanoq uning tarbiyasi bilan shug'ullanilsa, farzandning odobi, axloqi, ta'lim-tarbiyasi risoladagidek bo'ladi, degan xulosaga keladi.

Shoir davr ahlini moddiy-ijtimoiy imkoniyatlariga tayanib, mag'rurlanib ketmaslikka chaqiradi. Shuningdek, ishratparastlik, kek, gina, kudurat, adovat, nizo, xusumat, buzuqlik, mayparastlik, boylik va davlatga haddan tashqari berilishni qattiq qoralaydi. Ayniqsa, shoirning mayxo'rlikning yomon oqibatlari xususidagi fikrlari diqqatga sazovordir:

Bo'r ichma, aya bo'rchi bo'g'zi quli,
Bo'r ichsa ochildi chig'ayliq yo'li.
Qara bo'rchi bo'ldi, nangi bo'ldi el,
Begi bo'rchi bo'lsa, qachon turg'a el.

Mazmuni:

May ichsa, ey mayxo'r va bo'g'zin quli,
May ichsang ochilgay gadoylik yo'li.
Avom bo'lsa mayxo'r, molin el olar,
Begi bo'lsa mayxo'r, qachon el qolar.

Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» dostonini donolar so'zidan ilhomlanib, ulardan ijodiy foydalanib vujudga keltirganligini e'tirof etadi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, shoir turkiy og'zaki va yozma adabiyot an'analarini juda yaxshi o'zlashtirgan, ulardan ta'sirlanib o'z davri uchun nihoyatda muhim va bugungi kunda ham ma'naviy-ma'rifiy qadr-qimmatga ega bo'lgan "Qutadg'u bilig" dostonini yozdi. Asarning deyarli har bir sahifasida irsoli masal badiiy san'atiga murojaat qilinishi, xalq maqol, masal va hikmatlarining satrlar mag'zida keltirishi shoirning og'zaki badiiy ijod xazinasidan pishiq xabardorligidan dalolat beradi. Shuningdek, dostonda Alp El To'nganing qator fazilatlari ta'riflanib, u haqda qiziqarli ma'lumotlar keltiriladiki, bu ijodkorning Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari tarkibida kelgan parchalar bilan tanish bo'lganligi va undan ilhomlangani xususida dadil gapirish huquqini beradi. Ijodkorning dostonda juda ko'p badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanganligini kuzatish mumkin. Jumladan, quyidagi baytda bahor kelishini yuksak ehtiros bilan tasvirlash uchun shoir tashbehni ilmi nujumdan tanlab, nozik mahorat ko'rsatadi.

Yashiq yandi bo'lg'ay yana o'rnika ,
Baliq quyruqindin qo'zi burnika.

Mazmuni:

Quyosh qaytdi, yana o’z o’rniga keladi,
Baliq quyrug’idan Qo’zi burniga ko’chadi
(Ya’ni quyosh Hut burjidan Hamal burjiga ko’chadi).

Ko’rinadiki, shoir quyoshning Hut burjini tark etib, Hamal burjiga ko’chishi, ya’ni Bahor, Navro’z bayramining kirib kelishini tashxis san’ati vositasida san’atkorona mahorat bilan badiiy tasvirlaydi. Doston aruzning mutaqoribi musammani solim (sakkizlik solim mutaqorib) va undan far’iy (hosila) bo’lgan mutaqoribi musammani mahzuf (tushirilgan sakkizlik mutaqorib) hamda mutaqoribi musammani maqsur (qisqartirilgan, qusurli sakkizlik mutaqorib) bahrida yozilgan, “Qutadg’u bilig”ning 71- va 72-boblari , ya’ni ikki qasida va bir to’rtligi mutaqoribi musammani solim bahrida, qolganlari esa mutaqoribi musammani mahzuf va mutaqoribi musammani maqsurda bitilgan. Bu vazn dostonning deyarli barcha baytlarining ohangdor va ta’sirchan chiqishini ta’min etgan.

Yusuf Xos Hojib arab va fors-tojik adabiyotidan ham pishiqqina xabardor bo’lgan ijodkordir. “Qutadg’u bilig”da buyuk fors-tojik shoiri Firdavsiyning “Shohnoma” asari qahramonlaridan Faridun, Nushiravon, AfrOsiyob, Zahhok, Rustam kabilar nomlarining uchrashi, shoirning bu doston bilan yaqindan tanishligi va undan ijodiy ta’sirlanganligini dalillaydi. Yana har ikkala asarning ham mutaqorib bahrida bitilganligi fikrimizni yanada quvvatlantiradi.

“Kutadg’u bilig” yuksak badiiy ahamiyatga ega bo’lgan yirik hajmli ilk turkiy doston bo’lishi bilan bir qatorda, qoraxoniylar davri tarixi, etnografiyasi, madaniyati, tili va adabiyotini o’rganish uchun ham qimmatli adabiy manba hisoblanadi.

3.5. Ahmad Yugnakiy va uning «Hibat ul-haqoyiq» dostoni

Ahmad Yugnakiy X-XII asrlar o’zbek adabiyotining yirik namoyandasi, iste’dodli shoir, donishmand murabbiydir. Adibning «Hibatul-haqoyiq” dostoni uning ma’naviy merosidan bizgacha yetib kelgan yagona namunadir. Hajman ixcham bu doston o’sha davr turkiy adabiy tilining ham nihoyatda qimmatli, mo’tabar manbalaridan biri sanaladi.

Shoirning hayoti, ijtimoiy faoliyati va ijodi haqida juda oz ma’lumotlarga egamiz. “Hibatul-haqoyiq”dagi ayrim misralar bag’rida kelgan ishoralar hamda asarning turli nusxalarida kotiblar tomonidan yozilgan qaydlar shoir shaxsi va uning hozirgacha yagona asari haqida ma’lum tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Ahmad Yugnakiy millatimiz iftixori, ulug’ mutafakkir shoir

Amir Nizomiddin Alisher Navoiy nazariga tushgan turkigo'y ijodkorlardan biridir. Navoiyning " Nasoyim ul-muhabbat" nomli 770 tariqat ahli, adib-u avliyoulloh, shayx-u donishmandlar haqida ma'lumot beruvchi tazkirasida Ahmad Yugnakiy haqida fikr yuritilganligi uning qadimiy turk mashoyixlaridan ekanligini dalillaydi.

Shunday qilib "Hibatul-haqoyiq"dagi quyidagi misralar shoirni kitobxonga ozgina bo'lsa-da, tanishtirishga xizmat qilgan:

Adib Ahmad otim, adab-pand so'zum,
So'zum munda qolur, borur bu o'zum.
Kelur kuz, kechar yoz, borur bu umr,
Tugatti umurni bu yozim , kuzum.

Iqtibosdan ko'rinib turibdiki, shoir o'zini ko'p sonli o'quvchilariga «adib Ahmad», - deya tanishtiradi. Ahmad shoirning nomi bo'lib, «adib» uning ijodkorlik bilan el orasida shuhrat qozonganligini tasdiqlaydi. Shoirning dostonni yozishdan muddaosi o'zidan pand-nasihat, o'git qoldirishdir. Keyingi misrada «So'zum munda qolur, borur bu o'zum», - deya o'z ijodidan faxrlanarkan, bashoratomuz fikrni badiiy ifoda etgan. Bevafo dunyoda inson ham bebaqodir. So'z esa mangulikka daxldor! Demak, inson shunga intilmog'i lozim. Yoz o'tib, kuzning kelishi adib umrining poyoniga yetayotganligidan darak beradi. Shunga ko'ra, "Tugatti umurni bu yozim, kuzum" satri esa «Hibatul-haqoyiq» dostoni dunyo yuzini ko'rganda, shoirning ancha keksayib qolganligidan dalolat beradi.

«Hibatul-haqoyiq» dostonining nusxalaridan birida XV asrda yashagan temuriy amaldorlardan Arslonxo'ja Tarxon va Amir Sayfiddin degan kishi sharaflanib, Ahmad Yugnakiy haqida ma'lumot beruvchi baytlar keltiriladi. Aytish joizki, bu baytlarga sarlavha sifatida keltirilgan Arslonxo'ja Tarxon va Amir Sayfiddin ta'riflarining o'sha misralarga mutlaqo aloqasi yo'q. Nazarimizda, bu satrlar kotiblar qalamiga mansubdir. Zero, xat va xattotlik tarixida bunday lavhalarga tez-tez duch kelinadi. Mana o'sha parchadagi hasbi hol ahamiyatiga molik misralar:

Adibning yeri oti Yugnak erur,
Safolik ajib yer, ko'ngillar Yorur.
Atosi oti Mahmudi Yugnakiy,
Adib Ahmad o'g'li, yo'q ul hech shaki.
Kitobining oti erur «Hibbatul-
haqoyiq» - iborat arabdan o'shul.
Tamomi erur Qoshg'ariy til bila,
Ayitmish Adib riqqati dil bila.

Agar bilsa Qoshg’ar tilin har kishi,
Bilur ul adibning ne kim aymishi.
Kishi tilin bilsa, bilur ma’nisin,
Bilurman desa, ayb o’zi bilmasin.

Ko’chirilgan parchadan anglashiladiki, doston muallifining vatani Yugnak, otasining ismi Mahmud, asarining nomi “Hibatul-haqoyiq” bo’lib, bu asar Qoshg’ariy - turkiy tilda yozilgan. Yugnakning Farg’ona vodiysida joylashgani va bu yer shoirning vatani ekanligi “Tazkirai Qayumiy”da qayd etilgan. Biroq Yugnak, Yugnoq tarzida yuritiluvchi qishloq nomlari Turkiston va Samarqand atrofida ham mavjuddir. «Tazkirai Qayumiy»ning XX asrda yaratilganligi e’tiborga olinsa, unga tayanib qat’iy xulosaga kelishning noimkonligi anglashiladi. Shunday gapni Yugnak va Yug’noq haqida ham aytish joizdir. Abulkarim as-Sam’oniyning «Nasabnoma» (Al-Ansob) kitobida «Yug’anak Samarqand qishloqlaridan», - deya yoziladi (Qarang: Abulkarim as-Sam’oniy. Nasabnoma (Al-Ansob)(VIII-XII asrda yashagan O’zbekistonlik olimlar haqida ma’lumot). Buxoro-2003, 199-bet). Xullas, Ahmad Yugnakiy, uning shaxsi, yashagan joyi va davriga doir qit’iy bir gapni aytish keyingi tadqiqotlar zimmasidadir.

Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida Adib Ahmad haqida quyidagilar yoziladi: «Adib Ahmad ham turk elidan ermish. Derlarki, ko’zlari bitov ermishki, aslo zohir ermas ermish. Ammo bag’oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy kishi ermish. Maskani Bag’doddin necha yig’och yo’l erkan. Har kun Imom A’zam darsig’a hozir bo’lur erkandur va bir mas’ala o’rganib bu yo’lni yayog’ borur erkandur. Va aning tili turk alfozi bila mavoiz va nasoihqa go’yo ermish. Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmat va nuktalari toe’dur» (Alisher Navoiy. Asarlar. 15-jildlik. 15-jild, G’.G’ulom nomidagi ASN, Toshkent, 1968, 156-157-betlar)

Ko’chirganimiz iqtibos bir qator taxminiy xulosalarga kelish asosini beradi. Yugnakda tug’ilgan shoir keyinchalik, tahsil uchun Bag’dodga borgan bo’lishi mumkin. Adibning yashagan davri haqidagi munozaralar uchun ham Alisher Navoiyning Yuqoridagi ishoralari sabab bo’lgan. Agar shoir chindan ham VIII asrda yashagan, Imom A’zamdan saboq tinglagan bo’lsa, uning X-XII asrlar adabiyotiga mansubligi shubha ostida qoladi. Ayni masalaga oydinlik kiritish esa, turkiy she’riyat tarixi ibtidosini VIII asrdan boshlashni taqazo qiladiki, bu sharqshunos olima I.V.Stebleva qarashlariga uyg’undir. Shoirning ko’rish qobiliyatiga doir mulohazalar ham o’qigan har qanday odamni hayratga soladi. Hazrat Navoiy yozganlaridek: «Haq subhanahu va taolo agarchi zohir ko’zin yopuq yaratqandur, ammo ko’ngli ko’zin bag’oyat

Yoruq qilg’ondur...» «Hibatul-haqoyiq»day asarning dunyoga kelganligi o’sha ta’kidning haqliligiga Yorqin misol bo’la oladi.

Tug’a ko’rmas edi adibning ko’zi,
Tuzatti bu o’n to’rt bob ichra so’zi.

O’n to’rt bobdan tarkib topgan “Hibatul-haqoyiq” dostoni yuksak ma’rifiy, ta’limiy ahamiyat kasb etgan. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning katta o’g’li Badiuzzamon Mirzoga yozgan xatlaridan birida mazkur asardan misralar keltirilganligi ham fikrimizning Yorqin dalilidir. Yana shunday ta’kidlar “Hibatul -haqoyiq”dagi qaydlarda ham mavjud:

Adiblar adibi, fozillar boshi,
Guhardin so’z aymish, etin so’z boshi.
Ug’an rahmat etsun bu soat anga,
Yarin qo’psa, bo’lsun eranlar boshi.

«Hibatul-haqoyiq»ning ilm ahliga ma’lum bo’lishida turk olimi Nojib Osimning xizmatlari beqiyos kattadir. Olim XX asr boshlarida Istambuldagi Ayasufiya jomesining kutubxonasidan mug’ul tilidagi risolalar tarkibiga yanglish kiritilgan dostonning bir qo’lyozma nusxasini topadi. Uyg’ur yozuvida bitilgan ushbu qo’lyozma Istambulda Abdurazzoq Baxshiy tomonidan hijriy 884-yilning 7-zulqa’da oyida (1480-yil, 30-yanvar) ko’chirilgan. Uyg’ur yozuvidagi mazkur matnda she’riy satrlarning arabcha transkriptsiyasi va fors-tojik tilida ayrim izohlari ham berilgan (Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 139-bet). Asar qo’lyozmasini ilmiy o’rganish, tarjima qilish va 1916-yilda dastlabki nashrini amalga oshirish ishlari Najib Osim tomonidan bajarildi. Dostonning uyg’ur yozuvidagi qo’lyozmasidan keyin uning Istambul va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan arab yozuvidagi yana beshta nusxasi fanga ma’lum bo’ldi. Turk olimi Rashid Rahmadi Arat 1951-yilda «Hibatul-haqoyiq»ning yangi qiyosiy nashrini amalga oshirdi. Sharqshunos olimlardan V.V.Radlov, T.Kavalevskiy, J.Dyani, Y.E.Bertels kabilar doston yuzasidan muhim ilmiy - tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. O’zbekistonda «Hibatul-haqoyiq» dostonini ilmiy o’rganish va tahlil kilishda Oybek, S.Muttalibov, N.Mallayev, Q.Mahmudovlarning hissalari katta bo’ldi. Dostondan ayrim parchalar «O’zbek adabiyoti xrestomatiyasi» (1940), «O’zbek poeziyasining antologiyasi» (1948), «O’zbek adabiyoti» (1960), «Navoiyning nigohi tushgan...» (1986), «Qadimiy hikmatlar» (nasriy bayon, 1987) kabi kitoblar va darsliklarda chop etildi. 1971-yilda Q.Mahmudov «Hibatul-haqoyiq» dostonini alohida kitob holida nashr etdi hamda 1972-yilda o’zining «Hibatul-haqoyiq dostoni haqida» nomli ilmiy tadqiqotini e’lon qildi.

«Hibatul-haqoyiq» dostoni 124 baytdan tarkib topgan. Asarning 14 bobdan iborat ekanligi qayd etilgan bo'lsa-da, uning 11 bobi bizgacha yetib kelgan. Mutaxassislarning fikricha, bunday tafovut kotiblar tomonidan ayrim boblarni ko'rsatuvchi sarlavhalarning tushirib qoldirilishi oqibatida sodir bo'lgan bo'lishi mumkin.

Ahmad Yugnakiy Sharq mumtoz adabiyoti an'analariga rioya qilgan va dostonni Alloh hamdi bilan boshlagan. Ulug' tangrining vasfi 1-10-baytlarda o'z ifodasini topgan. 11-19-baytlar esa so'nggi payg'ambar Muhammad alayhis-salom va uning to'rt xalifasiga bag'ishlanadi. Uchinchi bob 20-30-baytlarni o'z ichiga oladi. Unda zamonasining hukmdori Dod Sipahsolorbek ulug'lanadi. Turtinchi bob 34-39-baytlarni o'z ichiga olgan bo'lib, unda shoir dostonning yozilish sababi haqida fikr yuritadi. Ahmad Yugnakiy «Hibatul-haqoyiq» dostonini Dod-Sipahsolorbek nomini dunyoda mangu qolishi uchun ijod etganini ta'kidlaydi. Mazkur sahifalar an'anaviy muqaddimaviy boblar bo'lib, dostonning asosiy qismi beshinchi fasldan boshlanadi. Mazkur bob 40-62-baytlardan tashkil topgan. Unda shoir bilimni ulug'laydi, johillikning zarari haqida fikr yuritadi. 63-86-baytlar til odobiga bag'ishlangan bo'lib, dostonning oltinchi bobini tashkil etadi. 87-110-baytlar asarning yettinchi bobi hisoblanadi va dunyoning o'zgarib turishiga bag'ishlangandir. Sakkizinchi bobda shoir o'zining saxiylik va baxillik haqidagi falsafiy qarashlarini ifoda etadi. To'qqizinchi va o'ninchi boblarda muallif hayotning turli masalalari haqida badiiy mushohada yuritadi. Jumladan, ularda tavoze'lilikning manfaati, kibr-u havo va hirsning zarari kabi masalalarga diqqat qilingan. So'nggi o'n birinchi bobda asar xulosalanadi.

«Hibatul-haqoyiq»ning yozilish tarixi dostonda ham, u haqdagi qaydlarda ham ko'rsatilmagan. Olimlar asarning til xususiyatlarini o'rganish asosida uning yozilish vaqti va muhiti haqida ma'lum xulosalarga kelganlar. Jumladan, «Hibatul -haqoyiq»ning leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bir tomondan «Qutadg'u bilig»ga yaqinlashsa, ikkinchi tomondan «Qisasi Rabg'uziy»ga monandligi qayd etilib, uning XII asrning oxiri – XIII asr boshlarida yozilgan deb hisoblash mumkinligi ta'kidlanadi (O'zbek adabiyoti tarixi. 1-tom, Toshkent, 1977, 134-bet). Chindan ham, dostonning til xususiyatlari ko'p o'rinlarda «Qutadg'u bilig» bilan mushtaraklik kasb etadi.

Ahmad Yugnakiy zamonasining ulug' mutafakkiri, Alisher Navoiy ta'kidlaganidek, «ziyrak va zakiy» insoni sifatida islom dini, tasavvuf ta'limotini juda yaxshi o'zlashtiradi va «Hibatul-haqoyiq»da insonni komillikka yetaklovchi xususiyatlar, uning ruhini nopokliklardan xalos etish kabi muhim masalalar xususida o'zining umrboqiy fikrlarini bayon etadi.

Shubhasiz, shoir bunda Qur'oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta'limotiga tayanadi. Shoir ilm-ma'rifat orqali kishiga saodat yo'li ochilishini ta'kidlagani holda, ilmli, ma'rifatli bo'lish yuksak insoniy fazilatlardan ekanligini o'ziga xos timsol, tashbehlardan foydalanib badiiylashtiradi. Bunda shoirning tazod san'atidan ham mahorat bilan foydalanganligi ko'zga tashlanadi. Adib bilimli kishini qimmatbaho dinorga muqoyasa etarkan, johil kishini qimmatsiz yemishga o'xshatadi. Ayniqsa, shoirning ilm olishning inson hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etishi tug'risidagi quyidagi obrazli fikrlari nihoyatda qadrlidir:

So'ngakka yiliktan eranga bilik,
Eran ko'rki aql, so'ngakning-yilik.
Biliksiz-yiliksiz so'ngaktan qoli,
Yiliksiz so'ngakka sunulmas alik

(Navoiyning nigohi tushgan. Toshkent, 1986, 13-bet).

So'ngakda ilik bo'lishi lozimligi eran, ya'ni er kishiga ilm kerakligiga qiyos qilinadi. Kishining ko'rki aql bo'lsa, so'ngakniki ilikdir. Shoir ilmsiz kishini iliksiz so'ngak kabi bo'sh bo'ladi, deb biladi. Shu bois iliksiz so'ngakka qo'l uzatilmaydi. Ahmad Yugnakiy g'oyatda chuqur mulohazalar asosida o'quvchiga o'zining katta hayotiy tajriba zaminida tug'ilgan teran fikrlarini yetkazarkan, ularni jamiyatdan yiroq bo'lmaslikka da'vat etadi. Chunonchi, shoir nigohida ilmli bir kishi ming ilmsizga tengdir. Aytilganlar nuqtayi nazaridan adibning quyidagi baytlarida in'ikosini topgan fikrlari diqqatga sazovordir:

Biliksizga haq so'z tatiqsiz erur,
Anga pand-nasihat osig'siz erur.
Na turluk oriqsiz orir yuv desa,
Jahil yub orimas, oriqsiz erur.

(O'sha kitob, 14-bet).

Ahmad Yugnakiy ilmsiz kishiga to'g'ri so'z ham ma'nosizligi, unga o'git berishning o'zi foydasizligini ta'kidlaydi. Fikrini tasdiqlash uchun «oriqsiz», ya'ni yuvinmagan kishilarga «yuvin» deb buyurilsa, ular suv ta'sirida toza bo'lishini, johil qancha yuvinmasin, baribir poklanmasligi bilan qiyosiy tasvirlaydi. Bu bilan shoir kishilarni jaholatdan yiroq bo'lishga undaydi. Har qanday zohiriy ifloslanish suv bilan poklanganidek johillik esa ma'rifat tufayligina saodatga erishishi mumkinligi ta'kidlanadi. Dostonning til odobi, dunyoning o'zgarib turishi, saxovat va baxillik oqibati, tavoze'lilik manfaati, kibr-u havo va hirsning zarari haqida bahs etuvchi boblari ham yuksak axloqiy-ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Shoir zamonasining ulug'

mutafakkiri, murabbiysi sifatida zamondoshlariga o’git beradi. Ahmad Yugnakiy adabning ibtidosini muomala madaniyatida deb biladi. Shu bois ham u so’zlash madaniyatiga alohida e’tibor qaratadi. Kishilarni ortiqcha gapirmaslikka chaqiradi. Adibning tilni mahkam tutishga chaqirishi, aks holda tishning sinishi mumkinligi xususidagi fikrlari o’quvchi uchun ibrat maktabi vazifasini o’taydi. Doston muallifi kishilar o’rtasida nizo chiqarishni juda qattiq qoralaydi. Chunonchi:

Xiradliqmu bo’lur tili bo’sh kishi,
Talim boshni yedi bu til so’z boshi.
O’chukturma erni tilin bil, bu til,
Boshoq tursa butmas, butar o’q boshi.

(O’sha kitob, 14-bet).

“So’zi achchiq kishini aqlli deyish mumkinmi?”- degan savol orqali o’z fikrlarini badiiylashtirishga davom etgan shoir, til va so’z zahari ko’p kishilarning boshini eganini ta’kidlaydi. Buning sababini ijodkor yomon so’zning odamlarni bir-biriga qarshi qo’yishida deb biladi. Shuning uchun shoir o’quvchiga insonlarni bir-biriga o’chakishtirma, tilingni (so’zingni) muloyim qil, deya nasihat qiladi. Shoirning bunday xulosalari g’oyatda hayotiyligi bilan ajralib turadi. Ahmad Yugnakiy «til yarasi tuzalmaydi, o’q jarohati esa bitib ketadi» kabi samimiy fikrlari bilan o’quvchi qalbida nihoyatda yaxshi taassurot qoldiradi. Adib yolg’onchilikni qattiq qoralaydi. Odamlarni umrni yaxshilik bilan kechirishga, doimo haqni so’zlash, to’g’ri so’z bilan tilni bezashga chorlaydi. Shoir nigohida to’g’ri so’z - asal, yolg’on so’z esa sarimsoq, piyozga tengdir. Uning yolg’on so’zni kasallik, Chin so’zni esa shifo deb bilishi ziyrak o’quvchini befarq qoldirmaydi. Ahmad Yugnakiyning dostonda sir saqlash odobiga o’quvchi diqqatini jalb etganligi ham ahamiyatlidir:

Qatig’ kizla rozing kishi bilmasun,
So’zungtin o’zunga o’kunch kelmasun.
Qamug’ yashru ishing bo’lib oshkoro,
Bu ko’rgan eshitgan sanga kulmasun.

Shoir do’stning ishonch bilan aytgan sirini mahkam tutishga, boshqalarni bu asrordan voqif qilmaslikka da’vat etadi. So’zingdan o’zingga o’kinch kelmasin, barcha pinhon ishlaring oshkor bo’lib, ko’rgan-bilgan kishilar senga kulmasin, deya insonlarni sergaklikka undaydi. Adib Ahmad Yugnakiy Yusuf Xos Hojib singari dunyoni rabotga o’xshatadi. Insonlar bu rabotga bir qo’nib o’tuvchilardir, - deydi Ulug’ shoir. Shoir dostonda aniq bir hayotiy hodisa, muayyan shaxs sarguzashti, asar qahramonlari suhbatiga murojaat qilmasa-da,

turli tashbeh, tazod, istioralar, maqol, qochirim, hikmatlardan foydalanish orqali g’oyaviy niyati, maqsad-muddaosini yuzaga chiqarishga erishadi. Shoir dunyo boyligidan inson uchun faqatgina yegulik, kiygulik yetarli ekanligi, ortiqchasi kishiga ziyon yetkazishini ta’kidlab, mulohazalarini Muhammad alayhis-salom o’gitlari bilan boyitadi. Alloh rasulining dunyoviy hayotning asosi ekin, dehqonchilik bilan mashg’ul bo’lishdir tarzidagi pandini himoya va targ’ib etadi. Ayni to’g’ri yo’lni tanlagan odamlarning turmushi go’zal, ibratlidir, degan o’gitlar mazmun-mohiyatini dilbar misralar mag’z-mag’ziga singdirib yuboradi. Bu o’z navbatida, Ahmad Yugnakiyning kishilarning hayotiy ehtiyojini qondirish uchun mehnat qilishga undaganligidan dalolat beradi. Shoir tasavvurida insonning ruhi abadiy hayotdir, uni o’tkinchi dunyoning boyliklari-yu, zeb-ziynatiga bog’lab qo’ymaslik lozim. Dostondan ko’chiriladigan quyidagi misralar fikrimizning Yorqin dalili bo’la oladi:

Yilontek bu ochun yilon o’g’log’u,
Yuqamoqqa yumshoq ichi bo’r og’u.
Yilon yumshoq erkan, yovuz fe’l tutor,
Yiroq turg’u, yumshoq teb inonmog’u.
Bu ochun ko’r erga ko’ro’mlik toshi,
Va lekin ichida hazor noxushi.
Boqib tosh bezakin ko’ro’b sen munga,
Ko’ngul bog’lamoq bil xatolar boshi.
Niqob ko’trur ochun birar yuz ochar,
Yozar qo’l, quchar tek yano tark qochar.
Yoring’i buluttek yo tushtek xoli,
Derangsiz kechar baxt yo qushtek uchar.

(O’sha kitob, 17- bet).

Shoir dunyoni kishini avraydigan ilonga o’xshatadi. Fikrimizcha, u dunyo deganda ko’proq moddiy boyliklar, mol-mulkni nazarda tutadi. Bu ilon zohiran yumshoq, botinan esa achchiq ichimlik singari og’udir. Ammo uning yuvoshligi, yumshoqligiga ishonmaslik kerak. Fozil inson undan doimo o’zini olib qochgani ma’qul. Zero, «zahar sochmoq erur kasbi ilonning» ekanligi oqil insonlarga ayondir. Ijodkor keyingi to’rtlikda dunyo tashqi tarafdan garchi insoniyat avlodiga juda ko’rkam bo’lib ko’rinsa-da, lekin uning ichi minglab noxushliklarga liq to’la ekanligini ta’kidlaydi. Dunyoning zohiriy go’zalliklariga qarab, unga mahliyo bo’lish, ko’ngil bog’lashni shoir inson qismatidagi barcha xatolarning boshi deb biladi. Adib ushbu fikrlarini mantiqiy davom ettirarkan, olamning o’z tasavvuridagi asl qiyofasini Yoritib berishga harakat qiladi. Zabardast shoirning o’z iboralari bilan aytganda, u niqobni

ko’tarib, g’urbatxona bo’lgan dunyoning haqiqiy yuzini ochadi. Uchishga shaylangan qushdek qo’lini-qanotini yozadi va yana g’oyib bo’ladi... Shoir majoziy-falsafiy mushohadalarini davom ettiradi, uningcha, baxt ertalabki bulut yoki lahzalik tushdek besamardir. U to’xtamay ketadi yoki qushdek uchib, ko’zdan g’oyib bo’ladi. Ko’rinadiki, shoir davlatning, ya’ni mol-mulkning nechog’lik o’tkinchi, subutsiz bir mato singari qurbsiz ekanligini juda go’zal tashbehlar bilan obrazli tarzda o’quvchiga yetkazgan.

Ahmad Yugnakiy dostonning saxovat va baxillik haqidagi bobining ilk misralaridayoq bu yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan odam qanday munosabatda bo’lishi kerakligini g’oyat go’zal badiiy yo’sinda gavdalantirib bergan:

Ayo do’st, biliklik izin izlagil,
Qali so’zlasang so’z bilib so’zlagil.
Axiy erni o’ggil , o’qar ersa san,
Baxilga qatiq yo o’qun kizlagil.

(O’sha kitob, 17- bet).

Shoir o’quvchiga nasihat qilarkan, avvalo, bilimli kishilar izidan borishni, so’zlash kerak bo’lsa, bilib so’zlashlikni maslahat beradi. Uning fikricha, maqtash lozim bo’lsa, saxiy kishini madh etmoq zarur. Baxilga esa o’tkir o’q yoyni saqlab qo’ymoq o’rinlidir. Ko’rinadiki, shoir bob davomida mana shunday olijanob, ezgulikka da’vat qiluvchi fikrlarini rivojlantiradi, saxiylikni ulug’lab, baxillikni qattiq qoralaydi.

Dostonning 9-10-boblarida ham yuksak insoniy fazilatlar ta’riflanib, inson avlodi tabiatidagi noshoyista qusurlar tanqid keskin tanqid ostiga olinadi. Aytish lozimki, mazkur boblarda rang-barang mavzular qalamga olingan bo’lsa-da, insonni komillikka yetaklash, barkamol avlod tarbiyasi haqida qayg’urish tayanch g’oya sifatida o’sha mavzularni yagona tizimga birlashtirib turadi. Shoir dastlab har bir inson o’zidan takabburlik illatini uloqtirib, tavoze’ni mahkam tutmog’i kerak, deb hisoblaydi. Takabbur kishining qiliqlari barchaning tilida nafrat qo’zg’atishi, xulqlar ichida eng yaxshisi yuvoshlik ekanligi misralarda o’zining badiiy in’ikosini topadi. Adibning manmanlikka berilish kishi uchun yomon illatlardan biri ekanligi xususidagi quyidagi misralari o’quvchini befarq qoldirmaydi:

Takabbur libosin kiyib oz solin,
Kirib xalqda ko’ksung, ozurlab tilin.
Mo’minlar nishoni tavoze’ erur,
Agar mo’min ersang, tavoze’ qilin.

(O’sha kitob, 19- bet).

Keltirilgan mazkur iqtibosda Shoir insonlarni manmanlik, kibrlilik libosini kiyib, xalqqa kerilib, nigoh tashlab ularga til bilan noo'rin ozor bermaslikka chaqiradi. Ahmad Yugnakiy latif tavoze'ni mo'minlikning nishoni deb biladi. Shuning uchun u barcha mo'minlarni izzat-ehtiromli bo'lishga da'vat etadi. Kamtarlik inson ma'naviy olamini go'zallashtiruvchi nodir fazilat ekanligi «Hibatul-haqoyiq»da o'ziga xos badiiy san'atlar Yordamida tasvirlanadi. Ma'naviy go'zallik, inson kamoloti, Yuksak botiniy-zohiriy axloq uchun nimalardan saqlanish lozimligi haqidagi Shoirning quyidagi fikrlari ham e'tiborga loyiqdir:

Ayursan: kedim, to'n, sharob, osh kerak,
Talim mol, o'kush qul, qoravosh kerak.
Agar yig'ding ersa umurluq tovar,
Burun boshqa bo'rkni kiyar bosh kerak.

(O'sha kitob, 20- bet).

Kishining ko'ngli zebo kiyimlar, to'n, sharob, shirin osh, ko'p mol-dunyo, xizmat qiladigan qulni qo'msaydi. Agar inson butun umriga yetadigan mol-mulk yiqqan bo'lsa ham, eng avvalo, unga bo'rk kiymoq uchun bosh zarurdir. Shoirning ushbu fikrlaridan anglashiladiki, hamma narsadan oldin inson o'zini, o'zligini anglamog'i, qadrlamog'i, o'shalarni avaylab, e'zozlamog'i, hayotning asl mohiyati deb bilmog'i lozimdir. Hamma narsa inson uchun, uning baxt-saodati uchun xizmat qilishi zarur. Adib zikri o'tgan fikrlarini bo'rk timsoli vositasida o'quvchiga aniq yetkazishga muvaffaq bo'lgan. Bo'rk bosh kiyimi bo'lib, shoir uni kiyishga arzigulik bosh kerak deganda, jamiyki moddiy boyliklar insonsiz o'zining haqiqiy qadr-qimmatiga ega bo'lolmasligini ta'kidlaydi.

Ahmad Yugnakiyning «Esiz qilg'on erga san ezgu qilo», ya'ni «Yomonlik qilgan kishiga sen yaxshilik qil» mazmunidagi satrlari o'quvchida noto'g'ri taassurot qoldirgandek bo'lishi mumkin. Sababi shundan iboratki, yomonlik qilgan kishiga yaxshilik qilib bo'lmaydi, degan fikr ayrim odamlar ongida o'z ta'sirini saqlab qolganligiga Shubha bildirish qiyin. Bu qarshilantirish insonga, tabiiyki, g'ayriodatiy tuyuladi. Biroq shoir karamni shafqatning boshi deb biladi. Inson ongiga yaxshilik ibrati bilan ta'sir ko'rsatish adib nazarida tarbiyaning zaruriy omilidir. Chunki tanbeh, zug'um va turli jismoniy-moddiy jazolar hamisha ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, u halimlilik, yumshoq fe'l-u atvorni ulug'lab, ana shu yuksak insoniy fazilat vositasida xalq o'rtasida obro'-e'tiborga ega bo'lish mumkinligi xususida so'zlaydi. Bir so'z bilan aytganda, shoir jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tarafdoridir. Bu g'oya olijanob islom dini va tasavvuf

ta’limotida bot-bot o’z ifodasini topgan. «Hibatul-haqoyiq» ana shunday ezguliklar targ’ibotchisi bo’lgan axloqiy-ta’limiy, ma’rifiy doston bo’lganligi tufayli asrlarosha nekbin kitobxonlar qalbida yashab keladi.

3.6. Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi. «Devoni hikmat» asari, uning axloqiy-ma’rifiy, ma’naviy-tarbiyaviy mohiyati

Ahmad Yassaviy - turkiy tasavvuf she’riyatining asoschisi, atoqli mutasavvif shoir, «shayxul-mashoyix», «sultonul-orifin» unvonlari bilan ulug’langan buyuk ma’rifiy zotdir. Uning hikmatlari turkiy xalqlar tomonidan necha yuz yillardan beri sevilib mutolaa qilinadi.

Ahmad Yassaviyning tug’ilgan yili ma’lum emas. Manbalarda shoirning vafoti 1166-yil tarzida ko’rsatiladi. Ulug’ shoir bolalikdan payg’ambarimiz Muhammad alayhis-salom sunnatlariga qat’iy amal qilgan. Allohning so’nggi rasuli Muhammad alayhis-salom 63 Yoshlarida bu foniy dunyodan o’tganliklari bois Ahmad Yassaviy o’ziga yer ostidan makon qiladi. Xonaqohning bir tarafida bir joy qazdirib, xom g’isht bilan lahad shaklida hujra barpo etadi va umrining qolgan qismini mana shu chillaxonada riyozat va ibodat, irshod va mujohada bilan o’tkazadi. Rivoyatlarda bayon etilishicha, shoir o’sha yerda 120, 125 yoki 133 (yana oltmish yildan ko’proq) umr ko’rgan. Ko’rsatilgan ushbu raqamlar shoir tug’ilgan yilini belgilashda ma’lum qo’nimga kelish imkoniyatini bermaydi. Jumladan, Ahmad Yassaviy hikmatlarining yangi topilgan Turkiston nusxasida (Bozorov A.Qorayev T. Ahmad Yassaviy. «Sharq yulduzi»,1994, 2-son) Shoirning 125 Yoshda ham hayot bo’lganligini e’tirof etgan misralar mavjud:

Yer ostiga o’lmas burun tirik o’ldim,
Oltmish uchda sunnat dedi yerga kirdim.
Yer ostiga jonim bilan qulluq qildim,
Eshitib, o’qub, yerga kirdi Xoja Ahmad.
Yuz yigirma beshga kirdim, bilolmadim,
Haq Mustafo sunnatlarin qilolmadim.
Odamlardan fayz-u futur ololmadim,
Yuz yigirma beshga kirdim, bilolmadim.

Ahmad Yassaviy Sayram mavzesida Shayx Ibrohim xonadonida tug’iladi. Uning otasi Shayx Ibrohim Yassi va Sayramning eng ma’ruf mashoyixlaridan bo’lgan. U o’z xalifalaridan biri Muso Shayxning qizi Oyshaga uylanadi va undan ikki farzand ko’radi. Farzandlarining kattasi Gavhari Shahnoz ismli qiz, ikkinchisi esa Ahmaddir. Ahmad Yassaviy yetti

Yoshga to’lganda, otasi Shayx Ibrohim vafot etadi. Ota vasiyatiga ko’ra, shoir onasi va opasi bilan birgalikda Yassiga ko’chib kelishadi. Shundan so’ng haqsevar shoir hamda ilohiy-irfoniy murshidga Arslonbob degan orif shayx ustozlik qilgan. Bu haqda Ahmad Yassaviy hikmatlarida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, quyida ko’chiradigan parchamizda o’sha haqda o’qiymiz:

Yetti Yoshda Arslon bobom izlab topdi,
Har sir ko’rib parda birla bukib yopti.
Bihamdulloh ko’rdim dedi, izim o’pti,
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga.

(Ahmad Yasaviy. Hikmatlar. Toshkent, 1991, 51-bet. Bundan keyin shu kitobga murojaat qilganda, qavs ichida sahifasini ko’rsatish bilan kifoyalanamiz. – R.V., H.E.).

«Yetti Yoshda Arslon bobom izlab topdi», - misrasi Ahmad Yassaviy haqidagi yana bir rivoyatga murojaat qilishga undaydi. Unda hikoya qilinishicha, Muhammad alayhis-salomga Ahmad ismli ummatning tug’ilishi oldindan ma’lum bo’lgan ekan. Alloh rasuli sahobalari bilan bir joyga borishganda, och qolishadi. Rasulullоh duosi bilan hazrat Jabroyil jannatdan bir taboq xurmo keltiradi. O’sha xurmolardan bir donasi yerga tushadi. Shunda payg’ambari akram: «Bu xurmo sizning ummatingizdan Ahmad Yassaviy otli birining qismatidir», - dedi. Har omonatning egasiga berilmog’i tabiiy bo’lgani uchun hazrat payg’ambar sahobalaridan biriga bu vazifani bajarishni taklif etadi. Rasuli Xudoning as’hobidan hech biri javob bermadi. Faqat Arslonbobo Alloh elchisining inoyati bilan ushbu ishni bajara bilajagini so’zlaydi. O’sha bir dona xurmo ustida bir parda zohir bo’ladi. Shunda hazrat payg’ambar Arslon boboga Sulton Ahmad Yassaviyning qanday bo’lajagini ta’rif etib, uning tarbiyasi bilan shug’ullanishni amr qiladi. Mazkur rivoyatni shoir Tohir Qahhor turk olimi Fuod Ko’prulizodadan, u esa Said Hasanxoja naqibul-sharaf Buxoriyning «Muzakirul ahbob» asari qo’lyozmasidan olganligini yozadi (Tohir Kahhor. Ahmad Yassaviy. «G’oyiblar xaylidin yongan chiroqlar» (kitobdan). Toshkent, 1994, 129-bet).

Yana Tohir Qahhorning ma’lumotiga ko’ra, Ahmad yetti Yoshda ekan, Arslonbob Sayramga (ba’zi manbalarda Yassiga deyiladi) kelgan. U uzoqdan, maktabdan qaytayotgan Ahmadni ko’rarkan, tanib unga salom beradi. Ahmad javob qaytarib, omonatni so’raydi. Shunda Arslonbob uning valiyligiga, Allohning irodasiga qoyil qoladi (O’sha kitob, 130-bet). Ahmad Yassaviyning hikmatlarida ushbu rivoyatni tasdiqlovchi misralar mavjud:

Xurmo berib, boshim silab, nazar qildi,

Bir fursatda uqbo sari safar qildi.
Alvido, deb bu olamdan guzar qildi,
Maktab borib, qaynab, to'lib, tanidim mano.

Ahmad Yassaviyning Arslonbob tarbiyasini olishi uzoqqa cho'zilmaydi. Ko'p o'tmay ustodi ma'naviy vafot etadi. Aslida Yuqorida keltirilgan rivoyatdagi voqealarni aynan o'z ma'nosida qabul qilish yaramaydi. Avvalo, voqealar bayonining rivoyat tarkibida kelganligini esdan chiqarmaslik lozim. Ikkinchidan, bunday lavhalar manoqib asarlarning xos xususiyati bo'lib, ular zamirida majoz, voqea-hodisalarni ilohiylashtirish, asar qahramonini bo'rttirib ko'rsatish mayli (masalan, yetti gazlik sag'analarni olib ko'ring, tarix bunday qad-u qomatga ega odam yashab o'tganligini bilmaydi-ku?!) baland ekanligini esdan chiqarmasligimiz zarur.

Keyinchalik shoir Buxoroga borib, Yusuf Hamadoniydan tasavvuf sirlarini o'rganadi. Ma'lumotlarga ko'ra, ulug' mashoyix Yusuf Hamadoniyning Buxoroyi sharifda to'rt xalifasi (o'rinbosari, izdoshi) bo'lgan. Bular: Xoja Abdulla Barqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy va Xoja Ahmad Yassaviylardir. Shoir ilohiyot va tasavvuf sirlarini shu qadar teran o'rganganki, xalq orasida «Madinada Muhammad, Turkistonda Xoja Ahmad» naqlining paydo bo'lishi zamirida o'sha bilimdonlik yotadi. Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Yusuf Hamadoniydan keyin bu to'rt kishidan har biri irshod va da'vat maqomiga erishganliklarini yozadi. Shunday qilib, Xoja Ahmad Yassaviy bir muddat Buxorodagi muqaddas xonaqohda raislik qilib, keyin Turkistonga qaytadi.

Ahmad Yassaviydan «Devoni hikmat» nomli she'rlar kitobi bizgacha yetib kelgan. Unda jami 240 ga yaqin she'rlar - hikmatlar jamlangan. «Devoni hikmat»ning bir necha qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ularning eng qadimgisi XVII asrga mansubdir. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Toshkent, Qozon va Istambulda uning tosh bosma nusxalari nashr etildi. 1991-yilda I.Haqqulov, 1992-yilda esa M.Hasaniy say'-harakatlari bilan «Devoni hikmat» qayta chop etildi. Unda Ahmad Yassaviy nomi «Qul Xoja Ahmad», «Xoja Ahmad Yassaviy», «Ahmad ibn Ibrohim», «Sulton Xoja Ahmad Yassaviy», «Ahmad», «Ahmadiy», «Qul Ahmad», «Miskin Ahmad» tarzida qo'llanganligi kuzatiladi.

Ahmad Yassaviy hikmatlari tarixiy zarurat va davrning ma'naviy ehtiyoji tufayli vujudga keldi. Shoir hikmatlarining birida qo'yidagi satrlar uchraydi:

Xushlamaydur olimlar bizni oyg'on turkini,
Oriflardan eshitsang, ochar ko'ngil mulkini.
Oyat, hadis ma'nosi turkiy bo'lsa muvofiq,

Ma’nisiga yetganlar, yerga qo’yar bo’rkini.

Ko’rinadiki, shoir turkiy til mavqeyini tiklash va islom dinini sodda tilda keng xalq ommasiga targ’ib qilishdek juda muhim vazifani o’z oldida maqsad qilib qo’yadi va shu yo’lda tinmay izlanadi. Ahmad Yassaviy Qur’oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta’limotidan ilhomlanib o’z g’oyaviy niyatlarini xalqqa yetkazish uchun o’sha sarchashmalarga tez-tez murojaat qiladi. Shoir o’zi yashagan davrdagi urush-taloshlar, zulm va zo’ravonliklar, munofiqlik va jaholat sabablarini zamondoshlarining dindan yuz o’girishlarida, iymon-e’tiqodlarining sustligida deb biladi:

Na onoda rahm qoldi, na otoda,
Og’a-ini bir-biriga mojaroda,
Musulmonlar da’vo qilur, ichar boda,
Mastlig’ bila qarindoshdn tondi, ko’rung.
Nokas, xasis, bediyonat qullar hokim,
Moumanlik haddin oshib bo’ldi zolim,
Xalq ichinda xor bo’ldilar darvesh, olim,
Himoyati xalqni kofir bo’ldi, ko’rung... (190)

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilohiy muhabbat, haqsevarlik va insonsevarlik kabi olijanob insoniy fazilatlar ulug’lanadi. Shoir oshiqlar deganda Haq ishqi bilan yongan soliklarni nazarda tutadi. U «dardsiz odam odam emas», «ishqsiz odam hayvon jinsi» derkan, shubhasiz, Yaratganning buyuk qudrati va sifatlarini anglamagan, uning mo’jizalaridan hayratlanmagan kishilar haqida fikr yuritadi. Muhabbatsiz xaloyiqdan yiroq bo’lish ham ijodkor hikmatlarida tez-tez ta’kidlanadi. Shoirning fikricha, shunga qat’iy amal qilinib, ishq yo’lida har qanday riyozat bosqichlaridan mardonavor o’tgan oshiq, albatta, Tangrining lutf-u karamidan benasib qolmaydi:

Muhabbatsiz xaloyiqdan har kim qochsa,
Oriflarni suhbatida javlon qilur.
O’rtab, kuYub ishq yo’lida Yoshin sochsa,
Subhon egam arsh ustida mehmon qilur. (159)

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ishq yo’liga kirgan Odam Ato farzandlarining eng katta dushmani bo’lgan nafsga nisbatan murosasiz bo’lishga undash g’oyalari yetakchilik qiladi. Shuningdek, shoir she’rlarida yolg’onchilik, munofiqlik, hirs, ta’magirlik, kibrlilik singari nomunosib insoniy illatlar qattiq qoralanadi hamda o’tkinchi hoy-u havaslar-u mol-u mulkka berilmaslikka da’vat etiladi:

Dunyo tepib Haqni suygan topdi murod,
Haq sharobin ichkan oshiq shavqi ziyod.

Qiyomat kun kazzoblarning yuzi uyot,
Yolg'onchilar Haq yodini etkoni yo'q. (191)

«Devoni hikmat»dagi she'rlar kishini sergaklantiruvchi, hushYorlikka chaqiruvchi da'vatkor satrlardir. Unda insonni komillikka yetaklovchi, ruhini yomon illatlardan forig' qiluvchi yuksak fazilatlar xususida fikr yuritiladi. Hikmatlardagi nafsini jilovlagan oshiqlar obrazi alohida ahamiyatga ega. Ular Alloh diydoriga yetishdek ezgu maqsad sari intiladi.

Ahmad Yassaviy she'riyatidagi ma'shuqa Yagona Alloh bo'lsa, oshiqlar esa barcha «diydor talablar»dir. Ularning qat'iyatliligi, mustahkam irodasi, so'zida sobitligi barchaga ibrat bo'larlidir. Oshiqlar do'zaxga kirsalar ham parvo qilmaydilar. Chunki ular uchun ishq qismat, shu yo'lda duch keladigan barcha azob-u iztiroblarni qabul qilish va kechirishga ular tayyor turishadi.

Do'zax ichra kirsa oshiq, parvo qilmas,
Ko'rib, bilib, mol-u mulkin qo'lga olmas.
Hur-u qusur g'ulmonlarni ko'zga ilmas,
Faryod etib g'avg'o qilib yurar bo'lgay. **(182)**

Oshiqlar mol-u mulkni ko'zga ilmaydi. Dunyoviy ziynatlargi hirs qo'ygan kishilar esa shoir nazarida gumroh, badkirdor g'ofil kimsalardir:

Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldin ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur.
Yotsa, qo'psa shayton bila hamroh bo'lur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor. (102)

Ahmad Yassaviy hikmatlarining aksariyati murabba' shaklida yozilgan bo'lib, ular nafaqat g'oyaviy jihatdan, balki badiiy salohiyati nuqtayi nazaridan ham mumtoz she'riyatimizning eng sara durdonalaridan sanaladi. Shoir ijodidagi oshiq, darvesh, eranlar, murid, murshid, piri mug'on singari obrazlar hamda Fir'avn, Qorun, Faridun, Muso, Vomiq, Uzro, Yusuf, Farhod, Majnun, Od, Mansur, Shibli, Boyazid, Junayd, Zunnun, Ya'qub, Zulayho, Zol, Arslonbob, Zikriyo, Ayyub kabi juda ko'p afsonaviy va tarixiy shaxslar timsollarining qo'llanishida o'ziga xos teran falsafiy ma'no mujassamlashganligi kuzatiladi. Shoir ana shunday badiiy timsollar vositasida o'z maqsad-muddaosini o'quvchiga yetkazadi. Hikmatlarda qo'llangan badiiy timsollar bilan bog'liq afsona va rivoyatlar xalqimiz orasida keng tarqalganligi hamda ko'pchilikka tanish ekanligi shoir she'riyati ta'sir doirasining yanada kengayishiga sabab bo'lgan:

Tinmayin men hasratingda Olloh desam,
Zor ingrabon zokir bo'lib, rabbim desam.
Quli bo'lib, qulligingda bo'yin sunsam,

Bu ish birla, Yorab, seni topg’aymumen?
Zikriyodek bu boshimga arra qo’ysam,
Ayyubdek ham bu tanimga qurtni solsam.
Musodek ham Tur tog’iga toat qilsam,
Bu ish birla, Yorab, seni topg’aymumen?
Yunusdek ham daryo ichra baliq bo’lsam,
Yusufdek ham quduq ichra vatan qilsam.
Yoqubdek ham Yusuf uchun ko’p yig’lasam,
Bu ish birla, Yorab, seni topg’aymumen?
Shiblidek ham oshiq bo’lib samo ursam,
Boyaziddek tun-kun tinmay Ka’ba borsam.
Ka’ba ichra yuzum surtib zor ingrasam,
Bu ish birla, Yorab, seni topg’aymumen?
Ma’rufdek ham ushbu yo’lga qadam qo’ysam,
Mansurdek ham jondin kechib dorga qo’nsam.
Dor uzra shavqlanibon Haqni aysam,
Bu ish birla, Yorab, seni topg’aymumen?
Qul Xoja Ahmad, qulluq ichra sobit bo’lsam,
Zokir bo’lib, zikrin aytib rabbim desam,
Zikrinda shavqlanibon kuyib yonsam,
Bu ish birla, Yorab, seni topg’aymumen? (94-95)

Ahmad Yassaviy Yuqorida keltirganimiz iqtibosda kuzatilgani singari insoniyat tarixida g’oyatda muhim ahamiyatga ega bo’lgan tarixiy va afsonaviy shaxslar timsollaridan mahorat bilan foydalangan hamda she’rdagi asosiy g’oya tavhid - Alloh bilan birlashish yo’li haqida o’zining nihoyatda teran mulohazalarini badiiylashtirishga muvaffaq bo’lgan. Satrlarda talmeh asosi bo’lib kelgan diniy arbob, tarixiy va afsonaviy shaxslar Ulug’ shoir ifodalamoqchi bo’lgan g’oyalarni she’rxonga qabariq hamda bo’liq yetkazish uchun beminnat xizmat qilgan. Shoir turkiy, jumladan, o’zbek tasavvuf adabiyoti taraqqiyotiga o’zining ana shunday purma’no hikmatlari bilan ulushini qo’shib, avlodlarga muhim axloqiy-ta’limiy mohiyat kasb etuvchi adabiy meros qoldirdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Arablar istilosining O’rta Osiyo xalqlari madaniy hayotiga ta’siri haqida gapirib bering.
2. Somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar davridan qanday arxitektura namunalari saqlanib qolgan?

3. O’zbek xalqi qaysi yozuvlardan foydalangan?

4. O’rta Osiyolik qomusiy olimlardan kimlarni bilasiz?

5. X-XII asrlarda faoliyat ko’rsatgan fors-tojik adabiyoti namoyandalari haqida so’zlab bering.

6. Abu Mansur as-Saolibiyning «Yatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr» tazkirasi haqida so’zlang.

7. Mahmud Qoshg’ariy va uning «Devonu lug’otit turk» asari tarixi va mundarijasini bilasizmi?

8. «Qutadg’u bilig»da doston muallifi haqida qanday ma’lumotlar beriladi?

9. «Qutadg’u bilig»dagi ramziy-majoziy obrazlarni izohlang.

10. Ahmad Yugnakiy haqida qaysi manbalarda ma’lumot keltirilgan?

11. «Hibatul-haqoyiq»da bilim, til odobi, saxiylik va baxillik xususida adib qanday fikr yuritadi?

12. Ahmad Yassaviy va uning «Devoni hikmat» asari haqida nimalarni bilasiz?

13. Ahmad Yassaviy hikmatlarining manbalari haqida so’zlang.

14. Ahmad Yassaviy hikmatlaridan namunalar yod aytib, sharhlang.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Qutayba ibn Abu Muslim. Muqanna. Xalifa Xorun ar-Rashid. Ismoil Somoniy. Qoraxoniylar sulolasi. Saljuqiylar sulolasi. Imom ibn Ismoil al-Buxoriy. «Al jomi’ as-sahmh». Minorai kalon. Vobkent minorasi. Namozgoh va Mag’oki attoriy masjidi. Abu Mansur as-Saolibiy. «Yatimat ad-dahr ...» tazkirasi. Abu Toyyib al-Mus’abiy. Abu Abdulloh Ro’dakiy. Abu Ali ibn Sino. Mahmud Qoshg’ariy. «Devoni lug’otit turk». Qaz. AfrOsiyob. Yusuf Xos Hojib. «Qutadg’u bilig». Kuntug’di. Oyto’ldi. O’gdulmish. O’zg’urmish. Ahmad Yugnakiy. «Hibatul-haqoyiq». Dod Sipahsolorbek. Ahmad Yassaviy. «Devoni Hikmat». Shayx Ibrohim. Arslonbob. Yusuf Hamadoniy.

Adabiyotlar

1. Abdullayev I. Beruniyga zamondosh shoirlar. Toshkent: «Fan», 1974.

2. Alisher Navoiy. Asarlar. 15- tom. Toshkent, 1968.

3. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent, 1991.

4. Karimov K. Ilk badiiy doston. Toshkent, 1976.

5. Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. Toshkent: «O’qituvchi», 1976 . 79-162 -betlar.

6. Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asari haqida. Toshkent, 1972 .
7. Mo’minov A. Yassaviya: ildiz va manbalar. «Fan va turmush» jurnali, 1993-yil, 9-10-sonlar.
8. Rustamov E. Ahmad Yassaviyning hikmatlarida hayot va tarix sadolari. «O’zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1972. 4-5-sonlar.
9. To’xliyev B. «Qutadg’u bilig»da rang ramziga doir. «O’zbek tili va adabiyoti», 2001, 3-5-betlar.
10. To’ychiyev U. Ahmad Yassaviy va o’zbek she’r tuzilishi. «O’zbek tili va adabiyoti», 1999, 2-son, 15-18-betlar.
11. Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig. Toshkent: «Fan»,1971.
12.O’zbek adabiyoti tarixi. I tom, Toshkent: «Fan», 1976 , 80-140-betlar.
13.Qadimiy hikmatlar. Toshkent, 1987 .
14.Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. Toshkent, 1991.

IV BOB
XIII ASR VA XIV ASR BOSHLARIDAGI O’ZBEK ADABIYOTI

4.1. XIII asr va XIV asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy hayot.

XIII asrning ilk choragida Chingizxon boshchiligida mug’ul qo’shinlari tomonidan O’rta Osiyoning istilo qilinishi o’lka xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va adabiy-madaniy taraqqiyotiga berilgan yirik zarba sifatida tarix sahifalaridan o’rin oldi. XII asrning II yarmida vujudga kelgan Xorazm davlati XIII asr boshlarida, Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) hukmronligi davrida tobora inqirozga yuz tuta boshladi. Bu davrda mamlakatda o’zaro ixtiloflar ancha kuchaydi. Ko’pgina viloyatlar Muhammad Xorazmshoh hukumatiga rasmangina qaram edi. Natijada XIII asr boshlariga kelib, Xorazm davlatining siyosiy va harbiy salohiyati ancha zaiflashib qoladi.

1206-yilda Chingizxon boshchiligidagi mug’ullarning ilk feodal davlati tashkil etilgandan so’ng ularning istilochilik harakatlari avj olib ketdi. Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari, Tangut (Si Sya), Chjurchjen (Shimoliy Xitoy) davlatlari bo’ysindirilgach, Xuanxe daryosining shimolidagi yerlar ham mug’ullar qo’liga o’tdi. 1218-yilda Yettisuv mug’ullar tarafidan istilo etiladi. 1219-yilda Chingizxon qo’mondonligidagi 150 mingdan ziyod mug’ul

askarlari O’rta Osiyoga bostirib kiradi. Muhammad Xorazmshoh o’z qo’shinini bir joyga to’plash o’rniga, bo’lib-bo’lib Shahardagi qal’alarga joylashtiradi. Bu mo’g’ullarning osonlik bilan mamlakatni bosib olishiga qulaylik tug’dirdi (Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent: «O’qituvchi», 1994, 418-bet).

Mamlakatdagi boshbodoqsizliklarga qaramay, xalq ommasi o’z vatani, Shahar va qishloqlarini istilochilardan mardona himoya qilish uchun butun kuchini safarbar qiladi. Ayniqsa, Temur Malik boshchiligidagi Xo’jand mudofaasi uchun olib borilgan kurashlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy manbalardagi ma’lumotlarga ko’ra, o’zini davrining Iskandari deb atagan Muhammad Xorazmshoh 1220-yildayoq taxtini tashlab, qochib ketadi. U Kaspiy dengizining janub tomonidagi orollardan birida kasal bo’lib, xor-zorlikda vafot etgan.

Muhammad Xorazmshohning o’g’li Jaloliddin Manguberdi mamlakat mustaqilligi uchun astoydil kurashgan yirik sarkardadir. Dushman Xo’jand, Buxoro, Samarqand, Termiz kabi Shaharlarni istilo qilib, Urganj tomon yo’l oladi. Jaloliddinga saroy ayonlari va ko’pchilik askar boshliqlari buysunmaganligi bois u Temur Malik bilan birgalikda kuch to’plab, qayta hujumga o’tish niyatida Xurosonga ketadi. Urganch dushman qamali iskanjasida qoladi. Chingiz qo’shinlari suv to’g’onini ochib yuborib, Shaharni suv ostida qoldiradi. Sharqning yirik Shaharlaridan biri bo’lgan Urganch xarob ahvolga tushib qoladi. Shahar aholisining ko’pchiligi nobud bo’ladi. Jumladan, ulug’ vatanparvar shayx Najmiddin Kubro ham fojeali vafot etadi. Bu ulug’ orif va shayxning Vatan mudofaasi yo’lida ko’rsatgan shijoat hamda jonbozligi tillarda dostondir. Ona-yurtdan ko’ngil uzolmagan Kubro hazratlari mo’g’ul bosqinchilari bilan yuzma-yuz jangda oxirgi qatra qonlari qolguncha kurashib, bahodirona jon taslim qilganlar. Shayx Kubro jasorati bugun uchun ham alohida ibrat maktabidir 1221-yilda Xorazm davlatining dushman ixtiyoriga o’tishi bilan O’rta Osiyo tamoman mug’ullar idorasi ostida qoladi. Keyingi istilochilik harakatlari qo’shni Xuroson hududlarida bo’lib o’tadi. U yerda Muhammad Xorazmshohning o’g’li Jaloliddin mustamlakachilarga qarshi kurashni davom ettiradi. U Temur Malik bilan birgalikda 1221-1231-yillar mobaynida Afg’oniston, Hind, Eron va Iroq hududlarida Chingizxon qo’shinlariga qarshi shiddatli janglar olib boradi.

Jaloliddin Manguberdi mo’g’ullar tomonidan Hind daryosiga qadar ta’qib etiladi. 1221-yilda u mag’lubiyatga uchraydi. Ulug’ sarkarda oilasi, xotini va boshqalarni dushman qo’lida asir bo’lishini istamay, Hind daryosiga cho’ktirib yuboradi. O’zi esa daryodan suzib o’tib, Hindiston sari yo’l oladiki, bunday jasorat takrorlanmas qahramonlik namunasidir. Ona-O’zbekiston ham bu

pahlavon o’g’lining jasoratini unutmadi. Mustaqillik yo’lidagi kurashning Yorqin timsoli sifatida uning mahobatli haykali Urganchda salobat to’kib turibdi. Ma’lumotlarga ko’ra, Jaloliddin Manguberdi 1231-yilda Turkiston tog’larida vafot etgan. Temur Malik Jaloliddin o’ldirilgandan so’ng, o’z vataniga qaytib keladi. Biroq xalqni istilochilarga qarshi kurashga ruhlantira olmaydi va mug’ul qo’shinlari qo’liga tushib, o’ldiriladi. Bosqinchilarga qarshi xalqning norozilik harakatlari uzoq vaqt davom etadi. Jumladan, Buxoro va uning atrofida Mahmud Tarobiy rahbarligidagi bo’lib o’tgan xalq qo’zg’oloni buning Yorqin dalilidir.

Chingizxon nomi eng dahshatli, yovuz istilochi sifatida tarix sahifalaridan o’rin oldi. Uning istilochilik harakatlari natijasida Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx kabi yirik Shaharlarga jiddiy talofot yetkaziladi. San’at asarlari, kutubxonalar, ancha taraqqiy etgan qishloq xo’jaligi, saroylar va masjidlar vayronaga aylanadi. Bu xunrezliklar badiiy adabiyotda o’z in’ikosini topdi, Shuningdek, ilm-ma’rifat, san’at va adabiyot rivojiga o’zining salbiy ta’sirini ham ko’rsatdi.

«Guldursun afsonasi» - mo’g’ul bosqinchilariga qarshi erk uchun olib borilgan kurashlar tafsiloti haqida ma’lumot beruvchi badiiyat namunasi sanaladi. Mazkur afsona bilan S.T.Tolstov qadimgi Xorazm bo’ylab arxeologik tekshiruv ishlarini olib borganda qiziqib qoladi. Mashhur arxeolog olim Qaraqalpog’iston hududidagi Guldursun qal’a xarobasini o’rganarkan, bu joy nomi bilan bog’liq afsonani mahalliy aholi vakillaridan eshitadi va yozib oladi. Afsonaning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Qadimda Guliston degan obod Shahar bo’lgan ekan. Dushman bu Shaharni qamal qilibdi. Donishmand keksa podsho aholini mudofaaga safarbar etibdi. Aholi Shaharni mardona himoya qilibdi. Oziq-ovqat tugab, ochlik dahshati boshlanganda ham xalq qurolini tashlamabdi. Ochlik dushmanni ham mavh eta boshlabdi. Shahar aholisi semizroq bir necha sigirga so’nggi don-dunini yedirib, darvozadan tashqariga chiqarib yuboribdi. Ochlikdan toliqqan dushman sigirlarni so’yib, ularni don-dun bilan boqilganligini ko’rib: «Shahar ahlining oziq-ovqati ko’p ekan, ochlikdan halok bo’lmay, jo’nab qolaylik»? - degan qarorga kelibdi. Shunda podshoning yengiltak qizi Guldursun yurtboshilariga xiyonat qilibdi. U qal’a ustida jangni kuzatib turganida, dushmanning navqiron askar boshlig’ini sevib qolibdi. ehtirosi ustunlik qilib, qaytib ketishga hozirlanayotgan dushmanning askar boshlig’iga maktub chiqarib «Sigir voqeasi hiyladir, Shaharda oziq-ovqat tugagan, bir kun sabr qilsang, taslim bo’lishadi», - debdi. Aholi ochlikdan toliqibdi, ko’p kishi o’libdi, Shahar taslim bo’libdi. Guldursunni askar boshlig’i oldiga olib

kelishgan ekan, u qizning ishidan xursand bo'lsa ham, baribir menga ham xiyonat qilishi mumkin deb, qizni otning dumiga bog'latib, sudratib o'ldiribdi. Shahar yer bilan yakson qilinibdi. Gulistondan asar ham qolmabdi. Shaharning xarobaga aylanishida Vatan va xalq xoini yengiltak Guldursun sabab bo'lganligi uchun, kishilar tuproq teppani Guldursun deb atashibdi (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 166-bet).

Ko'rinadiki, afsonada erk uchun mardonavor kurash, dushman va xoinlarga nafrat g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo xalqlarining shiddat bilan rivojlana boshlagan yozma adabiyoti ravnaqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'rta Osiyodagi madaniy Yodgorlik, san'at asarlari, badiiyat namunalarining yo'qolib ketishiga ham Chingiz qo'shinlarining vahshiyona bosqinchilik harakati sabab bo'ldi. Ilm-fan, san'at, adabiyot namoyandalarining ko'pchiligi janglarda halok bo'lgan bo'lsa, ba'zilar boshqa yurtlarga ko'chib ketishga majbur bo'lishdi. Jumladan, ko'hna Shahrisabzda tavallud topgan mashhur shoir Xisrav Dehlaviyning ajdodlari birmuncha osoyishta, obod va madaniyati yuksak bo'lgan Hindistonga ko'chib ketadi va o'sha joyda turg'un bo'lib qolishadi. Xisrav Dehlaviy esa Dehlida tug'ilib nash'u namo topadi, o'sha o'lkada badiiy ijod bilan shug'ullanadi. Forsiy tildagi badiiy adabiyot ravnaqiga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, buxorolik shoir, adib va adabiyotshunos Muhammad Avfiy, toshkentlik shoir Badriddin Chochiy, naxshablik (Qashqadaryo viloyati) Ziyo Naxshabiy kabi ijodkorlar ham Hindiston o'lkasiga yo'l olishni afzal ko'rishadi.

Qo'shni mamlakatlardan Eron mo'g'ullar istilosidan kamroq talofat ko'rgan va nisbatan osoyishta bo'lsa, Turkiya, Misr va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlari bunday bosqinchilik harakatlari o'chog'iga aylanmagan edi. Shu bois ko'pchilik shoir va olimlar mana shu mamlakatlardan panoh izladilar. Ma'lumotlarga ko'ra, Kamol Xo'jandiy, Nosir Buxoriy kabi bir qancha shoirlar Eronda turg'un yashay boshladilar. Kamol Xo'jandiyning ko'pgina asarlarini Eron Ozarbayjonining poytaxti Tabrizda ijod qilganligi manbalarda qayd etiladi.

Bu davrda aksariyat olim va yozuvchilar ikki yoki undan ortiq tilda ijod qilganliklari ko'zga tashlanadi. Jumladan, asli balxlik bo'lgan Jaloliddin Rumiy bolaligida oilasi bilan panoh izlab Turkiyaga borib qoladi. U yerda dastlab Larenda, keyinchalik esa saljuqiy sultonlarning poytaxti Ko'nyoda muqim yashaydi. Jaloliddin Rumiyning fors-tojik tilida yozgan "Ma'naviy masnaviy"si Sharq adabiyoti ravnaqiga qo'shilgan muhim hissa sanaladi. Shuningdek, shoir turkiy tilda ham asarlar yozgan. Husomiddin Osimiy fors-tojik, turkiy va

arab tillarida ijod etgan. Manbalarda qayd etilishicha, Husomiddin Osimiyni zamondoshlari «arabchasi fasih, turkchasi saheh va forschasi maleh»-, deb tavsiflashgan. Bulardan tashqari, Muhammad as-Samarqandiy turkiy, mo'g'ul, fors-tojik va arab tillarini mukammal bilgan. O'z-o'zidan zikri o'tgan holat bu davrda mulamma' – shir-u shakar (ikki yoki undan ortiq tilda asar bitish) san'atining ancha taraqqiy etishiga sabab bo'lgan. Jumladan, shoir Purbahoyi Jomiy turkiy, fors-tojik va mo'g'ul tillarida qasida yozgani manbalarda qayd etiladi. Bunday ma'lumotlarga tayanib qasida janri ma'lum takomil bosqichlarini XIII asr va XIV asr boshlarida o'tadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Mo'g'ullar istilosi aksariyat madaniyat, san'at, adabiyot va diniy asarlarning yo'q bo'lishiga sababchi bo'lgani bois, ko'pgina ijodkorlar vujudga kelgan bo'shliqni to'ldirishga harakat qildilar. Mashhur shoir Jaloliddin Rumiy Mavlaviya tariqatining asoschisi sifatida o'z asarlarida tasavvufiy g'oya, istiloh va timsollardan keng foydalandi. Shuningdek, Sa'diy Sheroziy ijodida ham Qur'oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta'limotining g'oyalari o'zining teran ifodasini topadi. Bir so'z bilan aytganda, mazkur mavzularda ijod qilish bu davrda ancha taraqqiy etdi. Nosiriddin Burhoniddin Rabg'uziyning payg'ambarlar tarixiga bag'ishlangan «Qisasi Rabg'uziy» asari ilk yirik hajmli turkiy nasr namunasi sanaladi. Hozircha ma'lum adabiy dalillarga ko'ra, dastlabki turkiy g'azal ham mana shu asar tarkibida uchraydi. Bulardan tashqari, Qul Ali degan shoir tomonidan 1223-yilda o'g'uz lahjasida «Qisasi Yusuf» dostoni yaratilganki, bu ham qur'oniy mavzularga murojaat va doston janri taraqqiyotini belgilaydi.

4.2. Nosiruddin Rabg'uziy va uning «Qisasi Rabg'uziy» asari

Yuksak iste'dod sohibi bo'lgan taniqli adib, iste'dodli shoir Nosuriddin Rabg'uziy o'zbek mumtoz adabiyotining ulkan namoyandalaridan biridir. Uning turkiy xalqlar orasida "Qisasul anbiyo" nomi bilan mashhur bo'lgan "Qisasi Rabg'uziy" asari yozuvchi ma'naviy merosidan bizgacha yetib kelgan yagona adabiy manba sanaladi. Mazkur asar yirik hajmli turkiy nasrning birinchi namunasidir. Yangi adabiy manbalarning kashf qilinishi bunday ta'kidga tahrir kiritish ham mumkin.

Nosiruddin Rabg'uziyning hayoti va ijodi haqida juda oz ma'lumotlarga egamiz. «Qisasi Rabg'uziy»dagi ayrim parchalar adib tarjimayi holiga doir ishoralarga egaligi bilan alohida ahamiyatga molik. Jumladan, asar muqaddimasida «Qisasi Rabg'uziy» Xorazmdagi Raboti o'g'iz degan joyning

qozisi Burhoniddin o'g'li Nosuriddin tomonidan e'tiborli mo'g'ul beklaridan hisoblanib, islom dinini qabul qilgan Nosuriddin To'qbug'abek iltimosiga ko'ra yozilganligi e'tirof etiladi. Adib Nosuriddin To'qbug'ani: «Toj ul-umaro va muhibbul ulamo beklar urug'i, yigitlar arig'i, ulug' otlig', qutlug' zotlig', ezgu xulqlig', islom Yorig'lig', mug'ul saniglig', musulmon dinlig', odamiylar inonchi , mo'minlar quvonchi, hikmati adiz, aqli tegiz begimiz», (Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Birinchi kitob. Toshkent: "Yozuvchi", 1990, 10-bet. Bundan keyin shu manbaga murojaat etilganda, qavs ichida jildi va sahifasini ko'rsatish bilan kifoyalanamiz – R.V., H.E.) - deb ulug'laydi.

Nosuriddin Rabg'uziy asarning muqaddimasida uning yozilish sabablarini ham bayon etgan: «... Payg'ambarlar qissalariga g'oyat rag'batim bor. Tekma yerda, tekma kim ersada bilinur ba'zisi mustaqim bor, ba'zisi nomustaqim. Bir anchasi muqarrar va bir anchasi mubattar bor. Bir ozining so'zlari kesuk bor, bir ozining maqsudlari o'ksuk. Emdi saning zimmangdan chiqqan, qalamungdan oqqan, kitobatma saning, iboratma saning bo'lib «Qisasul-anbiyo» bo'lsa, o'qumog'qa kerakliq, o'rganmog'qa Yorog'liq bo'lg'ay erdi, teb iltimos yanglig' ishorat bo'ldi ersa, nechama o'zumni ul ishga loyiq, ul amalga muvofiq ermasin teb, bu og'ir ishga o'gradim. Izi izza va jalladan tamom bo'lguga tavfiq (Alloh taolo uning kamchiliklarini bekitsin va unga rahm qilsin) tilab kitob boshladimiz». Ko'rinadiki, ijodkor g'oyat ulug' ishga kirishadi. Payg'ambarlar qissalariga bo'lgan rag'bati turli joylarda, turli kishilar tomonidan hikoya qilinadigan, ba'zilari mustaqil, ba'zilari esa mustaqil bo'lmagan; ba'zilari parchalar holida bo'lgan va shunga o'xshash Alloh elchilari to'g'risidagi badiiyat namunalarini yig'ib, kitob holiga keltiradi.

Asar muallifining bundan ko'zda tutgan maqsad-muddaosi quyidagicha muxtasar badiiy ifodalangan: «Bunda maqsad payg'ambar qissasi erdi va lekin odamdan burunoq yaratilgan bor uchun andin boshlasamiz foydasi ortiqroq bulg'ay, deb tartib uza yaratilganlardan og'oz qildimiz. Ertakliga ung'ay, istakliga tebray bo'lsin teb «Qisasi ar-Rabguziy» ot berdimiz». Nosuriddin Rabg'uziy asarning yozilish tarixi haqida quyidagicha ma'lumot beradi:

Ushbu tugattim bu kitobni, ey Yoronlar, yer yuzi,
Bir yil ichra kechdi oning yoy, qishi, yozi, kuzi.
Oy qo'pordim, uzum uzdim, so'zni tuzdim tunla men, -
Erta turdum, xoma urdum, emganib tun-kunduzi.
Yetti yuz o'n yilgakim bitildi bu kitob,
Tug'mish erdi ul ugurda hut-saodat yulduzi (II. 216-217).

Nosuriddin Rabg’uziy ushbu asarni bir yillik tinimsiz ijodiy mehnati natijasida vujudga keltirganini she’riy parchada e’tirof etadi. Hijriy 710-yilning hut oyida kitob nihoyasiga yetkazilgan. Hut hijriy-shamsiy taqvimning sunggi oyi sanaladi. Buni milodiy hisobga aylantiradigan bo’lsak, 1332-yilning fevral- mart oylariga to’g’ri keladi. Biroq ayrim ishlarda, jumladan, E.Fozilov «Qisasi Rabg’uziy» kitobiga yozgan so’z boshisida asar hijriy hisob bilan 710-yilning hut oyi va melodiy hisob bilan 1310-yilda yozilgan, deya ta’kidlaydi» (Nosuriddin Rabg’uziy. Qisasi Rabg’uziy. Birinchi kitob. Toshkent, 1990, 7-bet). Bunday xatolik hijriy-qamariy yilni melodiyga aylantirishdan kelib chiqqan. Afsuski, o’rta umumiy ta’lim maktablari darsliklarida ham bunday yanglish raqam tuzatilmagan.

«Qisasi Rabg’uziy»ning eng qadimgi qo’lyozma nusxasi XV asrda ko’chirilgan bo’lib, u Britaniya muzeyida saqlanadi. XV-XVI asrlarda ko’chirilganligi taxmin etilgan asarning xuddi shunday yana bir nusxasi Sankt-Peterburgda mavjud. Shuningdek, «Qisasi Rabg’uziy» XIX asrning II yarmi va XX asrning boshlarida Qozon va Toshkentda bir necha marta nashr qilingan. Asarning to’la matni 1959-yilda Qozon shahrida rus turkshunos olimi N.I.Ilminskiy tomonidan chop etildi. 1990-1991 yillarda E.Fozilov, A.Yunusov, H.Dadaboyev, Y.Shokirov kabi olimlarimizning sa’y-harakatlari bilan «Qisasi Rabg’uziy» ikki kitob holida sharh-u izohlar va lug’at bilan ta’min etilib, Toshkentda nashr yuzini ko’rdi. Mazkur mo’tabar adabiy Yodgorlik V.Radlov, V.Tomsen, P.Melioranskiy, S.Malov, V.Kotvich, A.Fon, Gaben, G.Romstedt, A.Kononov, P.Sime, Basim Atalam, E.Najib, Rahmati Arat singari sharqshunos olimlar diqqatini o’ziga tortgan va ularning bir qator ilmiy tadqiqotlarining vujudga kelishiga sabab bo’lgan.

«Qisasi Rabg’uziy» 72 qissadan tarkib topgan. Asar hamd, na’t, muqaddima, lirik kechinmalar va xotima kabi tarkibiy qismlardan iboratdir. Qissalar nasrda, ulardan joy olgan ba’zi lirik kechinmalar, hikoyatlarning xulosalari va asar xotimasi nazmda ijod etilgan. Nosuriddin Rabg’uziy Qur’oni karimda payg’ambarlar haqida kelgan qissa va hikoyatlarni qayta ishlab, sayqal berib, takomillashtirgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, ijodkor Qur’oni karimda mavjud bo’lmagan qissalarni yozishda bir qator mumtoz sarchashmalardan, jumladan, Abu Is’hoq NiShopuriyning «Qisasul-anbiyo» asaridan va islom diniga oid boshqa manbalardan foydalangan (O’zbek adabiyoti tarixi, 1-tom, Toshkent, 1978, 180-bet).

Asarning ilk qissasi olam, turli mavjudotlar, ins-u jin, dev, parilarning yaratilishi haqidadir. Ushbu qissada Tangrining buyukligi ulug’lanadi. yozuvchi olamning yaratilishini quyidagicha muxtasar bayon kiladi: «Xabarda

andog’ kelur: yakshanba kuni ko’klarni yaratti, dushanba kuni oyni, kunni, yulduzlarni yaratti, falak ichinda to’rutti, seshanba kuni olam xalqidan qush-qurtlarni, farishtalarni yaratti, chorshanba kuni suvlarni yaratti, yerlarni, bulutlarni chiqardi, yig’ochlarni, o’t-yemlarni yaratti, undirdi. Ro’zilarni ulashturdi. Panjshanba kuni ujmoh (jannat – R.V., H.E.), tamug’ni (do’zax, jahannam – R.V., H.E.), rahmat va azob farishtalarini, hurlarni yaratti. Azina (juma) kun Odamni yaratti. Shanba kuni narsa yaratmadi. Bu qamug’ narsalarni taqi ming muncha narsalarni ko’z yumib ochg’uncha yaratg’u yarog’i bor erdi...» (I. 12) Mumtoz adabiyotda juda ko’p e’tirof etilgan mazkur fikrlarni Nosuriddin Rabg’uziy juda ixcham ifodalagan. Bunda Yaratuvchi zoti va sifatlarining cheksiz ekanligi va buyuk yaratuvchanlik xususiyati yaqqol ko’zga tashlanadi. Asardagi qolgan qissalar Odam, Nuh, Muso, Iso, Ya’qub, Yusuf, Dovud, Sulaymon, Muhammad alayhis-salom kabi payg’ambarlarga bag’ishlangan. «Qisasi Rabg’uziy»dagi Shiis, Muso, Solih ,Yusuf Muhammad alayhis-salom va boshqa payg’ambarlar haqidagi qissalar hajm jihatidan ancha katta bo’lib, ular bir necha fasl-bo’limlardan tarkib topgan. Shuningdek, asarda kichik hajmli qissa-hikoyatlar ham bor.

«Qisasi Rabg’uziy»da dastlab payg’ambarlarning fazilat, kashf-u karomatlari bayon qilinib, so’ngra aksariyat holatlarda o’sha Alloh elchilarini ulug’lovchi she’rlar keltiriladi. Keyin esa nasrda nabi-yu rasullarning sarguzashtlari hikoya qilinadi.

Bu holat deyarli barcha qissalar uchun mushtarakdir. Jumladan, «Qisasi Odam safiy alayhis-salom» asarida bu ilk payg’ambarning tuproqdan yaratilgani, yuksak ko’kka otilgani, ujmoh (jannat) ichiga kirgani, Havvodek juft berilgani, iblis vasvasasiga ilingani, Yorug’ jannatdan ayrilib,qorong’u dunyoga kelgani kabi sarguzashtlari bayon etiladi. Shundan so’ng zikri o’tgan voqealarning ixcham bayoni aks etgan she’riy parcha keltiriladi. Ana shunday tafsilotlardan keyin Odam alayhis-salom haqidagi qissaning mazmunini hikoya qilish boshlanadi.

Alloh odamni yaratishni istadi va Jabroilga borib yerdan bir hovuch tuproq olib kelishni buyuradi. Jabroil yerdan tuproq olmoqchi bo’lganida, yer unga mendan tuproq olmagil deb ont beradi. So’ngra shu maqsad bilan Isrofil, Mekoil yerga keladi, har ikkalasiga ham yer Jabroil bilan bo’lgani kabi ont beradi. So’ngra Azroil kelib: «Saning ontingdan manga mavlo taolo Yorlig’i azizrak turur», - deb , yer yuzidan bir hovuch tuproq oladi. Alloh taolodan nido keladi: «Ey Azroil, nihoyat qattiq ko’ngilluk ermishsan. Taqdir andoq qildim, qamug’ tanlig’larning jonin senga oldirg’ayman». Ko’rinadiki, Rabg’uziy o’z asarida nega islom diniga ko’ra barcha mavjudotlarning jonini olish Azroilga

topshirilgan, degan butun insoniyatni qiziqtiradigan savolga lo'nda va ishonarli javob aytadi. Umuman olganda, ushbu qissada shu tarzdagi juda ko'p savollarga asosli javoblar beriladi. Jumladan, Odamning tuproqdan yaratilishiga shu ma'danning kamtarinligi, tavoze' qilib turishi bois bo'lganligi e'tirof etiladi. Shuningdek, Odam alayhis-salom jannatda turli noz-ne'matlarni ko'radi. Ammo o'ziga o'xshash mavjudot yo'qligidan ko'ngli to'lmagani uchun Alloh Odamni uzoq uxlatib, uning so'l qovurg'asidan Havvoni yaratadi. Zikri o'tgan jarayon qissada ishonarli badiiy lavhalarda ifodasini topgan. Rabg'uziy agar Parvardigor Odamni uzoq vaqt uxlatmasa, qovurg'asi og'rirdi va Havvoni o'ziga dushman deb bilardi,- deya o'zi qalamga olgan tafsilotlarga ishonchli izoh beradi. Shunday qilib, qissada Odam alayhis-salomga borliqdagi barcha mavjudotlarning nomlarini bilish nasib etganligi, uning jufti bilan jannatdagi hayoti, Odam, Havvo, Iblis, tovus va ilonga jannatdan chiqish haqida Yorliq kelishi hamda boshqa voqealar tizimi o'quvchini ishontirarli darajada badiiylashtiriladi.

Qissalarning o'ziga xos xususiyatlari ularning hajman katta-kichikligi, tarkibida hikoyat, rivoyat, g'azal va boshqa She'riy Shakllar namunalarining turli miqdorda Uchrashi kabi tashqi belgilardayoq namoyon bo'ladi. Ba'zi qissalarda payg'ambarlarning ibratli hayotiy lavhalari bayon etilishi bilan bir qatorda zaminiy voqealar tasviriga urg'u berilsa, ba'zilarida ko'proq hozirjavoblik, donolik, ilm-ma'rifatni ulug'lash, ma'naviy-ma'rifiy fazilatlar ifodasi yetakchilik qiladi. Xususan, Sulaymon payg'ambar va Luqmoni hakim haqidagi qissalarda axloqiy-ta'limiy qarashlarga ifodasiga urg'u berilganligi kuzatiladi.

Sulaymon Dovud payg'ambarning o'g'li bo'lib, Dovud yalavoch (payg'ambar) o'z o'g'lini duo qiladi: «Iziyo (Egam) meni haqimda ko'p lutf-u karam qilding, o'g'lim Sulaymon ham andoq- o'q qilg'il». Qissada bayon qilinishicha, Sulaymon payg'ambar Mag'ribdan Mashriqqacha bo'lgan keng dunyoning yagona hukmdoriga aylanadi. U jamiki hayvonot-u parrandalarning tilini biladi. Dev-u parilar, ins-u jins barchasi Sulaymonning tasarrufida edi. Hattoki, qachon Sulaymon tog'dan kechar bo'lsa, o'sha tog'dagi oltin, kumush, xullas nimaiki bor bo'lsa, barchasi tilga kirib: «Men mundamen, kerak bo'lsa olgil», (II. 33)- derdi. Hatto dengiz ham xuddi shunday qilar edi.

Sulaymonning qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan ulkan naqshinkor taxti ham mavjud bo'lgan. Rabg'uziyning ta'kidlashicha: «Taxt bir yig'och yer ichinda erdi. Ul taxtini oltin, kumush birla qilmish erdi». Mana shu ulkan taxtni el ko'tarib yurardi. Mazkur qissa ichida Sulaymon payg'ambar bilan bog'liq ravishda uning shaxsi, fazilatlarini ochishga xizmat qiluvchi

qissachalar ham keltiriladi. Ular orasida «Sulaymonning qarinchqa bilan so'zlashgani» (II. 35-36), «Sulaymon va uchar otlar» (II. 36-38), «Sulaymon va Bilqis» (II. 47-54) hikoyalari alohida ahamiyatga ega. O'shalarga ko'ra Sulaymon bir kun taxtida o'tirganida, el uning taxtini ko'taradi. Askarlari esa taxt ostida yurar edilar. Shunda Mindir ismli qarinchqa (chumoli): «Ey qarinchqalar, qoching, evlaringizga kiring, Sulaymon cherigi sizlarni bosib halok qilmasun» ,- deydi. Shunda Sulaymon payg'ambar bu murojaatga qiziqib qolib, qarinchqa bilan savol-javob qiladi. Ular orasida bo'lib o'tgan gaplar g'oyatda ta'sirchanligi bilan kishi e'tiborini o'ziga jalb qiladi. «Qarinchqa aydi: «Mavlodin ne tilading?» Sulaymon aydi: «Andoq mulk tiladimki, mandin o'zga kim ersa bo'lmasun». «Bu so'zdin hasad isi kelur, manga bo'lsun, o'zgalarga bulmag'ay. Toqi ne tilading?» Ko'rinadiki, qarinchqa xudbinlikka qarshi va o'zaro tenglik tarafdoridir. Ikkinchidan, bunda Allohning barcha maxluqotni teng qilib yaratgani ta'kidlanadi. Keyingi savolga Sulaymon quyidagicha javob beradi: «Elni tiladimki, manga musaxxar qildi, minib yururman. Asthardin Shomga, Shomdin Astharga bir oylik yer turur. Kunda borurman ham kelurman». Qarinchqa aydi: «Manisi ul bo'lur: Sening ilkingdaki mulkning qamug'i el turur. Ani minguncha ma'rifat markabini minsang, senga yaxshiroq bo'lur. Ko'z yumub ochg'uncha bir soatda Arshga tekkay erding». Qarang, mitti maxluq qarinchqaning teran irfoniy javoblari har qanday kitobxonni ham mulohazaga chorlaydi. Ikkinchidan, asardagi qarinchqa obrazida orif kishi siymosi mujassamlashtirilgan. U hukmdor sifatida barchani ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi. Zero, ma'rifat kishini saodatga chorlaydi. Qissadagi «Sulaymon va Bilqiz» hikoyatida esa payg'ambarning dono, tadbirkor, ma'rifatli hamda islom dini targ'ibotchisi ekanligi badiiy ifodasini topgan.

Hajman ancha qisqa bo'lgan Luqmoni hakim qissasi ham Sulaymon hikoyati kabi xalq og'zaki ijodi ta'sirida yozilgan. Undagi hikoyatchalarda hozirjavoblik va donolik ulug'lanadi. Shunday hikoyatlardan birida tasvirlanishicha, bir kun xojasi Luqmonni bug'doy ekishga yuboradi. Luqmon borib arpa ekadi. Luqmon aydi: «Arpa eksa, bug'doy unmasmu?» Xojasi aydi: «Unmas». Luqmon aydi: «Andoq bo'lsa sen ham yomonlik ekib, yaxshilik umid etmagil». Hikoyat juda qisqa bo'lishiga qaramay, unda g'oyatda katta hayotiy mazmun mujassammlashtirilgan. Jamiyatdagi illatlar juda qisqa munozaralarda fosh etilgan hamda zolimlarni adolatli bo'lishga, aks holda xalqdan ham, Yaratuvchidan ham umid qilmaslikka chaqirilgan.

Asarda bulardan tashqari, juda ko'p axloqiy - ta'limiy hikoyatlar, latifalar mavjud. Rabg'uziy asarda o'z davrining iste'dodli ijodkori va katta hayotiy

tajribaga ega donishmandi sifatida namoyon bo'ladi. U «Qisas»dan joy olgan hikoyatlarni yozishda Qur'oni karim, boshqa diniy kitoblar, xalq orasidagi mashhur hikoyatlar, naql, rivoyatlarga tayanib ish ko'radi. Shuningdek, asarida xalq og'zaki ijodi hamda yozma badiiy adabiyot an'analarini qorishiq istifoda etishga harakat qiladi. «Qisas»dan o'rin olgan hikoyalarining qobig'i diniy ko'rinsa-da, ular zamirida hayotiy voqelik o'z ifodasini topadi. Nosuriddin Rabg'uziy o'zining katta yozuvchilik mahorati bilan mavzu jihatidan rang-barang yo'nalishdagi hikoyat, rivoyat va latifalarni yagona maqsadni yuzaga chiqarish uchun yo'naltiradi. O'zidagi donishmandlikni payg'ambarlarning o'ziga xos xususiyatlarini ma'lum bir ketma-ketlik asosida ochib berishga xizmat qildiradi. Ulardagi rang-barang obrazlar ham yozuvchi maqsad - muddaosini o'quvchiga yetkazishga qaratiladi...

Asardagi hazrati Yusuf alayhis-salom qissasi o'zining badiiy jihatdan barkamolligi, pishiq yaratilganligi, hajman kattaligi bilan yozuvchining yirik so'z san'atkori sifatida ko'rsatish huquqini beradi. Shuningdek, «Qisasi Rabg'uziy»ning hikoyat, latifa va qissalari tarkibiga o'zbek, arab, fors tilida yozilgan she'riy parchalarning kiritilganligi asar muallifining bilimdonligi hamda katta shoirlik iste'dodidan dalolat beradi. Rabg'uziyning she'rdagi mahorati, ayniqsa, tabiat manzaralarining badiiy tasvirini chizishda ravshan namoyon bo'ladi. Jumladan, hazrati Yusuf qissasi tarkibida kelgan g'azalda shoir bahor manzaralarining mukammal turkiy tasvirini bergan, deyish mumkin. Mazkur she'r turkiy g'azalning ilk namunasi ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Unda ijodkorning tashxis badiiy san'atidan mohirona istifoda etganligi aniq ko'zga tashlanadi:

Kun hamalga kirdi ersa , keldi olam navro'zi,
Kechti bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi.
Kun kela ming ko'rki ortib, tirilur o'lmish jahon,
Tong pazirlar naqshi birla bezanur bu yer yuzi
Tong otarda esnayur to'rt bulungdin shamol, ziyo
Kin tuzar kindik yipar, yizmanur yobon yozi
Yorligi epgun - bag'irdin obug'i Yoshil, qizil
Orasi butoq, yaburg'oq, tol chyechaklar to'y tuzi
O'rlasa bulutlari gulchirar bog'-u bo'ston,
Tol yig'ochlar eng solishur o'ynayurtek qo'y-qo'zi
Kirshani qor qani englik boqsa tog'lar surati,
To'nliqi tantsuq yipordin Rum, Xitoy atlas, chuzi
Lola sag'roqin icharda sayrar usruk sanduvoch,
Turna un tortib o'tarda saqashur baqlan qo'zi

Ko’kda o’ynar qo’l solishur qug’-u qoz qiz qarlig’och,
Yerda yugrub juft olishur os, tiying, kish qunduzi.
Tol yig’ochlar minbarinda to’ti qush majlis tutar,
Qumri, bulbul muqri bo’lib un tuzar tun kunduzi.
Yag’iz yer , ko’k megizlik yashnayur maydon bo’lub,
Og’rushim oytak chyechaklar tegrasinda yulduzi.
Huri in ujmoh ichinda yeng solib tahsin qilur,
Yoz uza mundog’ g’azallar aymishdi Nosir Rabg’uziy.

«Qisasi Rabg’uziy»da badiiyat namunalari g’oyat yuksak bo’lgan she’riy parchalarni yana ko’plab uchratish mumkin. Ulardan shoir ba’zan payg’ambarlarni tavsiflashda, asar o’qilishliligini oshirishda, gohida esa qissalardagi voqealarga o’zining shaxsiy hissiy munosabatini ifodalashda foydalangan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, «Qisasi Rabg’uziy» XIV asrda vujudga kelgan o’zbek nasrining ilk yirik namunasi sifatida mumtoz adabiyotimiz tarixida o’ziga xos mavqega ega adabiy Yodgorlik sanaladi. Unda qalamga olingan mavzular mumtoz ijodkorlar asarlaridagi ilohiy timsollarni ramziy-majoziy xususiyatlarini teran anglashga imkon yaratadi. Asardagi she’riy parchalar turli adabiy janrlar, ayniqsa, g’azalchilikning turkiy badiiy so’z san’ati tarixidagi tadrijiy taraqqiyotini ko’rsatishda qimmatli manbadir.

4.3. Pahlavon Mahmud ruboiylarining axloqiy-ma’naviy ahamiyati

Pahlavon Mahmud purhikmat ruboiylari bilan o’zbek adabiyotida tarixida alohida mavqega ega bo’lgan atoqli shoirdir. Ma’lumotlarga ko’ra, uning ota-onasi Ko’hna Urganjdan Xevaga ko’chib ketayotganganlarida, 645 (1248)-yilda Xeva yaqinida Mahmud tavallud topgan. Shamsuddin Somiyning «Qomusul-a’lam», Lutf Alibek Ozarning «Otashkadai Ozariy», Kamoliddin Husayn Fanoiyning «Majolisun-ushshoq» singari mo’tabar manbalarda Pahlavon Mahmud haqida nodir ma’lumotlar keltiriladi.

Shahar hukmdorlari orasidan yetishib chiqqan bu zukko shoir o’zining qator fazilatlari bilan xalqqa tanilgan va kishilar orasida ko’plab rivoyatlarning tug’ilishiga sababchi bo’lgan. Pahlovon Mahmud asosan po’stindo’zlik, telpakdo’zlik kasbi bilan shug’ullangan bo’lsa-da, jismonan baquvvat va kuragi yerga tegmagan pahlavonligi hamda badiiy jihatdan yuksak ahamiyat kasb etuvchi ruboiylari bilan shuhrat qozonadi. Shoirning asli ismi Mahmud bo’lib, Xorazmning qator shaharlari, hatto Hindistonga borib kurash tushganda doimo g’alaba qozongani bois u «Pahlavon Mahmud» unvoni bilan ulug’langan.

Mazkur ulug’ inson haqidagi rivoyatlardan birida hikoya qilinishicha, Pahlavon Mahmud bir jangda Hindiston shohi Roy Rapon Cho’nani o’limdan qutqarib qoladi va buning evaziga qachonlardir Hindistonga asir tushgan xorazmliklarni ozod qildiradi (Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976 yil, 171-bet). Shoirning «Puryoyvaliy» deb atalgan laqabi ham mavjud bo’lib, bu yuksak nom ham uning kurashda ko’rsatgan jasorati hamda marifiy-ma’naviy olamini ulug’lovchi sharafli unvon sanaladi. Shuningdek, manbalarda e’tirof qilinishicha, kurash tutuvchilardan biror kishi zo’rxonaga tavof uchun kirmoqchi bo’lsa, avval Puryoyvaliyning qadamiga bosh qo’yishi lozimligi ta’kidlandi. Bu jihatdan ba’zan «puryoyvaliy» so’zi ma’jozan «aziz-u mukarram» ma’nosida ham qo’llanilishi qayd etilgan (O’zbek adabiyoti tarixi. 1-tom, Toshkent, 1978 , 189-bet). Ko’rinadiki, shoirning yuksak insoniy xislatlari, mazlumlarni hurlik quyoshidan bahramand bo’lishdek yuksak baxtga sazovor etishi borasidagi say’-u harakatlari tufayli u xalqning beqiyos muhabbatiga munosib ko’rilgan. Shoir «Qitoliy» taxallusi bilan ham ijod qilgan. «Qitoliy» so’zi «bir-biri bilan jang qilmoq, kurashmoq» ma’nolarini anglatib, ayni taxallus ham shoirning jismonan baquvvatligiga ishoradir.

Pahlavon Mahmud 726 (1326)-yilda, ba’zi manbalarda qayd etilishicha , 722 (1322)-yilda Xevada vafot etgan. Uning shogirdlari shoirni po’stindo’zlik ishxonasi atrofida dafn etadilar. Keyinchalik Pahlavonning qabri ustida muhtasham bir maqbara barpo qilingan.

Pahlavon Mahmud qalamiga mansub bir necha ruboiylar uning adabiy merosidan bizgacha yetib kelgan noyob badiiyat durdonalaridir. Shoir ruboiylarining umumiy soni aniq emas. Shuningdek, o’sha ruboiylardan tashkil topgan qadimgi qo’lyozma kitoblar (devonlar) ham hali fanga ma’lum bo’lganicha yo’q. Mavjud qo’lyozmalar esa XIX asrda ko’chirilgan bo’lib, ularning tarkibiga boshqa shoirlarning ko’plab forsiy ruboiylari ham kirib qolgan. Bular orasidan Pahlavon Mahmudga tegishli ijod namunalarini aniqlash bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Pahlavon Mahmud ma’naviy merosini o’rganish borasida ba’zi ishlar ham amalga oshirildi. Jumladan, adabiyotshunos T.Jalolov 1962-yilda Pahlavon Mahmud ruboiylarini alohida kitob holida nashr ettirdi. Shuningdek, Y.Is’hoqovning «Pahlavon Mahmud haqida mulohazalar» («O’zbek tili va adabiyoti», 1971-yil, 2-son, 20-25-betlar) nomli maqolasi e’lon qilindi.

Pahlavon Mahmud fors-tojik tilida ijod qildi. Uning ruboiylarini Ulfat (Imomiddin Qosimov), Boqir (Omonnulla Valixonov), Muinzoda, Shoislom Shomuhammedov, To’xtasin Jalolov, Vasfiy, Matnazar Abdulhakim kabi olim va ijodkorlar o’zbek tiliga tarjima qilishdi.

Pahlavon Mahmudning ruboiylardan tashqari, «Kanzul-haqoyiq» («Haqiqatlar qaymog'i») nomli masnaviy yozganligi manbalarda qayd etiladi. Kamoliddin Fanoiyning «Majolisun-ushshoq» tazkirasida mazkur asardan olti bayt keltirilgan. «Kanzul-haqoyiq» tasavvuf masalalariga doir she'riy muhokama yuritishga bag'ishlangan falsafiy masnaviylar jumlasidan bo'lib, asarning ko'p o'rinlarida muallif o'zining ilohiy-irfoniy o'y-mulohazalarini kichik hikoya va rivoyatlar Yordamida ifodalashga harakat qiladi. Shu jihatdan mazkur masnaviy Jaloliddin Rumiy va Farudiddin Attorning ijodiy an'analari zaminida yaratilgan o'ziga xos falsafiy-axloqiy doston hisoblanadi («O'zbek adabiyoti tarixi». 1-kitob, 169-bet).

Pahlavon Mahmud ruboiylari uning xalq orasida shoir sifatida shuhrat qozonishini ta'min etdi. Shoir ijodida Xorazmda Najmiddin Kubro boshlab bergan javonmardlik tariqati hayotbaxsh g'oyalarinig badiiy ifodasi Yorqin ko'zga tashlanadi. Javonmardlik tariqati musulmon dunyosida o'ziga xos bir insonparvar ta'limot sifatida keng tarqalgan. Unda halimlik ulug'lanadi, saxovat, shafqat, ta'madan yiroq turish, muhtojlar g'amiga sherik bo'lish kabi yuksak insoniy fazilatlarga da'vat etiladi. Shoir ruboiylarida nafs insonning eng katta dushmani sifatida talqin qilinadi. Inson nafsdek qattol dushmanidan doimo g'olib kelishga harakat qilmog'i lozim, deydi shoir ruboiylaridan birida.

Oh tortgan chog'ingda yo'lga ko'z tikkil,
Yo'lda quduq bordir ehtiyoting qil.
Do'st uyida mahram bo'lgan chog'ingda,
Qo'lingni, ko'zingni, dilni tiya bil.

Pahlavon Mahmud mazkur ruboiyda nihoyatda muhim mavzudan bahs etadi. «Oh tortgan chog'» deganda shoir kishi boshiga tushgan kulfatlarni nazarda tutadi. Shunday chog'da inson, tabiiyki, yo'lga ko'z tikib, yaqin kishilaridan shu holatdan chiqib ketishi uchun qandaydir madad kutadi, najotga katta umid qilib yashaydi. Biroq buni hayot deydilar, unda turli quduqlar mavjud. «Quduqlar» shoir satrlarida, majoziy ma'no tashiydi. Unda inson murakkab ruhiy iztiroblar girdobida qolganda, musibatzada insonning ana o'shanday holatidan quvonadigan notavonbin, nokas shaxslar nazarda tutiladi. Shoir ta'kidicha, ulardan doimo ehtiyot bo'lmoq kerak. Ruboiyning keyingi misralarida esa shoirning tayanch g'oya, niyati o'z ifodasini topgan. Unda do'st uyida mehmon bo'lganda, qo'lni, ko'zni, dilni tiyib turish kerakligi ta'kidlanadi. Bu tasavvuf ta'limotidagi var'a maqomini boshidan kechirayotgan solikning oldida turgan burchlariga uyg'un keladi. Ayni maqomda qo'l var'asi, ko'z var'asi hamda qalb var'asiga qat'iy rioya qilmoq talab etiladi. «Var'a»-arabcha so'z bo'lib, «parhez qilmoq» ma'nosini anglatadi. Zikri o'tgan

maqomda bo’lgan solikning qo’li nopokliklardan xoli bo’lishi, ko’zi nomahramga qarashdan tiyilishi hamda solik qalban man’ etilgan ishlarni qilmasligi lozim. Ko’rinadiki, shoir ruboiyda o’zining olijanob axloqiy-ta’limiy mohiyat kasb etuvchi fikrlarini badiiylashtirgan. Bunday ruboiylarni Pahlavon Mahmud ijodida yana ko’plab uchratish mumkin. Quyida ulardan ayrim namunalar keltiriladi:

Otashki, alanga mezanad sinai most,
Daryoki, chu mavj mezanad didai most.
In ko’zagaronki, ko’zaho mesozand,
Az xoki barodaroni derinai most.

Mazmuni:

Gurkiragan olov - dilim yo’ldoshi,
To’lqin urgan daryo - ko’zlarim Yoshi.
Ko’zagarlar yasayotgan har ko’za -
Ko’hna do’stlar xoki - qo’li yo boshi.

Yana:

Se sad ko’hi Qofro ba havon sudan,
Ba toqi falak bo xuni dil andudan,
Sad sol asiri bandi zindon budan,
Beh z-on ki dame hamdami nodon budan.

Mazmuni:

Uch yuz ko’hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka buyoq.
Yoinki bir asr zindonda yotmoq, -
Nodon suhbatidan ko’ra yaxshiroq.

Pahlavon Mahmudning mazkur ruboiylari shoirning ilm-fan, Shariati islomiya, badiiy adabiyot va tasavvuf ta’limoti bilan jiddiy shug’ullanganligi hamda fors-tojik shoiri Umar Xayyomning izidan borib, ruboiy janri nafisligini oshirishda buyuk salafidan so’ng dong taratganligini dalillaydi. Shoirning abadiy uyquda yotgan manzili-maqbarasining ziYoratgohga aylanishi, xalqimizning yuksak badiiy salohiyat sohibi bo’lgan so’z san’atkori, ulug’ jamoat arbobi, avliyosifat orif shaxs hamda saxovatli insonparast Pahlavon Mahmudga hurmatining ramziy ifodasidir.

XIII asr va XIV asr boshlarida yaratilgan adabiy asarlar o’zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida bosqichni tashkil etadi. Chingiz istilosi va mo’g’ul

xonlari istibdodi O’rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotiga qanchalik zarar yetkazgan bo’lsa, ma’naviy-madaniy hayotiga ham shunchalik, hatto undan-da ancha ko’proq talofot yetkazdi. Ko’pchilik ijodkorlar yurt ozodligi uchun olib borilgan janglarda vafot etdi. Ba’zilari boshqa mamlakatlarga ko’chib ketishga majbur bo’ldi. Shunday bo’lsa-da, bu davrda o’zbek mumtoz adabiyoti ma’lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichini o’tadi. Turli janrlarda ijod etila boshlandi. Ayniqsa, turkiy adabiyotga g’azal, qasida janrining kirib kelishi, «Qisasi Rabg’uziy»day yirik hajmli nasr namunasining ijod etilishi xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy, adabiy-madaniy hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o’rinda yana bir achchiq haqiqatni ro’yi rost e’tirof qilish mavridi keldi. XIII asr va XIV yuz yillik o’rtalariga qadar bo’lgan davr badiiy so’z san’ati tarixi oldida adabiyotshunoslikning katta qarzi ham bor. Biz ko’proq zikri o’tgan bosqich adabiyoti manzaralari xiyraligini mo’g’ul istilosi aybi sifatida sharhlab kelamiz. Mazkur omilning haq ekanligi shubha uyg’otmaydi, albatta. Ammo vatanni tark etib, o’zga yurtlarda uqubatda yashab, ona-tuproq sog’inchini qalb-qalbida asragan, hijron ohanglarini misralari bag’rida muhrlab qoldirgan qalamkashlar ma’naviy merosi ustida deyarli bosh qotirayotganimiz, Afg’oniston, Eron, Hindiston kabi davlatlarning xazinalarida saqlanayotgan nodir durdonalarni tadqiq qilayotganimiz yo’q. Keyingi 15-20 yil ichida shu davrga doir yangi nom yoxud asar haqida toza gap aytilmadi. Badriddin Chochiyday ulug’ ajdodimizning ruhi poki, noyob ma’naviy merosi bizdan madad kutayotir. Afsuski, ayni jabhada bu ulug’ alloma yagona emas. Ular bizdan shafqat, fidoyilik, mehr umidvordir. Istiqlol bergan shart-sharoitdan oqilona istifoda etish, eslatilgan sohada kashfiyotlar qilish **«barchamizniki bo’lgan shu aziz Vatanning»** (I.Karimov) bizning zimmamizga yuklagan ulkan mas’uliyatidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar .

1.Mo’g’ullar istilosining O’rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-madaniy hayotiga ko’rsatgan salbiy ta’siri haqida so’zlang.

2.Xalq ozodlik harakatining faol ishtirokchilari va rahbarlaridan kimlarni bilasiz? Ularning ibratli faoliyati haqida gapirib bering.

3. Bu davrda yozilgan asarlar o’zbek tilining keyingi taraqqiyotiga qanday ta’sir ko’rsatdi?

4.XIII-XIV asr o’rtalarida boshqa mamlakatlarga borib ikki, uch va to’rt tilda ijod qilgan shoirlardan kimlarni bilasiz?

5.Nosuriddin Rabg’uziy va uning «Qisasi Rabg’uziy» asari haqida so’zlang.

6. «Qisasi Rabg’uziy»dagi qissalarning umumiy va o’ziga xos xususiyatlarini izohlang.

7. «Qisasi Rabg’uziy» tarkibidagi she’riyat parchalardan yod ayting.

8.Pahlavon Mahmud va uning ruboiylari haqida nimalarni bilasiz?

9. Pahlavon Mahmud ruboiylaridan yod ayting va tahlil qiling.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar.

Chingizxon. Muhammad Xorazmshoh. Jaloliddin Manguberdi. Temur Malik. Najmiddin Kubro ibrati. «Guldursun» rivoyati. Mahmud Tarobiy. Xisrav Dehlaviy. Badriddin Chochiy. Muhammad Avfiy. Jaloliddin Rumiy. Mulamma’- shir-u shakar. «Qisasi Rabg’uziy». Nosuriddin To’qbug’abek. «Qissasi Odam – safiy alayhissalom». Sulaymon qissasi. Sulaymon va qarinchqa. Luqmoni hakim. Sulaymon va Bilqis. Sulaymon uzugi. Sulaymon taxti. Pahlavon Mahmud. Puryoyvaliy. Qitoliy.«Kanzul- haqoyiq». Javonmardlik.

Adabiyotlar

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent: «O’qituvchi», 1994.

2. Vohidov R., Mahmudov M. Iymon—qalb gavhari. Toshkent: «Ma’naviyat», 1999.

3.Vohidov R.Qasoskorning nomi barhayot. (Mahmud Tarobiy qo’zg’alonining 750 yilligi) Buxoro, 1988.

4. Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent:»O’qituvchi», 1976.

5. Nosuriddin Burhoniddin Rabg’uziy. Qisasi Rabg’uziy. Birinchi kitob. Toshkent: «Yozuvchi», 1991 .

6. Nosuriddin Burhoniddin Rabg’uziy. Qisasi Rabg’uziy. Ikkinchi kitob. Toshkent: «Yozuvchi», 1992 .

7. Ochilov E. Pahlavon Mahmud ruboiylaridan futuvvat g’oyalari. «O’zbek tili va adabiyoti», 1999, 2-son, 21-28-betlar.

8. Safarova H. Hazrati Yusuf – go’zallik timsoli. Toshkent Islom universiteti nashriyoti-2003, 120 bet.

9. O’zbek adabiyoti tarixi.1-tom. Toshkent: «Fan», 1978, 168-186-betlar.

10. Haqqul I. Hadis haqiqati va talqin xilma-xilligi. «O’zbek tili va adabiyoti», 1996, 4-son, 23-25-betlar.

V BOB
XIV ASR O'RTALARIDAN XVII ASRGACHA BO'LGAN DAVR O'ZBEK ADABIYOTI

5.1. Temur va temuriylar davlatining asoslanishi. Davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayoti. Adabiy tur va janrlar taraqqiyoti.

XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan davr o'zbek xalqining madaniy hayoti, ayniqsa, turkiy til va shu lisondagi adabiyot ravnaqi tarixida tub burilishlar hosil qilgan, o'ta sermahsul va nihoyatda muhim adabiy hodisalarga serob bosqich bo'ldi. Bu davrda badiiy adabiyot, musiqa, naqqoshlik, me'morchilik, tasviriy san'at hamda ilm-fan sohasida beqiyos yutuqlarga erishildi. O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tubdan o'zgarishi, jamiyat taraqqiyoti uchun siyosiy jihatdan ancha barqaror holatning vujudga kelishi, o'zbek xalqining yagona millat bo'lib shakllanishini tezlashtirdi. Ilm-fan, madaniyat rivojini kafolatladi.

Mo'g'ullar istibdodiga qarshi ozodlik harakatlari Movarounnahr va Xurosonning turli hududlarida davom etdi. Mahmud Tarobiy rahnomoligidagi xalq qo'zg'olonidan tortib Oltin O'rda xonlari zulmiga qarshi murosasiz kurashlarda namoyon bo'lgan norozilik chiqishlari nihoyat tarixda «Sarbadorlar» deb nom olgan keng xalq harakatining vujudga kelishiga asos bo'ldi. «Sarbador» so'zining «boshimizni dorga tikdik» degan ma'noni anglatishi istilochilarga qarshi o'ta jiddiy, murosasiz kurashlar olib borishga kirishilganligidan dalolat berardi. Shunday janglar natijasida sarbadorlar harakatining rahbari Xo'ja Yahyodan taslim bo'lishni talab qilgan Xulogular xonadoniga mansub Tog'ay Temirxon o'ldiriladi. Sarbadorlar (poytaxti Sabzavor viloyati bo'lgan) o'z davlatlarini g'arbiy Xurosonda barpo etadilar. 1365-yilda Samarqand ham ular tomonidan bir muddat idora etiladi. 1381-yilda esa 43 yil umr ko'rgan sarbadorlar davlati Sohibqiron Amir Temur davlatiga qo'shilib ketadi. Shunday qilib, poytaxti Samarqand bo'lgan markazlashgan Amir Temur davlatining vujudga kelishi mo'g'ullar istilosiga barham beradi.

Temuriylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy hayotning ancha barqarorlashuvi madaniy hayotning qayta tiklanishi va ravnaq topishiga keng imkoniyatlar yaratdi. Taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetov buni quyidagicha izohlaydi: «Ulug' davlat arbobi va lashkarboshi Amir Temur hamda uning xalaflari hukmronligi

davrida O’rta Osiyoda kuchli va yagona davlat yuzaga keldi. Bu davrda tarixda birinchi marta Movaraunnahr va Xurosondagi o’zbek qabilalari bir xalq, bir millat sifatida o’zaro birlasha boshladilar. O’rta Osiyoda katta etnik guruhni tashkil etgan bu xalq Temur va temuriylarni har tomonlama suyab turgan asosiy kuch edi. Temur va uning avlodlari, avvalo, ana shu xalq nomidan ish ko’rar, o’zlarini shu xalqqa mansub deb bilar edilar. Temur va temuriylar davrida turkiy xalqlar orasida katta siyosiy va madaniy jonlanishning yuz berishi sababi ham, avvalo, shunda edi. Menimcha, tarixda hech qachon, hatto XVIII - XIX asrlarda ham o’zbeklar XV asrdagidek katta xalq bo’lib, shunday katta hududdagi buyuk bir davlatga birlashmagan edi. Xususan, Balx, Hirot yaqinidagi o’zbeklarning Movarounnahr o’zbeklari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy yaqinlashuvi o’zbek xalqi tarixida katta voqea bo’lib, o’zbek adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirdi. Alisher Navoiydek buyuk shoir va mutafakkirning o’zbek adabiyoti va adabiy tili taraqqiyotida ulkan hissa qo’shgan noyob ijodkorning O’zbekiston hududida emas, Hirotda nash’-u namo topgani va faoliyat ko’rsatganini ayrimlari qayd qilingan omillar bilan izohlash mumkin. Xurosonda bu davrda faqat Alisher Navoiy emas, Mavlono Lutfiy (Lutfiyning toshkentlik ekani keyinroq aniqlandi - R.V, H.E), Gadoiy, Atoiy kabi o’zbek shoirlari ham etishganligini unutmaslik kerak» (Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent. 1993, 97-bet).

Sohibqiron Amir Temur Qora, Egey, O’rta Yer dengizidan to Hindistonning sharqigacha, Mo’g’uliston va Xitoygacha, Hind okeanidan to Ural tog’larigacha, Moskva ostonasidan Dnepr bo’ylarigacha bo’lgan juda katta hududni qamrab olgan buyuk saltanatga asos soldi. Temur davlatining poytaxti Samarqand - sharqning eng go’zal shaharlaridan biriga aylandi. Buyuk jahongir Amir Temur kosib va hunarmandlarni, ilm arboblari, shoir va san’atkorlarni qo’llab-quvvatladi. Movaraunnahrning Samarqand, Shahrisabz, Turkiston kabi shaharlarida juda katta inshootlar barpo qilindi. Bu ishlarga istilo qilingan mamlakatlardan keltirilgan hunarmandlar va olimlar ham jalb etildi. Ma’lumki, Amir Temur Xitoyga qarshi lashkar tortib O’trorga borganida, 1405-yilning 18-fevralida olamdan o’tadi. Sohibqiron amirzoda Pirmuhummadni valiahd qilib tayinlagan edi. Temuriyzodalar uning vasiyatiga amal qilishmadi. Natijada Temur davlati parchalanib ketdi. Uning tarkibidagi ko’p o’lkalar alohida davlat maqomini qo’lga kirita boshladi. Temurning avlodlari ixtiyoriga Xuroson va Movarounnahr mamlakatlarigina qoldi, xolos.

Amir Temurning vafotidan so’ng ikkiga ajralgan Hirot poytaxt Xurosonni 1409-1447 yillarda Shohruh Mirzo, Samarqand poytaxt Movaraunnahrni esa uning o’g’li Ulug’bek Mirzo 1409-1449 yillarda idora qilishdi. Temuriylar

davlati ikki yirik hokimiyatga ajralgan bo'lsa-da, har ikkala mamlakat o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy aloqalar tobora yuksala bordi. Hirot va Samarqand yirik madaniy markazga aylandi. Ayniqsa, Ulug'bek Mirzo ma'rifatparvar hukmdor sifatida juda muhim ilmiy-madaniy ishlarni amalga oshirdi. Amir Temur zamonida qurilishi boshlangan «Bibixonim» masjidi, «Go'ri Amir» maqbarasi va Shohizinda binolari majmuyi Ulug'bek Mirzoning say'-harakatlari bilan nihoyasiga yetkazildi. Bulardan tashqari, bu ulug' hukmdor «Ccihl ustun» («Qirq ustun»), «Bog'i maydon» kabi bir necha bog'lar barpo qilib, obodonchilik ishlariga diqqatini qaratdi. Ulug'bek Mirzoinng Buxoro, Samarqand, G'ijduvon va boshqa joylarda qurdirgan madrasalari ilm-ma'rifat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

1424-yilda Muhammad Tarag'ay (Ulug'bek) nujum ilmini teran o'rganish maqsadida Samarqanddagi Obi rahmat suvi yonidagi tepalikda uch qavatli muhtasham rasadxona barpo etdi. U yerda Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi kabi olimlar ishtirokida sayyoralar olamining sirlarini aniqlab, 1018 ta yulduzning holat-harakatini o'rganib chiqishadi. Buyuk olimning «Ziji jadidi Ko'rag'oniy» («Ko'rag'oniyning yangi yulduzlar jadvali») ana shu kuzatishlari asosida vujudga keladi. Shoh va olim Ulug'bek Mirzo san'at va adabiyot bilan shug'ullanar, san'atkorlar va shoirlarga homiylik qilar, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, «Gohi nazmga mayl qilur erdi». 1447-yilda Shohruh mirzo vafot etadi. Oradan ikki yil o'tgach, 1449-yilda ulug' olim va hukmdor Ulug'bek Mirzo o'z o'g'li Abdulatif Mirzo tomonidan fojiali qatl etiladi. Bu voqealar temuriy shahzodalar o'rtasida toj-u taxt kurashini yanada keskin qilib qo'yadi va avj oldiradi. 1450-yilda ota taxtini egallagan padarkush Abdulatif ham o'ldiriladi. Uning saltanat taxtidagi hukmronligi bor-yo'g'i olti oygina davom qiladi, xolos. Temuriy shahzodalar o'rtasidagi toj-u taxt uchun olib borilayotgan kurashlar 1450-yilning boshlarida ancha kamayib qoladi. Xuroson 1451-1457 yillarda Shohruhning nabirasi Abulqosim Bobur Mirzo, Movarounnahr esa 1452-yildan e'tiboran Mironshohning nabirasi Abusaid Mirzo ixtiyoriga o'tadi. Abulqosim Bobur Mirzo Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroga homiylik qilgan temuriy hukmdorlaridan biridir. U vafot etgach, 1457-yilda Abusaid Mirzo Xuroson va Movarounnahrni birlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Temuriy hukmdorlaridan faqat Abusaid Mirzogina Alisher Navoiyga yaxshi munosabatda bo'lmagan. U Hirot hukmdori sifatida Husayn Boyqaro avlodlari, jumladan, uning maktabdosh do'sti Alisher Navoiyni o'ziga ashshadiy dushman deb bilgani uchun ham Ulug' shoirni Xurosondan uzoqlashtiradi. Bu haqda Zahiriddin

Muhammad Bobur: «Bilmon, ne jarima bila sulton Abusaid Mirzo Hiridin ixroj qildi» (Boburnoma. Toshkent, 1960, 233-bet), - deya munosabat bildiradi.

1469-yilning boshlarida G'arbiy Eronni ishg'ol etish uchun olib borilgan kurashlarda Abusaid Mirzo mag'lubiyatga uchraydi va vafot etadi. Shu yili Hirot taxtini egallagan Umarshayxning nabirasi Sulton Husayn Boyqaro Xurosonda hukmronlik qila boshlaydi. Movarounnahr esa Abusaid Mirzoning o'g'illari Sulton Ahmad, Sulton Mahmud va Umarshayxlar tomonidan bo'lib olinadi.

Sulton Husayn Boyqaro davrida Xuroson poytaxti Hirot yirik madaniy markazga aylanadi. Bu davrda ilm-fan, san'at, badiiy adabiyot rivojlandi. Albatta, bunday jiddiy ijobiy o'zgarishlarda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning ham xizmatlari nihoyatda ulug'dir. Temuriy hukmdor hamda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning sa'y-harakatlari bilan poytaxtda iqtidorli shoir-u olimlar, hunarmandlar to'planadi. Bir qancha madrasalar, madaniy va sog'lomlashtirishga qaratilgan inshootlar barpo etiladi. Husayn Boyqaroning o'zi ham «Husayniy» taxallusi bilan ijod qilib, dilbar she'rlar yaratadi. Uning «Devon» va «Risola» asari bizgacha yetib kelgan. Bu hukmdor san'at va adabiyot ahliga homiylik qilish bilan bir qatorda, manbalarda qayd etilishicha, ijod ahliga qarata turkiy tilda asarlar yozish haqida farmon ham chiqargan.

XV asrning oxirlariga kelib, temuriy davlatlari tobora inqirozga yuz tuta boshladi. Ayniqsa, Movarounnahrning parchalanishi bu inqirozni ancha tezlashtirdi. Sirdaryoning quyi oqimida yashovchi o'zbeklar Abulxayrning o'g'li Muhammad Shayboniyxon tarafiga o'ta boshladilar. Movarounnahrda temuriy hukmdorlarini birlashtira oladigan Shahzoda yoki podshoh bo'lmaganligidan foydalangan Shayboniyxon 1499 yilda Buxoroni, 1500 yilda Samarqandni, 1505 yilda Xorazmni o'ziga bo'ysundiradi. 1506 yilda Husayn Boyqaro vafot etgach, Xuroson ham parchalana boshladi. 1507 yilda Muhammad Shayboniyxon Xuroson poytaxti Hirotni ham o'z ixtiyoriga o'tkazadi. Temuriy shahzodalardan Zahiriddin Muhammad Bobur bobomeros saltanatini qayta tiklash orzusida uzoq yillar kurashdi, ammo Shayboniyxon qo'shinlarining qo'li baland kelib, uning bu shirin orzusi qiyomat qarziga aylanadi.

Shayboniyxon ham Amir Temur idora usuliga qat'iy amal qildi. Saroyga olim va shoirlar, san'at ahlini to'pladi. O'zi ham she'rlar yozib, devon tuzdi. Shuningdek, u «Bahr ul-hido» («Hidoyat dengizi») nomli dostonining ham muallifidir. Shunday qilib, XVI asrning boshlaridan Xuroson va Movarounnahrda temuriylar saltanati o'rnida Shayboniylar hokimiyati

o’rnatildi. Bu hokimiyat yuz yil davomida hukm surdi. Muhammad Shayboniyxon esa 1510-yilda Eron shohi Ismoil Safaviy bilan jangda halok bo’ladi. Shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida ham toj-taxt uchun kurashlar temuriylardan meros bo’lib o’tdi va yanada kuchaydi.

XIV asrning oxirida «Muhabbatnoma» muallifi Xorazmiy, Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi kabi shoirlar barakali ijod qilishgan bo’lishsa, XV asrning birinchi yarmida Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi so’z san’atkorlari badiiy ijod bilan shug’ullanadi. XV asrning ikkinchi yarmi o’zbek mumtoz adabiyoti tarixida, haqiqiy ma’noda, Alisher Navoiy davri bo’ldi. XVI asrda esa Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Solih, Majlisiy, Xoja kabi mumtoz ijodkorlar adabiyot ravnaqiga o’zlarining munosib ulushlarini qo’shishga muyassar bo’lishdi.

XIV-XV asrning birinchi yarmida turkiy adabiyot olamida adabiy tur va janrlar ancha takomillashdi. Shoirlar yangi janrlarda ijod eta boshlashdi. Nazm badiiy adabiyotda yetakchi tur vazifasini o’tashda davom etdi. Shoirlarimiz (aniqrog’i, Alisher Navoiy) lirikaning 16 janrida qalam tebratishdi. Turkiy adabiyotda Nosiruddin Rabg’uziy asarida ilk bor uchragan g’azal namunasi bu davrga kelib, badiiy adabiyotdagi eng yetakchi she’riy shaklga aylandi. G’azalning mavzu doirasi ancha kengaydi. Unda ramziy-majoziy ma’no anglatuvchi badiiy timsollardan keng foydalanildi. Mana shu timsollar vositasida ilohiy va majoziy ishq, orifona g’oyalar, axloqiy-ma’naviy qarashlar badiiylashtirildi. Hajviy g’azallar ijod etildi. Birgina Alisher Navoiyning o’zi 3000 dan ortiq turkiy va forsiyda mana shu janrda asarlar yozdi. «Xazoyinul maoniy» devonidan ulug’ shoirning 2600 dan ortiq g’azali o’rin oldi.

XIV asrning II yarmidan XVII asrgacha bo’lgan davrda muxammas, ruboiy, qit’a kabi janrlar nazmning asosiy she’riy shakllari bo’lib qoldi. Muxammasning ikki ko’rinishi: biror shoirning faqat o’ziga tegishli misralardan tarkib topgan (muxammasi tab’i xud) muxammaslar hamda o’zga shoir g’azaliga muxammas bog’lash, ya’ni g’azal baytlariga uchtadan misralar qo’shib, uning bandlarini besh satrdan tarkib berish (muxammasi taxmis) kabi muxammaslar vujudga keldi. Taxmis muxammaslar alohida ahamiyatga molik bo’lib, ular o’zaro ta’sirlanish, bellashish, javob aytish tarzida paydo bo’la boshladi. Shubhasiz, shoirlar o’tmishda yashagan yoki zamondosh ijodkorlarning eng yaxshi deb topilgan g’azaliga muxammas bog’ladilarki, bu ma’lum ma’noda g’azal va unga muxammas bog’lash shoirning ijodiy salohiyatini belgilashda bir mezon-me’yor vazifasini o’tadi, deyish mumkin. Shoirlar axloqiy-ta’limiy va falsafiy qarashlarini qit’a va ruboiy kabi janrlarda badiiy ifoda etishdi.

Bu davrda faqatgina turkiy adabiyotga taalluqli bo'lgan va she'rxonga ko'proq badiiy zavq bag'ishlaydigan tuyuq janrining vujudga kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tuyuq jinos san'ati vositasida vujudga kelgan she'riy shakl bo'lib, to'rt misradan tarkib topadi. Tuyuqda misralar a-a-b-a tarzida omonim so'zlar asosida qofiyalanadi. Bu she'riy shakl qat'iy ramali musaddasi maqsur vaznida (foilotun foilotun foilon) yoziladi. Adabiyotshunos N.Mallayevning ma'lumotiga ko'ra, dastlabki tuyuq namunasi turkiy adabiyotda XIV asr shoiri Burhoniddin Sivosiy devonida uchraydi (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi, Toshkent , 1976, 216-bet). Bulardan tashqari, lirik turning musaddas, musamman, mustazod, tarji'band, tarkibband, qasida, marsiya, soqiynoma, lug'z, muammo kabi janrlarida ham ijod etildi.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida muhim bosqich bo'lgan bu davrda noma, munozara, doston, hikoya, masal va memuar kabi janrlar ham vujudga kelgan. Xorazmiy «Muhabbatnoma» asari bilan noma janriga (turkiy adabiyotda, albatta) asos soldi. Bu shaklda yaratilgan asarlarda epik bayon his-tuyg'ularning nozik ifodasi bilan badiiylashtirilishiga ko'ra, noma - liro-epik turga yaqinlashdi. Liro-epik tur ham ancha ravnaq topdi. Ishqiy-romantik («Yusuf va Zulayho», «Gul va Navruz», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor»), falsafiy-ta'limiy («Gulshanul-asror», «Hayratul-abror»), falsafiy («Lisonut-tayr»), tarixiy («Shayboniynoma») va qahramonlik («Saddi Iskandariy») kabi dostonlar masnaviy shaklida ijod etildi. Munozara janri esa ham nasriy, ham nazmiy ko'rinish kasb etdi. Hikoya, masal, memuar janrlarda ham barakali ijod etildi. O'zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiyning «Xamsatul-muttahayyirin», «Holoti Sayid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari, Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»sining vujudga kelishi o'zbek nasrining ancha taraqqiy etganligini dalillaydi. Shunday qilib, bu davrda juda ko'p she'riy shakllar bilan birga badiiy nasrning nodir namunalari ham vujudga keldi va takomillashdi.

5.2. Adabiy aloqalar. Tarjima adabiyoti va adabiyotshunoslik asarlari

G'oyaviy-ma'naviy sarchashmalari Qur'oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta'limoti hisoblangan Sharq adabiyoti namoyandalari badiiy ijodida adabiy ta'sir, adabiy aloqalar masalalari g'oyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Mumtoz she'riyatda g'oyani qay holda rangin ifodalanishi she'rning badiiyatini belgilovchi omil ekan, Shubhasiz, Sharq xalqlarining mumtoz ijodkorlari bir-

birlarining adabiy tajribalaridan ilhomlandilar, ilg’or adabiy an’analarni davom ettirib, uning yuksalishiga o’zlarining hissalarini qo’shdilar.

XIV asr o’rtalaridan XVII asrgacha bo’lgan davr o’zbek mumtoz adabiyoti o’ziga qadar shakllangan Sharq xalqlari adabiyoti an’analarini teran o’rganib, kamol toptirgan, ayni choqda, keyingi bosqich shoirlari uchun maktab bo’larli adabiy meros qoldirgan muhim jarayondir. Bu davrda Rudakiy, Firdavsiy, Fariduddin Attor, Jaloluddin Rumiy, Xoqoniy, Nizomiy, Salmon Sovajiy, Xisrav Dehlaviy, Sa’diy, Hofiz va Kamol Xo’jandiy singari buyuk Sharq so’z ustalarining asarlari turli xalq vakillari tomonidan sevib o’qilar, Movarounnahr, Xorazm, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Hindiston va boshqa yurtlarning kotiblari tomonidan kitobat qilinar, musavvirlari tomonidan asarlari miniatyuralar bilan ziynatlanar, tazkiralarda bu ulkan iste’dod sohiblari haqida ma’lumotlar berilardi. Bu davrda ijod etgan Lutfiy Shoshiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi shoirlar Sharq adabiyotining ulug’ namoyandalari Hofiz va Sa’diy singarilar qatoridan o’rin oladi. Mashhur Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy asos solgan xamsachilik an’anasi bu davrda o’zining eng yuksak cho’qqisini zabt etdi. Haydar Xorazmiyning «Gulshanul-asror» dostoni Nizomiy Ganjaviy «Panj ganj»ining ilk dostoni «Maxzanul-asror»ga javobiya tarzida turkiy tilda bitildi. Ulug’ fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy o’zining «Haft avrang» asari bilan xamsachilik taraqqiyotini yangi bosqichga ko’tardi. Turkiy tilda Alisher Navoiyning «Xamsa» asari vujudga keldi. Shuningdek, bu an’anani davom ettirgan marog’alik shoir Mavlono Ashraf Alisher Navoiyning tahsiniga sazovor bo’lgan «Xamsa»sini yaratdi.

Ulug’ o’zbek shoiri Alisher Navoiyning qalb daftari varaqlanar ekan, unda buyuk mutafakkirning o’z ustozlari sha’niga aytilgan ko’plab dil so’zlari, haroratli satrlari ko’zga tashlanadi. Ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiy, Shayx Muslihiddin Sa’diy, Shamsuddin Xoja Hofiz Sheroziy singari Sharq she’riyati allomalariga bo’lgan yolqinli muhabbati Yorqin sezilib turadi. Mubolag’asiz aytish mumkin, Alisher Navoiyning biron bir asari yo’qki, unda o’sha buyuklar sharafi ulug’lanmagan bo’lsin! Shu nuqtayi nazardan, uning «Xamsa»si katta ahamiyat kasb etadi. «Hayratul-abror» dan ko’chirilgan mana bu satrlarni his-hayajonsiz mutoala qilish imkondan tashqaridir.

Menki talab yo’lida qo’ydim qadam,
Bordur umidimki, chu tutsam qalam.
Yo’ldasa, bu yo’lda Nizomiy yo’lum,
Qo’ldasa, Xisrav bila Jomiy qo’lum,

Nukta sururida ravo bo’lmag’ay,
Buki Navoiyga navo bo’lmag’ay.
(Alisher Navoiy. Xamsa. Toshkent, 1960, 32-bet)

Ko’rinadiki, Alisher Navoiy so’z mulkining ma’ruf dostonsarolaridan ma’naviy madad so’raydi, ular ruhi va asarlarining ma’naviy-ma’rifiy xayrixohligiga katta umid bog’laydi. O’zbek, tojik, ozarbayjon, hind shoirlari ijodida qur’oniy-irfoniy g’oyalar hamda xalq og’zaki ijodi ta’siri tobora teranlashib boradi. Markaziy Osiyo xalqlari yozma adabiyotida sayyor mavzularga murojaat etish ham o’zaro adabiy aloqalarning bir ko’rinishi sifatida namoyon bo’ladi. Bu hodisa davr ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlarda o’z ifodasini topishi bilan bir qatorda, keyingi davr shoirlari ijodida yanada takomillashtiriladi. Jumladan, o’zbek shoiri Durbekka nisbat beriladigan «Yusuf va Zulayho» asari mavzusiga Ozarbayjon shoiri Xatoiy, tojik shoiri Abdurahmon Jomiylar murojaat qilib, an’ana zaminida yangi ijodiy asar bunyod qildilar. Shuningdek, Xo’ja Imomiddin Lohuriy, tojik shoirlari Xotifiy va Hiloliy, Ozarbayjon shoirlari Fuzuliy va Haqiriy hamda yana bir qator qalamkashlar «Layli va Majnun» mavzusini qalamga olishdi. Bu sayyor mavzular xalqlar orasidagi do’stlik, adabiyotlar o’rtasidagi adabiy aloqalar rishtalarini yanada mustahkamladi.

XV asrning zarbardast shoirlari Nuriddin Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning do’stlik hamda ijodiy hamkorlik munosabatlari o’zbek, tojik adabiy aloqalarini yuksak yanada pog’onaga ko’tardi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning ikki tilda ijod qilishi bu borada muhim ahamiyat kasb etdi. Alisher Navoiy ijod maktabining tojik, turkman, ozarbayjon va yana qator turkiy xalqlar adabiyoti rivojiga ko’rsatgan ijobiy ta’sirini akademiklar A.M.Mirzoyev, H.Orasli, B.A.Qoriyev singari yirik adabiyotshunoslar ilmiy o’rganib, adabiyotshunoslik fani uchun nihoyatda zarur bo’lgan qimmatli mulohazalarni bayon etdilar. A.M.Mirzoyev Alisher Navoiyning fors-tojik adabiyoti oldidagi xizmatlari haqidagi qarashlarini xulosalar ekan, yozadi: «Shu tariqa Alisher Navoiy nafaqat turkiy adabiyotning buyuk bir namoyandasi - adabiyot va san’at ahlining homiysi hamda XV asrning ikkinchi yarmidagi Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining ilmiy- adabiy va san’ati taraqqiyotiga qudratli asoschi bo’libgina qolmay, balki Abdurahmon Jomiydan keyin, XV asr fors-tojik g’azalchiligining eng buyuk vakillaridan biri sifatida, bizning adabiyotimiz tarixidan ham munosib o’rin oladi» (Mirzoyev A. Foniy va Hofiz. - «Navoiy va adabiy ta’sir masalalari». Toshkent, 1968, 62-bet). Xuddi shunday, Ozaraycon adabiyoti ravnaqida ham Alisher Navoiy ijodidan bahramand bo’lish alohida ahamiyat kasb etadi, deyish mumkin. Jumladan,

shoir Muhammad Fuzuliy o’zining «Layli va Majnun» dostonida Alisher Navoiy an’analarini davom ettiribgina qolmay, uni takomillashtirdi.

O’zbek shoirlarining nomachilik bobidagi yutuqlari ozarbayjon shoiri Xatoiyning «Dahnoma» asarini yozishga, Amiriy, Yaqiniy, Ahmadiy va boshqalarning munozaralari Fuzuliyni shu janrda bir necha asar yozishga ilhomlantirdi. Turli xalqlarning shoirlari bir-birlarining asarlariga nazira yozdilar, g’azallariga taxmis bitdilar, tazmin qildilar. Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiy kabi shoirlar fors-tojik tilida ham ijod qilgan bo’lsalar, tojik shoiri Binoiy o’zbek tilida asarlar yozdi (Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi, Toshkent, 1976, 221-bet).

Bu davrda tarjima adabiyoti ham bir qator muvaffaqiyatlarni qo’lga kiritdi. Ayniqsa, erkin tarjima borasida Qutb Xorazmiy tomonidan o’zbek tiliga o’girilgan Nizomiy Ganjaviyning «Xisrav va Shirin» dostoni hamda Sayfi Saroyi tomonidan Shayx Sa’diy «Guliston»ini «Guliston bit-turkiy» nomi bilan tarjima qilishi quksak ma’naviy ahamiyatga molik. Shuningdek, Ma’sud ibn Ahmad Sa’diy Sheroziyning «Bo’ston» asarini turkiy tilga o’girdi. «Malikul kalom» Mavlono Lutfiy esa Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»si asosida turkiyda o’n ming misra hajmidagi qahramonlik dostonini yozadi.

XV asr o’rtalaridan XVII asrgacha bo’lgan davrda Sharq adabiyoti, jumladan, o’zbek mumtoz adabiyotida turli janrlarda badiiy jihatdan mukammal asarlar vujudga keldi. Bu hodisa o’z navbatida adabiyotshunoslik fanining taraqqiy etishida keng imkoniyatlar yaratdi. Ayni davrda ham adabiyotshunoslik hamda adabiy tanqid o’ziga xos yo’nalishda, turli-tuman shakllarda namoyon bo’ladi. Taniqli shoirlarning asarlarini to’plash, kitobat qilish ana’anasi davom etadi. Jumladan, temuriy hukmdorlaridan Shohrux Mirzoning uchinchi ugli Boysunqur Mirzo rahbarligida fors-tojik shoiri Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sining bir necha qo’lyozmalarini chog’ishtirish asosida ishonchli mukammal matn vujudga keltiriladi. XV asrning ikkinchi yarmida Xisrav Dehlaviyning kichik she’riy asarlarini to’plab, alohida devonlar holida tartib berilishi, ko’paytirilishi ham muhim adabiy hodisadir. Shuningdek, XIV-XV asrlar adabiyoti bo’yicha yangi tazkiralar tuzildi. Zamonasining iqtidorli olimi va shoiri Faxriy Hirotiy «Radoiful-ash’or» («Radifdosh she’rlar») bayozini yaratdi. Navoiy asarlari asosida «Badoyiul lug’at» kitobi vujudga keldi.

Mazkur davrda adabiy-tanqidiy qarashlar faxriya, debocha, manoqib, turli she’riy parchalar, she’r va shoirlik haqidagi maxsus asarlar, tazkira va tarixiy kitoblar tarkibida rivoj topdi. Bu hodisa oldingi davrlarga qaraganda,

adabiyotshunoslikning ancha ravnaq topganligi hamda adabiy tanqidiy qarashlarni ifodalashda aniqlikka e'tiborning bir muncha kuchayganligini ko'rsatadi. Chunonchi, aruz vazni, qofiya, muammo janri va adabiyotning boshqa dolzarb masalalari haqida bir necha asarlar vujudga keldi. Shayx Ahmad Taroziyning she'riy janrlar, san'atlar, qofiya, muammo hamda turkiy aruzga doir risolalarini o'zida mujassam etgan «Funun ul-balog'a» kitobi, Yahyo Shaybakning aruzga doir ikki risolasi, Sayfi Buxoriyning «Aruz» risolasi, Kamoliddin Husaynning muammo haqidagi risolasi, Jomiyning muammo (muammoga doir uch risola) va qofiya hamda aruzga doir risolalari, Alisher Navoiyning «Mezonul avzon», «Majolis un-nafois» va «Risolai muammo» asarlari, Bobur Mirzoning aruz risolasi, Hiloliyning «Risolai qofiya»si, Atoulloh Husayniyning «Badoyi' us- sanoyi'» asari kabilar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning rang-barang janrdagi asarlarida, Zaynuddin Mahmud Vosifiyning «Badoyi' ul-vaqoe'», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»sida adabiyot tarixi va nazariyasiga oid nodir ma'lumotlar, fikr-mulohazalar bildiriladi.

Abu Mansur as-Saolibiyning «Yatimat ad-dahr» asari tazkira janrining ilk namunasi bo'lsa, asli buxorolik bo'lib, keyinchalik Hindistonda muqim yashagan Muhammad Avfiy XIII asrning birinchi choragida «Lubob ul-albob» (O'zaklarning o'zagi) tazkirasini yozgan edi. XV asr esa tazkirachilik taraqqiyotida alohida bosqich bo'ldi. Bu davrda ilk turkiy tazkira Shayx Ahmad bin Xudoydot Taroziyning «Fununul-balog'a» («Yetuklik ilmlari») nomli asari (hijriy 840, milodiy 1436-1437 yillarda) dunyo yuzini ko'rdi (Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent, 1996, 19-26-betlar). Aslida Shayx Ahmad Taroziyning «Fununul-balog'a» asasriga nisbatan qo'llangan tazkira atamasi nisbiy mohiyat kasb etadi. Chunki muallif o'z davri ijodkorlari haqida maxsus ma'lumot berishni o'z oldida vazifa qilib qo'ygan emas. U she'riy janr, san'atlar va aruz haqida nazariy mulohazalarni bayon qilarkan turli zamonlarda yashagan turkiygo'y hamda forsiyzabon shoirlar she'rlaridan misollar tanlaydi. Ana shu tariqa «Funun ul-balog'a» she'riy guldasta tazkirani eslatadi. Shuningdek, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-Shuaro» va Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» hamda «Nasoyim ul-muhabbat» asarlari bu davrda yaratilgan tazkiralarning eng mumtozlari sanaladi. Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» asari ham tazkirachilik taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Mazkur asarning yettinchi ravzasi (bobi) tazkira tarzida yozilgan bo'lib, unda qirq shoir-u adiblar haqidagi ma'lumotlar jamg'arilgan. Bu yodnomalar keyingi davr tazkirachilik taraqqiyotiga ijobiy turtki berdi.

5.3. Xorazmiyning «Muhabbatnoma»asari, uning badiiyati.

Xorazmiy o’zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Bu iste’dodli ijodkorning hayoti va faoliyati, adabiy merosi haqidagi ma’lumotlar juda kam yetib kelgan.

Shoirning hozircha bizga ma’lum yagona asari «Muhabbatnoma»ning muqaddima va xotimasida uning shaxsi qisman bo’lsa-da, o’quvchiga tanishtiriladi. Shuningdek, adabiyotshunos N.Mallayevning qayd etishicha, shoirning «Muhabbatnoma» asariga ilova qilingan she’riy «Hikoyat» ham mavjud bo’lib, unda ijodkorning Sharq mamlakatlariga sayohatga chiqqanligi, jumladan, Rum va Tayfundan o’tib, bir do’sti bilan Shomga safar qilganligi haqida ma’lumot beriladi (Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 227-228-betlar).

Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari juda ko’p Sharqshunos olimlarning e’tiborini o’ziga qaratadi. Jumladan, A.M.Samoylovich, M.F.Ko’prulizoda, A.M.Shcherbak kabi xorijiy tadqiqotchilar bu borada qiziqarli ilmiy izlanishlar olib borishdi. Shuningdek, o’zbek adabiyotshunoslaridan S.Qosimov 1950- yilda Xorazmiy ijodi bo’yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bulardan tashqari, N.Mallayevning «O’zbek adabiyoti tarixi»da va boshqa manbalarda shoir haqida ma’lumot beriladi.

Xorazmiy ijodkorning taxallusi bo’lib, uning nomi hamon ma’lum emas. «Muhabbatnoma»da mazkur taxallus bir necha o’rinlarda keltiriladi. Chunonchi, asar xotimasidagi quyidagi baytlarda uning yozilgan yili ham o’z ifodasini topgan:

«Muhabbatnoma» so’zin munda ayttim,
Qamug’in Sir yaqosinda bitiydim.
Nazar birla agar Jamsen, gar Osaf,
«Muhabbatnoma»ni qilsang musharraf.
O’qig’il fotihadur qibla yoni,
Sevunsun banda Xorazmiy ravoni.
Bu daftarkim bo’lubtur Misr qandi
Yetti yuz elli to’rt ichra tugandi...

(Xorazmiy. Muhabbatnoma. Kitobda. Muborak maktublar. Toshkent – 1987, 39-bet. Bundan keyingi misollar ham shu kitobdan olinadi va tegishli betlar qavs ichida ko’rsatiladi – R.V., H.E.)

Shoir «Muhabbtnoma»ning aksariyat qismini Sirdaryo bo’yida yozganligini e’tirof etadi. Asarning yozilgan joyi masalasiga kelganda,

tadqiqotlarda Sirdaryo buyidagi Sig'noq shahri tilga olinadi (O'zbek adabiyoti tarixi. 1-tom, Toshkent, 1978, 187-bet). Ijodkorning taxallusi uning Xorazmda tug'ilib o'sganligini dalillaydi. Shunday qilib, asar hijriy 754-yilda (melodiy 1353-1354 yillarning qish faslida) Sirdaryo atrofida yozilgan.

«Muhabbatnoma» Oltin O'rda hukmdorlaridan bo'lgan Muhammad Jonibekning (1342-1357) Sirdaryo muzofotidagi amaldori Muhammad Xo'jabekning taklifi bilan qish faslida ijod etilganligi asarda shoir tomonidan quyidagicha bayon etilgan:

Tabassum qildi, aydi: «Ey faloni,
Keturgil bizga loyiq armug'oni.
Ko'ngul bahrinda ko'p gavharlaring bor,
Ochunda porsiy daftarlaring bor.
Muhabbat nardini ko'plardin uttung,
Shakartek til bila olamni tuttung.
Tilarmankim, bizing til birla paydo
Kitobe aylasang bu qish qotimdo
Kim ush yeltek kechar ayyomi foniy,
Jahondin qolsa bizdin armug'oni.»
Qabul qildim, yer o'ptim, aydim «Ey shoh!
Eshiking tuprog'i - davlatli dargoh.
Kuchum yetmishcha ko'p xizmat qiloyin,
Jahonga ezgu otingni yoyoyin.
Bukun tonqa tikin may no'sh qilg'in,
Badiha bu g'azalni go'sh qilg'in». (11-12-b.)

Ko'rinadiki, «Shakartek til bila olamni tut»gan Xorazmiy «Muhabbatnoma»gacha ham badiiy ijod bobida yetarli tajribaga ega qalamkashlardan biri edi. Ikki tilni ham (forsiy va turkiy) hayotdan olgan zavqini badiiy va ravon ifodalash darajasida bilgan shoir dastlab zamona zayliga ko'ra, forsiyda qalam tebratdi. Parchada Muhammad Jonibek tilidan keltirilgan ishoraga muvofiq «Muhabbatnoma» uning turkiydagi dastlabki asari bo'lib chiqadi. Fikrimizcha, bu badiiy uslub qirrasining satrdagi jilosi bo'lmog'i lozim. Aslida esa Xorazmiy «Muhabbatnoma»ga qadar ham turkiyda she'rlar yaratgan ko'rinadi. Chunki muayyan tajribaga ega bo'lmay turib, bunday yirik she'riy asarni bunyod etishni tasavvurga sig'dirish dushvordir. Shayx Sa'diy «Guliston»ining Sayfi Saroyi tomonidan qilingan (1390-1391) tarjimasining Leyden universiteti kutubxonasida saqlanayotgan bir qo'lyozmasi tarkibida Xorazmiy taxallusli shoirning quyida matni ko'chiriladigan turkiy

g’azali uchraydiki, bu adabiy ma’lumot ham bizning Yuqoridagi xulosamiz foydasiga xizmat qiladi.

Xorazmiy aytur:

Soldi niqob chehratin ul turki xovariy
Bo’ldi yana jahon yuzi oynatek oriy.
Tun nafasig’a urdi quyoshing shuo’i o’t,
To’ldi aning nasimi bilan ko’k mijmari.
Qochti habash cheriki odam qal’asi taba,
Chiqti esa ufuq qinidin subh xanjari.
Anqosi ko’k qofining ochti ikkinchi bol,
Yuduz tuyuri barchasi turdi ari-bari.
Daryoqa cho’kti oy sadaftek ko’rinmas-ush,
Sohilg’a tushti Zuhra-yu tiladi Mushtari.
Soqiy, qadahni sun dag’i ravonakim,
Bo’ldi ravona ko’k uza xurshid sog’ari.
Ishrat bila jahonni yigitlikta xush kechir,
Kim hech kishiga qolmadi bu bevafo qari.
Dunyo senga qolurmu, Sulaymong’a qolmadi?
Ulkim anga musaxxar edi dev-u ham pari.
Xorazmiyning agar tani tuproq bo’lsa ham,
Otin tiri tutar jahon ichra so’zlari.

(O’zbek adabiyoti tarixi. 1-tom. Toshkent, 1978, 188-bet)

Mazkur g’azalning turkona ohangi va uslubi Xorazmiy she’riyati ruhini eslatadi. Shunga ko’ra, bu g’azal ham «Muhabatnoma» muallifiga tegishli, deyish mumkin. «Muhabbatnoma»ning ikki qo’lyozma nusxasi mavjud. Ulardan biri uyg’ur va ikkinchisi arab yozuvida ko’chirilgan. Uyg’ur yozuvidagi qo’lyozma 1432 (835)-yilda Yazd shahrida, Mir Jaloluddin degan kishining topshirig’i bilan Boqi Mansur baxshi nomli kotib tomonidan ko’chirilgan. Mazkur qo’lyozmaning 158-177-varaqlaridan «Muhabbatnoma»ga o’rin berilgan bo’lib, qolgan qismida «Sirojul-qulub» («Ko’ngillarning nuri»), «Masala kitobi» («Masal va matal kitobi»), «Rohatul-qulub» («Ko’ngillarning rohati») kabi axloqiy-ta’limiy asarlar va Lutfiy qalamiga mansub to’rt g’azal keltirilgan.

Asarning arab yozuvidagi nusxasi 1508-1509 yillarda (hijriy 914-yilda) kitobat qilingan. Bu nusxada mustaqil mazmunga ega bo’lgan «Hikoyat» asari ilova tarzida keltiriladi. «Muhabbatnoma» ning XX asrda chop bo’lgan turli majmua va darsliklarga kiritilgan parchalari uchun arab yozuvidagi o’sha

nusxasi asos qilib olingan. Mazkur nusxadagi «Muhabbatnoma» unga ilova qilingan she'riy «Hikoyat» bilan birgalikda, 473 baytdan tarkib topgandir.

Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari muayyan an'analarga ko'ra, Alloh hamdi bilan boshlanadi. Shundan so'ng shoir Muhammadxo'jabek bilan ko'rishganini bayon qiladi va ikki turkiy hamda bir forsiy g'azal keltiradi. Bulardan keyin «Muhabbatnoma»dan o'rin olgan masnaviy - «Muhammadxo'jabek madhi» hamda «Vasful-hol aytur» kabi fasllar berilgan bo'lib, bular asarning muqaddimasini tashkil etadi. Asosiy qism nomalardan tashkil topgan. Shoir «Muhabbatnoma» muqaddimasida quyidagi masnaviyni keltirib, maqsad-muddaosini o'quvchilari bilan baham ko'radi:

Kitobat boshladim, anjoma yetkay,
«Muhabbatnoma» Misr-u Shomga yetgay.
Bu xon uzra saloyi oma qildim,
«Muhabbatnoma»ni o'n noma qildim.
Qiloyin ikki bobin porsiy ham
Kim, atlas to'n yaroshur bo'lsa ma'lam.
Burun alqissa, bek madhin yoyoyin
O'shandin so'ngra noma boshlag'oyin. (13-bet)

Faxriya tarzida bitilgan bu ajoyib baytlarda Xorazmiy asardagi nomalar sonining o'ndan iborat bo'lishini qayd etadi hamda «Muhabbatnoma»ning 2 bobi (nomasi)ni forsiy tilda ijod qilishini ta'kidlaydi. Biroq asarning xotimaviy-o'ninchi nomasidan so'ng keltirilgan quyidagi masnaviyda muallif maqsad-muddaosining o'zgarganligi ifodalanadi:

Kel, ey soqiy, kuturgil xush sabuhi,
Kim, ushbu dam erur jonning futuhi.
Icholing bodani, gullar so'liyur,
Tanimiz oqibat tuproq bo'liyur.
Bu yerga yetti so'z ta'xir bo'ldi,
Burun o'n dedim ul o'n bir bo'ldi... (35-bet)

Ko'chirilgan iqtibosga ko'ra, shoir «Muhabbatnoma»ni o'n noma tarzida tarkib bermoqchi bo'lgan. Ammo ijodiy ish jarayoni boshdagi rejaga tahrir kiritgan va shoir o'n birinchi nomani ham bitishga jazm qilgan. Biroq, negadir, asarning uyg'ur yozuvidagi nusxasida o'n birinchi noma mavjud emas. Asarning arab yozuvidagi qo'lyozmasiga tayangan adabiyotshunos N.Mallayev «Muhabbatnoma»ning o'n bir nomadan tuzilganligini qayd etadi. Darhaqiqat, «Muhabbatnoma»ning chop bo'lgan nusxalari o'n bir nomadan tarkib topgan va ulardan uchtasi 4-, 8- hamda 11-nomalari fors-tojik, qolgan sakkiz maktub o'zbek tilidadir. Aksariyat nomalar – masnaviy-nomadan tashqari, g'azal,

kichik soqiynomalarni ham o’z ichiga oladi. Shuningdek, asar xotimasida «g’azal», «Munojot», «qit’a», «Xotimatul-kitob», mustaqil mazmunga ega «Hikoyat», «Iltimosin aytur» kabi sarlavhalar ostidagi parchalar uchraydi. Asar fard bilan yakun topadi. Prof. N.Mallayev fikricha, birinchi noma tarkibida kelgan g’azal Muhammad Xo’jabek tilidan aytilgan ko’rinadi (Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 230-bet). Shunday qilib, «Muhabbatnoma» noma, masnaviy, g’azal, qit’a, madhiya kabi janr namunalaridan tarkib topadi.

«Muhabbatnoma» haqida fikr bildirgan aksariyat mualliflarning ishlarida ayrim munozarali mulohazalar ham nazarga tashlanadi. Bunday bahsli o’rinlar asarning forsiy nomalari, ayniqsa, o’n birinchi maktubiga tegishlidir. Ko’pchilik mualliflar o’n birinchi maktubning uslub va vaznida asar tarkibidagi o’n nomaga nisbatan qandaydir «begonalik» va «saktalik» ko’rishadi. Aslida esa «Muhabbatnoma»ning turkiy hamda forsiy maktublari o’rtasida hech qanday mazmuniy va uslubiy tafovut nazarga tashlanmaydi. Turkiy hamda forsiy misralar qiyosiy o’rganilganda Yuqoridagi fikrga to’la qanoat hosil qilish mumkin. Xorazmiy ayrim forsiy misralarni turkiyda va aksincha, turkiy satrlarni forsiyda aynan berishga harakat qilgan. Aslida Yuqoridagi «shubhalar»ning negizi asar boshidagi «o’n» bilan xotimadagi «o’n bir»ga kelib taqaladi. Muallifning bunday tabiiy ishoralarini bu qadar ishonchsizlik bilan qabul qilish esa yaramaydi. Ijodiy jarayonning o’ziga xos bir maktab ekanligini, unda kutilmagan hodisalar yuz berishi, boshda chizilgan reja nogahoniy tahrirlarga uchrashining mo’tadil holat sifatida qabul qilish lozimligini nazarda tutsak, «o’n»ning «o’n birga» aylanishiga ham oddiy bir voqea sifatida qarash mumkin. Yana «Muhabbatnoma»ga javob tarzida yozilgan Xo’jandiyning «Latofatnoma», Said Ahmadning «Taashshuqnoma» va Amiriyning «Dahnoma» asarlarining o’n nomadan tarkib topishi adabiyotshunoslikda kuzatilayotgan chalkashliklarga sabab bo’lib kelayotir. Jumladan, Xo’jandiy «Latofatnoma»ni yozishda bevosita Xorazmiyning «Muhabbatnoma»sidan ilhomlanadi. «Latofatnoma»dagi quyidagi misralar buning Yorqin misolidir.

... Muhabbat jomidin ichsang sharobe,
«Muhabbatnoma»ga aysang javobe.
Qabul ettim, qabuliyat yo’q erkan,
Salo urdim, salohiyat yo’q erkan.
Riyozat bahrina soldim o’zumni,
Iborat silkiga tortim so’zumni.
Tilida so’z, alimda xoma bo’ldi,

«Latofatnoma» ham o’n noma bo’ldi.

(O’sha kitob, 411-bet).

Ko’rinadiki, Xo’jandiy «Muhabbatnoma»ning o’n nomadan iborat bo’lgan nusxasiga javob yozgan. Shu o’rinda badiiy ijod tajribasida tez-tez ko’zga tashlanadigan o’z-o’zini tahrir hodisasini e’tibordan soqit qilmaslik lozim. Asar birinchi tahririni nihoyasiga yetkazgan muallif matnni jiddiy nazardan o’tkazarkan, uning mulammaligiga (ikki til bilan bog’liq ranginlikka, shir-u shakarga) yanada quvvat berish maqsadida forsiy zabondagi o’n birinchi nomani qo’shganligi shak-shubhasizdir.

Xorazmiy «Muhabbatnoma»ni Alloh hamdi bilan boshlarkan, Sharq mumtoz adabiyoti an’analariga sadoqat saqlaydi va Parvardigorning yaratuvchanlik bilan aloqador fazilatlarini ko’rkam badiiy libosda beradi. Shu bilan bir qatorda, buyuk Bunyodkor mo’jizasi bilan vujudga keltirilib, ilohiy ruhdan jon baxsh etilgan inson go’zalligini ulug’lash ham muallif diqqat markazida turadi. Asarning hamd qismida xuddi shunday uslubiy fazilatni kuzatish mumkin:

Ulug’ tangrining otin yod qildim,
«Muhabbatnoma»ni bunyod qildim.
Iki yoqtu guhar olamga bergan,
Muhabbat ganjini odamga bergan,
Falakning daftarini tunni bo’yg’an,
Jahon bunyodini so’z uzra qo’yg’on.
Yeti qad nigor ayvoni volo,
Yaratti olti kunda Haq taolo.
Havo uzra berur shunqorg’a quni
To’lun oydek qilur bir qatra suni.
Aningkim, ol yenginda meng yaratti,
Bo’yi birla sochini teng yaratti.

(Navoiyning nigohi tushgan. Toshkent – 1986, 41-bet)

Ulug’ Tangrini vasfiga atalgan mazkur baytlarning so’nggida Allohning yaratig’i insonning ham benihoya go’zal ekanligi o’z ifodasini topgan. Shoir Haq taolo ma’shuqaning go’zal yuzida xol yaratib, bo’yi bilan sochini teng yaratgan, - deya mahbubaning go’zal timsolini nihoyatda nazokat bilan badiiy ifoda etgan.

Nomalar asarning yetakchi janri bo’lib, ular oshiqning o’z ma’shuqasiga yo’llangan she’riy maktublaridir. Ularning o’ntasi to’g’ridan-to’g’ri ma’shuqaga murojaat bilan boshlanadi. Faqat ikkinchi nomanigina shoir: ”Salomim gulga ayt, ey tong nasimi”,- deya nasimi subhga ko’ngil izhorini

bayon qilish shartli majoziy uslubiy jilosi bilan boshlaydi. Nomalar asosan ta’rif-tavsif yo’nalishilida yozilgan bo’lib, ularning har birida shoirning Sharq mumtoz adabiyoti an’analaridan ijodiy foydalanganligi kuzatiladi. «Muhabbatnoma» tarkibidagi she’riy maktublarning mazmun-mohiyati, nomalarga xos xususiyatlar va badiiyati haqida muayyan tasavvur hosil qilish uchun “Avalg’i nomani aytur” faslidan olingan quyidagi parchani nazardan o’tkazish ayni muddaodir:

Ayo, ko’rk ichra olam podshohi,
Jahon tutti sening husnung sipohi,
Pari ruxsoralarning ko’rkaboyi,
Yuzung- navro’z-u qoshing bayram oyi.
Ko’ngul shirin so’zungga bo’ldi Farhod,
Ko’zung Kashmir jodusiga ustod.
Qaro meng ol yanoqinga yaroshur,
Boshim doyim adoqingqa yaroshur.
Bo’yung sarv-u sanobartek beling qil,
Vafo qilg’on kishilarga vafo qil.
Aqiqing suhbatindin jon bo’lur so’z,
Qamartek chehranga boqsa, qamar ko’z.
Urur nargislaring novakni jong’a,
Kular chehrang chyechaktek arg’uvong’a.
Muhabbat nori jondin ketmadi hech,
Qo’lum siym olmangizga yetmadi hech.
Saroydin bordi Chin-Mochinga choving,
Qiyo boqsang bo’lur arslonlar oving.
Tabassum qilsangiz shakkar uyolur,
Tishing injusidin gavhar uyolur.
Jamoling yetti olamga sipahlar,
Qatingda yer o’parlar jumla shahlar.
Falak ishqing yo’linda besaru poy,
Isirg’ang donasi – Zuhra, yuzung - oy.
Latofat mulkida sultonsan, ey jon,
Qumuq boshdin - oyoqqa jonsen, ey jon.
Qotig’ kulsang magar og’zing bilurg’ay,
Pari ko’rsa seni mendek tilurg’ay.
Soching ming torina ming hur yetmas,
Yuzungnung nurina ming nur yetmas.
Agar bersa suyurg’ib Haq taolo,

Kerakmas sensizin firdavsi a’lo.
Ko’ngulning qoni barcha toshqay,
Ko’zumning Yoshidin kavsar bo’shoshqay.
Kishing sensizin ne joni bo’lsun,
Aningtek umrning ne soni bo’lsun.
Shakar erning naboti Xizra o’xshar,
Ayog’ing kimki o’psa, mangu Yoshar.
Jamolingtek kishini yo’q jamoli,
Darig’o, bo’lmasa erdi zavoli.
Qiyomat ko’rklusen, husnungga ne so’z,
Yiroq bo’lsun jamolingdin yovuz ko’z.
Bukun yo’qtur sen oytek ko’kta, asra,
Qulung bechora Xorazmiyni asra.

Masnaviy:
Kel, ey soqiy, keturgin bodai nob,
Kula-o’ynayu ichsunlar bu as’hob.
Kim, ush yeltek kechar ayyomi foniy,
Ajaldin hech kishining yo’q amoni.
Sabrdin yaxshi yo’qtur, pesha qilsam,
Bu yo’lda sabr yo’q, andisha qilsam.

(Muborak maktublar. 16-18-betlar)

Har bir maktubdan keltirilgan soqiynomada shoirning hayotdan olingan yuksak zavq-u shavqi, nozik hayotsevarlik tuyg’ulari go’zal badiiy ifodasini topgan. Mazkur soqiynomalardagi misralarda badiiy ifodalangan mazmun teran ilohiy-irfoniy mohiyat kasb etadi va aksariyat parchalar oxirida aynan takrorlanuvchi «Sabrdin yaxshi» baytidagi axloqiy-ta’limiy aqidalarga quvvat beradi. Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, Xorazmiyning mazkur asarini yaratishdan kuzatgan bosh muddaosi insonni komil qiyofasi manzaralarini rangin chizishdan iborat ekanligi yaqqol anglashilib turadi. Ayni mayl Xorazmiy «Muhabbatnoma»sida gavdalantirilgan yuksak insoniy fazilatlarning Davlat ta’lim standarti talab-tamoyillariga mos kelishini alohida ta’kidlash imkonini beradi. Baytlarda qayta-qayta murojaat qilinadigan may va ishq timsollari o’sha muddaoni yuzaga chiqarish yo’lida beminnat xizmat qiladi. Xorazmiyning tayanch murodi «bu o’tkinchi dunyoda do’stlar ishq mayidan bebahra qolmasinlar»dan iboratdir. «Muhabbatnoma»dan Yuqorida ko’chirilgan birinchi nomaning o’ziyoq, shoir ijodiy salohiyatining nechog’li Yuqori ekanligi xususida yetarli tasavvur paydo qilish imkoniyatini beradi.

Shunday bo’lsa-da, parchadagi ba’zi baytlarda mujassamlashgan ichki-botiniy ma’nolar haqida fikr yuritish Xorazmiyning badiiy mahorati xususida muayyan xulosalarga kelish uchun yo’l ochadi. Avvalo, shuni aytish joizki, nomalardagi dastlabki baytlarda shoir ilohiy va majoziy ishqni yonma-yon tutib tasvirlaydi. Shunday ohang quyidagi baytda ham kuzatiladi:

Pari ruxsorlarning ko’rkaboyi,
Yuzung-navro’z-u, qoshing - bayram oyi.

Ma’shuqa - pari ruxsorlarning eng ko’rklisi. Uning yuzi - Navro’z. Navro’zning lug’aviy ma’nosi «yangi kun». «Kun» turkiy tilda quyoshning ma’nodoshi hisoblanadi. Demak, Yorning yuzi quyosh, uning qoshi esa - bayram oyi. Bayram oyi deganda, Navro’z bayrami nazarda tutiladi. Ma’lumki, hamalning birinchi kuni yangi yilning boshi sifatida bayram qilinadi va «Navro’z bayrami» deb ataladi. Shu kuni hamal oyi boshlanishi bilan samoda yangi oy ko’rinadi. Yangi oy - hiloldir. Hilol qoshni eslatadi. Shoir ma’shuqa yuzini Navro’zga qiyoslamaganda edi, uning qoshini bayram oyiga tashbeh qilolmagan bo’lardi. Bu jihatdan olib qaraganda, «Muhabbatnoma» muallifi o’xshatish vositasida so’z ta’sirchanligini oshirishga erishgan. Shuningdek, quyidagi baytda shoirning jinos san’atidan mahorat bilan foydalangani namoyon bo’ladi:

Bo’yung sarv-u sanobartek, beling - qil,
Vafo qilg’on kishilarga vafo qil.

Ko’rinadiki, Xorazmiy ma’shuqaning tashqi qiyofasini tavsiflash bilan cheklanib qolmay, uning ruhiy-botiniy olamiga ham daxl qilish orqali o’zining axloqiy-ta’limiy qarashlarini ham badiiylashtirishga muassar bo’ladi. Bunda shoir «qil» so’zining ikki ma’noda qo’llanilishidan san’atkorona foydalangan. Shuningdek, keyingi misrada ish – harakat ma’nosidagi «vafo qil» birikmasi ham Xorazmiyning tub botiniy iddaosini yuzaga chiqarishga ko’maklashgan.

Asarda Faridun, Sulaymon, Masih, Yusuf, Hotami toy, Rustam, Ali, Muhammad Xo’jabek singari afsonaviy, ilohiy va tarixiy shaxslarning nomlari ham uchraydi. Xorazmiy «Muhabbatnoma»da bu an’anaviy ilohiy-irfoniy timsollarga ko’proq talmeh san’ati imkoniyatlari nuqtayi nazaridan murojaat qilib, she’rning badiiy nazokatini oshirishga harakat qilgan.

«Muhabbatnoma»dan o’rin olgan Muhammad Xo’jabek madhiga atalgan misralar ham alohida ahamiyatga molik. Tasvirga ko’ra, Muhammad Xo’jabeksiz Jonibek mulki jonsiz tanga o’xshaydi. Xorazmiyga iltifot ko’rsatib, uni «Muhabbatnoma»day go’zal asarni bunyod qilishga ruhlantirgan qo’ng’irot naslidan bo’lgan hukmdor (Muhammad Xo’jabek) o’z el-yurti uchun Sulaymon qadar ulkan xizmatlar qildi. Qarang, asarning mag’z-mag’zidan

shaxsiyat emas, ijtimoiyyot , xalqchillik g’oyalari bosh qon tomiriday o’tib turadi. Mazkur parchadagi quyidagi bayt ham o’ziga xosligi bilan ajralib turadi:

Quyoshtek davlating tobanda bo’lsun,
Eshingingda eti ko’k banda bo’lsun.

Xorazmiy zamon hukmdoriga Chin dildan tilak tilarkan, uning davlatini quyoshdek porloq bo’lishini istaydi. Bunda «davlat» oltin, kumush singari moddiy boyliklar bilan bir qatorda, tabiiyki, mamlakat ma’nosida ham qo’llaniladi. Baytdagi o’xshatish va o’xshatilmish (davlat va moddiyat) o’rtasidagi o’zaro munosiblik ularning porloqligidadir. Shu bilan birga baytda quyoshning qiyomatgacha nur sochib turishiga ham ishora qilinadi va keyingi misradagi «yeti ko’k» birikmasini qo’llashda ijodkor uchun ana o’sha quyosh tisoli imkoniyat yaratib bergan.

«Muhabbatnoma» aruzning hazaji musaddasi mahzuf (mafoiylun, mafoiylun, faulun) vaznida bitilgan. Undagi o’ziga xos ohang, badiiy ifodaning nafis nazokati Xorazmiyning yuksak iste’dod sohibi ekanligini tasdiqlaydi. Shoir ushbu asari bilan turkiy tildagi noma janrining keyingi taraqqiyotiga zamin hozirladi. Shuningdek, «Muhabbatnoma» o’zbek tili tarixini o’rganish uchun ham muhim mumtoz manba sanaladi.

5.4.Qutb Xorazmiyning «Xusrav va Shirin» dostoni – erkin-ijodiy tarjimaning nodir namunasi

Qutb Xorazmiy o’zbek mumtoz adabiyotida «Qutadg’u bilig» va «Hibatul-haqoyiq»dan so’ng «Xisrav va Shirin» nomli yirik hajmli masnaviy yaratgan iste’dodli shoirdir.

Shoirning boy ma’naviy-adabiy merosidan ana shu tarjima dostongina bizgacha yetib kelgan. Mazkur asar taniqli Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning «Panj ganj»idan o’rin olgan «Xisrav va Shirin» dostoni asosida vujudga kelgan bo’lib, unda Qutb Xorazmiyning ijtimoiy- siyosiy, axloqiy-ta’limiy, irfoniy-ilohiy qarashlari o’z ifodasini topgan. Shoir Nizomiy Ganjaviy dostonini o’zbek tiliga muvaffaqiyatli o’girish barobarida, unga jiddiy yangiliklar kiritib, erkin-ijodiy tarjimaning mumtoz namunasini meros qoldirdi.

Qutb Xorazmiyning hayoti va faoliyati haqida «Xusrav va Shirin» dostonidagi ayrim ishoralar orqali ma’lum tasavvurlar hosil qilishimiz mumkin. Dostondan anglashilishicha, shoir Xorazmda tug’ilgan. Shuning uchun aksariyat mumtoz manbalar va ilmiy tadqiqotlarda u Qutb Xorazmiy

tarzida e’tirof etiladi. Doston muqaddimasidagi ma’lumotlarga ko’ra, shoir XIV asrning o’rtalarida yashab ijod etgan.

Qutb Xorazmiy «Xisrav va Shirin» dostonini Oltin O’rda poytaxti Sig’noq shahrida O’zbekxonning o’g’li Tanibek va uning xotini malika Xonmalikka bag’ishlab yozadi. Tarjima - dostonning yaratilish sanasi manbalarda turlicha talqin etiladi. Jumladan, Tanibekning qisqa muddatlik hukmronligi 1340-yilga to’g’ri kelganligi bois ilmiy adabiyotlarda dostonning aynan shu yili yozilganligi qayd etiladi. Sharqshunos A.Tohirjonov esa asar tarkibida kelgan bag’ishlovda Tanibek shahzoda tarzida tilga olinganligiga asoslanib, ayni raqamni inkor etadi hamda «Xusrav va Shirin»ni 1330-1336 yillar orasida yozilgan, deb ta’kidlaydi (O’zbek adabiyoti tarixi. 1-tom, Toshkent, 1978, 202-bet). Shuningdek, «Tazkirayi Qayumiy»da shunday ma’lumot beriladi: «Muhammad O’zbekxon va uning o’g’illari Tanibek va kichik o’g’li Jonibek va padarkush Berdibeklar vaqtida Qutb Xorazmiy saroy doirasida edi.

O’z akasi Tanibekni o’ldirib, xon bo’lmish otasi Jonibekni o’ldirib, ular o’rniga Berdibekning o’ltirishi voqealariga Qutb Xorazmiy shohid edi.

Muhammad O’zbekxon 1342-yilda vafot etmish edi. O’rniga xon bo’lmish Tanibekning xon bo’lishi ila va uning xotunining nomiga atab turkiycha dostonning yza boshlagan edi» (Po’latjon Domullo Qayumov, «Tazkirayi Qayumiy», Toshkent, 1998, 42-bet).

Ko’rinadiki, dostonning yzilgan davrini aniqlashdagi chalkashliklarga Tanibekning taxtga o’tirgan sanasidagi noaniqliklar (1340, 1342) sabab bo’lib kelmoqda. Shuningdek, dostonning muqaddimaviy kirish fasllari tarkibida «Shahzoda Tanibek madhi» deb nomlangan maxsus bobning borligi ham subhalar uchun yo’l ochib bergan bo’lishi mumkin. Qutb Xorazmiy dostonning «Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur» bobida quyidagi misralarni keltiradi:

Necha yil bo’ldi jonim uskar erdi,
Ko’ngulda ushbu andisha bor erdi.
Netak shoh tabg’inga bir borgaman teb,
Bu ko’nglum qazg’usini targ’aman teb.
Ko’rub ko’nglum kim asru rag’batim bor,
Buyurdi kim qatig’lom emdi ey, Yor,
Ravon ey, Qutb, tarkin kech bo’lur bil,
Ne bilg’aylar seni so’zlatmasang til.
Nizomiy nazmi yanglig’ tuz so’zungni
Ani bilgut xoningg’a bu o’zungni.

Xonim birla malika otinga bir,
Kitobe qilg'ug'a qil, tedi tadbir.

(Qutb Xorazmiy. Xusrav va Shirin. Kitobda. Uch bulbul gulshani. Toshkent, 1986, 339-340-betlar. Bundan keyingi tegishli sahifalar qavs ichida ko'rsatib boriladi – R.V., H.E.).

Ko'chirilgan iqtibosdan anglashiladiki, Qutb Xorazmiy necha yillardan beri Nizomiy Ganjaviy dostonini o'zbekchaga tarjima qilishni ko'ngliga tugib yurgan. Shohning oldiga borib ijodiy niyatini unga aytish orzusi ham shoir qalbida yashagan. Shunda Qutbning yaqin do'stlaridan biri unga jo'yali maslahat berib, bu ishni tezroq bajarish kerakligini aytadi. Yuqoridagi parchadagi «Xonim birla malika otinga bir» - misrasi ham shunday xulosaga kelish uchun asos bo'ladi.

Qutb «Xusrav va Shirin» dostonining hozircha yagona qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, u Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Bu nusxa 1383-1384 yillarda amir Qutlu Xo'janing tavsiyasi bilan kotib Barka Faqih ibni Barokaz edg'u Qipchoqiy tomonidan Misrda ko'chirilgan. «Xusrav va Shirin» dostonining ushbu nusxasi 4740 baytdan iborat bo'lib, Shundan 4685 bayti bevosita Qutb Xorazmiy qalamiga mansubdir. Qolgan bir yuz o'n misra esa kotib tomonidan asarga ilova qilingan. Doston 91 bobdan tarkib topadi. Asar asliyati yuz bobdan iborat bo'lib, olti mingdan ziyodroq baytni o'z ichiga oladi. Qutb Xorazmiy Nizomiy Ganjaviy dostonining ayrim boblarini ixchamlashtiradi. Jumladan, Xusravning Rum qaysari huzuriga borib, undan madad olib qaytishi, so'ngra esa Bahrom Cho'binni mavh etishi bilan bog'liq voqealar Nizomiy Ganjaviy dostonida ikki bobda bayon etilgan bo'lsa, Qutb Xorazmiy ularni qo'shib yuboradi. Bulardan tashqari, Xusravning otashkadaga ketishi hamda u yerda o'g'li Sheruya tomonidan qatl etilishi tafsilotlari ham asliyatda ikki bobda ifodalangan bo'lsa, tarjimada ular birirlashtiriladi. Qutb Xorazmiy dostonining an'anaviy «Hamd», «Na't», «Munojot» singari fasllari Nizomiy Ganjaviy dostonidagidek 5 bobni tashkil qiladi. Keyin esa «Shahzoda Tanibekxon madhi», «Malika marhuma Xonmalik madhi», «Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur» boblaridan so'ng «Xusrav va Shirin hikoyatining avvali» sarlavhasi bilan asosiy voqealar tayfsiloti boshlanadi.

Qutb Xorazmiyning «Xusrav va Shirin» dostoni turli adabiy majmualar va darsliklardan o'rin olgan. Dastlab, 1948-yilda ulug' Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy tug'ilgan kunning 800 yilligiga bag'ishlab Toshkentda nashr etilgan «Guldasta» to'plamida dostondan parchalar e'lon qilindi (Guldasta, to'plam. Tuzuvchi Hodi Zarif. Toshkent, 1947). Shuningdek, «O'zbek adabiyoti» kitobidan ham dostondan ayrim parchalar o'rin olgan

(O’zbek adabiyoti, 4 tomlik, 1-tom, Toshkent, 1959, 118-161-betlar). Dostonni nashr etish va ilmiy o’rganishda polyak olimi A.Zayongkovskiy, taniqli sharqshunoslar Y.E.Bertels, G.Begdele, H.Zarif, N.Davron, N.Mallayev, A.Tohirjonov va boshqalarning hissalari kattadir. Asarning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Sosoniy shohlardan Hurmuz keksayib qolgach, Xusrav ismli o’g’il ko’radi. Yusufdek ko’rkam jamolli bo’lgan shahzoda jismonan ancha baquvvat bo’lib, tezda ulg’ayadi. U Yoshlikdan hukmdorlik qoidalari, sipohiylik va turli ilmlarni o’rganadi. Yoshlikdan o’z xohishiga ko’ra ish yuritishga o’rgangan Xusrav bir paytlar mamlakatda otasi tomonidan adolat-intizom o’rnatish borasida qabul qilingan farmonga xilof harakatlar qiladi. Buning uchun otasi g’azabiga duchor bo’lgan shahzoda tavba-tazarrular bilan arang qutulidi. Xusravning do’stlari orasida Shopur ismli bir jahongashta musavvir ham bor edi. U Xusravga Barda malikasi Shirin haqida so’zlab beradi. Xusrav esa Mehinbonuning jiyani malika Shirinni g’oyibona sevib qoladi. Uning tinchi, oromi yo’qoladi. Xusrav Shirinni izlab topish niyatida Shopurni Bardaga jo’natadi. Shopur Armanistonga yetib boradi va Shirin sayr qilib yuradigan bog’dagi bir daraxtga Xisravning suratini osib qo’yadi. Ko’rkam va baquvvat yigit suratini ko’rgan Shirin unga oshiq bo’lib qoladi. Shopur Shirin bilan uchrashib, unga Xusrav haqida gapirib beradi hamda sovg’a sifatida Xusrav bergan uzukni Shiringa yetkazadi. Shirin Mehinbonuning ruxsatisiz Madoyinga yo’l oladi. Biroq u yerdagi Shoh saroyida ro’y bergan fitna hamda Hurmuz bilan Xusravning o’zaro ziddiyatlari sevishganlarni ancha tashvishga solib qo’yadi. Xusrav saroydan qochib ketishga majbur bo’ladi va panoh izlab Barda tomonga yo’l oladi. Madoyinda Xusrav yo’qligini eshitgach, Shirin ham Bardaga qaytadi. Biroq Shirin Xusravning Bardaga yo’l olgani xabarini eshitib, Madoyindan Bardaga qaytadi. Shu orada shoh vafot etadi. Xusrav ota taxtini egallash niyatida yana Madoyinga qaytishga majbur bo’ladi. Biroq Hurmuzning taxtini uning uzoq qarindoshlaridan biri, lashkarboshi Bahrom Cho’bin egallashga ulguradi. Shuning uchun Xusrav yana Armanistonga qaytishga qaror qiladi. Shirin to’yga shoshilmaslikni, avval Eron taxtini qo’lga kiritib, mamlakatda osoyishtalik qaror topishiga erishishni maslahat beradi. Xusrav Bahrom Cho’binni yengish uchun Rum qaysaridan madad so’rab boradi va uning katta Yordami bilan Bahrom Cho’binni tor-mor keltirishga muvaffaq bo’ladi va u Rum malikasi Maryamga uylanishga majbur bo’ladi. Xusrav Eron taxtini egallaganda, Mehinbonu vafot etgan edi. Shirin esa Armaniston o’lkasini idora eta boshlaydi. Dostonda Shirinning Madoyinga kelishi, uning istagi bilan sut arig’i qazishga kirishgan Farhodning oshiqona

sarguzashtlari, fidoyi hunarmand va ishq shaydosining Xusrav tomonidan makr bilan mahv etilishi tafsilotlari ancha mufassal badiiy ifodasini topgan. Asarda tasvirlanishicha, Shiringa xizmat qilib yurgan Farhod uni sevib qoladi. Bundan rashk qilgan Xusrav Farhodni yo'qotish payiga tushadi. Unga Besutun tog'idan tuynuk ochib qo'shinim qarorgohiga yo'l solib bersang, Shirin senga bo'lsin, deya «shart» qo'yadi. Farhod bunday xavfli topshiriqni ishq yo'lida muvaffaqiyatli bajara boshlaydi. Bundan xabardor bo'lgan Xisrav makr-hiyla yo'lini tutadi. Farhodning oldiga bir makkora kampirni yuborib, «Shirin o'ldi»-, degan shum xabarni yetkazadi. Aldangan Farhod bunday ko'rgulikka chiday olmay, o'zini-o'zi o'ldiradi. Bu orada Maryam ham vafot etadi. Xusrav isfahonlik Shakar degan qizga uylanadi. Ammo u ham uzoq yashamaydi. Shundan so'ng Xusrav qilgan xatolarini tushunadi, Shiringa bo'lgan muhabbatini eslaydi, undan kechirim so'raydi. Shiringa uylangandan keyin, u saroyiga olimlarni da'vat etib, dunyo va uning jumboqlari haqida suhbatlar quradi, adolatli farmonlar qabul qiladi. Biroq mamlakat osoyishtaligi, sevishganlarning totli hayoti uzoqqa cho'zilmaydi. Xusravning Maryamdan tug'ilgan o'g'li Sheruya saroy amaldorlari bilan til biriktirib, fitna uyushtiradi va otasini o'ldiradi. Otasining qotili bo'lgan Sheruya Shiringa uylanmoqchi bo'ladi. Biroq Shirin Xusravga bo'lgan muhabbatini oyoq osti qilmaydi. Qo'l ostidagi qullarini ozod etib, boyliklarini bechoralarga ulashib beradi va Xusravning qabri ustida o'zini-o'zi halok etadi.

Sharq xalqlari adabiyotida Xusrav va Shirin nomi bilan bog'liq qissa uzoq tarixga ega sayyor sujetlardan biridir. Bu mavzu yozma badiiy adabiyotda Qutb Xorazmiygacha bo'lgan davrda ham qayta-qayta ishlangan. Dastlab ayni voqealar tizmasi Firdavsiy «Shohnoma»sida Xusrav hikoyati tarzida uchrasa, keyinchalik Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviylar tomonidan pishiq ishlandi, ularning «Xusrav va Shirin» nomli ishqiy dostonlari vujudga keldi. Ba'zi tadqiqotchilar Qutb Xorazmiy dostonining tarjima mahsuli ekanligini qayd qilishdan cho'chiydilar. Holbuki, asar muqaddimasidagi mana bu bayt masalaga oydinlik kiritadi:

Qozondek qaynab ush savdo pishurdum,
Nizomiy bolidan halvo pishurdim.

Misralar mag'zidagi ma'no ortiqcha talqinalarga muhtojlik sezmaydi. Bolsiz halvo bo'lmaganidek, Nizomiy Ganjaviy dostonisiz Qutb asarini ham tasavvur qilish dushvordir «Xusrav va Shirin» dostonida Qutb Xorazmiy yashagan davr hayoti lavhalari o'zining badiiy ifodasini topgan. XV asr birinchi yarmida Oltin O'rda aholisining ko'pchiligi ovchilik va chorvachilik bilan shug'ullanar edi. Shu bois Qutb Xorazmiy Nizomiy Ganjaviy dostonidan

farqli o’laroq, o’z asarida shahar hayoti bilan birga chorvachilik hamda ovchilik bilan bog’liq lavhalar tasviriga urg’u beradi. Shuningdek, Qutb dostonida Xusrav Armanistonga birinchi marta yo’l olganida Mehinbonu uni hashamatli saroyda emas, balki maysazor bir dalada kutib olib, ziyofat beradi. Bir qarashda mayda-chuyda bo’lib ko’ringan va asliyatda uchramaydigan bunday lavhalar Qutb dostoniga zamon nafasini, turkiy xalqlar tabiatiga xos rasm-rusum-u udumlarni olib kirgan. Muallif o’z ona xalqi va adabiyoti manfaati yo’lida sadoqat bilan xizmat qilgan. Turkiygo’ylarga mo’ljallangan asar shu xalq zavq-shavqi, ruhiy-ma’naviy dunyosiga muvofiqlashtirilgan. Qutb Xorazmiy saroy tantanalari, marosimlari va ziyofatlari tasvirini ham o’z davriga oid yangi manzaralar evaziga boyitgan. Jumladan, Qutb dostonida may qimiz bilan almashtiriladi. Bazmlarda qo’buz asosiy cholg’u asbobi sifatida ko’zga tashlanadi. Saroydagi cholg’uchilarning barchasi qo’bizchilar nomi bilan taqdim etiladi. Qutb o’z dostonida xotin-qizlar obrazini birmuncha mukammallashtiradi. U xotin - qizlarning tashqi qiyofasini turkona va batafsil ko’rsatadi. Dostonda ular xuddi erkaklardek qilich-qalqon osib olgan tarzda, otda yurishda ham ulardan qolishmaydigan bir qiyofada tasvirlanadi. Qutb dostonida asliyatda nazarga tashlanmaydigan shunga o’xshash bir qancha lavhalar mavjudki, ular asar badiiyatini ko’tarish bilan birga, misralar bag’riga milliy ruhni singdirishday vazifani ham ado etgan. Tabiiyki, shoir bunday murakkab ijodiy jarayonda o’zbek tilining boy imkoniyatlari, xalq og’zaki ijodi xazinasi durdonalaridan mahorat bilan foydalangan.

«Xusrav va Shirin» dostonining muqaddimasida kelgan «Shahzoda Tanibekxon madhi», «Malika marhuma Xonmalik madhi» va «Kitob nazm qilmoqqa sabab bayon ayur» kabi fasllari Qutb Xorazmiyning mustaqil ijodi mahsulidir. Dostonda markaziy o’rinda turgan masalalardan yana biri ishq talqinidir. Shoirning bu boradagi falsafiy-ijtimoiy, ilohiy-irfoniy qarashlari uning o’z zamonasining yetuk donishmandi, salohiyatli ma’naviy arbobi ekanligidan shahodat beradi :

Falak mehrobi ishq ermish xush angla,
Oshiqlarning so’zin ishq birla tingla.
Kishikim oshiq ermas joni yo’q bil,
O’lukni bormu ter ochunda oqil?
Agar it ko’ngliga Haq ishqi kirsa,
Kelur ul tilga, ketmaz, ursa, sursa.
Agar bo’lmasa oshiq charxi badrom,
Ne sargardon yurir, qilg’a edi orom.

Oshiq bo’lmasa ushbu yetti qat yer,
Nedin muncha xaloyiq, zaxmini yer.
Dengizlar oshiq ermas ersa bir so’r,
Nedin qaynar, ne g’urrushlar qilur ko’r?
Qayuningkim bu olam ichra ko’rdum,
Nedin muntek tiyu aqlimga so’rdum.
Ayur: ishq birla tirik ushbu olam,
Agar ishq bo’lmasa bo’lmas erdi odam.
Jonim ishqdin farah topdi esa bildim,
Ko’ngul berdim, yeringa ishq oldim.
Bu ishqim birla boshlab dostonni,
Salo teb ishqqa undadim jahonni. (341-bet)

Qutb Xorazmiy ishq haqidagi falsafiy fikrlarini bayon etarkan, ularni hayotiy lavhalar bilan tasdiqlashga harakat qiladi. Bunda shoirning tajohilu orif, tamsil, tashbeh, mubolag’a singari badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalanganligi ko’zga tashlanadi. Ayniqsa, o’sha fikrlarning o’quvchini mushohada yuritishiga undashi alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir aqidasicha, borliqdagi, olami kubrodagi barcha narsalar: maxluqot, nabotot Haqning oshig’idir. Hatto it agar Haq ishqining shaydosi bo’lsa, u tilga kiradi, uni qanchalik urib, sursang ham u bu yo’ldan qatmaydi. Yetti qat er Haq oshig’i bo’lganligi bois xaloyiq zaxmini ko’taradi. Dengizlar ham oshiq bo’lmasalar edi bunchalik qaynab jumbushga kelmas edilar. Bunday muqoyasaviy badiiy lavhalar dostonda yana talaygina topiladi. Biroq o’sha misollardan chiqadigan xulosa yakrangdir: olam, undagi barcha mavjudotlarning negizini ishq tashkil etadi.

Qutb Xorazmiy tarjima jarayonida Nizomiy Ganjaviy dostonining asl mazmun-mohiyatini, uning g’oyaviy-badiiy yuksakligini imkon qadar saqlab qolishga intilgan va aytish joizki, aksariyat boblarda u bunga erishgan.

Dostondagi markaziy obrazlardan biri Shirindir. Uning timsolida xalq osoyishtaligi, obodonligi uchun tinimsiz kurashgan, sevgisiga vafodor, sadoqatli ayolning notakror olijanob fazilatlari mujassamlashgan. Shirin nafaqat Armanistondagi faoliyati, o’zining samimiyati, vafosi, tadbirkorligi bilan, balki Eronda ham mamlakatni adolat bilan boshqarish borasidagi ibratli sa’y-u harakatlari bilan ham o’quvchi e’tiborini tortadi. Dostondagi Farhod obrazi Shirindagi go’zal fazilatlarini yanada to’laroq namoyon qilishga xizmat qildirilgan. Shirining sut oquvchi ariq va katta hovuz barpo qilish yo’lidagi niyatini Farhod amalga oshirishga kirishadi. Gap shundaki, Xusrav, Shirin, Farhod nomlari bilan bog’liq voqealar asosida Alisher Navoiyga qadar

yaratilgan deyarli barcha asarlarda shu lavha (sut arig'i va hovuzi) saqlanadi. Ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiygina unga ijtimoiy xalqchil mohiyat bag'ishladi. Qutb asari negizida tarjima yotganligi uchun ham u mavjud an'anani buza olmaydi va shu masalaga quyidagi baytlarni bag'ishlaydi:

Ko'rub Shirinning oy yanglig' yuzini,
Munavvar qildi ul yuzdin ko'zini.
Keturmish erdi bora sut birga,
Ol ich yonimga tedi, to'kma yerga.
Olib Shirin elindin sutni Farhod,
Shakartek ichti, Shirin aydi: - Xush bod!
Ayitti - Soqi sansan bu erur xush,
Sut ermaz, og'u bo'lsa qilg'aman no'sh (495-496-b.).

Farhod bu so'zlari bilan Shiringa nisbatan samimiy munosabatini izhor qiladi. Biroq Shirin o'z ahdini buzmaydi. Xusrav esa ancha beqaror bir inson qiyofasida namoyon bo'ladi. U ba'zan ishqqa berilsa, gohida oshiqlikni ham unutib qo'yadi. U ba'zan sadoqatli oshiq, adolatli podsho qiyofasida namoyon bo'lsa, gohida esa Shakarga mahliyo bo'lib qoladi.

Qutb Xorazmiy Nizomiy Ganjaviy dostonini juda ravon bir uslubda, o'zbek tili imkoniyatlaridan keng istifoda etgan holda tarjima qildi. Fikrimizni asarning «Xusrav Hurmuzdan qochib Armanga borurda chashmada Shiringa yo'liqqani» sarlavhasi ostida berilgan quyidagi baytlar dalillaydi:

Ko'rub shoh chashma ichra ul yuzni,
Yuzindin hech ketarmaz bo'ldi ko'zni.
Qaroqlar ko'nglini oning qaroqi,
Yurakin kuydurur nortek yanoqi.
Boqib oning bilur yanglig' taninga,
Bulo'rdin o't yoqildi shoh joninga.
Ul oy g'ofil bu Xusrav boqqanindin,
Bo'lub mashg'ul tarayur erdi sochin.
Kishi kelmasmu teb ko'nglinga tushdi,
Boqib nogah ko'zi Xusravg'a tushdi.
Ko'zin surtib nazar yuzinga soldi,
Ko'rib kuntek yuzin hayron qoldi.
Qatig' boqsa Shirin uyaldi,
Ne qilg'u emdi teb andisha qildi.
Qochib bechora, izlab, chora topti,
Bulut yanglig' sochin oy uzra yopti (380-381-betlar).

Parchada Qutb so’z san’atining katta naqqoshi qiyofasida nazarga tashlanadi. U go’zal manzaralar chizadi. O’z tasviridagi qahramon tashqi qiyofasi ko’rkamligi bilan bog’liq lavhalarni jonli, ta’sirli ifodalash uchun vosita izlaydi. Shariati islomiyaga xilof kelmaydigan yo’llar izlaydi. Shirinning suvda tanho, harir libosda cho’milishi jarayoni unga ma’qul keladi. Yupqa libos ho’l badanga yopishib, uning «sir»ini oshkor qilib qo’yadi. Bunday nafis manzara esa Xusravni ham sabr quyushqonidan chiqaradi. Biroq shariy talablar uni «jilovlab» qo’yadi.

Qutb Xorazmiyning «Xusrav va Shirin» dostoni ikki qardosh xalq: o’zbek va ozarbayjon xalqlarining ildizi olis tarix qatlaridan boshlanadigan iqtisodiy-siyosiy hamda adabiy-madaniy aloqalari zaminida vujudga keldi. Shoir o’zbek adabiyoti tarixida tarjimachilikning rivojiga muhim hissa bo’lib qo’shilgan ushbu dostoni bilan yangi bir an’anaga asos soldi. Muhimi, Qutb Xorazmiyning bu dargohga qo’ygan qutlug’ qadami yagona va oxirgi bo’lmadi. Keyinchalik Nizomiy Ganjaviy forsiy dostonlarini o’zbek kitobxonlariga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Haydar Xorazmiy «Maxzanul-asror» dostonini erkin, ijodiy tarjima qilgan bo’lsa, Ogahiy «Haft paykar» dostonining nasriy bayonda o’zbekchalashtirdi.

Qutb Xorazmiyning «Xusrav va Shirin» dostoni o’zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining noyob durdonasi sifatida ma’naviy xazinamizga qo’shilgan muhim yodgorlikdir.

5.5. Sayfi Saroyi – lirik Shoir. Uning «Suhayl va Guldursun» dostoni.

O’zbek va fors-tojik tillarida asar yozish an’anasining boshlovchilari sifatida Sayfi Saroyining ham tabarruk nomi turadi.[1] XIV asrda yashab faoliyat ko’rsatgan Sayfi Saroyi o’zbek va fors-tojik tillarida yozilgan dilbar asarlar mallifi, o’z davrining iste’dodli tarjimoni sifatida ma’lum va mashhurdir. Bu zullisonayn ijodkor qalamiga mansub asarlardan bir necha javobiya she’rlar, «Suhayl va Guldursun», Shayx Muslihiddin Sa’diy «Guliston»ining o’zbek tiliga qilingan tarjimasi bizgacha yetib kelgandir. Garchi bugungi adabiyotshunoslik Sayfi Saroyi qalamiga taalluqli asarlarning barchasini qo’lga kiritmagan bo’lsa-da, shoir merosidan ma’lum bo’lgan namunalarning o’zi ham uni XIV asr o’zbek dunyoviy adabiyotining iqtidorli vakili sifatida qadrlash imkonini beradi. Sayfi Saroyining o’zbek tilidagi asarlari adabiyotshunoslar tomonidan tahlil etilib, tegishlicha baholangan (Давронов Н.А. Сайфи Саройи (Жизн и творчество) АКД, Т., 1968, Яна. Сайфи Саройи. Ўзбек

[1] Мазкур булим проф. Р.Вохидовнинг «Навоийнинг икки дурдонаси» номли китобидан олинди.

адабиёти тарихи 5 жилдлик, 1-жилд. Т., 1977, 221-235-бетлар. Раҳмонов В. Узбекискоу переводов «Гулистан»а Саади Ширази.АКД. Самарқанд, 1968; Sharopov J. Qutb Xorazmiy va Sayfi Saroyi tarjimalari haqida. «O'zbek tili va adabiyoti», 1965, 2-son,47-53- betlar). Uning fors-tojik tilidagi asarlaridan bizgacha yetib kelgan ayrim namunalar xususida esa yuqoridagi mulohazani aytib bo'lmaydi. Yoxud masalaning bu tomoni negadir Sayfi Saroyi ijodi tadqiqotchilari e'tiboridan soqit qolib kelayotir. Jumladan, biz ta'kid etgan mavzu Sayfi Saroyi hayoti va ijodi haqida maxsus asar yozgan tatar adabiyotshunosi X.Y. Minnegulov tomonidan ham unutib qoldiriladi. Holbuki, tadqiqotchi Sayfi Saroyining fors-tojik tilidagi bisoti ustida ham mulohaza yuritishi lozim edi. Xususan uning qalamiga mansub kitobning shu ijodkor adabiy faoliyatini atroflicha qamrab olishga mo'ljallanganligi ham shuni taqazo etadi (Минижулев Ю.Х. Сейф Сараи. Тормўши ҳим ижади. Казан, 1976). Biroq salmoqli risola muallifi bu haqda hech narsa demaydi. Kezi kelganda Y.X.Minnegulovning ushbu kitobi xususida yana ayrim qaydlarni o'rtaga tashlashga to'g'ri keladi. Bu adabiyotshunos bir necha yillardan beri XIV-XV asrlar adabiyoti bilan qiziqadi, uning vakillari haqida o'z mulohazalarini bayon etib keladi (Минижулев Х.Ю. Сейф Сараи ижати турўнда - «Совет мактаби», Казан, 1971, 11-сон; Яна. Переводы и оргинальние произведения Сайфи Сарайи. АКД. Казан, 1972; Яна. Сейф Сарайининг янги асарлари. «Казан ўтлари», 1972, 6- сон; Яна. Қутб ижати. Казан, 1976). Bunisi quvonchli voqea, albatta. Xususan uning tomonidan Sayfi Saroyining hayoti va adabiy faoliyatiga doir salmoqli ilmiy tadqiqotlar e'lon qilinishi maqtovga molikdir. Muqaddima, xotima va olti bo'limdan tashkil topuvchi ushbu kitobda muallif o'z oldiga Sayfi Saroyi ijodining o'rganilishi tarixi, adabiy merosining hajmi va mundarijasi, ijodkor hamda tarjimon sifatidagi mazmundor faoliyati, murojaat etgan adabiy janrlari, badiiy mahorati muammolari singari xilma-xil mavzularni hal etishday ulkan va mas'uliyatli vazifani qo'yadi. Ilmiy asar o'z muallifining jiddiy izlangani, boy adabiy ma'lumotlar to'plashga bo'lgan urinishi, durustgina ilmiy tadqiqot yuritish ko'nikmasi borligidan dalolat beradi. Kitobning fazilati aytilganlar bilan yakunlanmaydi, albatta. Ayni paytda mazkur risola bir qator nuqsonlardan ham xoli emas. X.Y.Minnegulov qarashlaridagi bahstalab o'rinlar tadqiqotning kirish qismidayoq ko'zga tashlanadi. Negadir, u Sayfi Saroyi haqida o'zbek adabiyotshunosligi, rus sharqshunos olimlari amalga oshirgan ilmiy ishlarni tan olmaydi. Shuning uchun ham u kitobning muqaddimasidayoq tatar o'quvchilariga Sayfi Saroyini «yangi ochilgan yozuvchilardan biri» sifatida taqdim etadi (Minnegulov X. Seyf Sarai. 5-bet).

eng muhimi, Xatip Minnegulov Sayfi Saroyini «turk-tatar adabiy tilining rivojiga ulkan ulush qo’shgan» ijodkor tarzida baholaydi (O’sha kitob, 5-bet). Kitob muallifi ijodkorning o’zbek adabiyoti vakillaridan biri ekanligini umuman inkor etadi. Buni uning «turk-tatar» birikmasiga bergan izohida ham ko’rsa bo’ladi. X.Minnegulov kitobning izohlar qismida ayrim fikrlarga aniqlik kiritishga harakat qiladi. Masalan, u kitobning o’sha bahsida «turk-tatar» birikmasi va uning qo’llanishi ustida mulohaza yuritar ekan, quyidagi xulosalarga keladi. Asrlar davomida turkiy xalqlar tomonidan bunyod etilgan madaniy obidalarga nisbatan (eng qadimgi yozma Yodgorliklar bundan mustasno) aralashiga turkiy xalqlarning mushtarak merosi sifatida qarash va ularni umumlashtiruvchi atama bilan ifodalash yaramaydi. Shuning uchun Idel-Ural, O’rta Osiyo, Kichik Osiyo, Kavkazorti mintaqalarida yaratilgan asarlarga nisbatan «turk-tatar», «turk-o’zbek», «turk-ozarbayjon», «turk- usmonli» kabi muayyan xalqqa mansublik birikmalardan foydalanishni yoqlaydi (O’sha kitob, 7-bet). Umuman olganda, tadqiqotchi tanlagan yo’nalish yomon emas va uning talay fikrlariga qo’shilsa bo’ladi. Darhaqiqat, har bir yurt, turkiy til va adabiyotning mushtarak jihatlari bilan yonma-yon o’zigagina xos bo’lgan rivojlanish yo’li, taraqqiyot qonuniyatlari, obidalari haqida gap ketganda, o’shanday aniqlikka amal qilgan tarzda mushohada yuritish, uni yozuvda aks ettirish ma’quldir. Lekin tarixiy vaziyatning talab va taqozosiga ko’ra, o’rta asrlarda, hatto undan so’nggi davrlarda ham turkiyda so’zlashuvchi qabilalar, hatto forsiy najot aholi bilan aralashdi, kurashdi, o’z taqdirini belgiladi, hamkorlikda madaniy obidalar bunyod etdi. Aniqrog’i, har bir xalq o’z holi qudratiga ko’ra o’sha obidalarga hissasini qo’shdi. O’sha asarlarni baholash paytida bu tarixiy haqiqatdan ko’z yumish va birlikda yaratilgan ma’naviy obidani birgina xalqqa nisbat berish to’g’ri bo’lmaydi. Sharq adabiyotining zabardast tadqiqotchisi Y.E.Bertels xuddi mana shunday bahstalab masala ustida fikr yuritib: «Klassik til deb ataluvchi tilda, ya’ni dariy yoki forsiy tilda yaratilgan ulkan adabiy merosga har qanday holda ham har ikki xalqning haqqi bordir va bu adabiyotni ulardan biriga mansub deb bilishga urinish ikkinchisiga nisbatan adolatsizlik bo’lur edi» (Бертельс У.Э. Избранное трудо. Том I. М., 1961, стрю 241.), - deb yozgan edi. Yetuk olimning bu qaydlari turkiy xalqlar hamda turkiy tillar uchun ham ma’lum darajada xosdir. Bas, shunday ekan, ularni bir-biridan batamom ajratib olib qarash, tarixiy shaxs va asarlarga baho berish mutlaqo xatodir. Xatip Minnegulov masalaga ana shunday bir tomonlama munosabatda bo’lish oqibatida Sayfi Saroyini nuqul tatar adabiyotining arbobi tarzida qaraydi, Shu niyat bilan ish boshlagan tadqiqotchi adabiy dalillarni soxtalashtirish, zo’rma-zo’raki yopishtirish kabi xolisona

ilmiy bahs uchun noloyiq yo'ldan boradi. Uning bir yoqlama fikrlashi Sayfi Saroyining tug'ilgan joyi masalasida, ayniqsa, ochiqroq ko'rinadi. Sayfi Saroyining bizgacha yetib kelgan adabiy merosi tarkibida shunday satrlar ham uchraydi:

Qamishli yurt mani tuvg'on elimdi,
Bilik g'urbatda kelturg'on bilimdi.
Kelib o'ldim Saroyda she'r fidoyi
Saroyning shoiri, elning gadoyi.

Ana shu misralardagi ishoralarga suyangan holda N.Mallayev va boshqa adabiyotshunoslar Sayfi Saroyi Xorazmning shu nom bilan ataladigan qishlog'ida tug'ilagan bo'lsa kerak, degan fikrni o'rtaga tashlaydi (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1976, 255-bet). X. Minnegulov esa shu masala ustida N.Davronov bilan munozaraga kirishadi. Risola muallifi o'z nuqtayi nazarini asoslash niyatida Idel bo'ylari—Donbass va Uralda «bu ism» bilan atalgan qishloqlarning anchagina uchrashini ta'kidlaydi (Minnegulov X. O'sha kitob, 25-bet). Hozirgi Tatariston hududida qadim-qadimdan ko'pgina «Qamishli» nomi bilan yuritiluvchi aholi punktlari bo'lganligini ma'lum qilgan kitob sohibi o'z xulosalarini yakunlashga o'tadi. O'sha hukmga ko'ra, «Sayfi Sarooyi Idel bo'yidagi Qamishlida tug'ilgan» (O'sha kitob, 26-bet). Biroq, tadqiqotchi zikri o'tgan xulosadan oldin «shoir tug'ilgan qishloq tilga olingan joylardan qaysi biri»,- degan haqli savolni o'rtaga tashlab, uni javobsiz qoldiradi. Masalaning Xorazm bilan bog'liq tomoni ham ochiq qoladi. Ilmiy bahs talabi bir fikrni inkor qilish uchun ishonchli va rad qilish qiyin bo'lgan ma'lumotlarga suyanishni taqozo etadi. X.Minnegulovda ular yo'q. Qisqasi, Sayfi Saroyining Oltin O'rda hududida hayot kechirgani, «uning asarlari negizida qipchoq tili yotishi»ni asos qilib olgan X.Minnegulov tarixiy shaxslar faoliyatini baholashda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi (O'sha kitob, 26-bet). Uning ilmiy faoliyatidagi bunday bir yoqlama qarashlar Qutb Xorazmiy haqidagi kitobida ham ko'rinadi. Umuman olganda, so'nggi yillarda tarixiy shaxs va ma'lumotlarga xolisona munosabatda bo'lmaslik, ularni majburiy «o'ziniki» qilishga urinish hollari ahyon-ahyonda ko'zga tashlanib turadi. Bunday g'ayri ilmiy fikrlashning zararli oqibatlarini o'z vaqtida ilg'ab olgan akademik I.M.Mo'minov o'shanday shaxslarga nisbatan o'zining odilona xulosasini o'rtaga tashlagan edi. Ana shu fikrlarning tasdig'i akad. I. Mintsning I. Mo'minov haqidagi xotiralaridan topishimiz mumkin. «I.Mo'minovning,-deb yozadi akad. I.Mints,- otashin baynalminanalchi ekanligi meni hayratga soldi. O'tmishdagi olimlar haqida gap borar ekan, u vazminlik bilan o'sha olimlarning tug'ilgan joyini ta'kidlab o'tardi: «Ba'zilarga hayronman,- derdi

kuyunib,- biror shoir va olimning qaysi millatga mansubligi haqida chunonam shov-shuv ko'tarib, talashib-tortishishadi. Birlari bu - o'zbek olimi desa, yana birlari,- yo'q, bu-tojik, deb talashishadi, uni o'z millati vakili qilishga urinishadi (ta'kid bizniki-R.V). Axir, o'tmish allomalari O'rta Osiyodagi jami xalqlarning ilk durdonalaridan oziqa olgan-ku. Demak, ularning asarlari umumxalq boyligi emasmi» (Mints I. Xotiralardan bir lavha. «Fan va turmush» 1978, 8-son, 24-bet). Qarang, qanday oqilona va adolat bilan o'rtaga tashlangan xulosa. Chindan ham, Sayfi Saroyi va Qutb Xorazmiylar qoldirgan ma'naviy merosdan (o'rinsiz bahslar, zo'rma-zo'raki asoslashlardan xoli holda) tatar xalqining bahramand bo'lishiga kim xalaqit beryabdi? Nega ular qoldirgan merosni mushtarak ma'naviy boylik sifatida qarash va baholash mumkin emas? Fikrimizcha, bahamjihat, birgalikda adabiyotimiznig katta nazariy muammolari ustida o'ylashimiz, ularning mushtarak taraqqiyot qonunlarini, qardosh, tildosh, dindosh xalqlar do'stligining g'oyaviy asoslarini bo'rttirib ko'rsatishga zo'r berishimiz kerak.

Sayfi Saroyi XIV asr o'zbek dunyoviy adabiyoti tarixida eng avvalo, zabardast shoir sifatida qadrlidir. Uning bizgacha yetib kelgan tarqoq nazmiy merosi o'z muallifining yaxshigina salohiyatidan xabar beradi. Sayfi Saroyi o'z zamonasining farzandi. Ammo donishmand va ilg'or qarashlar egasi, dunyo va uning voqealariga aql ko'zi bilan qarashga, uni kuzatish, baholash, munosabat bildirishga qodir kishi edi. Shuning uchun uning adabiy merosi o'ziga zamondosh bo'lgan tab' sohiblari asarlaridan tubdan farq qilmaydi. Balki o'shalarga hamohanglik, yaqinlik kayfiyati ustun turadi. Sayfi Saroyi g'azaliyotining yetakchi mavzusini ishq- muhabbat talqini tashkil qiladi. Shu bosh va an'anaviy mavzuda asarlar yaratish jarayonida u o'zi yashayotgan zamon illatlarini turli ramz va ishoralar Yordamida aks ettirib qoldirishga erishadi. Shuningdek, olijanob insoniy fazilatlarni ulug'lash, dunyo va uning ne'matlaridan bahramand bo'lishga undash, umrni zoye o'tkazmaslik, ilm-fan, kasb-hunar o'rganishga da'vat singari ilg'or g'oyalar targ'ibi ham Sayfi Saroyi ma'naviy merosining mag'zi-mag'ziga singib ketgan. Shoir she'rlarining yetakchi qahramoni—oshiq. U o'z Yorining samimiy shaydosi va hamdamidir. Oshiq uchun dunyoda yagona buyuk mavjudot bor, u ham bo'lsa mahbubadir. Uning nazdi va nazarida biror-bir kishi shu mahbubaga teng kelolmaydi. Mana, o'sha sodiq qahramon - oshiqning bu boradagi xulosasi:

Ul yuzi oykim, jahoniydur,
Bu zamon xo'blarining xonidur.
Yosamin tan, qomati sarvi ravon,
Zulfi jannat bog'ining rayhonidur.

Kirpugining o’qina jonlar nishon,
Qoshi yosining jahon qurbonidur.
Shams aning har kun yoqasindan tug’ar,
Ul sababdin bu jahon nuroniydur.

(Sayfi Saroyi. She’rlar. Guliston. Toshkent -1968. 12-bet. Bundan keyingi tegishli sahifa ko’rsatib beriladi. – R.V., H.E.)

Jahonning fayz-u shukuhi, ko’rki va tarovati ham o’sha oy yuzli, sarvqomat, zulfi rayhon, kiprigi o’q Yor borligi uchun. Aks holda bularning hammasi, ya’ni dunyoning borligi mazmunsizdir. Sayfi Saroyi qalamidan ruh olib, qizg’in harakat qiluvchi oshiqning atrof muhit, uning voqea-hodisalariga nigohi mana shunday. Shu tufayli Sayfi Saroyining nomi tabarruk, asarlari tildan tushmay keladi. Biroq shoir asarlarida harakat qiluvchi kuyunchak qahramon - oshiqning holati, kayfiyati birday ko’tarinki emas. Ba’zan u norozi qiyofada, Yoridan shikoyat qiluvchi kayfiyatda ham namoyon bo’ladi. O’shanday ruhiyatdagi Yor o’z ma’shuqasiga murojaat etadi, uni insofga chaqiradi.

Ayo, ey dilbari manzur, bu ko’rkingga bo’lib mag’rur,
Ko’ngillar qilmag’il ranjur, kechar bu husn davroni.
Bu muddatni g’animat bil, bu fursatda vafolar qil,
Bu izzat birla bo’l ko’p yil, xaloyiqning sevar joni.

(Sayfi Saroyi. 14-bet)

Yor ishvalarini ko’rgan, dunyo va uning nayranglari xususida tasavvuri tobora boyigan oshiqning o’z ma’shuqasiga munosabati voqealar rivoji davomida ancha dadillashadi. Endilikda oshiqning ma’shuqasiga murojaatida nasihat o’rnini ginaxonlik, uni bevafolikda ayblash egallay boshlaydi. Shoir satrlaridagi norozilik ruhiyasining qamrov doirasi ham kengayib, ijtimoiy mohiyat kasb eta boshlaydi. Uning qalamidan chiqqan adabiy parchalarga ijodkor yashagan zamon voqealari nuqtayi nazaridan qaraydigan kitobxon misralardagi zorlanish, shikoyat ohanglari ikki shaxs: oshiq va ma’shuqa o’rtasidagina sodir bo’ladigan voqea bo’lmay, balki minglab, millionlab kishilar oh-u fig’oni ekanligini osonlikcha his etadi.

Odati budur hamisha bu bevafo ma’shuqaning
Kim aning vaslin tilasa, ul firoqinda tutar,
Bu falak javri bekin Sayfi Saroyi bag’rini,
Ul Yuzi oy hajr o’tining ihtiroqinda tutar. (16-b.)

Zamonadan cheksiz jafolar ko’rgan oshiqning o’tli fig’oni, hasratli nafasi tobora balandlashadi. U tengsizlik, haqsizlik, jabr-u zulmning kuchayganidan

iztirobga tushadi, vafo o’rniga jafoning peshvoz chiqqanidan to’lg’anadi, ruhan eziladi.

Tortib zamona xo’blarining javrini mudom,
Ko’rdungmi hech birinda bulardin vafo ko’ngul,
Kuydim sening bila necha kez fursat o’tina,
Yillar chekib sening bila javr-u jafo ko’ngul.
Qozi evi ne yerda, ajab, mufti qaydadur,
Qilg’ay edim sening birlan xush mojaro, ko’ngul. (24-b.)

Fursat, kechayotgan hodisalar, adolatsizlikning avjga chiqishi javobiya-g’azal qahramoni ko’zini ochib, jur’atining kuchayishiga, sabr kosasining limmo-lim to’lishiga olib keladi. Asta- sekin hurkovich, andishali, dadil gapirishdan hayiqadigan oshiq o’rnini jiddiy, rostgo’y, haqiqattalab, g’azabli shaxs egallay boradi. Ana shunday ijobiy g’oyaviy o’sish yo’lining davomi Sayfi Saroyining fors-tojik tilidagi merosida ham ko’rinadi. To’g’ri, shoirning bu tildagi she’rlari chandon ko’p emas. Hozircha ulardan namuna sifatida uchtagina she’riy asar ma’lum. Ehtimol, ular yana bordir. Bulardan qat’iy nazar, mavjud she’rlarning o’zi ham Sayfi Saroyining bu sohada yaxshigina salohiyati, o’tkir qalami, puxta bilimi bo’lganligidan darak beradi. Sayfi Saroyining fors-tojik tilidagi she’rlari ravon o’qiladi. Ularning badiiy bo’yoqdorligi ustida ham faqat yaxshi gaplarni aytish mumkin. Mazkur she’rlarning g’oyaviy yo’nalishi shoirning o’zbek tilidagi asarlariga to’la jo’rovoz bo’lishi bilan ahamiyatlidir. Sayfi Saroyining fors-tojik tilidagi she’rlaridan ham jafokash, fidoyi qahramonning dardli ovozi quloqqa chalinadi. Nochorlik, moddiy tanglikdan iztirobga tushgan bir shaxsning alamdiyda qiyofasi kishi ko’zi o’ngida gavdalanadi.

Ro’zam zi g’ami firoqi tu shabgun ast,
V-az javri zamona in dilam pur xun ast.
Bifrest xayoli xesh imshab barman,
To sho’x damam ki ba tu holam chun ast. (36-b.)

(Mazmuni:

Firoqing g’amidan kunduzim tundir,
Zamona javridan bu dilim to’la xundir.
Yor xayoli etdi bu kecha menga quvonchli,
Onlarim boisi sen, sensiz holim nechundir).

Shoir ruboiylaridan birida hayotdagi iqtisodiy nochorlik mavzusi turli ishoralar orqali aks ettiriladi. Unda safar taraddudini ko’rayotgan nochor-u nokom bir shaxsning yo’l ozuqasi yo’qligidan shikoyati, yurak nidosi, kuchli

alami umumlashtirib beriladi. Shoir o’zga tilda ham ana shu katta ijtimoiy dardni g’oyat mahorat bilan gavdalantirishga, silliq ifodalashga erishadi.

Yo rab, chi kunam zodi safar nest maro,
V-az oqibati xesh xabar nest maro.
Har chand ki, ba dargohi tu shoista nayam,
Miskini tuam, digar kase nest maro. (36-b.)

(Mazmuni:

Yo rab, ne qilay safar ozuqasi yo’q manda,
Taqdirim oqibatidan ham xabar yo’q manda.
Garchi sening dargohing uchun noloyiqman,
Sening miskinigman, o’zga kishi yo’q manda

(Tarjima bizniki).

Mazkur ruboiy satrlarida ifodalangan mazmun kishini fikrlashga, Sayfi Saroyi tarjimayi holi manzaralarini eslashga undaydi. Shoir yurti Xorazmda nochorlik, zulmning kuchayishi uni vatanini tark etishga majbur qilgan. Iqbol, ro’shnolik izlab u Oltin O’rdaga qarab yo’lga chiqqan. Bu tasodifiy hodisa emas edi. Xorazm ma’lum muddat O’zbekxon va uning o’g’illari Tanibekxon, Jonibekxonlar ta’sirida bo’lgan. Sayfi Saroyi esa markazga intilgan. Ko’rinadiki, u safar mashaqqatlarini boshidan kechirgan. Qo’nim topib, o’z salohiyatini namoyish etishga qadar g’aribona turmushga chidagan. Ajab emas, o’sha lahzalar satrlarga ko’chgan bo’lsa. Sayfi Saroyining «Suhayl va Guldursun» asaridagi mana bu misralar ham bizning foydamizga xizmat qiladi.

Temur Urganja tortib keldi lashkar,
Ko’rib ko’z- ko’r, bo’lib qoldi quloq-kar.
Qo’zutti jang bila olamda to’fon,
Oqitti suv tekin yer uzra ko’p qon.

(Uch bulbul gulshani. 326-bet)

Bunday ayanchli ahvolga Sayfi Saroyining befarq qarashi aslo mumkin emas edi. Ayniqsa, To’xtamishxonning fojiali o’limi shoirni iztirobga tushirgan. O’sha mash’um lavhalar keyinchalik «Suhayl va Guldursun» dostoni misralarida muhrlanib qolgan. Shoirning fors-tojik tilidagi boshqa bir to’rtligida ham uning tarjimayi holiga oid lahzalar ko’zga tashlanadi. Sayfi Saroyi umr yo’lidan uning zamon zayli, turmush taqozosi tufayli Qamishli qishlog’idan Saroyga borib qolganligi, «Saroyning shoiri, elning gadoyi» bo’lib yashaganligi ma’lum. Shoir ishoralariga, uning satrlaridagi kayfiyat, ohangga jiddiyroq e’tibor qilib, quloq solinadigan bo’lsa, o’z yurtidan o’zga yurtlarga borishning muallif istak va irodasidan tashqari bir holatda sodir

bo’lganligining guvohi bo’lish mumkin. Mana bu to’rtlikda ham o’shanday norozi qiyofadagi jafokash bir shaxs namoyon bo’ladi.

Yo rab, tu maro rahi saodat binamoy,
Digar madavondor be doru hoy ba hoy.
Yo zoviyai hirsi vuxudam bar band,
Yo qulfi muhimmoti murodam bikushoy.

(Sayfi Saroyi. 36-bet)

(Mazmuni:

Yo, rab, sen menga saodat yo’lini ko’rsatgil,
Yetar, endi meni uyma-uy, joyma-joy choptirma.
Yo vujudim hirslari yo’lini batamom bog’la,
Yo murodim muhimmotlari qulfini ochgil.

Sayfi Saroyi qalamidan chiqqan fors-tojik tilidagi nazmiy bisotining bir necha she’rdangina iborat bo’lishiga aql bovar qilmaydi. Ularning yana anchagina miqdorda borligi shak-shubhadan tamoman xolidir. Xususan, Shayx Muslihiddin Sa’diyday fors-tojik adabiyotining zabardast bir arbobi asarini o’zbek tiliga o’girish uchun jur’at qilish katta tayyorgarlik, jiddiy sinovlardan o’tilgandan so’nggina sodir bo’ladigan hodisa hisoblanadi. Fikrimizcha, Sayfi Saroyi o’shalarni his etgan, shu sharafli vazifani uddalash uchun o’zida tayyorgarlik va yetarli imkoniyat borligini tushungan holda ishga kirishgan. «Guliston» muqaddimasida o’rtaga qo’yilgan masalani oydinlashtirishga ko’maklashuvchi ishoralar mavjud. «Ilk yoz kunlaridan bir kun,- deb yozadi Sayfi Saroyi o’sha muqaddimada,- bo’ston ichinda gullar orasinda bir necha zarif olimlar bilan o’turub, insho ilmindan bahs qilib, abyoti g’arib va ash’ori ajib o’qudum esa ul olimlarning ulusi aruz ilminda bir mushkul baytning taqattu’in savol etti. Filhol javobin eshitib aytti: «Ey adibi g’arib, senga bir muvofiq nasihatim bor. Qabul qilsang, xayr bo’lg’ay». Ayttim: «Buyurung». Aytti: «Shayx Sa’diy «Guliston»ini turkiy tarjima qilsang, bir sohibdavlat er otina, Yodgoring jahonda qolsun deb». (Qarang: Uch bulbul gulshani. Toshkent-1986, 170-bet). Ana shu tariqa yaxshilik Yodgor qoldirish istagi bilan qalam ushlagan Sayfi Saroyi o’z zimmasiga tushgan ishning mas’uliyatini ham his etadi. Masalan, mana bu satrlarda shoirning o’sha holati ifodasini topgan.

Ezgu oti yodi birla ko’p zamon,
Toza bo’lsun bu Gulistoni jinon.
Bu guliston bog’boni ul adib,
Kim Saroyi Sayf erur nazmi g’arib

(O’sha asar. 172-bet)

Albatta, bu misralar sharqona kamtarlik maylidan ham xoli emas. Ya’ni Sayfi Saroyi o’z qobiliyat va imkoniyatlari ustida kamsuqumlik, xoksorlik bilan mushohada yuritadi. Buyuk daho egasi nazdida o’z salohiyatining «g’arib» ko’rinishini odilona tan oladi. Butun asar tarjimasi davomida Sayfi Saroyining jiddiy bir holatda ishlaganligi namoyon bo’ladi. Aslida o’sha jiddiyat, burchini yurakdan his qilish oqibatida «Guliston» tarjimasi ko’ngildagiday chiqqan. Ayniqsa, asardagi parchalarning ohangdor, silliq chiqqanligini zo’r qoniqish bilan qayd etishga to’g’ri keladi. Bularning barchasi jamlanib, Sayfi Saroyining fors-tojik adabiyotiga bo’lgan baland rag’bati, ixlos va e’tiborini ko’rsatadi. Alqissa, zikri o’tgan ma’lumotlar Sayfi Saroyini o’z zamonasining zullisonayn ijodkori, tojig-u o’zbeklar birodarligi qasriga munosib g’isht qo’ya olgan xassos san’atkori sifatida baholash huquqini beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Temur va temuriylar davlatining asoslanishi haqida so’zlang.
2. Temuriylar davrida o’zbek adabiyoti qanday muvaffaqiyatlarga erishdi?
3. Shu davrdagi lirik tur, janrlar taraqqiyoti va adabiy aloqalar haqida gapirib bering.
4. Shu davrda adabiyotshunoslikka doir yaratilgan qanday asarlarni bilasiz?
5. Xorazmiy haqida «Muhabbatnoma»da qanday ma’lumotlar berilgan?
6. «Muhabbatnoma» tarkibida kelgan qanday she’riy janrlarni sanang.
7. Qutb Xorazmiy «Xusrav va Shirin» dostonining Nizomiy Ganjaviyning shu nomdagi dostoni bilan qanday o’xshash va tafovutli jihatlari bor?
8. Sayfi Saroyi asarlarini sanab bering.
9. «Suhayl va Guldursun» dostoni haqida nimalarni bilasiz?

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Mahmud Tarobiy.
Sarbadorlar.
Temur davlati.
Shohrux Mirzo.
Ulug’bek Mirzo.
Abusaid Mirzo.
UmarShayx Mirzo.
Sulton Ahmad Mirzo.

Mahmudxon. Zahiridin Muhammad Bobur. Shayboniyxon. Sayyor mavzular. Noma janri. Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. «Fununul balog'a». Davlatshoh Samarqandiy. «Tazkiratush Shuaro». Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» Abdurahmon Jomiy «Bahoriston» Xorazmiy «Muhabbatnoma» Muhammadxo'jabek. Qutb Xorazmiy «Xusrav va Shirin» Xusrav. Shirin. Shopur. Farhod…

Adabiyotlar

1.Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent:»O'qituvchi» 1994.

2. Ahmadxo'jayev E. Gadoiy (hayoti va ijodiy merosi). «Fan», Toshkent-1978, 110 bet.

3.Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. Toshkent: «O'zbekiston», 1993.

4.Vohidov R. XV asrning ikkinchi Yarmi, XVI asrning boshlarida o'zbek va tojik she'riyati. Toshent, «Fan»,1983, 145 bet.

5. Vohidov R. Navoiyning ikki durdonasi. Toshkent, «Fan»,1992.

6. Vohidov R. Alisher Navoiyning ijod maktabi. Buxoro, 1994.

7.Gadoiy. Devon. G'.G'ulom nomidagi ASN. Toshkent-1973, 148 bet.

8. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent:»O'qituvchi» 1976.

9. Navoiyning nigohi tushgan. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.

10.Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. ИВЛ. Москва, 1963.

11.Sayfi Saroyi. Sper'lar. Guliston. Toshkent: 1968.

12.Sayfi Saroyi. Gulistoni bit turkiy. Suhayl va Guldursun. «Uch bulbul gulshani" kitobida. Toshkent: 1986, 163-330- betlar.

13.Xorazmiy. Muhabbatnoma. Toshkent,1959.

14. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. Toshkent,1977, 186-236-betlar.

15.Qutb Xorazmiy. Xusrav va Shirin. «Uch bulbul gulshani» kitobida. Toshkent,1984, 333-619-betlar.

16.Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent:»O'qituvchi» 1993.

17.Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent:»Fan» 1996.

18.Hayitmetov A. Ulug'bek davrining muhim bir adabiy Yodgorligi haqida «O'zbek tili va adabiyoti», 1995, 1-son, 3-9-betlar.

VI BOB
XV ASRNINGBIRINCHI YARMIDA YASHAB IJOD ETGAN O'ZBEK SHOIRLARI

6.1. Durbekning «Yusuf va Zulayho» dostoni hamda bu haqdagi bahs-u munozaralar

Sharq xalqlari orasida qadimdan mashhur bo'lgan qissalardan biri "Yusuf va Zulayho"dir. Bu sayyor sujet "Tavrot", "Injil" hamda islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karimda ham uchraydi. Sharq adabiyotining buyuk darg'alari Firdavsiy, Saolibiy, Ibn Sino, Kisoiy, Abdurahmon Jomiy kabilar arab va fors tillarida, Qul Ali, Shayyod Hamza, Nosuriddin Rabg'uziy singari ijodkorlar esa Durbekka qadar turkiy tilda yozgan asarlarida mazkur qissaga murojaat etishgan. Bu asarlar orasida Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostoni alohida ahamiyatga molik.

"Yusuf va Zulayho" dostonining muallifi masalasi uzoq yillardan beri munozaraligicha qolmoqda. Ba'zilar bu dostonni Durbek emas, Ulug'bek, Homidiy Balxiy kabi shoirlardan biri ijod qilgani haqida ma'lumot beradilar (O'zbek adabiyoti tarixi, 1-tom, Toshkent, 1977, 278-279-betlar). Adabiyotshunos N.Mallayevning kitobida bu haqda quyidagi mulohazalar bayon etilgan: "Keyingi yillarda ayrim tadqiqot va maqolalarda "Yusuf va Zulayho" hamda uning muallifi haqida munozarali fikr-mulohazalar bayon etildi. Munozara "Yusuf va Zulayho"ning muallifi, uning yozilgan yili kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Mavjud ma'lumotlarning ozligi, doston nusxalarining nisbatan keyinroq ko'chirilgan bo'lishi, ularning kamligi hamda o'zaro qiyosiy tadqiq qilinmaganligi ayrim munozarali masalalarni uzil-kesil hal etishga imkon bermaydi. Binobarin, biz an'ana bo'yicha «Durbek» nomi va «1409» sanasini saqlab qoldik (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 274-bet). Adabiyotshunos B.To'qliyev tomonidan umumta'lim maktablarining 9-sinflari uchun yozilgan «O'zbek adabiyoti» darsligida ham prof. N.Mallayevga fikrdoshlik qilinadi. Biroq xuddi shu sinf o'quvchilariga mo'ljallab nashr etilgan majmuada izoh berilgan holda «Yusuf va Zulayho» dostonining muallifi noma'lum asarlar sirasiga kiritilishi bir oz noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Aslida «Yusuf va Zulayho» dostonining yozilgan yili va muallifi masalasida adabiyotshunoslikda 70-yillardayoq ishonarli fikrlar o'rtaga tashlangan edi. Jumladan, akad. B. Valixo'jayevning tadqiqotlarida ayni masalada ko'p sonli adabiy ma'lumotlar guvohligida jiddiy xulosalar bayon qilingan. Taniqli olim samarqandlik ma'rifatparvar Abduhamid Po'lotiy

shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan «Yusuf va Zuloyho» qo'lyozmasiga tayanib, masalaga oydinlik kiritgan. O'sha qo'lyozmada «Ayladi bu qissani Durbek nazm» satri ham bor ekanki, buni inkor qilishning imkoni yo'qdir (Batafsil ma'lumot uchun qaralsin: Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. Toshkent, «Fan»,1974, 50-54-betlar).

«Yusuf va Zulayho» dostonida va asar muallifi xususida sharqshunos Y.E.Bertels, V.V.Bartol'd, D.T.Voronovskiy, N.M.Mallayev, B.Valixo'jaev, E.Fozilov, F.Sulaymonova kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib bordilar va qimmatli fikrlar bayon etdilar. 1971-yilda Javqon Lapasov «Yusuf va Zulayho» dostoni morfologiyasi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yozdi.

Dostonning ilmiy jamoatchilikka tanish bo'lgan Toshkentda saqlanayotgan 5, Samarqanddagi 2 hamda 1516-yilda (hijriy 922) ko'chirilgan Istambuldagi To'pqopi saroyi kutubxonasida mavjud bo'lgan Hirot nusxasi va 1563-yilda (hijriy 971) ko'chirilgan Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxalari ma'lum. Professor A.Fitrat ilk bor 1929-yilda Samarqandda chop etilgan «O'zbek adabiyoti namunalari» kitobida «Yusuf va Zulayho» dostonidan parchalar e'lon qildi. Shundan so'ng turli darslik va majmualardan asar parchalari o'rin oldi.

Durbekning hayoti bilan bog'liq ba'zi ma'lumotlar «Yusuf va Zulayho» dostonining muqaddimasidagina keltiriladi xolos. Muallif asarning yozilgan yilini abjad hisobiga asoslanib quyidagicha ifodalaydi:

«Zod» edi tarix yana «xe»-yu «dol»,
Muddati hijratdin o'tub moh-u sol.

(Uch bulbul gulshani. 7-bet. Bundan keyin tegishli sahifalar ko'rsatib boriladi – R.V., H.E.).

Abjad hisobiga ko'ra «zod» - 800, «xe» - 8, «dol» esa - 4 ga teng. Ularning yig'indisidan 812-hijriy yil kelib chiqadi. Uni milodiy yilga aylantirsak, 1409-yilga tug'ri keladi. Shoir doston muqaddimasida shu yili «jumla akobir»laru «nabi-yu vali»lar bag'rida sokin, abadiy uyquga ketgan «ummul bilod» – shaharlar onasi bo'lgan Balx qamal qilinganini iztirob bilan yozadi. Yozning sarhil mevalari pishgan paytda shahar ahlining butun noz-ne'matlardan bebahra qolgani Durbekni chuqur iztirobga soladi va u o'sha kayfiyatini satrlarda quyidagicha ifodalab qoldirgan:

Shahr chu do'zax kibi zindon edi,
Tashqari bir ravzayi rizvon edi.
Tashqari erdi bori noz-u naim,
Shahr ichida erdi azobi alim.
Tashqari erdi bari poliz-u bog',

Shahr ichida erdi base dard-u dog’. (7-bet)

Durbek qamal ichra qolgan shahar aholisining ayanchli holatini yuqoridagi parchada kuzatilganligi kabi qarshilantirish san’atidan mahorat bilan foydalanib badiiy ifoda etadi. Doston muallifi tasvirdagi o’sha voqealarning shaxsan guvohi bo’lgan. Asarda alohida ta’kid bilan qayd qilinishicha, qamal uch oy davom etgan:

Ushbu qabol ichra uch oyi tamom,
Yer edilar g’ussa-vu g’am subh-u shom.
Banda alar birla giriftor edim,
Barchasidin voqifi asror edim. (8-bet)

Adib mana shu qamal davrida taqdirdoshlari bilan birgalikda g’am sharobini ichib, goh Alloh kalomi, goh kitob o’qish bilan mashg’ul bo’ladi. Shoirning yozishicha, turkiy til bilan «Yusuf va Zulayho» qissasini nazmda bayon etish uning ko’nglida tug’ilgan shirin niyati edi. Balx qamali davrida Durbek forsiy tilda nasrda bitilgan «Qissasi Yusuf» bilan tanishadi. Biroq shoir bu asar va uning muallifi haqida dostonda hech qanday ma’lumot bermaydi. «Yusuf va Zulayho» haqida yirik hajmli doston yozishga kirishgan shoir, shubhasizki, «Yusuf va Zulayho»ning zukko kitobxonlar orasida keng tarqalgan xalq kitobi nusxalari bilan ham tanish bo’lgan. Shuningdek, shoirning «Goh o’qir edim zi kalomi iloh» misrasi uning Qur’oni karimdagi «Yusuf» surasidan ham ijodiy ta’sirlanganligini dalillaydi.

«Yusuf va Zulayho» - ishq-muhabbat mavzusida yozilgan doston bo’lishi bilan bir qatorda, unda shoirning axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, adolatli hukmdor haqidagi o’y-xayollari hamda islom dinining dunyoviy shuhrat kasb etishi singari muhim ahamiyatga molik mulohazalari badiiy in’ikosini topgan.

Dostonning qisqacha tafsiloti quyidagicha: Mag’ribda nomi keng tarqalgan, doimo zafar yo’ldoshi bo’lgan shoh Taymusning qizi Zulayho tushida Yusufni ko’rib, unga g’oyibona oshiq bo’ladi. Shoir Taymus haqida fikr yuritarkan, «Kofir edi ul, vale odil o’zi, Bo’lmas edi ikki oning bir so’zi», - deya ta’riflaydi. Ushbu misralarning o’zidanoq dostonda muqaddas islom dini targ’ib qilinishi anglashiladi. Zulayho tushida Yusuf bilan «suhbatlashadi». Yusuf o’zini mahbubaga quyidagicha «tanishtiradi»:

Dedikim: - «Yusufdur otim, gul uzor,
Men eruram Misr elida shahriyor. (34-bet)

Zulayho uyg’ongach, o’zini yangi bir olamga kirib qolgandek his etadi. U ishqning asirasiga aylanadi. Zulayho butun umri davomida o’sha tush

taassuroti bilan yashaydi. Shoir Zulayhoning Yusuf ishqida o'rtanishlarini juda ehtiros bilan badiiylashtiradi:

Erdi aning og'zida Yusuf oti,
O'rtadi boshdin - oyog'i ishq o'ti. (35-bet)

Mag'rib shohi Taymus olti oylik yo'l bo'lgan Misr eliga xat yozib, elchi yuboradi. Zulayhoning kelajagi, baxti haqida qayg'urgan ota-ona uni Misrga kuzatib qo'yishadi. Zulayho Misrda katta tantana bilan kutib olinadi. Biroq u Misr Aziziga turmushga chiqadi va taqdiriga tan berishga majbur bo'ladi. Chunki u bilan kelgan enagasi qizdan ota-ona nomusini muhofaza qilishini qattiq talab qiladi. Iztiroblar alangasida qolgan Zulayhoning Yusufga bo'lgan muhabbati yanada haroratlana boradi. Sabr-toqat, chidam uning hamrohiga aylanadi. Biroq qiz muhabbatining tobora yolqinlanib borayotganiga ba'zan bardosh berolmay qolganligi ham dostonda badiiy ifodasini topgan. Bunday holat uning Yusuf bilan Uchrashuvlarida namoyon bo'ladi.

Taqdir taqozosi bilan Yusuf ham Misrga kelib qoladi. Uning go'zalligi va donoligiga hasad va g'ayrlik bilan qaragan, otalari Ya'qub taxtining merosxo'ri Yusuf bo'lishidan xavfsiragan og'a-inilari uni yo'qotish payiga tushadilar. Ular Yusuf uchun choh qazishga tushadilar va qarib qolgan otalari Ya'qub hamda uning sevikli farzandi boshiga og'ir musibatlarni soladilar. Yahudo boshliq Yusufning akalari Ya'qubdan hiyla bilan o'z ukalarini olib ketib, «bo'ri edi» bahonasi bilan uni chohga tashlaydilar. Munofiqlik shu darajaga borib yetadiki, og'a-inilardan biri uni pichoqlashga kirishadi. Shoir dostonda bu hodisani quyidagi misralarda tasvirlaydi:

Bir og'asi qo'pti, sug'urdi pichoq,
Keldi oning ko'ksina qo'ydi ayoq.

Chohda yotgan Yusufning joniga Moliki Tojir karvonining kelib qolishi oro kiradi. Yahudo boshliq og'a-inilar husnda, aql-farosatda yakto bo'lgan, otasining xizmatini sadoqat bilan o'taydigan Yusufni Moliki Tojirga sotadilar va munofiqlik ustiga yana munofiqlik qiladilar:

Dedilar: - e, xojai nek e'tiqod,
Bandamiz erur, o'zidur xonazod.
Uch kecha-kunduz qochib erdi tamom,
Qilg'on ekandur bu choh ichra maqom.
Emdiki, toptuq qiloli oni band,
Turfa gurezanda qul erur lavand.
Bizga kerakmasdur oning hech ishi,
Borcha sotarmiz agar olsa kishi.
Iliki egri, o'zi qochqoq erur,

Borcha yomonlik ichida toq erur (24-25-bet).

Ko’rinadiki, mol-mulk, mansab ilinjida og’a-inilarning bu qadar tubanlik botqog’iga sho’ng’ishi dostonda qattiq qoralanadi. Yusuf qullik azobiga giriftor qilinadi. Ya’qub esa ko’rar ko’zlaridan judo bo’ladi. Shu tariqa, Moliki Tojir Yusufni Misr Aziziga uning bo’yidan ham baland keladigan «yoqut ila dur-u guhar» evaziga sotadi. Misrdagi ko’shk ustida Yusufni ilk bor o’z ko’zlari bilan ko’rgan Zulayho ishq alangasi ichida o’rtanadi. U bu alanganing yuksak haroratiga bardosh berolmaydi. Biroq enagasining pandu nasihatlari, sabrga undovchi o’gitlariga tan berishdan o’zga chora topa olmaydi.

Enagasi dedi: «Hali ayla sabr,
Qilmag’il o’zunga, ayo moh, jabr (88-bet).

Dostonda sevishganlarning ehtiroslarini jilovlash borasidagi irodalarining sinovdan o’tishi yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Bu borada Zulayhodagi ishq mayidan ko’proq sarxush bo’lishga moyillik bilan Yusufdagi sabr-matonatning to’qnash kelishi asardagi ziddiyatlarning eng yuksak cho’qqisi bo’lib xizmat qiladi. Misr Azizi Yusufni sotib olarkan, jufti haloliga uni qul sifatida emas, balki farzandi deb bilishini o’tinadi. Bu esa Yusufning zimmasiga yanada mas’uliyat yuklaydi. Misr Azizi Yusufni Zulayho xizmatiga yuboradi. Shunday qilib, sevishganlar bir-birlari bilan yaqindan uchrashadilar. Biroq bu Uchrashuvlar Yusufning jiddiy qarshiliklari bilan kutilgan visol onlarini uzoqlashtiradi. Shoir Yusufning atayin Zulayhoning ko’ngil istaklariga qarshi borishi manzaralarini o’quvchi ko’z o’ngida yaqqol gavdalantirib beradi:

Dediki Yusuf: - «Holo xush siyom,
Men edim ozod, bo’libmen g’ulom.
Men edim o’z mamlakatimda amir,
Munda bukun xor erurmen, haqir.
Meni falak qildi otamdin judo,
Shoh edim, emdi bo’libmen gado.
Ko’rsa tushinda chu Zulayho mani,
Men dag’i tushumda ko’ribman ani (144-bet).

Yuqoridagi iqtibos dostonda Yusufning Zulayho enagasiga aytgan so’zlaridir. Bundan Yusufning ham sadoqatli oshiq ekanligi yaqqol sezilib turadi. Enaga uning so’zlarini Zulayhoga yetkazadi va qizni ortiqcha fig’on qilmasdan tangriga shukr qilishga chaqiradi:

Yusuf erur xizmatingga subh-u shom,
Sabr bila yetgasen oxir bakom,
Sabr bila tengri berur komi dil,

Sabr qil-u, sabr qil-u, sabr qil (45-bet).

Enaga tilidan aytilgan bu so’zlar dostonda ilgari surilgan yetakchi g’oyalardan biridir. Ayni choqda qamal ichida qolgan Balx shahri aholisini ham shoir turli ishoralar yordamida sabr-u bardoshli bo’lishga chaqiradi. Muhabbat iztiroblari Zulayho bardoshidan ustun keladi. Uni enagasi qanchalik sabr qilishga undamasin, baribir Zulayho faqat visolga intiladi. Yusufni xilvatga chorlab, unga ko’ngil istaklarini bayon etadi. Biroq Yusufning gunohga botgisi, zinoga yo’l qo’ygisi kelmaydi. Zulayho tuhmat va malomat qilib uni zindonga soldiradi. Ammo keyinchalik u bu qilgan ishlaridan juda pushaymon ham bo’ladi. Iloj topib Yusufning ovozini eshitishga, banddan ozod bo’lgan Yusufning uzoqdan bo’lsa ham jamolini ko’rish bilan taskin topishga harakat qiladi.

Shoir mamlakat obodonchiligi, el-yurt farovonligini davlat boshliqlarining adolatli siyosat yurgizishlari hamda tadbirkorliklarida deb biladi. Dostonda Misr shohi Rayyon ana shunday kishilardan biri sifatida tasvirlanadi. Rayyon davlat ishlarini boshqarish uchun o’zidan ko’ra tadbirliroq va donishmandroq bo’lgan Yusufni Misr taxtiga ko’taradi. Yusuf zindondagilarni ozod qiladi va uning qat’iy buyruqlari hamda ko’rsatmalari bilan Misr xalqi dehqonchilikda misli ko’rilmagan natijalarni qo’lga kiritadi. Olti yil davomida ocharchilik azobini boshidan kechirgan xalq farovon hayotga tashna edi. Yusuf xalqning ana shunday ezgu istagining amalga oshishida katta xizmatlar ko’rsatadi. Dostonda ikki sevishgan qalb sohiblari Yusuf va Zulayhoning Misrda o’tkazilgan to’ylari tafsilotlari ham bag’oyat mahorat bilan tasvir etilgan. Shoir bu tantanadan xalqning behad xursandchiligini zo’r ehtiros bilan ko’rsatishga erishadi. Shu bilan birga ikki sevishgan qalbning yangidan hayot boshlashi lavhalari tasviri ham ancha jonli chiqqan.

Asarda chinakam muhabbat tarannum etilib, turli yovuzliklar natijasida aziyat chekkan barcha kishilar hayotning zavqli onlaridan bahramand bo’lishdek baxtga qayta musharraf bo’lishlari mahorat bilan badiiy ifodasini topgan. Og’a-inilar qilgan yovuz ishlaridan pushaymon bo’lishadi. Shoir chinakam adolat tantanasini dostondagi Bashir obrazi sarguzashtlari asosida ifoda etadi.

Bashir Molik Tojirning qullaridan biridir. Yusufning onasi vafot etganda, Ya’qub Bashirning onasini sotib oladi va Yusuf shu enagasini emib katta bo’ladi. Ya’qub ona-bolani bir-biridan judo qilish uchun Bashirni qul sifatida sotib yuboradi. Farzandi dog’ida kuygan mushtipar onaning ikki ko’zi olamni ko’rishdek baxtdan mahrum bo’ladi. U doimo Kan’on darvozasi oldida

o’g’lining yo’liga termulib o’tiradi. Ya’qubning ham boshiga taqdir shunday musibatlarni soladi. Yusufning zindondan Bashirni ozod qilishi va echki qoniga belangan kuylagini unga berib yuborishi, barcha musibatlarga xotima yasaydi. Bashir avval onasini izlab topadi. Visol shodligidan onaning ko’zlari ravshanlashadi. Keyin Bashir Yusufning kuylagini Ya’qubga eltib beradi. Ya’qub bu kuylakni ko’zlariga surtadi va uning ko’zlari ham munavvar bo’ladi.

Dostonda asarning xalq og’zaki ijodi nusxalarida bo’lgani kabi qahramonlik ham ulug’lanadi. Yusufning katta o’g’li Meshomning maydonga kirib bir hamla bilan Yahudo bilan Sham’unni chetga olib otishi va qolgan sakkiz og’a maydonga chiqishga jur’at etolmaganliklarida folklorning ta’siri kuchli ekanligi sezilib turadi.

«Yusuf va Zulayho» dostonining qurilishi, voqealar rivoji murakkab bo’lgan asardir. Unda juda ko’p voqealar va obrazlar mavjud bo’lib, ular asosan Yusuf sarguzashtlari atrofida birlashgan hamda dostondagi asosiy qahramonlarning qator fazilatlarini ochishga xizmat qilgan. Aruzning sari’ bahrida (muftailun, muftailun, foilun) bitilgan bu asar ravon uslubda yozilganligi hamda badiiy tasviriy vositalarga boyligi, shuningdek, o’zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy jihatdan ancha mukammal ijod etilgan dostonlardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir. Bulardan tashqari, mazkur asar Durbekdan keyin shu mavzuda ijod qilgan o’zbek va boshqa qardosh xalqlar soirlari uchun ham ilhom manbai bo’lib xizmat qildi.

6.2. Haydar Xorazmiy va uning «Maxzanul-asror» dostoni badiiyati

Haydar Xorazmiy XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida yashab ijod qilgan iste’dodli so’z san’atkoridir. Shoir haqidagi ba’zi ma’lumotlar Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkiratush-shuaro», Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois», «Muhokamatul-lug’atayn» kabi asarlarida uchraydi. Ularda shoirning noyob iste’dod sohibi ekanligi qayd etilib, turkiy va forsiy tillarda yaxshi she’rlar bitganligi, Amir Temur nabiralaridan Iskandar Sheroziyga bag’ishlab Nizomiy Ganjaviyning «Maxzanul- asror» («Sirlar xazinasi») dostoniga javoban turkiy tilda go’zal, ijodiy doston yozganligi e’tirof etiladi.

Haydar Xorazmiyning turkigo’y shoirligi va uning xorazmlik ekanligi Alisher Navoiyning «Muhokamatul-lug’atayn» asarida e’tirof etilgan. Salohiyatli shoir o’z masnaviysini turkiy tilda yozishini quyidagicha izohlaydi:

Turk zuhuridin ochunda bu kun,

Boshla ulug’ yir bila turkona un.
Turk surudini tuzuk birla tuz,
Yaxshi ayolg’u bila ko’kla qo’buz!
Men bitigan xat bila yo’ng’il qalam,
Men yurug’on yo’l bila ko’yg’il qadam.

(Muborak maktublar. Toshkent-1987, 221-bet. Ushbu majmuada asarning nomi “Gulshanul-asror” tarzida berilgan. R.V., H.E.).

Adabiyotshunos N.Mallayev «Maxzanul asror» Haydar Xorazmiy adabiy merosidan bizgacha yetib kelgan yagona asar ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, olim oliy maktab uchun yozilgan darsligida shoirning hayoti haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: «Haydar asli Xorazmdandir. Uning Haydar Xorazmiy deb atalishi ham shu boisdan. U qachonlardir Fors viloyatiga kelgan. Birmuncha vaqt, Navoiy va Davlatshoh ta’kidlaganlaridek, Sulton Iskandar huzurida bo’lgan. Sulton Iskandar birmuncha ma’rifatparvar amirzodalardan bo’lgan, o’z atrofiga ilm, san’at, adabiyot ahllarini to’plagan, o’zi ham she’riyat bilan shug’ullangan. Haydar Xorazmiy farazan 1409-1414-yillar orasida «Maxzanul-asror» dostonini yaratgan» (Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi, Toshkent, 1976, 288-bet). Keyingi yillarda Mavlono Lutfiy asari sifatida qayd etib kelingan «Gul va Navro’z» dostoni ham Haydar Xorazmiyga nisbat berilayotir. «Fununul-balog’a» hamda Bobur Mirzo «Aruz risolasi»dagi e’timodli qaydlar shunday xulosani yanada quvvatlantirishga xizmat qiladi.

«Maxzanul-asror»ning London, Parij, Vena, Qozon va boshqa joylarda saqlanayotgan qo’lyozma nusxalari fan olamiga ma’lum. Doston yuzasidan Y.E.Bertels, H.Zarifov, A.Abdug’afurov, B.Valixo’jaev, E.Rustamov, J.SHaripov, A.Hayitmetov singari bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borishdi. N.Abdullayev asarning qiyosiy matnini vujudga keltirdi va 1974-yilda Nizomiy Ganjaviy dostoni bilan chog’ishtirish asosida nomzodlik dissertatsiyasini yozdi.

Sharq xalqlari adabiyotida ulug’ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»siga yoki uning ayrim dostonlariga javob aytish adabiy an’ana sifatida shakllandi. Bu ish shoirdan katta iste’dod, teran tafakkurni talab etardi. Qutb Xorazmiyning «Xusrav va Shirin» dostoni mana shu an’ananing samarasi o’laroq vujudga kelgan bo’lsa, ajab emas. Haydar Xorazmiy o’zining «Maxzanul-asror» dostoni bilan ushbu adabiy an’ana ravnaqiga muhim hissa qo’shdi.

Nizomiy Ganjaviyning «Maxzanul-asror» dostoni falsafiy-ta’limiy asardir. Dostonning asliyati 59 bobdan tarkib topgan. Masnaviyning dastlabki

18 fasli an’anaviy muqaddimaviy boblar sanaladi. Asarning asosiy qismi 20 maqolat va 20 hikoyatdan iborat bo’lib, mazmundor xotima bilan nihoyasiga etadi. Shayx Nizomiy dostonining kirish qismi Tavhid va Munojot, Muhammad alayhis-salomning ta’rifi, payg’ambarning me’roji, birinchi, ikkinchi, uchinchi, to’rtinchi ta’rif, Dovud o’g’li Malik Faxriddin Bahrom shohning ta’rifi, Bahrom shohga xitob va ta’zim, bu kitobning tartibi, so’z madhi, nazmning nasrdan yuksakligi, ko’ngil, uning ko’ngil parvarishi haqida birinchi xilvat, birinchi xilvatning samarasi, ikkinchi xilvat, ikkinchi xilvatning samarasi singari bo’limlardan tarkib topadi.

Dostondagi maqolatlarda shoir o’zining muayyan ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy-ta’limiy qarashlarini ixcham, o’ta purma’no baytlarda ifoda etadi. Ularda ilgari surilgan g’oyalarni esa hikoyatlar asosida oydinlashtiradi. Maqolatlarda shoir adolat, mamlakatni boshqarish va xalqqa munosabat, zolim podshohlardan shikoyat, mehnat va uning foydasi, kishilarga yaxshilik qilish va qiyinchiliklardan qo’rqmaslik, rashk va hasadning zarari, saxovatning foydasi, baxillikning yomon oqibati haqida muhim mulohazalarini bayon etgan.

Haydar Xorazmiyning «Maxzanul-asror» dostoni tuzilishi hamda janr xususiyatlariga ko’ra, Nizomiy Ganjaviy masnaviysiga yaqin turadi. Har ikkala doston ham falsafiy-ta’limiy mohiyat kasb etib, aruzning sari’ bahrida (sari’i musaddasi matvii makshuf, muftailun, muftailun faulun) yozilgan. Haydar Xorazmiyning dostoni Nizomiy Ganjaviy dostoniga nisbatan hajman ancha kichik. Haydar Xorazmiyning dostoni 639 baytdan iborat bo’lib, 23 bobdan tarkib topgan. Asarning dastlabki 7 fasli an’anaviy muqaddimaviy boblardir. Mazkur boblar Alloh hamdi, payg’ambar na’ti, xalifalar ta’rifi, Sulton Iskandar madhi, musannifning vasfil-holi kabi masalalarga bag’ishlangan. Dostonning asosiy qismi 16 bobni o’z ichiga oladi. Ularda mav’iza (o’git - nasihat), maqolat va hikoyatlar mavjud. Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviydan farqli o’laroq, dostonda avval hikoyat, undan so’ng shu hikoyatdan kelib chiqadigan xulosa va fikrlarni umumlashtiruvchi bob (maqolat) keltiradi. Maqolatlar va hikoyatlarning mavzu doirasi ancha keng bo’lib, ularning ba’zilari Nizomiy Ganjaviy maqolat va hikoyatlariga ancha yaqin tursa, ba’zilari tamomila yangidir.

Haydar Xorazmiy dostonidagi «Musannifning vasfil-holi» bobida o’zining bir kecha g’am bilan hamnafas bo’lganligi hamda ichki iztiroblarini bayon etib, Nizomiy Ganjaviyning «Maxzanul-asror» dostoniga yuksak baho beradi. Undagi tashbehlar va teran fikrlarning sodda uslubdagi bayoni shoirning nozik did va so’z san’atining o’ziga xos jozibasidan mahorat bilan foydalana oladigan ijodkor ekanligidan dalolat beradi:

Aql dengiz erdi-yu andesha kon,
O’rtasida gavhari ma’ni nihon.
Jon tishi birla qazib ul konni,
Qildim o’zum g’avs bu ummonni.
Ul kishi qo’yg’ay chu Nizomiy bu ganj,
Qozg’ona olg’ay guhari dasti ranj.
Yo’q esa har muflisi bedastgoh,
Hech topa bilgaymu bu maxzanga roh (206-207-betlar).

Aqlni dengizga tashbeh qilgan shoir shu dengizda yashiringan ma’ni gavharlarini ummonda g’ovvos singari suzib, jon tishlari bilan qaziganligini g’oyatda go’zal tasvirlaydi. Bu - «gavhari ma’ni», shubhasiz, Nizomiy Ganjaviy dostonidir. Shu bois shoir Nizomiy kashf etgan bu ganjga musharraf bo’lish uchun katta mehnat talab qilinishini bayon etadi. Iqtibosdagi «Hech topa bilg’aymu bu maxzanga roh»- misrasida shoir iyhom san’atidan mahorat bilan foydalangan. Haydar Xorazmiy «maxzan» so’zini dastlab xazina ma’nosida qo’llagan bo’lsa, ikkinchidan, «Maxzanul- asror» dostonini nazarda tutgan. Shuningdek, shoir Nizomiy Ganjaviy dostonidan ilhom olgani, undan adabiy ta’sirlanganini quyidagicha e’tirof etadi:

Menki pishurdim bu laziz oshni,
Shayx Nizomiydan olib choshni.
Shayx Nizomiy damidin jon topib,
Ma’nisidin yarliq-u burxon topib (222-bet).

Haydar Xorazmiy o’zbek mumtoz adabiyotida she’riy hikoya yaratish ana’anasining ravnaq topishida katta hissa qo’shdi. «Maxzanul-asror» dostonidagi hikoyalar axloqiy-ta’limiy mohiyat kasb etadi. Muallif ularda biror kichik hayotiy voqeani hikoya qilish orqali kitobxonga pand-nasihat qiladi, ularga o’git beradi, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy masalalarga doir xulosalarini ilgari suradi. Aytilganlar nuqtayi nazaridan 43 baytdan tarkib topgan «Bo’z tuquvchi kampir va bazzoz hikoyati» alohida ahamiyatga ega. Mazkur hikoyat Kufa shahridagi g’ayb ilmidan xabardor bir darveshning bozorga kelib qolishi tasviri bilan boshlanadi. U o’z ishini ipidan ignasigacha pishiq biladigan bazzozning faoliyatini kuzatib turadi. Savdogar (bazzoz) oldiga bir keksa kampir ikki hafta tinimsiz mehnat qilib, to’qigan bir kuylaklik bo’zini olib keladi. Bu beva ayol o’zining ojiz va bechorahol ekanligi, bir to’da bolalari uning yo’liga intizor bo’lib turganini aytib, bazzozdan tegishli haqini to’lashini iltimos qiladi. Bazzoz kampirning bo’zidan illat qidirishga tushadi. Uni qo’pol, dag’al, kiyimga yaroqsiz ekanligini vaj qilib, arzimagan pulga sotib oladi. Bu ham yetmagandek bazzoz bo’zni o’lchashda ham beva kampir

haqidan urib qoladi. Kampir ketgach, bir xaridor bazzozning oldiga yaxshi bo’z so’rab kiradi. Bazzoz qaysi bo’zni ko’rsatmasin, xaridor undan qoniqmaydi. So’ngra bazzoz o’sha kampir to’qib kelgan bo’zni maqtay-maqtay xaridorga juda qimmat narxda sotadi. Bu holni kuzatib turgan hakparast darvesh bazzozni qattiq uyaltiradi.

Haydar Xorazmiy mazkur hikoyatda keksa kampirning bazzoz oldiga kirib kelishini g’oyatda ta’sirchan badiiy ifodalaydi. Baytlardagi o’ziga xos sifatlashlar o’quvchi ko’z oldida kampirning ayanchli ahvolini yanada yorqinroq gavdalantirishga xizmat qiladi:

Toki o’shul hol ichida bir ojuz,
Bo’yi ikki qat bo’lib orqasi kuz.
Bo’yi boshi ra’sha bila beqaror,
Dam urushi, yo’l yurishi murdavor.
Ne ko’zida nur-u, ne og’zida so’z,
Dunyosidin qo’ynida bir vusla bo’z (221-bet).

Hikoyatdagi darvesh chol haq yo’lida, komillik yo’lida umrini bag’ishlagan so’fiylar timsolidir. Shoir bazzozning nomaqbul xatti-harakatini fosh etish uchun o’quvchi e’tiborini uning sandig’i, undagi matolarga qaratadi va ayni vosita orqali ifodalamoqchi bo’lgan maqsad-muddaosini badiiy tasvirlash uchun istifoda etadi. Bunda darveshning bazzozga aytgan nafratli so’zlarini hikoyada bayon etish Haydar Xorazmiyga qo’l keladi. Shoirning asarda ilgari surgan g’oyasi haqparast darveshning nutqida yanada oydinlashadi:

Dedi: - Bu sanduq ichiga, ey falon,
Bergil ijozat, kirayin bir zamon.
Kim tilasang sa’y ila sarbasar,
Topmag’aysen dunyoda mendin asar.
Zohir-u botin ila oshufta men,
Mo’min egach, kofiri nuhufta men.
Muncha savome’gaki qildim guzar,
Sa’y ila tobmadi naqdim iyor.
Har necha kezdim bu ulug’ dunyoni,
Qutbi mukammal seni ko’rdum, seni.
Bo’zkim, erdi momug’i xud besafo,
Ipligi betob-u o’zi bo’riyo.
Senikim anga bir nafas etding nazar,
Bo’ldi katondin dog’i ham mo’tabar.
Kim momig’i bila teng o’ldi yipak,

Suftalig’-u ravshan-u hamvortak.
Lol bo’lib xojoi oshufta dil,
Qoldi xijolat evinda munfail.
Jazb qilib topti muammo kushoy,
Urdi nekim hosilini pushti poy (226-bet).

Haqparast darveshning bu adolatli va kinoya bilan yo’g’rilgan so’zlari bazzozni qattiq uyaltiradi va uning butun mol-mulkidan voz kechib, haq yo’liga kirishiga sababchi bo’ladi. Shoir bazzozning qilgan nojo’ya sa’y-u harakatlarini darvesh tilidan qattiq hajv ostiga oladi. Ammo bu tanqid keskin emas. Balki sokin holatda, donishmand, komillik yo’lini ixtiyor qilgan darvesh chol tilidan ifoda etilganki, bu ham hikoyatning badiiy pishiq, g’oyaviy ta’sirchan irfoniy axloq talablariga muvofiq chiqishini ta’min etgan. Hikoyatning, shubhasiz, tasavvuf ta’limoti ta’sirida yozilganligi undagi atamalar va majoziylikdan ochiq ko’rinib turibdi. Hikoyatdan keyin undagi axloqiy-ta’limiy, ilohiy-irfoniy ruhni quvvatlantirish uchun keltirilgan mav’iza va maqolatda ham xuddi shunday mazmundagi baytlarning mavjudligi fikrimizning yorqin dalilidir. Jumladan, mav’izada boydan karamli va saxovatli faqirning ustun ekanligini ta’kidlash uchun xizmat qiluvchi quyidagi baytni uchratish mumkin:

Boy daguldir dirami bor esa,
Faqr g’aniydir karami bor ersa (229-bet).

(Matnda mazmunga qusur yetkazadigan xatolar borligi uchun so’zlar ayrim isloh bilan keltirildi. R.V., H.E.).

Shoir dostondagi «Hotami Toyi» hikoyatida ham saxovatni ulug’laydi. Shuningdek, mav’izadagi baytlarda insonni komillikka erishuvi uchun eng xavfli dushmani bo’lgan nafs bilan doimo murosasiz bo’lishga chorlanishi ahamiyatlidir:

Yarim oyoq oshki toparsen nasib,
Yarimini berki, esun bir g’arib.
Me’da tamug’ikim erur dushmaning,
Qonmag’usidir agar ichsa qoning (230-bet).

Haydar Xorazmiy «Maxzanul-asror»da badiiy ifoda etgan fikr-mulohazalar, asarda ilgari surilgan g’oyalari bilan o’z zamonasining katta bilimdoni, o’zbek tili ravnaqi uchun kurashgan shoir, arab, fors-tojik tillarini chuqur o’rgangan, yetuk ma’rifatli kishi sifatida namoyon bo’ladi. Uning mazkur masnaviysi Alisher Navoiyga qadar yaratilgan doston janrining o’zbek mumtoz adabiyotidagi noyob namunalaridan biridir.

6.3. Atoiy she’riyati mundarijasi, janrlari va badiiyati

Atoyi XV asrning birinchi yarmida o’zbek mumtoz adabiyotida o’ziga xos mavqega ega bo’lgan iste’dodli shoirlardan biridir. Alisher Navoiy «Majolisun-nafois» tazkirasida shoir haqida quyidagilarni yozadi: «Mavlono Atoyi Balxda bo’lur edi. Ismoil ota farzandlaridindur, darveshvash va xushxulq, munbasit (shod-xursand - R.V., H.E) kishi erdi. O’z zamonasida she’ri atrok (turkiy tilda so’zlashuvchilar - R.V., H.E.) orasida shuhrat tutti. Bu matla’ aningdurkim:

Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o’lturur,
G’oyati nozukligindin suv bila yutsa bo’lur

Qofiyasida aybg’inosi bor. Ammo mavlono ko’p turkona (sodda, ravon-R.V., H.E) aytur erdi. Qofiya ehtiyojiga muqayyad ermas erdi. Qabri Balx navohisidadur» (MAT. 13-jild, 63-bet). Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da Ismoil ota Ahmad Yassaviyning Ibrohim ota ismli inisining o’g’li ekanligini qayd etadi. Shuningdek, uning o’n sakkiz nafar farzand ko’rganligini aytadi. (Mat.17-jild, 420-bet). Ayrim manbalarda shoirning taxallusi Otoyi tarzida qayd etilib, buning sababi shoir Yassaviy tariqatini elga yoyuvchi so’fiylardan, ya’ni Mansur ota, Zangi ota, Sulaymon ota, Hakim ota, Anbar ota, Ibrohim ota kabi mutasavvif otalar (atolar) oilasidan va guruhidan chiqqanligi deb ko’rsatiladi (O’zbek adabiyoti. To’rt tomlik, I tom, Toshkent, 1959, 251-bet).

50-yillarning oxirlarida respublika davriy matbuotida ayni masalada qizg’in bahs-u munozaralar bo’lib o’tdi. Unda akademik Shoir G’.G’ulom, dotsent M.Mirzayev va Respublikada xizmat ko’rsatgan kutubxonachi H.Akobirovalar ishtirok etishgan (qarang: G’.G’ulom. Adabiy tanqidiy maqolalar. 2 jildlik, 1-jild. Toshkent: «Fan», 1971, 80-84-betlar). Adabiy-ilmiy jamoatchilik esa shoir taxallusini «Otoyi» tarzida emas, balki «Atoyi» shaklini qabul qildi. Bugun hamma nashrlarda shoir adabiy taxallusi «Atoyi» shaklida qo’llanmoqda. Atoyi iste’dodli shoir sifatida Ulug’bek Mirzoning o’z saroyi atrofiga tortgan olim va shoirlari qatoridan ham o’rin olgan (O’zbek adabiyoti tarixi, I tom, Toshkent, 1977, 296-297-betlar).

Shunday qilib, Atoyi shoirning taxallusi bo’lib, uning to’liq ismi, tug’ilgan va vafot etgan yillari ma’lum emas. Shoirning 260 ta g’azalini o’z ichiga olgan yagona devoni bizgacha yetib kelgan. Mazkur qo’lyozma XVI asrda ko’chirilgan bo’lib, Rusiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo’limida saqlanadi. Atoyi she’riyati

A.N.Samoylovich, E.Rustamov va yana bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Atoyi sharq xalqlari badiiy ijodi bilan yaqindan tanish bo'lgan. Uning g'azallarida Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Vomiq, Uzro, Yusuf, Zulayho, Masih, Ya'qub singari adabiy, ilohiy, tarixiy nomlarning badiiy timsol sifatida qo'llanilishi fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, shoirning «Qissasin» radifli g'azali ham uning Sharq xalqlari she'riyatining bilimdoni ekanligini tasdiqlaydi. Chunonchi, g'azalda o'qiymiz:

Sen buti Chin ishqida holimni g'ayb etgan kishi,
«Mantiqut-tayr» ichra ko'rsun Shayxi San'on qissasin.

(Atoyi. G'azallar. Kitobda: Hayot vasfi. Toshkent – 1988, 397-bet. Bundan keyin tegishli sahifani ko'rsatish bilan cheklanamiz – R.V., H.E.).

Shoir adabiy merosi bizgacha to'liq holda yetib keldi deyolmaymiz. ehtimol, salohiyatli qalamkash she'riyatning boshqa janrlarida ham ijod qilgan bo'lishi mumkin. Ammo ular Shayx Atoyining Sankt-Peterburgda saqlanayotgan devoniga kiritilmagan. Atoyi ma'naviy merosida o'z ijodidan faxrlanish, g'ururlanish hislari balqib turgan baytlar mavjudki, ular shunday xulosaga kelishimizga asos bo'ladi:

Bitisam bo'lg'ay nasihatnomalar yuz «Panj ganj»,
O'zga qilmas Xisravi Shirin dahonimdan ko'ngil. (377-bet).

Ma'lumki, Nizomiy Ganjaviy «Panj ganj»i Sharq xalqlari adabiyoti ravnaqiga muhim ijodiy turtki berdi. Atoyi o'zining qalami salohiyatiga to'la ishongan holda, yuzta shunday asar bitishi mumkinligini qat'iy e'tirof etadi. Albatta, mazkur bayt shoirning ehtiroslaridan xoli emas. Ammo aytish mumkinki, bunday qat'iy fikrlar muallifi bo'lgan shoirning katta ijodiy tajriba sohibi bo'lishi tabiiydir. Zero, Atoyi g'azallarida bunday fikrlarni yana uchratish mumkin:

Atoyi she'rining lutfini bilsa,
«Latofatnoma»dan kechgay Xo'jandiy.

(Navoiy nigohi tushgan, 282-bet).

Ko'rinadiki, mazkur baytda ham shoir faxriyadan istifoda etgan. Biroq bu o'rinda ham yuqorida ko'rganimizdek, faxriya o'ta mubolag'a (ig'roq) bag'rida, qorishiq holida kelayotir.

Atoyi g'azaliyotida ishq-muhabbat mavzusi markaziy o'rinda turadi. Unda oshiq, ma'shuqa va raqib obrazlari vositasida sevgi masalalari yoritiladi. Shoir bu mavzuni to'laqonli badiiy ifodalash maqsadida yana o'nlab badiiy timsollarga murojaat etadi va ulardan ijodiy foydalanadi. Shoir she'riyatida ilohiy va majoziy sevgi yonma-yon tutib ulug'lanadi. Atoyi ularni bir-biriga

chambarchas bog’liq holda kuylaydi. Alisher Navoiy Atoyini «darveshvash kishi», - deya ta’riflagani bejiz emas edi. Shoirda tasavvuf ta’limotiga moyillik g’oyatda baland bo’lgan. Zero, uning g’azallaridagi «so’fiy» timsoli shoir qiyofasi va falsafiy-irfoniy qarashlarini xotirga keltirganday bo’ladi:

To podshoh bo’lgali sen husn Misrida,
Afsona bo’ldi Yusufi Kan’on hikoyati.
Sufiy Atoyi holatini o’tkanur, vale,
Ishq ishidur kishiga azaldin hidoyati

(O’sha kitob, 248-bet).

Atoyi ishqday yuksak tuyg’uni insoniyatga azaldan, yagona Qodiri qudrat tarafidan berilgan inoyat ekanligini ta’kidlaydi. Shundan bo’lsa kerak, u muhabbat mavzusida jo’shib kuylaydi. Iste’dodli shoir uning g’azallari ravon uslubda va o’ynoqi ohangda bitilgani bois o’quvchiga katta badiiy zavq bag’ishlaydi. O’sha o’ynoqi ohang qanotida shoirning ishq, hayot haqidagi teran mushohadalari ham badiiy ifodasini topgan. Atoyi musaffo nafosat va o’sha dilkash go’zallik shaydosi. U dili va didiga har jihatdan manzur keluvchi go’zallikni ona-zamin tabiati bag’ridan izlaydi. Shoirning Navro’zi olam tashrifi haqidagi misralar bilan boshlanuvchi g’azali bu jihatdan ahamiyatlidir:

Soqiyo, keltur mayi gulgunki, xush damdur bukun,
Olami farxundada Navro’zi olamdir bukun.
Nakhati bodi sabodin topti o’lganlar hayot,
Xabbazo bodi sabo Isiyi Maryamdur bukun.
Qomati gulgun chamanlar sahnida ta’zim uchun,
Soqiy-u gulrux bikin sarv oldida xamdur bukun.
Yer yuzinda gulshan-u bog’-u bahor-u bog’cha,
Gunbazi xazro myengizlik sabz-u xurramdur bukun.
Har kishigakim muyassardur parivash yor ila,
Jur’ayi no’sh aylamak xoshoki odamdir bukun.
Kimgakim bo’lsa safoli birla maydin jur’aye,
Ushbu to’qqiz shishadin ko’ngliga ne g’amdir bukun.
Salsabil-u kavsari moyi main keltursalar,
Jomi may majlisda barchadan muqaddamdur bukun.
Kel dame mayxonaning baytul haramin qil tavof,
Kim sanamlar la’lidin may obi zamzamdir bukun.
Ey Atoyi, bo’lma g’ofil, bir nafas hamdam tila,
Umrni hamdam kechurmaklik base kamdir bukun.

(O’sha kitob, 236-bet).

Soqiyga murojaat bilan boshlangan mazkur to’qqiz baytli g’azalda gulgun may talab qilinib, bugun qutlug’ Navro’zi olam ekanligi e’tirof etiladi. May – ishq-u ma’rifat timsoli. Shu bois bu xush damni ishqsiz tasavvur etish mumkin emas. Shoir Iso Masihning jon baxsh etish a’molini Navro’zi olam kelgan kundagi tong shamoliga ko’chirib, tabiatning uyg’onishini juda go’zal lavhalarda tasvirlaydi. Bahorning tiniq osmonga o’xshash yer yuziga ko’m-ko’k libos «kiygizishi», olamning gulshan-u bog’-u bahor-u bog’chaga aylanishi tasviri ham shoirning tabiatdan ilhomlanishini yana bir karra dalillaydi. Tabiatning bunday maftunkorligi kishi ruhiyatiga ko’tarinkilik baxsh etadi. Shoir kimdakim safol idishda bir qultum may bo’lsa, u xushbaxt, o’zini Arshi A’loda his etadi, deya ta’kidlaydi. Uningcha, bunday insonning qalbida g’am aslo yo’lamaydi. Haqiqatan ham, go’zallik va ishq insonni butun g’am-alamdan xalos etadi. Atoyi olamning to’qqiz qat osmondan tarkib topganligini she’rda «to’qqiz shisha» shaklida qo’llaydi. Bunda shoirga dastlab ko’m-ko’k osmonni «gumbazi xazro» deb nomlagani sabab bo’lgan. Shishaning shaffofligi g’azalda osmon ma’nosida qo’llanilishi, bahorning ko’ngillarga o’zgacha surur baxsh etganini anglatadi. Ko’rinadiki, shoir dilkash g’azalida ranglar va badiiy timsollardan yuksak san’atkorona did bilan foydalangan. Atoyi boshqa g’azallarida ham muhabbat mavzusini to’laqonli yoritishda tabiat tasviriga, gul, bulbul singari an’anaviy timsollarga murojaat etadi:

Kel, ey, dilbarki, bo’ston vaqti bo’ldi,
Gul ochildi guliston vaqti bo’ldi.
Qilay nola, boqib guldek yuzungga,
Chu bulbullarga afg’on vaqti bo’ldi

(O’sha kitob, 250-bet).

Atoyining «Qon bo’ldi ko’ngil...» , «Ul sanamki...», «Ko’ngil olding...», «Jamoling vasfini...» singari bo’yoqdor iboralar bilan ibtido topuvchi g’azallari yuksak badiiy qimmatga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Ularda shoirning haqiqiy muhabbat kuychisi ekanligi sezilib turadi. Fikrimizni «Jamoling vasfi...» birikmasi bilan boshlanuvchi g’azali orqali izohlashga harakat qilamiz:

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizardi gul uyatdin anjumanda

(O’sha kitob, 216-bet).

Shoir matlada nihoyatda go’zal manzara tasvirini badiiy ifodalash bilan o’quvchi diqqatini o’ziga jalb etadi. Bunda Atoyiga chamandagi gulning qizil rangda ekanligi qo’l keladi. Ijodkor baytda husni ta’lil san’atiga murojaat etish bilan bir-biriga daxli bo’lmagan hodisalar orasida aloqadorlik paydo

qiladi. Go’yo ma’shuqa jamoli oshiq tomonidan chamanda ta’riflangani bois mazkur anjumanda ishtirok etayotgan gul xijolat chekadi, uyaladi. Chunki u go’zalligi bilan mag’rur edi. Shoir ayni choqda gul obrazini jonlantirish vositasida misralar harorat bag’ishlashga erishadi:

Tamanno qilgali la’lingni ko’nglum,
Kishi bilmas onikim, qoldi qanda? (216-bet).

Atoyi la’l timsolini istiora asosida lab ma’nosida qo’llab, uning naqadar kichik ekanligiga o’quvchi e’tiborini qaratadi. Shoir ma’shuqa lablarini qayerda qolganligini kishi bilmaydi, deya tajohuli orifona san’atini ham ishga soladi.

Chu jonimdin aziz jonona sensan,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.

Oshiq o’z ma’shuqasini olamdagi barcha narsalardan ustun qo’yadi. Shu bois ma’shuqa unga jon singari aziz jononadir. Jononasiz oshiqqa jon lozim emas. U yorsiz, jonsiz tanga o’xshaydi. Tabiiyki, jon-u jonona tasavvufning mulki. Ana shularga tayanib, Atoyi she’riyati irfoniy-ilohiy ruh bilan yo’g’rilgandir deyish mumkin.

Menga bu dunyoda jannat ne hojat,
Eshiging tuprog’i basdur kafanda.

Ishq yo’liga kirgan oshiqni faqatgina ma’shuqaning vasli qiziqtiradi. Biroq, oshiq-solik ayni choqda tangrining ham oshig’idir. Uning uchun yolg’iz Haqqa yetish asosiy maqsad sanaladi. Bu yo’lda oshiq barcha qiyinchiliklarga bardosh berishga tayyor. Ishq yo’lida oshufta oshiq uchun bu olamda jannatning hojati yo’q. Bordi-yu oshiq vafot etib kafanlanganida, unga yor eshigining tuprog’idan bir siqimgina yetsa, shuning o’zi kifoya. Baytda xalqona udumga murojaat ham kuzatiladi. Ya’ni inson jasadilahadga qo’yilgach, kafan ochilib, ko’z va ko’krak qafasidagi chuqurchalarga qabristonga chiqqan odamlar nafasi tekkantuproqni sepish odatiga ishora qilinadi.

Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya’qubtek baytul xazanda.

Ma’shuqa Yusuf singari ko’rkli. Shoir «Yusuf va Zulayho» dostoniga talmeh san’ati vositasida ishora qilarkan, Ya’qub alayhis-salom timsoli orqali uning o’g’li hajrida juda ko’p iztiroblar chekkaniga ishora qiladi. She’r qahramoni ma’shuqadan Ya’qubdek gunohlardan forig’ bo’lishga da’vat etadi.

Uzun sochingdin uzmasmen ko’ngilni,
Ayog’ing qanda bo’lsa boshim anda.

Mazkur baytda shoir oshiqning ma’shuqasiga, beg’ubor muhabbatiga bo’lgan yuksak sadoqatini mahorat bilan ifoda etgan. Ma’shuqasi maftuni bo’lgan oshiq uning uzun sochlaridan ko’nglini uzolmaydi. Shu bois u ma’shuqaning oyoqlari qayerda bo’lsa, o’sha yerda boshini qo’yishni o’zi uchun yuksak saodat deb biladi. Baytdagi «qanda bo’lsa» so’zi yangi bir ma’noni ham ifodalaydi. Uni «qayerga borsa» ma’nosida ham tushunish mumkin. Bunday talqinga ko’ra, ma’shuqaning uzun sochlaridan ko’zini uzolmagan oshiq, yori qayerga borsa, u ham xayolan o’sha yerda hozir bo’ladi, tarzida ham tushunish mumkin. Har ikkala ma’no ham g’azalda mohiyatan ilgari surilgan g’oyaga putur yetkazmaydi, aksincha, uni to’ldirishga xizmat qiladi. Shoirning bunda iyhom san’atidan mahorat bilan foydalanganligi yorqin sezilib turadi.

Tilar el mansabi oliy va lekin
Atoyi sarvi ozoding’a banda.

G’azal ko’tarinki ruhda yozilgan ushbu matla’ bilan nihoyasiga yetadi. Unda yel, odamlar g’azal qahramoniga oliy mansablar tilashi mumkin, ammo oshiq uchun o’z ma’shuqasining go’zalligiga banda bo’lishdek baxtdan ulug’ mukofot yo’qdir, degan g’oya kelib chiqadi. Ko’rinadiki, Atoyining g’azalnavislikdagi badiiy mahorati ancha yuksak.

Atoyi g’azallarining aksariyati yetti baytdan tarkib topgan. Ular orasida 5, 9 baytlilari ham uchraydi. O’sha g’azallarning ko’pi ramal, hazaj va aruzning boshqa bahrlarida yozilgan. Ijodkor o’z she’riyatining yetakchi unsurlari qofiya va radiflariga alohida e’tibor berganligi ham sezilib turadi. Ayniqsa, g’azalda ravon, musiqiy qofiyalarni qo’llash hamda ularni yanada quvvatlantiruvchi, ravonlik, musiqiylikni ta’min etuvchi va misralarning mazmunini mazmunan boyitishga xizmat qiluvchi radiflar tanlash Atoyi ijodiga xos xususiyatdir. Shuningdek, shoir badiiy-tasviriy vositalardan ham mahorat bilan foydalana olgan. Shunga ko’ra, Atoyini g’azalnavislikda o’zbek mumtoz adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri deyish mumkin.

6.4. Sakkokiyning hayoti va ijodi. Shoir qasidalarining g’oyaviy-badiiy tahlili

Temuriylar davri o’zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri - shoir Sakkokiydir. Ijodkorning hayoti va faoliyati xususida juda oz ma’lumotlar saqlanib qolgan. Sakkokiyning o’z devoni, Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», «Xutbayi davovin» (Alisher Navoiy ma’naviy merosi tarkibida shu nom bilan yuritiladigan maxsus asar yo’q. Ulug’ shoir badiiy

yaratmalarining oxirida keladigan xotima-duo qismlari umumlashtirilib, shunday yoziladi) asarlarida uning yashagan davri, ijodiy faoliyati, XV asr adabiy hayotida tutgan o'rni xaqida ayrim ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, Mavlono Yaqiniy o'zining «O'q va yoy» munozarasida Sakkokiyni «turk (o'zbek) shoirlarining mujtahidi (g'ayratlisi)», - deya ta'riflaydi.

Sakkokiy – movarounnahrlik shoir. U temuriylar poytaxti Samarqandda yashadi va ijod qildi. Shoir devonidagi

Dasht elidin Hoji Tarxonga yetushsa bu g'azal,
Tark etar har baytiga osuda dunyosin Saroy –

(Hayot vasfi, 248-b.)

bayti uning boshqa yerlarda ham bo'lganini ko'rsatadi. Ammo bu baytdagi «dasht eli» Dashti qipchoqmi, Buxoro yaqinidagi Dashtakmi, Samarqandning Dashtaki bolosimi yoki boshqa biror joymi, aniq bir gap aytish qiyin, albatta. Shoir ijodiy merosida ko'zga tashlanadigan bunday ishoralar maxsus tadqiqotga muhtojdir.

Sakkokiy shoirning adabiy taxallusi bo'lib, uning asl nomi hamon ma'lum emas. Sakkokiy taxallusi «sakkok» (pichoqchi) so'zidan olingan. Bunday ishora shoir hunarmand oiladan yetishib chiqqan, deb faraz qilishga imkon beradi. Shoirning tug'ilgan yili ham aniq emas. Adabiyotshunos N.Mallayevning «O'zbek adabiyoti tarixi» kitobida Sakkokiyning XIV asrning ikkinchi yarmida, ehtimol, o'sha yuz yillikning oxirgi choragida tavallud topganligi qayd etiladi. Zabardast olim yuqoridagi fikrining tasdig'i sifatida shoir devonida hijriy 810 (1407-1408)-yilda amir Temurning nabirasi Xalil Sultonga (1405-1409) bag'ishlab bir qasida yozganligini ko'rsatadi. Jumladan, o'sha madhiyada quyidagi misralar mavjuddir:

Tarixqa sakkiz yuz dag'i o'n erdi-yu qadr axshomi,
Bir oy tug'ildi dunyoda kim mamlakatda xon bo'ldi.
Bu qadr tuni izzat-u qadr erdi da'vo qilsa ham,
Chun shahzoda maqdami da'vosina burhon erur.
La'l-u javohir sochilur shoh xizmatida, men dog'i,
Kelturdim shu so'z gavharin kim o'z-o'ziga kon erur.

Prof. N.Mallayev shoir bu qasidani ma'lum ijodiy tajriba to'plagan chog'ida, chamasi 30 yoshlarida yozgan bo'lishi kerak, deb taxmin qiladi. Olimning ushbu mulohazalari ehtimoldan yiroq emas, albatta. Sakkokiyning ijodi Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda ancha kamol topadi. Bu haqda taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetovning «Temuriylar davri o'zbek adabiyoti» (Toshkent, 1996) kitobida quyidagi fikrlar keltiriladi: «Ulug'bek saroyida eng obro'li va nomdor o'zbek shoiri, shubhasiz, Sakkokiy edi. Uning dilrabo lirik

she’rlari bilan bir qatorda o’zbek tilida Ulug’bek, Arslon Xo’ja Tarxon, Xo’ja Muhammad Porso haqidagi qasidalari ham bu she’riy janrning yorqin yutug’i bo’ldi. Uning Ulug’bek haqidagi qasidalaridan birida olim-shoh to’g’risidagina emas, o’zi haqida ham so’zlab:

Falak yillar kerak aylansa-yu keltursa ilkiga,
Meningdek shoiri turk-u, seningdek shohi dononi! –

deb yozilganida ma’lum bir tarixiy haqiqat bor edi, - deyish mumkin. Lekin biz Sakkokiy adabiy merosiga to’la baho bera olmaymiz. Chunki uning bizgacha yetib kelgan devonidan oxirgi bir qismi saqlanib qolgan xolos».

Taniqli olim A.Hayitmetov kitobida keltirilgan yuqoridagi bayt ilm ahli orasida mashhur bo’lib, u Sakkokiy o’z davrining yirik shoiri ekanligini tasdiqlaydi.

Sakkokiy XV asr o’rtalarida vafot etgan. Navoiy Samarqandda bo’lgan yillarida (1465-1469) Sakkokiyning muxlislari bilan uchrashgani va suhbatlashganini bayon qiladi.

Sakkokiy iste’dodli lirik shoirlardan biridir. U o’zbek va fors-tojik adabiyoti tajribalaridan ta’lim oladi, o’zbek mumtoz adabiyotiga munosib hissa qo’shib, ko’pgina g’azallar va qasidalar yaratadi. G’azalda san’atkorlik mahoratini yaxshi egallagan Sakkokiy o’zbek qasidachiligining ham asoschilaridan biri bo’ldi. Navoiy «Xutbayi davovin»da o’zbek shoirlaridan Sakkokiy va Lutfiyning kitobxonlarga manzur bo’lib, shuhrat qozongani haqida bunday deydi: «Uyg’ur iborati fusahosidin mavlono Sakkokiy va Lutfiylarkim, birining shirin ab’yotidin ishtihori Turkistonda bag’oyat va birining latif g’azaliyotidin intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur va devonlari mavjud bo’lg’ay». Demak, Sakkokiy Turkiston, ya’ni Movaraunnahrda juda shuhrat qozongan shoirlardan biri bo’lgan ekan.

Sakkokiy devonining bir necha nusxasi ma’lum. Jumladan, Londonda, Britaniya muzeyida uning taxminan XVI asr o’rtalarida ko’chirilgan bir nusxasi va Toshkentda O’z RFAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar xazinasida 1937-yilda Shoislom kotib tomonidan qandaydir manba asosida ko’chirilgan nusxasi saqlanmoqda. Bu nusxalar bir-biridan u qadar katta farq qilmaydi. Biroq ulardan birortasi ham Sakkokiy devonining to’la va mukammal nusxasi emas. Ularda Sakkokiy g’azallarining faqat bir qismigina berilgan, xolos.

Sakkokiy devoni hamd va na’t bilan boshlanadi. Keyin 10 qasida beriladi: bir qasida - Naqshbandiy Shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bir qasida - Xalil Sultonga, to’rt qasida - Mirzo Ulug’bekka va to’rt qasida - Arslonxo’ja Tarxonga bag’ishlanadi.

G’azal Sakokiy she’riyatining yetakchi janridir. Shoir ilohiy ishq hamda insonning insonga bo’lgan samimiy sevgisini yonma-yon qo’yib kuylaydi va sharaflaydi. Bu sevgi hayotga, uning zavq-shavqi, tabiat ko’rki va ezgu insoniy xislatlarga bo’lgan mehr-muhabbat bilan uzviy bog’lanadi. Sakkokiy g’azallarida uch obraz: oshiq, ma’shuqa va raqib obrazlari yetakchi o’rinni egallaydi. Oshiq – shoir g’azallarining tayanch qahramoni. U - samimiy va sadoqatli inson. Yorning visoliga oshiqadi, hijron azobi bilan o’rtanadi. Sevgisining zavq-shavqi va yorning lutf-inoyatini orzu qilgan oshiq turli-tuman moneliklarga, azob-uqubatlarga giriftor bo’ladi. Binobarin, mashhur rind shoir Hofiz Sheroziy:

Ayo soqiy, sunub joming qil ehson, yashnasin dillar,
Ko’rindi avval ishq osonu so’ngra tushdi mushkullar, -

deganidek, Sakkokiy ham:

Ishq ishin Sakkokiy avval bilmayin oson ko’rib,
Oxiri o’z jonining ishini dushvor ayladi, -

(O’sha kitob, 278-bet)

deydi. Biroq oshiq hijron azoblariga duchor bo’lsa ham, ishqdan chekinmaydi, sabr-matonat bilan har qanday qiyinchiliklarga qarshi kurashga shaylanadi. Farhod Shirinning ishqida «Qo’hkan» bo’lsa, Sakkokiyning qahramoni «jonkan» bo’lishga ahd qiladi:

Agar Shirin uchun Farhod ishqi ko’hkan bo’lsa,
Ne tong Sakkokiy ham, jono yo’lingda jonkan bo’ldi.(257-b.).

Shoirning tasvirida yor-go’zal, latofatli va dilrabo. Uning husn-jamoli oy va quyoshdan, chamanzor gullaridan ham ziyoda. Yorning qomatiga na sarv va na sanobar, uning og’ziga na pista va na g’uncha, labiga na la’l va na yoqut, ko’ziga na ohu va na nargis, zulfiga na sunbul va na rayhon tenglasha oladi. Shu bilan birga, yor oshiqqa hayot va umid, shodlik va quvnoqlik bag’ishlaydi. U bemorga shifo, o’likka jon ato qiladi. Bunday tasvirlar Shoir g’azallarida ilohiy ishq bilan majoziy ishqni bir o’zanga birlashishiga sabab bo’ladi. Aslida ham bu ikki ishq bir-birini taqozo qiladi. Shoirning o’ylashicha, Yor faqat tashqi go’zalligi bilangina emas, balki ma’naviy olami bilan ham oshiqni maftun qiladi. Biroq Yor rahm-shafqat, lutf-karam, vafo va sadoqatda izchil emas. U oshiqqa jabr-sitam ko’rgazadi, va’dasiga vafo qilmaydi. Kibr-havo va mutakabbirlikka beriladi. Yorning «zulf lashkari» jon mulkini g’orat (barbod) qiladi, turrasi (kokili) ko’ngil shahrida g’avg’o qo’zg’aydi. Aslida ma’shuqaning bunday «harakat»lari uning fe’l-atvoridagi illat emas. Ular majoziy mohiyat kasb etadi. Yanada aniqroq aytiladigan bo’lsa,

ular «mahaki imtihon». Oshiq muhabbatining sofligini aniqlashning tayanch vositasidir.

Turrang ko’ngil shahrinda ko’p oshubi g’avg’o qunqorib,
Jon mulkini g’orat qilur har lahza zulfing lashkari. (276-b.).

Shunday qilib, Sakkokiy o’z g’azallarida majoziy (insoniy) sevgini, vafo va sadoqatni, shodlik va quvnoqlikni ulug’laydi. Vafosizlik va mutakabbirlikni esa keskin qoralaydi. Sakkokiy g’azallarida bunday g’oyalarning ilgari surilishi uning quyidagi g’azalida aniq o’z ifodasini topgan. Go’yo unda shoirning qalbidagi yorqin orzu tilaklari ifodalanadi:

Agar qoshimda o’shal guluzor bo’lsa edi,
G’ame yo’q erdi, g’amim gar hazor bo’lsa edi.
Jonim fidosi aning, koshki bu tanim,
Oti tuyoqidin uchqon g’ubor bo’lsa edi.
Ko’zim bag’ir qonidin yuz nigor qilmas edi,
Agar ko’ngilga muvofiq nigor bo’lsa edi.
Biror ko’ngil g’amidin bo’lsa edi voqif do’st,
Ne qayg’u dushman agar sad hazor bo’lsa edi.
Ularda qolmag’ay erdi ko’ngulda bu hasrat,
Raqib it bikin eshigini zor bo’lsa edi.
Jonimga sahl erur erdi, jafosi yorning,
Agar ko’ngul bila ul yor, yor bo’lsa erdi.
Raqib tashlamas erdi seni, ayo Sakkokiy,
Aning iticha senga e’tibor bo’lsa edi. (260-bet).

Sakkokiy o’zbek mumtoz adabiyoti, aniqrog’i, g’azaliyoti ravnaqiga sevgi muhabbatning g’oyaviy jilolari bilangina emas, balki san’atkorlik mahorati bilan ham o’z hissasini qo’shdi. Shoirning o’z g’azallarida Masiho (Iso) haqidagi diniy afsonalardan foydalanib, oshiq va yor munosabati bayonida juda go’zal manzaralar yaratishi e’tiborni jalb qiladi. Quyida keltiriladigan baytda shoir tazod san’atidan unumli foydalanib, dilbar hayotiy manzara yaratgan:

Ey Masihodam begim, bir dam birla bergil shifo,
Sheva birla ko’zlaring jonimni bemor ayladi. (278-bet).

Yor-masihodam. Uning shahlo ko’zi oshiqni bemor qiladi. Biroq dami (nafasi) unga shifo beradi. Demak, yorning so’zi hayot bag’ishlovchidir. Sakkokiy tazod tasviriy vositasini qo’llashda an’anaviy Masih obrazi bilan kifoyalanib qolmaydi. Yangi, ohori to’kilmagan tashbeh va nafis manzaralar yaratadi. Chunonchi:

Yuzungni qilur toza ko’zum yoshi-yu ohim,

Gul toza bo’lur topsa, bale ob-u havoni. (261-bet).

Sakkokiy yomg’ir va mayin shabada gulni tozalab, uning tusini, «chehra»sini ochgani kabi, oshiqning ko’zyoshi va ohi Yor yuzini yanada tozaroq, go’zalroq qiladi, deydi. Bu baytda tazod (ko’zyoshi va oh yuzning toza bo’lishiga xizmat qiladi. Bular bir-biriga ziddir va tanosib-yomg’ir va shabodaning gul tusini ochishi, oshiqning ko’zyoshi va ohidan yor yuzining tozaroq - go’zalroq bo’lishi muvoziy qo’yilgan) usuli ishlatilgan. Ayni zamonda bu baytda yuz gulga, ko’zyoshi yomg’irga, oh - shabodaga o’xshatiladi.

Sakkokiy boshqa baytda ham bir emas, bir necha usul va tasviriy vositalar qo’llab, maroqli lavha va tashbehlar yaratadi. Misol:

Movarounnahr ichra qoldim, chunki ikki yonima,
Ko’zlarimning biri Sayhun, biri Jayhun ayladi. (275-bet).
Sabo gultek yuzingdin olmasa sunbul niqobini,
Saharda tun kecha bulbul nedin muncha fig’on qildi.(266-bet).
Yeltti og’zingdin o’g’urlab pista torlikni,
Tuz so’yin ko’ydilar ancha, ondin iqror ayladi. (278-bet).
Sakkokiytek og’zingni ko’rub koni latofat,
Chok ayladi gulg’uncha giribon chamanida. (239-bet).

Sakkokiy she’rlarining ko’pchiligi, boshqa g’azalxon shoirlarda bo’lganidek, yetti baytlidir. Shular qatorida besh, to’qqiz baytlilari ham kam emas.

Sakkokiy devonining muhim bir qismini qasidalar tashkil etadi. Qasidaning ilk shakllangan namunalari o’zbek mumtoz adabiyotida XIV-XV asrlarda vujudga keldi. Sakkokiy o’zbek qasidachiligining boshida turgan asoschilaridan biri sanaladi. Shoirning temuriy hukmdorlaridan olim va shoh Ulug’bek Mirzoga bag’ishlangan bir qasidasi «Hayot vasfi» hamda «Navoiyning nigohi tushgan...» nomli to’plamlarga kiritilgan. Mazkur qasida haqidagi mulohazalar asosida shoirning qasidanavislik sohasidagi badiiy mahorati xususida bir to’xtamga kelish mumkin. Avvalo, shuni e’tirof etish lozimki, Sakkokiyning Ulug’bekka bag’ishlab yozgan qasidalarida mubolag’ali maqtovlargina emas, balki tarixiy haqiqatni badiiy ifodalash markaziy o’rinda turadi. Ulug’bek ma’rifatparvar hukmdor, buyuk olim sifatida tarixda o’z nomini muhrlab qoldirgan. Binobarin, Sakkokiy maqtovlari zamirida ham ulug’ shoh va olimga cheksiz hurmat borligi sezilib turadi:

Jahondin ketti tashvih-u, mabodiyi omon keldi,
Xaloyiq, aysh eting bu kun, sururi jovidon keldi.
Tan erdi bu ulus barcha, aningtek joni bor yo yo’q,

Bihamdilloh, o'g'on fazli bila ul tanga jon keldi, (283-b.)-

deydi. Shuningdek, shoir Ulug'bekni «Sulaymoni zamon», «Nushiravon», «Musotek shubon», «Atodin mehribon», «xurshidi zamon» sifatlar bilan maqtaydi, uni harbiy ishlarda, janglarda tengi yo'q bahodir sifatida ta'riflaydi va qasidaning xotimasini duo bilan tugatadi:

Salotin dunyoda ko'p keldi-yu kechti, seningtek bir,
Falakning gar tili bo'lsa, aytsunkim, qachon keldi? –

Darhaqiqat, Mavlono Sakkokiy Ulug'bekdek ma'rifatparvar va oqil insonni shunday madh etishga to'la haqli edi. Shunday qilib, Sakkokiyning Ulug'bekka bag'ishlangan qasidalarida tarixiy haqiqat ham, o'ta mubolag'ali tasvirlar ham mavjud. Shoirning o'ta mubolag'aviy tasvirlarida ham uning Ulug'bek Mirzoga bo'lgan cheksiz muhabbati yorqin ufurib turadi. Bunday tasvirlarda Ulug'bek Mirzoning raiyatparvarligi o'z ifodasini topadi:

Raiyat qo'y erur, sulton anga cho'pon yo bo'ri,
Bo'ri o'lgay-u qo'y tingay, Musotek shubon keldi, -

der ekan, podsholarni xalq ahvolidan hamisha ogoh bo'lishga da'vat qiladi. Sakkokiyning Ulug'bekka bag'ishlangan qasidalarining qimmati benihoya balanddir.

Umuman, Sakkokiy o'zbek mumtoz she'riyatining Navoiyga qadar yetishgan yirik namoyandalaridan biri bulib, uning ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topishiga ma'lum hissa bo'lib qo'shildi.

6.5.Lutfiy – malikul-kalom. Ahmad Taroziy Mavlono Lutfiy haqida. «Gul va Navro'z» haqida bahslar

Zamonasining malikul- kalomi – so'z mulkining sultoni faxriy unvoniga munosib ko'rilgan, Firdavsiy, Nizomiy, Anvariy, Sa'diy, Xoja Hofiz singari buyuk fors-tojik adabiyoti darg'alari qatoridan faxrli o'rin egallagan Mavlono Lutfiy o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandalaridan biridir. Shoirning hayoti va faoliyati haqida Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois», «Muhokamatul-lug'atayn», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Xutbayi davovin», «Badoyi' ul-bidoya» devoni debochasi va boshqa asarlarida, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkiratut-shuaro», Xondamirning «Habibus-siyar», «Makorimul-axloq», Abdulla Kobuliyning «Tazkiratush tavorix», Shamsiddin Somiyning «Qomusul-a'lom», Vosihning «Majmuayi manzum va mansur», Shayx Ahmad Taroziyning «Fununul- balog'a» singari qator manbalarda ma'lumotlar uchraydi. Shunday bo'lishiga qaramay, Lutfiyning tarjimayi holi va adabiy merosi haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkoniyatiga

ega emasmiz. Jumladan, Lutfiy shoirning taxallusi bo'lib, uning nomi, ota-onasi, tug'ilgan yil va joyi, safarlari hamda shunga o'xshash qator masalalar haligacha lutfiyshunoslikda o'z yechimini qat'iy topganicha yo'q.

Mavlono Lutfiyning zamondoshlaridan bo'lgan ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida shoirning to'qson to'qqiz yil umr ko'rgani, hayotining so'ngida «Oftob» radifli g'azal yozgani va zamon shoirlari unga tatabbu' qilganliklari, yigitligida zohiriy ulum tahsilidan so'ng Mavlono Shahobiddin Xiyoboniy qoshida so'fiya tariqatidan tahsil olgani hamda Hirot chekkasidagi Dehikanor degan joyda dafn etilganligi haqida qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Akademik B.Valixo'jayev«Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy» (Samarqand, 1999) nomli risolasida shoirning tug'ilgan va vafot etgan yillari hozirgi kunda Abdulla Kobuliyning «Tazkirat ut-tavorix» kitobiga tayangan holda prof. Ismoil Hikmat Ertaylon tomonidan 1395-1492, adabiyotshunos S.Erkinov, E.Ahmadxo'jaevlar esa bu sanalarni 1366-1465 yillar tarzida belgilaganliklarini qayd etadi. Shuningdek, olim bu masalaning nozik nuqtalariga e'tiborni qaratib, shoirning tavallud va vafot etgan sanalarini taxminan 1385-1386—1482-1483 yillar tarzida belgilash mumkinligini e'tirof etadi (O'sha kitob,7-14-betlar). Akademik B.Valixo'jaevning bu boradagi mulohazalari diqqatga sazovordir. Olim Shayx Ahmad Taroziyning «Fununul-balog'a» asarida «Ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy» hamda «Lutfiyi Shoshiy aytur» tarzida tilga olingan bo'lsa-da, shoirning tavallud manzilini qat'iy Shosh—Toshkent deb belgilash mushkil ekanligini asosli dalillar vositasida izohlaydi hamda Lutfiyning tug'ilgan vatani haqida hozircha ikki mulohaza mavjud, bularning biri—Hirot, ikkinchisi—Shosh-Toshkent ekanligini qayd etadi (O'sha kitob, 14-17- betlar).

Mavlono Lutfiy madrasada tahsil olgan. U o'sha davr madrasayi oliyalarida o'qitiladigan rasmiy-zohiriy fanlarni o'rganish jarayonida, shubhasiz, arab va fors tillarini ham o'zlashtirgan va zullisonayn shoir sifatida turkiy hamda forsiy tillarda ijod qilgan. Lutfiy, ayniqsa, turkiy tilda badiiy jihatdan barkamol asarlar yozgan. Albatta, shoir bu darajaga yetishish uchun Sharq mumtoz adabiyoti an'analari va badiiy ijod sirlarini puxta o'rgangan. Lutfiyning yuksak iste'dod sohibi ekanligidan Movarounnahr hukmdori Ulug'bek Mirzo, Xuroson hukmdori Shohrux Mirzo va Boysunqur Mirzolar ham xabardor bo'lishgan. Mavlono Lutfiy she'rlarida Turkiston, Chig'atoy, Samarqand, Amu, Hirot, Qorabog', Aras, Qrim, Qobul, Iroq kabi jug'rofik nomlar uchraydi. Biroq manbalarda shoirning zikri o'tgan shaharlarga safar qilganligi haqida ma'lumotlar keltirilmagan.

Lutfiy turkiy tildagi she’rlarini jamlab, devon tartib bergan. Alisher Navoiy shoirning «turkcha devoni ham mashhurdir»,- deya ta’kidlaydi. Shoir devonlarining bir necha qo’lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan. Mavlono Lutfiy devonining hozirgacha ma’lum nusxalarida 372 g’azal, 3 qasida, 115 to’rtlik, 60 fard va ruboiy, tuyuq, qit’a kabi janr namunalari uchraydi. Shuningdek, «Gul va Navro’z» dostoni ham Lutfiyga nisbat berilgan. Mazkur dostonning muallifi haqidagi bahslar uzoq yillardan beri davom etib kelmoqda. (Bu sohadagi bahsni adabiyotshunos Y.Is’hoqov «O’zbek tili va adabiyoti» jurnalida e’lon qilingan «Gul va Navro’z»ning muallifi Lutfiymi? (1972, 1-son) maqolasi bilan boshlab berdi. Shundan so’ng zikri o’tgan jurnalning o’sha yildagi 2,3,4-sonlarida S.Erkinov, A.Rustamov, E.Fozilovlarning maqolalari chop bo’ldi. Biroq munozara yakunlanmay, ora yo’lda qolib ketdi...) Taniqli adabiyotshunos A.Hayitmetov Shayx Ahmad Taroziyning «Fununul balog’a» ilmiy asarining qo’lyozma nusxasiga asoslanib, «Gul va Navro’z» dostonining muallifi xususida quyidagilarni bayon etadi: «Bu asar («Funun ul- balog’a» - R.V., H.E.) yordamida endi «Gul va Navro’z» dostonining muallifi masalasi ham hal etilishi mumkin. Qo’lyozmaning 110- varag’ida «Gul va Navro’z»dan quyidagi mashhur baytlar keltirilib, ularning Mavlono Haydar, ya’ni Haydar Xorazmiyga tegishli ekanligi aytilgan:

O’shal kunlarki, vaqtim erdi darham,
Buzulg’on bu ko’ngulda ming tuman g’am.
Parishonlig’ bila holim mushavvash,
Tiriklik nomuloyim, umr noxush.
Na bir hamrohkim, ul hamroz, bo’lg’ay,
Na bir hamdamki, ul damsoz bo’lg’ay.

Bu fikrni «Muxtasar» risolasida Zahiriddin Muhammad Bobur ham ta’kidlab, mazkur asar haqida gap borganda, «Mavlono Abdul Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro’z»i deb o’tgan edi» (Hayitmetov A. Temuriylar davri o’zbek adabiyoti, Toshkent, 1996, 25-26-betlar). Ko’rinadiki, tadqiqotchi doston muallifi haqida qat’iy fikr bildirmaydi. B.Valixo’jayev ham o’z tadqiqotida mazkur masalaga e’tiborni qaratadi. Olim Bobur Mirzo va Shayx Ahmad Taroziylarning ma’lumotlariga asoslanib, Haydar Xorazmiy Nizomiy Ganjaviyning xamsachilik an’anasini davom ettirib, o’zbek tilida beshlik yozishni niyat qilgani va ikki doston yozganini ta’kidlaydi hamda u quyidagi umumlashma-xulosalarni bayon etadi: «Yuqorida ko’rilganidek, «Gul va Navro’z» dostoni Lutfiy qalamiga mansub emas. Shuning uchun 1941-yilda nashr ettirilgan «O’zbek adabiyoti xrestomatiyasi»ning birinchi tomidagi Lutfiy bo’limida u tilga olinmagan. Shunday qilib, Mavlono Lutfiy tomonidan

yaratilgan va bizgacha ma’lum bo’lgan asarlari she’rlar devoni, «Zafarnoma» tarjimasi bo’lib, bulardan «Zafarnoma» tarjimasi tugallanmay qolgani tufayli bizgacha yetib kelmagan.Turkiy va forsiy she’riy devonliridan esa turkiy devoni yetib kelgan, forsiysi esa hozircha noma’lum bo’lib, undan ayrim misollar turli majmua va tazkiralarda keltirilgan, xolos» (Valixo’jayev B. Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy. Samarqand, 1999, 35-36-betlar). Shunday qilib, ikki nodir adabiy manba: «Funun ul-balog’a» va Bobur Mirzoning «Muxtasar» risolasi (Bobur Mirzo o’z asarini «Muxtasar» nomi bilan tilga oladi. Shu asar haqida nomzodlik dissertatsiyasi yozgan Saidbek Hasanov uning matnini bugungi joriy va arab yozuvlarida nashr ettirganda ham o’sha nomni saqladi. Biroq sharqshunos I.V.Stebleva uni Moskvada Bobur Mirzoning «Aruz risolasi» unvoni bilan chop ettirdi. Keyinchalik shu nom ommalashib ketdi. Hatto, S.Hasanov ham o’zining maxsus ilmiy risolasida «Aruz risolasi»ni qo’lladi...) Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro’z» nomli doston yozganligi e’tirof etilgan bo’lsa-da, Lutfiyga nisbat berib kelingan shu nomdagi doston muallifi masalasi to’la yechimini topganicha yo’q. Shu bois biz «Gul va Navro’z» dostoni haqida Mavlono Lutfiyga bag’ishlangan bo’limda fikr yuritishni lozim ko’rdik.

Lutfiy she’rlari Alisher Navoiygacha yaratilgan o’zbek mumtoz adabiyotining g’oyaviy va badiiy jihatdan, o’ziga xos uslubi nuqtayi nazaridan eng yuksak namunalari sanaladi. Shoir, ayniqsa, g’azalnavislikda shuhrat qozonadi. Turkiy adabiyotda vujudga kelgan tuyuq janri taraqqiyotiga munosib hissa qo’shdi.

Muhabbat—Lutfiy g’azaliyotining asosiy mavzusidir. Shoir mana shu umrboqiy mavzu atrofida hayot go’zalligidan zavqlanish, tabiatning fusunkor manzaralaridan bahramand bo’lish, odamiylik, yuksak insoniy fazilatlar: mehr-muhabbat, vafo va sadoqat kabilar haqida keng mushohada yuritadi, Olam va odam xususidagi teran mulohazalarini badiiylashtiradi. Lutfiy mumtoz adabiyot an’analari, xalq og’zaki ijodining bebaho durdonalaridan bahramand bo’lib g’azaldagi markaziy obraz - ma’shuqani ohori to’kilmagan baytlarda tavsif etadi. She’r qahramonining turli holat va kayfiyati, ruhiy kechinmalarini hayotiy misollar asosida yorqin tasvirlaydi. Shuningdek, g’azallarida davrning ijtimoiy-siyosiy masalalari haqida ham fikr yuritadi. Shoir g’azallarining o’ziga xos xususiyati ko’proq ma’shuqa obrazi tavsifida namoyon bo’ladi. Bunda ijodkor yorning husn mulkida yakto ekanligini Parvardigorning yaratuvchanlik xususiyatiga bog’liq holda tasvirlaydi:

Haq ul kunkim jamoling bor etibtur,
Jahon husnun borin senga beribtur.

Pari-yu odami mundoq xo’b ermas,
Farishta go’iyo ko’ktin enibtur.
Quyosh oytek yuzungning xijlatidin,
Qochib, to’rtinchi ko’k uzra chiqibtur.

(Lutfiy. Sensan sevarim… 58-bet)

Shoir tengsiz husn-u malohat sohibi bo’lgan ma’shuqani tavsiflashda ilohiy timsollarga juda ko’p murojaat etadi. Shu timsollar bilan bog’liq islomiy qarashlardan mahorat bilan foydalanadi. Jumladan, Yusuf alayhis-salom go’zallik timsoli bo’lsa, ma’shuqa chiroyi shoir nazarida undan-da go’zaldir:

Zotinga Haq izhori kamolot qilibtur,
O’z nuri bilan suratingni yaratibtur.
O’n juzv turur erdi bori husnu malohat,
Qismat kuni Haq to’qqiz ulush sizga beribtur.
Bir juzvki Yusufga tegib erdi, chu bordi,
Oning uchun ul ham senga meros qolibtur.

(Lutfiy. Sensan sevarim… Toshkent-1987. 53-bet)

Lutfiy ma’shuqa ko’rkining vasfi zaminida Tangrining buyukligini ulug’laydi. Olam uning tajalliysi ekan, borliqdagi barcha go’zalliklar uning irodasi va sifatlari bilan bog’liq holda mavjudligini tasavvur etadi. Ijodkorning «Nortek yanoqing shavqida jonlar bari afgor erur» misrasi bilan boshlanadigan g’azali shunday mohiyat kasb etadi:

To zulfingizdan bog’ladim zunnor tarsolar bikin,
Imonim ortar dam-badam, bu ne ajab zunnor erur.
Ko’rsang eshikingda meni bexud tushib ayb etmakim,
Aqlimni g’orat qilg’uchi ul g’amzai ayyor uchun.
Iso falakka oshti chun bo’ldi labing jon berguchi,
Sharmandalikdan ketmasa ko’kta anga ne bor uchun.
Keldim eshikka, orzum yuzungdurur, ko’rgiz chiqib,
Kelginki, Lutfing hojati uchmoq emas, diydor uchun.

(O’sha kitob.57-bet)

Shoir zunnor timsolidan mahorat bilan foydalanib, uni yor zulfiga tashbeh etarkan, tarsolar singari bu zunnor –zulfni bog’laganida Haqqa bo’lgan iymon-e’tiqodi tobora ortib borishi sababidan ajablanadi. Ma’shuqa labining jon baxsh etishi oldida shunday a’mol sohibi bo’lgan Iso Masihning uyalishi talmeh san’atining ajoyib namunasi bo’lib, Lutfiy g’azalda ilgari surgan ilohsevarlik g’oyasining badiiy ifodasiga g’oyatda mos kelgan. Maqtadagi xulosa ham shu fikrning tadrijiy takomilidir. She’r qahramoni vahdat orzusi bilan yashagani

bois u jannatdan voz kechishga ham tayyor. Malikul-kalom g’azallarida tabiat tasviri vositasida she’r qahramoni ichki kechinmalarini badiiy tasvirlash ham yetakchilik qiladi:

Yoz fasli barcha shod-u ko’nglimiz g’amnok erur,
Gul bikin jon ko’nglaki hijron elidin chok erur. (51-bet).

Lutfiy g’azal yaratishda uslub ravonligi, muxtasarlikka e’tiborni qaratadi. Shu bois shoirning aksariyat g’azallari 5-7 baytdan tarkib topgan. Shoirning qofiya, radif tanlash, so’zlarning aruz vazni talablariga ko’ra o’z o’rnida ishlatishdagi mahorati uning g’azallarida yorqin ko’zga tashlanadi. Ijodkor qofiyalarning rang-barang, yoqimli bo’lishi va radifga mazmun jihatidan mustahkam bog’lanishi, ayni choqda radif she’rdagi asosiy g’oyani bevosita ifodalashga xizmat qilishiga e’tibor qaratadi. Lutfiy ijodida bir necha so’zlardan iborat bo’lgan radifli g’azallar ko’p uchraydi. Biroq bular takror sifatida g’alizlikni keltirib chiqarmay, g’azalga musiqiylik alohida ravonlik va ohang baxsh etadi:

Meni shaydo qiladurg’on bu ko’nguldur, bu ko’ngul,
Xor-u rasvo qiladurg’on bu ko’nguldur , bu ko’ngul (146-bet).

Yuqoridagi satrlar bilan boshlanuvchi g’azalda qo’llangan «qiladurg’on bu ko’nguldur, bu ko’ngul» radifi 5 so’zdan tarkib topgan bo’lib, Shundan ikki so’z takrorlanib kelishi bilan she’r uslubining ravonlashuviga sababchi bo’lgan. Shuningdek, radif oshiq - she’r qahramoni ko’nglining ishq asiriga aylanganiga urg’u berishga xizmat qilgan. Lutfiy g’azallarida xalqning uzoq davr mobaynida hayotiy tajribalari asosida vujudga kelgan maqollar, obrazli iboralar, urf-udumlar va xalqona ertaklardagi badiiy lavhalarga ishoralar, hikmatli so’zlar tez-tez uchrab turadi. Shoir xalq maqollari, hikmatli so’zlarini g’azalning janriy xususiyati, mazmun hamda tasvir taqozosiga ko’ra yo aynan yoki qisman o’zgartirgan holda qo’llaydi. Ijodkorning «Bir gul qanikim, ollida yuz xor topilmas», «Sevingandan gul o’z o’nriga sig’mas», «Suvsizin ne yuz boliq o’lsa bahrga ne bok erur», «Yo meni tuproq yo rizqi parishon tortadur» singari qator misralarida shunday holatni kuzatish mumkin. Lutfiy irsoli masal va talmeh kabi badiiy san’atlardan foydalanib, xalq og’zaki ijodiga ham murojaat etadi:

El yuziga boqsalar o’larmen,
Xurshedni netay yoshursa bo’lmas (108-bet).

Lutfiy o’zbek adabiy tili ravnaqiga munosib hissa qo’shgan ijodkordir. Shoir so’zning o’ziga xos nozik jihatlarini teran anglab, badiiy jihatdan barkamol g’azallar yaratdi. Shuningdek, ijodkorning tildagi jinsdosh va ko’p

ma’noli so’zlardan mahorat bilan foydalanib yozgan tuyuqlari alohida ahamiyatga ega:

Ko’nglima har yonki boqsam dog’i bor,
Har necha dardimni desam dog’i bor.
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Biz sari bo’ldi firoqing dog’i bor (349-bet).

Shoir «dog’i» so’zidan dastlab «yara», ikkinchi misrada «tag’in» va to’rtinchi misrada esa «tog’» ma’nolarini ifodalash uchun foydalangan.

Lutfiy ijodiyoti, ayniqsa, g’azallari keyingi asrlarda yashab ijod etgan shoirlar uchun ilhom manbai bo’lib qoldi. Alisher Navoiy ijodkor g’azallaridan adabiy ta’sirlanib, ularga muxammas va musaddaslar bog’ladi. Ulug’ ozarbayjon Shoiri Fuzuliy (XVI asr) va o’zbek shoirlaridan Munis, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Furqat kabi ijodkorlar Lutfiy adabiy merosidan bahramand bo’lishdi.

O’zbek mumtoz adabiyoti tarixida doston janri ravnaqiga muhim hissa bo’lib qo’shilgan «Gul va Navro’z» 1411-yilda yozib tugatilgan. Asarning «Sababi nazmi kitob» faslida e’tirof etilishicha, doston Amir Temurning nabiralaridan biri Iskandar Mirzoning topshirig’i bilan ijod etilgan.

«Gul vaNavro’z» - ishq-muhabbat haqidagi dostondir. Undagi aksariyat obrazlar ramziy mohiyat kasb etadi. Asarning nomlanishidanoq ijodkor bu masalaga diqqatni qaratganligi anglashilib turadi. Sharq xalqlari o’rtasida yilboshi sifatida bayram qilib kelingan Navro’z—21 martning kirib kelishi shodiyonalari bilan bog’liq turli janrdagi folklor namunalari keng tarqalgan. Yozma adabiyotda esa ulug’ fors-tojik shoiri Umar Xayyom «Navro’znoma» nomli nasriy asarini, Hojui Kirmoniy (1341-yilda vafot etgan) «Navro’z va Gul» nomli dostonini yaratishdi. «Gul va Navro’z» esa turkiy adabiyotdagi shu mavzuga bag’ishlangan ilk yirik dostondir.

Asarda navshodlik shahzoda Navro’z bilan farxorlik malika Gulning ishqiy sarguzashtlari hikoya qilinsa-da, unda ijodkorning markazlashgan davlat va adolatli shoh haqidagi qarashlari o’z ifodasini topgan. Dostonning asosiy voqealar tizimi Navshod eli hukmdori Farruxning tavsifi bilan boshlanadi. U hamma narsadan ogoh, saodat yulduzi porlab turgani bois iqboli baland, butun mamlakat uning hukmi ostida bo’lib, adolati olamga mashhur, hisobsiz askari bo’lgan, mulki ma’mur hukmdor edi. Biroq u «jahondin bir o’g’ilga orzumand» bo’lib yashadi. Bahorning kirib kelishi, Navro’zi olam tashrifi kuni Tangri taolo unga bir o’g’il ato etadi:

Chu Navro’z bo’ldi navro’z ichra firuz,
Atodi o’g’lining otini Navro’z.

Sut emganda saodat doya bo’ldi,
Tili chiqqach hunar hamsoya bo’ldi.
Topib nash’u namo davlat ichinda,
Yagona bo’ldi oz muddat ichinda.
Kichik yoshdin qamug’ fanlarni bildi,
Ko’pin o’z aqlin birla fahm qildi (356-bet).

Dostonda tasvirlanishicha, Navro’z ilm va hunarda yakto, jismonan baquvvat shahzoda sifatida tarbiyalanadi. Shu bois u chog’irda o’z aksini ko’rib, o’z-o’zidan g’ururlanadi. Shahzodaning ko’zlarini uyqu elitib, tushida Gulni ko’radi. Malika Navro’zga o’zini tanitib, farxorlik ekanligini aytadi:

Otim Guldur vale Farxordurman,
Ne ul gulkim, degaysen xordurman (359-bet).

Navro’z uyqudan uyg’onib, tushining ta’birini eldan so’ramoqchi bo’ladi. Ko’pchilik orasidan Bulbulni o’ziga yaqin olib, unga tushini bayon qiladi. Bulbul ham farxorlik edi. U shahzodaga Shohi Mushkinning qizi Gul haqida hikoya qilib beradi. Keyin Bulbul Navro’zning holatidan Gulni xabardor qilish uchun Farxorga yo’l oladi. Bulbul Gulning hujrasi atrofida Navro’z haqida nola-fig’on chekib, xalqning tinchini buzib navo qiladi. Tongda uyg’ongan Gulning ham bu voqeadan holi parishon bo’ladi. Malika o’zidagi o’zgarishlarni sehr-jodu, makr-hiylani o’z yurti Kashmirdan o’rgangan, «tili goh xanjar», ba’zan esa «so’zan» bo’lgan enagasi Savsanga aytib beradi. Savsan Bulbuldan ham Navro’z sifatini eshitadi va malikaga malomat qiladi, uni uyatsizlikda ayblaydi. Tabiiyki, qiz undan achchiqlanadi.

Shahzoda Navro’z ham Gulning ishqi bilan yashaydi. Uning bu holidan otasi Farrux ogoh bo’ladi. Hukmdor beklar bilan kengashib, Bahman ismli bek bilan Navro’zni Farxorga yuborishga ahd qiladi. Farrux o’ziga bir dona ham oltin qoldirmay, o’g’li uchun xazina tayyorlaydi. Tangridan tilab olgan yolg’iz farzandidan ajralish ota uchun bir musibat edi. Ammo shahzodaning ko’ngliga qarshi chiqish ham tahlikali ekanligini Navshod hukmdori yaxshi bilardi. Dostonda bu holat quyidagicha tasvirlanadi:

Otasi yig’lay- yig’lay evga yondi,
O’g’ul o’ynay-o’ynay yo’lga uzondi (372-bet).

Navro’z o’z muhabbatiga erishishdek ko’nglining eng buyuk istagi yo’lida juda xatarli safarga otlanadi. Shahzodaning mol-u mulklari qiziqtirgani uchun uning «sodiq» yo’ldoshiga aylangan Bahman o’z razil niyatini amalga oshirishga muvaffaq bo’ladi. U Navro’zni g’aflat uyqusida qoldirib, butun xazinani o’z hamrohlari bilan olib ketadi. Shahzoda esa Bahman bilan ketib qolmagan kishilarga ham yurtga qaytish uchun ijozat beradi. Biroq ular

yo’llaridan qaytishmaydi. Navro’z Farxorga yetib boradi. Bulbul va Savsanning sa’y-harakatlari bilan sevishganlar bir-birlari bilan ko’rishadi. Ammo Shoh Mushkin Gulni Chin xoqoniga tortiq qilgandi. Chin xoqoni elchilari bilan Gul o’zga yurtga otlanadi. Navro’z ham Chin sari yo’l oladi. Chin xoqoni davlati sarhadlari yaqinida sevishganlar qochishni ixtiyor qiladilar. Navro’z Gulga quyidagicha murojaat qiladi:

«Yaroq uldurki, otlansaq bu shabgir,
Qilib boshdin ayoq to’nlarni tag’yir.
Qochib Farxor iqlimindin oshsak,
Borib Navshod mulkini toloshsaq.»
Rizo berdi Guli Mushkin bu so’zga,
Burunqi ahdini qilmadi o’zga (402-bet).

Shunday qilib, muhabbat—oliy ne’mat ekanligini qalbdan anglagan Gul va Navro’z shu buyuk tuyg’u asiri sifatida barcha qiyinchiliklardan cho’chimay, ulug’ maqsad sari talpinadi. Chin xoqoni davlati sarhadlarida Yaldo ismli bir qonxo’r qo’lida bandilikka tushadilar. Xoqon vafotidan so’ng yana qochib, devlar manziliga, Shayx Najdiyga duch kelishadi. Daryo to’fonlari-yu dengiz po’rtanalariga uchrab, ikki taxta ustida sevishganlar ikki tomonga ayrilib ketishadi. Dengizdan Gulni Javhar qutqazadi. U Adan mulkiga borib qolgan edi. Mamlakat hukmdori Bade’ uni o’ziga farzand sifatida ko’radi. Gul yigit libosida bo’lgani uchun podshoh uni o’ziga o’g’il deb biladi. Malika Gul bu yerda arslonlar bilan kurashadi. Navro’zni esa bir kambag’al baliqchi dengizdan qutqaradi. U Yaman yurtiga borib qolgan edi. Baliqchi Yusufsifat shahzoda haqida mamlakat vaziriga xabar beradi. Vazir uni podshoh Rafe’ bilan tanishtiradi. Rafe’ ham Navro’zni o’g’il sifatida qabul qilib, barcha beklardan uning mavqeyini yuqori deb biladi. Bunga Bahrom ismli sardor hasad ko’zi bilan qaraydi. Gulning jasorati bilan kuchaygan Adan Yaman mamlakatiga qarshi hujumga o’tadi. Jang qizib, yakkama-yakka olishuv boshlanadi. Malika Gul hasadchi Bahromni shunday kurashda halok etadi. Maydonga Navro’z va Gul chiqishadi. Navro’z Gulning ovozidan uni taniydi. Shundan so’ng muhabbat adovatga chek qo’yadi. Hukmdorlar yarashishadi, ginalar unut bo’ladi. Adan va Yaman podshohlari Gul va Navro’z bilan birgalikda hajga borishadi. Sevishganlar Ka’bani tavof qilayotgan otalari Farrux va Mushkinni tanib qolishadi. Hukmdorlarning kelishuvlari asosida Navshod, Farxor, Adan, Yaman mamlakatlari birlashadi, Navro’z mamlakatni adolat bilan idora eta boshlaydi.

«Gul va Navro’z»ning «Podshoh madhi bila kitob xotimasi» nomli so’nggi bobida doston muallifi Sulton Iskandarni madh etadi. Bu bilan ijodkor

Amir Temur vafotidan so’ng tobora parchalanib, inqirozga yuz tuta boshlagan mamlakat taqdirini o’ylab, temuriy shahzodalarni birlashishga, buyuk sohibqironning markazlashgan davlatini saqlab qolishga chaqiradi. Shoir asardagi har bir so’zning ma’no-mohiyatiga e’tiborni qaratganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat, avvalo, qahramonlar va joy nomlarida yaqqol ko’zga tashlanadi. Chunonchi, Farrux—go’zal, baxtli, muborak, qutlug’ yuzli ma’nolarini anglatadi. Uning o’g’li Navro’z esa, haqiqatdan ham, Navshod hukmdorining hayotiga yangi kunni baxsh etadi. Navro’z bahorning fusunkor ko’rkiga ko’rk qo’shgan Gulni sevadi. Go’yoki bahorning ilk kuni go’zallik shaydosi sifatida, olamdan go’zallik izlayotganga, bu yo’lda uchraydigan barcha yovuzliklarni yengayotganga o’xshaydi. Gul—Farxor elidan, Farxor—orasta, chiroyli, shinam degan ma’nolarni anglatadi. Bu bilan shoir Gul va u unib o’sgan yurt bir-biriga mosligini qayd etgan bo’ladi. Dostondagi salbiy obrazlar Bahman, Yaldo, Shayx Najdiylarning nomlanishida ham shunday ramziylik mavjud. Bahman—qishning eng ayozli kunlari ma’nosini anglatsa; Yaldo—qish mavsumidagi eng sovuq, uzun va qorong’u kecha demakdir. Najdning lug’aviy ma’nosi esa yerning baland qismi, to’siqdir. Dostondagi ijobiy obrazlar bahor, yovuz kuchlar timsollari esa qish fasliga uyg’un nomlar bilan atalganki, bu ham yoz bilan qish haqidagi qadimgi ajdodlarimiz qarashlariga yangi ma’no mujassamlashtirganligini anglatadi. Shuningdek, dostonda shoirning istiora, mubolag’a, tashbeh kabi tasviriy vositalardan mahorat bilan foydalanganligi ko’zga tashlanadi. Ayniqsa, dostondagi bosh qahramonlardan biri Gul siymosi asarda nozik did bilan go’zal tasvirlangan:

Bute, ne but, magar huri parizod,
Labi nozik, bo’yi chun sarvi ozod.
Parishon sochlari gul yaprog’inda,
Tuman ming shevalar har boqmog’inda.
Ko’zi qilib ming ishva angez,
Labi pursheva-yu zulfi dilovez.
Chu to’lg’on orazi jonlarg’a loyiq,
Ayoqdin bosh bo’yi xonlarg’a loyiq.
Elinda bir piyola bodai nob,
Muningdek keldi ul gulbargi serob (358-bet).

Gul—nafosat, go’zallik ramzidir. Shu bois uning tavsifi dostonda tadrijiy rivojlantirilib boriladi. Bulbul bu haqda Navro’zga hikoya qilarkan, Gulni shunday ta’riflaydi:

Uzorin aksidin kun xiyra bo’lg’ay,
Yuzi o’trusida oy tiyra bo’lg’ay (362-bet).

Shunday qilib, aruzning hazaj bahrida (mafoiylun mafoiylun mafoiyl) bitilgan «Gul va Navro’z» dostoni tilining soddaligi va ravon uslubda yozalganligi, badiiy salohiyati yuksakligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir dostonning tilini xalq jonli tilidagi so’zlar bilan boyitib, o’zbek adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa qo’shdi. «Gul va Navro’z» XV asr o’zbek adabiy tilining qimmatli Yodgorligidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. «Yusuf va Zulayho» dostoni muallifi haqidagi munozaralar xususida nimalarni bilasiz?
2. Dostonda ifodalangan Balx qamali haqida so’zlang. Doston muallifining bunday tasvirni berishdan muddaosi nima?
3. «Yusuf va Zulayho»da adolatli va tadbirkor podshoh g’oyasi qanday tasvirlangan?
4. Dostonning badiiy xususiyatlari haqida so’zlang.
5. Nizomiy Ganjaviy va Haydar Xorazmiyning «Maxzanul-asror» nomli dostonlarining uyg’un va tafovutli jihatlari nimalardan ko’rinadi?
6. Atoyi haqida qaysi manbalarda ma’lumot beriladi?
7. Atoyi she’riyatida o’ziga xos xususiyatlar nimalarda namoyon bo’ladi?
8. Sakkokiyning tarjimayi holi haqida nimalarni bilasiz?
9. Shoir g’azallaridagi asosiy obrazlar haqida so’zlang.
10. Sakkokiyning Mirzo Ulug’bekka bag’ishlangan qasidasida olim va buyuk hukmdor qanday tavsiflanadi?
11. Lutfiyning tarjimayi holi haqida qisqacha gapirib bering.
12. Shoirning hayoti va adabiy merosi xususidagi munozaralar asosan nimalarni o’z ichiga oladi?
13. Lutfiy g’azallarining mavzu ko’lami haqida so’zlang.
14. «Gul va Navro’z» dostonidagi obrazlarning ramziy xususiyatlari va dostonda markazlashgan davlat g’oyasining badiiy ifodasi haqida gapirib bering.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Durdibek. Balx qamali.Yusuf. Ya’qub. Og’a-inilar. Moliki Tojir. Zulayho. Enaga. Rayyon. Misr Azizi. Bashir. Taymus. Haydar Xorazmiy. «Maxzanul-asror». Sulton Iskandar Sheroziy. Maqolat. Mav’iza. «Bo’z to’quvchi kampir». Bazzoz. Haqparast darvesh. Atoyi. Ismoil ota. Sakkokiy. Ulug’bek Mirzo.

Lutfiy. “Gulshanul-asror”. Navro’z. Gul va Bulbul. Adan. Yaman. Farxor. Bahman.

Adabiyotlar:

1. Valixo’jayev B. Malikul-kalom Mavlono Lutfiy. Samarqand, 1999; Yana. Mumtoz siymolar. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. Toshkent-2002, 84-171-betlar; Yana. Sulton Husayn Boyqaro – «Husayniy» she’riyati. Mumtoz siymolar. 3-83-betlar.

2. Lutfiy. Devon. Gul va Navro’z. Toshkent, 1965; Yana. Lutfiy. Sensan sevarim. O’zbek she’riyati bo’stoni. G’.G’ulom nomidagi ASN, Toshkent-1987, 764 bet.

3. Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976.

4. Navoiyning nigohi tushgan. Toshkent, 1986.

5. O’zbek adabiyoti. To’rt tomlik, I tom, Toshkent, 1977.

6. Uch bulbul gulshani. O’zbek she’riyati bo’stoni. G’.G’ulom nomidagi ASN, Toshkent-1986, 5-66-betlar.

7.Husayn Boyqaro. Jamolingdin ko’zum ravshan. G’.G’ulom nomidagi ASN, Toshkent-1991, 32 bet.

8. Hayitmetov A. Temuriylar davri o’zbek adabiyoti. Toshkent, 1991.

9. Hayot vasfi. G’.G’ulom nomidagi ASN, Toshkent, 1988. 704 bet.

VII BOB
ALISHER NAVOIY – ADABIYOTIMIZNING MILLIY IFTIXORI

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy musulmon mintaqa adabiyotining eng yirik vakili, ulug’ mutafakkir shoir, davlat va jamoat arbobi, ilm-ma’rifat, badiiy ijod hamda san’atning ulkan homiysidir. Bu buyuk taraqqiyparvar inson o’zi yashagan davrdanoq «Xitodan Xuroson»gacha bo’lgan hududda istiqomat qilayotgan she’rsevar ellar, xususan, «turk ulusi» qalbiga purma’no nazmiy yaratmalari, nasrda ijod etilgan badiiy, ilohiy-irfoniy, tarixiy-ma’naviy va ilmiy asarlari bilan ma’rifat shu’lalarini olib kirdi. Alisher Navoiy yirik so’z san’atkori sifatida turkiy badiiy ijodni ham ma’nolar va ham shakliy jilolar nuqtayi nazaridan jahoniy mavqega ko’tardi. Asrlar o’tsa-da, bu sohir qalam sohibi qoldirgan juda boy madaniy merosga bo’lgan ma’naviy ehtiyoj kundan-kunga oshib bormoqda. Bu hol Ulug’ shoirning «Muhokamat ul-lug’atayn»da o’z ijodidan faxrlanib bildirgan quyidagi bashoratomuz fikrlarining nechog’lik haq ekanligining yana bir dalilidir: «... Umidim uldur va xayolimg’a andoq kelurkim, so’zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi (yulduzi – R.V., H.E.) a’lo darajadan o’zga yerni beganmagay (ma’qul ko’rmagay – R.V., H.E.)» (MAT. 16-jild. 27-bet).

Alisher Navoiy butun umrini xalqning baxt-saodati, yurt tinchligi, mamlakat taraqqiyotiga baxsh etganligi tufayli shunday yuksak saodatga muyassar bo’ldi.

7.1. Alisher Navoiy hayoti va ijodining o’rganilishi tarixi.

Alisher Navoiy hayoti va ijodining o’rganilishi tarixi Ulug’ shoir yashagan davrdan boshlandi. XV asrda yaratilgan bir qancha mo’tabar manbalarda Navoiyning tarjimayi holiga doir muhim ma’lumotlar qayd etilganligi, uning ijodiga munosabat bildirilganligi kuzatiladi. Bunday xayrli ishni, navoiyshunoslikni Nuriddin Abdurahmon Jomiy boshlab berdi. Ayni xayrli sa’y-u harakat bugungi kunimizga qadar olti yuz yillik tarixiy taraqqiyot bosqichini o’tab kelmoqda. Ta’kidlash joizki, bu boradagi jiddiy izlanishlar, ayniqsa, XX asrda (Bu haqda batafsil ma’lumot uchun murojaat qilingan: N.M.Mallayev. Asrlar e’tirofi va ta’zimi. “Fan”, Toshkent-1978) ancha sermahsul bo’ldi. Tadqiqotchi olimlarimizning shoirning hayoti va faoliyatini o’rganishda to’rt tayanch manbaga tayanib ish ko’rayotganliklari yaqqol ko’zga tashlanadi:

1.Ulug’ shoirning o’z asarlari. Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida uning shaxsi, ijodkorligi, ijtimoiy-irfoniy faoliyati haqida ma’lumot beriladi. Bu jihatdan, ayniqsa, uning «Xazoyin ul-maoniy», «Xamsa», «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub», «Muhokamat ul-lug’atayn», «Vaqfiya», «Xamsat ul mutahayyirin», «Nasoyim ul-muhabbat», «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Mezon ul-avzon», «Munojot», «Arbain hadis», «Siroj ul-muslimin» singari asarlari qimmatlidir. Mazkur asarlarda shoirning shaxsiy hayoti, u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, madaniy-ma’rifiy muhit, ba’zi asarlarining yozilishi tarixi va sabablari, adibning el-yurt tinchligi, obodonchiligi yo’lida olib borgan keng qamrovli faoliyati, Xuroson davlatining muhrdori, vaziri a’zami sifatida qilgan savobli ishlari, ustoz-u shogirdlari bilan munosabati singari muhim masalalar xususida bahs yuritiladi. Ulug’ shoirning o’z asarlari uning hayoti va faoliyatini o’rganishda eng ishonchli manbadir.

2. **Alisher Navoiyning zamondoshlari asarlari.** Mazkur bandni yana bo’laklarga (ulug’ shoirning katta, muosir va kichik zamondoshlari) bo’lish ham mumkin. Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Haft avrang», «Yusuf va Zulayho», «Devoni Komil», Mirxondning «Ravzat us-safo» («Poklik bog’i»), Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro» («Shoirlar tazkirasi»), G’iyosiddin Xondamirning «Makorim ul-axloq» («Yaxshi xulqlar»), «Habib us-siyar» («Suyukli xislatlar»), «Xulosat ul-axbor» («Voqealar xulosasi»), Zayniddin Mahmud Vosifiyning «Badoye’ ul-vaqoe’» («Go’zal voqealar»), Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» kabi asarlari Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatiga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan, shaxsi va asarlariga ta’rif-u talqinlar berilgan qimmatli tayanch manbalardir. XV asr tarixiy voqeligi, unda ulug’ amir Alisher Navoiyning tutgan o’rni va shoirning hayoti, faoliyati bilan yaqindan tanishishda mazkur manbalarning qimmati nihoyatda baland. Shuning uchun taniqli adabiyotshunos Izzat Sulton Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rganishda ilk manba sanalgan ulug’ shoirning o’z badiiy-ilmiy yaratmalari va zamondoshlari asarlarida keltirilgan ma’lumotlarga tayanib “Navoiyning qalb daftari” (Toshkent, G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1969) nomli ilmiy tadqiqotini yozdi. Bu asar mazkur mavzu va umuman, navoiyshunoslik ilmi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3. XVI – XIX asrlarda yaratilgan tazkira, tarixiy va badiiy-ilmiy asarlar. Alisher Navoiy dahosi va uning takrorlanmas badiiy, ilmiy ijodi XVI – XIX asrlarda yashab ijod etgan shoirlar, tarixchilar va adabiyot ixlosmandlarining doimo diqqat markazidan o’rin olib keldi. Lutf Alibek Ozarning «Otashkada», Som Mirzo Safaviyning «Tuhfai Somiy», Rizoqulixon

Hidoyatning «Majma’ ul fusaho» («Go’zal so’z egalarining to’plami»), Faxriy Heraviyning «Latoifnoma», Mirzo Haydar Do’g’latning «Tarixi Rashidiy», Abdulmo’minxonning «Tom ut-tavorix» («Tarixlar tugali») kabi mumtoz manbalarda Alisher Navoiy zamondoshlari asarlarida kuzatilgani singari shoir ijodiga xolisona baho beriladi, hayoti va faoliyatiga doir qiziqarli lavhalar keltiriladi. Biroq yuqorida ro’yxati keltirilgan (keltirilmagan nomlar ham bor) asarlar ma’lumotiga munosabatda ehtiyot bo’lishimiz lozim. Chunki o’sha tazkira, tarixiy kitoblar mualliflarining Alisher Navoiy haqidagi tasavvurlari bilvosita shakllangan. Shu ma’noda ularning qaydlarida noaniqliklar kuzatilishi mumkin. Xullas, uchinchi manba ma’lumotlari Alisher Navoiy ko’lamdor faoliyatining oydinlashtirish uchun turtki bo’lsa-da, jiddiy ilmiy xulosalarga kelish uchun asos bo’lishi qiyindir.

4. Xalq og’zaki badiiy ijodi. O’zbek, tojik va turkman xalq og’zaki ijodida Alisher Navoiyga bag’ishlangan juda ko’p rivoyatlar uchraydi. Ularda xalq sevgan va ardoqlagan ulug’ shoirning o’ziga xos xalqona badiiy obrazi yaratilgan. Mazkur rivoyatlarda tarixiy haqiqat aynan keltirilmaydi. Ularda Hazrat Navoiy obrazi donishmand, hozirjavob, mulohazakor, xalqparvar, mazlumlar himoyachisi, iste’dodli olim, mutafakkir shoir, olijanob shaxs sifatida gavdalanadi. O’zbek xalq og’zaki ijodida «Navoiy va yigit», «Navoiy va qirq vazir», «Navoiy va Guli», turkman folklorida «Mirali va Sulton Suyun» turkumidagi rivoyatlar mavjud bo’lib, bular xalqning ulug’ shoiriga bo’lgan samimiy munosabatining mahsulidir. Ushbu rivoyatlarni folklorshunos M.Jo’raev to’plab nashr ettirdi. (Qarang: El desa Navoiyni. Toshkent: «Cho’lpon», 1991.)

Alisher Navoiy turkiy adabiyotni jahoniy mavqega ko’targan ulug’ so’z san’atkori sifatida mumtoz adabiyotimizning keyingi taraqqiyot bosqichlarida yashab ijod etgan shoirlarning ma’naviy ustozi bo’lib qoldi. Nafaqat turkiy tilda ijod etgan so’z san’atkorlari, balki Sharq adabiyotining juda ko’p mumtoz namoyandalari ham bu ulug’ shoirning boy adabiy merosidan ilhomlandilar, o’sha ijodiy turtki tufayli o’zlarining yangi-yangi badiiy asarlarini ijod etdilar. XX asrga qadar bo’lgan davrda shoirning hayoti va ijodini o’rganish: uning asarlarini kitobat qilish; sermahsul ma’naviy merosiga oid lug’atlar tartib berish; tazkira, tarixiy hamda ilmiy – badiiy asarlarda adib shaxsi, faoliyati va badiiy yaratmalariga miunosabat bildirish; she’rlariga javobiya va muxammaslar bitish; dostonlarining nasriy bayonini yaratish va ayrim badiiy – ilmiy merosi namunalarini tarjima qilish kabi shakllarda amalga oshirildi. Alisher Navoiyning rangin she’riyatidan namunalarni kitobat qilish hali uning dastlabki devoni tartib berilmasdan ilgari boshlangan edi. Bu haqda ulug’

shoirning ilk rasmiy devoni «Badoye' ul-bidoya»ning debochasida quyidagi fikrlar qaytsd etilgan: « ... ammo xalq orasida ming bayt, ikki ming bayt ortiqroq o'ksukroqkim o'zlari jam' qilib erdilar, bag'oyat mashhur bo'lub erdi». Darhaqiqat, Xurosonning mashhur husnixat egasi «xattotlar qiblagohi (Alisher Navoiy) Sulton Ali Mashhadiy va boshqa chiroyli yozuv san'ati darg'alari tomonidan turli davrlarda shoir asarlari kitobat qilindi. Masalaning bu tomoni ulug' shoir asarlari bilan keng xalq ommasi tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi, deyish asosini bera olmaydi, albatta. XIX asrning 70–yillarida Turkistonda bosmaxonalarning paydo bo'lishi bilan bu boradagi sa'y–harakatlar bir oz bo'lsa-da jonlandi. Qisqa muddatda Alisher Navoiyning «Xamsa», «Chor devon», «Vaqfiya» va boshqa asarlari bir necha bor nashr etildi.

Ulug' shoir asarlarida ilgari surilgan tayanch g'oyalarni teran anglashga bo'lgan intilish maxsus lug'atlar tuzishga bois bo'ldi. «Badoye' ul –lug'at» bu boradagi dastlabki izlanishlar samarasi bo'lib, mazkur asar Alisher Navoiy hayotining so'nggi yillari yoki shoir vafotidan biroz keyin vujudga kelganligi taxmin qilinadi. Keyinchalik «Lug'ati Navoiy» shoir ixlosmandlariga armug'on etildi. 1560-yilda Aloyi binni Muhibiyning «Al-lug'atun Navoiyat val istishhodat ul-chig'atoiyat» («Navoiy lug'ati va chig'atoy tili dalillari») nomli go'zal so'znoma – lug'ati tartib berildi. Keyingi asrlarda ham bunday lug'atlarga bo'lgan ma'naviy ehtiyojning sezilarli darajada mavjudligi kuzatiladi. XVIII asrda Mirzo Madhiyxon «Mabon ul-lug'at» («Lug'at poydevori»)ni tartib bergan bo'lsa, XIX asrda Fath Ali Kojariy «Lug'oti arrokiya» («Turklar lug'ati») nomli asari bilan bunday izlanishlarni davom ettirdi. Mazkur lug'atlar uchun Hazrat Navoiy asarlari so'zlik vazifasini bajargan bo'lib, ularning aksariyati fors-tojik tilida yaratilgan edi. Xorazmlik olim va adib Muhammad Xoksor esa 1798-yilda o'zbek tilida tuzgan «Muntaxab ul-lug'at» («Tanlangan lug'atlar»)ida Alisher Navoiy asarlari matnidan olinadigan parchalarga keng o'rin berdi. XIX asrda bunday ijodiy an'anani Shayx Sulaymon Afandiy Buxoriy o'zining «Lug'oti chig'atoyi va turki usmoniy»sida sezilarli darajada rivojlantirdi.

O'zbek mumtoz adabiyotining XV asrdan keyingi davrlarda yashab ijod etgan taniqli namoyandalari ulug' mutafakkir Alisher Navoiyni o'zlariga ma'naviy ustoz deb bildilar. Bu buyuk sohir qalam sohibining katta-yu kichik asarlariga naziralar bitish, javobiya aytish, g'azallariga muxammaslar bog'lash nafaqat o'zbek shoirlari, balki boshqa qardosh xalqlarning mashhur so'z san'atkorlari orasida ham ajoyib an'anaga aylanib bordi. Namuna sifatida taniqli o'zbek shoiri Shermuhammad Munis (1778-1829)ning bir she'rida

Alisher Navoiyni o’ziga pir (ustoz) deb bilgani va o’z ismining ma’no jihatidan ulug’ Alisherga uyg’unligini iftixor bilan qayd qilganligini keltirish kifoyadir:

So’z ichra Navoiyki jahongir durur,
Munisg’a maoniy yo’lida pir durur.
Yo’q g’ayriyat andin o’zgakim ayturlar,
Bu Shermuhammad, ul Alisher durur.

Shermuhammad Munis «Voliyi mulki tariqat gar Nizomiydur mango» satri bilan boshlanuvchi g’azalida Sharq mumtoz adabiyotining yirik darg’alaridan adabiy ta’sirlanganligini e’tirof etarkan, yana Hazrat Navoiy shaxsiga yuksak baho beradi. Munis Alisher Navoiy ruhini o’z homiysi deb biladi va shu bois hosid (hasadchi, shoir yutuqlarin ko’rolmaydigan)larning xati – harakatlaridan g’am chekmasligini ta’kidlaydi:

Qilsa hosid daxli bejo, so’z aro yo’qtur g’amim,
Kim bu ma’nida Navoiy ruhi homiydur mango.

Alisher Navoiy adabiy–ilmiy merosining boshqa tillarga tarjima qilinishi hamda ularning yangi badiiy yaratmalarning ijod etilishiga asos bo’lishi ulug’ shoir ma’naviy xazinasining Sharq adabiyoti ravnaqi uchun muhim hissa bo’lib qo’shilganligidan dalolatdir. XV asrdayoq buyuk mutafakkirning adabiyotshunoslik ilmi uchun muhim ahamiyatga molik tazkirasi “Majolis un-nafois” bir necha bor fors-tojik tiliga tarjima qilindi. Turk shoiri Lomiy (vafoti 1531) “Xamsa” tarkibidagi “Farhod va Shirin”dostonini usmoni turk tiliga erkin-ijodiy tarjima qildi. Adabiyotshunos Agah Sirri Levend mazkur asarni 1965-yilda Turkiyada nashr ettirdi. Alisher Navoiy asarlarini usmonli turk tiliga o’girish yo’lidagi ijodiy izlanishlar keyingi davrlarda ham davom ettirildi. Adibning «Tarixi muluki Ajam» asarining Fanoiy tomonidan turk tiliga amalga oshirilgan tarjimasi 1782-yilda «Tarixi Fanoiy» nomi bilan Venada chop etildi. Shuningdek, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida ulug’ adibning «Muhokamat ul-lug’atayn» asari ham turk va tatar tillariga tarjima qilindi.

Amir Nizomiddin Alisher Navoiy adabiy – ilmiy merosi G’arb adib va adabiyotshunoslarini ham befarq qoldirgan emas. Jumladan, XVII asrda yashagan gruzin shoiri Sitsishvili «Baramguriani» («Bahrom Go’r») dostonini yozishda Alisher Navoiyning «Sab’ayi sayyor» masnaviysidagi Bahrom va Dilorom hikoyatidan ilhomlangan. XVI asrda Tabrizda istiqomat qilgan arman yozuvchisi Xristafor «Sarandalib shohi uch yosh o’g’lonining ziyorati» asarini Xusrav Dehlaviyning «Hasht behisht» va Alisher Navoiyning «Sab’ayi sayyor» dostonlari hikoyatlari asosida yaratadi. Bu asar 1557-yilda Venetsiyada italyan tiliga tarjima qilinib nashr etilgandan so’ng bir qator Ovrupa tillariga ham o’giriladi. Biroq ilm ahliga Xristafor asarining ikkinchi qismi Alisher Navoiy

dostoni asosida yaratilganligi noma’lum edi. Shunday bo’lishiga qaramay, Sarandib shohi va shahzodalari haqidagi voqealar tizmasi G’arbda keng shuhrat qozondi va Ovrupa adabiyotida shu maavzuda juda ko’p asarlar yozildi. Hatto mazkur sujet Vol’terning «Zadige» hamda Mark Tvenning «Tom Soyer chet elda» kitobidan ham o’rin olgan. XVIII asr ingliz yozuvchisi Xoras Uolpol «Sarandiblik Uch Shahzoda» hikoyasini Yozgan. (Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 354-355-betlar.)

Ovrupalik sharqshunoslarning Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rganish borasidagi qizg’in ilmiy faoliyati XIX asrdan boshlandi. Frantsuz sharqshunosi Katrmer 1841-yilda nashr ettirgan Sharq adabiyotiga doir majmuasida Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug’atayn» va «Tarixi muluki Ajam» asarlaridan parchalar kiritdi. Bunday ijodiy izlanishlar rus olim I.N.Beryozinning «Turk xrestomatiyasi» kitobida ham amalga oshirilgan.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqidagi dastlabki yaxlit ma’lumotlar M.Nikitskiyning «Amir Nizomiddin Alisher, unirng davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati» mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasida (1856) uchraydi. Muallif Alisher Navoiyning o’z asarlari, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy va Som Mirzo Safaviy ma’lumotlariga tayanib G’arb sharqshunosligida birinchi bo’lib Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati xususida katta ilmiy tadqiqot yaratdi. M.Nikitskiy ulug’ shoirning siyosiy faoliyati, madaniyat sohasidagi ishlari hamda turkiy til taraqqiyotiga qo’shgan munosib hissasini yuqori baholaydi. Biroq Sharq adabiyotining o’ziga xos an’anaviylik va shartlilik xususiyatlarini to’la anglab yetmagan M.Nikitskiy va uning o’tmishdosh-u izdoshlari buyuk mutafakkir ma’naviy merosiga baho berishda jiddiy xatolarga yo’l qo’yishdi. Ular Alisher Navoiyni fors-tojik adabiyotining taqlidchisi va tarjimoni tarzida baholashdi. Shuningdek, 1861-yilda Istanbuldagi «Osiyo» jurnalida maqola e’lon qilgan Turkiyadagi Frantsiya elchixonasining tarjimoni M.Belen ham o’sha ilmiy asosi puch fikrlarni takrorladi. Masalaga ana o’shanday bir tomonlama qarash Frantsuz sharqshunosi Buva, ingliz sharqshunosi E.Braun, rus sharqshunosi akademik V.V. Bartold tadqiqotlarida ham kuzatiladi. Albatta, masalaning bunday tus olishi o’z izohlariga ega. Birinchidan, Alisher Navoiy adabiy merosini o’rganish boshlang’ich pag’onada edi. Ulug’ mutafakkirning barcha asarlari to’la holida nafaqat Ovrupa, balki mashriqdagi muhiblariga ham ma’lum emas edi. Ikkinchidan, an’anaviy «Xamsa»lar (Nizomiy Ganjaviy «Panj ganj»i, Amir Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiylarning «Xamsa»lari ko’zda tutiladi.) tarkibidagi dostonlar nomi va ularda faoliyat ko’rsatadigan qahramonlarning yakrangligi, g’azallarning oshiqona mavzuda yozilishi, ularda oshiq, ma’shuqa,

ag’yor, rind, zohid kabi timsollarning ishtirok etishi kabi holatlar musulmon mintaqa adabiyoti xususiyatlari bilan chuqur oshno bo’lmagan tadqiqotchilarni xato xulosalarga olib kelgan. Shundan bo’lsa kerak, ularga Alisher Navoiy asarlarining yangiligi faqat turkiyda yozilishida bo’lib ko’ringan. Ammo fors-tojik adabiyoti namoyandalari she’riyatida kuzatiladigan o’sha o’xshashliklar (albatta, zohiran) G’arb adabiyotshunoslari e’tiboridan chetda qolib ketgan. Shu o’rinda yana bir adabiy hodisani eslatish joizdir. Alisher Navoiy tabiatidagi rostgo’ylik va ustozlarga bo’lgan yuksak sadoqat ham uning uchun «qimmat»ga tushgan. Masalan, u «Lison ut-tayr» dostonining bir necha o’rnida «tarjima rasmi bilan surdim qalam», - deya ta’kidlaydi. Holbuki, ijodiy jarayondan yetarli xabardor bo’lmagan, qiyosiy tahlilga murojaat etmagan har qanday tadqiqotchi muallifning o’z e’tirofiga suyansa, bir yoqlama xulosalarga kelishi tayin. Dadil aytish mumkinki, XIX asrning oxiri va XX asrning ibtidosida o’shanday holat sodir bo’lganligi uchun ham ulug’ Navoiy bo’yniga “tavqi la’nat” osib qo’yildi. Shukronalar bo’lsinki, ilmiy adolat qaror topdi. Birinchilardan bo’lib prof. Y.E.Bertels Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”dostonlarini qiyosiy o’rganish orqali masalaga aniqlik kiritdi va milliy navoiyshunoslar uni mustahkamladilar.

Ovrupa olimlari Alisher Navoiy asarlarini o’rganish maqsadida lug’atlar tuza boshladi hamda mavjud mumtoz lug’atlarni nashr ettirish ishlarini amalga oshirdilar. Jumladan, rus sharqshunosi V. Vilyaminov - Zernov 1868-yilda Sankt – Petrburgda XVI asrda Aloyi binni Muhibiy tomonidan tuzilgan «Al-lug’at un-Navoiyat val-istishhodat ul-chig’atoiyat» lug’atini nashr ettirdi. Frantsuz sharqshunosi Pave de Kurteyl esa Navoiy asarlaridan foydalanib Sharq adabiyoti asarlari uchun lug’at tuzdi. Rus sharqshunosi N.I. Ilminskiy Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug’atayn» asarini teran ilmiy tahlil qilish orqali ulug’ shoir asarlarining ijodiyligiga urg’u berdi.

Alisher Navoiy hayoti va ijodini chinakam ilmiy tamoyillar asosida o’rganish XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Ulug’ shoirning «Xamsa»sini ilmiy, ilmiy-ommabop yo’sinda o’rganish sohasidagi dastlabki dadil qadamni o’zbek xalqining serqirra adibi va birinchi professori Abdurauf Fitrat qo’ydi. Uning «Farhod va Shirin» dostoniga doir qiyosiy tahlil asosida yaratilgan «Farhod va Shirin» dostoni to’g’risida» (Qarang: «Ma’rifat», 1996-yil, 7-28-dekabr’ va boshqa sonlar.) nomli salmoqli maqolasi shu yo’nalishdagi jiddiy tadqiqotlardan biridir. Sobiq Ittifoq hukumatining 1938-yilda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini 1941-yilda nishonlash to’g’risida qaror qabul qilishi navoiyshunoslik borasidagi ishlarni yanada jonlanishiga sabab bo’ldi. Sadriddin Ayniy Alisher Navoiy «Xamsa»sining nazm-u nasrdan iborat

qisqartirilgan nusxasini yaratdi va mazkur ish lotin yozuvida 1939-yilda nashr bo'ldi. Besh asrlik yosh to'yi munosabati bilan ulug' shoirning «Chor devon», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mahbub ul-qulub» va yana bir qator asarlari ham chop etildi. Taniqli adib va olim M.Shayxzoda «Genial shoir» nomli asarini yozdi. V.Abdullayev esa Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

1941-yilda sobiq Ittifoq hududining II jahon urushi janggohlariga aylanishi tufayli Alisher Navoiy yubileyini keng miqyosda tantana qilish kechiktirildi. Shunday bo'lsa-da, nafaqat O'zbekistonda, balki Moskva va hatto qamalda qolgan Sankt–Petrburgda ham I.A.Orbeli, I.YU.Krachkovskiy, Y.E.Bertels, A.N.Boldirov, A.N.Kononov, B.B.Piotrovskiy, B.T.Rudenko singari olimlar tomonidan Alisher Navoiy merosini o'rganish ishlari qizg'in davom ettirildi. Ulug' mutafakkir shoir tavalludining 500 yilligi 1948-yil may oyida tantanali suratda o'tkazildi. Shu yili taniqli yozuvchi Oybek tahriri ostida «Ulug' o'zbek shoiri» nomli ikkita maqolalar to'plami (o'zbek va rus tillarida), O.Sharifiddinov (Alisher Navoiy. Hayoti va ijodiyoti. Toshkent, 1948), Y.E.Bertels (Опыт творческой биогрю Москва, 1948), Sadriddiy Ayniy (Alisher Navoy. Stalinobod, 1948) ilmiy risolalari chop qilindi.

Turkiy adabiyotni jahoniy mavqega ko'targan Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganish turli millat va tilga mansub sharqshunos olimlarning diqqatini o'ziga jalb etdi. Navoiyshunoslik fan sifatida shakllana boshladi va uning oldida shoir asarlarini to'plash, Navoiy merosining mukammal bibliografiyasini tuzish, asarlarining nodir nusxalarini aniqlash va ilmiy tekshirish, adib ijodini ommalashtirish hamda undagi dolzarb muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdek g'oyatda muhim vazifalar turardi. Shunday qilib, ulug' shoir tavlludining besh asrlik to'yi soha ravnaqi uchun tub burilish pag'onasi vazifasini o'tadi. XX asrning 40-yillarida ibtido topgan ko'lamdor ilmiy yo'nalishlar 50-yillarga kelib o'z samarasini bera boshladi. Ayniqsa, 60-yillarda boshlangan ulug' adib, davlat va jamoat arbobining 525 yillik umr to'yi tantanalari shaxdam ilgarilayotgan navoiyshunoslikni yanada yangi taraqqiyot pillapoyalariga olib chiqdi. Taniqli adabiyotshunos Porsoxon Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan «Xamsa»ning mukammal nashri (Toshkent: «Fan», 1960), Hamid Sulaymon sa'y–harakati bilan «Xazoyin ul-maoniy» akademik nashri (to'rt kitob. Toshkent: «Fan», 1959-1960.) hamda Alisher Navoiy asarlarining o'zbek tilidagi o'n besh tomligining (o'n olti kitob) nashr etilishi o'zbek xalqining madaniy hayoti tarixida juda katta ijtimoiy–ma'naviy voqea bo'ldi. Adabiyotshunos olimlardan Y. Is'hoqovning «Alisher Navoiyning ilk lirikasi»

(1965), M.Shayxzodaning «Ustodning san’atxonasida» maqolalar turkumi (1965 - 1966), A.Hayitmetovning «Navoiyning ijodiy metodi» (1963), «Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan» (1970), Navoiy adabiy an’analarining davomi va takomili xususida V.Abdullayev, B.Valixo’jayev, H.Yoqubov, A.Qayumov, X.Rasulov, E.Ibrohimova, R.Majidiy singari o’nlab salohiyatli o’zbek olimlarining katta–kichik tadqiqotlari vujudga keldi. Shuningdek, Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga doir turfa ilmiy, ilmiy–ommabop asarlar yaratildi va keng o’quvchilar ommasiga taqdim etildi. Oybekning «Navoiy gulshani» maqolalar to’plami (1967), uning ukrain adibi A. Deych bilan birga yozilgan «Alisher Navoiy» ilmiy-ommabop ocherki (Toshkent, 1968), T.Jalolovning «Xamsa» talqinlari» (1962), S.G’anievaning «Alisher Navoiy» (1969), S. Narzullaevaning «Alisher Navoiy» (1965), N.Mallayevning «Genial shoir va mutafakkir» (1968), M.Qodirovning «Alisher Navoiy va san’at» (1968) kabi o’nlab mazmundor kitoblar shular jumlasidandir. Alisher Navoiy va adabiy ta’sir muammolari mavzusi ham davr navoiyshunoslarining diqqat markazidan o’rin olgan edi. 1968-yilda Alisher Navoiy tavlludining 525 yilligi munosabati bilan O’zbekiston R FA Til va adabiyot instituti tashabbusi bilan nashr qilingan «Navoiy va adabiy ta’sir masalalari» to’plami ana o’sha keng qamrovli mavzu ishlanishining kichik bir samarasidir.

O’zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilingunga qadar V.Zohidovning «Ulug’ shoir ijodining qalbi» (1970), A.Hayitmetovning «Tabarruk izlar izidan», «Navoiy dahosi», «Meros va ixlos» kabi tadqiqotlari hamda «Hayrat ul-abror» dostonining nasriy tavsifi (1974), A.Abdug’afforovning «Navoiy ijodida satira» (1972), Sodir Erkinovning «Navoiy «Farhod va Shirin»i va uning qiyosiy tahlili» (1971), N.Mallayevning «Navoiy ijodining xalqchil negizi» (1973), hamda «Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti» (1974), A.Rustamovning «Navoiyning badiiy mahorati» (1979) singari yirik ilmiy tadqiqodlari vujudga keldi. Akademik A.P.Qayumov «Xamsa» tarkibidagi har bir doston talqiniga bag’ishlangan bittadan ilmiy ommabop risola yozib, ularni ulug’ shoir ijodi muxlislariga taqdim etdi. 1976 - yilda «Navoiy va ijod saboqlari», 1986-yilda esa «Navoiy «Xamsa»si» nomli yirik ilmiy to’plamlar nashr etildi. Aytish mumkinki, mazkur ilmiy tadqiqotlar navoiyshunoslik ilmi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Ayni ishlar sohaga kirib kelgan yosh olimlarning ulug’ shoir ijodini teran anglashlari va chuqur tadqiq etishlari uchun o’ziga xos maktab vazifasini o’tadi.

Bir so’z bilan aytganda, XX asrning 60–80– yillarida navoiyshunoslik o’z ravnaqining yanada yuqori pillapoyalari sari ilgariladi. Ulug’ shoir «Majolis un-nafois», «Xamsa» tarkibidagi dostonlar, «Xazoyin ul-maoniy»

yig’ma devonlari ilmiy-tanqidiy matnlarining yaratilishi; asarlari saylanmasi o’n jildligining rus tilida bosilib chiqishi; buyuk mutafakkir asarlari uchun bir jildlik hamda to’rt kitobdan iborat izohli lug’atlarning e’lon qilinishi navoiyshunoslik rivojini ta’min etgan jiddiy omillardir. Biroq shu o’rinda achchiq haqiqatni ta’kidlash ham o’rinli ko’rinadi. Davr adabiy-ilmiy hayotida amalga oshirilgan ishlarda Sho’ro mafkurasi «madaniy merosga lenincha munosabat tamoyillari»ning mudhish asoratlari o’z izini qoldirgan edi. Bu, ayniqsa, ulug’ shoir asarlarining nashrida (ilohiy-irfoniy boblarning tushirilib qoldirilishida), she’rlar-u dostonlarining g’oyaviy-badiiy tahlilida yorqin nazarga tashlanadiki, biz bugun ularni tanqidiy nazardan o’tkazmog’imiz lozimdir.

Yurtimizda milliy istiqloldan darak beruvchi shabadalar esa boshlagan davrda ulug’ shoir asarlarini ularning tayanch g’oyaviy-ma’naviy sarchashmalari sanalgan Qur’oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta’limoti bilan uzviy aloqadorlikda, yangicha yo’nalishda tadqiq qilish harakati boshlandi. Bu o’z navbatida Alisher Navoiy yigirma tomlik mukammal asarlar to’plamini nashr etilishi harakatlarining boshlanishiga sabab bo’ldi. 1987-yilda uning dastlabki, birinchi jildi nashr etildi. Taniqli adabiyotshunos I.Haqqulovning «Zanjirband sher qoshida» (1989), «She’riyat ruhiy munosabat» (1989), «Abadiyat farzandlari»(1990), «Tasavvuf va she’riyat» (1991), S.Hasanovning «Navoiyning yetti tuhfasi»(1991) singari asarlarning vujudga kelishi Alisher Navoiy va mumtoz adabiyotimiz boshqa namoyandalarining ijodiy merosi uchun milliy qadriyatlarimiz tayanch sarchashma bo’lganligini keng xalq ommasiga yetkazish borasidagi dastlabki jiddiy harakatlardan sanaladi. Shunday qilib, adabiyotshunoslikda Alisher Navoiy asarlarining tayanch g’oyaviy-ma’naviy manbalari Qur’oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta’limoti ekanligi e’tirof etila boshlandi. Shuningdek, shoirning adabiy asarlarda so’z qo’llashdagi san’atkorlik mahorati nuqtayi nazaridan badiiy asar qimmatini belgilash asosiy tamoyilga aylana boshladi. Ulug’ shoirning 550 yillik to’yi munosabati bilan nashr etilgan «Alisher Navoiy. G’azallar, Sharhlar» (1991) nomli kitobdan o’rin olgan Suyima G’aniyeva, Erkin Vohidov, Najmiddin Komilov, Muhammad Ali, Jamol Kamol, Abdurashid Abdug’afurov, Ibrohim Haqqulov, Nusratulla Jumayev, Matnazar Abdulhakim kabi olim va ijodkorlar qalamiga mansub maqolalar ana o’shanday xususiyatga molikligi bilan diqqatni tortadi. Vatanda keng quloch yoyib borayotgan milliy istiqlol qayd etilgan sa’y-harakatlarning keng quloch yoyishi uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. 1993-yilda «Alisher Navoiy adabiy mahorati masalalari» nomli maqolalar to’plami nashr etildi. Yana

A.Hayitmetovning «Navoiyxonlik suhbatlar» (1993), «Temuriylar davri o'zbek adabiyoti» (1996), H. Karomatovning «Qur'on va o'zbek adabiyoti» (1993), R.Vohidovning «Alisher Navoiyning ijod maktabi» (1994), «Navoiy va ilohiyot» (1994), Shu olimning M.Mahmudov bilan hamkorlikda yozilgan «Ma'naviyat -komillik saodati» (1997), «Iymon - qalb gavhari» (1999), S.Olimning «Ishq, oshiq va ma'shuq» (1992), «Naqshband va Navoiy» (1996), N.Jumayevning «Satrlar silsilasidagi sehr» (1996) singari chop etilgan tadqiqotlari navoiyshunoslik ravnaqi uchun muhim hissa bo'lib qo'shildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Alisher Navoiy ijodining dolzarb muammolariga bag'ishlangan juda ko'p doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Navoiyshunoslik fani oltinchi yuz yillikka qadam qo'yishi munosabati bilan taniqli olim A. Hayitmetov uning taraqqiyot yo'nalishini belgilab beruvchi «Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari haqida» («O'zbek tili va adabiyoti» 2001, 2-son, 3-10-betlar) nomli yirik maqolasini e'lon qildi. Otaxon navoiyshunos olim mazkur maqolasida navoiyshunoslik ilmi erishgan yutuqlarni umumlashtirib, uning taraqqiyot omillariga munosib baho beradi, ma'lum ma'noda yakun yasaydi. Shuningdek, sohada kuzatiladigan kamchiliklar va hal etilishi zarur bo'lgan dolzarb muammolar sanab o'tiladi. Zikri o'tgan ayrim jihatlari bilan prof. A.Hayitmetovning mazkur maqolasi dasturiy ahamiyat kasb etadi.

7.2. Ulug' shoirning bolalik va yoshlik yillari.

Alisher Navoiy hijriy 844-sanada, tovuq yili ramazon oyining 17-kuni (1441-yil 9-fevral') XV asrning yirik madaniy markazlaridan biri bo'lgan Hirot shahri hududidagi Bog'i Davlatxona nomi bilan ataluvchi maskanda dunyoga keldi. Bu davrda Hirot poytaxt Xuroson mamlakati sohibqiron Amir Temurning kenja o'g'li Shohruh Mirzo tomonidan idora etilardi. Alisher tug'ilgan xonadon ahli esa har ikki tarafdan ham temuriylarning eng yaqin kishilaridan hamda «chig'atoy ulusi»ning nufuzli amaldorlaridan sanalardi. Bu yaqinlik XV asr tarixchisi Mirxondning «Ravzat us-safo»nomli asarida quyidagicha ifoda etiladi: «Amir Alisherning bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayx bilan ko'kaldosh (emikdosh, bir onani emgan bolalar – R.V., H.E) edi.» Ulug' shoir bu ko'kaldoshlik haqida o'z asarlarida ma'lumot bermagan bo'lsa-da, har ikkala xonadon o'rtasidagi yaqinlik u yashagan davrda ham ota-onasi tomonidan davom etganligini «Badoyi' ul-bidoya» devoni debochasida faxr bilan e'tirof etadi: « ...agarchi ota-onadin yetti pushtg'a dekincha bu rafe' (yuksak – R.V., H.E) dudmonning (xonadonning – R.V., H.E.) botiniy bandasi

va vase’ (keng – R.V., H.E.) ostonning mavrusiy (meros bo’lib qolgan – R.V., H.E.) tug’masi ... erdi:

Otam bu ostonning xokbezi,
Onam ham bu saro bo’ston kanizi,
Manga gar xud bo’lay bulbul va gar zog’
Ki ushbu dargah o’lg’ay gulshanu bog’» (MAT. I. 17-b.).

Bo’lg’usi ulug’ shoirning otasi G’iyosiddin Muhammad ham temuriylar saroyida xizmat qilgan. Uning «Kichkina baxshi», «Kichkina Bahodir» unvonlari bilan atalganligi ham manbalarda qayd etiladi. «Baxshi» so’zining ma’nosi «yozuvchi, kotib, mirzo, xalq og’zaki ijodi donishmandi, ijodkori» kabi ma’nolarni anglatgani inobatga olinsa, uning (G’iyosiddin Baxshining) o’z zamondoshlari o’rtasida insho ilmining mohiri, adabiyot va san’atning e’timodli arbobi maqomida obro’-e’tiborga molik bo’lganligiga qanoat hosil qilish mumkin. G’iyosiddin Muhammad ilm-u urfon, adabiyot va san’atga yaqin bo’lganligi bois o’g’li, Alisherning axloqiy-ma’naviy tarbiyasiga juda jiddiy e’tibor beradi. Manbalarning shahodatiga ko’ra, Alisherning onasi Kobulning amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizi bo’lgan. (Ulug’ shoirning ona tarafidan bobosi nomidagi rutba – unvonlarga e’tibor qiling: Shayx – ilohiyot va irfonda muayyan maqomlarga yetgan donishmand; chang – kuy, musiqa asbobi nazariyasi va amaliyoti bobida zamondoshlari tarafidan tan olingani tufayli ham uning nomiga shunday unvon ilova qilib aytilgan R.V., H.E.) Masala ravshan, Alisher har ikki tarafdan ham nufuzli va ma’rifatli xonadonda dunyoga kelgan. Uning adabiy-ma’rifiy tarbiyasi bilan esa Shayx Abu Said Changning o’g’illari, Alisherning tog’alari, iste’dodli shoirlar: Mir Sayyid Kobuliy va Muhammad Ali G’aribiylar shug’ullanishgan. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»da tog’alari haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: «Mir Sayyid – el orasida «Kobuliy» laqabi bila mashhurdir, faqirg’a tag’oyi bo’lur. Yaxshi tab’i bor erdi, turkchaga mayli ko’proq erdi. Bu tuyuq aningdurkim:

Ey muhiblar, yetsangiz gar yoza siz,
Gul adoqinda xumori yozasiz.
Gar men o’lsam, turbatimning toshig’a,
«Kushtayi bir sho’x erur», deb yozasiz » (MAT.13. 66-b.).

Yana: «Muhammad Ali – «G’ibiy» taxallus qilur erdi. Ul ham faqirg’a tag’oyi bo’lur erdi. Mir Sayyid Kobuliyning inisidur. Xush mahovara va xushxulq va xushta’b va dardmand yigit erdi. Uni va ulusi xo’b erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi. Xututni ham xub bitur erdi... Bu turkcha matla’ aningdurkim:

Dardi halimdin agar g’ofil, agar ogoh esang,
Hech g’am yo’q gar manga sen dilbar-u dilxoh esang» (66-b.).

Yosh Alisherning kamolga yetishi, adabiyot va san’atga mehr qo’yishida ma’rifatparvar inson, san’at va adabiyot muhiblaridan bo’lgan otasi G’iyosiddin Muhammad, shoir Mir Sayyid Kobuliy, shoir, xattot, musiqachi Muhammad Ali G’aribiylarning ta’siri juda katta edi. Shuningdek, davrining ulug’ ijodkori, faylasufi va shuhratmand shayxi Amir Qosim Anvorning quyidagi matlasini yod aytib, ko’pchilikni hayratlantirishida, shubhasiz, oila muhiti muhim ahamiyat kasb etgan.

Rindemu oshiqemu jahonso’zu joma chok,
Bo davlati g’ami tu zi fikri jahon chi bok?

Mazmuni: Rindlarmiz, oshiqlarmiz, jahonni kuydiruvchi va yoqa vayronlarmiz, Sening g’aming davlati bilan ekanmiz, jahon fikrining nima hojati bor? (MAT. 13-jild. 11-bet).

1445-yilda to’rt yashar Alisherni maktabga beradilar. Alisher maktabda bo’lgan. Bo’lg’usi shoirning 3-4 yoshlar orasida zamonasining bo’lajak hukmdori Husayn Boyqaro bilan birga ta’lim va tarbiya ko’radi. Tarixchi Xondamirning yozishicha, Alisher oz vaqt ichida ta’lim-u tahsilda tengdosh va sheriklaridan ancha ilgarilab ketadi. Biroq Alisherning Hirotdagi maroqli tahsili uzoqqa cho’zilmaydi. Mamlakat hukmdori Shohruh Mirzo 1447-yilning 12-martida vafot etdi. O’sha davr an’analariga ko’ra, podshohlik taxti Shohruh Mirzoning katta o’g’li Ulug’bek Mirzoga yoki nabirasi Abdullatifga meros qolishi kerak edi. Shohruh Mirzo o’limidan oldin o’z tilagini rasmiy ravishda e’lon qilmagan bo’lsa-da, o’g’li Muhammad Jo’gini taxt vorisi qilmoqchi ekanligi uning saroy a’yonlariga ma’lum bo’lgan. Shundan bo’lsa kerak, mamlakat hukmdori Shohruh Mirzo hali hayot bo’lishiga qaramay, 1444-yidanoq toj-taxt kurashlari zimdan boshlanib ketadi. Davlatning rasman idora jilovini o’z qo’liga olgan Shohruh Mirzoning xotini Gavharshodbegim vujudga kelgan siyosiy o’yinlarga faol aralashib masalani o’zicha hal qilmoqchi bo’ladi. Balxdan katta umidlar bilan Hirotga kelgan Muhammad Jo’gi Gavharshodbegimning o’z sevikli nabirasi Alouddavlani taxt vorisi deb e’lon qilib, saroy mulozimlaridan ba’zilarining roziligini olib qo’yganidan xabar topadi. (Sulton I. Navoiyning qalb daftari. Toshkent, 1969, 59-bet.) Shunday qilib, Shohruh Mirzo vafot etishi bilan mamlakatda o’zboshimchalik, boshbodoqchilik hukmronlik qila boshlaydi. Gavharshodbegim homiyligi ostida Alouddavla, Ulug’bek Mirzo, Abulqosim Bobur Mirzo, Abdullatif Mirzo va Abusaid Mirzolar Hirot taxti uchun kurashga kirishib ketadilar. Xurosonda notinch vaziyat vujudga keladi. Mamlakat aholisi osoyishta

boshpana izlash ilinjida qo’shni o’lkalarga chiqib keta boshlaydi. Iroq safarini ixtiyor etgan karvon orasida G’iyosiddin Kichkina oilasi ham bor edi. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida Iroqqa borayotganlarida, yarim tunda, Taftda tasodifan mashhur tarixchi olim, «Zafarnoma» asarining muallifi Sharofiddin Ali Yazdiy xonaqosi eshigi oldida maskan tutganliklari va tongda bu ulug’ zot bilan suhbatlashish hamda u kishining duolariga musharraf bo’lganligini eslaydi. Sharofiddin Ali Yazdiy yosh Alisherdan maktab borishini so’raydi va «Ne yergacha o’qibsen?» - deya savol bilan murojaat qiladi. Yosh Alisher ul zoti mukarramga «Taborak» surasig’acha», - deya javob beradi. Bundan ma’lum bo’ladiki, bo’lg’usi shoir juda yoshlik yillaridan Qur’oni karim mutolaasiga beriladi. Masalaga yanada aniqlik kiritadigan bo’lsak, islom e’tiqodi tasarrufiga o’tgan yurtlarda savodxonlik qur’onxonlikdan (haftiyakdan) ibtido topgan. Shundan bo’lsa kerak, Shorofiddin Ali Yazdiy hazratlari ham savolni muallaq tarzda (nechanchi sinfga emas, ne yergacha o’qibsan?), beradilar. Mohiyatni chanqoqlik bilan ilg’agan yosh Alisher nazokat bilan «Taborak» surasig’acha», - deya javob qaytaradi. Tabiiyki, ayni nuqtada shakllanayotgan bolaning axloqiy-ma’naviy olamiga, tabiatiga, dunyoqarashiga jiddiy ta’sir ko’rsatmay qolmaydi. Bas shunday ekan, mumtoz shoir-u adiblarimiz, olim-u ulamolarimiz qoldirgan ma’naviy merosni ilohiyotdan ajratib o’rganishni sira-sira aqlga sig’dirib bo’lmaydi.

1452-yilda Xurosondagi siyosiy notinchliklar tugab, Hirot taxti Abulqosim Bobur Mirzo ixtiyoriga o’tgandan so’ng, boshqa muhojirlar qatori G’iyosiddin Muhammadning oilasi ham ona-yurti Hirotga qaytadi. Alisherning otasi temuriylar xonadoni oldidagi oldingi e’tiborini tiklaydi va Abulqosim Bobur Mirzo saroyiga xizmatga kiradi. Oradan birmuncha vaqt o’tgandan so’ng, u Xurosondagi Sabzavor viloyatiga hokim qilib tayinlanadi. Sabzavor hokimi lavozimida ishlayotgan G’iyosiddin Kichkina 1453-yilda o’g’li Alisherni o’zi bilan qisqa muddatda Hirotdan olib ketgan bo’lishi mumkin, degan taxmin ayrim tadqiqotlarda qayd etilgan. (Qarang: O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 2-tom, Tokent, 1977, 43-bet.) Adabiyotshunos I.Sulton bu masalaga ochiqlik kiritish maqsadida «Majolis un-nafois»dagi ma’lumotlarga e’tiborni qaratadi. Unda qayd etilishicha, Abulqosim Bobur Mirzo tomonidan Astrobodga hokim qilib yuborilgan sabzavorlik shoir Mir Shohiy manzilga yetib vafot etadi va uning tobuti ona yurti Sabzavorga olib kelinadi. G’iyosiddin Kichkina oilasi bilan Sabzavorga borganda, mashhur shoir Mir Shohiyning dafn marosimi o’tkazilayotgan edi. Shu bois Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»da: «Faqir agarchi ani ko’rmadim, ammo aning birlan faqir orasida e’lom va irsol (xat – R.V., H.E.) voqe’ bo’ldi» (Izzat Sulton.

Navoiyning qalb daftari. Toshkent, 1969, 78-79- betlar),-deb yozadi. Shuningdek, shoir «Majolis un-nafois»da Sabzavorda yashagan ijodkor Xoja Ahmad Mustafiy haqida: «Bu faqir ul buzrukvor suhbatig'a tar yerdi, ko'p iltifotlari bor erdi», - deya qayd etadi. (O'sha kitob, 82-bet) Bulardan tashqari, Alisher Navoiy sabzavorlik shoir Darvesh Mansurdan aruz ilmini o'rganganligini ham mazkur tazkirada e'tirof etadi. (O'sha kitob, 84-bet) Darhaqiqat, navoiyshunoslikda Alisher Navoiyning Sabzavorda bo'lish-bo'lmasligimasalasida ikki xil qarash hukmronlik qiladi. Bir guruh olimlar Abulqosim Bobur Mirzo saroyida tahsil bilan mashg'ul bo'lgan Alisher hech bo'lmaganda ta'til paytlarida Sabzavorga, ota-onasi huzuriga borib turgan bo'lishi mumkin, degan mulohazani o'rtaga tashlaydilar. Ikkinchi guruhga mansub tadqiqotchilar esa mazkur fikrni inkor etadilar. Fikrimizcha, Alisher Sabzavorda bo'lmagan. Mavjud mumtoz adabiy-tarixiy manbalarda bu masalada aniq ma'lumotlar ko'zga tashlanmaydi. Uning sabzavorlik ijodkorlar bilan muloqoti esa Hirotda sodir bo'lgan ko'rinadi. Ayniqsa, bu ta'kid Darvesh Mansurga doir ma'lumotlarga tegishlidir. To'g'ri, Alisher Navoiyning sarbadorlar harakatining poytaxti bo'lgan Sabzavor, uning shirinkalom shoiri Amir Shohiyga nisbatan muhabbati had-hudud bilmaydi. Ulug' shoir garchi qalban o'sha muqaddas zamin go'shasini tavof etgan bo'lsa-da, jisman u yerlarni kezish, sarbadorlar qadami tekkan yer parchasi tuprog'ini ko'ziga surtish baxti unga nasib etmagan ko'rinadi. Buning aksi bo'lgani edi, shoir u haqda katta ixlos bilan yozib qoldirgan bo'lardi. Ayni bahsning ko'plab sabab, izohlari haqida gapirish mumkin. O'shalardan eng asosiysi haqida akademik Izzat Sulton quyidagilarni qayd qilgan ediki, otaxon adabiyotshunosning mulohazalari ilmiy-ijtimoiy haqiqatga yaqindir: «Feodalizm davrida shahzodalarning va katta amaldorlarning bolalari mamlakat podshohi saroyida, poytaxtda tarbiya olar edilar. Bu, bir jihatdan – u bolalarning otalariga hurmat bo'lsa, ikkinchi jihatdan shahzodani hamda amaldorni podshohga xiyonat qilishdan asraydigan garov hisoblanar edi.» (O'sha kitob, 85-bet) Alisher Navoiyning zamon hukmdori Abulqosim Bobur Mirzo bilan munosabati haqidagi qaydlar ham bo'lajak shoirning Hirotda (Sabzavorda emas!) shoh saroyida maskan tutganligidan daldolat beradi. Bu haqda Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkira ush-shuaro»sida quyidagicha ma'lumot beriladi: «Sulton Abulqosim Bobur so'zamol va hunarparvar podshoh edi, hamma vaqt ulug' amirga (Alisher Navoiyga – R.V., H.E.) tab'ining muloyimligi, ziyrakligi uchun ofarinlar o'qir edi, ba'zi paytlarda ulug' amir bitgan turkiycha va forsiycha she'rlarni mutolaa qilar, tab'ining qudrati va sharofatli so'zlarining shirinligidan taajjublanardi, bedarig' marhamatidan bahramand qilar va xayrli

duolari bilan qo’llab-quvvatlardi» (Navoiy zamondoshlari xotirasida. Toshkent, 1985, 15-bet) Ko’rinadiki, mamlakat hukmdori Abulqosim Bobur Mirzo bo’lg’usi shoirga homiylik qildi, uning favqulotda iste’dodining shakllanishida imkoniyat yaratdi.

Alisher Navoiy maktabda o’qib yurgan kezlarida Qur’oni karim mutolaasidan so’ng, Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziyning «Guliston», «Bo’ston» asarlarini ham o’qigan. Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» dostonini yod olgan. Bu haqda u «Lison ut-tayr» dostonida katta ishtiyoq bilan yozgan edi. 7-8 yoshlaridan badiiy ijod bilan shug’ullana boshlagan Alisher 10-12 yoshligidanoq badiiy tafakkurining kengligi, go’zallik, nafosatni teran ilg’ashi va ularni rangin baytlarda nazokatli badiiylashtira olishidan darak beruvchi noyob she’rlari bilan Hirotdagi yirik shoirlar diqqatini o’ziga jalb etdi. Davlatshoh Samarqandiyning ma’lumotiga ko’ra, yosh Alisher Abulqosim Bobur Mirzo davrida ilm olish uchun juda ko’p sa’y-harakatlar qiladi. Zamonasining taraqqiyparvar ziyoliylari bilan tanishadi va ularning suhbatlarida bo’ladi. Yoshlik chog’idanoq zullisonayn shoir sifatida elga taniladi. Buyuk mutafakkir «Muhokamat ul-lug’atayn» asarida umrining yoshlik va yigitlik fasllarini xotirlab: «ko’prak she’rda sehrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash’ori va rangin abyotidin (baytlaridan – R.V., H.E.) ellik mingdan ortuq yod tutupmen», - deya iftixor bilan ta’kidlaydi. Alisher Navoiy haqida ilk yaxlit asar - «Makorim ul-axloq» («Yaxshi xulqlar»)ni yaratgan G’iyosiddin Xondamir uning «yagonayi davron» (Xondamir ta’biri) Mavlono Lutfiy bilan muloqotlaridan biri haqida zo’r qoniqish bilan hikoya qiladi. Unda naql qilinishicha, «malik ul-kalom» («so’z mulkining podshohi» – Alisher Navoiy bahosi) Mavlono Lutfiy yosh Alisherdan yangi yozilgan she’rlaridan birini o’qib berishini so’raydi. Voqealarning keyingi tafsiloti haqida «Makorim ul-axloq»da o’qiymiz:

«Mavlono Lutfiy – so’z lutfida yagonayi davron edi. Undan ilgari hech kim turkiy tilda undan yaxshiroq ayta olmagan. Oliy Hazrat (Navoiy) yoshlari endigina to’lib, yigitlik davri boshlangan paytlarda, bir kuni Lutfiy xizmatig’a bordi. Lutfiy: «O’z nozik fikrlaringizning natijalaridan yuzaga chiqqan bir g’azalni o’qish bilan bizni bahramand qilsangiz», -deb iltimos qildi. U hazrat bir g’azal o’qidi, uning matlasi mana bu:

Orazin yopqoch, ko’zumdin sochilur har lahza yosh,
Bo’ylakim, paydo bo’lur yulduz, nihon bo’lg’och quyosh.

Mavlono (Lutfiy) janoblari bu alangali g’azalni eshitish bilan hayrat dengiziga cho’mib, shunday dedi: «Valloh, agar muyassar bo’lsa edi, o’zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o’n-o’n ikki ming baytimni shu

g’azalga almashtirardim va buni o’zimning katta yutug’im deb hisoblardim» (Xondamir. Makorim ul-axloq. Toshkent, 1967, 45-bet). Shunday qilib, turkiy ijodida «Navoiy», forsiy asarlarida «Foniy» taxallusini qo’llagan Alisher XV asrning 40-50 yillarida o’qish, o’rganish, badiiy ijod bilan juda jiddiy shug’ullandi. Manbalarda qayd etilishicha, zamonasining mashhur musiqashunosi Xo’ja Yusuf Burhondan musiqa, shoir va olim Darvesh Mansurdan aruz ilmini o’rgandi, tarix, adabiyot, husnixat va san’atning yana bir qator turlarini pishiq o’rgandi.

Alisher Navoiy otasidan ancha erta (1456-yilda) ajraldi. Hayotidagi bu ko’ngilsiz voqealar uni tobora ma’rifatparvar hukmdor Abulqosim Bobur Mirzo saroyi bilan yanada yaqinlashishiga sabab bo’ldi. 15 yoshida Husayn Boyqaro bilan birgalikda bu ulug’ hukmdor saroyida xizmat qila boshladi. 1456-yil oktabr oyining boshlarida Abulqosim Bobur Mirzo saltanati poytaxtini Hirotdan Mashhadga ko’chiradi. Ana o’sha yillardan boshlab, Alisher Navoiy hayotining Mashhad davri boshlanadi. Ayni yillar ulug’ mutafakkir ijtimoiy-adabiy hayoti uchun ayricha mavqega ega. Yosh shoir o’zi uchun «ota masobasida» bo’lgan, «turk va sart orasida andin tamomroq kishi ko’rmagan» Darvesh Sayyid Hasan Ardasher bilan uchrashadi. «Majolis un-nafois»dagi ma’lumotlarga ko’ra, hayotining Mashhad davrida Alisher Navoiy iste’dodli shoir sifatida elga tanilgan, uning dilbar nazmi Xuroson mulkida ancha keng shuhrat topgan edi. Ayniqsa, Shayx Sayyid Hasan Ardasher yig’inlarda yosh shoirning quyidagi baytlarini ko’p o’qir va xushvaqt bo’lardi:

Furqatingdin za’faron uzra to’karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag’rimdin erur pargolalar.

(MAT.I. 134-bet)

Yana biri:

Ul parivashki, bo’lubmen zor-u sargardon anga,
Ishqdin olam manga hayron-u, men hayron anga.

(MAT.I. 47-bet)

Alisher Navoiy Sayyid Hasan Ardasherning bu xizmatlarini xotirda tutib, keyinchalik o’zining «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» nomli tarixiy-manoqib asarini yozdi.

1457-yilning bahorida Abulqosim Bobur Mirzo Mashhad shahrida tasodifan vafot etadi. Kutilmagan bu shum hodisa yana toj-u taxt janglarini olovlatib qo’ydi. Ko’pdan beri Hirot taxti orzusida yurgan Movarounnahr hukmdori Abusaid Mirzo Xuroson taxtining ashaddiy da’vogari sifatida maydonga chiqdi. Azaldan toj-u taxt ishtiyoqida bo’lgan Husayn Boyqaro Mirzo vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan chetda qolishni istamadi va

kuch to’plab, Xurosonning turli viloyatlariga tahlika sola boshladi. Alisher Navoiy esa Mashhadi muqaddasda qolib o’qishni davom ettiradi. Mashhadda mafosil (bo’g’imlarda og’riqning paydo bo’lishi) kasaliga duchor bo’ladi. Unga o’sha kunlarda Mashhadda bo’lgan qadrdon ustozi Pahlavon Muhammad mehribonlik ko’rsatadi. Ulug’ shoir Kamol Turbatiy bilan uchrashadi. U kishi ham xasta yotgan iste’dodli yosh shoir oldiga tez-tez kelib turadi. Suhbatlar, mushoiralar uyushtiriladi. Alisher Navoiy iste’dodining ravnaq topishiga yana imkoniyat yaratiladi. Sal kam ikki yilga cho’zilgan qonli janglar Xuroson davlatining Abusaid Mirzo tasarrufiga o’tishi bilan yakunlanadi. 1459-yilda uning nomi xutbaga (namozning duo baxshiga) qo’shib o’qiladi va u Xuroson davlatining rasmiy hukmdori sifatida tan olinadi. Shunday qilib, 1459-yilga kelib Xuroson-u Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy hayotida 1409-yildagi manzara vujudga keldi. Ya’ni o’sha yildan boshlab Hirot poytaxt Xuroson davlatini ota – Shohruh Mirzo va Samarqand markaz Movarounnahr saltanatini o’g’il – Ulug’bek Mirzo boshqara boshladi. Rasman garchi bu ikki davlat mustaqil ko’ringan bo’lsa-da, aslida Movarounnahr Xuroson hukmdoriga tobe’ edi. Abusaid Mirzo saltanati davrida ham shu holat kuzatiladi. Uning o’g’illari Sulton Ahmad va Suldton Mahmud Mirzolar otaga bo’yinsunganlar. Abusaid Mirzo hukmdorligining dastlabki yillari Alisher Navoiy hayotining ayanchli va iztiroblarga to’la davrini tashkil etadi. Maktabdosh do’sti Husayn Boyqaro taxt ilinjida Mashhadni tark etgandan so’ng, ular bir-birlaridan ajralib qolishadi. Ustiga ustak tog’alari Mirsaid Kobuliy, Muhammad Ali G’aribiylar Sulton Husayn Boyqaro qo’shini safida shahid bo’ladilar. Xuroson taxtini qo’lga olgan Abusaid Mirzo esa Alisherning otasidan qolgan mol-mulk, hovli-haramni o’z foydasiga musodara qiladi. 1459-1960 yillarda fors-tojik adabiyotining atoqli vakili, naqshbandiya sulukining piri murshidi, «Maxdumi Nuran» Nuriddin Abdurahmon Jomiy Xiyobonda dafn etilgan ustozi Sa’diddin Koshg’ariy mozori boshida istiqomat qilishni ixtiyor etadi va kichik bir hovlicha qurdirib, o’sha yerga ko’chib o’tadi. Bu ulug’ shayxni zamon hukmdoridan tortib, oddiy xalq vakiligacha ziyorat qilib turar edi. 18-19 yoshli Alisher ham o’zining buyuk ustozi bilan ana shu yerda ilk bor uchrashadi va ulug’ shayxdan ilohiyot hamda tariqat ilmlaridan saboq ola boshlaydi. Navoiyshunoslikdagi munozarali masalalardan yana biri Alisher Navoiyning Nuriddin Abdurahmon Jomiy bilan ilk Uchrashuvidir. Ayni mavzu yyechimida ham olimlar ikki guruhga ajraladilar: Birinchi doiraga mansub tadqiqotchilar Alisher Navoiyning Mashhaddan Hirotga qaytishini 1459-1460 yillarga nisbat bersalar; ikkinchi guruhga daxldor olimlar bu raqamni 1464- 1466 yillar tarzida talqin etadilar. Shuningdek, Alisher Navoiy Hirotdan Mashhadga va

Mashhaddan Hirotga borib kelib turgan deyuvchilar ham yo’q emas. Masalaga birinchi hamda ikkinchi manbalar nuqtayi nazaridan baho beradigan va zamon hukmdorining fe’l-u atvori hamda Alisher Navoiyga munosabatidan kelib chiqib xulosa chiqaradigan bo’lsak, biz ham birinchi doira olimlari qarashlariga moyillik ko’rsatamiz, (Bu haqda qarang: Vohidov R. Navoiyning ikki durdonasi. Toshkent: «Fan», 1992, 13-52-betlar) Bizning shunday qo’nimga kelishimizga «Xamsat ul-mutahayyirin»dagi ishoralar yetarli asos beradi. Ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, 1464-yilda Alisher Navoiy ona-shahrini tark etishga majbur bo’ladi. Uning kichik zamondoshi Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) ma’lumotiga ko’ra, 1464-1465 yillardan shoir Hirotdan «ixroj» (surgun) qilinadi. Ulug’ shoir mazkur safarining g’ayri ixtiyoriy bo’lganligi muallifning Darvesh Sayyid Hasan Ardasherga Samarqanddan yo’llangan she’riy maktubidagi ishoralardan yorqin namoyon bo’ladi. Bobur Mirzo ta’kid etgan «ixroj»ning esa Hirotdan Samarqandga bo’lganligini payqash qiyin emas. Abusaid Mirzo Alisher Navoiyni o’z o’g’illari nazorati ostiga yuborgan ko’rinadi.

7.3. Alisher Navoiy hayotining Samarqand davri.

Ulug’ shoir umri «shabob» (yigitlik) faslining besh yili «sayqali ro’yi zamin» Samarqandga to’g’ri keldi. Biroq u jannatmakon Samarqandga siyosiy mahbus maqomida yuborilgani uchun ham dastlabki yillarda juda ko’p achchiq-chuchuklarga chidashiga to’g’ri keldi. Bu haqda «G’aroyib us-sig’ar» devoniga kiritilgan va Alisher Navoiyning ustozi Sayyid Hasan Ardasherga yuborilgan she’riy maktubida («Masnaviy»da) talay ishoralar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar mazkur asarni shoir Hirotdan Samarqandga jo’nash oldidan otasidek yaqin bo’lib qolgan Darvesh Sayyid Hasan Ardasher bilan ko’risha olmaganligi bois yozgan, deya e’tirof etadilar. Ammo bunday fikrni ma’qullash qiyin. Chunki «ixroj» haqidagi farmonni olgan Alisher Navoiy qisqa muddatda, shoshilinch ravishda «Masnaviy»ni yoza olmas edi. Ulug’ shoir Samarqandga yetib borgach, ham moddiy va ham ma’naviy jihatdan juda qiynalib yashaydi. Nazorat ostidagi shoirni erksizlik hammadan ham ko’proq eza boshlaydi. Mana shunday bir vaziyatda u tanglikdan chiqishning yo’llarini izlaydi, ustozi, otaxoni Darvesh Sayyid Hasan Ardasherdan najot kutib, unga maktub bilan murojaat etishni lozim topadi. Shunday qilib, «Masnaviy» Samarqandda ro’shnolik ko’radi. «Hasbi hol» - «Masnaviy»ni olgach, Sayyid Hasan Ardasher Fazlulloh Abullaysiy hamda Xoja Ahror Valiylarga maktub yo’llab, Alisherga ko’mak berishlarini so’ragan ko’rinadi. Ana shundan keyingina

buyuk faqiq Fazlulloh Abullaysiy Alisher Navoiyga o’z madrasasidan joy berib, panohiga oladi. «Majolis un-nafois»dagi «farzand der edilar» va «ikki yil sabaq olibmen» kabi ishoralar ham yuqorida bayon qilingan mulohazalar foydasiga xizmat qiladi. Alisher Navoiyning Samarqand davri hayoti haqida qissa yozgan yozuvchi Muzaffar Mirzo o’z asarini «Panoh» atab, masalaning biz eslatgan jihatlariga urg’u berib g’oyaviy to’g’ri yo’l tutgan.

«Masnaviy» Alloh hamdi bilan boshlangan bo’lib, unda Sayyid Hasan Ardasher ulug’lanadi hamda shoirning Hirotni tark etishi sabablari bayon etiladi. Maktub muallifi so’zni inson ko’nglining burchagiga yashiringan durga qiyos qilar ekan, uni insoniyat bog’ining gulshanidagi eng yaxshi mevadir, deya vasf etadi. Shuningdek, shoir o’zining betakror badiiy salohiyatini juda tez ravnaq topganligidan faxrlanib, fors-tojik adabiyotining buyuk namoyandasi Firdavsiy 30 yilda «Shohnoma»ni yozgan bo’lsa, u shunday asarni 30 oyda ijod qilishini, bir kunda xosa ma’ni yoki iyhom kabi badiiy san’atlar bilan ziynatlangan yuz bayt bitish unga holva yoyish bilan barobar ekanligini, Nizomiy Ganjaviy 30 yilda yozgan «Xamsa»ni Navoiy uchun ijod etish ikki-uch yillik ish ekanligini «Masnaviy»da quyidagicha bayon etadi:

Men ul menki to turk bedodidur,
Bu til birla to nazm bunyodidur.
Falak ko’rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire.
Ne nazme der ersam meni dardnok
Ki, har harfi bo’lg’ay aning durri pok.
Yetar tengridin oncha quvvat manga,
Ki, bo’lmas bitirig’a fursat manga.
Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur,
Ki, gar kelsa Rustam javobin berur.
Raqam qildi farxunda «Shohnoma»e,
Ki, sindi javobinda har xomae.
Musallamdur zohiran bu ishi
Ki, ma’razga kelmadur har kishi.
Dedi o’z tili birla koni ganj,
Ki: «Si sol burdam ba «Shohnoma» ranj».
Ani derg’a bo’lsa qachon rag’batim,
Erur ancha haq lutfidin quvvatim,-
Ki har necha lutf o’lsa kohil saroy,
Bitig’aymen o’ttiz yilin o’ttiz oy.
Agar xossa ma’ni, gar iyhom erur,

Aning kunda yuz bayti halvom erur

(MAT. 3. 529-530-b.)

Takrorlanmas iste’dod sohibi bo’lgan Alisher Navoiy «Masnaviy»da o’zi istiqomat qilayotgan mamlakatda ijod qilish uchun imkoniyat yo’qligini, ijodidan bahra olish o’rniga umri ranj-u dard bilan o’tayotganligini achinish bilan yozadi. Mamlakatda zulm hukmronlik qiladi. Vafo o’rnini nifoq, saxovat o’rnini baxillik egallagan. Yurt «vahshat obod zisht»– dahshatli vahshiy yurtga aylanib, jannat o’rnini do’zax egallagan. Abusaid Mirzo bilan Samarqanddan Hirotga kelgan beklar va amirlar xalqqa zulm ustiga zulm qiladilar. Alisher Navoiyga rahnamolik qiladigan biror kishi yo’q. Unga biror yerdan maosh tayinlanmagan, ko’ngli orom olguvchi biror hujrasi ham, ketishga azm etsa, yo’ldoshi ham yo’q. U qanchalik moddiy qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz kelmasin, himmati baland ulug’ zot edi. Xondamirning «Makorim ul-axloq» asaridan o’rin olgan quyidagi hikoyat Alisher Navoiyning ana shunday yuksak insoniy fazilati haqida ma’lumot berishi bilan ahamiyatlidir:

«... Abusaid zamonida juma kuni, Hirot shahri ichidagi masjidi jome’da juma namozini ado qilgandan keyin, xiyobonda sayr qilish uchun o’sha tomonga jo’nadim. «Mufarrah» ko’chasiga yaqinlashganimda, bosh yalang va oyoq yalang holda o’tirgan bir gadoyni ko’rdim.

U aytur edi:

Ayolmand bir kishiman, bir necha och-yalong’och bolalarim bor, ertadan buyon o’tirib tilanaman, hozirgacha hech kim bir pul bergani yo’q.

Ul hazrat (Navoiy) aytdilarki, o’sha vaqtda yonimda bir tanga bor edi, undan boshqa dunyo molidan hech narsam yo’q edi. O’z-o’zimga shunday dedim: Mayda va yirik narsalarimni yaratuvchiga tavakkal qilib, bu tangani shu darveshga bersang, toki, bola-chaqalarining, bugungi ovqatini to’g’rilasa, sening esa ertalik rizqingni xudoning o’zi yetkazar.

O’sha zahotiyoq tangani unga berib, o’tib ketdim. Namozshomgacha xiyobonda sayr qilib yurib qaytgach, ko’rdimki, haligi darvesh o’sha joyda o’tirib, ilgarigi so’zlarini aytib tilanardim. Uning haddan tashqari yolg’onchiligi va tilanchilikdagi o’ta xarisligidan taajjublandim. Ammo bu ishdan xabardor bo’lganligimni unga bildirmadim... (Xondamir, Makorim ul-axloq, 99-100-betlar)

Zamon va uning johil hukmdorlaridan norozilik kayfiyatini aks ettiruvchi bunday voqealar «Makorim ul-axloq» asarida yana uchraydi. Ulardan birida hikoya qilinishicha, Pahlavon Muhammadning tanishlaridan Yusuf nomli bir shaxs Abusaid Mirzo mulozimlaridan shikoyat qilib, uning huzuriga

kirmoqchi ekanligini aytadi. Shunda Alisher Navoiy unga quyidagi baytni o’qiydi:

Gadoy ki non az dari shoh just,
Biboyad zi obi xudash dast shust.

Mazmuni: Podsho eshigidan non izlagan tilanchi, o’z suvi bilan qo’lini yuvib qo’ltig’iga urmog’i kerak. (Xondamir. Makorim ul-axloq. 108-109-betlar.)

Ulug’ shoirning nafrat ruhi aksini topgan ayni yo’nalishdagi baytlari Abusaid Mirzo huzuriga yetib turgan. Boz ustiga, Xuroson davlatining ashaddiy da’vogari sifatida uning turli viloyatlariga hujumlar uyushtirib turgan Sulton Husayn Boyqaro Mirzo Alishnr Navoiyning ko’kaldosh hamda maktabdosh do’sti edi. Zikri o’tgan ayrim lavhalar shoh va shoir o’rtasidagi munosabatni (ulug’ shoirning «ixroj»i sabablari haqida murojaat qilinsin: Abdullayev V. Navoiy Samarqandda. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik, 1-jild, Toshkent: «Fan», 2002, 3-108 betlar.) yanada keskinlashtirgan va Alisher Navoiyni Hirotdan uzoqroqda, nazorat ostida saqlash lozim ko’rilgan.

Alisher Navoiy ana shunday ahvolda, hayotdan juda ko’p ranj-u dard chekib Samarqandga keladi. Ijodkor va darvesh Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubida ulug’ shoir insonga ta’rif berarkan: «Ki haq sirrining bo’lg’ay ul mahrami»,- deya e’tirof etgandi. Asar muallifining ongiga kishi haqiqat sirlari bilan oshno bo’lishi kerak, insonning maqsadi dunyoni irfon – tafakkur bilan tanishdir,- degan ezgu g’oyalar allaqachon singgib ulgurgan edi. Alisher Navoiy tanlagan bu yo’ldan uni hech qanday qiyinchilig-u to’siqlar qaytara olmas edi.

Samarqand XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning eng yirik madaniy markazlaridan biri bo’lib, bu maskanda, ayniqscha, Ulug’bek Mirzo hukmronligi (1409-1449) davrida ilm-fan, san’at, adabiyot ravnaq topdi. Ma’rifatparvar bu hukmdorning tashabbusi bilan 1424-yilda shahar chekasida yulduzlar harakatini tadqiq qilishga mo’ljallangan u’ch qavatli rasadxona barpo etildi. Rasadxonada Qozizoda Rumiy, G’iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi kabi olimlar nujum ilmi bilan shug’ullanib 1018 ta yulduzning samodagi joylashish o’rnini aniqlashga muvaffaq bo’ldilar. Fanning shu sohasiga bag’ishlangan Ulug’bek Mirzoning «Ziji jadidi Ko’ragoniy» («Ko’ragoniyning yangi yulduzlar jadvali») nomli kitobi dunyo yuzini ko’rdi. Samarqand madrasalarida yetuk olimlar tolibi ilmlarga saboq berardi. Bu ezgu ishlarning barchasiga Sulton Ulug’bek Mirzo rahnamolik qilardi. Ilm-fan, adabiyot va san’at homiysi bo’lgan Movarounnahr hukmdorining fojeali o’ldirilishi (1449) Samarqanddagi ilmi nujum maktabining tarqalib ketishiga sabab bo’ldi. Shunday bo’lishiga

qaramay, Samarqandda juda uzoq yillar davomida shakllangan yuksak ilmiy-madaniy muhit XV asrning 70-yillariga qadar o’zining baland mavqeini saqlab qoldi. Shubhasizki, Samarqandda yashayotgan Alisher Navoiy ham ajdodlarning jahoniy mohiyat kasb etgan ulug’ ishlaridan bahramand bo’ldi.

Alisher Navoiy qalban talpinib orzu qilgan muhitni Samarqandda topdi. «Vafoiy» taxallusi bilan she’rlar yozgan, sohib devon shoir, Samarqand hukmdori Ahmad Hojibek asli Xurosonda tarbiyat topgan bo’lib, Ulug’bek Mirzoning madaniyat sohasidagi qutlug’ an’analarining davomchisi sanalardi. Olim va fozillarni qadrlab ilm-fan ravnaqiga homiylik qilgan Ahmad Hojibek Xurosonda shoir sifatida tanilib, ko’pchilikning e’tiboriga tushgan Alisher Navoiyni o’z himoyasiga oldi. Bu davrda fiqh (islom huquqshunosligi)da dong taratgan, arabshunos olim Xoja Fazlulloh Abullaysiy madrasada mudarrislik qilardi. Alisher Navoiy Abullaysiy madrasasida tahsilni davom ettirdi. Bu ulug’ faqihdan fiqh ilmini o’rganib, uning xonaqohidagi hujralaridan birida yashadi.

Alisher Navoiy hayotining Samarqand davri shoir umr daftarining g’oyatda mazmundor sahifalarini tashkil qiladi. U «Majolis un-nafois»da nomlarini ehtirom bilan tilga olgan «maammoda Samarqand ahli ani Mavlono Sharofiddin Yazdiy muqobalasiga mazkur» qiladiga Mavlono Uloyi Shoshiy, Ulug’bek Mirzo madrasasining mudarrisi Xoja Xurd, Ulug’bek Mirzo bilan hamsaboq va musohib bo’lgan Mavlono Muhammad Olim, har kuni besh yuz baytni osonlik bilan bituvchi «sari’ ul-qalam kotb» Mavlono Soyimiy, musiqa ustasi Darvesh Ahmad Samarqandiy, talantli Shoirlar Mirzabek, Mirzo Hoji So’g’diy, Sayid Qutb Samarqandiy, Yusuf Safoiy, Shayxim Suhayliy kabilar bilan yaqin muomala-munosabatda bo’ldi. Mahobatili Samarqand shoir qalbida o’zining ulug’vor tarixi, qizg’in ijt’imoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayoti bilan o’chmas iz qoldirdi. Keyinchalik Alisher Navoiy o’sha yillarni xotirlab «Farhod va Shirin» dostonida Ulug’bek Mirzoni vasf etuvchi baytlariga keng o’rin berdi, Shuningdek, Samarqandning go’zal tasvirini «Saddi Iskandariy»da rangin baytlarda badiiylashtirdi. Shoir Samarqandda tolibi ilm sifatida Sharq mumtoz adabiyotini sinchiklab o’rganishni davom ettirdi, yaxshi adabiy an’analarni o’zlashtirdi va badiiy mahorat sirlarini egallashga harakat qildi. U Mavlono Yah’yo Sebakning aruz ilmiga bag’ishlangan «Shibistoni xayol» kitobi, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning adabiyotshunoslikka oid «Chahor maqolasi» va qofiya ilmiga doir boshqa asarlar bilan tanishdi. Alisher Navoiy Samarqand hokimi Ahmad Hojibekdan tortib, ilm, ijodga mayli bo’lgan oddiy xalq vakillarigacha bo’lgan ijod ahli bilan tanishishga ulgurdi. Ulug’ shoirning bunday qizg’in muloqotlari uning xotirasida mustahkam o’rnashdi, asarlarida o’chmas iz qoldirdi. Jumladan, «Majolis un-nafois»da bozorda sahoflik

(muqovasozlik) bilan shug’ullangan, «Xatoiy»taxallusi bilan ijod qilgan Mavlono Mir Qarshiy, sobunxona mushrifi (boshlig’i) Mavlono Javhariy, darzigarlikka (tikuvchi) mansub Mavlono Xovariy kabi ko’plab hunarmand shoirlar haqida ma’lumot beriladi. Bular ana o’sha musofirat davri suhbatlarining yorqin taassurotlaridir.

Ulug’ shoir Samarqand va uning atrofidagi tumanlarda bo’lib, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy ishlarga ham faol qatnashganligiga doir hikoyatlar XV asrning yirik tarixnavisi Xondamirning «Makorim ul-axldoq» asarida keltiriladi. Unda hikoya qilinishicha, Alisher Navoiy toj-u taxt umidida yurgan Sulton Husaynning Samanqand atrofida asir olingan askarlarini bir necha bor turli yo’llar bilan o’limdan qutqarib qoladi va shu bilan o’zining Husayn Boyqaro tomonida ekanligini, uning xatti-harakatlariga xayrixohligini namoyon qiladi. Bu, albatta, Alisher Navoiyning Samarqand hokimi Ahmad Hojibekka tayanib, keyinchalik Samarqandda o’zining siyosiy faoliyatini boshlaganligidan dalolat beradi. Shuningdek, shoirning bunday ishlarni amalga oshirishi uchun mahalliy hokimiyat oldida biror bir rasmiy lavozimga munosib ko’rilgan bo’lishi kerak edi. Ayrim ilmiy asarlarda ma’lumot berilishicha, Alisher Navoiy Samarqandda bir qancha vaqt Sulton Ahmad Mirzoning mulozimi bo’lib, chig’atoy amiri sifatida faoliyat ko’rsatgan. (Qarang: O’zbek adabiyoti tarixi. 5tormlik, II tom, Toshkent: «Fan», 1977, 53-53-betlar.) Xondamirning «Habib us-siyar» asarida qayd etilgan quyidagi fikrlar ham ushbu mulohazaning haqiqatga yaqinligini dalillaydi: «Mirzo Sulton Ahmad xoqoni mansurning (Husayn Bayqaroning –R.V., H.E.) Xurosonga yurish qilganini eshitib, Amuya daryosidan kechib o’tganida Amir Alisher qarorgohda u bilan birga edi». (Navoiy zamondoshlari xotirasida. Toshkent: G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1986, 116-bet) Ko’chirganimiz ma’lumot feodal tuzum qonun-qoidalariga to’g’ri keladi. Otalari (Abusaid Mirzo) tomonidan o’z nazoratlariga yuborilgan Alisher Navoiyni Sulton Ahmad va Sulton Mahmud Mirzolar Samarqandda qoldirib, zafar bilan qaytishi kutilayotgan padari buzrukvorlari istiqboliga chiqolmas edi, albatta. Rasmiy mansabi bor-yo’qligidan qat’iy nazar ulug’ shoir shahzodalar ko’zi oldida turishi lozimligi xavfsizlikni ta’min etuvchi oddiy talablardan hisoblangan.

Samarqanddagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy muhit bu maskanda ilm izlab kelgan Alisher Navoiyning ma’naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etdi. Xoja Fazlulloh Abullaysiydan arab tilshunosligi, fiqh, falsafa, ilmi bade’dan ta’lim oldi, arab grammatikasini puxta o’zlashtirdi. Alisher Navoiyga nisbat berilgan «Sab’at ul-abhur» nomli uch tilli lug’at shoirning shu davrda o’rgangan saboqlari natijasi bo’lishi mumkin, degan qarashlar ham mavjud

(Valixo’jayev B. Xoja Ahror tarixi. Toshkent: «Yozuvchi», 1984, 30-bet.) Samarqand adabiy muhiti Alisher Navoiyni yosh shoirlik maqomidan ustozlikning yuksak darajasiga ko’tarilishiga imkon yaratdi. Taniqli adabiyotshunos, akademik V.Abdullayev «Navoiy Samarqandda» nomli tadqiqotida Samarqandning XV asr ikkinchi yarmi adabiyot va madaniyati rivojida Alisher Navoiyning beqiyos hissasi borligini ta’kidlagan edi. Olimning: **«Bu davr Samarqand adabiy muhitini Alisher Navoiysiz, u tayorlagan yosh qalamkashlarsiz tasavvur qilish mumkin emas»,-** degan fikrlari mutlaqo haqiqatdir. Bu shahri azimdagi qaynoq adabiy muhit, shubhasizki, ulug’ shoir xotirasida bir umrga muhrlanib qoldi. Keyinchalik Samarqandda siyosiy beqarorlik vujudga kelgach, ko’pgina ijodkorlar Alisher Navoiydan panoh izlab Hirotga yo’l oladi. Ular orasida Xoja Abdulloh Abullaysiyning o’g’li, Alisher Navoiyga bag’ishlab «Hoshiyayi miftoh» va «Hoshiyayi Talveh» nomli asarlarni yozgan Xoja Xovand, Abullaysiylar xonadoniga mansub bo’lgan, «Hoshiyayi mutavval» asari muallifi Abulqosim bin Abubakr al-Laysiy (bu haqda batafsil ma’lumot uchun qarang: Valixo’jayev B. Xoja Ahror tarixi. Toshkent: «Yozuvchi», 1994, 20-35-betlar) hamda tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy, Ulug’bek Mirzo bilan tahsil olgan keksa olim Muhammad Olim Samarqandiy, musiqachi Darvesh Ahmad Samarqandiylar bor edi. Bu kabi bir qancha ziyolilar Hirotda Alisher Navoiy homiyligidan bahramand bo’lib ilm va ijod bilan shug’ullandilar.

Alisher Navoiy 1469-yilga qadar Samarqandda yashadi. 1468-yilning oxirlarida Abusaid Mirzo G’arbiy Eronni qo’lga kiritish uchun jang olib boradi. Biroq u kurashlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrab, o’ldiriladi. Ayni siyosiy voqealar Xurosonni o’z idorasi ostida ko’rishni orzu qilib yurgan Husayn Boyqaro Mirzo uchun qo’l keladi. U 1469-yilning boshlarida Hirot taxtini egallaydi va maktabdosh do’stini eslaydi. «Vaqfiya»da xabar berilishicha, «davlat manshuri» bilan Muvarounnahr hukmronlariga murojaat qilib, Alisher Navoiyni Hirotga yuborishlarini so’raydi. Ana o’sha rasmiy takliflarga ko’ra, shoir 1469-yilning aprelida Hirotga qaytadi.

Alisher Navoiyning Hirotdan Samarqandga «ixroj»i nechog’lik bahs-u munozalarga sabab bo’lsa, Samarqanddan Hirotga qaytishi ham qarama-qarshi fikrlardan xoli emas. Hatto bunday gapni ayrim mumtoz manbalar ma’lumoti haqida ham aytish joiz ko’rinadi. Ayni mavzuga doir fikr-u qarashlarni ikki katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga mansub muhaqqihlar Hirot poytaxt Xuroson davlatining Sulton Husayn Boyqaro Mirzo qo’liga o’tganligini eshitgan Alisher Navoiy turkiydagi «Hiloliya» qasidasini yaratib Hirotga jo’nadi, degan mulohazaga moyillik ko’rsatadilar. Ikkinchi yo’nalishga

daxldor olimlar bunday fikrga shubha bilan qaraydilar. Bas shunday ekan, qaysi qarash haqiqatga yaqin va unga xayrixohlik qillish mumkin? Alisher Navoiyning zamon hukmdori Abusaid Mirzo hukmi bilan g'ayri ixtiyoriy ravishda Hirotdan chiqqanligi, Zahiriddin Bobur Mirzo iborasi bilan aytganda, bu «safar»ning «ixroj» ekanligi inobatga olinsa, ulug' shoir qanchalik Hirotga jo'nashni istamasin, u o'z xoxishi bilan Samarqanddan keta olmas edi. Chunki Abusaid Mirzo o'ldirilgan bo'lsa-da, Movarounnahr taxti hali uning o'g'illari Sulton Ahmad va Sulton Mahmud Mirzolar ixtiyorida edi. Bu masalada haq ulug' shoirning o'z hukmida: Sulton Husayn Boyqaro Mirzo «davlat manShuri» (davlat maqomidagi rasmiy xat) Movarounnahr hukmdorlariga murojaat qilishdan tashqari, yo'l xarji, ot-ulov va mulozimlar ham yuboradi. Hirot – Samarqand karvon yo'li (eng yaqini !) bir haftalik harakatni talab qilishi e'tiborga olinsa, o'sha tadbirlarsiz Alisher Navoiy Hirotga bora olmas edi. Masalaning ham rasmiy-ma'naviy va ham moddiy jihatlaridan kelib chiqqan ulug' shoirning kichik zamondoshi va tarjimoni Faxriy Hirotiy uning «Vaqfiya»dagi qaydlarini ta'kidlashga to'la haqli edi. (Qarang: Vohidov R. «Latoifnoma» latofati. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1995 yil,3-fevral).

7.4. Alisher Navoiy davlat va jamoat arbobi, yetuk shoir

Hirot taxti Husayn Boyqaro tasarrufiga o'tgan dastlabki yillardan boshlab Xuroson davlatining muhrdori sifatida (1469-14720) shoh saroyida faoliyat ko'rsata boshladi. Muhrdorlik nihoyatda mas'uliyatli ish bo'lib, bu lavozimga munosib ko'rilgan kishidan davlatning barcha hujjatlaru moliyaviy sarf-u xarajatlarini teran anglash, ularni diqqat bilan ko'zdan kechirib muhr bosish va rasmiylashtirish talab etilardi. Alisher Navoiy bu lavozimga har jihatdan munosib mas'ul shaxs hisoblanardi. U Husayn Boyqaro saltanatini mustahkamlash ilinjida nechog'lik katta kuch sarflasa, uning badiiy ijod bobidagi sa'y-harakatlari ham kam emas edi. Shoir she'riyati ixlosmandlari tomonidan 1465-1466-yillarda fanda «Ilk devon» nomi bilan ataluvchi she'rlar to'plamining Mashhadda tartib berilishi va Sulton Ali Mashhadiy tomonidan kitobat qilinishi Alisher Navoiyning el orasida ijodi hamda yuksak insoniy fazilatlari bilan allaqachon tanilganidan daldolat berardi. Bulardan tashqari, ulug' shoir Sulton Husayn Boyqaroning Xuroson mamlakatini idora etishida eng yaqin ko'makdosh va fidoyi xayrixoh sifatida jonbozliklar ko'rsatardi. O'z navbatida Sulton Husayn Boyqaro ham mamlakatda osoyishtalik o'rnatishda Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy imkoniyatlaridan g'oyat unumli istifoda etardi.

Xuroson davlatida siyosiy barqarorlikni ta’minlash mamlakat hukmdori va uning tarafdorlari uchun nihoyatda og’ir kechdi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro hukamronligining dastlabki yillarida Hirot taxti doimo tahlikalar qurshovida edi. Alisher Navoiy zamondoshlarining adabiy-tarixiy asarlarida bayon qilinishicha, Mirzo Jahonshoh Turkman Xuroson hukmdori Abusaid Mirzo bilan sulh tuzib Ozarboyjonga qaytadi. Shu paytlarda Abusaid Mirzoning o’g’li Muhammad Yodgor Mirzo ammasi Poyapda Sulton begimning taklifi bilan Mirzo Jahonshoh mulozamatini ixtiyor etadi. Jahonshoh Turkman vafotidan so’ng, Abunasr Hasanbek Yodgor Muhammad Mirzoni qo’llab-quvvatlab turadi. Xurosonning ba’zi amirlari ham ko’p lashkar bilan shahzodaga qo’shilib uni otasining taxtini egallashga da’vat etadilar. Shunday qilib, Yodgor Muhammad Mirzo Husayn Boyqaroning ashaddiy tahlikali dushmaniga aylanadi.

1469-yil 11-sentabrda Yodgor Muhammadning ayovsiz qarshiliklarini bartaraf etish uchun Husayn Boyqaro yana jangga otlanadi. U Hirotdan katta qo’shin bilan chiqib muqaddas Mashhad tomon yo’l oladi. Bu yerda Imom Muso ar-Rizo qabrini ziyorat qilib, Mashhadni asosiy qarorgohiga aylantiradi. Yodgor Muhammadning bu paytda Isfaroin viloyatida ekanligi haqida ma’lumotlar mavjud edi. Husayn Boyqaroning ko’pgina amirlari podshoh o’rdusiga kelib unga qo’shiladilar. Ana shunday siyosiy bir vaziyatda shahzoda Yodgor Mirzo sipohlarining Ozarboyjon tomonga ketganligi haqida xabapr keladi. U Hasanbek turkmandan katta yordam olib, Xurosonni qo’lga kiritish payiga tushadi. Husayn Boyqaro Mirzo ham fursatni boy bermay, mudofaa choralarini ko’rib Mashhaddan Hirotga yo’l olganda, dushman qo’shinlarining yaqinlashib qolgani ma’lum qilinadi. Shunda Xuroson hukmdori vujudga kelgan siyosiy vaziyatni to’g’ri baholab, butun qo’shinini dushmanga qarshi jangga yo’naltiradi. Biroq Husayn Boyqaro ikkilana boshlaydi. Munajjimlarni chaqirib hujumni qachon boshlash ma’qul ekanligini aniqlamoqchi bo’ladi. Qo’shin safida bo’lgan Alisher Navoiy esa paytning muvofiq bo’lish-bo’lmasligidan qat’iy nazar hujumni kechiktirish mumkin emasligini shohga maslahat beradi. Shunday qilib, Chinoron mavzeyida ikki tomon qo’shinlari to’qnashadilar. Husayn Boyqaro Yodgor Muhammad va unga ko’makdosh bo’lgan turkman qo’shinlarini mag’lub etadi. Ushbu ulug’ g’alaba uchun Tangri taologa shukrona aytgan Husayn Boyqaro qo’lga kirgan Astrobodga amir Shayx Hasan Temurni hokim qilib tayinlaydi.

Husayn Boyqaro Jojirmni egallagandan so’ng, Hasanbek turkmandan katta madad olgan Yodgor Mirzo Astrobodni yana ishg’ol qilganligi xabar qilinadi. Viloyat hokimligi vazifasini bajarayotgan Shayx Hasan Temur

shahzoda Yodgor Mirzoning etagini tutganligi ma’lum bo’ladi. Husayn Boyqaro Jojirmdan ko’chib, bir necha masofani bosib o’tib Mashhadga keladi. Shohga sadoqati yolg’on tarafdorlari birin-ketin dushman tomonga o’ta boshlaydi. Bunday nochor vaziyatda Sulton Husayn amirlarga ishonmay qoladi. Puli xotin degan manzilga yetganda, Hirotda ham shahar amaldorlarining adolatsizligiga qarshi xalqning isyon ko’targanligi ma’lum bo’lib qoladi. Xoja Abdulla Ahzab Xoja Qutbiddin Tovus Simnoniy xususidagi ba’zi maxfiy ma’lumotlarni podshohga yetkazadi. Xoja Tovus taftish qilinib hibsga olinadi va Xoja Abdulla devoni oliyga boshliq etib tayinlanadi. Husayn Boyqaro Hirotdan uzoqlashishi bilan Xoja Abdulla bilan Xoja Nizomiddin Baxtiyor Simnoniy til biriktirib xalqqa zulm o’tkaza boshlaydilar. Natijada Hirotda xalq isyon ko’tardi. Isyonchilar Xoja Abdullani Shohruh Mirzoning dorul-adolat atalgan xonasida o’tirgan vaqtida hujum qilib, uni toshbo’ron qiladilar. Xoja Abdulla ming hiyla bilan xalq g’azabidan zo’rg’a qutiladi. Bu xabar Puli xotinga, podshohga yetkaziladi. Mulozimlardan biri Hirotga borib Xoja Abdullani sulton o’rdusiga olib keladi. Shundan so’ng Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga katta vakolatlar berib, uni Hirotga yuboradi. Ulug’ shoir poytaxtga kelib, podshoh farmonini xalqqa yetkazadi, imkoni boricha mazlumlar va sitam ko’rganlarni o’z tarafiga og’dirish hamda adolatni tiklash niyatida zulm-u adovat ko’rsatganlarni jazolaydi. Xoja Nizomiddin Baxtiyor ishdan bo’shatiladi va hibsga olinadi, Xoja Qutbiddin Tovus esa qaytadan devoni oliyga boshliq qilib tayinlanadi.

1470-yilda Husayn Boyqaro Abusaid Mirzoning qarindoshlarini tinchlantirish uchun bo’lsa kerak, uning qizi Shahribonubegimga, keyinchalik Poyanda Sultonbegimga uylanadi. Sulton Husayn Boyqaro Narra tog’ qal’asi sari ketgan chog’ida, Yodgor Muhammad Mirzo Tus viloyatida edi, uning ammasi Poyanda Sultonbegim esa paytdan foydalanib, Hirot qal’asi atrofidagi manzilidan shaharga kiradi va shaharni o’zining qarindoshi Yodgor Muhammad Mirzo uchun zabt etadi. Shu yilning mart oyida avval amir Hasanbekning nomi, keyin Yodgor Muhammadning nomi xutbaga qo’shib o’qiladi. Shu tariqa poytaxt yana Husayn Boyqarodan tortib olinadi.

Hirot taxtini qayta egallash orzusi Husayn Boyqaroga tinchlik bermas edi. Hukmdorning bu tilagini amalga oshirish uchun yaqin do’sti va maslakdoshi Alisher Navoiy bilan juda teran o’ylangan bir tadbir tuzganliklari xususida G’iyosiddin Xondamirning «Makorim ul-axloq» asarida quyidagicha hikoya qilinadi: «Mirzo Yodgor Muhammad Hirot taxtini bosib olgan paytda Sultoni Sohibqiron zamon taqozosiga ko’ra Maymana va Farob tomonga yo’l

oladi. U bir kuni shu viloyatda tadbirli va yo’l ko’rsatuvchi amir (Navoiy)ni yashirin bir joyga chaqirib, maslahat yo’li bilan unga shunday deydi:

-Eshitilishiga ko’ra, turkmanlar Hirot poytaxtida zulm va taadi bayrog’ini tikkanlar. Mirzo Yodgor Muhammad esa farog’at va g’aflatda kayf-u safo chirog’ini yoqmoqda ekan. Shuning uchun o’ylaymanki, agar siz muvofiq ko’rsangiz, u tomonga qo’shin yuborsak, shoyad ish ilgari bosib, yaratuvchi tangrining omonati bo’lgan fuqarolar zulm va alam changalidan qutilsalar.

Oliy hazrat (Navoiy) bu fikrni ma’qul topib, uni mumkin qadar yashirin tutishni uqtirdi va ilhom beruvchi til bilan: «Agar bu so’z menga ham aytilmasa, yaxshiroq bo’lur edi»,-dedi.

Sulton Sohibqiron so’radi:

- Bu haqda shu qadar mubolag’a va ta’kid qilishning sababi nima?

Oliyjanob amir shunday javob berdi:

- Bu so’zlarni yashirin tutish g’oyatda zarurdir. Chunki har kuni bizning bir to’da kishilarimiz Yodgor Muhammad Mirzo tomonga qochib o’tmoqdalar, ular bu xabarni yetkazishdan ko’ra qimmatroq sovg’a topolmaydurlar. Aqldan uzoq emaski, bizning fikrimizni sezib qolsa, Yodgor bundan ehtiyot bilan ish ko’rar, balki bu tomonga qo’shin yuborib qolar» (Xondamir. O’sha asar. 35-36-betlar.)

1470-yilning 23-iyulida tunda Alisher Navoiyning taklifi bilan Husayn Boyqaro qo’shini Yodgor Mirzo ustiga yurish boshlaydi va g’alaba qozonadi. Shahzoda qatl etilib, ulug’ shoirning do’sti yana taxtga o’tiradi. Shu bilan Xurosonda siyosiy jihatdan ancha barqarorlashgan vaziyat vujudga keladi. Shuni qayd etish lozimki, Husayn Boyqaro tasarrufidagi mamlakatda ichki nizolar hukmron saltanatining keyingi davrlariga qadar davom etib turgan bo’lsa-da, ularning Xuroson saltanati uchun xatari va zarari u qadar katta bo’lgan emas. Biroq Xuroson hukmdorining o’z o’g’illari – Badiuzzamon Mirzo, Abulmuhsin Mirzo, Kepak Mirzolar bilan yurt talashib bir necha bor jang-u jadallar olib borganligi yurt osoyishtaligiga vaqti-vaqti bilan raxna solganligidan dalolat beradi. Husayn Bayqaro ana shunday ixtiloflarni bartaraf etishda Alisher Navoiyga tayanar edi. Ulug’ shoir esa xalq tinchligi, mamlakat osoyishtaligi uchun kurashish o’zining asosiy insoniy burchi ekanligini nechog’lik his etmasin, adib sifatada ilm va ijod bilan ko’proq mashg’ul bo’lishni istardi. Shu bois u muhrdorlik lavozimidan iste’fo berib, bu ishni Amir Shayxim Suhayliyga topshiradi. Biroq oradan ko’p vaqt o’tmay, hijriy 876-yil sha’bon oyida (1472-yil fevral) Alisher Navoiyning e’tirozlariga qaramay, podshoh uni amir (vazir) qilib tayinlaydi va unga amiri kabir (ulug’

amir) unvonini beradi. Shuningdek, shoir amir ul-muqarrab (podshohga eng yaqin amir) unvoniga ham loyiq topilgan. Mamlakat hukmdori rasmiy jihatdan ham Alisher Navoiyning siyosiy nufuzi yuksak ekanligiga ishora qiluvchi farmon qabul qiladi. Unga ko'ra, beklar ichida amir Muzaffar Barlosgina Navoiydan yuqoriga muhr bosishi mumkin edi. Bu, albatta, Nizomulmulk va Majididdin parvonachi singari amaldorlar qalbida Alisher Navoiyga nisbatan hasad o'tining alangalanishiga sabab bo'ladi. Buni teran anglagan Ulug' shoir o'z shaxsining ulug'ligini sharqona tavoze' bilan namoyon qiladi. G'iyosiddin Xondamirning «Makorim ul-axloq» asarida ma'lumot berilishicha, Alisher Navoiy birinchi keltirilgan farmonga kamtarlik yuzasidan shunday joyga muhr bosadiki, boshqalarning undan quyiga muhr bosishining imkoni bo'lmaydi. Navoiyning vazirlik lavozimini qabul qilishini, ayniqsa, ilm va ijod ahli zo'r mamnuniyat bilan kutib oladi hamda shoirni ulug'lovchi she'rlar, u muhr bosgan kunga atab ta'rixlar bitishgan.

Alisher Navoiyning vazir (1472-1476) va yirik jamoat arbobi sifatida olib borgan faoliyatining asosiy jabhalarini uchga tasnif etish mumkin:

1.Zulm va talonchilikka chek qo'yish. «Vaqfiya» asarida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: «Iligimdan kelgancha zulum tig'in ushotib, mazlum jarohatig'i intiqom marhamin qo'ydim. Va iligimdin kelmaganini ul hazrat (Husayn Bayqaro – R.V., H.E.) arzig'a yetkurdim». Bundan ayonlashadiki, Alisher Navoiy Xurosondagi turli ijtimoiy tabaqa vakillari orasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish, yurt osoyishtaligiga raxna soluvchi ixtiloflarni yo'q qilish bilan juda jiddiy shug'ullanadi.

2. Bunyodkorlik va obodonchilik ishlariga rahnamolik qilish. Zahiriddin Bobur Mirzo ulug' shoirning bu boradagi olib borgan faoliyatiga yuksak baho berib, quyidagilarni e'tirof etadi: «Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay» (Boburnoma. Toshkent: «Yulduzcha», 1990, 154-bet)

Alisher Navoiy qurdirgan «Ixlosiya» madrasasi Hirot shuhratining dunyoga yoyilishiga sabab bo'ldi. Shu madrasaning janubida «Xalosiya» nomli xonaqoh ham bunyod etildi. Madrasaning g'arbida tibbiy xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan «Shifoiya» nomli bino qurilib, unga mashhur tabiblarning to'planishi uchun imkon yaratildi. Madrasaning g'arbida katta Masjidi jome', uning yonida «Dorul xuffoz» («Qorilar uyi») nomli gumbaz barpo qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra, Navoiyning kutubxonasida 70 dan ortiq xushxat kotib va naqqosh xat ko'chirish, kitoblarga ziynat berish biln shug'ullangan. Shuningdek, Hirotda yana «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» (881-hijriy 1476 –1476 milodiy) nomli madrasalar ham Navoiy rahnamoligi asosida vujudga

keltiriladi. Bulardan taqari, Hirot va bashqa shaharlarda 10 dan ortiq xonaqoh, 20 dan ortiq masjid qurdirilganligi manbalarda qayd etiladi. Bularning batafsil ro'yxati (to'rt yuzga yaqin) Xondamirning «Makorim ul-axloq» asarida deyarli tugal keltirilgan. (Xondamir. O'sha asar, 66-68-betlar) Muhimi shundaki, mazkur inshootlar Alisher Navoiy ixtiyoridagi mablag'lar hisobiga qurilgandir. Xondamirning «Makorim ul-axloq»ida shahodat berilishicha, Sulton Husayn Boyqaro Mirzo shunday farmon berganki, unga binoan, Alisher Navoiy bir masalani to'qqiz martagacha (o'sha asar, 77-bet) shoh muhokamasiga qo'yish huquqiga ega edi. Ana shunday katta ma'naviy imtiyoz sohibi bo'lgan ulug' shoirning moddiy imkoniyatlari ham kam bo'lmagan. Dastlab muhrdor, knyinchalik vaziri a'zam, Astrobod viloyatining hokimi , «Hazrati Sultonning muqarrabi» («Podshohning eng yaqin qarindoshi, odami» - bu norasmiy unvon, ammo shunday unvon sohibi davlatning katta-yu kichik ishlariga aralashish huquqiga ega edi.) unvonlar sohibi bo'lgan Alisher Navoiyga feodal davlati idora usullari talablariga ko'ra, etarli miqdorda mulk ajratilgavn. «Vaqfiya» va boshqa ishonchli manbalarning qaydiga binoan, o'sha mulklardan keladigan bir kunlik daromad yetmish besh ming dinor tilloni tashkil etgan. Qizig'i shundaki, Alisher Navoiy ko'pincha zakot to'lamagan, chunki shunday katta daromad egasi bo'lgan ulug' shoirda zakot to'lash lozim bo'lgan miqdorda o'lik jamg'arma to'planmagan. Kelgan kunlik daromad ana o'sha inshootlar qurilishi, turli maqomdagi xayriyalar, mudarris-u talabalarga to'lanadigan maoshlarga sarflangan. Shuningdek, Alisher Navoiy davlat xazinasidan maosh olmagan, aksincha, vaqti-vaqti bilan xazinaga katta miqdordagi mablag'ni xayriya sifatida berib turgan. Bularning barchasi yurt, el-ulus manfaatlarini ko'zda tutib amalga oshirilgan. Ko'hna tarix Alisher Navoiyday yana bir ulug' xalqparvar va saxovatli insonni ko'rgan emas.

3. Ilm va san'at ahliga homiylik Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro saroyida faoliyatini boshlagach, Abusaid Mirzo tomonidan musodara qilingan ota merosi o'ziga qaytariladi. Boz ustiga, Alisher Navoiy o'ziga suyurg'ol qilingan yerlardan olgan daromadining deyarli barchasini mamlakat obodonchiligi, fuqarolarga rizq-ro'z ulashish, ilm va san'at ravnaqi hamda davlat xazinasini yanada boyitishga sarflar edi. Zahiriddin Muhammad Bobur bu haqda quyidagi fikrlarni qayd etadi: «Mirzodin (Husayn Boyqarodan – R.V, H.E) nima olmas, balki yilda Mirzog'a kulliy mablag'lar peshkash qilur erdi.» (O'sha asar, 154-bet.) «Boburnoma» muallifi ayni choqda ulug' shoirning ilm va san'at ahlini doimo qo'llab-quvvatlab turganiga ham e'tiborni qaratadi.: «Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay. Ustoz Qulmuhammad va

Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad erdilar, bekning tarbiyat va takviyati bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa’y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma’ruf bo’ldilar» (O’sha kitob, 154-bet.). Manbalarda e’tirof etilishicha, Alisher Navoiy «Xalosiya» xonaqosidan o’ziga maxsus ajratilgan hujra va undagi kitob-u anjomlarni «Ravzat us-safo» asarini yozish uchun Mirxondga beradi. Shuningdek, Sharq she’riyatining nozik bilimdoni Atoulloh Husayniy, juda ko’p fanlarni chuqur o’rganib, shuhrat qozongan qomusiy olim Husayn Voiz Koshifiy singari o’nlab iste’dod sohiblari ulug’ shoir tarbiyati bilan kamolga erishdilar. Bulardan tashqari, madrasa va xonaqohda istiqomat qiluvchi kishilarni oziq-ovqat, kiyim-kechaklar bilan ta’minlash; «Xalosiya» xonaqohida istiqomat qiluvchi talabalarga har yili 2000 ga yaqin po’stin, bosma chakmon, kuylak-ishton, taqiya va kavsh ulashish, talabalarga nafaqa tayinlash hamda madrasa, masjid-u xonaqohlarda qat’iy vaqflar belgilash kabi savobli ishlar Alisher Navoiy rahnamoligi-yu homiyligi asosida tashkil etilgandir. Bularning barchasi Hirotning yirik madniy-ma’rifiy markazga aylanishiga bois bo’ldi.

Alisher Navoiyning Xurosonda olib borgan odilona siyosati, mamlakat obodonchiligi va ravnaqi uchun chekkan zahmatlari unga nisbatan muxolifdagi kuchlarga boshchilik qilayotgan Nizomulmulk va Majididdin kabi amaldorlar tomonidan ijobiy qabul qilinmadi. Shuningdek, mamlakat hukmdori Husayn Boyqaro surunkali aysh-ishratga berila boshladi. «Boburnoma»da bu haqda quyidagicha ma’lumotlar beriladi: «Avval taxt olg’on mahalda olti-yetti yil toib erdi. Andin so’ngra ichkuga tushti, qirq yilg’a yovuqkim, Xurosonda podshoh erdi, hech kun yo’q edikim, namoz peshindan so’ng ichmag’ay, vale hargiz sabuhiy qilmas edi, o’g’lonlari va jami’ sipohig’a va shahrig’a bu hol edi. Ifrot bilan aysh va fisq qilurlar edi» (O’sha asar, 147-bet.). Natijada mamldakatning moliya ishlarini boshqarishdek mas’ul vazifa Nizomulmulk va Majididdin ixtiyoriga o’tib qoladi. Alisher Navoiy esa yurt boyligining kayf-safoga sarflanishi, xalqning amir-amaldorlar tomonidan xonavayron etilishiga yo’l qo’ymas edi. Nizomulmulk va Majididdin kabi g’alamis amaldorlar Alisher Navoiy bilan hisoblashishga majbur edilar. Hatto undan hayiqib ham turardilar.

Alisher Navoiy saroyda vujudga kelgan nosog’lom muhit bilan chiqisha olmasligiga ishonch hosil qilib 1476-yilda vazirlikdan iste’fo berilishini shohdan qat’iy talab qiladi. Xondaimir «Makorim ul-axloq»da voqeani quyidagicha bayon qiladi: «Navoiy : bir necha yil «Xalq o’rtasida hukmronlik qilsangiz, adolat bilan hukm yuriting»,-so’zlariga amal qilib; Bayt:

Zi mansab ro’y dar bemansabi neh,

Ki az har mansabi bemansabi beh.

Mazmuni: Mansabdan mansabsizlikka yuz tut,
Chunki har qanday mansabdan mansabsizlik yaxshi.

degan naqlning mazmunini xotirdan o'tkazib, amirlik mansabidan ifte'fo berdi. Sulton sohibqiron ham ul hazratning ko'ngil istagini muborak ko'ngli orzusidan yuqori qo'yganlikdan, bu xususda unga hamfikr bo'ldi.» (Xondamir. Makorim ul-axloq, 64-65-betlar.)

Alisher Navoiy rasman vazirlikdan ifte'fo bergan bo'lsa-da, Xurosonning eng nufuzli siyosiy arbobi sifatida faoliyatini davom ettirdi. Ulug' shoir podshohning «begi emas edi, balki musohibi» sifatida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy voqealarga faol ishtirok etib, o'z mavqeni yanada oshira bordi. Alisher Navoiyning hajga borish orzusi ayrim sabablarga ko'ra qoldirilganligi bois u Husayn Boyqarodan Hirot chekkasidagi Gozurgoh va unda joylashgan Abdulla Ansoriy (1006-1088) maqbarasi «jo'robkashligi» vazifasini o'z ixtiyoriga topshirishni so'raydi. Podshoh ulug' shoirning ushbu taklifini mamnuniyat bilan qabul qiladi va o'sha istakka muvofiq farmoni oliy ham beradi. Ulug' shoirning sa'y-harakatlari bilan «Piri Hirot» (Abdulla Ansoriyning laqabi) maqbarasi Xuroson poytaxtining eng so'lim go'shalaridan biriga aylanadi.

Fors-tojik adabiyotining yirik namoyandasi Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiyning o'zaro munosabatlari yanada mustahkamlanadi. Ulug' shoir naqshbandiya tariqatining Xurosondagi yirik arbobi Nuriddin Abdurahmon Jomiyni irshod yo'lini ko'rsatuvchi pir sifatida tanlaydi. Pir-u muridlik munosabatlari bu ikki buyuk iste'dod sohibi orasidagi hamkorlik rishtalari yanada mustahkamlanadi va o'zining sermahsul ijodiy samaralarini bera boshladi. (Bu haqda mufassal ma'lumot uchun murojaat qilinsin: Vohidov R. Sharqning buyuk allomasi. Toshkent: «Fan», 1989.) Hirotda bu ikki iste'dod sohibi sa'y-harakatlari bilan vujudga kelgan gavjum madaniy-adabiy muhit hamon ibrat maktabidir. XV asrning ikkinchi yarmida Hirot madaniy hayotida Shayxim Suhayliy, Atoulloh Mahmud Husayniy, Husayn Jaloyir (Tufayliy), Muhammad Solih, Ahliy, Ohiy, Osafiy, Hiloliy, Binoiy Xotifiy, Mir Husayn Muammoiy, Sayfi Buxoriy, Abdullohiy, Mulla Muhammad Badaxshiy, Yusuf Bediliy kabi ijod ahli muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Mirxond va Xondamir kabi tarixchilar; Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali, Abdujamil kotib kabi usta xattotlar; Behzod, Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib singari nomdor musavvirlar; Xoja Yusuf Burhon, Mavlono Alishoh, Xoja Abdulloh Marvariy, Shayxi Noyi, Qulmuhammad Udiy, Shohquli G'ijjakiyday hofiz-u sozandalar ham davr ilmiy-ma'naviy saviyasini ko'tarishda munosib hissa qo'shdilar.

Hirotda vujudga kelgan bunday yirik madaniy-adabiy muhit Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaroni ham befarq qodirgani yo'q. Shunday mavjli adabiy hayotning boshida turib, gurkirab o'sishi uchun mo'tadil vaziyat yaratib bergan podshohning o'zi ham badiiy ijod bilan shug'ullanar, ilm va san'at ahlini doimo qo'llab-quvvatlab turar edi. Alisher Navoiy bunday jarayondan ham chetda turgan emas. U 1472-1476 yillarda Sulton Husayn Boyqaroning amr va istagi bilan birinchi rasmiy she'rlar to'plami «Badoyi' ul-bidoya» («Badiiylikning ibtidosi») devonini tartib berdi. 1476-1483 yillarda ikkinchi devon «Navodir un-nihoya» («Nihoyasiz nodirliklar») vujudga keldi.

1481-1482 yillarda Alisher Navoiy «Vaqfiya» asarini yozdi. Vaqf – biror xayrli ishning sarf-u xarajatini ta'min qilmoq uchun ajratilgan yer yoki mulk bo'lib, shoir mazkur asarida vaqf yerlardan tushadigan daromadlarni qat'iy tartib asosida sarflanishiga e'tiborni qaratadi. Adib yashagan davrda madrasa-yu xonaqohlarning ta'minoti vaqflar hisobiga to'g'ri kelgan. Asar muallifi mana shunday inshootlarning barpo etilishiga rahnamo bo'lgan bunyodkor sifatida ularning ravnaq topishiga doir qarashlarini «Vaqfiya»da bayon etadi.

Alisher Navoiy XV asrning 70-yillarida yetuk shoir sifatida shakllangan, uning she'rlari Xuroson-u Movarounnahr sarhadlaridan o'tib, ko'plab muxlislar qalbiga yo'l topishga ulgurgan edi. Shoirning badiiy iqtidori yirik epik asarlar ijod etishga qodir ediki, turkiy xalqlar orasida ana shunday noyob asarlarga ehtiyoj nihoyatda baland edi. Sharq adabiyotida Nizomiy Ganjaviy «Panj ganj»i bilan xamsachilik maktabiga asos soldi. Undan keyin bu ijodiy yo'lni fors-tojik adabiyotining yirik vakili Amir Xusrav Dehlaviy muvaffaqiyatli davom ettirdi. XV asrning 70-80-yillarida adabiy musobaqa maydoniga Nuriddin Abdurahmon Jomiy kirdi va yetti dostondan iborat «Haft avrang» («Yetti osmon»)ni bunyod qildi. XV asrda yashab ijod etgan shoirlar orasida Mavlono Ashraf, Ali Ohiy, Mavlono Kotibiy, Mavlono Faseh Rumiy, Xoja Hasan Xizrshoh, Mavlono Abdullo singari qalam ahli Nizomiy «Panj ganj»i yoki uning ayrim dostonlaridan ta'sirlanib o'z asarlarini yaratgan bo'lsalar-da, ulardan aksariyati mukammal xamsa yaratish sharafiga muyassar bo'la olmadi yoki o'sha qalamkashlardan anchaginasi xamsa yaratishdek ulkan ijodiy maqsadni oldida vazifa qilib qo'ygan emasdi. Alisher Navoiy esa xamsa yozishdek mas'uliyatli ishni turkiyda amalga oshirish niyatida ekanligini Abdurahmon Jomiyga bildiradi va ustozi ulug' shoirni shunday ulkan ishni tezroq amalga oshirishga da'vat etadi.

1483-yilda Alisher Navoiy xamsa yozishga kirishdi. Ellik ikki ming ikki yuz o'ttiz satrdan iborat besh dostondan tarkib topgan bu noyob ma'naviy

xazina juda qisqa muddatda, 1483-1484 yillarda yozib tugatildi. Ikki yildan sal ortiqroq davr ichida vujudga kelgan bu nodir adabiy durdonaning falsafiy, ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta'limiy mohiyat kasb etuvchi ilk dostoni «Hayrat ul-abror» 1483-yilda, shu yili boshlangan «Farhod va Shirin» dostoni 1484-yil boshida, «Layli va Majnun», «Sab'ayi sayyor» dostonlari shu yilning o'rtalarida (jumod us-soniy (iyun')), so'nggi «Saddi Iskandariy» dostoni 1484-yilning dekabrida yozib tugatilgan. Alisher Navoiy «Xamsa»dek yirik asarni turkiy tilda ijod etish bilan band bo'lishiga qaramay, yirik siyosiy arbob sifatida Xurosonning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ham juda faol ishtirok etdi. Shoir «Saddi Iskandariy» dostonida ulug' salafi Nizomiy Ganjaviy uzoq muddatda «Panj ganj»ini yozganligini e'tirof etarkan, uning ijtimoiy-siyosiy hayotdan uzilib badiiy ijod bilan band bo'lganligini yengil tanqid ham qiladi:

Necha tojvarlin topib parvarish,
Ishi bu o'ttiz yilda erdi bu ish.
Ne el mehnatidin maloli anga,
Ne bu ishdin o'zga xayole anga. (MAT. 11. 568-bet)

Nizomiy Ganjaviydan keyin xamsachilikda dong taratgan Xusrav Dehlaviy haqida shoir «Saddi Iskandariy»da: «Necha vaqt aning ishi bu edi»,-deb yozadi. Nega Alisher Navoiy bunday ta'kidga urg'u berayotir? Gap shundaki, ulug' shoir «Xamsa» yozishga kirishgan yillarda katta ijtimoiy-siyosiy vazifalar bilan band edi. U butun kuch-quvvatini Xuroson davlatini mustahkamlash, el-ulus farovonligini ko'tarish, mamlakatda adolat o'rnatish kabi ezgu ishlarga sarf qilgann. Ustod Sadriddin Ayniy ta'biri bilan aytganda, Alisher Navoiy ayni yillarda badiiy ijod bilan nuqul istirohat va uyqu hisobidan shug'ullangan. Masalaning ana shu jihatlarini nazarda tutgan ulug' shoir Shayx Nizomiyni jindak tanqid qilayotir. Faqat badiiy ijoddan boshqa tashvish-taraddudi bo'lmagan ganjalik sohir qalam sohibining «Panj ganj»ni bunyod etish uchun o'ttiz yil umr sarflashi Alisher Navoiyga sal malol kelgan ko'rinadi:

Ki, aqli musohib shitob aylasa,
Deyilgan zamonni hisob aylasa.
Yig'ishtursa bo'lmas bori olti oy,
Ki bo'ldung bu ra'noga suratnamoy.

(MAT, 11-tom, 569-bet.)

«Xamsa» - Alisher Navoiy ijodining eng nodir namunasi bo'lib, u yaratilgan paytdan e'tiboran muallifning benihoya yuksak ist'dodidan darak berdi, yuksak baholarga sazovor ko'rildi. Jumladan, «Xamsa» bilan birinchilardan bo'lib tanishish sharafiga muvaffaq bo'lgan Nuriddin

Abdurahmon Jomiy o’zining «Xiradnomai Iskandariy» asarida juda yuksak baho beradi. Zamon hukmdori Sulton Husayn Boyqaro esa turkiy tilda vujudga kelgan bu noyob badiiyat namunasi muallifiga Hirot ahli oldida juda katta hurmat va ehtiromini namoyon qiladi. Zayniddin Mahmud Vosifiyning «Badoe’ ul- vaqoe’» asarida ma’lumot berishicha, Husayn Boyqaro o’zining bayram va zafar kunlarida minadigan oltin egar-jabduqli oq otiga o’tqizib o’zi jilovdorlik qiladi. Podshohning yurtning ulug’ shoiriga bo’lgan bunday oliy darajadagi munosabatini tarix sira ko’rmagan edi.

Yuqorida qayd etilganidek, mamlakat ishlarining aksariyati Nizomulmulk va uning tarafdori Majiddiddin Muhammad ixtiyoriga o’tgandan keyin, ular shohning ishonchini to’la qozonish uchun harakt qila boshlaydilar. Ayniqsa, Majiiddin Muhammad bu ishga qattiq kirishadi. Bir paytlar Alisher Navoiyning talabi bilan saroydan uzoqlashtirilgan bu amaldor oldingi mavqeni tiklash, katta mansabni egallash uchun payt poylardi. Husayn Bayqaro xazinasining bo’shab qolishi Majididdin Muhammadga qo’l keldi. «Boburnoma»da ma’lumot berilishicha, Majididdin parvonachi (shohning yordamchisi) bo’lib yurgan paytlarida, Husayn Boyqaroga ozroq mablag’ zarur bo’ladi. Shoh devondagi amaldorlarga murojaat qilganda, ular shohning talabini qondirish imkonsiz ekanligini bildiradilar. Shunda Majididdin Husayn Boyqaroni xilvatga tortib, mamlakatning butun in’om-ixtiyorini menga topshirsangiz, tilagingizni amalga oshiraman, - deydi. Podshoh uning istagini bajarishga majbur bo’ladi. Majididdin qisqa muddatda Husayn Boyqaroning talabini qondiradi. (Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma, 159-bet.) Xuroson hukmdori bu «tadbirli» mulozimini vazir lavozimiga tayinlamoqchi bo’ladi. Sulton Husayn Boyqaro Mirzoning Majididdinni mansab pillapoyalariga ko’tarish yo’lidagi harakatlari, tabiiyki, Alisher Navoiyga xush kelmaydi. Zimdan ulug’ shoir va vazir o’rtasidagi nizolar alanga ola boradi. Majididdin atrofiga tarafdorlar to’plab, shoh va shoir o’rtasidagi munosabatga raxna solish yo’llarini izlaydi.

Majididdin Muhammad va uning tarafdorlari Alisher Navoiyni poytaxtdan uzoqlashtirishga harakat qila boshlaydilar. Husayn Boyqaro saroydagi tarafkashliklarga chek qo’yish maqsadida Alisher Navoiyni Xurosonning chegara viloyati Astobodga hokim qilib tayinlaydi. Ayni choqda shoh bu tadbiri bilan shoirning izzat-hurmatini saqlashga ham erishishni ko’zlaydi. Astrobod Xurosonning Kaspiy dengizi atrofida joylashgan chegara viloyati bo’lib, tabiatining go’zalligi bilan ajralib turadi. Viloyatda ipakchilik taraqqiy etgani bois qo’shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlari keng yo’lga qo’yilgan edi. Umuman, Astroboddan keladigan daromad Xuroson xazinasi

hajmining teng yarmini tashkil etardi. Husayn Boyqaro davridagi iqtisodiy, ham xorij bilan savdo-sotiq qilish nuqtayi nazaridan nihoyatda yuksak mavqega ega bo'lgan bu viloyatni idora qilish taxt vorisi yoki podshohning eng ishonchli kishisiga ishonib topshirilar edi. Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq ilmiy-badiiy asarlarda uning Asrtobodga yuborilishi sal kam ikkinchi surgun ma'nosida talqin qilinadi Aslida, masalaga bunday munosabat u qadar ma'qul emas. To'g'ri, Alisher Navoiyning ruhiy holati, uning Hirotga bo'lgan yuksak muhabbati yurt poytaxtida sodir bo'layotgan noxush harakatlar nuqtayi nazaridan siyosiy voqealarga baho beriladigan bo'lsa, Husayn Boyqaro Mirzoning bu farmoni oliysi ulug' shoir qalbidagi gap emas edi. Ammo hamma tadbirlarga yurt taqdiri taqazosi bilan baho berishga odatlangan ulug' shoir Xuroson davlati uchun katta ijtimoiy-siyosiy, moddiy-hududiy ahamiyat kasb etuvchi Astrobod hokimligi vazifasini qabul qildi va buni muxoliflarining g'alabasi ma'nosida talqin etmadi. Shunday qilib, buyuk mutafakkir 1487-yilda Bobo Ali va Amir Badriddinni olib Astrobodga jo'nab ketadi.

Astrobod xalqi va u yerdagi ziyolilar Alisher Navoiyni g'oyatda samimiy bir ruhda qarshi oladi. Ulug' shoir dastlabki kunlaridanoq davlat idora ishlarida ma'lum tartib o'rnatishga kirishadi. Markazdan ancha yiroqda bo'lganligi bois o'z xohishicha ish yuritib xalq ahvolini juda qiyinlashishiga sababchi bo'lgan hokim va amaldorlarga nisbatan tegishli choralar ko'radi. Alisher Navoiy Astrobodga hokim bo'lib kelgandan so'ng Husayn Boyqaro saltanatiga xavf solib kelgan Mozandoron va Jurjon viloyatlarining hokimlari o'z ixtiyorlari bilan Xuroson davlatiga tobe' bo'lganliklarini bildiradilar. Turkman sultoni Ya'qubbek qimmatbaho sovg'alar bilan ulug' shoirni tabriklaydi. Qo'shni Ozarboyjon va Iroq hukmdorlari Alisher Navoiy tufayli Xuroson bilan do'stona munosabatlarni qayta tiklaydilar. Shunday qilib, Sulton Husayn Boyqaro mamlakatining g'arbiy chegarasida barqaror siyosiy vaziyat vujudga keladi. Xondamir ma'lumotiga ko'ra, Alisher Navoiy olib borgan adolatli siyosat tufayli Astrobod mamlakatdagi obod va ma'mur o'lkalardan biriga aylanadi.

Alisher Navoiy mamlakat poytaxtida Sulton Husayn Boyqaroning ishonchini qozongan Majididdin boshliq bir guruh amaldorlarning saroyda fisq-u fasod, nifoq urug'ini sochayotganlaridan nihoyatda tashvishga tushadi. Shu bois ulug' shoir Hirotga qaytish istagini bildirib, Sulton Husayn Boyqaroga maktublar yozadi, biroq shoh Alisher Navoiyning istagini qondirmaydi. Bunday noxush munosabatdan tang ahvolga tushgan ulug' shoir Amir Badriddinni o'z o'rnida qoldirib, Hirotga yo'l oladi va shohdan poytaxtda qolishni iltimos qiladi. Ammo ikkinchi kuniyoq shohdan Astrobodga qaytish haqida farmon oladi. Shunday qilib, ulug' shoir sal kam ikki yil bu viloyatda

hokim lavozimida faoliyat ko’rsatadi. Nihoyat, dushmanlarining Alisher Navoiyga uyushtirgan suiqasdlari fosh etilgach, Sulton Husayn Boyqaroning farmoni bilan Hirotga qaytishga muyassar bo’ladi. 1489-yilda Xuroson hukmdorining to’ng’ich o’g’li Badiuzzamon Mirzo Astrobodga hokim etib tayinlanadi.

7.5.Shoir hayotining so’nggi yillari

1488-yilda poytaxtga qaytgan Alisher Navoiy shoh saroyida biror rasmiy lavozimda faoliyat ko’rsatishni istamaydi. Biroq Sulton Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni davlatni idora qilish ishlaridan chetda qolishini xohlamaydi va «muqarrabi hazrati sultoniy», ya’ni «hazrati sultonning eng yaqini» degan unvonni beradi. Bu unvonga ko’ra, Alisher Navoiy garchi biror rasmiy lavozimda bo’lmasa-da, davlat tashvishlaridan mutlaqo xoli ham emas edi. Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiyga munosabat masalasida shohning qarashlari bot-bot o’zgarib turgan. Saroyda faoliyat ko’rsatayotgan ulug’ shoir dushmanlarining Sulton Husayn Boyqaroga ta’siri kuchaygan paytlarida u muxolifatdagi mulozimlar irodasiga moyillik ko’rsatishdan o’zini tiya olmagan. Biroq bunday vaziyat tezda o’z kuchini yo’qotgan va Sulton Husayn Boyqaro maktabdosh birodaridan samimiyatini darig’ tutmagan. Lo’nda aytadigan bo’lsak, sotsialistik realizm qoliplari asosida bunyod etilgan badiiy asarlarda ifodalanganidek, shoh va shoir o’rtasidagi munosabatlarda «antogonistik» mohiyat kasb qilgan emas. Mumtoz manbalar sahifalari orqali yetib kelgan ma’lumotlar ana shunday dalil-xulosalarga kelish asosini beradi.

«Muqarrabi hazrati sultoniy» sharafli unvoni bilan siylangan Alisher Navoiy saroy muhitidagi ig’vo va fisq-u fujurlardan ham xoli bo’lmagan. Balx vilotini muvaqqat boshqarib turgan ulug’ shoirning inisi Darvesh Ali bunday siyosiy nayranglardan qattiq ranjigan va shohga qarshi isyon ko’targan. Shoirning dushmanlariga bu ancha qo’l keladi. Majididdin Alisher Navoiyni isyonni uyushtirganlikda ayblaydi. Natijada ulug’ shoir buning bo’hton ekanligini isbotlash uchun Sulton Husayn Boyqaro qo’shini bilan Balxga borib isyonni bartaraf qilishga hissa qo’shadi.

1490-yilda Majididdin tomonidan uyushtirilgan ig’volar fosh etilib, u vazirlik lavozimidan chetlashtiriladi. Bu mansab yana qayta Nizomulmulkka tegadi. Fisq-u fasod va nizo urug’ini sochishda Majiddiddindan qolishmaydigan Nizomulmulk temuriylar o’rtasida o’zaro nifoq o’tining yanada alangalanishiga zamin hozirlab turadi. Poytaxtda, saroyda turli nizolar kelib chiqa boshlaydi. Shohzodalar mamlakatni bo’lib olishga intiladilar.

Balxda Darvesh Ali bilan Sulton Husayn Boyqaro sulh tuzishga erishgan bo’lsa-da, har narsadan hadiksiraydigan bo’lib qolgan podshoh uni zindonga tashlaydi. Ana shunday siyosiy tang bir davrda Abusaid Mirzoning o’g’li Sulton Mahmud Mirzo Hisorda Sulton Husayn Boyqaroga qarshi urush boshlaydi. Xuroson hukmdori katta o’g’li Badiuzzamonni Astroboddan chaqirtirib oladi va Alisher Navoiyni Balxda qoldirib, o’zi Hisorga jo’naydi. Husayn Bayqaro Sulton Mahmud Mirzo bilan murosaga keladi va Hirotga qaytishda Balx viloyatini idora qilishni Badiuzzamonga topshiradi. Badiuzzamon otasining farmoniga ko’ra, Balxga yo’l olganda, o’rniga o’n uch yoshli o’g’li, Husayn Boyqaroning sevikli nabirasi Mo’min Mirzoni Astrobod hokimi sifatida qoldirgan edi.

Husayn Boyqaro Alisher Navoiy bilan Hirotga qaytgach, shoh sevikli xotini Xadichabegimning talabi bilan undan bo’lgan o’g’li Muzxaffar Mirzoni Astrobod hokimi vazifasiga tayinlash haqida farmon beradi. Bu esa o’z navbatida shahzoda Muzaffar Mirzoni taxt vorisi deb e’lon qilingani edi. Mazkur farmon ota va katta o’g’il o’rtasida jiddiy nizoning kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Badiuzzamon Mirzo Mo’min Mirzoga Astrobodga Muzaffar Mirzoni yo’latmaslik haqida buyruq beradi. Oqibatda mamlakat yana jang-u jadallar maydoniga aylanadi. 1496-yilda Husayn Boyqaro tomonidan Alisher Navoiy sulh tuzish niyatida Balxga yuboriladi. Shahzoda Badiuzzamon shoirni yaxshi qabul qiladi, biroq otasining uni qo’lga tushirish haqidagi o’ta maxfiy farmonidan voqif bo’lib, sulh haqidagi fikridan qaytadi. Alisher Navoiy vaziyatning bunday tus olishidan iztirobga tushadi. Umidsizlanib, Hirotga qaytishga majbur bo’ladi. Ota va o’g’il o’rtasida yana qonli urush kelib chiqadi, jangda Badiuzzamon yengiladi. Mo’min Mirzo Muzaffar Mirzo tomonidan asir olinib, tezda Hirotga jo’natiladi va Ixtiyoriddin qal’asiga qamab qo’yiladi. Xadichabegim Nizomulmulk bilan til biriktirib, Mo’min Mirzoni qatl etish haqida farmon tayyorlaydilar va may ichib sarxush bo’lgan shohga bu mudhish farmonga muhr bostirishga erishadilar. Kayfi tarqagan Husayn Boyqaro ertalab farmonini rad etadi, biroq mayparast shoh kechikkan edi. Hukm ijro etilib, Amir Temur Ko’ragon xonadonining tenggi yo’q iste’dodli farzandi vahshiyona qatl etiladi. Bu vaqea 1497-yilning oktabrida yuz beradi. Shahzoda Mo’min Mirzo vafotidan uch kun o’tgach, imom Rizo hazratlarining mozorini ziyorati uchun Mashhadga ketgan Alisher Navoiy Hirotga qaytadi va bu og’ir xabarni eshitib juda qattiq iztirob chekadi. Badiuzzamon otasidan intiqom olish uchun yana jangga otlanadi. Mo’min Mirzoning o’limidan so’ng Xuroson ota va o’g’illar o’rtasida kechgan juda ko’p janglarning shohidi bo’ladi.

Alisher Navoiy musulmonlikning farz amallaridan biri bo'lgan hajga borishni juda ko'p vaqtlardan buyon ixtiyor etardi. Biroq Xurosondagi notinchliklar uning bu istagining amalga oshishiga doimo to'siq bo'lib kelardi. Ulug' shoir ko'nglidagi o'sha ezgu niyatini amalga oshirish uchun muqaddas Mashhad tarafga yo'l oladi. Husayn Boyqaro esa 1499-yilda yana bir o'g'li Abulmuhsin bilan jang olib borayotgan edi. Ota va o'g'il orasida sulh taklifi qo'yiladi. Abulmuhsin otasi tarafidan sulh tuzish uchun Alisher Navoiyning yuborilishini talab etadi. Husayn Boyqaro Mashhadga chopar yuboradi. Alisher Navoiyga shohning maktubi yetkaziladi. Unda hajga borish uchun yo'l tinch bo'lishi shartligi, Iroq va Ozarboyjon fitna va g'avg'o ichida qolganligi qayd etilgan edi. Shuningdek, maktbuda Alisher Navoiyning Marvga kelishi bilan ota va o'g'il o'rtasida sulh tuzish imkoniyati vujudga kelishi bayon qilingandi. Shoir Mashhadning ulug'lari bilan kengash qiladi va haj safarini keyinga qoldirib, yurt osoyishtaligi uchun Marvga qaytishga qaror qiladi. Husayn Boyqaro va shahzoda Abulmuhsin o'rtasida sulh tuziladi. Oradan ikki-uch kun o'tgach, Alisher Navoiy hajga bormaganligi uchun Hirotga qaytib, Abdulla Ansoriy mozorida jo'robkashlik mansabiga tayinlanishi haqida yorliq berilishini shohdan so'raydi. Mirxondning «Ravzat us-safo»sida Husayn Boyqaro shoirga quyidagicha javob qaytarganligi qayd etilgan: «Modomiki, Siz mening mamlakatimda bor ekansiz, nimaiki tilasangiz va iltimos qilsangiz, muqarrarkim, qabul sharafiga musharraf bo'lg'usidir» (Navoiy zamondoshlari xotirasida. Toshkent, 1986, 57-bet) Ayni tafsilotlar G'iyosiddin Xondamirning «Makorim ul-axloq» asarida ham batafsil bayonini topgan. (O'sha asar. 78-86-betlar.) Alisher Navoiy umrining so'nggi yillarini Abdulla Ansoriy qabrini obod qilish va ijodga bag'ishladi.

Alisher Navoiy umrining keyingi o'n yildan ziyodroq davri (1488-1501) juda katta ilmiy-badiiy, ilohiy-irfoniy merosning vujudga kelishiga sarfladi.

Shoir yirik hajmli liro-epik asar «xamsa»sini yaratgandan so'ng, nasrda barakali ijod qildi. 1488-yili «Tarixi muluki Ajam» («Ajam - g'ayriarab shohlari tarixi») asarini yozdi. Unda muallif qadimiy tarixiy manbalar bilan birga xalq o'rtasida Ajam hukmdorlari taqdiriga aloqador mavjud afsonalarga e'tiborini qaratadi. Bundan maqsad o'tgan shohlarning hayoti va qilgan ishlari bayoni asosida zamondosh hukmdorlarga saboq bermoqdan iborat edi. Asar «Muhokamat ul-lug'atayn»da «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog'i») tarzida ham tilga olinadi. Bunday urinish tasodifiy emas, albatta. Aslida ulug' shoir Sulton Husayn Boyqaro davri tarixini yozishni niyat qilgan. Tilga olingan ikki tarixiy asar ana o'sha «Zubdat ut-tavorix»ning kirish qismlari hisoblanadi.

Taassuflar bo’lsinki, ulug’ shoirning umri vafo qilmadi va zikri o’tgan asar nihoyalanmay qoldi. Shuningdek, Navoiyning «Tarixi anbiyo va hukamo» («Anbiyolar va hakimlar tarixi») hamda «Siroj ul-muslimin» («Mo’minlar yog’dusi») (1488) asarlari ham pand va ibrat bo’larli ilohiy-irfoniy hikoyatlardan tarkib topgan.

XV asr 80-yillarining oxiri 90-yillarining boshlarida shoir bir necha musibatlar bilan yuzma-yuz keldi. Alisher Navoiyning yaqin do’sti va ustozlari Sayyid Hasan Ardasher (1489), Abdurahmon Jomiy (1492), Pahlavon Muhammad (1493) lar ketma-ket vafot etishdi. Adib ularga bag’ishlab «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Pahlovon Muhammad» nomli tarixiy-yodnoma asarlarini yozdi.

1491-yilda shoir muammo janri va uning o’ziga xos qonun-qoidalariga bag’ishlangan «Risolai mufradot dar fanni muammo» asarini yaratdi. Asarda eng murakkab she’riy janr sanalgan muammoning nazariy masalalaridan bahs yuritiladi va juda ko’plab muammolarning yyechilish usullari ko’rsatiladi. Ma’lumotlarga ko’ra, bu asar o’z davrida yuksak baholangan edi. Hatto Nuriddin Abdurahmon Jomiy uni o’g’li Ziyouddin Yusufga darslik sifatida tavsiya qiladi. Pag’ambar hadislari ta’sirida qirq qit’ani o’z ichiga olgan «Arbain» Hazrat Alining «Nasr ul-laoliy»sidan joy olgan hadislar asosida 266 ta ruboiydan tashkil topgan «Naz ul-javohir» ham shu yillarda ijod etilgandir. 1491-1492-yillarda «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar») tazkirasining birinchi va 1497-1498- yillarda esa 460 ijodkor hamda tarixiy shaxslar haqida ma’lumot beruvchi ikkinchi tazkirasini yaratdi. 1492-yilda Alisher Navoiy adabiyot nazariyasiga oid «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o’lchovi») risolasini nihoyasiga yetkazdi. Bunda aruz vazni va unga xos xususiyatlar ilk bor o’zbek tilida o’zining yetarli talqinini topadi. Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balog’a» («Balog’at ilmlari») asari ilm ahliga ma’lum qilinganga qadar (1993) yuqoridagi fikr o’z kuchini saqlab keldi. «Funun ul-balog’a»ning 1436-1437 yillarda Ulug’bek Mirzo dargohida yaratilganligi va besh qismdan iborat bu asar bir baxshining turkiy aruzga bag’ishlanganligi inobatga olinsa, «birinchi»lik ma’lum ma’noda tahrirga uchraydi. Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy mazkur muallif va uning asaridan bexabar ko’rinadiki, u haqda xomush qoladi.

1491-1492-yillarda shoir turkiy tilda yozgan barcha lirik asarlarini to’plab, yaxlit bir devon tuzishga kirishadi. Ushbu yig’ma devon asarning tartib berilishi 1497-1498-yillarga qadar davom etadi. Yig’ma devon to’rt qismdan iborat bo’lib, unda inson umrining yoshlik, yigitlik, o’rta yoshlik va keksalik singari bosqichlari yilning to’rt fasliga qiyosan nisbat beriladi. Majmualar har

bir to’plami o’ziga xos alohida tugal devon shakliga ega. Uning birinchi kitobi «G’aroyib us-sig’ar» («Yoshlik ajoyibotlari»), ikkinchisi «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirliklari»), Uchinchisi «Badoe’ ul-vasat» («O’rta yoshlik go’zalliklari»), so’nggi devon «Favoyid ul-kibar» («Keksalik foydalari»)dir. Bularning umumiy sarlavhasi «Xazoyin ul-maoniy» («Ma’nolar xazinasi») deb nomlandi. Ulug’ shoirning ayni ijodiy tajribasi o’zbek mumtoz adabiyoti tarixida katta voqea bo’ldi.

1495-1496-yillarda shoir yana bir yirik asari «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasini nihoyasiga yetkazdi. Ushbu asar Abdurahmon Jomiyning «Nafohat ul-uns» («Do’stlik tarovati») nomli asarining erkin-ijodiy tarjimasidir. Sharqning 777 ta shayxi haqidagi ibratomuz manoqib lavhalardan tarkib topgan ushbu asarda tasavvuf tariqatlari, qonun-qoidalari, so’fiylarga xos xususiyatlari o’zining ilmiy ifodasini topgan. 1498-1499-yillada shoir Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asariga javoban falsafiy. Ilohiy-irfoniy, axloqiy-ma’naviy mohiyat kasb etuvchi «Lison ut-tayr» («Qush tili») dostonini yaratdi. Ulug’ adib shu yillarda maktublarini to’plab, «Munshaot» («Munshaoti turkiy» va «Munshaoti forsiy» - turkiy hamda forsiy maktublar) tartib berdi. Shuningdek, turkiy tilning afzalliklaridan bahs etuvchi mashhur qomusiy asari «Muhokamat ul-lug’atayn» («Ikki til muhokamasi») ni vujudga keltirdi. 1500-yilda yozilgan «Mahbub ul-qulub» («Ko’ngillarning sevgani») Alisher Navoiy yaratgan so’nggi go’zal asar sanaladi. Bulardan tashqari, manbalarda ulug’ adibning o’q otish haqida «Risolayi tir axdoxtan», lug’atshunoslikka bag’ishlangan «Sab’atu - abxur» («Yetti dengiz») nomli kitoblarning yozganligi haqida ham ma’lumot beriladi.

1500-yilning dekabr oyida Husayn Boyqaro yana bir o’g’li shahzoda Muhammad Husayn bilan bo’lib o’tgan jangdan so’ng, Astroboddan sulh tuzib poytaxtga qaytadi. Bu voqea Alisher Navoiy umrining so’nggi kunlariga to’g’ri keladi. G’iyosiddin Xondamirning «Makorim ul-axloq» asarida ma’lumot berilishicha, Alisher Navoiy 1501-yilning 1-yanvarida bomdod namozini erta o’qib, poytaxtga yo’l olgan Xuroson hukmdorini kutib olish uchun otga minib Shoh Malik raboti tomon yo’l oladi. Podshohning Alisher Navoiyga yaqin kelgan mulozimlari ulug’ shoir bilan ko’rishib, uni xursand qiladilar. Husayn Boyqaroning dabdabali va ko’rkam mahafasi ko’ringanda, ulug’ shoirning boshi aylanib qoladi hamda ahvolidan Shahobiddin Abdullani voqif qiladi. Podshoh bilan ko’rishish payti yaqinlashgach, Navoiy otdan tushganida, to’satdan xastalik og’irlashib boradi va shoir vujudida majolsizlanish holati kuzatiladi. Shunda Mavlono Jaloliddin Qosim qo’ltiqlariga kirgancha, ulug’

amir boshini baland darajali podshohning quchog’iga qo’yadi. Husayn Boyqaro do’stining holidagi bu o’zgarishlarni ko’rib iztirobga tushadi.

Alisher Navoiy mana shu ahvolda tunda o’z uyiga olib kelinadi. Ertasi kuni Xurosonning mashhur tabiblari to’planib, qon olishga qaror qiladilar. Biroq fursat boy berilgan, «sakta» o’z ishini qilgan (miyaga qon quyilgan) ediki, bemorni tuzatishga bo’lgan urinishlar samara bermaydi. Uch kun hushsiz yotgan Alisher Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida, yakshanba kuni tongda vafot etadi. Bundan xabardor bo’lgan ahli Hirot, butun Xuroson-u Movarounnahr buyuk shoir va davlat arbobining bu foniy dunyodan o’tishini g’oyatda qayg’u va iztirob bilan qarshi oladi va motm tutadi.

XX asrning 90-yillarida Alisher Navoiy hayotining oxirgi kunlari haqida maqola e’lon qilgash O’zR FA muxbir a’zosi U.Karimov ulug’ shoir o’limini Husayn Boyqaro Mirzo saroyida unga qarshi harakatda bo’lgan muxolifat bilan bog’laydi. Ulug’ shoirni o’limga olib kelgan kasallik tafsilotlarini bafurja bayon qilgan G’iyosiddin Xondamirning ta’biriga ko’ra, saktaning (his va harakatning to’xtab qolishi) boshlanishidan muayyan muddat o’tkazilib, uning tomiridan qon olinadi. (O’sha asar, 124-125-betlar), ammo tabiblarning bu tadbiri befoyda ketadi. Prof. Ubaydulla Karimov ulug’ shoir hayotiga qasdni ana o’sha nuqtada ko’radi. Ya’ni sakta boshlangan vaqtda tomirdan qon olish haqidagi taklif o’rtaga tashlanadi. Biroq saroy tabibi Sulton Husayn Boyqarodan ruxsat olishni bahona qilib bu ishni paysalga soladi. Ruhi munavvarlari shod bo’lgur U.Karimovning armonlari shundaki, taklif tushgan paytda muolaja to’g’ri amalga oshirilsa, ulug’ shoir yana birmuncha muddat yashagan bo’lur edi. Ehtimol, shundaydir, qolgani yolg’iz qodir Egamga ayondir, xolos.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1.Alisher Navoiyning hayoti va faolitini o’rganishda qanday manbalarga tayaniladi? Ular haqida so’zlang.

2.Shoirning hayoti va faoliyatini o’rganish XX asrga qadar qanday ko’rinishlarda amalga oshirildi? Ular xususida nimalarni bilasiz?

3. Ulug’ shoir asarlarining Ovrupada o’rganilishi va yo’l qo’yilgan kamchiliklar haqida gapirib bering.

4. Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan sobiq Ittifoqda qanday ishlar amalga oshirildi?

5. XX asrning 50-60 yillarida ulug’ shoir asarlarini ommalashtirish borasida kimlar faoliyat ko’rsatdi va nimalarga erishildi?

6. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunga qadar navoiyshunoslik taraqqiyotida muhim hissa bo’lib qo’shilgan ilmiy asarlarni sanang.

7. Istiqlol va navoiyshunoslik. Bu borada qo’lga kiritilgan yutuqlar nimalardan iborat?

8. Yosh Alisherning ma’naviy kamolotida kimlarning ta’siri sezilib turardi?

9. Alisherlar xonadonining Iroqqa ko’chishining sabablarini tushuntiring

10. Abulqosim Bobur Mirzo va yosh Alisherning o’zaro munosabatlari haqida nimalarni bilasiz?

11. Mavlono Lutfiyning yosh shoirga bergan yuksak bahosini so’zlab bering.

12. Alisher Navoiy hayotining Mashhad davri haqida nimalarni bilasiz? shoir Mashhadda kimlar bilan tanishdi?

13. Alisher Navoiyning Hirotdan ketishini Zahiriddin Boburning «ixroj» deya atashiga nimalar sabab bo’lgan deb o’ylaysiz?

14. «Masnaviy» - Alisher Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga yozgan she’riy maktubida shoir o’zining yuksak badiiy salohiyati haqida iftixor bilan nimalarni e’tirof etadi va Hirotni tark etishiga sabab bo’lgan omillar sifatida nimalar qayd etiladi?

15. Samarqandda shoirga kimlar homiylik qildi? Alisher Navoiy bu shaharda tahsil olish jarayonida kimlar bilan tanishdi?

16. Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytishida qanday tarixiy voqea sabab bo’ldi?

17. Xurosonda barqaror vaziyatni vujudga keltirish uchun Yodgor Muhammad Mirzoga qarshi kurashda Husayn Boyqaroga Alisher Navoiy qanday tadbirlari bilan ko’maklashadi?

18. Nima sababdan Alisher Navoiy muhrdorlik lavozimida faoliyat ko’rsatishni istamaydi? Shoirni Husayn Boyqaro vazir etib tayinlashining sabablari nimalardan iborat?

19. Alisher Navoiy vazir va jamoat arbobi sifatida qanday ishlarni amalga oshirdi?

20.Alisher Navoiyning vazirlik lavozimidan iste’fo berishining sababi nimada?

21.Alisher Navoiy «Xamsa»sining yaratilishi tarixi haqida so’zlang. Abdurahmon Jomiyning bu asarga bergan yuksak bahosi va Husayn Boyqaroning yurt shoiriga ko’rsatgan ehtiromi haqida nimalarni bilasiz?

22. Husayn Boyqaro Alisher Navoiyni Astrobodga hokim qilib tayinlashda nimalarni nazarda tutadi? Shoirning Hirotga qaytishida qanday voqea sabab bo'ldi?

23. Husayn Boyqaro va shahzoda Badiuzzamon Mirzo orasida nifoq solishda kimlarning qo'li bor? Mo'min Mirzoning o'limiga-chi?

24. Alisher Navoiy nima sababdan hajga borish haqidagi qaroridan voz kechadi?

25. Shoir umrining so'nggi yillarida qaysi asarlarini yozdi?

26. G'iyosuddin Xondamirning «Makorim ul-axloq» asarida ulug' shoirning vafoti bilan bog'liq qanday tafsilotlar keltiriladi?

Mavzuga oid tayanch tushunchalar

Ulug' shoirning o'z asarlari. Katta, muosir va kichik zamondoshlari asarlari. XVI – XIX asrlarda yaratilgan tazkira, tarixiy va badiiy-ilmiy asarlar. Xalq og'zaki badiiy ijodi. Navoiy ijodiga oid lug'atlar tuzish. Tazkira, tarixiy hamda ilmiy-badiiy asarlarda adib shaxsi, faoliyati va ijodiga munosabat bildirish. She'rlariga javobiya va muxammaslar bitish. Dostonlarining nasriy bayonini yaratish va tarjima qilish. «Badoe'ul-lug'at». «Lug'ati Navoiy». Aloyi binni Muhibiy «Al-lug'otun Navoiyat val istashhodatul-chig'atoiyat». Mirzo Madhiyxon «Mabun ul-lug'at». Fath Alibek Kojariy «Lug'ati atrokiya». Muhammad Xoksor «Muntahabul lug'at» Shayx Sulaymon Afandiy Buxoriy «Lug'oti chig'atyo va turki usmoniy». «Tarixi Fanoiy». Sitsivishivili «Baromguriani». Xristafor «Sarandib shohi uch yosh o'g'lonining ziyorati». Frantsuz sharqshunosi Katrmer. M. Nikitskiy. Fitrat. «Farhod-u Shirin» dostoni to'g'risida». G'iyosiddin Muhammad. .Mir Sayyid Kobuliy. Muhammad Ali G'aribiy. Husayn Boyqaro. Sharofiddin Ali Yazdiy. Abuqosim Bobur Mirzo. Mavlono Lutfiy. Sayyid Hasan Ardasher. Abdurahmon Jomiy. Pahlavon Muhammad. Kamol Turbatiy. Ahmad Hojibek. Xoja Fazlulloh Abullaysiy. Yodgor Muhammad Mirzo. Badiuzzuamon Mirzo. Kepak Mirzo. Abulmuhsin Mirzo. Amir Shayxim Suhayliy. Mirxond. «Ravzat ul-safo» Atoulloh Husayniy. Husayn Voiz Koshifiy. Nizomumulk. Majididdin Muhammad. Ilk devvon. «Badoe' ul-bidoya». «Navodir un-nihoya». «Vaqfiya». «Xamsa». Nizomiy Ganjaviy. Xusrav Dehlaviy. «Muqarrabi hazrati sultoniy». Mo'min Mirzo. Xadichabegim. «Tarixi muluki Ajam». «Tarixi anbiyo va hukamo» «Holoti Sayyid Hasan Ardasher». «Holoti Pahlavon Muhammad». «Xamsat ul-mutahayyirin». Risolai muammo». «Majolis un-nafois». «Munshaot». «Mezon ul-avzon». «Nasoyim ul-muhabbat». «Xazoyin ul-maoniy». «Lison ut-tayr».

«Muhokamat ul-lug’atayn». «Mahbub ul-qulub». «Nazmul javohir». «Arbain». «Panoh». Muzaffar Mirzo. «Mubtalo bo’ldum sango». Qo’ldosh Mirzo. «Masnaviy»

Adabiyotlar

1. Abdullayev V. Navoiy Samarqandda. Toshkent – 1968.
2. Boyqaro Husayn. Risola. Toshkent: «Sharq» - 1991.
3. Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. 2-jild. Toshkent – 2002, 180-bet.
4. Vohidov R. Alisher Navoiyning ijod maktabi. Buxoro – 1994.
5. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo’stoni. Toshkent, 1981.
6. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. Toshkent, 1969.
7. Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkeng, 1976, 349-380 betlar.
8. Navoiy zamondoshlari xotirasida. Toshkent, 1985.
9. O’zbek adabiyoti tarixi. 5jiltlik, 2-jild. Toshkent, 1978.
10. Xondamir G’iyosiddin. Makorim ul-axloq, Toshkent, 1967.
11. Qayumov A. Alisher Navoiy. Toshkent: «Kamalak», 1991.
12. .Hayitmetov A. Temuriylar davri o’zbek adabiyoti. Toshkent: «Fan», 1996. Yana: Alisher Navoiyijodini o’rganishning metadologik asoslari haqida. «O’zbek tili va adabiyoti», 2001, 2-son. 3-9-betlar. Yana: Mumtoz adabiyot tarixi bo’limi. «O’zbektili va adabiyoti», 2004, 2-son, 3-9-betlar.

VIII BOB
ALISHER NAVOIY SHE’RIYATI

Alisher Navoiy she’riyati – o’zbek mumtoz adabiyoti xazinasiga qo’shilgan qiyossiz noyob durdonadir. Bu buyuk tafakkur sohibining badiiy yaratmalarisiz, nafaqat, turkiy, balki boshqa qardosh xalqlar adabiyoti ravnaqini tasavvur etish qiyin. Zero, ulug’ shoir she’riy merosida o’ziga qadar yaratilgan Sharq mumtoz adabiyoti an’analarini davom ettiribgina qolmay, yangi badiiy timsollarga murojaat etish orqali mutafakkirona qarashlarini ifodalash bilan ularning mavzular ko’lamini boyitdi, inson ruhiyatining murakkab qirralarini san’atkorona tasvirlashga erishdi. Bu, albatta, o’z navbatida shoirning she’riy merosi o’zbek va boshqa xalqlar qalamkashlari uchu ijod maktabi, ilhom manbai vazifasini o’tadi, deyishimizga asos bo’ladi. Alisher Navoiy ayni choqda zullisonayn shoir sifatida fors-tojik adabiyoti ravnaqiga ham sezilarli hissa qo’shadi. Shoir zamondoshlari uning har ikkala tilda ham birday ijod qilish imkoniyatiga ega ekanligini e’tirof qilib, ta’bi ko’proq turkiyga moyilligini ta’kidlashgan. Jumladan, Abdurahmon Jomiy «Bahoriston» asarida yozadi: «Ba on zabon besh az vay va beh az vay kase sha’r naguftaast va gavhari nazm nasufta» («U tilda, ya’ni turkiyda hech kim undan ko’p va undan yaxshi she’r ayta olmagan va nazm durdonalarini socha olmagan» (Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. “Irfon”, Dushanbe, 1966, 110-bet).

Alisher Navoiyning hikmatga boy she’riy merosi ko’lamining kengligi bilan ham ahamiyatlidir. Uning asosini 45000 misraga yaqin o’zbekcha she’rlarini o’z ichiga olgan «Xazoyin ul-maoniy» yig’ma devoni va 12000 misradan ziyod fors-tojik tilidagi she’rlaridan tarkib topgan «Devoni Foniy», shuningdek, forsiyda bitilgan 6 falsafiy qasidadan iborat «Sittayi zaruriya» («Olti zarurat») hamda yil fasllari tasviriga bag’ishlangan «Fusuli arbaa». («To’rt fasl») qasidalar tashkil etadi. Bulardan tashqari, shoir she’riy merosiga Muhammad alayhis-salom bilan bog’liq qirq hadisning tarjima-sharhi asosida vujudga kelgan «Arbain», Hazrati Alining «Nasr ul-laoniy»asarining she’riy tarjima-sharhi hisoblangan 266 ruboiydan tarkib topuvchi «Nazm ul-javohir», islom dini qonun-qoidalari sharhi talqiniga doir «Siroj ul-muslimin» singari asarlar hamda «Xamsatul-mutahayyirin», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Muhokamat ul-lug’atayn», «Mezon ul-avzon», «Mahbub ul-qulub», «Munshaot», «Vaqfiya», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi muluki Ajam» kabi nasriy asarlari tarkibidagi masnaviy, ruboiy, qit’a, fard janrlarda bitilgan badiiyat namunalari ham mansubdir.

8.1.Alisher Navoiy devonlari, ularning tartib berilishi tarixi, janriy tarkibi va mavzulari.

Alisher Navoiy badiiy ijod bilan bolalik yillaridanoq shug'allana boshladi. Oila muhiti, Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur Mirzoning yosh shoirga bo'lgan munosabati uning ijodiy salohiyatini tez orada ravnaq topishiga va ilmda e'tirof etilganidek, 10-11 yoshlarida Mavlono Lutfiydek yirik so'z san'atkorining nazariga tushib, keksa ijodkorning yuksak bahosi bilan ulug'lanishiga imkon yaratdi. Alisher Navoiy 23-24 yoshlarida shoir sifatida el orasida tanilgani, uning she'rlari Movarounnahr-u Xuroson sarhadlaridan o'tib shuhrat qozonganiga qaramay, asarlarini jamlab devon tartib berishga shoshilmadi. Ehtimol, shoir bu davrda Mashhaddan Hirotga qaytganida, hayotidagi eng og'ir yo'qotishlar tufayli bu ishga jiddiy e'tibor qilmagan bo'lishi mumkin. Zero, uning sal keyinroq Samarqanddan ustozi Sayyid Hasan Ardasherga maktub tarzida yozgan «Masnaviy»sidagi o'z ijodidan ko'ngli to'lib yozgan faxriya – baytlari shoirning xalq orasida sohib devon tarzda tanilishi uchun imkoniyat allaqachon vujudga kelganligini tasdiqlaydi.

Alisher Navoiy ijodi muxlislari bu noyob iste'dod sohibining badiiy yaratmalarini o'z vaqtida qadrladilar. Ulug' shoir sohib devon shoir sifatida tanilishida she'riyati muhiblarining hissasi beqiyos kattadir. Ularning sa'y-harakati bilan hijriy 870-, milodiy 1465-1466 yillarda shoirning ilk norasmiy devoni vujudga keldi. Bu devon taniqli xattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan nasta'liq xati bilan ko'chirilgan bo'lib, noma'lum musavvir tomonidan naqshlar bilan bezatilgan edi. Devonga maxsus nom berilmaganligi boisidan faksimil (foto) nusxasini 1968-yilda birinchi marta nashrga tayyorlagan va chop ettirgan taniqli adabiyotshunos Hamid Sulaymon uni «Ilk devon» deb atadi. «Ilk devon»dan 391 g'azal, 1 mustazod, 1 muxammas va 41 ruboiy o'rin olgan bo'lib, ularning barchasi 434 ta she'rni tashkil etadi. Mazkur asar Alisher Navoiy ijodining dastlabki bosqichlarini o'rganish uchun ishonchli manba sifatida ahamiyatlidir.

Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egallagandan so'ng, uning taklifi bilan o'zining birinchi rasmiy devoni «Badoe' ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»)ni tartib berdi. Mazkur devon XV asr adabiy hayotida juda katta voqea bo'ldi. Shoir devoni o'zigacha yashagan ijodkorlar va zamondoshlari devonlaridan ancha farq qilar edi. Avvalo, devon tartib berish uchun debochaga o'rin berish zarurligi ijodiy tajriba tarzida «Badoe' ul-bidoya»dan boshlandi. Shuningdek, shoir Sharq devonchiligi qator tamoyillarini isloh qilib, uning mukammallik kasb etishi uchun e'tibor qilinishi zarur bo'lgan jihatlarini amaliyotda ko'rsatdi. Alisher Navoiy ushbu devonda

debochadan so’ng dastlabki g’azallarini, keyin esa boshqa janrdagi asarlarining radifi yoxud qofiyasidagi oxirgi harfiga tayanib, qat’iy tartibda, arab alifbosi sirasida o’rin berishga e’tiborni qaratdi. Shuningdek, she’rlarining mavzulari, g’oyaviy yo’nalishi ham diqqat markazida turdi. Alisher Navoiy har bir harf sirasida kelgan g’azallarning dastlabkilari Alloh hamdi va Muhammad alayhis-salom na’tiga bag’ishlanishi, shundan so’nggina boshqa mavzudagi g’azallar tartib bilan joylashtirilishi lozimligini mazkur devon debochasida alohida ta’kidladi. Mazkur muqaddimada ulug’ shoir matlada aytilgan fikrni g’azalning maqtayiga qadar tadrijiy rivojlantirib borish hamda oshiqona she’rlar tarkibida mav’iza, pand, hikmatlarga doir baytlar kiritilishi shartligini ta’kidladi. O’zi mazkur tartiblarni barcha devonlarida amaliyotda ko’rsatishga muyassar bo’ldi.

«Badoe’ ul-bidoya»dan she’riyatning o’n bir janriga doir asarlar o’rin olgan bo’lib, ularning miqdori va tartibi quyidagichadir:

1. G’azal – 777
2. Mustazod – 3
3. Muxammas – 5
4. Musaddas – 2
5. Tarje’band – 3
6. Qit’a – 46
7. Ruboiy - 85
8. Lug’z - 10
9. Muammo - 52
10. Tuyuq - 10
11. Fard - 53

Mazkur devondagi she’rlarning umumiy miqdori 1046 tani tashkil etadi. «Badoe’ ul-bidoya»da «Ilk devon»dagi bir qism she’rlar ham kiritilgandir. Keyinchalik bu asarlar «Xazoyin ul-maoniy» yig’ma devonidan o’rin olgan.

Alisher Navoiy 1483-yilda ikkinchi rasmiy devoni «Navodir un- nihoya» («Behad nodirliklar»)ni tuzdi. Devonning Abdujamil kotib va Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko’chirilgan nisbatan to’liq nusxasi mavjud. XX asrning 70-yillari oxirida Alisher Navoiyning dastxati topilganligi haqidagi xabar ilm ahlini qiziqtirib qoldi. Bu haqda akademik B.Valixo’jayev Eron saltanati kutubxonasida saqlanayotgan qo’lyozmalar ko’rsatkichidagi qaydlarga tayanib birinchilardan bo’lib ilm ahliga ma’lumot berdi. Keyinchalik akademiklar V.Abdullayev, B.Valixo’jayev, prof. A.Hayitmetov va S.G’aniyevalarning maqolalari e’lon qitlindi. Masala bilan izchil shug’ullangan adabiyotshunos S.G’aniyeva shov-shuvlarga sabab bo’lgan qo’lyozma izidan tushdi va Eron Islom Respublikasidan uning surat-nusxasini olishga muyassar bo’ldi. Izlanishlardan ma’ldum bo’ldiki, mazkur kitob ulug’ shoir «Navodir un-nihoya» devonining notugal nusxasi bo’lib, uning muqovasida Alisher Navoiyning bir qatorlik qo’lyozmasi hamda muhrining aksi bor ekan. Bundan qat’iy nazar, surat-nusxa «Navoiy dastxati» (Toshkent: «Fan», 1991) nomi

bilan o’quvchilarga taqdim etildi. Olima mazkur kitobda yozgan so’z boshida, jumladan, quyidagilarni qayd etadi:

Ziyo ul-haq va-d dunyo va-d din
Berib ikkinchi devonimga tazyin.
Savod uzra savod ar qildim mastur,
Val ma’nidadur nur alo nur.

Katabahu al-abd al-faqir Alisher al-mashhur bi-n Navoiy g’af-ara zunubahi (Ya’ni, haq, dunyo va dinning nuri ikkinchi devonimni bezadi. Garchi qoralama ustiga qoralama yozilgan esa-da, lekin ma’nosida nur ustiga nur bo’lib tushdi. Bituvchi banda va faqir Navoiy nomi bilan mashhur Alisher, uning gunohlari kechirilgay!) Shu yerda Navoiy muhri bosilgan: («Kun, osha fi-d dunyo ka-l g’apib-al-faqir Alisher») (Ya’ni: Dunyoda faqir va g’arib Alisherdek hayot kechir) (O’sha kitob, 6-bet.)

«Navodir un-nihoya»ning nisbatan to’liq nusxalarida 862 she’r mavjud. Bular «Badoe’ ul-bidoya» tartib berilgandan so’ng ijod qilingan she’rlar bo’lib, ular ham keyinchalik «Xazoyin ul-maoniy»ga kiritilgan.

Alisher Navoiyning avlodlar oldidagi yana bir buyuk xizmati uning deyarli barcha lirik turga mansub yozgan asarlarini o’z bag’riga olgan «Xazoyin ul-maoniy» («Ma’nolar xazinasi») yig’ma devonini tartib berganligi bo’ldi. Bu xayrli ishning amalga oshishida murshidi komil Nuriddin Abdurahmon Jomiy va zamon hukmdori Sulton Husayn Boyqarolar tashabbuskor bo’ldi. Ulug’ shoirning «Xazoyin ul-maoniy» «Debocha»sida bayon etilgan qaydlaridan ayonlashadiki, «Badoe’ ul-bidoya» va «Navodir un-niho» devonlari tartib berilgandan so’ng, ijod qilingan she’rlar to’planib qoladi. Ulkan so’z san’atkori ularning taqdiri haqida o’ylaydi va yozadi: «Xotirg’a kelur erdikim, agar bu avroqqa rabt-u tartib berilmasa, bir havodis tundbodi eskach, har safhasin bir yon sovurg’ay va agar bu gul barglarni zeb-u oyin bila bir guldasta bog’lamasak, bir navoyib nasimi yetkach, har varaqin bir yon uchurg’ay» (MAT, 3-tom, 12-bet.). Biroq bu ishni amalga oshirishda shoir o’zida yetarli quvvat topa olmaydi. Ana shunday bir vaqtda Sulton Husayn Boyqaroning Alisher Navoiy nomiga o’z she’rlarini to’plab devon tartib berishi lozimligi haqida «farmoni vojib ul-iz’oni» («itoat etishga majbur farmoni» - R.V., H.E.) e’lon qilinadi. Alisher Navoiy ustozi Abdurahmon Jomiy bilan maslahatlashadi. Ularga Amir Xusrav Dehlaviyning Malikshoh Alp Aislon nomiga bag’ishlab, besh devonlar silsilasini tuzgani, ular o’z zamonasida g’oyat mashhur bo’lsa-da, keyingi davrda faqatgina nomlari saqlangani ma’lum edi. Ayni an’anaga ixlosmand Alisher Navoiy «Xazoyin ul-maoniy»ni to’rt devon shaklida tuzishni ma’qul ko’radi. Shunday qilib, shoir o’zbek tilida

yozgan deyarli barcha she’rlarini to’rt devonga ajratadi va ularning har birini inson umrining muayyan fasliga mos keladigan bir nom bilan ataydi.

Ulug’ shoir ijodiy hayotining 7-8 yoshidan 20 yoshigacha bo’lgan qismini umrining navbahori - «sig’ar» (yoshlik) fasli sifatida qayd qiladi va shu muddatda yozilgan she’rlariga «G’aroyib us-sig’ar» («yoshlik ajoyibotlari») nomli birinchi devondan o’rin beradi. 20-35 yoshlar oralig’i umrning yozi – «shabob» (yigitlik) ayyomi bo’lib, muallif bu davr devonini «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirliklari») tarzida nomlaydi. 35-45 yoshni umrning kuzi – «vasat» (o’rta yosh) hisoblagan ulug’ shoir «Badoye’ ul-vasat» («O’rta yosh go’zalliklari») devoniga ana shu yillarda bitilgan she’rlarini kiritadi. Nihoyat, 45-60 yosh «kibar» (keksalik) avoni bo’lib, inson umrining qishiga qiyoslanadi va ayni devon «Favoyid ul-kibar» («Keksalik foydalari») deb ataladi. Bu majmualarning barchasi «Xazoyin ul-maoniy» («Ma’nolar xazinasi») nomi ostida birlashtiriladi va 1492-1498 yillar oralig’ida tartib beriladi. «Debocha»da berilgan ma’lumotlarga ko’ra, mazkur devonlardan o’rin olgan har bir she’r bevosita Sulton Husayn Boyqaro nazaridan o’tkazilgan. Albatta, hazrat Navoiyning bu ta’kidlarini to’g’ri ma’noda qabul qilishni aqlga sig’dirib bo’lmaydi. Negaki, yig’ma devonlardan uch mingdan ziyodroq she’r o’rin olganligiga e’tibor qilinsa, Sulton Husayn Boyqaroning ularni birma-bir nazardan o’tkazganligini tasavvurga sirdirish qiyin. Fikrimizcha, ulug’ shoirning bunday qaydini maktabdosh do’st va zamon podshohiga yuksak hurmati nishonasi sifatida qabul qilish, yanada aniqroq aytadigan bo’lsak, davr insho san’atining uslubiy jilosi ma’nosida tushunish pand bermaydi.

«Xazoyin ul-maoniy» devonlaridan o’rin olgan she’rlarni to’la ma’noda tarixiylik tamoyiliga rivoya qilish holda joylashtirilgan deyish qiyinroqdir. Chunki ulug’ shoir katta miqdorda yig’ilgan she’rlarni devonlarga taqsimlaganda, har bir she’rning ruhi, uslubini e’tiborga olishga uringan. Ammo oradan o’tgan vaqt o’z gapini aytgan hamda she’rlarni tarixiy va mavsumiy aniqlik bilan joylashtirishning iloji bo’lmay qolgan. Bunday fikr taniqli navoiyshunoslar M.Shayxzoda va H.Sulaymon tadqiqotlarida o’z ifodasini topgan.. (Qarang: O’zbek adabiyoti tarixi. 2-tom, Toshkent: «Fan», 1977, 86-bet.)

«Xazoyin ul-maoniy» debocha, 2600 g’azal, 133 ruboiy, 10 muxammas, 4 mustazod, 5 musaddas, 4 tarje’band, 210 qit’a, 10 lug’z-chiston, 52 muammo, 13 tuyuq, 86 fard, 1 masnaviy, 1 qasida, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 soqiynoma jami 16 janrdagi she’rlardan iboratdir. Har bir devonga 650 g’azal kiritilgan. Shu kichkina ishoraning o’zidan ham ulug’ shoir «Xazoyin ul-maoniy»ni tartib berishda tarixiylik tamoyilidan birmuncha chekinganini sezish

mumkin. Bu fikrni «G’aroyib us-sig’ar» va «Navodir ush-shabob» devonlari tarkibida «vasat» hamda «kibar» davriga oid g’azallarning va aksincha «Badoye’ ul-vasat» hamda «Favoyid ul-kibar»da «sig’ar»-u «shabob»ga daxldor she’rlarning mavjudligi ham quvvatlaydi. Jumladan, «G’aroyib us-sig’ar» devoni tarkibidan o’rin olgan g’azallardan birida quyidagi bayt mavjud:

Yoshing ellik bo’ldi, yuz qo’yg’il fano tufrog’ig’a
Kim, shabob ayyomi aysh-u beadablig’ chog’i bas.

(MAT. 3. 201-bet.)

Bunday misollarni yana ko’plab keltirish mumkin. Shuningdek, «G’aroyib us-sig’ar» devonidagi bir qator she’rlarda Sulton Husayn Boyqaroning podsho sifatida tilga olinishi ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Zero, Sulton Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egallaganida, Ulug’ shoir 28 yoshda edi. Bulardan tashqari, Sayyid Hasan Ardasherning vafoti (1488-1489) munosabati bilan yozilgan masnaviy «Navodir ush-shabob» devonidan o’rin olgan. Holbuki, bu davrda ulug’ shoir 47-48 yoshlarda edi. Ko’rinadiki, «Xazoyin ul-maoniy» devonlariga taqsimlangan she’rlar nisbiy mohiyat kasb etadi. Yana shuni unutmaslik lozimki, «Xazoyin ul-maoniy»dan o’rin olgan asarlar 1498-yilga qadar yozilgan she’rlardir. Taniqli adabiyotshunos olim Hamid Sulaymon «Xazoyin ul-maoniy» devonining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish sohasida juda katta izlanishlar olib bordi. Tadqiqotchi «Xazoyin ul-maoniy»ning Toshkent, Sankt-Petrburg, Dushanbe, Boku, Parij, London va dunyoning boshqa shaharlaridagi muzey hamda kutubxonalarida saqlanayotgan ko’p sonli qo’lyozmalari surat nusxalarini yig’ib, ularni qiyosiy o’rganib chiqib, nashr ettirdi. (Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. I, II, III, IV tomlar. Toshkent: «Fan», 1959-1960.) Alisher Navoiyning 1498-yildan keyin ijod etgan hamda turli sabablarga ko’ra mazkur yig’ma devonga kiritilmagan she’rlari ham olimning e’tiboridan chetda qolgan emas. Yig’ma devonning Hamid Sulaymon nashri IV tomida bunday she’rlar «Navoiy tomonidan «Xazoyin ul-maoniy»ga kiritilmagan she’rlar» sarlavhasi ostida keltirilgan bo’lib, ular 24 g’azal, 2 ruboiy, 8 qit’a, 4 farddan iborat. (Qarang: Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. IV tom, Toshkent: «Fan», 1960, 773-794-betlar.) Keyinchalik bu she’rlarning yana yangi topilganlarini qo’shib, filologiya fanlari doktori Fozila Sulaymonova «Ayyomi visol o’ldi yana» nomi bilan mo’jaz bir to’plam holida (Toshkent, 1996) ulug’ shoir ijodi muhiblariga tuhfa qildi. (Bu haqda qarang: Vohidov R. Navoiy she’rig’a solg’il quloqki... «O’zbekiston adabiyoti va san’ati», 1997 yil 7 fevral.)

Alisher Navoiy she’riy merosi ko’lamining kengligi, ayni choqda rang-barang mavzularni o’zida mujassamlashtirganligi bilan ahamiyatlidir. She’rda

hayotning barcha murakkabliklari haqida nozik ishoralarda badiiy fikr yuritish adabiy ijodga xos yetakchi xususiyat sanaladi. Shu ma’noda ulug’ shoir she’riyatini u yashagan davrning notakror qomusi deyish mumkin. Unda shoir zamondoshlarining shavq-u zavqi, tabassumi-yu qahqahasi, g’azabi-yu nafrati, ingrashi-yu dardli fig’oni, shirin xayollari-yu ezgu niyatlari, baxtli kunlari-yu musibati, to’y-u ta’ziyasi, xullas, murakkab ruhiy-maishiy olami, sertashvish hayot sahifalari yorqin iz qoldirgan. Buyuk mutafakkir faoliyat ko’rsatgan zamonning ilmiy-badiiy saviyasi, tafakkur kengliklari, falsafasi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, ilohiy-irfoniy mezonlari uning she’riy merosida badiiy tajassumini topgan. Shu bois ulug’ shoirning rangin she’riyati mohiyat-mazmuni bilan, shubhasizki, ma’nolar xazinasidir. Unda Sharq mumtoz adabiyoti an’analari takomillashtirilgani, hamd, na’t, mav’iza yo’nalishidagi she’rlarga keng o’rin berilganini kuzatish mumkin. Ishq-muhabbat mavzusi esa kichik she’riy asarlarining tayanch yo’nalishini tashkil etadi. Ayni choqda bu ko’hna va doimo yangilanib boruvchi barhayot mavzu ulug’ shoir qalamida ayricha joziba kasb etdi. Natijada uning oshiqona she’rlari bag’rida XV asr ikkinchi yarmi hayotining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, ilohiy-irfoniy, qarashlari go’zal badiiy ifodasini topdi va shunday kichik janrdagi asarlar mavzular olamining boyitilishiga munosib hissa bo’lib qo’shildi. Ishq-muhabbat inson - ma’naviy kamolotida hal qiluvchi mavqega egadir. Ulug’ shoir muhabbat mavzusida qalam tebratar ekan, eng avvalo, dard ahli – oshiqlarga murojaat qiladi:

Ey Navoiy, dardlig’ nazmingni dard ahli bilur,
Dardsiz dog’i bo’lur oni o’qig’och ahli dard.

(MAT. 5-tom, 93-bet.)

Alisher Navoiy she’riyatida ishq va dard bir-biri bilan chambarchas bog’liq, biri ikkinchisini doimo taqazo qilib turuvchi tushunchalardir. Dard aslida inson vujudidagi xastalikni anglatsa-da, biroq u ijod va ishq olamida ijobiy ma’no kasb etadi. Shoir nazmidagi «ahli dard» esa aqlni hayratga solg’uvchi tuyg’ular tug’yonidan qalblarida uyg’ongan jo’shqin muhabbat bois ishq yo’lini ixtiyor etgan oshiqlardir. «Hayrat ul-abror» dostonida bu egizak tushuncha pok niyatli oshiqning ma’naviy kamolotga, poklik olamiga yetaklovchi vosita sifatida ulug’lanadi:

Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko’zi-yu ham ko’ngli pok.
O’zlugidin ishq ani pok etib,
Balki fano o’tig’a xoshok etib.

(Xamsa, 1960, 87-bet.)

Alisher Navoiy she’riyati haqsevarlik va insonsevarlik ta’limoti bo’lgan tasavvuf g’oyalariga o’zgacha jilo va sayqal berish bilan ravnaq topadi. Masalaga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo’lsak, ulug’ shoir baytlaridagi «o’zlugidin ishq ani pok etmoq» - ishq vositasida oshiqning eng katta dushmani – nafsi ustidan g’olib kelishidir. «Fano o’tig’a xoshok bo’lmoq» - oshiqning eng ezgu maqsadining amalga oshishi, uning «Ma’shuqi azal visoliga vosil» bo’lishidir. Buning uchun «dardnok» oshiqning «ham tili, ham ko’zi-yu ko’ngli pok» bo’lmog’i zururiy shart hisoblanadi. Poklik – juda katta tushuncha. Tilni pok tutmoq - uni be’mani gaplar uchun ishlatmaslik, g’iybat-tuhmatga berilmaslikdir. Ko’zni pok tutmoq - shubhali narsalardan saqlanish, ko’rish noravo bo’lgan nomahramlarga boqmaslik hisoblanadi. Ko’ngilni pok tutmoq esa – umuman man’ qilingan jamiki narsalardan, istaklardan tiyilishdir. Ko’rinadiki, poklikni ixtiyor qilgan inson o’z haddi va haqqiga qanoat bilan yashamog’i zarur ekan.

Ishq-muhabbat talqini ulug’ shoir she’riyatidagi eng serqirra ma’no-mohiyat kasb etuvchi mavzu sanaladi. Jumladan, insonni insonga, hayotga, tabiatga va Yaratuvchiga bo’lgan samimiy sevgisini ifodalagan She’rlar bu keng qamrovli mavzuning tayanch ustunidir. Alisher Navoiy qit’alarida bu tushuncha haqiqiy va majoziy ishq tarzida talqin qilish mumkin bo’lgan yo’nalishda badiiy ifodasini topadi. Haqiqiy ishq insonning Allohga, majoziy ishq esa insonning insonga, hayotga, tabiatga va butun mulki borliqqa bo’lgan muhabbatidir. Ulug’ shoir mavjudot olami ajoyibotlari orasida ziddiyat emas, balki bog’liqlik, aloqadorlikni ko’radi. Ular bir-birini taqazo qiladi. Alisher Navoiyga xos bunday dunyoqarash uning qit’alaridan birida sarlavha vazifasini bajargan: «Majozdin maqsudi haqiqat ekani izhor qilmoq va suratdin g’araz ma’ni ekanin padidor qilmoq»

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,
Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.
Majozdin chu haqiqatqa yo’l topar oshiq,
Qilur majozni nafyi ul ki, behaqiqat erur. (6. 512)

Ulug’ shoir mazkur qit’ada majoziy muhabbatni e’tirof etgani holda, o’sha ishq poklik va halollik bilan nurlidir hamda u poklanish tufayli ilohiy ishq maqomiga ko’tariladi, degan g’oyaga sodiq qoladi. Shuningdek, ulug’ shoir majoziy ishqdan murod ilohiy ishq haqida o’ylash, fikr yuritish, uning hijron-u iztiroblaridan lazzatlanish ahli haqiqatning tanlagan yo’lidir, deydi. Bu yo’lda tariqat va uning hayotbaxsh ta’limoti madadkordir. Alisher Navoiy she’riyatida, jumladan, tahlil qilinayotgan qit’ada majoz va nazmiy san’atlar vositasida badiiy mushohada yuritish mayli baland. Aksariyat hollarda so’zlar

zulma’naynlik (ko’p ma’nolilik) fazilatiga ega. Shuning uchun ular mohiyatini darrov payqash dushvor. Navoiyona misralar mag’ziga chuqur mulohazasiz yetish imkondan tashqaridir. Shunday fazilat yuqoridagi va quyida ko’chirganimiz qit’ada ham yorqin ko’zga tashlanadi:

Ko’rmasa husni majozi ichra juz haq sun’ini,
Oshiqekim, bo’lsa ishq atvori ichra pokboz.
Zohido, bu ishqdin man’ aylamas oshiqnikim,
Gar sen idrok aylasang, ayni haqiqatdur majoz. (6. 512-513)

Ushbu qit’ada ulug’ shoirning falsafiy mushohadasida teranlik bilan yonma-yon dadillik va aniqlik turganligini his qilish qiyin emas. Chinakam oshiq yor – mahbubasi jamolida Yaratganning nuri tajalliysini his eta olsa va uning sa’y-harakatlarida poklik ustuvor bo’lsagina, majoz haqiqat pillapoyalariga ko’tarilishi mumkin. Qit’ada zohidga murojaat ham bejiz emas. Umuman, zuhd-u zohidlik masalasidagi qarash ehtiyotkorlikni taqazo etadi. Chunki bu toyifa ahlining xatti-harakatida namuna olsa arzigulik jihatlar bor. Ular toat-u ibodat, namoz-u ro’zani kanda qilmaydi. Doimo tavba qilib, tahoratli yurishadi. Biroq ularning riyokorligi toat-u ibodatini ko’z-ko’z etishi va jannat tama’ida bo’lishlarida yorqin ko’rinadi. Oshiq va zohid dunyoqarashlari o’rtasidagi keskin tafovutga adabiyotshunos N. Komilovning «Tasavvuf» kitobidi nozik ishoralar bor. U o’z fikrlariga mashhur so’fiy ayol Robiya Adviyaning (714-801) Allohga munojotlarida quyidagicha nola qilib aytgan so’zlarini keltirish bilan oydinlik kiritadi: «Ey Parvardigorim, ey yori aziz, agar jannating tama’ida toat qiladigan bo’lsam, jannatingdan benasib et, agar do’zaxingdan qo’rqib ibodat qiladigan bo’lsam, meni do’zax o’tida kuydir – ming-ming roziman! Ammo agar Sening jamolingni deb tunlarni bedor o’tkazar ekanman, yolvoraman, meni jamolingdan mahrum etma!» (Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. Toshkent: «Yozuvchi», 1996, 6-bet.) Ko’rinadiki, tasavvuf ahlida hayotga tavakkul bilan qarash kayfiti baland. Ularning qat’iy ishonchiga ko’ra, solik ishq va tariqat maqomlari sari intilishini davom etishi, bu haqda baland ovoz bilan gapirmasligi, tamadan yiroq turishi lozim. Ulug’ shoir g’azallarida ushbu fikrlarni quvvatlovchi ko’plab baytlarni uchratish mumkin:

Navoiy, ishqdin ne kelsa, dam urmaki oshiqqa,
Keraktur ishqi pinhoni-yu dog’i ishq pinhoniy. (6. 426)

Alisher Navoiy ushbu bayt bag’riga o’zi muridi komili bo’lgan naqshbandiya tariqatining «Dil ba yor-u dast ba kor» tayanch g’oyasi mohiyatini singdirgan. Aslida ulug’ shoir she’riyati qahramonlari ishqdan etgan barcha ozor-u mashaqqatlarga sabot va matonat bilan bardosh berishga

tayyordirlar. «G’aroyib us-sig’ar» devoni g’azallarining biriga mansub bo’lgan quyidagi bayt lirik qahramoni haqida ham shunday xulosaga kelishga asos bo’ladi:

Ey Navoiy, ishq mushkil deb nechuk tarkin tutay,
Elga gar bu ish hunar bo’lsa, bo’luptur fan manga. (3. 35)

Ulug’ shoir ishq bobida tenglik falsafasini ilgari surib, g’azallarining birida: «Ishq aro shoh-u gado tengdir, balki gado fuzun»,- deya e’tirof etadi. Biroq bu muaddas tuyg’uni e’tiqodida sobit bo’lmagan, munofiq kishilar tomonidan toptalishini keskin tanqid qiladi:

Ulki ermas ishqi pok-u sajda aylar ko’rsa husn,
O’yladurkim, aylagay fosih tahoratsiz namoz. (3. 182)

Husn – go’zallikni ko’rib, unga mahliyo bo’lgan kishining sajda qilishi pok ishqning nishonasi emas. Undagi «sadoqat» va «e’tiqod» nobakor kimsaning yuviqsiz – tahorat olmay namoz o’qishi bilan barobardir. Ishq, avvalo, poklik, qolaversa, sadoqat-u chinakam e’tiqod bilan muqaddasdir. Mana shu talab-tamoyillar buzilgan joyda xoh majoziy, xoh ilohiy ishq bo’lsin, bular haqida gap-so’z bo’lishi mumkin emas. Ishqqa vafo, sadoqat g’oyasi shoirning quyidagi g’azalida oshiqning o’ziga xos qasamyodi sifatida ifoda etilgan:

Ko’nglum o’rtansun agar g’ayrigg’a parvo aylasa,
Har ko’ngul hamkim sening shavqungni paydo aylasa.
Har kishi vaslin tamanno aylasam navmid o’lay,
Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa.
O’zgalar husnin tamosho aylasam chiqsun ko’zum,
O’zga bir ko’z hamki husnungni tamosho aylasa.
G’ayr zikrin oshkoro qilsa lol o’lsun tilim,
Qaysi bir til hamki zikring oshkoro aylasa.
Rashkdin jonimg’a har nargis ko’zi bir shu’ladur.
Bog’ aro nogoh xirom ul sarvi ra’no aylasa.
Yo’q og’izdin nukta aytur mahvashimdek bo’lmag’ay,
Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.
Ofiyat jonimg’a yetti, ey xush ul mug’kim, meni
Bir qadah birla xarobotichra rasvo aylasa.
Kelturung daf’i jununumg’a pariyxon, yo’q tabib
Kim ul ansabdur pari har kimni shaydo aylasa.
Subhdek bir damda gardun qo’ymag’ay osorini,
Nogoh ahli sidq ko’ngli mehrin ifsho aylasa.
Dahr sho’xig’a, Navoiy, sayd bo’lma nechakim,

Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa. (1. 66-67)

Ko’chirilgan g’azal o’n baytli, tuzilishiga ko’ra yakpora – musalsaldir. Mavzu va g’oyaviy yo’nalish nuqtayi nazaridan oshiqona-orifona g’azallar sirasiga kiritish mumkin. Radifli («aylasa» o’zgarishsiz takrorlanib, shunday vazifani ado etadi), taxallusli. Matla’ o’zaro qofiyalangan, birinchi bayt (band) va maqtasiga (xulosa, xotimaga) ega. Matndagi «parvo», «paydo», «tamanno», «tamosho», «oshkoro», «ra’no», «Masiho», «rasvo», «shaydo», «ifsho», «mutarro» so’zlari qofiya vazifasida kelgan. qofiya uchun mazmun ozor chekkan misralar ko’zga tashlanmaydi. g’azalda ma’shuqa bevosita ishtirok qilmaydi. Uning haqidagi barcha ma’lumot-u xabarlar oshiq tilidan beriladi. G’azalda matladan boshlanagn mazmun (oshiqning ma’shuqa nazdidagi qasamyodi) maqtaga qadar izchil davom etadi. Ayni uslubiy-g’oyaviy jilo g’azal yakporaligini ta’min etgan. G’azalda majoziy va ilohiy-irfoniy ishq qorishiq keladi. Bunday mayl, ayniqsa, g’azalning yetti va sakkizinchi baytlarida ravshan ko’rinib qoladi. Undagi «quyosh», «zarra», «Masiho», «mug’», «qadah», «xarobot» singari qator ishoralar shunday xulosaga kelish uchun asos beradi. Ishqda poklikni tayanch shart sifatida biluvchi oshiq unga rioya etishni vujud-vujudi bilan istaydi va ayni talabni ma’shuqadan ham so’raydi. Shunday bayt misralarida qasamyodlar yonma-yon tutilib, badiiy talqin beriladi: Oshiq o’z qat’iy so’zi ustidan chiqish uchun yuragini tilka-pora qilishga, juvonmarg bo’lishga, ko’zlarining ko’r, tilining lol (soqov)ga aylanishiga rozi. Shunday qarg’ishlar shartini buzgan ma’shuqaga yoxud uni poklik yo’lidan chalg’itishga urinuvchi - ag’yorga ham ravo ko’riladi. G’azalda shohbaytlar uchraydi. Fikrimizcha, beshinchi va oltinchi baytlar shunday xususiyatga ega. Unda bir necha badiiy san’atlar (tashbeh, yashirin talmeh, mubolag’a, tanosub va hokazo) qorishiq kelib misralar nazokatini ko’tarishga xizmat qilgan. Oshiq gulzor ichra xirom qilib yurgan sarvi ra’no ma’shuqasini nargisdan ham rashk qiladi. Ma’shuqa nuqta misol (yo’q hisobi) og’izchasi bilan so’z aytsa, uning oydek gulgun chiroyi yana ochiladi va hokazo.

Alisher Navoiy lirikasida hamd, na’t yo’nalishidagi she’rlar, ijtimoiy hayotning turli muammolari, odob-axloq me’yorlariga bag’ishlangan badiiyat namunalarini juda ko’plab uchratish mumkin.

8.2. Alisher Navoiy g’azaliyotining shakliy, g’oyaviy xususiyatlari, yetakchi qahramonlari va badiiyati.

Alisher Navoiyning o’zbek tilidagi qomusiy devoni «Xazoyin ul-maoniy» mumtoz adabiyotimiz xazinasidagi jozibali she’riyatning eng yuksak cho’qqisi

sanaladi. Ulug’ shoirning kichik she’riy janrlar taraqqiyoti tarixidagi muhim xizmatlaridan biri shuki, u o’zi yashagan davrga qadar turkiy badiiy so’z san’atida mavjud bo’lgan g’azal, masnaviy, qasida, tuyuq, qit’a, ruboiy, fard, soqiynomani yuksak ravnaq pag’onasiga ko’tardi. Shuningdek, yig’ma devonini rang-barang mavzularda bitilgan, turkiy she’riyat uchun nisbatan taqchil bo’lgan muxammas va musaddas, musamman va mustazod, tarje’band va tarkibband, muammo va lug’z-chiston singari adabiy shakllar bilan bezadi.

Alisher Navoiy ma’naviy merosi tarkibidagi 16 janr orasida g’azal alohida mavqega ega. Ulug’ shoir o’ziga xos uslubda ijod etgan bunday badiiy yaratmalarida, avvalo, mavzuni batafsil yoritish uchun matlada aytilgan fikrni mantiqiy rivojlantirib borish, she’r qahramoni hissiy-ruhiy kechinmalarini badiiy san’atlar yordamida haqqoniy va samimiy tasvirlashga erishdi. Oshiqona g’azallari tarkibida mav’iza – pand-nasihat mazmundagi baytlarga keng o’rin berdi. Ayni mayl g’azal janrini tor oshiqona qoliplardan ma’no-mavzu ko’lamdorligiga olib chiqish uchun qulay imkoniyat ratdi. Badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda ulug’ shoir yuksak san’atkorlik namunalarini namoyish qildi. O’zidan keyingi ijodkorlar uchun ilhom manbayi, adabiy maktab vazifasini o’tagannavoiyona bunday uslubning shakllanishida, shubhasiz, XV asrga qadar musulmon mintaqa adabiyotida vujudga kelgan adabiy an’analarni teran o’rganish muhim ahamiyat kasb etgan. G’iyosuddin Xondamirning ma’lumotiga ko’ra, Alisher Navoiyning bolalik chog’laridanoq ulug’ turkigo’y shoir malik ul-kalom Mavlono Lutfiyning nazariga tushib, uning yuksak bahosiga loyiq ko’rilishi yosh shoirning ijod maydonida zavq bilan javlon urishi uchun o’ziga xos adabiy maktab vazifasini o’tagan. «Xazoyin ul-maoniy» tarkibidan o’rin olgan besh musammat (3 muxammas, 2 musaddas) barchasining faqatgina Mavlono Lutfiy g’azallariga bog’langan taxmislar ekanligi fikrimizni to’la quvvatlaydi. Ulardan birining maqtasida quyidagi satrlar mavjud:

Har gado egnida bo’lsa eski to’n yo choki jayb,
Bilmay asli niyatin qilmoq g’alatdur shakku rayb,
Ey Navoiy, chun sanga ma’lum emastur sirri g’ayb,
Lutfini mayxonada oshufta ko’rsang, qilma ayb,
Kim, bu majnun ixtiyori zulfi qullobindadur. (5. 457)

Mavlono Lutfiy g’azaliyoti xalqona ohangda bitilganligi, baytlarda xalq maqollari va iboralaridan foydalanib yetakchi g’oyani o’quvchiga teran yetkazish hamda insonning murakkab ruhiy holatlari tasvirini she’rxon ko’z o’ngida o’sha vositalar yordamida ta’sirchan bo’yoqdor gavdalantirishga egaligi bilan fazilatlidir. Alisher Navoiy g’azaliyotida ham lutfiyona bunday

uslubning ijodiy rivojlantirilganligini kuzatish mumkin. Ulug’ shoir shundan bo’lsa kerak, «Badoye’ ul-bidoya» devoni debochasida turkigo’y ijodkorlardan Mavlono Lutfiy va Mavlono Sakkokiyga juda yuksak baho berib yozadi: «...Va uyg’ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag’osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy rahimahum ollohkim (Alloh ularga marhamatli bo’lsin – R.V., H.E.) birining shirin ab’yoti ishtihori Turkistonda bag’oyat va birining latif g’azaliyoti intishori Iroq-u Xurosonda benihoyatdurur va devonlari mavjud bo’lg’ay.» (MAT. 1-tom, 14-bet.) Alisher Navoiyning Mavlono Sakkokiy ijodi bilan yaqindan tanishligi g’azallaridan birining maqtasida kelgan va faxriyaga murojaat asosida vujudga kelgan quyidagi baytda yorqin namoyon bo’ladi:

Navoiy nazm aro tig’i zabonni uyla surdikim,
Pichoq topmas uyatdin o’zni o’lturmakka Sakkokiy. (4. 423)

Keltirilgan iqtibosda Alisher Navoiyning turkiy adabiyotning bu ustoz qalamkashi ijodiga bo’lgan mehr-muhabbati, hurmati, ayni choqda bu ulug’ shoir bilan o’zaro adabiy musobaqa – mushoira uyushtirgani sezilib turadi. Baytdagi yana bir nozik jihatga e’tibor qilmaslikning iloji yo’q. Alisher Navoiy ikkinchi misrada badiiy san’at qo’llashda nafis mahorat ko’rsatgan. Iyhom tasviriy vositasiga murojaat qilgan ulug’ shoir «pichoq - pichoqchi» so’zlarini «o’ynatadi». Buning uchun «Sakkokiy»ning «pichoqchi» ma’nosiga ega ekanligi unga qo’l kelgan. Shunday qilib, baytni quyidagicha talqin qilish mumkin: Navoiy nazm bobida mahorat ko’rsatib, shunday go’zal misralar yaratdikim («tig’i zabonni uyla surdikim» - bu o’rinda ham «tig’» orqali pichoq nazarda tutiladi va bu bilan misralararo tanosub hosil qilinadi), ularni o’qigan «Pichoqchi» (Sakkokiy) uyalib, o’zini so’yish uchun pichoq topolmay dog’dadir. Fikrimizcha, so’z san’ati bobida bundan-da yuksak nazokat bo’lmas.

Tabiat Alisher Navoiydan o’z ehsonlarini darig’ tutmagan. Jumladan, kuchli hofiza quvvati va bir necha tilni puxta bilish iste’dodini unga ravo ko’rgan. Arab va fors tillarini puxta bilgan shoirga o’ziga qadar bo’lgan fors-tojik va arab adabiyotlarini o’ta sinchkovlik bilan o’rganish imkoniyatini berdi. Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz, Shayx Sa’diy, Kamol Xo’jandiy, Salmon Sajaviy, Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy singari ustoz ijodkorlar merosini o’ta zavq bilan mutolaa qildi. O’sha ta’b sohiblarining ma’naviy meroslari uning ijodkor sifatida shakllanishida ma’lum darajada ta’sir ko’rsatgan bo’lsa, ajab emas. Ulug’ shoir o’sha adabiy gulshandan ilk bor tuygan va diqqatini tortgan, dimog’ini qitiqlagan muattar gullar tarovatini bir umrga unutmaydi. Shundan bo’lsa kerak, g’azalchilik bobida Amir Xusrav, Xoja Hofiz, Abdurahmon Jomiy o’rnini alohida ta’kidlaydi va ularni ustoz

deyishdan faxrlanadi. «Xazoyin ul-maoniy» va «Devoni Foniy»dagi o'nlab ishoralar shundan dalolat beradi. «Favoyid ul-kibar» devonidagi quyidagi qit'a bu jihatdan, ayniqsa, ahamiyatlidir:

G'azalda uch kishi tavridur ul nav'
Kim, andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.
Biri mo'jazbayonlig' sohiri hind
Ki, ishq ahlini o'rtar so'z-u holi.
Biri Iso nafaslik rindi Sheroz,
Fano dayrida mast-u louboli.
Biri qudsi asarlik orifi Jom
Ki, jomi Jamdurur sing'an safoli.
Navoiy nazmig'a boqsang, emastur,
Bu uchning holidin har bayti xoli.
Hamono ko'zgudurkim, aks solmish,
Angga uch sho'x mahvashning jamoli. (6. 516)

Alisher Navoiyning mazkur qit'asida Sharq adabiyotining uch ulug' allomasi ulug'lunudi. Qizig'i shundaki, she'riy misralarda nom-u taxallusdan nishona yo'q. Alisher Navoiy ijodiyotidan yaxshi xabardor bo'lmagan kitobxon uchun ushbu misralardagi ishoralar jumboqligicha qolaveradi. Qit'aning boshida Amir Xusrav Dehlaviy tilga olinadi. Shoir uni «sohiri hind» tarzida tanishtiradi. Alisher Navoiyning boshqa asarlarida ham bu ishora tez-tez uchraydi. «Sohir – sehrgar, jodugar; ajoyib san'atkor, qiziq hunarlar ko'rsatuvchi» kabi talqinlarga ega. Hind – Hindiston. Shajara ildizi Shahrisabzdan boshlanadigan Amir Xusravning Hindistonda istiqomat qilganligiga ishora. Yakunga keladigan bo'lsak, Amir Xusrav Alisher Navoiy nazdida oddiy shoir emas. U so'z ma'no qirralarini teran kashf etgan va uni sehr – yuksak san'at maqomiga ko'targan ilohiy iste'dod egasidir.

Ikkinchi ustoz – «Iso nafaslik», «rindi Sheroz», «mast-u louboli» «fano dayrida» (sohillarida) sayr qilish maqomidagi shaxs. Ayrimlari qayd etilgan fazilat – belgilar rindga daxldor. U – Sherozdan. Alisher Navoiy ma'naviy merosidan voqif kitobxonga manzara ancha oydinlashadi. Ma'no rishtalari Xoja Shamsuddin Hofiz Sheroziyga ulanadi. Majoziy va haqiqiy ishqni bir sho'x jilg'aga mastona oqizish uning qo'lidangina kelgan, xolos. Shuning uchun u mast va sho'xliklar qilishga haqli. U – rindona raftor qilish huquqiga ega.

Rind – musulmon mintaqa adabiyotining faol timsollaridan biri. Sho'ro zamonida rind dahriylik ramzi bo'lib keldi. Aslida unday emas. «Ziyrak», «hushyor», «erkin fikrli», «sho'x», «beparvo», «ishratga berilgan», «mayxo'r»

kabi ma’nolarga ega rind tasavvuf olamiga daxldordir. Maslak, oyin (tariqat) maqomida esa Xoja Hofiz she’riyatida ustuvor o’rnashgan. Shundan bo’lsa kerak, rind Hofiz taxallusining sinonimi ma’nosida tushuniladi. Rind so’zi talqinidagi «may», «ishrat», «mayxo’rlik», «beparvolik» va hokazolar majoziy ma’nodadir. Aksariyat belgilariga ko’ra, rind-u rindlik malomatiya tariqatiga tortib qoladi.

Yana biri – orifi jom. Undan poklik nuri yog’iladi. Uning qo’lidagi singan safol – afsonaviy Jamshid jomidan ham afzaldir. Jom-u may – oriflar nasibasi – ma’rifat nuridir. Bunday dovruqli orif naqshbandiya sulukining Xurosondagi peshvosi Nuriddin Abdurahmon Jomiyning sifatlovchisi. Har uchala ustoz qalbi va asarlarini birlashtiradigan yagona g’oya va fazilat – ishqdir. Uning oxirgi bekati poklanish, oriflik rutbasi. Alisher Navoiy uchun ham bu bekat – orzu, intilish nuqtasidir...

Ulug’ shoir Sharq mumtoz adabiyotining asrlar davomida vujudga kelgan boy an’analarini mufassal o’rganib, Amir Xusrav Dehlaviyga xos so’zning ma’no qirralarini teran kashf etgan holda uni yuksak san’at maqomiga ko’tarish, Hofiz Sheroziyga xos majoziy va ilohiy ishqni bir o’zanga birlashtirib tarannum etish, Abdurahmon Jomiyga xos poklik va ma’naviy yetuklikni ulug’lash singari fazilatlarni o’z ijodida birlashtirdi. Shuningdek, Mavlono Lutfiy va Mavlono Sakkokiy singari qalamkashlar ijodidan adabiy ta’sirlandi. Ayni choqda, Alisher Navoiy shakl va ma’noning o’zaro uyg’unligini asarning badiiy salohiyatini oshiradigan hamda uning umrboqiyligini ta’minlaydigan muhim jihat deb biladi. «Hayrat ul-abror» dostonining muqaddimaviy boblaridan birida adibning bu haqdagi adabiy-tanqidiy qarashlari quyidagicha tasvirlanadi:

Bo’lmasa e’joz maqomida nazm,
Bo’lmas edi tengri kalomida nazm.
Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo’lsun aning surati har ne durur.
Nazmki ma’ni anga marg’ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo’b emas.
Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma’ni dog’i dilkash anga.

(Xamsa. 1960, 34).

Shoir nazdida, nazm e’joz – mo’jiza ko’rsatish maqomidadir. Unda shu fazilat bo’lmaganda edi, Tangri kalomida (Qur’oni karimdagi «she’rda sehr bor» iborasi yashirin talmeh vositasida misraga singdirilgan) nazm bo’lmas edi. Badiiy ijod o’ziga xos yuksak ehtiros bilan ulug’langan mazkur parchada

muallif nazmdagi eng muhim jihat shakl-u mazmun mavzusidagi mulohazalarini bayon etadi. Avvalo, shuni ta’kidlash o’rinliki, shoir tafakkuridagi shakl - g’oyatda katta tushuncha. Uni faqatgina har jinsi (janri) doirasida chegaralab qo’yish to’g’ri bo’lmaydi. Badiiy yaratmalarda qo’llanadigan tasvir vositalari – adabiy san’atlar ham ma’lum ma’noda unga taalluqli. Ikkinchidan, shakl va mazmun o’rtasida Iskandar devorini qo’yish ham adolatdan emas, chunki iste’dodi bor san’atkor qalami tuhfa qilgan badiiy yaratmada (xoh u nasr va xoh nazmda bo’lsin) muallaq turuvchi unsur bo’lmaydi. Anosirning katta-kichikligidan qat’iy nazar, ularning har biri o’z vazifasiga ega bo’ladi. Biri ikkinchisini to’ldiradi, taqazo etadi. Hammalari yagona maqsadni ro’yobga chiqarish, muallif g’oyaviy niyati tantanasi yo’lida xizmat qiladi. Maromiga yetgan badiiy asarni yaxlit tanaga qiyoslash joiz bo’lsa, murakkab jarayonda ishtirok etgan barcha bo’laklar o’sha jismni shakllantirgan teng huquqli a’zolardir. Ulardan birida nuqson sezilsa, dunyoga keladigan asarning to’laqonligiga futur etishi tayin.

Taniqli adib va navoiyshunos olim M.Shayxzoda «Alisher Navoiy lirikasining ba’zi bir poetik usullari haqida» (Asarlar. 6 tomlik. 4-tom, Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972, 195-216-betlar.) nomli maqolasida shoir g’azaliyotiga xos yetakchi to’rt uslubiy jilo haqida fikr yuritadi. Ularning ikkitasi bevosita tadrij badiiy san’atiga murojaat etish bilan (yakpora yoki voqeaband, musalsal) vujudga keladi. Alisher Navoiy she’riy ijodiga xos bo’lgan g’azallarda baytlarni ma’nan, fikran va shaklan bog’lash orqali ma’lum voqea yaratish yoki mantiqiy izchillikka asoslangan fikrlarni vujudga keltirish bilan ma’lum xulosani bayon etish, shuningdek, baytlar silsilasida obrazning tadrijiy yetiluvi, takomilini ta’minlash shular jumlasidandir. Tadrij san’atiga murojaat etish vositasida g’azal tuzilishi jihatidan musalsallik yoki ma’lum voqea asosida vujudga kelishiga ko’ra voqeabandlik kasb etadi. Ma’lumki, Sharq g’azalchiligi tarixida bunday g’azallar uchrab tursa-da, baytlararo mantiqiy bog’liqlik g’azalga xos yetakchi xususiyat maqomini olgan emas edi. Mumtoz adabiyot’da davom etib kelayotgan an’anaga ko’ra, g’azallar mohiyatan ko’p mavzuli (parokanda) edi. Mustaqil baytlardan tuzilgan bunday g’azallarda mavzular mantiqan bir-biri bilan izchil bog’lanmagan (ayni ta’kid nisbiy mohiyat kasb etadi) baytlarda yoritilardi. Ularda kompozitsion butunlikni vazn, qofiya, radif singari badiiy unsurlar va she’r qahramonining ichki dunyosi tasviri, shuningdek, muallifning hayotga, ishqqa, zamon va ahli zamonga munosabatini ta’minlab turadi. Alisher Navoiy ijodida kompozitsion tuzilishiga ko’ra har ikkala turga oid g’azallar

uchrasa-da, ularning aksariyati mohiyatan musalsallik kasb etadi. Fikrimizni quyidagi g’azal bilan asoslashga harakat qilamiz:

Yordin ayru ko’ngul mulkedurur sultoni yo’q,
Mulkkim sultoni yo’q, jismidururkim, joni yo’q.
Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qora tufrog’dekdurkim, gul-u rayhoni yo’q.
Bir qora tufrog’kim, yo’qtur gul-u rayhon anga,
Ul qorong’u kechadekdurkim, mahi toboni yo’q.
Ul qorong’u kechakim yo’qtur mahi tobon anga,
Zulmatedurkim aning sarchashmayi hayvoni yo’q.
Zulmatekim, chashmayi hayvoni aning bo’lmag’ay
Do’zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni yo’q.
Do’zaxekim ravzayi rizvondin o’lg’ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastlig’ imkoni yo’q.
Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor
Hajrdin dardi-yu, lekin vasldin darmoni yo’q. (3. 252-253)

Avvalo, ta’kidlash joizki, mazkur g’azalda ko’zga «yarq» etib tashlanadigan san’at bargardonishdir. Ya‘ni mazmunni kuchaytirish, ta’kidlab ko’rsatishga xizmat qiluvchi «takrir», takror, qaytarishdir. Ayni g’azalda baytning birinchi misrasi oxirida kelgan so’z yoxud kalimalar guruhi ikkinchi satr boshida kelib, aytilmoqchi bo’lgan g’oyaviy niyatni ta’kidlab ko’rsatishga xizmat qiladi. Masalan: «Mulkkim sultoni yo’q, jismidururkim joni yo’q, Bir qaro tufrog’dekdurkim...» va hokazo. Ikkinchidan, g’azal matlasida ifodalangan bo’liq ma’no-mazmun uning maqtasiga qadar tashbeh, talmeh, tazod, iyhom, tanosub kabi san’atlar vositasida tadrijiy rivojlantirish usulida yozilgan. Unda yor – ko’ngil, mulk – sulton, jism – jon, tufrog’ – gul-u rayhon, qorong’u kecha – oy, zumat – obi hayot (tiriklik suvi), do’zax – ravzayi rizvon, xumor (ichkilik, majozan ishq) – mastlig’ (ilohiy fayzdan sarxushlik) kabi juftliklar o’zaro ziddiyatni hosil qilgan. Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, matlada shoirning oshiqona, orifona, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma’rifiy qarashlari o’z in’ikosini topgan. G’azalning keyingi baytlarida ishora ketgan barcha mavzularga oid mulohazalar silsilaviy takomillashtirilgan. Asardagi baytlararo fikrni mantiqiy bog’lash quyidagi tartibda ekanligi ko’zga tashlanadi: Yorsiz ko’ngil – sultonsiz mulk, sultonsiz mulk –jonsiz jism, jonsiz jism – gul-u rayhonsiz qora tuproq, gul-u rayhonsiz qora tuproq - oysiz tun, oysiz tun – obi hayoti bo’lmagan zulmat, obi hayoti bo’lmagan zulmat – jannat bog’idan yiroq bo’lgan do’zax, jannat bog’idan yiroq bo’lgan do’zax –

ishqszlik, ishqsizlik – ilohiy fayzdan bebahralik. Xotima: Hajrning dardi bo'la turib, vasl darmoni (umidi) bo'lmasa-da, ishqdan voz kechma.

Mantga asoslanib, «Yordin ayru ko'ngil»ni – sultonsiz mulk, jismsiz jon, gul-u rayhonsiz qora tuproq kabilarga tashbeh qilingani singari matladagi «sultonsiz mulk» ham teng bog'liqlik asosida aytilganlarga qiyoslangan, deyish mumkin. Anglashiladiki, shoir g'azalda ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy hodisalarni yondosh rivojlantirib boradi va ko'ngil uchun mahbuba, ishq va undan bahramandlik qanchalik zarur bo'lsa, mamlakat uchun ham podsho shunchalik muhim, degan umumlashma-xulosani ilgari suradi. Faqat matla' va undan oldingi baytda shoirning ishqiy mavzuga oid qarashlarini badiiylashtirishga mayli kuchayganligini unutmaslik lozim. Bu, albatta, shoir g'azaliyotidagi yetakchi mavzu ishq-muhabbat ekanligini yana bir karra tasdiqlaydi. Shuningdek, unda qo'llangan badiiy timsollar vositasida ilgari surilgan yetakchi g'oya ishqi majoziy – insoniy muhabbat va haqqa yetgan oriflar ishqi – ilohiy ishqqa ham birdek daxl qila oladi. Alisher Navoiyning uqtirishicha, ulkan bir shartning o'sha ikki ishq o'rtasida ko'ndalang turishi muhabbat talqinidagi tasniflarga sababdir. Inson taqdirining hamma jabhalarida ko'zga tashlanadigan ishq jazavasida pok niyat, pok qalb, pok so'z, pok ko'z, pok e'tiqod amal qilsagina ishqi majoziy haqiqiy ishq maqomiga ko'tarila oladi. O'shandagina tasniflarga ehtiyoj sezilmaydi. Mumtoz adabiyot namoyondalari, jumladan, Alisher Navoiy g'azaliyotiga doir ajratishlar (oshiqona, orifona, rindona, qalandarona...) esa o'ta nisbiy tushunchalardir. O'tmish she'riyati bo'stoniga qadam bosgan muxlis o'z mayli va zavqi nuqtayi nazaridan o'sha g'azallarga yondashadi, qalbiga moyil tuyg'ularni ilg'ab oladi. Xuddi shunday xususiyatni quyidagi g'azal tahlili jarayonida ham kuzatish mumkin:

Yorlardin qilibon ram go'yo,
Bo'ldung ag'yorga hamdam go'yo.
Xayli ushshoqki mardud etting,
Bormen ul xaylda men ham go'yo.
Dudi oh ichra qora kiymishlar,
Bo'ldi ishq ahlig'a motam go'yo.
Buki, devona ko'ngul sevdi pari,
Bevafodur bani odam go'yo.
Girdibolisht anga xurshid o'ldi,
Ul erur Isoyi Maryam go'yo.
Olam asbobi uchun g'am emagil,
Arzimas bungacha olam go'yo.

Ey Navoiy, buki, aylandi habib,
Yo’qtur ul zaxmga marham go’yo. (6. 25)

G’azal yetti bayt, o’n to’rt misradan iborat. Taxallusli, mazmuniga ko’ra oshiqona-orifona. Chunki unda har ikkala ishqqa ham moyillik seziladi. Butun she’r davomida «go’yo» radif bo’lib kelgan. Radifni she’riyatning shunchaki zohiriy unsuri sifatida qabul qilish yaramaydi. Salohiyati bor ijodkor qo’lida she’rga olib kirilgan har bir belgi yoxud so’z o’z muayyan vazifasini bajaradi. Bunday g’azallarda muallaq yoxud betaraf turuvchi ishorani topish noimkon bo’lib qoladi. Ko’chirganimiz g’azalda radif zimmasiga katta mas’uliyat yuklatilgan. U g’azal ohangini belgilashi shart. «Go’yo» zamirida gumon maylidan tashqari, muayyan bir holatni ko’ra turib, ko’rmaslikka olish va uni tusmollab so’rash tuyg’usi ham yashiringan. Mumtoz she’riyatda shoir tomonidan tutilgan bunday yo’l tajohuli orif san’ati deyiladi. Ko’rinadiki, ulug’ shoirning sohir qalami g’azal matlasidayoq mazmunni bo’liq yuzaga chiqaruvchi she’riy san’atlar lashkarini safga tizib qo’yadi:

Yorlardin qilibon ram go’yo,
Bo’ldung ag’yorga hamdam go’yo.

Matladagi «ram» va «ag’yor» izoh talabdir. Birinchisininig «hurkish», «cho’chish», «qo’rqish» singari ma’nolari bor. Ag’yor esa (g’ayri, o’zga, raqib) mumtoz she’riyatdagi yetakchi obrazlar – oshiq-u ma’shuqalar bor joyda hozir-u nozir, ular suvini loyqatuvchi, rashk qo’zg’atuvchi, oshiq qalbida shubha tug’diruvchi timsoldir. Ijod ahli esa ayni urinishlar bilan muhabbat otashini shu’lalantirishga harakat qilishgan. Ishq yonida jindak rashkning bo’lishi oshiqlik darajasini belgilashda mahaki imtihon (tamal toshi) vazifasini o’taydi. Oshiq iltijolariga parvo qilmagan ma’shuqa go’yo ag’yorga «qiyo boqadi.» Bunday urinish ravshanki, oshiqqa ham yoqmaydi va u yor payidagi sergak harakatini davom ettiradi. Ba’zan ginaxonlik ham qilib qo’yadi. Shunday manzara tahlil qilayotganimiz g’azal matlasida ko’zga tashlanadi. Oshiqning kelayotganini ko’rgan ma’shuqa o’zini atayin uni ko’rmaslikka oladi va qasddan ag’yorlar tomon yura boshlaydi. Mahbubaning bunday raftori oshiq nigohida qo’rqoqlik, aniqrog’i, va’daxiloflik bahosini oladi. Ulug’ shoir shu o’rinda tazod (qarshilantirish) san’atiga tayanadi. Ma’shuqaning oshiqdan «yuz o’girishi» va ag’yorga qarab yuz burish lavhalari ifodasida bu badiiy tasviriy vositasining o’rni yorqin nazarga tashlanadi. Shu o’rinda yana bir hodisani aytish joiz ko’rinadi. Mumtoz g’azallarimizda deyarli hamisha ma’shuqa jafokor, oshiq - jafokash qiyofasida namoyon bo’ladi. Mushohadalarimizga asos bo’lgan baytda ham xuddi shu manzara mavjuddir. Yana an’anaviy mumtoz g’azallarda mahbubaning o’zi shaxsan ko’rinmaydi. Uning yaxshi-

yomon jihatlari haqidagi xabar oshiq tilidan keltiriladi. Tahlil qilinayotgan g’azalda ham shunday holat nazarga tashlanadi.

Ma’shuqaning jafokorligi esa o’z izohlariga ega. U ishqday ulug’ insoniy tuyg’uga yengil-elpi qaramaydi. O’ziga munosib yor tanlash ilinjida ruhiy qiynoqlarga dosh beradi. Hijronning shunday murakkab azoblarini oshiqning ham boshiga soladi. Ana shu jarayonlar ishq ahlini ikkiga – bardoshli, bosiq hamda qo’nimsiz, bulhavas oshiqlarga ajratadi. Alisher Navoiy talqinidagi aksariyat oshiqlar o’sha tasnifning birinchi guruhiga mansubdir. G’azalning keyingi satrlarida ma’shuqasidan shikoyat qilayotgan oshiqning ruhiy holati o’z ifodasini topgan:

Xayli ushshoqki, mardud etting,
Bormen ul xaylda men ham go’yo.
Dudi oh ichra qora kiymishlar,
Bo’ldi ishq ahliga motam go’yo.

G’azalning ikkinchi baytida alamzada oshiqning ginaxonligi davom etadi. U o’zining oshiqlar to’dasidan haydalganligidan shikoyat qiladi. Uchinchi baytda she’r qahramonining ichki kechinmalari yanada chuqurlashadi. Hijron iztiroblari ushshoqqa qora libos kiydiradi. Ular motam libosida. Ulug’ shoir o’quvchini hayratga soladigan manzara tasvirini chizadi. Aslida oshiqlar libosining qoraligi motam tufayli emas. Ular o’zlari tortgan so’ngsiz ohlarning dudiga bo’yalib, shu qiyofaga kirdilar. O’ta mubolag’a san’ati muallif muddaosini ro’yobga chiqarishda qo’l kelgan. Ayni lavhalar tasviridagi voqealar makoniga ham o’z ta’sirini ko’rsatadi. Ulug’ shoirning chizgilari muayyanlikdan mavhumlikka, yerdan samoga qarab yuz tuta boshlaydi. Mo’ridan oqib chiqqan tutun samoga o’rlaydi va osmonni qoplaydi, falakdagi yog’du zulmat ichra yo’qola boradi. Yuzaga kelgan bunday ajib manzara yer yuzasida yurgan insonlar uchun ham izsiz ketmaydi. Katta tutun barcha narsani o’z domiga tortgani va qoraga bo’yagani uchun ham ular qorayib ko’zga tashlanadi. Radif bo’lib kelgan «go’yo» o’z vazifasini o’tay boshlaydi. Zulmatga hamrang qiyofadagilarning dilini hijron uqubatlari xufton qiladi. Ular go’yo mota libosiga burkanganlar. To’rtinchi baytda yer go’zali va tasavvvurdagina namoyon bo’luvchi afsonaviy hur-parilar yonma-yon qo’yiladi:

Buki devona ko’ngil sevdi pari,
Bevafodur bani Odam go’yo.

Baytda yana tajohuli orifga, bilib bilmaslikka olish san’atiga murojaat etiladi. Ma’naviy san’atlar sirasiga kiruvchi tajohuli orif ijodkorlar muddaosini qobariq yuzaga chiqarishda qo’l keladi. Alisher Navoiy ham bu san’atning

o’sha imkoniyatidan juda unumli foydalangan. Radif vazifasida kelgan «go’yo» aytganimiz badiiy tasvir vositasi (san’at) foydasiga xizmat qilgan. She’rning qahramoni oshiq o’z ko’ngli bilan ginaxonlik qiladi. Hur-parilarni sevgani uchun oshiq o’z yuragini «devonalik»da ayblaydi. Muallif nozik qochirim bilan Odam Ato naslidan bo’lgan yer go’zali tabiatidagi va’daxiloflikka ishora qiladi. Aslida esa mahbubaning yuragi ham ishq otashi ta’siridan xoli emas. U ham olovda yonadi, ammo hayo va ibo, iffat va nomus uning bardoshini toblantiradi. O’z nazokatini, ayollik sharafini himoya qilishga da’vat etadi. Boz ustiga, oshiqni imtihondan o’tkazish, undagi ishqning rostligiga ishonch hosil qilish ishtiyoqi ma’shuqani yanada sabr-u bardoshli bo’lishga undaydi. G’azalning to’rtinchi bayti yer-u samoni ulugan bo’lsa, beshinchi bayti undagi orifona-ilohiy ruhni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. Buning uchun ulug’ shoir talmeh san’atiga tayanadi:

Girdi bolish anga xurshid o’ldi,
Ul erur Isoyi Maryam go’yo.

Baytda Iso va Maryam bilan aloqador voqealarga shama’ qilish talmehni yuzaga chiqargan. Maryam – Iisus Xristosning onasi. «Injil» hamda «Qur’on»dagi ta’kidlarga ko’ra, u turmush qurmay, erkak zoti bilan yaqinlik qilmay, ilohiry nurdan homilador bo’lgan va Iso payg’ambar tug’ilgan. Shuning uchun ham nasroniylar o’z payg’ambarlarini Xudoning o’g’li tarzida talqin qiladilar. Aslida unday deyish Allohga shirk keltirishdir. Qur’oni karimning «Ixlos» surasida xabar beriladiki, «U (Alloh) tug’magan, tug’ilmagan, tug’dirmagan va Aziliy hamda Abadiy mo’jizasidir» Shundan bo’lsa kerak, Iso islomiy ta’limotga ko’ra, payg’ambar va alayhis-salom, uning tug’ilishi bilan bog’liq voqealarni Ilohiy qudratning mo’jizasi sifatida qarash to’g’riroq bo’ladi. G’azalning beshinchi baytida yana o’sha ishqiy voqealarga ishora ketadi. Ma’shuqaga baxt kulib boqdi. Bibi Maryam singari Quyosh ko’rdi, biroq sanalgan lavha-yu manzaralar aslida sodir bo’lgani yo’q. «Go’yo» yordamida oshiq shularga pisanda qilayotir. Masalaning botiniy jihatiga qaytadigan bo’lsak, ulug’ shoir qur’oniy g’oyalarni targ’ib qilishdan tashqari, ishqning ilohiy ne’mat sifatida insonga Alloh tomonidan inoyat qilinganligini satrlar mag’ziga singdirishga muvaffaq bo’lgan. Keyingi baytda nasihat maylining kuchliligi ko’zga tashlanadi:

Olam asbobi uchun g’am emagil,
Arzimas bungacha olam go’yo.

Dunyo va uning mol-mulki mehr qo’yishga arzimaydi. Yuzaki qaraganda, bu gaplarning ishqqa daxli yo’qday tuyuladi. Mazkur bayt g’azal badanida begonasirab turganday ko’rinadi. Satrlarning ohangiga jiddiyroq quloq solinsa,

unday emas. Ulug’ shoir mavzuga teran nazar solgani uchun ataylab «asbob» so’zini qo’llaydi. Holbuki, «olam asbobi»ning tarkibiy qismlaridan biri ishqdir. Oshiq hamma narsadan kechishi mumkin, ammo jism-u joniga payvand pok tuyg’u – ishqdan bir lahza ham o’zini xoli tasavvur qilolmaydi. Bu o’rinda ishq ko’p qirrali tushuncha timsolida nazarga etadi. Maqta’ – oxirgi qo’sh misra shunday xulosaga kelish huquqini beradi:

Ey Navoiy, buki aylandi habib,
Yo’qtur ul zaxmiga marham go’yo.

Tahlil qilayotganimiz g’azalning xotimaviy baytida ishq va uning iztiroblariga aloqador ma’no mujassam va ulug’ shoir bu o’rinda dard manbayi – boiskorini aniq ko’rsatadi. U – habib. Bu birgina so’zning talqinlari ko’p. Habib – ma’shuqa, Habib – Alloh, habib – do’st, Habib – Muhammad payg’ambarning sifatidir. Bularning barchasi ham oshiqdan yuz o’girsa, uning bag’rida paydo bo’lgan yaraga shifo bo’luvchi davo -malham topilmaydi.

Alisher Navoiy o’z davrining ulug’ mutafakkiri, davlat arbobi sifatida g’azallarida ham ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini badiiylashtirdi. Buning uchun shoirga tuzilishiga ko’ra mustaqil baytlardan (nisbiy tushuncha) tarkib topgan (parokanda)g’azallar qo’l keladi. Zero, ularda ijodkor garchi muhabbat mavzusida qalam tebratayotgan bo’lsa-da, jamiyat haqidagi mulohazalarini ham bayon etish imkoni mavjuddir. Mana shu imkon g’azalning mavzu doirasini ancha kengayishiga zamin hozirlaydi. Aytilganlar nuqtayi nazaridan Alisher Navoiyning quyidagi g’azali ahamiyatlidir:

Lolagun bo’lmish surarda qatlima dildor tiyg’,
Yo balo tog’idin etmish lolazor izhor tiyg’.
Gul tani yuz chok o’lub bukim bo’yalmish qon aro,
Tegdi g’amzang xaylidin go’yo anga bisyor tiyg’.
Tiyg’ tortib yetkaz-o’q qildim fidosi jonikim,
Bo’lmag’ay ozurda qotil, ko’rmagay ozor tiyg’.
Jism paykoning bila to’ldi-yu jondur g’amdakim,
Aylasang qatlimg’a rag’bat bo’lmag’ay nokor tiyg’.
Ishq dashti sabzasidin lola har yon sochilur,
Ya’ni ul sahro giyohi bor emish xunbor tiyg’.
Olam ahli qatlini bir damda qilsang orzu,
Yuzdin ol burqa’ni, qindin chekmagil zinhor tiyg’.
Nazm mulkin til chekib olmish Navoiy uylakim,
Cheksa olamni olur shohi falak miqdor tiyg’. (3. 246-247)

Yetti baytdan tarkib topuvchi g’azalda «tiyg’» (qilich) radif bo’lib kelgan. «Dildor», «izhor», «bisyor», «ozor», «nokor», «xunbor», «zinhor», «miqdor»

esa g’azalning qofiyadosh so’zlaridir. Radif va qofidosh so’zlar o’rtasida zich mantiqiy aloqadorlik mavjud. Shoir mustaqil baytlardan tuzilgan g’azallar «beradigan» imkoniyatdan mahorat bilan foydalangan. Mazkur g’azal g’oyavty yo’nalishiga ko’ra oshiqona. Boshdan aytib qo’yaylik, g’azaldagi ishq talqinida omextalik balandroq. Ba’zan majoziylik, gohida haqiqiy – ilohiylik ustun keladi. Satrlarda mantiq va manzaralarga murojaat nuqtayi nazaridan tez-tez yer-u samo bog’lanib turadi. Bunday jarayon tasvirlanayotgan voqealarning holati ruhiyasidan tabiiy ravishda kelib chiqadi. Shunday gapni misralarda ifodalangan ranglar jilosi tanosubi xususida ham aytish joizdir. Mazmun rishtasining bir uchi «lolagul va «lolazor»dan boshlanadi. Shunday misralarda lola tusi qizil rang va qon o’rin almashtirib turadi. Tazod san’ati she’r voqealari ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. She’rning tayanch qahramoni – oshiq. Barcha «sarguzashtlar» uning tilidan hikoya qilinadi. Matladayoq mubolag’a san’ati ishga solingan. Tiyg’ damidagi qon yuqi lola rangida. Uni oshiqning qon yoshlari bo’yagan. Oshiq talqinidagi manzara sal boshqacha tus oladi. Go’yo ma’shuqa oshiqni o’ldirmoq uchun tiyg’ ko’targan va qilich uning badaniga tegib ketishidan jarohat hosil bo’lib, dam (qilich) qonga bo’yalgan. Oshiq gumonlarini davom etadi: Yo’q, ko’p tiyg’lar ishga tushgan, balo tog’day yuksalgan va balanddan oqqan qon yer yuzini qoplaganki, u lolazorni eslatadi...Shu tariqa «ishq dashti» manzaralari xususiylikdan (juz’iydan) umumiylikka (kullga) o’sib boradi, yer-u osmonni bir-biriga ulaydi... xotimada kichik bir ishora bilan she’riyat va jamiyatdagi ko’rinishlar qiyoslanadi. Nazm dunyosida tiyg’ vazifasini til va tafakkur ado etadi. Ana o’sha bir-biriga uzviy aloqador omillar oqilona ishga solinsa olam guliston, kishvar sizning tasarrufingizda... Shohning yo’rig’i boshqacha, u kishvarni olish uchun son-sanoqsiz tiyg’larni ishga solishi muqarrar... Albatta, biz ayrimlarini bayon qilganimiz talqinlar she’riy qatorlarning zohiriy ma’nolari xols. Tabiiyki, har bir so’z, ishora, majoz-u tashbeh o’z tag ma’nolariga ega. Ularni uzoq sharhlashdan tiyilgani holda, aniq muddaoni dadil aytish mumkin. Til ham tiyg’, uning vazifasini «so’z lashkari» qonsiz uddalay oladi. Aql-u farosat ishga tushsa, olam tabiiy lolazor tusiga kirgusidir...

Alisher Navoiy g’azallarining bosh qahramoni, shubhasiz, shoirning o’zidir. Ularda muallifning ichki tug’yonlari, ruhiy iztiroblari-yu quvonchlari, tarjimayi holiga oid qaydlar uchraydi. Shuningdek, shoir g’azaliyotidagi boshqa obrazlar: ma’shuqa, shoh, darvesh, shayx, zohid, orif, rind, soqiy, raqib kabilar va rang-barang badiiy timsollar asardagi yetakchi g’oyani she’rxonga teran yetkazish uchun buyuk tafakkur sohibining taxayyul olamidan she’rga

ko’chdi hamda badiiy salohiyati yuksak g’azallarning vujudga kelishini ta’min etdi.

8.3. Kichik she’riy asarlari: qit’a, ruboiy, tuyuq va lug’z (chiston) lar

«Xazoyin ul-maoniy»ning ko’plab sahifalari kichik she’riy asarlar bilan bezalgan. Bular orasida qit’aning alohida o’rni bor. Arabcha «parcha», «bo’lak», «pora» ma’nolarini anglatgan bu so’z istiloh sifatida ikki va undan ortiq baytlardan tashkil topgan, juft misralari o’zaro qofiyalanuvchi (a -b – c - b – d – b...) she’riy shaklga nisbatan qo’llanadi. Qit’a – boshsiz (matlasiz) g’azal ham deyiladi. Bu janr arab, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida keng qo’llanilgan she’riy shakllaridan biridir. Mavzular olami rang-barang bo’lgan qit’alarda ko’pincha shoirlarning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, ilohiy-irfoniy qarashlari ifoda etiladi. Sharq mumtoz adabiyotida qit’a alohida janr sifatida amal qiladi va axloqiy-ta’limiy, falsafiy-ma’rifiy qarashlar ifoda etilgan nasriy badiiy, tarixiy-memuar, pandnoma asarlar, shuningdek, devonlarning debochalari tarkibida ham uchraydi. Odatda, ijodkorlar bunday asarlarda ma’lum bir masala yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarini yakunlash, umumlashma-xulosalarini bayon etish maqsadida qit’adan foydalanishgan. Qit’aning bunday xususiyati «qissadan hissa» chiqarish vazifasini bajarishga safarbar etilgan.

Alisher Navoiyning sohir qalami qit’aning o’zbek mumtoz she’riyatidagi yetakchi janrlaridan biriga aylanishini ta’minladi. Bu ulug’ so’z san’atkoriga qadar Yusuf Amiriyning «Bang va Chog’ir munozarasi»da (ikkita o’zbekcha), Xorazmiy «Muhabbatnoma»sida (bitta) va Mavlono Lutfiy devonida qit’a janriga mansub asarlar mavjudligi kuzatiladi. Alisher Navoiy turkiy adabiyotda juda kam qo’llanilgan bu adabiy janrning yuzlab mumtoz namunalarini ijod etdi. «Xazoyin ul-maoniy»da 210 ta qit’a mavjuddir. Yig’ma devon «Debocha»sida kelgan qit’alar esa yuqorida ko’rsatilgan raqamga qo’shilmagan. Bulardan tashqari, «Mahbub ul-qulub», «Arbain hadis» va boshqa asarlar tarkibidagi qit’alar ham nazarda tutilsa, ularning soni uch yuzdan ortadi. Chunki «Arbain hadis»ning o’zida Janobi rasuli akramning axloqqa doir qirq hadisi qirq qit’a shaklida o’zbek tiliga o’girilgan va keng kitobxonlar ommasiga taqdim etilgan.

«Xazoyin ul-maoniy» tarkibida kelgan qit’alar ulug’ shoirning muayyan vaziyatdagi kayfiyatini, juda chuqur falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, ilohiy-irfoniy qarashlarini badiiy ifoda etganidan kelib chiqib aytish mumkinki, ular daqiqnazar ijodkorning hayotga yanada teran nigoh bilan qarashi mahsuli

sifatida vujudga kelgan. Avvalo, yig'ma devonlarga kiritilgan har bir qit'adan oldin nasriy sarlavhalarning berilishi o'sha qit'alar mazmunining mukammalligini ta'min etgan. Qit'adagi baytlar va ularning badiiy nasriy sarlavhasi shoir aytmoqchi bo'lgan fikrni o'quvchi ko'z oldida to'laqonli namoyon bo'lishida xolis xizmat qiladi. Buning uchun o'sha sarlavhalarning shoir tomonidan maqol, hikmatli so'z darajasiga ko'tarilganligi, ularning muallif tarjimayi holi va ijodi bilan aloqadorligi hamda payg'ambar hadislari bo'liq g'oyalarini she'riy tarzda ifodalashga qaratilganligi kabi juda ko'plab fazilatlar shunday mukammallikning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Quyida nomlari keltirilgan qit'alar sarlavhalari fikrimizning yorqin dalilidir: «Yomon yomonlig'ini qilmasa, yaxshilig'cha bor va bir yaxshilig' qilsa o'n yaxshilig' qiliqcha», «Falokatdin ayog'iga kashf bo'lmag'ong'a chun kashf uchun ayog'i bor, shukr vojibdur», «Do'stdinkim dushman xayi bo'lg'ay, dushman yaxshiroqdurki, do'st ro'yi bo'lg'ay», «O'ziga bu mulkdin yetkan balolar toshi ozori, bosh olib o'zga mulkka borurning izhori», «Majozdin maqsud haqiqat ekani izhor qilmoq va suratdin g'araz ma'ni ekanin padidor qilmoq», «Annosu' 'alo dini muluk» hadisining ta'siri» va hokazolar jumlasidandir. Ko'chirilgan sarlavhalarning o'zi Alisher Navoiy qit'alarining mavzular ko'lami juda kengligini tasdiqlaydi. Shoirning o'zi ham shu janrda yozilgan she'rlarining bu fikrni quyidagicha e'tirof etadi:

Bu qit'a o'z qit'alari ta'rifidadurkim, bu ham alardin birdur va ta'rif bunga ham sodiq kelur

Mundoq muqattaotkim, men yig'misham, erur
Har bir hadiqayi xirad aylar uchun farog'.
Majmuin uyla kishvari anglaki, sathini,
Hikmat suyidin aylamisham qit'a-qit'a bog'. (6. 520)

She'rning sarlavhasidan anglashiladiki, shoir qalami tuhfa qilgan qit'alarning mohiyatini izohlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Baytlardagi mazmun quyidagicha: men shunday qit'alar yig'dimki (yozdimki), ularning har biri xotirjam yashash uchun bir aql bog'idir. Barchasini bir mamlakat sifatida tasavvur qilsang, uning hududini hikmat suvidan sug'orib bo'lak-bo'lak bog' qildim. Alisher Navoiy qit'alarining barchasini bir mamlakatga o'xshatar ekan, qit'a so'zining lug'aviy ma'nosidan kelib chiqib, ularni shu mamlakatdagi bo'lak-bo'lak bog'larga qiyoslaydi. Bu bog'lar hikmat suvi bilan sug'irilganligi bois insonlarning osoyishta umr kechirishlari uchun xizmat qiladi. Baytlarda keltirilgan «hikmat» so'zi alohida e'tiborga molikdir. U «bilim», «donolik», «falsafa», «sir», «ilohiy ilm», «mohiyat» singari ma'nolarni anglatadi. Bulardan tash-ari, Qur'oni karim - Allohning hikmati, ilmi va sirlarining bayoni tarzida

ham talqin qilinadi. Ayni paytda bu so’z Alisher Navoiy qit’alari xalqimiz milliy qadriyatlarining ajralmas bo’lagi sanalgan islom dinining umumbashariy g’oyalari bilan sug’orilganiga ishoradir. Zero, ularning ulug’ shoir devonlaridagi tarkibida hamd na’t mavzusidagi qit’alarning o’rin olganligi bu fikrni yanada quvvatlantiradi. Anglashiladiki, ilohiy mavzuda yozilgan qit’alar ulug’ shoir devonlarida salmoqli o’rin tutadi. Shunday qit’alarning birida Alisher Navoiy komil musulmon sifatida o’z isyonining shiddati va ko’nglini aytib Haqning karami kengligi hamda bandasini avf qilishi osonligini sarlavhadayoq bayon qiladi. Undagi baytlardan asosiy mazmun-mohiyat shoirning Allohga munojoti sifatida tasvirlanadi:

Qilibmen oncha isyonkim, agar do’zax aro kirsam,
Mening behad gunohim birla do’zax sarbasar bo’lg’ay.
Xudoyo, avf osonroqdurur, yo’qsa g’azab qilsang,
Magarkim o’zga do’zax, o’zga o’t, o’zga azob bo’lg’ay.

(5. 504-506)

Alisher Navoiy zamonasining ulug’ mutafakkiri sifatida qit’alarida adolatli shoh, ota-ona hurmati, ilm-ma’rifatni egallash, yaxshi axloq egasi bo’lish, yomonlik va yomonlardan uzoq bo’lish singari mavzularni qalamga oladi. Shubhasizki, bu mavzular markazida barcha zamonlar uchun birday orzu bo’lib kelgan komil inson g’oyasi turadi. Shoir «hukamo qablining tarjimasi insoniyat bobida» («Donishmandlarning insoniyat haqidagi fikrlari tarjimasi») nomli qit’asida komil inson uchun uch narsa muhimligini e’tirof etadi. Bular: tavoze’ (izzat-ikrom, ehtirom), kamtarlik, kechirimli bo’lish, bergan hadyasini minnat qilmaslik. Shoirning fikricha, tavoze’ – kamtarlik himmat-u saxovatni ahli davlat ham odat qilsalar nur ustiga a’lo nur bo’lur edi:

Tavoze’ yaxshi, ammo yaxshiroqdur,
Agar da’b etsa ani ahli davlat.
Erur ham avf xo’b-u xo’broq ul
Ki, zohir bo’lg’ay el topqanda qudrat
Ato ham turfa ishdur turfaroq bil,
Agar yo’qtur aning yo’qdur yonida minnat.
Hakim insoni komil debtur ani
Ki, bo’lg’ay zotida bu necha xislat. (4. 523)

Alisher Navoiy qit’alari nafaqat mazmundorligi, balki badiiy mahoratining yuksakligi bilan ham noyob san’at namunalari sanaladi. Shoir ko’pincha qit’aning ilk baytida keltirilgan tanyach g’oyani o’quvchiga yetkazish, uning his-tuyg’ulariga so’zning ilohiy sehri bilan ta’sir etish maqsadida hayotiy tamsil (misol keltirish)lardan g’oyat ustalik bilan

foydalanadi. Buning uchun shoir qit’ada ifodalangan tayanch g’oyaga uyg’un borliqdagi voqea, hodisa, narsa, hayvonot olami kabilardan tashbehlar izlaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Alisher Navoiy hayotga o’ta teran nigoh bilan nazar tashlagani bois mutafakkirona fikrlarga mos borliqdagi favqulotda o’xshashliklarni kashf etadi. Shunday qilib, ana o’sha muqosalar qit’ada o’z ifodasini topib, she’rxon qalbini to’lqinlantiradi. Aytilganlar nuqtayi nazaridan shoirning «Oz-oz demakning manfaatida-vu va ko’p so’zning manzarratida» nomli qit’asi ahamiyatlidir:

Navoiy, tiling asrag’il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.
Nazar qilki, o’q og’zi tilsiz uchun
Qilur tojvarlar bila dast bo’s.
Necha tojvardur kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag’ma tortar xurus (3. 549-550)

Ilk baytda ulug’ shoir dunyo ishlaridan afsuslanmaslik uchun tilingni zinhor asragil,-deya o’z-o’ziga murojaat etadi. Qit’a to’la ma’noda til odobiga bag’ishlangan bo’lib, ilohiy ne’mat til va so’zni qadrlash, behuda gapirishning zarari ko’plab nozik badiiy ishoralarda o’z ifodasini topgan. Alisher Navoiy qit’asining muvaffaqiyatini uning keyingi baytlarida keltirilgan ikki tamsil tashkil qiladi. Dastlab ulug’ shoir she’rxon diqqatini o’qqa qaratadi. Uning uchini og’izga tashbeh qilib, unda til yo’q ekanligi nafis ta’kid qilinadi. Ayni choqda bu sukut saqlash, kam so’zlash tilni ehtiyot tutishni ham anglatadi. Boya ta’kidlangan o’q shu «fazilati» tufayli podshohlar bilan qo’lma-qo’l ko’rishish sharafiga mussar bo’ldi. Keyingi tamsil esa tahlil qilayotganimiz tamsil bilan ma’no jihatidan zidlik hosil qiladi. Unda ta’kidlanishicha, xo’roz qanchalik tojdor bo’lsa ham, bevaqt qichqirgani uchun boshi kesiladi. Ayni baytda tamsilni irsoli masal san’ati misra mag’ziga xalq maqoli mazmunini singdirish bilan quvvatlantirib kelgan. Ko’rinadiki, Alisher Navoiy qit’ada badiiy san’atlar, jumladan, tamsillarni kitobxonga aytish lozim bo’lgan g’oyani yuzaga chiqarishda mohirlik bilan xizmat qildiradi. Ulug’ shoir qit’alarining g’oyaviy mazmun va badiiy mahorat jihatidan mukammalligi mazkur adabiy shaklning o’zbek mumtoz she’riyatining faol janrlaridan biriga aylanishiga zamin hozirladi.

Alisher Navoiy ruboiy janrida ham barakali ijod etgan ulug’ so’z san’atkoridir. «Xazoyin ul-maoniy»ning birinchi devoni «G’aroyib us-sig’ar»da 133 ruboiyga o’rin berilganligi o’shanday xulosaga kelish huquqini beradi. Shuningdek, mazkur devon «Debocha»sida o’ttiz, «Nazm ul-javohir» tarkibida ikki yuz oltmish oltita hamda boshqa ilmiy, badiiy, tarixiy asarlari

bag’rida ko’plab turkiy tilda bitilgan ruboiylar uchraydiki, ayni dalillar ulug’ shoirning bu janrga yuksak muhabbatidan darak beradi. Shoirning «Devoni Foniy» va na boshqa asarlarida keluvchi forsiy ruboiylarining umumiy miqdori esa yuzdan oshaadi. Anglashiladiki, Alisher Navoiy she’ritida ruboiy janri ham o’ziga xos o’rin va mavqega egadir.

Arabcha «to’rtlik» ma’nosini anglatuvchi bu so’z adabiy istiloh sifatida to’rt misradan tarkib topgan, satrlari a-a-b-a yoki a-a-a-a tarzida qofiyalanuvchi hazaj bahrining «axram» va «axrab» shajaralaridan birida (ularning 24 ko’rinishi mavjud) bitiladigan she’riy shaklga nisbatan qo’llaniladi. Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida ruboiyni «dubaytiy» va «tarona» nomlari bilan ham atalishini qayd etadi. Mumtoz manbalarda qayd etilishicha, fors-tojik adabiyotida ruboiyning dastlabki namunalarini Abu Abdulloh Ro’dakiy va Shohidi Balxiylar ijod etishgan. Shubhasizki, ruboiyning adabiy janr maqomida yozma adabiyotda shakllanishida Abu Ali ibn Sino ham salmoqli hissa qo’shdi. Mazkur janrning g’oyaviy-badiiy ravnaqi, falsafiy-irfoniy yo’nalishining teran ildiz otishi esa Umar Xayyomning nomi bilan chambarchas bog’liqdir.

Turkiy adabiyotda mumtoz she’riyat nazariyasi talablariga to’la javob beruvchi ruboiy namunalari Mavlono Lutfiy devonida uchraydi. Bu adabiy shaklning nomlanishida arabcha so’z asos qilib olingan bo’lsa-da, o’zbek mumtoz adabiyoti tarixi, xususan, xalq og’zaki ijodida ruboiyning tanch ma’no-mohiyatiga uyg’un hamda qofilanishi bir xil bo’lgan to’rtliklarni juda ko’plab uchratish mumkin. Jumladan, Mahmud Qoshg’ariyning «Devoni lug’otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Rabg’uziyning «Qisasi Rabg’uziy» asarlaridagi to’rtliklar bunga misol bo’la oladi. Bu to’rtliklarning ruboiylardan jiddiy farqi, faqat ularning vaznidadir. Shunga qaramay, mazkur to’rtliklar o’zbek adabiyoti tarixida mumtoz ruboiy janrining shakllanishi va ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Alisher Navoiy ruboiynavislikda turkiy og’zaki va yozma adabiyot tajribalari hamda fors-tojik adabiyotining bu boradagi boy adabiy an’analarini teran o’rganib, ruboiyning yuzlab mumtoz namunalarini ijod etdi. Shoir qalamiga mansub ruboiylar asar muallifining mavjud an’analar doirasida cheklanib qolmay, masalaga ijodiy yondoshganligidan dalolat beradi. XV asrning ikkinchi yarmiga qadar o’zbek mumtoz adabiyoti tarixida asosan ishqiy mavzuda bitilgan ruboiylarni uchratish mumkin edi. Alisher Navoiy she’riyatida esa bu adabiy shaklda ijod etilgan asarlarning mazmun-mohiyati, mavzular olami ancha kengaydi. Ularda hamd, na’t, falsafiy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy mavzular qalamga olinib. yangi-yangi badiiy obrazlar,

timsol-u tamsillar vositasida yetakchi g’oyalarning o’quvchi shuuriga yuksak san’atkorlik bilan yetkazilishiga erishildi. Ulug’ shoir ruboiylari, ayniqsa, ijodkor tarjimayi holiga oid qaydlar hamda ijtimoiy ohanglarga juda ko’p murojaat etilganligi bilan ahamiyatlidir. She’r qahramoni ijodkorning ruhiy-ma’naviy olami bilan nafas olgani tufayli ularda qalamga olingan zamon va ahli zamonga munosabatdek dolzarb mavzular vositasida adibning hayoti bilan bog’liq ma’lum bir lavhalarga ishora etilganligini ilg’ash mumkin. Biroq bu ishoralarning ulug’ shoir hayotining qaysi fasli bilan aloqadorligini aniqlashjuda mushkul. Bunday holatlarda satrlardagi ba’zi so’zlarga tayanib, ma’lum bir taxminiy xulosani bayon qilish imkoniti vujudga keladi, xolos. Fikrimizni quyidagi ruboiy tahlili jarayonida quvvatlantirishimiz mumkin:

Andin berikim , qoshimda yorim yo’qtur,
Hijronida juz nolayi zorim yo’qtur.
Dasht uzra quyun kebi qarorim yo’qtur,
Sargashtaligimda ixtiyorim yo’qtur. (3. 571)

Ruboiyning ilk misrasidagi «andin berikim» birikmasi she’r qahramonining yillar davomida mahbubasiz umr kechirganiga ishoradir. Ayni choqda matndagi bu ikki so’z ushbu asar shoir umrining «kibar» davri mahsuli bo’lishi mumkin, degan fikrni she’rxon taxayyulida jonlantiradi. Oshiqning ko’pdan beri yori yo’q ekan, tabiiyki, uning ma’shuqa hijronidan o’zga «nolayi zori» ham yo’q. Ishqiy mavzuda bitilgan mazkur ruboiyning dastlabki qo’sh satri undagi asosiy g’oya -muallifning ichki kechinmalari tasviridan iborat ekanligini dalillaydi. Keyingi misra bildirilgan mulohazalar rivoji uchun xizmat qiluvchi hayotiy tamsildan iborat. Unda shoir o’z holati bilan dasht uzra ko’kka dahshat solib, beqaror izg’iyotgan quyun orasida o’xshashlik borligini tasvirlaydi. Quyun maqsad-muddaosiz osmonga o’rlaydi, aniqrog’i, u shamolning hukmiga tobe’dir. So’nggi misrada esa shoirning quyun misol sargashtaligining sababi ixtiyori o’zida emasligining ifodasi bilan yakunlanadi. Demak, shoir bu «ixtiyorsizlik»ni taqdirdan deb biladi. Xuddi shunday qismatdan shikoyat g’oyalari bilan sug’orilgan ruboiylarni Alisher Navoiy she’riyatida na juda ko’plab uchratish mumkin:

Ollimda tabibi chorasozim ham yo’q,
Yonimda rafiqi dilnavozim ham yo’q.
Tegramda anisi jongudozim ham yo’q,
Boshimda shahi bandanavozim ham yo’q. (3. 577)

Mazkur she’rda shoir o’zining tanholigini nafaqat mahbuba bilan bog’liq holda tasvirlaydi, balki u qismatidagi bu holatni ifodalash uchun «tabibi chorasoz» - she’r qahramonini shunday holatdan xalos etuvchi, dardiga davo

topuvchi tabibning, «rafiqi dilnavoz» - kerakli paytda jonini qiynovchi, unga ozor beruvchi yaqin kishining hamda «shohi bandanavoz» boshini silovchi, bechoraparvar shohning mavjud emasligidan shikoyat qiladi. Tabiiyki, aytilgan sifatlar ma’lum ma’noda ma’shuqaning fazilatlariga ham tegishlidir. Biroq asarda ifodalangan shoir holatidagi yakkalikning sabablaridan yana biri mavjud hayotiy voqelikdir. Ko’rinadiki, shoir o’z hasbi holi bilan aloqador fikrlarni zamon va ahli zamon bilan bog’liq tarzda tasvirlaydi. Bu tabiiy hol, chunki she’r qahramoni ham o’sha mavjud ijtimoiy hayot bilan birga nafas oladi, birga o’sha ijtimoiy-maishiy muhitda shaydi. Ruboiyning o’ziga xos ohangdorligi uning tarse’ badiiy san’atiga asoslanganligida namoyon bo’ladi. Asarning har bir misrasi boshidagi ilk so’zlari «ollimda», «yonimda», «tegramda», «boshimda» bo’g’in jihatidan teng bo’lib, o’zaro qofiyadoshlik hosil qilgan. Xuddi shunday holatni muayyan tartib asosida satrlarda joylashgan keyingi so’zlarda ham mavjudligini kuzatish mumkin. e’tibor qilinsa, birinchi misradagi so’zlar miqdori bilan keyingi qatordagi so’zlar miqdori ham o’sha tartibga (bo’g’inlar tengligi va qofidoshlik) qat’iy amal qilgani bois teng bo’lib qolgan. Natijada «ipga marjon tizmoq» ma’nosini anglatuvchi tarse’ badiiy san’ati vujudga kelib, ruboiyning o’ziga xos ohangdorlik kasb etishini ta’min etgan.

Alisher Navoiy she’riyatida muhabbat mavzusida qalamga olingan va ko’proq ma’shuqa ta’rif-tavsifiga bag’ishlangan ruboiylar mavjud. Bunday she’rlar shoirning yuksak san’atkorlik mahorati mahsuli va ayni choqda turkiy badiiy san’atningo noyob namunalari ham sanaladi. Shoirning arab yozuviga asoslangan «jon» (جان) so’zidagi har bir harfning ma’shuqaning turli uzvlariga tashbeh qilishi bilan vujudga kelgan quyidagi ruboiysini shunday asarlar sirasiga kiritish mumkin:

Jonimdagi «jim» ikki dolingg’a fido,
Andin so’ng «alif» toza niholingg’a fido.
«Nun» dag’i anbarin hilolingg’a fido,
Qolgan ikki nuqta ikki xollingg’a fido. (3. 563)

Harf san’ati bilan bezalgan ruboiyni to’g’ri, teran tahlil qilish, uning ma’no moshiyatini mukammal anglash uchun «jon» so’zining arab yozuvidagi har bir harfi tuzilishini puxta bilish, shaklini ko’z odiga keltira olish talab etiladi. Bu so’z arab alifbosida (جان) ko’rinishida ifoda etilib, undagi «jim» (ج), «alif» (ا), va «nun» (ن) harflari ko’rsatilgan shaklda namoyon bo’ladi. Asardagi mazmun «jon»ning muqaddasligini ham nazarda tutishni talab qiladi. Zero, oshiqning ma’shuqaga fido qiluvchi jonidan o’zga mo’tabar biror narsasi yo’q. Shu bois oshiq jonidagi «jim»ni (ج) ma’shuqaning ikki «dol»iga, «alif»ni

(ا) toza niholiga, «nun»ni (ن) anbarin hiloliga, qolgan ikki nuqtani esa («jim» va «nun» harflaridagi nuqtalar nazarda tutiladi) ikki xoliga fido qiladi. Bunga «jon» so'zining arab yozuvidagi har bir harfi ifodasi bilan ma'shuqa uzvlarining shoir tomonidan nozik kuzatishlar asosida kashf qilingan shakliy o'xshashliklar imkon yaratadi. Yana shuni ta'kidlash o'rinliki, shoir istiora badiiy san'atidan ham katta san'atkorlik bilan foydalangan. Chunonchi, she'rxon ijodkor tomonidan bildirilgan ma'shuqaning «ikki doli»deganda, uning «dol» (د) harfiga shaklan o'xshash bo'lgan ikki zulfini, «niholi» deganda, nozik qaddini, «anbarin hiloli» deganda, go'zal qoshlarini taxayyuliga gavdalantiradi. Eng muhimi, oshiqning joni butunicha ma'shuqaga fido etilgani ruboiy mazmuniga singdirilgan. Ayonlashadiki, Alisher Navoiy ham mazmun, ham shakl, ham ohang jihatidan ruboiy janrining mumtoz namunalarini yaratadi. Shuning uchun keyingi davr ijodkorlari, ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ulug' shoir an'analarining davom ettirilganligini kuzatish mumkin.

Turkiy xalqlar adabiyotining eng ajoyib kichik she'riy shakllaridan yana biri bo'lgan tuyuq, she'xonning shakl va talaffuzi jihatidan birlik, mazmun nuqtayi nazaridan esa turlicha bo'lgan so'zlarning ma'no qirralarini to'la anglash ko'nikmasini shakllantirish va ravnaq topishiga xizmat qiluvchi adabiy shakldir. Alisher Navoiyning «Badoye' ul-vasat» devonida uning o'n uchta namunasi kiritilgan. Adib «Mezon ul-avzon» asarida tuyuq haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «Yana turk ulusi, bataxsis chig'atoy xalqi aro shoe' avzondurkim, alar surudlarinda vazn birla yasab, majolisda ayturlar. Birisi tuyug'durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, andoqkim,

Yo rab, ul shahd-u shakar yo labmudur?
Yo magar shahd-u shakar yolabmudur?
Foilotu foilotun foilun
Jonima payvasta novak otqali,
G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur?»
Foilotu foilotun foilun (16.91-92)

Ulug' shoirning tuyuq haqidagi qaydlaridan anglashiladiki, ushbu adabiy shakl turkiy xalqlar adabiyotiga xos bo'lib, u shu xalq vakillari tomonidan qo'shiq qilib bazm, yig'inlarda aytiladigan vaznlarning birida yoziladi. Bu vazn ramali musaddasi maqsur (foilotu foilotun foilun) ekanligi ham qayd etilgan. Shuningdek, tuyuq ikki bayt, ya'ni to'rt misradan tarkib topib, tajnisli qofidan (omonim so'zlarning qofiyalanishi) hosil bo'ladi.

Tuyuqlar ko’pincha a-a-b–a tarzida qofiyalanadi va ishqiy mavzuda yoziladi.

Alisher Navoiy she’riy merosida qit’a, ruboiy janrlarida ijod etilgan badiiy asarlar tuyuqlarga nisbatan miqdor jihatidan ancha ko’pdir. Buning tayanch sabablaridan biri tuyuq ijod etishning faqatgina murakkabligida bo’lmay, balki bu janrda yaratilgan asarlarning turkiy xalqlar orasida keng tarqalganidadir. Ulug’ shoir turkiy tilda mumtoz she’riyatning turli janrlarida badiiy jihatdan mukammal asarlar ijod etishni orzu qilardi. Buning uchun sohir qalami tuhfa qilgan g’azal, ruboiy, qit’a singari janrlarda bitilgan asarlari fors-tojik adabiyotining boy an’analari negizida shu tilda yaratilgan badiiyat namunalari bilan bellasha olish xususiyatiga ega bo’lishi lozim edi. Tuyuqda ijod qilingan she’rlar oldida esa bunday talab qo’yilgani yo’q. Shunday bo’lishiga qaramay, shoirning bu janrda ijod etgan asarlari g’oyaviy-badiiy nazokati nuqtayi nazaridan turkiy tuyuqnavislikning eng sara namunalari maqomida bunyod qilinganligi bilan ahamiyatlidir.

Alisher Navoiyning ma’shuqa go’zalligi vasfiga bag’ishlangan yuqoridagi tuyug’i ham badiiy mahoratining yuksakligi bilan shu adabiy shaklda yaratilgan asarlarning mumtoz namunasi hisoblanadi. Mazkur tuyuq «yo labmudur» so’zining uch ma’nosi, aniqrog’i, shakli bir xil, ammo ma’nosi uch xil bo’lgan uch so’zning oxirida qofiyalanishidan vujudga kelgan. Dastlabki satrlarda ulug’ shoir muxlis e’tiborini ma’shuqaning labiga qaratar ekan, she’r qahramonining o’ta hajonli holatini tasvirlash niyatida «Yo rab», - deya Allohga murojaat etadi. She’r qahramonining cheksiz his-hayajon va ehtirosi she’rxonga tajohuli orifona san’ati yordamida «ul shahd-u shakar yo labmudur» - tarzida gavdalantiriladi. Misradagi mazmun quyidagicha: Yo rab, u asal-u shakarday shirin mo’jizalar ma’shuqaning til uchida omonat turnan labimikin? Bunday tasvir o’quvchining tuyg’ulariga ta’sir etmay qolmaydi, albatta. Shoir tajohuli orif – bilib, bilmaslikka olish badiiy san’atiga tayanib, ma’shuqa dudog’larining ehtirosli tasvirlarini chizishga erishadi. Ikkinchi misra o’sha fikrni nada rivojlantirishga xizmat qiladi. Unda qalbni kuchli tug’yonga keltiruvchi ehtirosli savol: «Yoki sevgilim asal-u shakar yalabdimikin?»- shaklida tadrijiy rivojlantiriladi. Keyingi satrlarda esa ma’shuqa qosh-u ko’zining tajnis-u tajohuli orif hamda istiora san’atlari vositasida go’zal tasviri hosil qilinadi: «Ma’shuqa jonimga qo’shaloq novaklarni otish niyatida kiprik o’qlarini qoshi kamoniga yoylabdimikin?» Ayonlashadiki, ulug’ shoirga mahbubaning kamon shaklidagi ikki qoshi va ularga o’q yanglig’ tutashib turgan uzun kipriklari hamda lablarining payvasta – bog’liqligi o’ziga xos hazil-mutoyiba qilish imkonini yaratgan. «Yo labmudur» qofiyadosh

so’zlarining ma’nolari esa quyidagcha: 1. «Yo labmikin?». 2. «Yalabdimikin?» 3. «Yoylabdimikim?» Tahlil etilgan she’r ma’shuqa go’zal jamolining o’ziga xos qochirim, hazil-mutoyiba hislari uyg’unligida tasvirlashning mahsuli sifatida vujudga kelgan bo’lsa, shoirning «Bormag’in» tajnisli so’zlarining qofiyalanishidan hosil bo’lgan tuyug’ining ijod etilishida oshiq va ma’shuqaning o’zaro munosabatlari, mahbubaning o’jar-u qaysarligi mavzu sifatida tanlangan:

Necha dedim ul sanamg’a bormag’in,
Qilmadi ul tark oxir bormog’in.
Munchalik xudrrylik ko’rgazdi ul,
Aql hayrat qildi, tishlab barmog’in. (5. 519)

Tuyuqning ilk bayti she’r qahramoni va uning sevgilisi orasidagi o’zaro bahslashuv, kelishmovchilikka o’xshash bir mayl tasviri asosida qurilgan. Unda oshiqning maslahat-u fikrlariga qaysarlik bilan munosabatda bo’luvchi ma’shuqa sarkashlik xususiyatlari badiiy tajassumini topgan. Dastlabki misra ishqda sobir, sadoqatli oshiqning o’tinch-u pandlari ifodasidan iborat: «Necha dedim ul sanamg’a bormag’in». She’rxonda haqli bir savol paydo bo’ladi: Ma’shuqa qayerga bormoqchi-yu, rashk olovida yongan oshiq uni o’sha yo’ldan to’xtatmoqchi? Misra tajohuli orif san’ati asosida qurilgan. Go’yo ma’shuqa ag’yorga peshvoz chiqmoqchi, biroq uning bunday niyati, tabiiyki, oshiqqa ma’qul emas va shu bois u yuragini qon qilib, sevgilisini o’sha harakatdan qaytarishga urinib ko’radi. Biroq ma’shuqa uning pandlarini nazarga ilmaydi, oshiqning mahbubasi o’jarligidan shikoyati keyingi misrada oshkora aytiladi: «Qilmadi ul tark oxir bomag’in». Tuyuqning keyingi baytida aql timsolidan juda o’rinli istifoda etilganligiga guvoh bo’lamiz. Seviklining bunchalik o’jarlik qilganini ko’rgan «aql hayratdan barmog’ini tishlaydi.» So’nggi misradagi qofiyadosh so’z «barmog’ini» ma’nosini ifodalab kelgan. Ayni paytda ushbu satrdagi «barmog’ini tishlab» iborasi kuchli hayratlanish ma’nosini anglatadi. Ayni qayroqi iboraning aql bilan yonma-yon tutilishi va aql timsolining jonlantirish badiiy tasviriy vositasini hosil qilishi misralarda go’zal manzaralarning gavdalanishi uchun zamin hozirlagan. Yuqorida zikri o’tgan adabiy san’atlar qatoriga iyhomning qo’shilishi she’r nazokatini shoyon qilish va muallif yuksak mahoratini ko’rsatishga xizmat qilgan. Shunday qilib, ulug’ shoir tuyuq ijod etishda faqatgina tajnisli so’zlarning turli ma’no qirralaridan foydalanibgina qolmay, bunday janrdagi asarlarida nihoyatda topqirlik bilan qo’llangan tamsil-u iboralarning mazmun-mohiyatiga tayanib, mazkur adabiy shaklning mumtoz namunalarini ijod etdi, desa mubolag’a bo’lmaydi.

Alisher Navoiy she’riy merosining yana bir namunasi chiston (lug’z)lardir. Adabiy istiloh sifatida «lug’z» arab adabiyotida, «chiston» esa fors-tojik adabiyotida keng qo’llanilgan. Turkiy adabiyotda esa bu atamalar bir-birining ma’nodoshi bo’lganligi bois nazmiy topishmoq tarzida yozilgan asarlarni nomlashda ikkalasidan ham foydalanilgan.

O’zbek xalq og’zaki ijodida topishmoq janrining ko’plab she’riy va nasriy shaklda ijod etilgan namunalari uchraydi. Ularning aksariyati istiora (metafora)li topishmoqlardir. Bu adabiy janrning vujudga kelishida istiora badiiy san’atining ulushi nihotda kattadir. Istiora ko’chimning bir turi bo’lib, uning talabiga ko’ra badiiy asarda o’xshagan narsa (mushabbih) o’rnida o’xshatilgan narsa (mushabbihun bih) yoki o’xshagan narsaning ba’zi xususiyatlari qo’llanadi. Natijada she’rxonning zehnini imtihon qiluvchi topishmoq, o’zbek mumtoz adabiyotidagi chiston (lug’z) janri ijod etiladi. Alisher Navoiyning «Badoye’ ul-vasat» devonidan o’rin olgan o’nta lug’z ham mana shu usulda yaratilgan bo’lib, ular: qalam, tanga, igna, miqroz (qaychi), o’q, anor, bel, yumurtqa (tuxum), poki, parvona singari to’qqiz narsa-buyum va bir hasharot (parvona)ga bag’ishlangan.

Lug’z va chiston so’zlari she’rning mazmuniga nisbatan qo’llangan adabiy istilohdir. Ulug’ shoir chistonlarining barchasi qit’a shaklida ijod etilganligi fikrimizni quvvatlantiradi. Alisher Navoiyning lug’z ijod etishdagi mahorati hamda ushbu janrning o’ziga xos xususiyatlari bilan t’anishish maqsadida shoirning «miqroz» («qaychi») nomi yashiringan chistonini tahlil jarayoniga tortamiz:

Ne qushlar erkin alarkim, birardurur qanoti,
Qanotining uchida har birisiga minqor.
Biror ayog’lari ham bor-u turfaroq bukim,
Ayog’ uchida biror ko’z ham ettilar izhor.
Qachon ayog’larin almashtururlar, ul soat
Qanot urarg’a bo’lurlar tuyurdek tayyor.
Qanot ko’p urmoq ila qari ucharlari yo’q,
Ucharda garchi qaridur alarg’a istizhor. (5. 510)

Yuqoridagi she’rning birinchi baytida chiston bag’rida «yashiringan» ashyo qushga o’xshatiladi. Keyin esa uning shakli turli o’xshatilmishlari qiyosida tasvirlanadi. Matn bilan to’liq tanishgan o’quvchi baytlardagi bir-birini to’ldirib boruvchi o’xshatilganlarning nomi satrlarda sir saqlangan narsa bilan o’xshash jihatlarini xayolida gavdalantira boradi. Jumladan, bu qushlarning qanoti «birardurur» so’zi bilan izohlanishi qaychining matoning kesadigan qismlari bir-biri bilan jipslashib qolganiga ishoradir. Aslida ularning

ikkita ekanligi «Qanotin uchida har birisiga minqor» misrasida ifoda etilgan. Minqor – tumshuq bo'lib, qaychining uchlari shakliy o'xshashlik asosida qushning tumshug'iga qiyoslanadi. Qizig'i shundaki, bu qushning har bir qanotida bittadan tumshug'i bor. Shunday qilib, o'xshatilmishlar vositasida qaychining o'quvchi tasavvur qilishi mumkin bo'lgan bir qismi to'la tasvirlanadi.

Qaychining ikkinchi qismini lug'zda ifoda etish uchun o'xshatilgan qushning oyoqlari hamda ko'z timsollaridan foydalaniladi. Chistonda nomi yashiringan qush, ya'ni qaychining oyoqlari ham o'zgacha, ularning turfaligi shundaki, qushning oyoqlari uchida uning bittadan ko'zlari ham borligi zuhur etib turadi. Ayonlashadiki, qushning oyoqlari qaychining kishi tomonidan tutiladigan qismini, ko'zlari esa barmoqlar o'tkaziladigan teshiklarni anglatadi. Bu bilan shoir istiora badiiy san'ati asosida qaychining suratini to'la chizishga muvaffaq bo'ladi. Endigi navbat uning xususiyatlari bayoniga etadi. Lug'zning uchinchi va to'rtinchi baytlari ana shu xususiyatlar bayoniga bag'ishlangan. Ularda tasvirlanishicha, bu qush qachon oyoqlarini almashtirsa, xuddi qanot qoqib uchishga tayyorlanganday tuyuladi. Qushning parvoz qilishiga garchi «qari» (qo'l uchlari)unga homiylik qilsa ham, u har qancha qanot qoqmasin, baribir, «bir qari» (qo'l uchidan tirsakkacha bo'lgan masofa) ham ucholmaydi. Bu bilan shoir qaychi qismlarining ochib-yopilishi qo'llar ishtirokida amalga oshirilishiga ishora qiladi. Natijada lug'z bag'rida yashiringan narsaning nomi miqroz (qaychi) ekanligi zehni o'tkir o'quvchiga ayonlashib qoladi. Alisher Navoiy sohir qalami mahsuli bo'lgan boshqa lug'zlari ham she'rxonni mantiqiy fikrlashga undashi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

8.4. Alisher Navoiy - qasidanavis.

Alisher Navoiy qasida janrida ham ijod etgan ulug' shoirdir. Bu buyuk so'z san'atkorining «Badoye' ul-vasat» devonidan o'rin olgan, turkiyda bitilgan mashhur «Hiloliya» qasidasidan tashqari, fors-tojik tilida ijod qilingan «Sittayi zaruriya» («Olti zarurat»), «Fusuli arbaa» («To'rt fasl») nomli qasidalar turkumi ham mavjud. Nomlari qayd etilgan ikki turkum quyidagi o'n qasidadan tarkib topgan. Shulardan mana bu olti qasida «Sittayi zaruriya»ga tegishlidir: «Ruh ul-quds» («Pok ruh», 132 bayt), «Ayn ul-hayot» («Hayot chashmasi», 106 bayt), «Tufhat ul-afkor» («Fikrlar tufhasi», 99 bayt), «Qut ul-qulub» («Qalb ozuqasi», 120 bayt), «Minhoj ul-najot» («Qutilish yo'li», 138 bayt), «Nasim ul-xuld» («Jannat shabbodasi», 129 bayt) . Quyidagi qasidalar esa «Fusuli arbaa» tarkibidan o'rin olgan: «Saraton» («Yoz» 71 bayt), «Xazon»

(«Kuz», 33 bayt), «Bahor» («Bahor», 57 bayt), «Day» («Qish» 70 bayt). Bu ikki turkum qasidalarni taniqli olim Hamid Sulaymon birinchi bo'lib arab va joriy yozuvda nashrga tayyorladi (Qarang: Alisher Navoiy. Sittayi zaruriya. «Adabiy meros». Hujjat va tadqiqotlar. Toshkent: «Fan», 1968, 1-son, 194-282- betlar; Alisher Navoiy. Fusuli arbaa. Navoiyga armug'on. (Nizomiy nomidagi Davlat pedagogika instituti ilmiy to'plami). Toshkent, 1968). Shuningdek, «Fusuli arbaa» turkumi va «Ruh ul-quds» qasidasi keng o'quvchilar ommasiga alohida majmualar shaklida taqdim etildi (Qarang: Alisher Navoiy, Fusuli arbaa. (Qasida. Matn va o'zbek tilidagi nasriy bayon). So'z boshi, nasriy bayon va lug'atlar bilan nashrga tayyorlovchi R. Vohidov, G. Boltayeva. Buxoro, 1998; Alisher Navoiy. Ruh ul-quds. (Qasida. Matn va o'zbek tilidagi nasriy bayon). So'z boshi nasriy bayon va lug'atlar bilan nashrga tayyorlovchi R. Vohidov, N. Bekova. Toshkent: «O'zbekiston»,2002.)

Ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiyning 1469-yil 14-aprel (hijriy 873-1-shavvol) ramozon hayiti kuni turkiyda ijod etilib, ulug' hukmdor Sulton Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan o'tkazilgan tahniyat (shohni muborakbod etish) marosimida ilk bor tantana ishtirokchilariga taqdim etilgan mashhur «Hiloliya» qasidasi shoirning nihoyatda teran badiiy tafakkuri va taxayyulining mahsulidir. Qasida 91 baytdan tarkib topgan, uning matla' va maqtasida yangi oy - hilolga ishora qilinadi. Jumladan, asarning ilk bayti o'quvchining diqqatini samoga, aniqrog'i, hilolga qaratish niyatida bitilganligini ilg'ash mumkin:

Chun nihon qildi turunji mehr raxshon tal'atin,
Oshkor etti falak bir taqvi g'abg'ab hay'atin. (5. 477)

Ulug' shoir qasidasining matlasidanoq tantanavor kayfiyatni aks ettirish niyatida samoviy jismlarning timsollarini shaxslantiradi hamda istiora san'atiga tayanib, hilolni yangi nom bilan ataydi. Misralarda ifodalangan ma'no falakda juda kamdan-kam kuzatiladigan ulug'vor bir holat vujudga kelganidan darak beradi. Quyosh olmasi (quyosh olmaga qiyoslanadi) o'zining porloq yuzini yashirishi bilan falak baqbaqaga o'xshash jismini namoyon qiladi. Bundagi baqbaqaga monand holat hilolning samoda yog'du sochib turgan paytda uning doirasida sodir bo'lgan manzaraga qiyoslanadi. Asarning maqtasida hilol va islomiy hayit bayrami Sulton Husayn Boyqaroning tahniyat kuniga to'g'ri kelgani bois ularning nada muqaddaslashganiniga diqqat qaratiladi:

Yangi oy-u iydki qullug'hing o'lsun, aylagan
Sen hilol oning otin, bayram bu yerning kunyatin. (5. 483)

Bayt bag'riga singdirilgan ma'no quyidagicha: «Yangi oy va hayit sening itoatgo'ying, sanogo'ying (maddohing) bo'lishsin, chunki sen uning otini hilol,

ikkinchisining nomini bu yerning bayrami qilding». Yangi oyning hilol nomini olishi va yangi davrning (Sulton Husayn Boyqaro hukmronligining), hayitning bayram deb atalishi esa poyindor xursandchilikning boshlanishidan darak beradi. Ulug' shoir orzusiga ko'ra, zamon hukmdori taxtga chiqqach, yurtga mana shunday shodiyonalarni, albatta, baxsh etadi. Qasidaning «Hiloliya» tarzida nomlanishining zamirida ham ana o'shanday osoyishtalik va farovonlikning debochasiga ishora mavjud.

«Hiloliya» qasidasi mazmun-mohiyati va badiiyatining mukammallashuvini uning voqeiy asar ekanligi ham ta'min etgan. Qasidadagi voqealar to'rt asosiy obraz atrofida aylanadi: shoir, Atorud (Merkuriy sayyorasi, mifologiyaga ko'ra, ayni yulduz shoir va yozuvchilar homiysi sanaladi), ulug' shoirning sevgilisi va shahanshoh Husayn Boyqarolar shular jumlasidandir. «Hiloliya»ning yetakchi qahramoni ulug' shoirning o'zidir. Asar muallifi iydi akbar – ramazon hayiti tunida to'qqiz falak: Oy, Atorud, Zuhra (Nohid, Venera), Quyosh, Mirrix (Mars), Mushtariy (Yupiter), Zuhal (Saturn), falaki saobit (turg'un yulduzlar, ya'ni samoning burjlar joylashgan o'rni), falak ul-aflokni (Arsh va Kursining falakdagi o'rni) sayr qiladi. Ulug' shoir samoviy jismlar timsollarining mifologiyaga ko'ra anglatgan ma'nolarini ulkan taxtga endi o'tirayotgan hukmdor tahniyatiga xizmat qildiradi. Jumladan, ijodkorlar homiysi bo'lgan Atorud - qasidago'y shoir, nafosat va go'zallik ramzi bo'lgan Zuhra – sozanda, mutrib; Quyosh – sham' (tunda Quyoshning bo'lmasligi nazarda tutilib, u podshoh haramining eng xilvatini ham sham' bo'lib yoritish maqsadida pastga tushgan), jang-u jadal timsoli bo'lgan Mirrix – yasavul, falak qozisi Mushtariy – maddoh v duogo'y, falaki savobit – shohning bayram dasturxoni, falak ul-aflok esa – shoh raqqoslari o'ynayotgan singari qiyoslardan anglashilgan mazmun asosida baytlar bag'riga singdiriladi. Ulug' shoirning tungi sayri davomida Atorudga qarshilashish manzarasining olib kirilishi qasidaga yangi ruh baxsh etib, uni yangi ma'nolar bilan boyishiga xizmat qilgan. Atorud Shoh madhi va tahniyati shodiyonalariga bag'ishlab quyidagi matlani o'qiydi:

«Ey, sening qoshing qilib zohir yangi oy xijlatin
V-ey, yuzung sharmanda aylab iydi akbar tal'atin» (5. 479)

Atoruddan bu baytni «eshitgan» ulug' shoirning rashki tug'yon qila boshlaydi va o'z tab'ining nimalarga qodirligini ayon qilish niyatida shoh madhiga bag'ishlangan quyidagi javob baytini o'qiydi:

«K-ey, qoshingning rashki aylab xam yangi oy qomatin,
Iydi ruxsoring qilib nobud bayram ziynatin». (5. 480)

Bu rangin misralarni «eshitgan» Atorud xijolat chekib lol qoladi. Ulug' shoir bu ulkan ijodiy g'alabadan zavqlanib, uyga qaytganida, sevgilisi ko'kda bayram hilolini ko'rib, xursandchilik qilish uchun kelgan va oshig'ini kutib turgan ekan. Ulug' shoir faxriyadan foydalanib o'zi va Atorud bitgan zavqli misralarni iftixor tuyib sevgilisiga o'qib beradi. Go'zal mahvash esa shoirdan eshitgan baytlari evaziga shirin tabassum had qilib qo'yadi va ijodiy musobaqadan chetda qolishni istamagan ma'shuqa oldidagi qalamni olib, bir soat muhlat o'tmay, ulug' shoirni hayrat – hayajonga soluvchi quyidagi misralarni yaratishga muyassar bo'ladi:

«K-ey, yuzung zohir qilib bayram sabohi safvatin,
Anda qoshing aylabon paydo yangi oy hay'atin». (5. 480)

Bunday najib lavhalardan ulug' shoir «behol-u masru'» bir holatda shoh saroyiga keladi va shu ma'noda boshqa bayt yozish mumkin emasligini da'vo qilib, Atorud, o'zi va mahbubasi bitgan baytlarni o'qiydi. Shoh kulib, o'zining nozik tab'i mahsuli bo'lgan quyidagi badihaona yangi baytini majlis ahliga yetkazadi:

Shoh Abulg'ozi saodat axtari Sulton Husayn,
Kim, quyoshni zarra der ko'rgan sipehri hashmatin. (5. 481)

Yuqorida keltirilgan ayrim lavhalardan ko'rinadiki, Samarqandda shayotgan ulug' shoir Xuroson davlati atrofida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'ta sinchkovlik bilan kuzatarkan, maktabdosh do'stining ulug' g'alabasiga katta ishonch bilan qaragan. Ayni kurashlarning intihosi tahniyat marosimiga olib kelishi muqarrarligi avliyosifat shoirga tobora ayonlashib qolgan. «Sayqali ro'yi zamin» Samarqandda «Hiloliya»day go'zal asarni bunyodga keltirish uchun puxta hozirlik ko'rgan. Nihoyat, 1469-yil navro'zi arafasida Amir Shayxim Suhayliyning «Iydiya» va Alisher Navoiyning «Hiloliya» qasidalari yaratiladi. «Iydiya» forsiyda, «Hiloliya» turkiyda ibratli ijodiy hamkorlikning dilbar namunasi sifatida ro'shnolik ko'rdi. Ta'kidlash joiz, garchi «Hiloliya» ulug' shoirning yagona turkiy qasidasi, biroq unda qo'llangan mutlaqo yangi uslubiy jilo, teran falsafiy mazmun, notakror san'atkorlik tufayli shunday yuksak mahorat pag'onasiga ko'tarilganki, ayni she'riy janrda bunyod qilingan o'nlab she'rlar bilan bemalol raqobat qila olish qudratiga egadir.

Qasidada Sulton Husayn Boyqaro tarixiy shaxslikdan badiiy asar qahramoni darajasiga ko'tarilib, juda zo'r ehtiros bilan madh qilinadi. Shoh saodat yulduzi yanglig' porloqdir. Uning ulug'vorligi nazdida quyosh bir zarra bo'lib ko'rinadi. Shu tariqa ulug' shoir hukmdorni samoviy jismlar timsollaridan foydalangan holda uning o'ta mubolag'aviy badiiy tasvirini

chizishga erishadi. Alisher Navoiy «Hiloliya»da o’zi orzu qilgan shoh timsolini Husayn Boyqaro qiyofasida ko’rsatishga harakat qiladi. Shoir nazarida mazkur hukmdor shohlar darveshi-yu darveshlar shohidir. U suratini shoh, siyratini darvesh maqomida tutganligi uchun ham yuksak ehtiromga loyiq zotdir. Shunday tantanavorlik, ko’tarinki kayfitni o’zida aks ettirgan misralar va yuqorida ko’chirilgan maqta’ noyob badiiy mahorat namunasi bo’lgan qasidaga yakun yasaydi.

Alisher Navoiyning ikki turkum qasidalari ham ana shunday ehtirosli baytlardan tarkib topgan. «Sittayi zaruriya»dagi badiiyat namunalari falsafiy, ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta’limiy mohit kasb etib, ular Anvariy, Xusrav Dehlaviy, Xoqoniy Shervoniy, Abdurahmon Jomiy va Sharqning boshqa buyuk shoirlarining qasidalariga tatabbu’ sifatida yaratilgandir.

«Sittayi zaruriya» tarkibidagi uchinchi qasida «Tuhfat ul-afkor» bo’lib, Amir Xusrav Dehlaviyning «Daryoyi abror», Nuriddin Abdurahmon Jomiyning «Lujjat ul-asror» asarlari ta’sirida dunyoga kelgan. Alisher Navoiy «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida mazkur qasidaning yaratilishi tarixiga doir qiziqarli lavhalar keltiradi. Xuroson davlatining vaziri a’zami lavozimida faoliyat ko’rsatayotgan ulug’ shoir Marvga qilishi lozim bo’lgan rasmiy safari oldidan (1476-yilda) Maxdumi Nuran ziyoratiga kiradi. Suhbat jarayonida Abdurahmon Jomiy «Lujjat ul-asror» qasidasini Alisher Navoiyga beradi. Ulug’ o’zbek shoirining o’z taklifi bilan Amir Xusrav Dehlaviy «Daryoyi abror»iga javobiya tarzida yozilgan bu qasida unga (Alisher Navoiyga) favqulotda ta’sir etadi va shu tabarruk dargohda ushbu she’rga tatabbu’ qilish niyati tug’iladi. Nihoyat, Hirot – Marv safari davomida, ot ustida to’qson to’qqiz baytdan iborat shoh qasida «Tuhfat ul-afkor» dunyoga keladi. Asar chindan ham jo’shqin ilhom, ulkan ehtiros va zavqning mahsulidir. Mulohazalarimiz muallaq qolmasin uchun o’sha dilbar qasidaning shoh baytlaridan birini nazardan o’tkazaylik:

Bo dahoni xushki chashmi-tar qanoat kun az on-k,
Har ki qone’ shud ba xushki tar, shahi bahr-u bar ast. (20. 230)

Mazkur misralar mamlakat podshohiga murojaat yo’sinida yozilgan. Podshohi qanoat va qone’likni turmush tarziga aylantirgan yurt gul-gul yashnaydi. Ammo hayot hamisha ham gul tutmaydi. Gulni suyuvchi qalb uning tikani zahriga dosh bermog’i zarur. Shohlik faqat ishrat emas, saltanat o’z-o’zicha turmaydi va shukuh paydo qilmaydi. Uning zarbalari, qon yuttirishlari, iztirob-u tashvishlari (og’iz - quruq, ko’zlar - yoshli) borki, sabr-u qanoat ila o’shalarga bardosh bergan fahm-u farosat bilan bartaraf eta olgan shohgina Alloh inoyatiga muyassar va katta sarhaddagi (bahr – dengiz, bar – samara,

tuproq usti - quruqlik) mamlakatning sohibidir. Qone’ va qanoatlilik faqat podshohninggina emas, barchaning (shoh-u gadoning) ham kunlik fazilatiga aylangan yurt nurafshondir...

«Sittayi zaruriya» bag’rida kelgan to’rtinchi asar «Qut ul-qulub» qasidasi bo’lib, shu haqda ozroq mulohaza yuritish bilan cheklanamiz. 240 misradan iborat manzuma Hakim Anvariyning shu yo’nalishdagi falsafiy-irfoniy qasidasi tavrida-tatabbu’yida yaratilgan. Tavr-tatabbu’ Alisher Navoiyning o’z e’tirofidir. Biroq bunday qaydlar ulug’ o’zbek shoiri qalamidan kelib chiqqan asarlarning ijodiyligiga, ohoriga qilcha bo’lsin, ta’sir ko’rsata olmaydi. «Qut ul-qulub» tagdor ishoralarga, ko’p ma’noli majoz-u tashbehlarga, teran tafakkurga undovchi ibora-yu istilohlarga boyligi bilan diqqatni jalb qiladi.

Ana o’shanday badiiyat zamirida yashirin g’oyaviy niyatni «fano va baqo o’rtasidagi masofa, oliy xilqat – insonning unga munosabati» tarzida umumlashtirish mumkin. Dunyoga kelish, tug’ilish haq, tabiiy-ilohiy qonuniyat ekan, unga vido aytish, fano qa’riga singib, yo’q bo’lib ketish, o’lish ham muqarrardir. Baqo – mangulik inson peshonasiga bitilmagan. Qur’oni karimdagi xabarga qaraganda, Luqmoni hakim ming yil, Nuh alayhis-salom ham shunga yaqin umr ko’rishgan. Biroq ularga ham dunyoning ustuni bo’lib yashash nasib etmagan. Rivoyat qiladilar, zulmat tubida pinhon obi hayot – tiriklik suvini Iskandari Maqduni va Xizr alayhis-salom birga izlashgan. Iskandar qolib, Xizr payg’ambarga o’sha majoziy obi hayot nasib bo’lgani uchun ham ul zoti bobarakot ezgulik tug’i ostida yaxshilik urug’ini sochishda davom etayotgan ekanlar... Alisher Navoiy bunday hikmat-u rivoyat, hikoyat-u haqiqatlardan ko’pini bilgan. O’shalardan qaysigadir ixlos bilan qaragan, ishongan, ba’zilarini shubha ostiga olib inkor qilgan. Shundan bo’lsa kerak, qasidaning butun matnini bosiq, sokin va o’ychan kayfiyat egallab olgan. Uning har bir so’zidan falsafiy mushohada, ogohlikka da’vat ruhi anqiydi. Ulug’ shoir insonga qarata urg’u ila yozadi:

Jahonki marhalayi tangi shohrohi fanost,
Dar o’ majo’y iqomat, ki rohi shoh-u gadost. (20.257)

Ushbu misralarni quyidagicha o’zbekchalashtirish mumkin: Dunyo ayvoni inson uchun muqim manzil emas – o’tkinchi. U fanoga olib boruvchi shoh ko’chadagi muvaqqat bekatni eslatadi. Bekat esa hamisha omonatdir. Unda uzoq turish niyatida bo’lganlar qattiq yanglishadilar. Negaki, shoh yo’l chetidagi bekat tafovutni bilmaydi. U shohni ham, gadoni ham birday qabul qilib, kuzatishga mo’ljallangandir. Dunyo ayvoni – harakatdagi karvon. Bo’ynida qo’ng’irog’i bor nor tuyalar hamisha safarda. Daftari a’molidagi sehrli bitikka ko’ra, navbat-banavbat fanodan baqo olamiga ketish davom

etadi... Alisher Navoiyning bunday qarashlaridan noto’g’ri xulosaga kelish yaramaydi, albatta. Qasida muallifi mo’min-musulmonlarni uzlatga, go’shanishinlikka da’vat etayotgani, o’lishdan burun o’limga ham undayotgani yo’q. Ul zoti mukarram ikki jihatdan bunday g’oyani ilgari surolmas edi. Birinchidan, Alloh marhamati bilan Odam Ato zurriyotlari uchun taqdir qilingan ne’matlardan butkul yuz o’girib, go’shaga kirish islomiy e’tiqod ahkomlariga rost kelmaydiki, ulug’ shoirning unga xayrixohlik qilishi mumkin emas edi. Ikkinchidan, Alisher Navoiy naqshbandiya tariqatiga mansub bo’la turib, «Dil ba yor-u tan ba bozor», «Dil ba yor-u dast ba kor» kabi solikning o’z luqmayi halolini tanti qo’l mehnati bilan topishga chorlovchi hayotsevarlik g’oyalarini ninkor qilolmasdi, albatta. «Qut ul-qulub» keyingi satrlarining mutolaasi muallifning tayanch g’oyaviy niyatini oydinlashtiri olish imkoniyatini hozirlaydi. Buning uchun bayt-u satrlarda qo’llangan tazod san’ati kitobxon uchun ko’makka keladi. O’sha badiiy-tasviriy vosita yordamida fano va baqoning qirralari juda ko’p hayotiy lavhalar, tabiiy, tarixiy, ilohiy, adabiy, afsonaviy istiloh-u dalillarni keltirish, yuzlantirish orqali ochib beriladi.

Nahang agarchi buvad qahramoni kishvari bahr,
Ba kirmi obie az xud fuzun hamesha g’izost. (20. 259)

Nahang (akula) dengiz-u okeanning eng katta hayvoni va o’zi o’sha makonning egasi, yagona sohibi hisoblaydi. Atrofida o’rmalab yuruvchi ko’p sonli suv qurtchalarini nazar-pisand ham qilmaydi. Ammo vaqt-u soati kelib, u ana shu qurtchalarning yemiga aylanishini xayoliga ham keltirmaydi. Tashbeh uchun nahangning tanlanishi tasodifiy emas. Shunday urinish negizida katta hikmat, ibrat bor. Xuddi shunday gapni suv qurtiga nisbatan ham aytish o’rinlidir. Fano olamida hamma narsaning sarhad-u o’lchovi bor. Bu hukm jismoniy, ruhiy, ma’naviy, moddiy ne’matlarning barcha-barchasi uchun birday tegishlidir. Pahlavonlikning ojizlik, yoshlikning qarilik, zebolikning xunuklik, boylikning qashshoqlik bilan almashinishi muqarrardir. Nahangning fojeali qismati bunga yorqin misol. Afsuski, bugun hamma narsani g’alamislik bilan bilan yurutuvchi bu maxluq ertaga yutilish navbati o’ziga yetishini unutib qo’yadi... Keyingi baytda ganj va ajdaho timsollariga duch kelamiz. Og’zaki va yozma badiiy adabiyot namunalarida bular hamisha yonma-yon keladi. Xazina bor joyda, albatta, ajdaho paydo bo’ladi. Bu maxluq xazinadagi javohirotni yutmaydi, ammo bahra oladi. Biroq tirik ekan, uni birovga ravo ko’rmaydi... Ulug’ shoir esa unga doir hukmini e’lon qiladi: hirs ham fano. Xazina siljiydi, ajdaholar esa kelib-ketishda davom etadi. Muddao dahshatli maxluqlar qismatini yoritish emas. Ulug’ shoirning nigoh-u nidosi esa insonga, uni nafs-u hirs domidan qutqazish, g’aflat uyqusidan bedor qilishga qaratilgandir.

Suxan mago’ zi anqo, ki har ki qone’ shud,
Farovi Qofi qanoat bidon ki anqost. (20.259)

Qo’hi Qof, unga anqo urug’ining bo’lishi haqidagi afsona qadimiy. Ulug’ shoir esa o’sha sayyor va an’anaviy afsonaga yangi niyat bilan murojaat qilgan. O’zi yo’q anqoni izlashdan murod hosil bo’lmaydi. Undan qanoatga zo’r berish ma’qul. Nahang-u ajdahoning fojiasidan xulosa qilmoq va hirs o’pqoniga tushmaslikka intilmoq insonni Qo’hi Qofdan ham yuksakroqqa ko’tarib qo’yadi. Ustma-ust tabiiy misollarga murojaat etish, fojeiy qismatlarni ro’kach qilishdan ulug’ shoirning ko’zlagan muayyan maqsadlari ham yo’q emas. Insonning yashashi uchun moddiy omillar juda zarur. Uni inkor qilish hayotni tan olmaslik bilan barobardir. Biroq ma’naviy-ma’rifiy omillarsiz ham inson hayoti qashshoqlashib qolmaydimi? Fikrimizcha, Alisher Navoiyning qalbi va tafakkuridan-da shunday savollar tez-tez o’tib turganligi tufayli o’sha bezovtalik ruhi uning barcha nazmi-yu nasriy asarlariga ko’chgan. Shu jihatdan «Sittayi zaruriya»ning xotimaviy qasidasi «Nasim ul-qayd»dagi mana bu misralar e’tiborni tortadi:

Chunin gulshan naboshad g’ayri bog’i ma’rifat, ey dil,
Ki kard orosta az bahri komil sun’i yazdonash.
Chi komil on ki az ta’limhoyi in muallim yoft,
Sharaf vayronayi zaxoir ganji pinhonash. (20. 300)

Dil yayraydigan, zavq-u shavqqa to’ladigan notakror gulshan – bog’ - ma’rifat bog’idir. Unda hamma uchun birday yo’l yo’q. Yazdon bu bog’ni komil insonlar go’shasi sifatida zebo oro berib qo’ygan. Alisher Navoiy talqinicha, haqiqiy komillik, donishmandlik ilohiy ma’rifat orqaligina shakllanishi mumkin. Shu g’oya ulug’ shoirning (katta-yu kichik, nasri-yu nazmiy, ilohi-yu dunyoviy) barcha asarlarida ko’rinib qoladi. «Sittayi zaruriya»da hukmron mavzu darajasiga ko’tariladi. Islom ruknlari, shar’iy talablar go’zal badiiy libosda yuksak shoirona ifodasini topadi. Bunday notakror saboqlarning muallifi ham notakrordir. U – Alloh. Qasidalar turkumida, ko’chmrganimiz iqtibosda ham komil insonning zohiriy va botiniy olami muvozanatiga alohida e’tibor beriladi. Zohir – dabdabadan xoli, ammo axloqiy qiyofa – sharafli. Yuzadagi sokinlik – botindagi ma’rifiy zahira tufayli. Zero, u – pinhon. Komillik – sokinlik, har damda xush bilan qadamni nazarda tutmoqlikdir. Shunday saodatga muyassar fuqarolari bor yurtning istiqbolida buyuklik nuri porlaydi...

8.5. «Devoni Foniy»ning tuzilishi, janriy tarkibi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari

Adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiyning tabarruk nomi zullisonayn ijodkor sifatida ham qadrlidir. Shoir bu sharafli unvonga boy ma’naviy merosi tufayli sazovor bo’ldi. U fors-tojik tilini puxta bilibgina qolmay, qadimiy an’analarga boy bu tilning imkoniyatlaridan ham durustgina xabardor edi. Buni ulug’ adibning «Muhokamat ul-lug’atayn» asari to’la tasdiq etadi. Asar forsiy va turkiy tillar bilimdonining shu ikki lisonning ichki imkoniyatlarini o’zaro qiyoslash asosida bildirgan umumlashma-xulosalari zaminida vujudga keldi. Shuningdek, Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi asarlari «Devoni Foniy» nomi bilan mukammal bir to’plam tusini oldi. Devonning mundarijasi xususida muallifning o’zi «Muhokamat ul-lug’atayn» asarida shunday mulohaza yuritadi: «Yana forsiy g’azadiyot devoni Xoja Hofiz tavridakim, jami’ suxan adolar va nazm piyrolar nazarida mustahsan va matbu’dur, tartib beribmankim, ko’prak ul hazrat she’riga tatabbu’ voqe’ bo’lubtur.» (Alisher Navoiy. Asarlar. 14-tom, 125-bet) Ko’chirganimiz parchadan «Devoni Foniy»ning ikki muhim xususiyati ayon bo’layotir. Bulardan birinchisi, shu to’plam tarkibidagi asarlarning aksariyati Xoja Hofiz Sheroziy g’azaliyotiga tatabbu’ qilinganligi hisoblanadi. Ikkinchisi, to’plamga kiritilgan she’rlar miqdorining (misralar sonining) olti ming baytdan ziyodroq ekanligidir.

Alisher Navoiy o’zining bu devoniga daxldor qaydlarini davom ettirar ekan, yozadi: «Va ba’zi hazrati Shayx Muslihiddin Sa’diyg’akim g’azal tavri muxtariyidur. Va ba’zi bir Xusravg’akim, ishq otashkadasining shu’la angizidur va dard g’aribxonasining ashkrezi. Va ba’zi hazrati Maxdumi Nurang’akim, kamol avjining mehri lomiyidur va mazkur bo’lg’on azizlar holatining jamiiki, bu devon xaloyiq orasida shoe’dur va ro’zg’or ahlining tab’lari ul sari roje’ va anda ko’p turluk dilkash adolar va dilpazir ma’nolar voqe’durki, tafsili bu faqirdin munosib emas.» (O’sha asar. 125-bet) Alisher Navoiy musulmon mintaqa she’riyati shuhratini Sharq-u G’arbda tanitgan yetuk ijodkorlar haqida gapirar ekan, u birigina jumlada ular nazmining o’ziga xos xususiyatini ta’kidlashga erishadi. Shuningdek, shoir «Devoni Foniy» tarkibidagi nazmiy janrlarni ham ma’lum qiladi. Shoir qaydlariga ko’ra, bu to’plam tarkibida g’azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, ta’rix, lug’z, qasida, musaddas kabi janrlarda bunyod etilgan she’rlar jamlangan. Shu bilan bir qatorda, ko’pchiligi Abdurahmon Jomiy e’tiboridan o’tkazilgan besh yuzga yaqin muammolar ham «Devoni Foniy» tarkibidan o’rin olgandir.

«Devoni Foniy»ning ikkita Parij, ikkita Turkiya, ikkita Hirot va bitta Tehron kutubxonalarida saqlanayotgan nusxalari mavjud. Adabiyotshunos Hamid Sulaymon o’z tadqiqotlarida sanab o’tilgan qo’lyozmalar o’rtasida

«Devoni Foniy»ning Parij nusxalari birmuncha mukammal ekanligini e’tirof etadi. Akademik B.Valixo’jayev ana shu nusxalar asosidagi «Devoni Foniy» tarkibidagi she’rlarning quyidagicha janriy tarkibga ega ekanligini ma’lum qiladi:

«1. Debocha; 2. Qasida – 10 ta; 3. G’azal- 554 ta; 4. Musaddas – 1ta; 5. Marsiya – 1 ta; 6. Qit’a – 72 ta; 7. Ruboiy – 73ta; 8. Ta’rix – 16 ta; 9. Muammo – 373 ta; 10. Lug’z – 9 ta. Demak, devonda jami 1109 ta asar bo’lib, 6179 baytni tashkil etadi.» (Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, 122 –bet.) Olim devonning mukammal nusxasi hali aniqlanmaganligini asosli dalillar vositasida izohlaydi: «Bu o’rinda Alisher Navoiyning forsiy tildagi muammolar soni haqida «besh yuzga yaqin muammo» (MAT. 20-tomlik, 16-tom, 32-bet) degani e’tiborga olinib, bu Parij nusxalaridagi muammolar soni (373 ta) bilan solishtirilsa, unda Parij nusxalari ham «Devoni Foniy»ning mukammal nusxalari bo’la olmasligini ko’rsatadi. Bu fikrni Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug’atayn»da forsiy she’rlari janrlari qatorida masnaviyni eslatishi va bu janrdagi asarning Parij nusxalarida uchramasligi yana bir karra tasdiqlaydi. Demak, «Devoni Foniy»ning mukammal nusxasini aniqlash hali davom etmoqda.» (O’sha asar. 122-bet.)

«Devoni Foniy»ning mazmun va mundarijasini belgilashda «Ixtirolar» va «O’ziga javob aytadi», «Na’t», «Zamon ahli tanqidiga doir», «Zamonaning bevafoligi xususida nasihatlar», «O’sha tavrda», «Oldingi uslubda», «Ma’viza», «Ba’zi azizlarga tatabbu’», «Maxdum she’riga javob», «Amir Xusrav Dehlaviy g’azaliga tatabbu’», «Maxdumning Xoja tavridagi g’azaliga tatabbu’» singari sarlavhalar muhim ahamiyat kasb etadi. «Devoni Foniy»dagi she’rlar mavzu doirasi, g’oyaviy-badiiy qimmati, nafisligi va til boyligi jihatidan «Xazoyin ul-maoniy» qatoridan o’rin olishga sazovor. Bu ayniqsa, Navoiy – Foniyning muxtarelarida – ixtiro g’azallarida yorqin ko’zga tashlanadi. Yuqoridagi sarlavhalar shoirning javobiya yo tatabbu’ tarzida aytilgan g’azallariga tegishli bo’lib, ulardan tashqari, devon tarkibida bevosita Alisher Navoiyning o’z kashfiyoti bo’lgan muxtare’ – ixtiro g’azallar ham talaygina uchraydi. Ko’rinadiki, g’azal shoirning turkiy devonlarida bo’lgani singari «Devoni Foniy»da ham yetakchi janr sifatidagi mavqeini saqlab qolgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, muxtare’ va tatabbu’ g’azal namunalari bilan yaqindan tanishish «Devoni Foniy» haqida umumiy tasavvur hosil qilishga imkon beradi. Hamid Sulaymon, Abdug’ani Mirzayev, Rasul Hodizoda, Shoislom Shomuhammedov, Rahim Vohidov, Alisher Shomuhammedov, Yoqubjon Is’hoqov kabi adabiyotshunos olimlar «Devoni Foniy»ga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlarida ulug’ shoirning forsiy she’rlari

ham turkiyda bitilgan rubobiy asarlari singari mazmun-mohiti, badiiyati nuqtayi nazaridan g’oyatda qimmatli ekanligini e’tirof etadilar. Bu, ayniqsa, Alisher Navoiy g’azalliyotiga xos bo’lgan musalsallik – fikrni tadrijiy rivojlantirish uslubi forsiy devon tarkibidagi g’azallarining vujudga kelishi uchun ham asos bo’lganligida yaqqol ko’zga tashlanadi. «Devoni Foniy»dagi ixtiro g’azallarga mansub bo’lgan quyidagi voqeaband g’azal ham yuqorida qayd etilgan navoiyona uslubning mahsulidir:

Rasid on parichehra mastona imshab,
Zi masti maro soxt devona imshab.
Maro kulbayi bexudi-yu junun shud
Az on partavi ro’ parixona imshab.
Zi sham’e tajalli namud on, ki megasht,
Maloyik ba davrash chu parvona imshab.
Zi ganji visolash imorat paziruft,
Maro kunji toriki vayrona imshab.
Zi shavqi mayi vasli o’ bud nazdik,
Ki pur sozadam charx paymona imhab.
Ba bom-u daram az payi in tamosho
Furo’ rexta xesh-u begona imshab.
Ba in nash’ayi ishq-u may gasht Foni,
Hama umr devona, tanho na imshab.

Mazmuni:

U parichehra bu kecha mast bo’lib keldi,
Mastlikdan meni bu kecha devona qildi.
Bu kecha mening bexudlik va jununlik kulbam
Ul parining chehrasi sochgan nurdan parixonaga aylandi.
Bu kecha qanday sham’ bir nur sochdiki,
Malaklar uning atrofida parvonadek aylanar edi.
Bu kecha u (mahbub)ning vasl xazinasidan
qorong’u xaroba kulbam obod bo’ldi.
Bu kecha uning vasli mayining shavqidan
Falak paymonamni to’ldirayozdi.
Bu kecha shu tomiosha uchun tom-u eshiklardan
Qarindosh-u begonalar yopirilib tomosha qilgani kelishdi.
Foniy bu ishq va may nash’asi bilan
(faqat) bu kechagina emas, bir umr devonadir.

(Navoiy. Asarlar. 5-tom, 1-kitob. 102-103-betlar).

Ko’rinadiki, ushbu g’azalning matlasidan maqtasigacha ishqiy kechinmalar qalamga olinadi. Matlada mahbubaning mastona yurib kelishi, buni ko’rgan oshiqning telbalarcha raftori ustiga gap boradi. Ikkinchi baytda o’sha ruhiy holat davom ettiriladi. Oshiqning xaroba kulbasi yor jamolidan charog’onlashib, parixona tusini oladi. Uchinchi baytda oshiq kayfiyati haqida so’zlanadi. Sham’ bor joyda parvona bo’ladi. Shuningdek, yorug’likka maloikalar ham talpinadi. Mahbubaning jamoli yorug’idan sarmast oshiq parvona-yu maloikalar vazifasini ado etadi, yor atrofida kapalakday aylanadi. To’rtinchi baytda na oshiqning xaroba kulbasi xususida gap boradi. Mahbubaning tashrif buyurishibilan oshiq kulbasi o’z qiyofasini o’zgartiradi, ko’rkamlashadi. Beshinchi baytda she’r qahramoni – oshiq ruhiy-ma’naviy kayfiyatining tasviri chiziladi. Oltinchi baytda oshiq va ma’shuqa visol onlarining qo’ni-qo’shnilarga ta’siri borasida gapiriladi. Odatda, xonadonda xursandchilik bo’lsa, qo’ni-qo’shnilar unga sherik. Qulay joy topib tomosha qilishadi: kim eshikdan, kim tomdan o’ziga qulay joy topib qaraydi. Mahbuba qadamidan obod bo’lgan oshiqning xarobasi ham bu oqshom ana shunday tomoshagoh tusini olgan. G’azalning maqtasida oldingi baytlarda tasvirlangan voqealarga yakun yasaladi. Shu ma’noda maqta’ g’azalning xulosasi bo’lib xizmat qiladi. Yor vasli va boda kayfiyatidan sarxush bo’lish oshiq uchun mavsumiy, tasodifiy narsa emas, balki doimiy holdir. U umri bo’yi o’zini ana shu yo’lga baxshida etgan. Ko’rinadiki, Alisher Navoiy talqinidagi oshiq uchun bulhavaslik, qo’nimsizlik tamoman begona. Zotan, bunday holat ulug’ o’zbek shoirining tabiati va tub orzulari uchun mutlaqo yotdir. Buning aksi o’laroq buyuk mutafakkir g’azallarida tasvirlangan oshiq irodasi, o’z e’tiqodiga sodiq barcha qiynoq va imtihonlarga bardosh berish uchun tayyor turgan kishi sifatida namoyon bo’ladi.

Alisher Navoiyning aksariyat tatabbu’ she’rlari Xoja Hofiz Sheroziy g’azallaridan ijodiy ta’sirlanish samarasi o’laroq vujudga kelgan. «Devoni Foniy»da «Dar tavri Xoja Hofiz», «Tatabbuyi Xoja» sarlavhalari ostida talaygina javobiya - g’azallar jamg’arilagn. Ularning miqdori haqida turlicha fikrlar bor. Akademik A. Mirzoyevning yozishicha, devonning Tehron nashrida Navoiy – Foniyning Xoja Hofizga tatabbulari soni 232 tadir. Prof. H.Sulaymon «Devoni Foniy»ning Frantsiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxasi asosida bu raqamni 237 taga yetkazadi. (Hamid Sulaymon. Alisher Navoiyning fors tilidagi merosi tadqiqotidan. «O’zbek tili va adabiyoti», 1965. 5-son.) Devonning Toshkent nashrida esa hammasi bo’lib 156 ta tatabbu’-g’azallar uchraydi. Agar yuqorida eslatilgan ikki olimning ma’lumotlari ishonchli bo’lsa, unda «Devoni Foniy»ning Toshkent nashri ham mukammal emas ekan.

Xoja Hofiz – dilbar she’riy meros qoldirgan ijodkor. Uning o’ynoqi, yuksak mahorat bilan yozilgan mazmundor she’riyati Sharq-u G’arbda dovrug’ taratdi. Unga ergashish, undan o’rganish, mag’zli g’azallariga javob aytish, tatabbu’ qilish, muxammas bog’lash, hofizxonlik bazmlari o’tkazish badiiy so’z mulkida qutlug’ an’ana tusini oldi. Shu ro’yxat boshida Alisher Navoiyning tabarruk nomi bor. Aytilganlarga qanoat hosil qilish uchun Alisher navoiy va Xoja Hofizning bittadan g’azallarini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Xoja Hofiz:

Dil saropardayi muhabbat o’st,
Dida oyinadori tal’ati o’st.
Man, ki sar bar nayovaram ba du kavn,
Gardonam zeri bori minnati o’st.
Tuv-u to’bi-vu mov-u qomati yor,
Fikri har kas ba qadri himmati o’st.
Gar man oludadomanam, chi ziyon?
Hama olam guvohi ismati o’st.
Man ki bosham dar on haram, ki sabo,
Pardadori harimi hurmati o’st.
Davri Majnun guzasht navbati most,
Har kase panjro’za navbati o’st.
Fikri zohir mabin, ki Hofizro,
Sina ganjinayi muhabbati o’st.

(Hofizi Sherozi. Muxtaxabi g’azaliyot. Dushanbe, 1967, sah. 46.)

Tojikistonda Xoja Hofiz asarlarining yana ikki nashri (Dushanbe, 1971, 1983) amalga oshirilgan. Yuqorida ko’chirilgan g’azal keyingi ikki kitobda (sah. 33, sah. 96) ham bor. Ammo mazkur g’azal juda katta o’zgarishlar bilan shu kitobdan joy olgan. Birinchidan, so’nggi nashrlarda ko’chirilgan g’azal o’n bir baytdan iborat. Ikkinchidan, g’azalda baytlarning joylashtirilishi shu qadar aralash-quralashki, bunday «tahrir»ni tasavvurga sig’dirish qiyin, albatta. So’zlarning yozilishidagi xilma-xillikni aytmasak ham bo’lar. Quyidagi baytlar esa biz murojaat qilgan kitobda uchramaydi, ammo keyingi nashrlarda mavjud:

Mulkati oshiqi-yu ganji tarab,
Har chi doram, zi yumni himmati o’st.
Manu dil ar fano shavem, chi bok?
G’araz andar miyon salomati o’st.
Bo xayolash mabod manzari chashm,
Z-on ki in go’sha xosi xilvati o’st.
Har guli nav, ki shud chamanoroy,

Asari rang-u bo’yi so’hbati o’st.

Matnshunoslik bilan bog’liq bunday chalkashliklar Xoja Hofiz taqdirida o’tmishda ham bo’lgan ko’rinadi. Alisher Navoiyning tatabbu’-g’azali shunday xulosaga kelish uchun asos bo’ladi. Chunki javobiya yetti baytdan iborat. Navoiy-Foniyning qurbi o’n bir baytli g’azalga javob aytishga ham etar edi. Biroq ulug’ shoir qo’liga mazkur g’azalning etti bytli nusxasi tushgan ko’rinadi:

Navoiy –Foniy:

Dar dilam otashi muhabbati o’st,
Obi chashmam zi dudi furqati o’st.
Nest dudi dilam ba hay’ati sarv,
Az dilam rasta sarvi qomati o’st.
Labi la’lash, ki shud may oluda,
Chashmam oluda xun zi hasrati o’st.
Raxshash abri balo-yu lam’am na’l,
Dar gahi po’ya barqi ofati o’st.
Gar zalilam ba ishq-u may, ey shayx,
In mazallat ham az maishati o’st.
Bandayi piri dayram, ey zohid,
Ki farog’am zi durdi suhbati o’st.
Foniy-u dilbari xaroboti,
Ki fano hosilash zi xidmati o’st.

Mazmuni:

Dilimda yor muhabbatining o’ti bor,
Ko’z yoshlarim firoq tutinidandir.
Dilimdan chiqadigan sarv yanglig’ (narsa) dilim tutini emas,
(Balki) dilimdan o’sib chiqqan uning sarv qomatidir.
U nozaninning la’l lablari mayga,
Ko’zim esa uning hasratidan qonga belandi.
Uning chaqin sochuvchi taqali oti – balo buluti-yu,
Yurish chog’ida u go’yo ofat yashinidir.
Ey shayx, agar ishq va may sababi bilan xor bo’lsam.
Bu xorlik ham Tangrining xohishidandir.
Ey zohid, mayxona pirining qulidirmen,
Farog’atim esa uning suhbatidagi may quyqusidandir.
Foniy (bo’lsinu) unga mayxona dilbaribo’lsin, chunki
Uning xizmatidan foniylik (yo’qlik) hosil bo’ladi.

(Navoiy. Asarlar. 5-tom, 1-kitob. 122-123-betlar.)

Ulug’ o’zbek shoiri ayrim javobiya-g’azallarida an’anaviy nazmiy unsurlar: vazn, qofiya, radif, timsol va tashbehlarni saqlab qolgani holda, she’rning g’oyaviy mazmun qirralari, she’r qahramoni ruhiy holati va ohangini o’ziga manzur yo’nalishda davom ettiradi. Ayrim javobiyalarida esa nazirachilikning an’anaviy shakliy unsurlari batamom ko’zga tashlanmaydi. Bu fikr yuqorida keltirilgan tatabbu’-g’azalga to’la daxldordir. Chunonchi, Alisher Navoiy Xoja Hofiz g’azallarida qo’llangan atigi birgina qofiyani saqlagani holda, qolganlarini batamom yangilaydi. Bunday harakatni Navoiy – Foniy g’azaliga singdirilgan ayricha mazmun va g’oyalar taqazo etadi. Tatabbu’ g’azaldagi yangilikni faqat yetti qofiyadosh so’zning almashganidan iborat deb qarash ham to’g’ri emas. Chunki tatabbu’-g’azal zamirida buyuk mutafakkirning shaxsiy kuzatishlari, o’ziga xos insonsevarlik g’oyalari, teran hayotiy mushohadalari yotadi. Ijtimoiy hayot va uning zeboliklariga navoiyona muhabbat nuri g’azal satrlariga yog’du sochadi. Xoja Hofiz g’azalining matlasida majoziy muhabbat haqida gap boradi. Biroq o’sha ishq talqini mavhum, o’quvchi shuuriga aniq va zudlik bilan yetib bormaydi. To’g’ri, Xoja Hofiz g’azalidagi faq-ru fano ishqi ilohiyga aloqamand bo’lgan lahzalar ma’lum darajada Alisher Navoiyning ham tatabbu’ g’azalida ko’zga tashlanadi. Biroq «Sheroz sehrigari»ga izdoshlik qilgan ulug’ o’zbek shoiri o’sha an’anaviy she’riy ashyolarni: ishq va uning mojarolarini ijodiy talqin qilish va yangicha jiloda tasvirlash yo’lidan borgan. Alohida ta’kidga sazovor nuqta shundaki, Navoiy – Foniy javobiyasida dunyoviy ruh, ko’tarinki hayotiy kayfiyat, insoniy muhabbat va undan zavqlanish ko’zga tashlanadi. Ayni mulohaza Xoja Hofiz va Alisher Navoiy g’azallarining umumiy ruhitida ohangdoshlik, uyg’unlik borligini ham inkor etmaydi. U bor. Chunki har ikkala ulkan iste’dod sohibining maslakdosh qilgan, bir-biriga bu qadar jipslashtirgan bosh omil – inson va uni ulug’lash mavzusidir. G’oyaviy yo’nalish, ifoda uslubi, dunyoqarashda Xoja Hofizning ham, Alisher Navoiyning ham o’ziga xosligi borligini e’tirof etgan holda, har bir tatabbu’-g’azalda, o’sha tafovutlardan qat’iy nazar, ikki dohiy so’z san’atkorini yuqorida eslatganimiz kabi bosh ma’naviy uyg’unlik birlashtirib turadi.

Navoiy – Foniy o’z g’azallarining ichki tuzilishiga alohida e’tibor bilan qaragan. Tatabbu’-g’azal matnida muallifning voqeabandlikka ishtiyoq bilan qaraganligini his qilish qiyin emas. Tadrijga erishmoq uchun shoir satrlarda qo’llangan voqea-hodisalar va buyumlarning xossalariga, shuningdek, ular o’rtasidagi mantiqiy uzviylikka amal qiladi. Ana shu zaminda Alisher Navoiyning aksariyat g’azallarida bir-biriga ma’no va mazmun jihatidan tutash

baytlar vujudga keladi. Bunday misralrda gapdan-gap tug'iladi. Xoja Hofiz g'azaliga qilingan tatabbuning matlasi va undan keyingi baytida Navoiy – Foniyning o'ziga xos o'sha yetakchi tasvir uslubi ravshan namoyon bo'ladi.:

Dar dilam otashi muhabbati o'st,
Obi chashmam zi dudi furqati o'st.
Nest dudi dilam ba hay'ati sarv,
Az dilam rasta sarvi qomati o'st.

Mazmuni:

Dilimda yor muhabbatining o'ti bor,
Ko'z yoshlarim firoq tutinidandir.
Dilimdan chiqadigan sarv yanglig' (narsa) dilim tutini emas,
(Balki) dilimdan o'sib chiqqan uning sarv qomatidir.

Tatabbu'-g'azal matlasida ishq, oshiqlik va uning iztiroblari, mashaqqatlar xususidagap boradi. Hijron azoblaridan oshiqning dili yonadi, go'yo unda laxcha cho'g' bor. Uning ko'zlaridan qatra-qatra yoshlar oqadi. Buning boiskori ham o'sha olamso'z ishq. Oshiqning ma'shuqa firoqida cho'g'dek yongan yuragidan burqsib tutun chiqadi. Achchiq tutun oshiqning ko'zlariga ta'sir etadi, achitadi, yoshini shashqator qiladi. Qarang, birgina baytda qanchalik teran mazmun va voqealar tizmasi mujassam. Ayni satrlarda she'r qahramonining azoblarga liq to'la ruhiy olami tasviri ham yorqin ifodasini topgan. Biroq shoir hali tugal yoritilmay qolgan niyatlarini ro'yobga chiqarishda qo'l kelishi mumkin bo'lgan so'z va tasviriy ashyolar bilan g'azal matlasidayoq «xayrlashib» qo'ya qolmaydi. Aksincha, ularni sharhlash, mohiyatini kengroq ochish, yoritilmay qolgan yangi-yangi qirralarini kashf qilishda davom etadi. Ulug' o'zbek shoiri o'rtaga qo'ymoqchi bo'lgan g'oyaviy muddaosiga mos tushuvchi nozik hayotiy manzara – «dildan o'rlab chiqqan tutun»dir. Tatabbu'-g'azalning ikkinchi bayti ana o'sha tashbehli birikma asosida quriladi. Ma'lumki, mo'ridan chiqqan tutunning samoga «sayri» - o'rlab chiqishi kuzatishga arzigulik manzara va u rang-barang shakllarni vujudga keltiradi. Birinchidan, ulug' shoir oshiqning iztirobli, oh-u fig'onli qalbi bilan mo'ridan chiqayotgan tutun o'rtasida monandlik tuyadi. Masalaning yana bir nozik jihati ham bor. Xoja Hofiz g'azalining matlasida ishqi ilohiyga ishoralar mavjud edi. Navoiy – Foniy ham tatabbusida buni nazardan qochirgani yo'q. O'sha «ko'z ostiga olingan» g'oyaviy niyat nafis ishoralarda o'zini ko'rsata boshlaydi. Shuning uchun tasvir yo'nalishi samoga qarab buriladi. Ikkinchidan, buyuk mutafakkirning topqirligi va sinchkovligi shundaki, unchalik nazarga tashlanmaydigan ana shu oddiygina hayotiy voqeadan nafosat topgan. O'sha topilma bo'yoqdor, zavq uyg'otuvchi,

ta’sirchan badiiy tashbeh tarzida kitobxon hukmiga havola etiladi. Alamlar girdobida qolgan oshiq dilidan toshib, osmonga ko’tarilayotgan tug’yon oddiy shakldagi tutun emas, u sarv ko’rinishidadir. Aslida u odatiy sarv daraxti ham emas. Oshiq dilli zaminida o’sib, parvarish topgan ma’shuqaning xushbichim, sarvmisol qomati. Daraxt quyoshga, nurga intilgani kabi qomat – sarv ham osmonga bo’y cho’zmoqda. Qarang, qanday nozik, ta’sirchan va mohirona o’rtaga qo’yilgan chiroyli tasvir! Navoiy - Foniy tatabbu’-g’azaliga xos bo’lgan bunday fazilatlarini Xoja Hofiz she’rlarida ham ravshan his qilish mumkin. Xususan, Alisher Navoiy ilhomini qo’zg’atgan g’azalning o’n bir baytli nusxalari matlasida tajassumini topgan ma’no-mazmunning har tomonlama o’ylangan va mushohadaga undovchi o’ramlarda berilganiga qanoat hosil qilish mumkin. Rindi Sheroz bu yo’lda donishmandlik va bo’liq mahorat ko’rsatgan. Tafakkur va mantiq qudratiga tayangan, forsiy kalomning ko’p ma’nolilik xususiyatlaridan o’rinli foydalana olgan. G’azal satrlarida «parda», «oyina», «tal’at», «ikki dunyo» («du kavn»), «himmat», «ismat» («poklik»), «faqr», «zohir» so’zlarining tagdorligi kitobxonni fikrlashga undaydi. Ro’yxatdan joy olgan so’zlarning misralarda qo’llanishi tasodifiy emas. Xoja Hofiz qasddan bu so’zlarga murojaat qiladi. Ko’ngliga tukkani iddaoni kitobxon qalbiga ko’chirish istagi o’sha majburiyatga sazovordir. Ayonlashadiki, hayotiy va islomiy-ilohiy yoxud tasavvufiy oqimlar boshini yagona o’zanda birlashtirish mayli lison ul-g’ayb shoirni shunday yo’l tutishga undagan. Sinchkov nazm shinavandasi ham u so’zlarni befarq ko’zdan o’tkazib yubormaydi. Ayniqsa, «du kavn», «faqr», «tal’at» kabi so’zlar fikrlashga chorlaydi. Sirli sandiq qulfini ochish uchun kalit vazifasini bajaruvchi mazkur so’zlar tufayli Yer-u samo o’rtasidagi masofa qisqaradi, mazmun rishtalari teranlikka yuz tutadi. Borliq olami va ruhiy dunyo o’rtasida ko’ndalang turuvchi chegara chiziqlari ko’zda g’oyib bo’la boshlaydi. Shuningdek, ayrim baytlarda tazod she’riy san’atiga ataylab murojaat qilinishi zamirida ham tasavvufiy va hayotiy muhabbat manzaralari ifodasining qorishiq berilishini anglatishda ishoraday tuyuladi. Oshiqning nazarida ikki qomat – to’bi-yu yana yor jilvasi namoyon. Har o’ziga ma’qul va maqbulini tanlab oladi. Oshiq poklik da’vo qilmaydi, ammo bunday harakatidan ortiq tashvish ham tortmaydi. Chunki u inson avlodiga mansub. Shunday ekan, u qaysidir jihatidan nuqsonga yo’l qo’yishi mumkin. Aniqrog’i, oshiq xalqning «beayb Alloh» dono hikmatiga amal qiladi. Xoja Hofiz satrida ham shunga yaqin ishora ko’zga tashlanadi. Butun olam uning pokligiga guvohdir! G’azal misralarida parda ortidagi jamol bilan aloqamand ta’kidlarning ko’chib yurishi ham tasodifiy emas. Xoja Hofizday zakiy daho qalami tuhfa etgan g’azalda tasodifiy

so’zlarning «kezib» yurishi aqlga aslo sig’maydi. G’azal xotimaga tortgan sayin zabardast shoirning g’oyaviy niyati tobora qalqib yuzaga chiqa boshlaydi. Ishq azoblar bobida Majnun navbatining o’tganligi, borliq dunyosining fano – besh kunligiga daxldor gaplar hali g’azalning yakuni emas. Aslida yakunga – matlaga ravshanlik kirituvchi maqtadagi xulosaga o’tish uchun tayyorgarlikdir: Xoja Hofizning zohiran bu dunyodan voz kechish haqidagi gaplariga qarama, aslida uning siynasi – yuragi ma’shuqa muhabbatiga xazinadir! Qarang, qanday tagdor va teran mushohadaga da’vat etuvchi xulosa. Bunday jumboqli yakundan har kim o’ziga keragini oladi. Yana o’ylab qolasan, bu ta’kid naqshbandiya tariqatining «dil ba yor-u dast ba kor» talab – tamoyiliga amaliy javob emasmi? Garchi Xoja Hofizning bu tariqatga aloqasi ayon bo’lmasa-da, o’shanday xulosalar misralar zamiridan sizilib chiqadi. Masalaning bu tomoni oyin-u tariqatlar tabiatida kuzatiladigan mushtarak jihatlarning amal qilganligi bilan izohlansa, ajab emas. Ana o’sha jihatlari uchun ham Alisher Navoiy Xoja Hofiz g’azaliyotining maftuni bo’lmadimikin? Foniy – Navoiyning tatabbu’-g’azallarida yorqin ko’zga tashlanadigan yana bir fazilat – oddiy hayotiy voqealardan go’zal badiiy umumlashmalar chiqarishda namoyon bo’ladi. Aytilgan gapni tahlil qilayotganimiz g’azal misolida ham ravshan his etish mumkin. Tatabbu’-g’azalda ma’shuqa tashqi qiyofasining ayrim chizgilari beriladi. Ayniqsa, yorning labi tasviriga diqqat qilinadi. Sharq xalqlari adabiyotidagi an’anaga ko’ra, ma’shuqaning labi haqida gap ketganda, ko’pincha u la’lga nisbat beriladi. Navoiy – Foniy ham shu shakllangan an’anaga rivoya qiladi. Ko’rganimiz satrlarda ifodalanishicha, yorning la’l misol labi mayga bo’yalgan. La’l qizilcha, may esa tiniq qip-qizil. Ikki rang birlashib to’q qizilni vujudga keltiradi. Mahbuba labining bunday jozibasi oshiqqa xush yoqadi. Shuning uchun oshiqning halovati yo’qoladi. Gap lab ta’rifida ketar ekan, yana bir nozik jihatni eslatishga to’g’ri keladi. Ulkan shoir yor labining faqatgina rangin tasvirlash bilan kifoya qilmaydi. Go’zal misraga «mayga bo’yalgan»lik ishorasini kiritish bilan satrlar o’rtasida mantiqiy zanjirni vujudga keltirgan. Ikkinchidan, shu kichik bir urinish bilan labi ko’rk-u tarovatini kuchaytirishga erishgan. Negaki, nami qochgan bo’yoqdan ko’ra, obdor rang, qaqragan labga qaraganda, namli labning joziba va dilkashligi chandon baland bo’ladi.

Navoiy - Foniy g’azal misralaridagi tashbehli iboralarning muvozanati, mutanosibligiga jiddiy diqqat qiladi. Tahlil etilayotgan g’azaldagi mayolud lab va qonga to’lgan ko’z tasvirida shunday urinishni yaqqol ko’rish mumkin. Tahlil qilayotganimiz she’riy qatorlarda turli ishoralarda davr jarohatlarini «qistirib» o’tish hodisasi ham ko’zga tashlanadi. Mayolud labning qonga

qiyoslanishi, ko’zlarning qonga to’lganligi va yosh o’rnida qon tomishi lavhalari zamirida «Gahi toptim falakdin notavonliq»,- deya o’z zamonasidan zorlangan ulug’ shoir, uning jafokash zamondoshlari iztiroblari yotmadimikin? Alqissa, Navoiy – Foniy barcha tatabbu’-g’azallarida, ularning deyarli hamma misralarida o’rtaga qo’yilgan masalalarga ijodiy qarash, zakiyona munosabat mujassam. Mutafakkirona g’oyalar, teran mazmun, navoiyona mushohada o’rtaga qo’yilgan muammolar yyechimida sobitqadamlik, insondo’stlik o’sha asarlarning mag’z-mag’ziga singdirilgandir.

Alisher Navoiyning maqtaga xotimaga kelish yo’lida Xoja Hofiz g’azalida kuzatganimiz tasvir uslubiga mayl seziladi. Navoiy – Foniyga fanoning uyqash qilinishi, xarobotga moyillik, o’sha g’aribona kulbani yoqtiradigan dilbarga xizmat qilishni sharaf bilash zamirida yashiringan mazmun g’oyat keng qamrovlidir. Masalaning bir uchi esa qanoat va qone’lik, faqirona dabdaba-yu sun’iylikdan xoli turish, niyat va qalbning pokligi, shuhrat va mol-u mulkka hirs bilan qarash illatiga o’t ochish tuyg’usiga borib ulanadi. Alisher Navoiy qalbini rom etgan, umr bo’yi uni shu yo’lda xizmat qildirgan ezgu niyatlar edi. Yuqorida qisman qiyosiy o’rganganimiz ikki g’azaldan ravshan bo’ladiki, tatabbuchilik an’anasi Alisher Navoiyning nihoyatda cheksiz badiiy salohiyati imkoniyatlarini jilovlab qo’ya qolmagan. Ulug’ o’zbek shoiri loqaydona taqlid qoliplarini yorib, ijodiy kengliklarga ko’tarilgan. Ana shu hukmni Alisher Navoiy qalami hadya etgan barcha tatabbu’-g’azallar, fors-tojik adabiyoti ulkan arboblarining eng sara asarlari tavrida vujudga kelgan she’rlariga ham taalluqli desak, xato bo’lmas. Bu va shunga o’xshash qator fazilatlariga ko’ra «Devoni Foniy» Alisher Navoiy adabiy merosining eng qadrli manbaridan biridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Alisher Navoiy she’riy merosining asosini qaysi manbalar tashkil etadi?
2. Ulug’ shoir devonlari, ularning tartib berilishi tarixi, janriy tarkibi haqida so’zlang.
3. Alisher Navoiy she’ritidagi majoziy va ilohiy ishq mohiyatini nima tashkil etadi? «Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq» misrasini izohlang.
4. Ulug’ shoir g’azaliyotidagi yetakchi uslubiy jilolar haqida nimalarni bilasiz?
5. Alisher Navoiy g’azalnavislikda kimlarni o’ziga ustoz deb bilgan? Shoirning nazmda shakl va ma’no mutanosibligi xususidagi adabiy-tanqidiy qarashlarini izohlang.

6. Musalsal va mustaqil baytlardan tarkib topgan g’azallarning bir-biridan farqli jihatlari nimalarda namoyon bo’ladi?

7. Shoirning «Yordin ayru ko’ngil mulkedurur sultoni yo’q» misrasi bilan boshlanuvchi g’azalida qanday mavzular qalamga olinadi?

8. Kichik she’riy asarlar: qit’a, ruboiy, tuyuq, chiston (lug’z)larning janriy xususiyatlarihaqida gapirib bering.

9. Alisher Navoiyning qaysi asarlari tarkibida qiti’alar mavjud va shoir o’z qit’alariga xos xususiyatlar haqida qanday mulohazalarini bayon etgan?

10. Shoir ruboiylarining yetakchi mavzusi qaysi?

11. Alisher Navoiyning qit’a, ruboiy singari janrlarga nisbatan tuyuq janrida kam asarlar ijod etganligining sababi nimada deb o’ylaysiz?

12. Shoirning chistonlari nimalarga bag’ishlangan?

13. Alisher Navoiy turkiy va forsiy tillarda qanday qasidalar ijod etgan?

14. «Hiloliya» qasidasining yozilishi tarixi va voqeabandligini tashkil etuvchi sujeti hamda yetakchi obrazlari haqida so’zlang.

15. «Devoni Foniy»ning qo’lyozma nusxalari, janriy tarkibi haqida nimalar bilasiz?

16. «Devoni Foniy»dagi sarlavhalar nimani anglatadi? Muxtare’ va tatabbu’-g’azal deganda nimani tushunasiz?

Mavzuga oid tanch tushunchalar

«Ilk devon». «Badoye’ ul-bidoya». «Navodir un-nihoya». «Xazoyoin ul-maoniy». Nasriy asarlardagi she’riy parchalar. G’azal. Ruboiy. Muxammas. Mustazod. Musaddas. Tarje’band. Tarkibband. Qit’a. Lug’z – chiston. Muammo. Fard. Masnaviy. Qasida. Musamman. Soqiynoma. Ishqi majoziy. Ishqi ilohiy. Musalsal g’azal. Voqeaband g’azal. Mustaqil baytlardan tashkil topgan g’azal. «Hiloliya». «Sittayi zaruriya». «Ruh ul-quds». «Ayn ul-hayot». «Tuhfat ul-afkor». «Qut ul-qulub». «Minhoj ul-najot». «Nasim ul-xuld». «Fusuli arbaa». «Saraton». «Xazon». «Bahor». «Day». «Devoni Foniy». Muxtare’-g’azal. Tatabbu’-g’azal. Tavr. Ixtiro. Mahbuba…

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiyning adabiy mahorati. Toshkent: «Fan», 1993.

2.Alisher Navoiy. Lirika (Tuzuvchi: N.Mallayev, 3-nashri). Toshkent: «O’qituvchi», 1992.

3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 1-6 tomlar. Toshkent: «Fan», 1997-1980.

4.Alisher Navoiy. G’azallar. Sharhlar. Toshkent: «Kamalak», 1991.

5. Abdug’afforov A. “Xazoyin ul-maoniy” jumboqlari. “O’zbek tili va adabiyoti”, 1995, 1-son, 10-18-betlar.

6.Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, 85-129-betlar.

7.Vohidov R., Ne’matov H., Mahmudov M. So’z bag’ridagi ma’rifat. Toshkent: «Yozuvchi», 2001.

8. Jumaxo’ja N. Satrlar silsilasidagi sehr. Toshkent: «O’qituvchi», 1996.

9. Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: «O’qituvchi», 1976, 380-419-betlar.

10. Shayxzoda M. Asarlar. 6 tomlik, 4-tom. Toshkent: G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972, 195-234-betlar.

11. O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 2-tom. Toshkent: «Fan», 1987, 82-201- betlar.

12. Hayitmetov A. “xazoyin ul-maoniy” devoni tahlili va Husayn Boyqaro. “O’zbek tili va dabiyoti”, 1998, 1-son, 7-10-betlar; Yana: Alisher Navoiy uslubi muammolari. “O’zbek tili va dabiyoti”, 1999, 1-son, 26-28-betlar.

13. Hasan N. XVI asr adabiyotida Yassaviy an’analari. “O’zbek tili va dabiyoti”, 2004, 2-son, 26-34-betlar

14. Haqqul I. Kamol et kasbkim. Toshkent: «CHo’lpon», 1991.

15. Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

IX BOB
SHARQ XALQLARI ADABIYOTIDA XAMSACHILIK AN'ANASI VA ALISHER NAVOIY "XAMSA"SI

9.1. Xamsachilik an'anasi va Alisher Navoiy «Xamsa»sining yaratilishi tarixi

Sharq xalqlari adabiyoti tarixida beshlik dostonlar turkumining bunyod etilishi an'anasi Alisher Navoiy dunyoga kelgunga qadar sal kam uch yuz yillik jarayonni boshidan kechirdi. Ozar xalqining suyukli va salohiyatli farzandi Ilyos Yusuf o'g'li Nizomiy Ganjaviy (1141-1205) «Panj ganj» («Besh bebaho xazina») asarining yaratilishi musulmon olami badiiy so'z san'ati tarixida inqilobiy hodisa, mo'jizaviy voqea bo'ldi. Forsiyda dunyo yuzini ko'rgan bu besh ma'naviy xazina qalam sohiblari qalbini junbushga soldi, ular uchun chinakam ijodiy bahs va mahorat darajasini belgilashning sinashta tamal toshiga aylandi. Shunday qilib, Nizomiy Ganjaviyning mo'jizakor qalami tuhfa etgan «Panj ganj» Sharq xalqlari adabiyoti tarixidan xamsachilik an'anasiga asos bo'lgan asar sifatida o'rin oldi. Xamsa ijod etish besh doston yozish bo'libgina qolmay, bu adabiy janrga xos bo'lgan me'yorlar bevosita «Panj ganj»ning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilandi. Bunga ko'ra, dostonlarning nomi, janri, vazni, voqealar tizimi, qahramonlari va tuzilishi bilan Nizomiy Ganjaviy beshligi talab – tamoyilariga monand bo'lishi, shuningdek, yangi ijod etilgan xamsa ulug' ozar shoiri shoh asarining takrori yoki taqlidiy nusxasi bo'lmay, balki mavzu va g'oyalari, badiiyati nuqtayi nazaridan tamomila yangi asar bo'lishi talab etilardi. Bulardan tashqari, xamsa muallifi so'z san'atining ilohiy qudratini teran his qilgani holda unig ravnaqini yanada yuksak cho'qqilarga ko'tarishga o'z asari bilan xizmat qilmog'i lozim edi. Sharq adabiyotida bu nihoyatda murakkab va o'ta talabchan an'anaga aylanib qoldi. Musulmon mintaqa xalqlari adabiyotida bu adabiy janrning vujudga kelishi sabablarini taniqli adabiyotshunos olim, akademik B.Valixo'jayev quyidagicha izohlaydi: «Xamsa deb ataluvchi asarlarning maydonga kelishigacha, ya'ni XII asrgacha bo'lgan davrda turkum qissa va dostonlardan iborat «Kalila va Dimna», «Sindbotnoma» (Ro'dakiy), «Shohnoma» (Firdavsiy), «Qutadg'u bilig» (Yusuf Xos Hojib) kabi forsiy va turkiy tillarda bitilgan turkum asarlar mavjud edi.

Eslatilgan asarlarning ayrimlari bir sujetli («Qutadg'u bilig») bo'lsa, boshqalari ko'p sujetli («Kalila va Dimna», «Shohnoma») asarlardir.

Xuddi ana shu davrda xamsa o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan badiiy janr sifatida shakllandi. Shuning natijasida u ham bir sujetli, ham ko’p sujetli hamda sujetsiz – maqolatlardan iborat asarlardan tashkil topdi, ya’ni qurilish jihatdan ko’p qirrali janr bo’ldi. Uning asosiy mavzusi ham insonning ko’p qirralari faoliyatini badiiy obrazlar misolida aks ettirishdan iboratdir» (Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent, 2002, 131-bet).

Ko’rinadiki, xamsa inson kamolotining serqirra jihatlarini o’zida to’la in’ikos etish imkonini hosil qilgan adabiy janr sifatida vujudga kelib, bir va bir necha sujetli asarlarga xos bo’lgan xususiyatlarni o’zida mujassam etdi va ijodkorning yana o’sha komil inson xususidagi falsafiy, ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini mufassal bayon etishi uchun tarkibida mavjud bo’lgan sujetsiz maqolatlar bilan mukammallashdi. Ayni choqda xamsa tuzilishiga aloqador bo’lgan bunday unsurlar bir-birini taqazo qilishi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, Shayx Nizomiyning «Panj ganj»i «Maxzan ul-asror» («Sirlar xazinasi») sarlavhali dasturiy doston bilan boshlanadi. Mazkur asar tarkibidagi maqolat-u hikoyatlar uning «Panj ganj»ining barcha dostonlari uchun rejanoma vazifasini o’tashini ta’min etgan. Ana shu shoh asarda xalq maqollari kabi sayqallangan va lo’nda xulosalar tarzida teran badiiy ifodalangan dolzarb umuminsoniy mavzu – muammolar turkumning «Xusrav va Shirin», «Layli va Majnun», «Haft paykar» («Yetti go’zal»), «Iskandarnoma» kabi masnaviylarida mantiqiy badiiy tajassumini topadi. Shuning uchun ham zohiran alohida – alohida va mustaqil dostonlar maqomida ko’zga tashlanuvchi bu asarlar uchun ana o’sha «mustaqillik» o’ta nisbiy tushunchadir. Ular, bizningcha, barcha a’zolari bir-biri bilan uzviy aloqador, yaxlit, yagona jismni eslatadi. Aslida ana shu bosh tamoyil xamsaning Sharq xalqlari adabiyoti tarixida mustaqil janr maqomida ko’rinishining tayanch omilidir.

Shayx Nizomiydan keyin undan o’rganish, uni ustoz deb bilish, ilg’or adabiy an’analarini davom ettirish adabiyot olamida asrlarosha turli shakllarda yashab keldi. Buyuk Nizomiyga izdoshlik qilish an’anasiga doir ma’lumotlarni umumlashtirgan holda uch katta yo’nalishga ajratish mumkin:

1.«Panj ganj»ga to’la javobiya yozgan shoirlar. Amir Xuusrav Dehlaviy (1253-1325) – xamsa janrining yuqorida eslatganimiz nozik nuqtalarini to’g’ri ilg’agan va uni nazariy jihatdan amalda asoslagan ikkinchi xamsanavisdir. Shoir «Xamsa»sining ilk dostoni «Matla’ ul-anvor» («Nurlarning boshlanishi»), «Shirin va Xusrav», «Majnun va Layli», «Hasht behisht» («Sakkiz jannat»), «Oyinayi Iskandariy» («Iskandar oynasi») singari

keyingi masnaviylari uchun ma’naviy sarchashma, kengaytirilgan rejanoma vazifasini o’tadi.

Turkiy adabiyotni jahoniy mavqega ko’targan ulug’ o’zbek shoiri Alisher Navoiyning ham qutlug’ nomi «Panj ganj»ga to’la javobiya yozgan shoirlar qatoridan munosib o’rin oldi. «Agar bir qavm, gar yuz, yo’qsa mingdur, Muayyan turk ulusi xud meningdur», - deya iftixor bilan e’tirof etgan ulug’ shoir «Xamsa»si turkiy qavmlar ma’naviy ehtiyojini qondirgan yagona shoh asar bo’lganligi bilan boshqa xamsalardan tubdan farq qiladi. Turkiy tilda xamsa yozish Alisher Navoiy ko’ngliga tug’ilgan orzulardan biri ekanligi «Hayrat ul - abror»dagi quyidagi baytlarda o’z ifodasini topgan:

Kim bu yo’l ichraki alar soldi gom,
Bir necha gom o’lsa manga ham xirom.
Forsi chu bo’ldi alarga ado.
Turki ila qilsam ani ibtido.
Forsi el topti chu xursandlik,
Turk dag’i topsa barumandlik. (7, 55)

She’riyatimiz bobokalonining shirin orzulari ushaldi. U o’z oldida qo’ygan ulkan maqsadiga erishdi. Juda qisqa muddatda, atigi ikki yil (1483 - 1485) ichida turkiy tildagi birinchi va hozirga qadar yagona «Xamsa»ni maydonga keltirdi. «Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ayi sayyor» («Yetti sayyoh, musofir»), «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») kabi g’oyaviy – badiiy jihatdan baquvvat besh go’zal masnaviyni o’zida birlashtiruvchi turkum dunyo yuzini ko’rdi. Alisher Navoiy «Xamsa»si nihoyatda salmoqli asar – ellik bir ming ikki yuz o’ttiz misradan tashkil topgan. Shunchalik ulkan badiiy yaratmani shiddat bilan, juda qoyil qilib ijod etgan shoir xotimaviy doston – «Saddi Iskandariy»da bu ulkan beshlikni yozish uchun bevosita sarflangan vaqt olti oy ekanligini qayd etadi:

Chekib xoma bu noma itmomig’a,
Yeturg’aysen og’ozin anjomig’a
Ki, ahli muhosib shitob aylasa,
Deyilgan zamonin hisob aylasa,
Yig’ishtursa bo’lmas bori olti oy,
Ki, bo’ldung bu ra’nog’a suratnamoy. (11, 569)

Alisher Navoiy yirik jamoat arbobi sifatida Xuroson mamlakatining buyuk davlat darajasiga ko’tarilishi, el – yurt osoyishtaligi va mulk ma’murligi yo’lida jonbozlik ko’rsatdi. Mana shunday ulug’ ishlardan xoli bo’lgan paytlarida Ustod Sadriddiy Ayniy ta’biricha, uyqu va istirohat soatlari

hisobidan sevimli mashg’uloti – badiiy ijod bilan shug’ullandi. Tabiiyki, Husayn Boyqaro mamlakatidagi siyosiy jihatdan beqarorlik shoh asar ustida qizg’in ijod bilan mashg’ul bo’lgan Alisher Navoiyni ham befarq qoldirishi mumkin emas edi. Buyuk shoir ulug’ xamsanavis salaflari zimmasida bunday ma’uliyatli vazifa (davlatni idora qilish ishlariga aralashish) bo’lmagani, ularda mavjud bo’lgan imkoniyat nuqtayi nazaridan masalaga yondashib «Xamsa»ning ijod etilishiga sarflangan vaqtni hisob qilsak, olti oyga bormasligini e’tirof etadi. Bu ta’kid zamirida, bizningcha, umrining «shabob ayyomi»da shoirning ustozi va otaxoni darvesh Sayyid Hasan Ardasherga yozgan maktubidagi o’z ijodiy salohiyatidan iftixor tuyib, ehtiros bilan bitilgan baytlari (bir kunda yuz ikki yuz bayt bitish holva bilan barobar.. .) mubolag’a emasligiga ishora mavjud.

«Panj ganj»ga to’la javobiya yozgan shoirlar qatorida fors–tojik adabiyotining ulug’ namoyandasi Nuriddin Abdurrahmon Jomiyning nomi ham yuksak ehtiromga sazovor. Bu buyuk so’z san’atkori «Haft avrang»ining ayrim dostonlari Alisher Navoiyning ba’zi masnaviylari bilan oldinma–keyin yozilgan bo’lib, har ikkala zamondoshning shoh asarlari xamsanavislikda yana bir yuksak pag’onaning zabt etilishiga sabab bo’ldi. Hojuyi Kirmoniy (1281-1352), Mavlono Ashraf (vafoti 1450), Abdulla Xotifiy (vafoti 1521) kabi ijodkorlar ham Nizomiy Ganjaviy «Panj ganj»iga to’la javob aytish baxtiga muyassar bo’ldilar. Biroq xamsachilik tarixida bu qalamkashlarning hammasi ham birday mavqega ega emas. Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurrahmon Jomiy, Alisher Navoiy xamsalarining shuhrati ancha baland bo’ldi. Buning boisi, bizningcha, o’sha mualliflar qalami sehri, iqtidorining balandligi, fikriy teranlik, tasvir mahoratining yuksakligi, umuminsoniy g’oyalar, axloqiy–ta’limiy, ilohiy–irfoniy qarashlarning bo’liqligidadir. Bizning bu ta’kidimiz Hojuyi Kirmoniy, Mavlono Ashraf, Abdulla Xotifiylarning beshliklari xususida noto’g’ri taassurot uyg’otmasligi lozim. Mazkur mualliflar asarlarining shuhrat qozonishida o’sha noyob badiiy yaratmalar qo’lyozma nusxalarining kamyobligi, bugungi kunga qadar tugal holida nashr yuzini ko’rmaganligi - yetarli darajada ommalashmayotganligi salbiy ta’sir ko’rsatgan bo’lsa, ajab emas.

2.«Panj ganj»ning ayrim dostonlariga javob yozgan shoirlar. Bu guruhga mansub ijodkorlar o’z oldida yaxlit «Panj ganj»ga emas, balki uning tarkibidagi u yoki bu dostonga javob aytishni maqsad qilib qo’yishdi. O’sha harakat tufayli Sharq xalqlari adabiyotida sayyor mavzu, vaqea-qahramonlar guruhi shakllanib, musulmon olami badiiy adabiyotida keng tarqaldi. Faqatgina Layli va Majnunlarning fojeaviy sevgi – sarguzashtlari bilan bog’liq voqealar

asosida arab, fors – tojik va turkiy tillarda yuz ellikdan ortiq nomdosh, biroq bir – birini mutlaqo aynan takrorlamaydigan dostonlarning bunyodga kelganligi Shayx Nizomiyga izdoshlik qilish ikkinchi yo'nalishining ancha faol kechganligidan yorqin nishonadir (Ageh Sirri Levend. Arap fars ve turk edebiyatlarinda Leyli ve Mejnun hikayesi. Ankara. 1957). Ikkinchi yo'nalish harakat maydoni va qutblarining bu qadar ko'lamdorligi ma'lum ma'noda adabiy aloqa va o'zaro ta'sir hodisasiga uzviy bog'liqdir. Mazkur yo'nalish o'z navbatida ichki bo'linishga ham ega. «Panj ganj» tarkibidagi muayyan vaqealar tizmasiga murojaat qilib, doston yaratgan tab' ahliining hammasi ham bevosita Nizomiy Ganjaviy asarlaridan ilhomlangan emas. Ya'ni Nizomiy Ganjaviy dostoni ta'sirida vujudga kelgan yangi asarlardan ruhlangan (ta'sir tufayli ta'sir) boshqa zamon , makon va zabondagi ijodkorlar o'zining toza tarhdagi she'riy namunasini yaratgan. Shu tariqa, bosh halqaga ulanuvchi halqachalar tufayli yaxlit adabiy zanjir shakllana borgan.

Demak, Nizomiy Ganjaviy «Panj ganj»i bag'ridagi ma'naviy–ma'rifiy, ilohiy–irfoniy, axloqiy–falsafiy ziyo nuri asrlar, zabon-u makonlar osha yashab, sayqallangan, takommillashib, barkamol inson tarbiyasi yo'lida beminnat xizmat qilgan. Yaxshi g'oya, so'z va qadriyatlarning millati, makoni va zamoni bo'lmaganidek, ular pinhon ham qolib ketmaydi. Ezgulikka tashna qalblar uni, albatta, topib oladi. Kuzatganimiz ayrim lavhalar ayni paytda adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning nihoyatda murakkab ijodiy hodisa ekanligidan dalolatdir. Shayx Nizomiydan boshlangan badiiy mantiq zanjiri Xusrav Dehlaviy, Abdurrahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ijodida davom etdi. Forsiy zabon ozar adabiyoti Shayx Nizomiy siymosida fors–tojik, o'zbek va yana bir qator xalqlar badiiy so'z san'atiga o'zining samarali ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Alisher Navoiyning Muhammad Fuzuliy (1498-1556) adabiy merosiga ko'rsatgan ijodiy ta'siri tufayli (xususan «Layli va Majnun»da) Shayx Nizomiy dahosining hayotbaxsh ma'naviy–ruhiy olami o'zbek adabiyoti vositachiligida yana o'z ona xalqqi adabiyotiga g'oyaviy rahnamolik qildi.

O'sha ma'noda Shayx Nizomiy keyingi davrning aksariyat ijodkorlari (o'zbek, fors – tojik, turkman, ozar...) uchun bilvosita ustoz bo'lib qoladi...

3.«Panj ganj» dostonlarini erkin – ijodiy tarjima qilish. Nizomiy Ganjaviyga payravlik (izdoshlik) qilishning uchinchi yo'nalishi adabiy aloqa va o'zaro ta'sirning faol shakli – tarjima san'atiga bog'liqdir. Bu toyifaga mansub tab' ahli ikki tomonlama ijodiy mehnatni o'z zimmalariga olgan : Birinchidan, Shayx Nizomiy mahorat maktabidan o'rganish, unga payravlik qilish va javobiya yaratish; ikkinchidan, ulug' ozar ijodkorining sehrgar qalami va yuksak tafakkuri tuhfa etgan go'zal ma'naviy xazinadan turkiy tilda

so’zlashuvchilarni bahramand etishdan iborat edi. O’zbek ijodkorlari Qutb va Haydar Xorazmiylarning (XV asrning birinchi yarmida yashashgan) ana shu yo’ldagi xayrli qadamlari g’oyat ibratlidir. Shunday qilib, tarix hukmi, davr taqazosi bilan Ozarbayjonda yaratilgan dilbar asar fors–tojik tili orqali juda katta hududdagi kitobxonlar o’rtasida shuhrat topdi, ularning ma’naviy adabiy boyligiga aylandi.

9.2. «Hayrat ul-abror» - muqaddimaviy doston. Asarning tuzilishi, maqolot va hikoyatlar tahlili

«Hayrat ul-abror» - Alisher Navoiy «Xamsa» sining birinchi muqaddimaviy – rejanoma dostoni. Mazkur asar o’z navbatida «Xamsa» uchun g’oyaviy-mazmun nuqtayi nazaridan yo’naltiruvchilik ahamiyatiga molik. Unda lo’nda xulosalar holida bayon etilgan dono fikrlar , komil insonga xos noyob fazilatlar talqini «Xamsa»ning boshqa dostonlarida mantiqiy rivojlantiriladi, takomiliga yetkaziladi. «Xamsa» dostonlarini ana shu shoh asardan ibtido topuvchi pishiq, o’ylangan tafakkur zanjiri bir-biriga bog’lab tutashtirib turadi. Doston 63 bobdan tarkib topgan bo’lib, uning 21 faslini an’anaviy muqaddimaviy boblar, 40 bobini – 20 maqolat va 20 hikoyat, qolgan ikki bobini esa – xotima va bir hikoyat tashkil etadi. Asarning o’z ichki bo’linishlariga ega bo’lgan an’anaviy-muqaddimaviy boblari, insonning ijtimoiy hayotdagi o’rni va ma’naviy kamolotiga bag’ishlangan maqolat hamda ulardagi fikrlarning tasdig’i uchun keltirilgan hikoyatlari ham mohiyat e’tibori bilan butun «Xamsa»ning boshlanmasi sanaladi. Muqaddimaviy boblar bir – biri bilan mantiqan chambarchas bog’liq bo’lib, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1.Hamd, munojot va na’tlar (1-11-boblar). Bunda ikki hamd, to’rt munojot va besh na’tga o’rin berilgan.

2.Ulug’ salaflar, zamon hukmdori va so’z ta’rifi (12-16 – boblar). Mazkur boblarning dastlabkisida ikki ulug’ xamsanavis Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy, keyingi to’rttasida esa Nuriddin Abdurrahmon Jomiy, so’z ta’rifi va Sulton Husayn Boyqaro haqida fikr yuritiladi.

3.Ko’ngil ta’rifi, uch hayrat va Bahouddin Naqshband vasfi (17-21-boblar).

An’anaviy boblar «Hayrat ul-abror»ning dasturiy–rejanoma doston bo’lishi uchun zamin hozirlaganini bir misol asosida izohlashga harakat qilamiz. Ma’lumki, asarning ilk misrasini «Bismillohir – rahmonir rahim» ilohiy jumlasi tashkil etadi. Jami bir yuzi ikki misradan tarkib topuvchi ushbu

bobda boshdan oxir o’sha "Mehribon va rahimli Olloh nomi bilan (boshlayman)" ilohiy jumlasiga badiiy talqin beriladi. Harf san’atiga tayangan ulug’ shoir, nafaqat so’zlarda, balki o’sha so’zlarni yozuvda aks ettirishga ishtirok qiluvchi har bir harfga keng mazmunli hamda badiiy bo’yoqdor talqinlar beradi. Ulug’ shoir harflarni sharhlar ekan, ilohiy jumlaga munosabat qiluvchining ko’ngil holatiga ko’ra, istiqbolga keluvchi kayfiyatini (yaxshi yoxud yomon) alohida urg’u bilan ko’rsatadi.

Musulmon dunyosida amalga oshiriladigan har bir savobli, xayrli ishning «Bismllohir – rahmonir rahim» ilohiy jumlasi bilan boshlanishi muqaddas an’anadir. Zamonasining yetuk va komil musulmoni bo’lgan Alisher Navoiy esa o’sha an’anaga rivoya qilishni sharaf hisoblagan. «Hayrat ul - abror» birinchi bobining ayni muqaddas mavzuga bag’ishlanishi fikrimiz dalilidir. «Xamsa»dan o’rin olgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ayi sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari boshida - birinchi bobida o’sha ilohiy jumla ko’zga tashlanmaydi. Shayx Nizomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurrahmon Jomiy singari Alisher Navoiy ham «Xamsa»ni yaxlit jism, o’zaro mantiqan bog’langan dostonlar turkumi sifatida qabul qilgani uchun ham shu yo’ldan boradi. Ikkinchidan, «Hayrat ul-abror»dayoq keyingi dostonlarga taalluqli ishora-yu lavhalar singdirilib boriladi. Shundan bo’lsa kerak, har bir dostonning oxirida «Hayrat ul - abror»ga daxldor xulosa bor, ammo yakuniy xutba – duo yo’q. Butun «Xamsa»ning xotima-yu xutba – duosi «Saddi Iskandariy» dostonining oxirida beriladi. Bunday janriy belgilarni yana qatorlashtirish mumkin. Fikrimizcha, bildirilgan mulohazalarimiz ham «Xamsa»ning yaxlit asar ekanligini ko’rsata oladi. Shunday ekan, aytish mumkinki, «Hayrat ul-abror» Alisher Navoiy «Xamsa»sining muqaddimaviy – dasturiy dostoni ekan, «Saddi Iskandariy» uning xulosaviy – xotimaviy masnaviysidir.

«Hayrat ul-abror» qomusiy asar bo’lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o’ta dolzarb bo’lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug’ mutafakkirning teran axloqiy–ma’naviy, ijtimoiy–falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. Turkiy adabiyot tarixida bunday asarlar ramziy-majoziy obrazlarning turli masalalarga oid savol-javobi (Yusuf Xos Hojib «Qutadg’u bilig») yoki asar muallifining hadislarga tayanib insonning ma’naviy kamolatga yetkazuvchi fazilatlari hamda uni jaholat botqog’iga chorlovchi nuqsonlarini qiyoslash (Ahmad Yugnakiy «Hibat ul-haqoyiq») uslubi bilan vujudga kelgan bo’lsa, Nizomiy Ganjaviy ilk dostonining erkin-ijodiy tarjimasi bo’lgan Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror»ida kuzatilgani singari «Hayrat ul-abror»da ham ijodkorning

barkamol shaxs haqidagi o’ylari maqolatlarda yorqin in’ikosini topgan. Asardagi hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g’oyalarni o’quvchi shuuriga yanada teranroq ta’sir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishiga imkon yaratadi. Dostondagi maqolatlar sarlavhalarining o’zi asarda komil inson ulug’langanligidan dalolat beradi:

1-maqolat: «Iymon sharhida».
2-maqolat: «Islom bobida».
3-maqolat: «Salotin zikrida».
4-maqolat: «Riyokorlik – firibgarlik haqida».
5-maqolat: «Xayr-u ehson vasfida».
6-maqolat: «Adablilik odati haqida».
7-maqolat: «Qanoat haqida».
8-maqolat: «Vafo haqida».
9-maqolat: «Ishq o’ti ta’rifida».
10-maqolat: «Rostlik haqida».
11-maqolat: «Ilm osmonining yulduzlaridek baland martabaliligi haqida».
12-maqolat: «Qalam va qalam ahillari haqida».
13-maqolat: «Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida».
14- maqolat: «Osmonning tuzilishidan shikoyat».
15-maqolat: «Jaholat mayi».
16-maqolat: «Xunosasifat oliftalar».
17-maqolat: «Bahor yigitligining sofligi haqida».
18-maqolat: «Falak g’amxonasi haqida».
19-maqolat: «Xurosonning misli yo’q viloyati haqida».
20-maqolat: «Maqsadning o’talganligi haqida».

Ulug’ shoir nuqtayi nazarida iymon–komillikning tayanch belgisi. «Hayrat ul abror» birinchi maqolatining iymonning badiiy sharhiga bag’ishlanishi ham shundan dalolatdir. «Xamsa»ning tayanch masalasi insoni komilning zamonlar imtihonidan o’tishga yaragulik ibratli timsolini yaratish ekan, ulug’ shoirning mavzu ibtidosini iymondan boshlashi tasodifiy emas, albatta. Iymon–islom dargohiga boshlovchi yo’l, unga olib kiruvchi eshikdir. Iymondan so’zlanganda, mantiqiy tafakkur rishtalari islomga borib taqalishi bois ham «Hayrat ul abror»ning ikkinchi maqolati islom ruknlari talqiniga bag’ishlangan. Mazkur bobda shu ulug’ e’tiqodni tutib turgan besh rukn xususida birin-ketin badiiy mushohada yuritiladi.Tabiiyki o’sha qarashlarning ibtidosini «La ilaha illalloh» shahodat kalimasi tashkil etadi, ya’ni islomning birinchi tayanch ustuni kalimayi shahodatdir. Bunda Allohning bir-u borligi, azaliy-u abadiyligini e’tirof qilishdan tashqari, Muhammad Mustafoning Uning

rasuli, elchisi ekanligi masalasi ham bor. Ana shu mo’tabar g’oya har bir iymonli mo’min-musulmonning tilidan tushmasligi vojib. Bu hali hammasi emas. O’sha muborak tuyg’u dildan ham mustahkam o’rin olmog’i shart. Sidq-u sadoqati butun insonlarda til va dil muvozanatining tanosubi o’zak masala hisoblanadi. Salot – namoz, savmaa – ro’za, zakot muqaddas haj tavofi singari ruknlar negizini ham insonning ruhiy-ma’naviy poklanishi bilan aloqador murakkab jarayonlar tashkil qiladi. Bular orasida ro’za ayricha sinov vazifasini o’tashi bilan ahamiyatlidir. Ulug’ shoir bu haqda quyidagicha fikr yuritadi:

Soyiri a’zoga xalal etmamak,
Shar’ xilofig’a shuru’ etmamak.
Har biri o’z shug’lig’ig’a zohid bo’lub,
Man’i xilof ichra mujohid o’lub.
Bormag’ay-u ko’rmag’ay-u tutmag’ay,
Aytmag’ay, eshitmag’ay-u yutmag’ay. (7, 115)

Keltirilgan iqtibosdan uch muhim xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, har qanday toat-u ibodat shu amallarni bajaruvchi insonning salomatligiga ziyon yetkazmasligi, aksincha, uning jismoniy-ma’naviy balog’atiga hissa bo’lib qoshilmog’i shart. Ikkinchidan, har bir sa’y-u harakat shariati islomning talab taqazolari doirasida ijro etilmog’i lozim. Uchinchidan, har bir islomiy rukn ijrosida iymoniy mukammalliksiz kutilgan natijaga yetib bo’lmaydi. Ana shu tamoyil ro’zaga ham tegishlidir. Islomiy ibodatning bu rukni ijrosi uchun tongdan oqshomga qadar (quyoshning chiqishidan sal oldinroq va uning botishidan keyin bo’lgan muddat ichida) yeyish hamda ichishdan tiyilishgina kamlik qiladi. Alisher Navoiyning qat’iy ta’kidlariga binoan ro’za tutishdan kuzatiladigan maqsadni to’la yuzaga chiqarmoq uchun insonning jismidagi barcha a’zolar bahamjihat harakat qilmoqlari lozim. Ya’ni qo’l harom narsa-yu ishlarga cho’zilmasligi, oyoq noravo joylarga olib bormasligi, ko’z noloyiq narsalarni ko’rmasligi, burun biror noxush hidni sezmasligi, yurakdan ikkilantiruvchi holatlarni kechmaslligi.. . Ko’rinadiki, o’rtaga qo’yilgan barcha axloqiy-ma’naviy tamoyil-talablar bir nuqtaga – inson tabiatida mavjud bo’lgan nomaqbul xatti-harakatlarga qarshi qaratilgan. Alisher Navoiy o’zining shar’iy-axloqiy mulohazalarini ibratli hayotiy lavhalar bilan dalillash maqsadida musulmon dunyosida dovruqli mutasavvif Ibrohim Adham haqidagi she’riy hikoyatini keltiradi. Mazkur lavhalarda yana bir taniqli ma’naviy-ruhiy arbob Robiyayi Adviya ham ishtirok etadi. Ibrohim Adham o’n to’rt yil sahro kezib Makkayi mukarramaga yetib keladi. Ammo Ka’batulloh o’z o’rnida yo’q ekan. O’sha muqaddas makonda hozir bo’lganlar muborak sajdagohning Robiyayi Adviya istiqboliga chiqqanligini ma’lum qilishadi. Tabiiyki, bunday

kutilmagan hodisa Ibrohim Adham fig'onini falakka ko'taradi. Shunday qilib, Ibrohim va Robiyaning Uchrashuvi hamda muloqotlari voqe' bo'ladi. Ibrohim Adhamning fig'onli savollarini tinglagan bokira-yu zakovatli ayol Robiya quyidagicha javob qaytaradi:

Robiya dedi anga: «Ogoh bo'l»,
Kim necha yil bodiyada borcha yo'l.
Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak,
Sheva manga arzi niyoz aylamak.
Sanga samar berdi namoz-u riyo,
Bizga bu bar berdi niyoz-u fano». (7, 120)

Ka'batullohning Robiyai Adviyaga bir qadar ehtirom-u, Ibrohim Adhamga tamomila teskari munosabatda bo'lishining sababi nima? Axir, Ibrohim Adham ham umrini Alloh va uning vasliga muyassar bo'lishdek ulug' orzuga baxsh etganligi ma'lum-ku? Masalaga zohiran nazar tashlaganda, go'yo Ibrohim Adham faoliyatidagi hamma narsa o'z o'rniga turganday namoyon bo'ladi. Aslida uning e'tiqodi yo'lida, zohir va botini o'rtasidagi tanosubi oz bo'lsa-da ozor topgan. Alloh nazarida faqat toat-u ibodatgina emas, inson shar'iy ahkomlarni ijro qilish bilan birga, o'zini atrofdagilar, dindoshlariga ezgu ishlar qilishga ham bag'ishlamog'i lozim. Robiyayi Adviyada ana shu nuqta ham mujassam edi. Ibrohim Adham faoliyatida esa, ayni masalada norasoliklar mavjud edi. Hamma narsani ko'ruvchi, biluvchi, sezuvchi, baholovchi Parvardigorga o'sha bo'shliq ayon bo'lgan edi. Shuning uchun Alloh ana shu qaltis nuqtani suyukli bandasi Robiya ko'ngliga solib uning tili orqali oshkor ayladi. Bu ikki mutasavvif o'rtasidagi yuzma-yuz muloqot jarayonidagi holatning badiiy tasviri esa ilohiy karomatdan kichik bir lavhadir, xolos. She'riy parchada ramziylik ham nazarga tashlanadi. Bodiyaning ma'nosi arablarning bepayon va qaqragan sahrosini anglatadi. Ko'chirilgan iqtibosda bodiya Ibrohim Adhamning ibodat-u tariqat yo'lida sarflangan umri ma'nosini ham ifodalagan. Yuqorida ta'kid qilganimizdek, sidq-u sadoqat, e'tiqod-u ibodat jabhasida faqat rostlik yarashadi. Unda qilcha bo'lsa-da nazarga tashlanadigan bo'shliq katta o'pirilishday namoyon bo'lishi va kutilmagan salbiy oqibatlarga olib kelishi ham muqarrar. Xuddi shunday hodisa Ibrohim Adham bilan sodir bo'ldi. Fojeaga teng qo'yish mumkin bo'lgan o'sha bo'shliq Robiya javobida mujassam: Uning namozida zohidlarcha riyokorlik (o'zini yomonliklardan saqlagan qilib ko'rsatish, ikki yuzlamalik) alomatlari borligi tufayli Ibrohimning nafasi o'tmaslashib qolgan. Robiyaning islom va tariqat dargohidagi barcha sa'y-u harakatlarida «arzi niyoz» (sidqan Yaratganga yalinish, yolvorish, umid-tavakkulga ko'ngil bog'lash) mayli hukmronlik

qiladi. Tavakkul –tasavvufda bir maqom, mutavakkilning ko'pligidagi manzil. U bor joyda tama' bo'lmas. Ikkinchidan, solik yoxud iymonli shaxsning turmush ikir-chikirlari haqida bosh qotirish, mol-mulk va hokazolar haqida o'ylashga tob-u toqati ham, vaqti ham bo'lmaydi. U o'zini to'la Alloh panohiga topshirgani holda, toat-u ibodatini sidq bilan amalga oshiradi. Bunday yo'lning ibrati Robiyaning qismatidir. Fikrimizcha, «Hayrat ul-abror»ning hamd, munojot, na't boblari, iymon-u islomga, ulug' shayx-u tariqat peshvolariga atalgan sahifalarida ilohiy-islomiy bo'yoqning quyuqlashtirilishi zamirida ham ana o'shanday mazmun-mohiyat mujassam. Ular – ibrat, o'qilmagan hayot sabog'i, murdorlik, bulg'anishlardan hazar qilishga da'vat, ezgulik, rostlik, sidq-u sadoqat, luqmayi halolga intilish, qanoat panohida ma'naviy-ruhiy olam ostonasini tavof qilishga chaqirishdir. Ayni choqda bu o'lmas mavzular «Xamsa»ning boshqa masnaviylari uchun ham tayanch omil sanaladi. Istiqlol mafkurasining tayanch maqsad-muddaosi ham ana shunday komillik sadoqatiga yo'l solishdan iboratdir.. .

Alisher Navoiy mulk-mamlakatni malik - podshosiz tasavvur qila olmaydi. Jumladan, «Xamsa»ning bosh qon tomirini ham mamlakat va poshsho mavzusining rang-barang qirralarini badiiy talqin qilish tashkil etadi, desa sira xato bo'lmaydi. Mazkur masala «Xamsa» tarkibidagi dostonlarni o'zaro tutashtiruvchi oltin zanjirni eslatadi. Uning bosh halqasi esa «Hayrat ul-abror»dan mustahkam joy olgan. Masnaviyning uchinchi maqolati «Salotin zikriga» bag'ishlanadi. Ayni ana shu sahifalarda ulug' shoirning ibratli podsho (shohi g'oziy) qiyofasining yorqin chizgilariga duch kelamiz. Avvalo, aytish joiz, Alisher Navoiy nuqtayi nazaridan podsholar ikkiga: shohi g'oziy (odil), shohi zolimga taqsimlanadi. Bunday tasnif shoirning qit'a-yu g'azallarida ham uchraydi, ammo podshoga nisbatan fikrini yorqin ko'rsata olish uchun «vase'» - keng maydon deya ta'riflangan masnaviyning imkoniyatlari ancha qo'l keladi. Doston muallifi shoh qiyofasi manzaralarini chizishga jazm etar ekan, «Hayrat ul-abror»ning uchinchi maqolatida uning qismatida kuzatilishi muqarrar bo'lgan bir-biriga zid har ikkala nuqtani yonma-yon tasvirlashni ma'qul ko'radi.

Hotami adlingga sipehri baland,
«Rosti-yu rusti» bilan naqshband. (7, 122).

Podsholik tojining kimgadir muyassar bo'lishi – Allohning o'sha insonga ko'rsatgan behad marhamatidir. Ikki olam sarvari taxtni ravo ko'rgan bandasiga Hotam ulkanligi niginli (muhrli) uzuk taqishni ham ravo ko'rdi. Shu bilan barobar uning muhriga «rosti-yu rusti»ni naqsh etdi. Ya'ni Allohning hifzi panohida bo'lishni istagan podsho davlatni adl-u amniyat bilan idora

qilmog’i lozim. Shuningdek, muhrida o’yib yozilgan «rosti-yu rusti» - kuch adolatdadir, rostlik – halolllik, rostlik – iymonlilik, insofga tayanishdir kabi dasturiy bitiklar odil podsho kunlik faoliyatining negizini tashkil etmog’i lozim. Ikkinchi misra oxirida kelgan «naqshband» so’zining qo’llanishida iyhom – so’zning yaqin va uzoq ma’nolarini nazarda tutish san’ati mavjud. Ushbu so’zning birinchi talqinini «rosti-yu rusti» naqsh, zeb-u ziynat misol uzugingga o’yib yozildi, tarzida yakunlash mumkin. Alisher Hazratlari komil naqshband edi. Buyuk mutafakkir shu tariqat soliki ekanligi bilan faxrlangan. Ikkinchidan, naqshbandiya tariqati ta’limotining ham podsho yelkasiga yuklaydigan ma’suliyati "rosti-yu rusti"dir. Alisher Navoiy ana shu haqiqatga ishora qilmoqda. Bobda shohlik tojini kiyib, bosar-tusarini yo’qota boshlagan, ma’rifat-u ma’naviyati past podsholar bilan qizg’in bahsga kirishiladi:

Bil munikim, sen dag’i bir bandasen,
Ko’pragidin ojiz-u afgandasen. (7, 122)

Ulug’ shoir ming marta haq. Podsho ham yer farzandi. Uning jismida ham to’rt unsur muttahiddir. Ba’zan o’shalar jazaba qilib bosar-tusarini ham bilmay qolishi mumkin. Shuning uchun mutafakkir adib uni ogohlantiradi. Butun bob davomida mamlakat boshlig’ining fazilat-u nuqsonlarini badiiy tasvirlash mayli hukmronlik qiladi. Maqolatda o’rtaga qo’yilgan mulohazalarining tasdig’i sifatida o’quvchiga «Shohi G’oziy va tilla kampir» haqidagi she’riy hikoyat taqdim etiladi. Unda hikoya qilinishicha, Shohi G’oziyning yurishlaridan birida mamlakatda yashayotgan bir kampirning yakka-yu yagona o’g’li shahid bo’ladi. Taxt egallanganda, podsho shahid bo’lgan yigit va uning onasini unutadi. Boquvchisini yo’qotgan kampir moddiy jihatdan ancha qiynaladi, kunining o’tishi og’irlashib qoladi. Kunlardan birida podshoning kelishi haqidagi xabar kampirga yetadi va u ham hukmron istiqboliga chiqadi. Munkillagan asosiga tayangan kampir Shohi G’oziyning yo’lini to’sadi va uni zolimlikda ayblaydi. O’tmish voqealarini to’g’ri eslay olmagan hukmdor shariat qozisiga murojaat qilib, masalani yetarli o’rganish lozimligini aytadi. Shunday qilib, kampir haq bo’lib chiqadi. Bunday vaziyatdan noqulay ahvolga tushgan tojdor otdan tushadi, bir qo’lida yalang’och qilich, ikkinchi qo’lida esa oltin to’la hamyonni tutgan holda kampirga qarata aytadi: Ey ona, o’g’linggiz xunini istang, xun bilan, istasangiz pul bilan oling! Hayratangiz bunday manzara kampirga qattiq ta’sir qiladi. U shohga murojaat etarkan, aytadi: - Sen odil inson ekansan. Agar men o’z tirikchiligimni o’zim tashkil qila olganimda edi, o’g’limning xunidan jo’mardlik va adolating uchun kechgan bo’lardim. Biroq bugun mening iqtisodiy ahvolim tang bo’lgani uchun hamyonni tanlashdan boshqa choram yo’q. Hikoyatga shunday xotima yasaladi:

Zolni anjuyi kibi siymi ravon,
Zoli falakdek qilibon navjuvon.
Sim kuchidin bo'lubon simbar,
Xalq laqab aylab anga «Zoli zar» (7, 132)

Shohning otdan tushib, asoga suyangan kampir yoniga kelishi, uning arz-u dodini tinglashi, bir qo'lida qinidan sug'irilgan qilich va ikkinchi qo'lida tilla to'la xaltachani tutib turishi – bularning barchasi ulug' shoirning kitoblar sahifasida qolib ketgan shirin orzularidir. Alisher Navoiy ana shunday shohning saltanat surishini o'zining maktabdoshi, do'sti Husayn Boyqaro misolida real hayotda ko'rishni juda-juda istar edi. Biroq istak va hayotning, badiiy adabiyot sahifalari va saroy muhitining mutlaqo boshqa-boshqa narsalar ekanligi, ularni murosaga keltirish, yagona yo'ldan yurgizish noimkonligini yetuk ijodkor achchiq tajribalari qiyosida ko'p marta ko'rdi. Lekin orzu-orzuligin qildi. Ulug' Alisher Navoiy qalbi orqali kitoblarning nurli sahifalariga ko'chib, insoniyat avlodiga ibrat bo'lish, zarra qadar bo'lsa-da ta'sir ko'rsatishda davom etayotir.

Alisher Navoiyning shoh va shohlikka doir bunday mulohazalari «Hayrat ul-abror»dan o'lmas «Xamsa» tarkibidagi boshqa dostonlarga ko'chdigina emas, yangi-yangi talqinlarini topdi.

«Hayrat ul-abror»ning beshinchi maqolati karam ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, 108 baytdan tashkil topgan. Karam – komil inson qiyofasida, umuman, inson umri va uning taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga molik fazilatdir. Karam – saxovat, himmat, ehson, marhamat, oliyjanoblik, yaxshilik, ochiq qo'llilik, javonmardlik singari xilma-xil qirralarga ega. Tarix qavatlarida jo'mardlik, javonmardlik nomlari bilan tildan tushmay kelgan bu atama komillikka, ma'naviy-ruhiy balog'atga olib borishi lozim bo'lgan yo'llardan (tariqatlardan) biri sifatida ma'lum. Uning bosqich-zinalari esa karam talqinlarida mujassam. Shundan bo'lsa kerak, Alisher Navoiy ana o'sha qirralarning har birini ayricha ixlos-u urg'u bilan bo'yoqdor yoritish yo'lidan boradi. Maqolat ibtidosidayoq zamin-u samovotning alohida e'tibor qilishga arzigulik voqea-hodisa, harakat-holatlari ulug' shoir muddaolarini yuzaga chiqarish, ularning ko'p sonli kitobxonlarga bekam-u ko'st yetkazilishi yo'lida beminnat xizmatga shay turadi. Aytilganlar nuqtayi nazaridan, quyidagi baytlarni tahlilga tortib ko'raylik:

Ey tushub egningga karam kisvati,
Qolmayin ilgingda diram qiymati.
Panjang o'lub siym fishonlikka fosh,
Mashriq-u Mag'ribda nechukkim quyosh. (7, 143-144)

Maqolatning birinchi satridayoq ulug’ shoirning g’oyaviy niyati o’zini ko’rsatib qo’yadi. Saxovatpeshalik – oliyjanoblik. Maqolat markazida ijobiy fazilatlari bilan salobat to’kib turgan qahramon, eng avvalo, ayni ana o’sha jihati bilan ulug’ shoirga manzur va uning mehr-u oqibatini qozongan. Himmat va yaxshilikni nomigagina yuzaga chiqirib bo’lmaydi. Bu boradagi sun’iylik va soxtalik darrov o’zini ko’rsatib qo’yadi. Shundan bo’lsa kerak, Alisher Navoiy ta’sirni o’zak masaladan boshlashdan tashqari, yana bir haqiqatni qat’iyat bilan o’rtaga qo’yadi. Jo’mard yoxud oliyjanob inson bo’lib tug’ilish lozim. Tabiatan va sidqan moyillik bo’lmas ekan, bu jabhadagi barcha sa’y-u harakatlar bekorga ketaveradi. Fikrimzcha, birinchi satrda «kisvat»ni qo’llash zamirida ana o’sha maqsad yotadi. Kiyim, ust-bosh ma’nosidagi o’sha so’z mantiqiy urg’u vazifasini o’taydi. Saxovatpeshalik shu yo’lni qismat qilgan insonning zohir-u botinidan anglashilib turishi lozim. Shunday bo’lsagina u pul «jinni»ligidan xalos bo’ladi, eng mayda chaqani ham mushtumiga mahkam tutib, uni «tug’dirish» ilinjida tunlarni tongga ulamaydi. Ochiq va himmatli panjalar sifatida shuhrat qozonadi. Bunday manzaralardan sarxush shoir himmat ko’rsatadi, o’sha panjalarni quyosh bilan yonma-yon qoyadi. Shams – yaxshilik, himmat-u saxovat izmida bo’lganlarning sarxayli. Bu borada tanlov uning uchun begona, Sharqdan G’arbgacha bo’lgan bepayon hududda birday nur sochaveradi. Himmat va saxovatni hayot dasturiga aylantirgan inson ham quyoshdan ibrat olishi va «siymfishonlikka» (siym – kumush, tanga aqcha, yorning badaniga nisbatan rangni: oq, oppoq va silliqni anglatadi. Fishon - sochuvchi) uning yo’lini davom ettirishi lozim. Saxovat – tama’dan yiroq. Oluvchi olganini qaytara oladimi (o’zini yoxud ortig’i bilan), yo’qmi, beruvchi uchun masalaning bu jihati ahamiyatsiz bo’lmog’i lozim. Shuning uchun satrda quyosh va saxiy odam yonma-yon turibdi, hatto quyosh ibrat darajasiga ko’tarilgan. Ulug’ shoir kitobxon e’tiborini yana muhim bir masalaga jalb qilishini ham unutib qo’ymaydi. Barcha sohada hudud va me’yor bo’lgani kabi saxovatning ham chegaralari bor. Alisher Navoiy mavzuning shu jihati ustida jiddiy bahs yuritadi. Shuningdek, baxil – baxillik, qurumsoqlik, xasislik bilan bog’liq masalalar ham qalamga olinadi:

Aqlki ta’rif etar avsofni,
Buxl bila teng tutar isrofni. (7, 145)

Maqtov, shon-shuhrat uchun sochilgan mol-mulk saxiylik emas. Hamisha va hamma yerda inson aql-u farosat doirasidan chetga chiqmasligi lozim. Isrof – illat. Hatto behuda isrofgarchilik xasislik bilan barobardir. Ulug’ shoirning takror va takror ta’kidiga ko’ra, aql-u farosat tamoyillariga zid har qanday harakatning oqibati yaxshilikka olib kelmaydi. Alisher Navoiy

nazdidagi saxovatli inson quyidagi baytlarda o’z ifodasini topgan ezgu fazilatlar sohibidir:

Oni saxiy anglag’il, ey xushmand,
Kim ani davlat qilibon sarbaland.
Holi agar yaxshidurur, gar taboh,
Kimsadan etmas tama’yi mol-u joh.
Ham neki haq bersa qanoat qilur,
Ham neki amr etmish itoat qilur. (7, 148)

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror»ning beshinchi maqolatida vujud-vujudi bilan saxovatni targ’ib qiladi. Uning xayolga keltirish dushvor bo’lgan ochilmagan qirralarini kashf etishga erishadi. Biroq o’sha qarashlarning taqdiq muhri sifatida «Hotami Toyi va o’tinchi chol» hikoyatini taqdim qiladiki, uning ayni lavhalari mazmuni boshqacha.. . Hotam – musulmon dunyosida saxovat timsoli. U haqida behisob asarlar yaratilgan. Ulug’ o’zbek shoiri she’riy hikoyatining qahramoni ham o’sha Hotami Toyidir. Kunlardan birida Hotamning suhbatdoshlaridan biri «dunyoda o’zingdan ham himmatliroq odamni ko’rdingmi?» - deb so’raganda, u javob beradi:

Dediki: «Bir kun qilibon joshni om,
Indab edim bodiya ahlin tamom .
Matbax aro yuz teva qurbon edi,
Qo’y-u qo’zi behad-u poyon edi.
Bazm ichidin dasht sori bir nafas,
Kasbi havo aylamak ettim havas.
Sayrda ko’rdum bir asiri mihan,
Bir quchoq orqasiga yuklab tikan. (7, 152)

Shakllangan an’anaga ko’ra haftaning muayyan kunlaridan birida nochor-u nokom, beva-yu bechoralar Hotamning hovlisida yig’ilishib, «Yuz tuya va behad qo’y-u qo’zilar»ni so’yib xayriya taomlari pishirib yeb ketishar ekan. Ana shunday kunlardan birida, bazm avjiga chiqqan paytda Hotam tanholikni qo’msab qoladi va hovlisining orqasida joylashgan katta sahroga chiqadi. Sahro sayri paytida uning ko’ziga uzoqdan bir qora ko’rinib qoladi. Dastlab o’sha namoyon bo’lgan qora to’rt oyoqli bir jonzotday ko’zga tashlanadi. O’rtadagi masofa yaqinlashgach, Hotam munkillagan, aftoda, asoga suyanib qadam tashlaydigan bir cholga ro’baro’ keladi. Fartud chol bir orqa yontoqni ko’tarib olgan, aso yordamida bir qadam qo’yadi va nafasini rostlab olib, yana harakatni davom qiladi. Alisher Navoiy o’sha manzarani quyidagicha badiiy aks ettirgan:

Jismi uyin aylabon ul yuk nigun,

Tirkabon ul uyga asodin sutun.
Har qadam olg'uncha tinib muddate,
Har nafas urg'uncha o'tub muddate. (7, 152)

Ulug' shoir yantoqfurush cholning davron va yillar azobidan zada bo'lgan, bujmaygan jismini tom yuki bosib qolgan uyga o'xshatadi. Badiiy topqirlik va qiyosni davom ettirgan muallif hayotiy lavhalarni satrga olib kirish san'atiga zo'r beradi. Fatorat uyning tomi bosib qolmasin uchun unga yordamchi ustun va tirgaklar qo'yish turmushdagi odat. O'tinchi cholning jism uyi ham shunday yordamga muhtoj. Shuning uchun u aso ushlagan va har qadamda unga tayanmay iloji yo'q. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, uning hayot tashvishlari oldida taslim bo'lgisi, kimningdir minnatli taomi bilan kun ko'rgusi kelmaydi. Oxirgi nafasigacha mehnat noni lazzatini his etib yashashni afzal ko'radi.. . Hotami Toyi unga murojaat qilib aytmoqda:

Ki – ey qadin emgak yuki past aylagan,
Jismda g'amxori nshast aylagan.
Dasht aro go'yoki xabar bilmading,
Hotam uyi sori guzar qilmading?
Da'vat etib asr-u farovon bukun,
Qildi yomon yaxshini mehmon bukun.
Tashla tikan, gulshani izzatqa yet,
Chekma mashaqqat ko'p-u da'vatqa yet. (7, 153)

Yantoqfurush chol Hotami Toyini tanimaydi. Yelkasiga ko'tarib olgan yantog'i bilan uning so'zlarini tinglaydi. Asoga tayanib, orqalab olgan yukini yerga qo'yadi va peshonasidagi marjon-marjon terlarini sidirib tashlab, Hotami Toyiga nigohini qadab javob beradi:

K-ey solibon hirs ayog'ingga band,
Ozu tama' bo'ynug'a bog'lab kamand.
Vodiyi gayratga qadam urmag'on,
Kunguri himmatg'a alam urmag'on.
Sen dag'i chekkil bu tikan mehnatin,
Tortmag'il Hotami Toy minnatin.
Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
Yaxshiroq andinki birov bersa ganj. (7, 153)

Alisher Navoiy talqinidagi Hotami Toyi karam – himmat, saxovat timsoli bo'lish bilan bir qatorda, adolatli, xolis va rostgo'y inson qiyofasida ham namoyon bo'ladi. U o'tinchi cholning dadil va asosli javoblari oldida lol qoladi, uning qat'iyatini mardona tan oladi. Himmat masalasida savol bergan suhbatdoshiga quyidagicha yakuniy javob qaytaradi:

Ulki yanglig’ so’zi mavzun edi,
Mendin aning himmati afzun edi.(7, 153)

Bu aslida Alisher Navoiyning ham «yuz o’lchab, bir kesilgan» xulosasi. Naqshbandiya tariqat-u ta’limoti, umuman, inson tabiatidagi barcha ezguliklarning oshuftasi bo’lgan ulug’ shoirning boshqacha xulosa payidan bo’lishi aslo mumkin emas edi. She’riy hikoyatdagi Alisher Navoiyning o’z xulosasi tajassumini topgan mana bu satrlari ham bizning mulohazalarimizni quvvatlaydi:

Himmat agar bo’lsa Navoiy sanga,
Banda durur Hotami Toyi sanga.
Soqiy, ayoq tut, karam izhor qil,
Bazmin Hotamg’a namudor qil. (7, 153)

Hotami Toyi himmat bobida o’tinchi cholni o’zidan ustun qo’ygan ekan, bu o’z navbatida ulug’ shoirning ham hukmidan aks-sado beradi. Darvoqe, ixchamgina she’riy hikoyatda o’tinchi chol mehnat kishisining timsoli sifatida ishtirok etadi. U o’zining xislat-xususiyatlari, dunyoqarashi, insonning yashashdan maqsadi, hayot va uning vaqea-hodisalariga teran va o’ychan nazari bilan diqqatni tortadi. Hikoyat mitti bo’lgani kabi o’tinchi chol ishtiroki ham unda bir lahzalikdir. Biroq ana shu «lip etib» ko’rinib, so’ng bedarak bo’lishiga qaramay, bu nuroniy va zahmatkash mo’ysafid o’zining mag’zli hamda mardona javoblari bilan o’quvchi nigohida saxovat, himmat, qanoat, halollik, poklik ramzi sifatida muhrlanib qoladi. Alisher Navoiy o’tinchi choldagi oliyjanoblikdan zavq olar ekan, uning yo’lini «Xamsa» tarkibidagi dostonlarda harakat qiluvchi juda ko’plab qahramonlar faoliyatida rivojlantiradi, xilma-xil qirralarini oshkor eta boradi. Albatta, bunday pandnomalar, dilkash manzaralar faqat kitob sahifalarining bezagi uchungina yaratilgan emas. Ular ulug’ shoirning avlodlarga vasiyati – ezgulikka, poklik – poklanish, halol mehnat noni bilan umr yo’lini bezashga shirin da’vatdir.

«Hayrat ul-abror»dagi maqolatlarda insonni ezgu amallar sohibi bo’lib, noqisliklardan mosuvo bo’lishga da’vat etilar ekan, fikr tasdig’iga xizmat qildirilgan hikoyatlar qahramoni sifatida turli ijtimoiy tabaqa vakillari tanlanadi. Shohi G’oziy (Sulton Husayn Boyqaro), Anushirvoni odil, Sulton Muhammad Xorazmshoh, Iskandar, Bahrom singari hukmdorlar, Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Robiya Adviya, Xoja Abdulloh Ansoriy, Shayx Iroqiy, Imom Faxr Roziy, Abdulloh Muborak, Hasan Robi’, Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr kabi tasavvuf ahli namoyandalari, shuningdek, darvesh va mehnatkash inson timsoli bo’lgan o’tinchi chol, oddiy xalq vakili hisoblangan ikki vafoli yor, yuksak insoniy fazilatlarni o’zida mujassamlashtirgan qoni’

javonmard va boylikka hirs qo’ygan tomi’ jahongard kabi obrazlar ishtirokida maydonga kelgan g’oyatda sermazmun badiiy lavhalarda insonni komillik rutbasida ko’rish g’oyasi hayotiy tamsillar bilan boyitiladi. Ko’rinadiki, ulug’ shoir dunyoqarashicha, inson qaysi tabaqa vakili bo’lishidan qat’iy nazar ma’naviy kamolot pillapoyalaridan odimlab bashariyatning komili darajasini egallashga haqli. Dostonda insonni ana shunday yetuklik sari yetaklovchi ma’naviy-ma’rifiy omillardan yana biri odob va hayo (oltinchi maqolat) xususida juda ibratli mulohazalar bayon etiladi. Ulug’ shoirning fikricha, insonga sharaf uning nasl-u nasabi yoki amal martabasidan emas, balki hayo-yu odobi tufayli keladi. Shu bois hayoning qatrasi tuproqni oltinga aylantiruvchi kimyoga qiyoslanadi:

Elga sharaf bo’lmadi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi hayo-yu adab.
Chunki yog’in manbayi o’ldi hayo,
Qatrasi tuprog’ni qilur kimiyo.
Bo’lmas adabsiz kishilar arjumand,
Past etar ul xaylni charxi baland. (7, 155)

Maqolatda behuda kulgu adabsizlikning belgisi deya talqin qilinadi. Adabning eng yaxshi sifati – tavoze’dir. Biroq ulug’ shoir bu borada ham me’yorga rioya qilish tarafdori. Chunonchi, gado oldida sajda qilish karamning belgisi bo’lmay, unga bir diram in’om etish saxovat namunasi sanaladi. Shuningdek, adib bola tarbiyasiga e’tiborni qaratib, avvalo, unga munosib nom qo’yish, yaxshi muallimga berib ilm o’rgatish ota-ona mas’uliyati ekanligini ta’kidlaydi. Ayni choqda ota- onaga hurmat ko’rsatish ham maqolatdagi o’zak masalalar qatoridan o’rin olgan:

Biri erur makrumati volidayn,
Bilki munung qilmog’idur farzi ayn.
Bu ikining xizmatini bir bil,
Har necha ifrot esa, taqsir bil.
Boshni fido ayla, ato qoshig’a,
Jismni qil sadqa ano boshig’a.
Ikki jahoningga tilarsen fazo,
Hosil et ushbu ikkisidin rizo.
Tun – kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.
So’zlaridin chekma qalam tashqari,
Xatlaridin qo’yma qadam tashqari.
Bo’lsung adab birla bori xizmating,

Xam qil adab «dol»i kabi qomating.
So’ngra rahmning silasin qarz bil,
Rahm o’shul toyifag’a farz bil. (7, 160)

Maqolat so’ngida odob va hayosi bilan podshohlik darajasiga ko’tarilgan Anushirvon haqidagi kichik bir hikoyat keltiriladi. Anushirvon shoh bo’lmasidan avval bir go’zalning ishqi bilan beqaror bo’lib qolgandi. G’uncha kabi ko’ngli to’la qon bo’lgan oshiq sirlarini pinhon tutar, toki mahvashning visoliga yetguniga qadar hisobsiz g’am-u anduhlar iskanjasida yashar edi. Nihoyat, bir gulzor ichidagi ovloq joyda ma’shuqasi bilan suhbat qurish baxtiga muyassar bo’lgan komgor (baxtli) oshiq yoriga tomon intiladi. Gul yuzli sevgilisi ham butun ixtiyorini Anushirvonga taslim qilgandi. Oshiq dilbarni quchish niyatida qo’l cho’zganida, ko’zlari banogoh nargis guliga tushadi. Odob va hayo bobida yakto bo’lgan Anushirvon holatida ajib bir o’zgarish sodir bo’ladi. Qo’llari o’z-o’zidan mahbuba tomon intilishdan voz kechib orqaga qaytadi. Bundan hayratlangan go’zal yor oshiqiga savol bilan murojaat qiladi:

Kim «Bu ne qo’l sunmog’u chekmak edi?!»
Posuxini shohi muaddab dedi
Kim: «Bu visol ichraki voqe’durur –
Nargisi shahlo ko’zi mone’durur» (7, 164)

Keltirilgan iqtibosdan anglashiladiki, Anushirvon holatining o’zgarishiga nargis gulining qarab turganligi sabab bo’ladi. Nargis – oq yoxud sariq rangdagi ko’zga monand shaklda ochiladigan gul turidir. Uning gulchalaridagi ko’zga shaklan uyg’unlik oshiq tasavvurida nargis nigohlarining bu voqeaga qadalganini eslatadi. Tabiiyki, muaddab shoh bundan xijolat chekadi. Ayni choqda ulug’ shoir tanlagan nargis timsoli o’quvchiga odob va hayo haqidagi ijodkor tushunchalarini yanada teran idrok etish uchun imkoniyat yaratadi. Ulug’ shoir insondagi bunday yuksak fazilat e’tiqodiy qarashlari samarasi o’laroq vujudga kelishini e’tirof etib, juda ibratli xulosani she’rxon hukmiga havola etadi:

Ayni hayo birla futuvvat anga,
Bermadi ul amrda quvvat anga.
Nargisini to’ldiribon yoshidin,
Qo’pti dog’i kechti ul ish boshidin.
To ani oxir bu arig’ niyati,
Buyla hayo shevasi xosiyati.
Jumlayi olam aro shoh ayladi,
Adlini olamg’a panoh ayladi.

Aysh, Navoiy, necha dilkash durur
Lek adab birla hayo xush durur. (7, 164)

Anushirvonning parichehra mahbubi visoliga erishgunga qadar behisob g'am-tashvishlar iskanjasida qolganligi, ammo shunday bo'lishiga qaramay, komgor sevishganlarning bir muddat visol lazzatidan bahramand bo'lishlaridan «voqif» bo'lsa-da, uni idrok etolmaydigan, elga oshkor etish imkoniyatiga ega bo'lmagan, tilsiz va dilsiz, faqatgina suratida ko'zga monandlik zuhur qilib turgan kichkina guldan uyalib bir oniylik nasib etgan visoldan voz kechishini izohlash mushkul. Alisher Navoiy buning sababini hayo va futuvvatdan deb biladi. Futuvvat XV asrda ancha ommalashgan javonmardlik tariqatidir. «Istiloh (termin) sifatida futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunali axloq bilan mashhur bo'lishni aytadilar, bu vajdankim, bunday odam hamisha axloqi bilan o'z kasbdoshlari, toyifa-tabaqasi orasida doimo mumtoz bo'ladi. Xos ta'rif yuzasidan esa futuvvat insoniy fitrat nuri zuhurining nafsoniy belgilar zulmatiga qarshi qo'yilishi, (shu zulmatni) yorib o'tishdan iboratdir» (Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Toshkent, 1994, 7-bet). Futuvvat kishidagi hamida va najib axloqni targ'ib qilar ekan, tabiiyki, shar'iy nikohsiz yaqinlashishni man' etadi. Anushirvon shu bois ko'zlariga yosh olib niyatidan qaytadi. Undagi yangi niyat, odob va hayo jumla olamaro adolatli shoh bo'lishiga sabab bo'ladi. Ulug' shoir esa aysh qanchalik dilkash bo'lmasin, odob bilan hayo xush ekanini uqtiradi. Bu ulug' falsafa insonni ezgu amallar sari chorlashi, jaholat va tubanlik botqoqlaridan asrashi, jamiyatni axloqsizliklardan forig' etishi bilan nihoyatda yuksak ahamiyatga molikdir. Tabiiyki, bu o'lmas g'oya «Xamsa»ning boshqa masnaviylaridagi Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Bahrom va Dilorom kabi pok sevgi sohiblari sarguzashtlari tasvirida yanada sayqallashdi, mukammallashdi.

«Hayrat ul-abror» ulug' shoirning insoni komil xususidagi falsafiy mushohadalari mahsuli sifatida vujudga kelgan asar bo'lib, uning o'ziga xos qurulmasi «Xamsa»dagi keyingi dostonlarga nur baxshida etib turgan quyoshni eslatadi. Dostonda Haq, olam, odam munosabatlari, iymon– e'tiqod, bashariyat taraqqiyoti, uning o'tmishi, buguni, kelajagi singari inson aqlining asrlar davomida fikrlashga undovchi muammolari xususida ulug' shoirning mutafakkirona qarashlariga badiiy zeb berilishi, asarning kishini tafakkur olamiga undovchi g'oyatda sermazmun hayotiy tamsillar bilan mukammallashtirilishi quyoshdan ayrilgan zarralarga xos munavvarlik namunalari bo'lsa, keyingi masnaviylarda o'sha o'lmas g'oyalarning yanada

sayqal topishi ezgulik nuridan nabotot olamining jonlanishi, fusunkorlik kasb etishini yodga soladi.

9.3. «Farhod va Shirin» - ishqiy sarguzasht doston. Asarning tuzilishi, mavzu va g'oyalar olami, yetakchi qahramonlari

«Farhod va Shirin» - Alisher Navoiy «Xamsa»sining ilk masnaviysi «Hayrat ul-abror»dagi umumbashariy fikr-mulohazalardan nur olib Sharq she'riyati ixlosmandlarining qalbida yolqin o't paydo qilgan buyuk beshlik tarkibidagi dastlabki sujetli dostondir. Farhod, Xusrav va Shirin muhabbati mojarolari musulmon xalqlari og'zaki va yozma ijodiyotida keng tarqalgan sayyor sujet sanaladi. Ulug' shoir «Xamsa»sining ikkinchi dostoni «Farhod va Shirin» uchun ham, an'anaga ko'ra, mana shu sayyor sujetga murojaat etiladi. Turkiy «Xamsa» ijodkori mazkur asarni yozishga kirisharkan, nihoyatda topqirlik bilan keltirilgan hayotiy haqiqatga o'quvchi e'tiborini qaratadi. Adibning fikricha, nozik va nafis naqshlar solib to'qilgan ipak mato bilan uyni bezash uchun, avvalo, o'sha uyning tarhi (loyihasi) ham did bilan ziynatlangan, puxta o'ylangan bo'lishi lozim. Doston muallifi she'rxon hukmiga havola etgan tamsil negizida o'zi qalamga olgan ko'chuvchi voqealar tizimini nazarda tutadi. Buning boisi shuki, mazkur mavzu bilan aloqador dilkash nazm namunalari ijod etilgan bo'lib, uning afsonasi ham eshitguvchining tab'iga g'oyatda muvofiqdir. Masalaning nozik nuqtalarini teran anglagan shoir «Farhod va Shirin»da o'ziga murojaat etib quyidagi baytlarni bitadi:

Burun jam' et nekim bo'lg'ay tavorix,
Borida ista bu farxunda tarix.
Topilg'ay shoyad andog' bir necha so'z,
So'z aytur elga ul yon tushmag'ay ko'z.
Ani nazm etki tarhing toza bo'lg'ay,
Ulusqa mayli beandoza bo'lg'ay.
Yo'q ersa nazm qilg'onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.
Xush ermas el so'ngincha raxsh surmak,
Yo'likim, el yugurmishtur yugurmak.
Birovkim bir chamanda soyir erdi,
Nechakim gul ochilg'on ko'rdi, terdi.
Hamul yerda emas gul istamak xo'b,
Bu bo'ston sahnida gul ko'p, chaman ko'p. (8, 44)

Alisher Navoiy mazkur baytlarda sayyor sujet asosida doston bunyod etishdagi o’ziga xos ijodiy uslubidan o’quvchini voqif etadi. Shoir o’ziga murojaat etib, dastlab shu mavzuda yozilgan asarlarni jamlash, ularni o’rganish lozimligini ta’kidlaydi. Ijod – yangi, ohori to’kilmagan so’z aytish, aytganda ham nihoyatda nazokat bilan she’rxon his-tuyg’ularini junbushga keltiradigan darajada aytishdir. Ulug’ shoir har bir asariga ana shu tayanch tamoyil nuqtayi nazaridan yondashadi. Asar muallifi Farhod, Xusrav va Shirin muhabbati mojarolari mavzusida badiiyat namunalarini ijod etgan shoirlarning sohir qalami hali bu o’tli ishqning barcha sir-u asrorini oxirgi nuqtasiga qadar yoritishga muyassar bo’lmaganliklarini va hali bu borada aytilmagan so’zlar topilishidan umidvorligini bayon etadi. Mana shu aytilmagan so’z bilan asar toza tarhda nazm qilinsa, u yangi va bir xil qolipdagi andozalardan xoli bo’ladi. Shuningdek, shoir o’zidan oldin bunyod etilgan badiiy yaratmalarni taqlidan qayta takrorlashni el oti ortidan ot choptirish yoki birov bir chamanda sayr qilib ochilgan gullarni tergan-u, yana o’shanday dilkash gullarni izlashga vaqt sarflashday behuda harakatga qiyoslaydi. Bunday chekilgan «zahmat»ni «xush ermas» - deya qoralaydi. «Bu bo’ston sahnida gul ko’p, chaman ko’p» misrasida ijod maydonining sarhadsizligi-yu nihoyatsizligini nazarda tutadi.

Musulmon xalqlari adabiyotida mashhur bo’lgan bu ishq mavzusi qahramonlaridan biri Xusrav haqida fikr yuritgan ko’pgina sharqshunos olimlar uning tarixiy shaxs ekanligini e’tirof etishadi. Ularning fikricha, Xusrav mashhur sosoniy podshohlaridan bo’lgan Anushervonning nabirasi Xusrav Parvez binni Hurmuzdir. Ma’lumotlarga ko’ra, u 590-628-yillarda hukmronlik qiladi va o’g’li Sheruya buyrug’i bilan qatl etiladi. X asr arab tarixchilari Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning «Tarixi rasul val-muluk», Ibn al-Faqih Hamadoniyning «Kitob ul-buldon», Mis ar-Muhilhil abu Dalafning «Risolayi soniya», XII asrda yashagan mashhur muarrix Abu Abdulloh Yoqutning «Mu’jam ul-buldon» kabi asarlarida ham shunday qaydlar uchraydi. Ayrim ma’lumotlarga ko’ra, jumladan, Muhammad at-Tabariy asarida arman qizi yoki oromiylardan bo’lgan Shirin ham tarixiy shaxs bo’lib, u Xusravning sevikli xotini bo’lganligi e’tirof etiladi. Xusrav Parvezning shaxsi va davlat arbobi sifatidagi fazilatlari haqida zamondoshlari bo’lmish misrlik Feofikat Simokattaning «Tarix» kitobi va arman tarixchisi Sebeosning «Episkop Sebeosning tarixi» asarlarida ham hikoya qilinadi. Bulardan tashqari, XV asr tarixchilari Mirxond va Xondamir asarlarida hamda Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» asari sahifalaridan ham Xusrav Parvezga oid ma’lumotlar o’rin olgan. Mana shu tarixiy voqealar zaminida xalq og’zaki badiiy ijodida turli-tuman afsona, rivoyat va qissalar vujudga kela boshlaganki,

keyinchalik o’shalar asosida badiiy yozma adabiyotda nomlari keltirilgan tarixiy shaxslarni xotirga keltiruvchi, ammo ulardan farqlanuvchi qahramonlar vujudga kelgan.

Xusrav va Shirin muhabbati yozma badiiy adabiyotda ilk bor Abulqosim Firdavsiy «Shohnoma»sida uchraydi. Unda mazkur obrazlar tasvirida tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilganligi, muallif sevishganlarning tarixiy shaxs sifatidagi faoliyatini yoritishga harakat qilganligi diqqatni tortadi. Firdavsiy asaridagi Farhod obrazi Xusravning sarkardasi bo’lib, ishq bobida uning Shiringa yaqinligi nazarga tashlanmaydi. Nizomiy Ganjaviy «Xusrav va Shirin» dostonida esa asar qahramonlari tarixiy shaxsdan badiiy obraz darajasiga ko’tariladi. Undagi Farhod toshyo’nar hunarmand bo’lib, Shiringa muhabbat qo’ygan oshiq sifatida namoyon bo’ladi. Biroq pok muhabbat sohibi bo’lgan Farhod dostonda qalamga olingan voqelikning ibtidosidan intihosiga qadar ishtirok etuvchi obraz sifatida qalamga olingan emas. U sut arig’i qazish lavhalari tasvirida asar voqeligiga jalb etiladi, Shu asnoda Shiringa ko’ngil qo’yadi, ma’shuqasi visoliga erishish uchun Xusravning og’ir shartlarini bajaradi, ammo Xusrav uyushtirgan makkor kampirning hiylasiga ishonib fojeali o’lim topadi. Nizomiy Ganjaviydan so’ng xamsanavislikda dong taratgan Amir Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» dostonida Farhod obrazi yana-da takomillashtiriladi. U endi Chin xoqoninirg o’g’li, shahzoda tarzida tasvir etiladi. Shuningdek, Farhod va Shirin muhabbati ikki taraflama sevgi ekanligi bilan dostonning g’oyaviy-badiiy qimmatining oshishiga sabab bo’ladi. «Shirin va Xusrav»da Farhod asar voqeligiga yetakchi badiiy obrazlar singari birmuncha faol ishtirok etadi. Mazkur sayyor sujetning bidiiy talqinlari bilan yaqindan tanishgan taniqli shoir Alisher Navoiy «Forhod va Shirin»da Xusrav Dehlaviy dostoni ko’ngliga ancha ma’qul tushganini bayon qiladi:

Chu Xusrav surdi bu rangin fasona,
Dedi so’z avvalidin ham nishona,
Manga ham chun bu pok insho ko’rundi,
Bidoyatdin demak avlo ko’rundi. (8, 49)

Ulug’ shoir o’z asarida ushbu mavzu badiiy talqini haqidagi elga u qadar ma’lum bo’lmagan fikrlarini davom ettirar ekan, uning o’tli nigohi yana ikki ijodkor dostoniga qaratiladi:

Bu maydong’a chu Ashraf surdi markab,
Bu so’zni o’zga nav’ yetti murattab.
Yana bo’lg’on ekan bu noma marqum,
Vale roqim emastur yaxshi ma’lum. (8, 49)

Farhod, Xusrav va Shirin ishqi mojarolaridan bahs etuvchi asar mualliflaridan biri XV asrda yashab ijod etgan xamsanavis «Shirin va Xusrav» dostoni muallifi Ashraf Marog'aviydir. Keltirilgan iqtibosdan Ashraf Marog'aviyning bu ko'hna mavzuni yangicha talqin etgani ma'lum bo'ladi. Ozar adabiyotshunosi akademik H.Orasli «Orif Ardabiliy va uning «Farhodnoma poemasi» tadqiqotida ulug' shoir muallifi noma'lumligini ta'kid etgan asar ijodkori XIV asr o'rtalarida Shimoliy Ozarbayjonning Ardabil viloyatida yashab, badiiy ijod bilan shug'ullangan shoir Orif Ardabiliy bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari suradi. «Farhodnoma» dostoni 717-hijriy (1369) yilda fors tilida bitilgan. Asar muallifi ushbu mavzuda qalam tebratayotgan shoirlar orasida birinchi bo'lib, Farhod obrazini dostonning bosh qahramoni darajasiga ko'taradi. Orif Ardabiliy «Farhodnoma»sining bosh qahramonini Xusrav Dehlaviy dostonida kuzatilgani kabi Chin xoqonining o'g'li, shahzodadir. Akademik B.Valixo'jayev «Farhodnoma»ning qisqacha mazmunini quyidagicha bayon etadi: «...dostonning birinchi qismi Nizomiy va Xusrav Dehlaviylarda bo'lmagan voqea bilan, Farhodning Abxaziyalik mashhur toshyo'nar ustaning qizi Gulistonga oshiq bo'lishi bilan boshlanadi. Voqea davom etib, Farhod Abxaziyaga kelib, Gulistonga uylanadi, uch farzand ko'radi. Guliston vafot etadi. Shundan so'ng dostonning ikkinchi qismi, ya'ni Farhodning Abxaziya hokimi qizi Shirin bilan bog'liq qissasi boshlanib, Farhodning vafoti bilan nihoyasiga yetadi» (Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent, 2002, 151-bet). Ko'rinadiki, «Farhodnoma»ning umumiy sujeti Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidan farqlidir.

Ulug' shoir «Xamsa»sining ikkinchi dostonini ijod etishda mazkur sayyor sujetning xalq og'zaki ijodidagi badiiy talqinlari bilan ham yaqindan tanish bo'lgan ko'rinadi. O'zbek va qardosh xalqlar folklorllarida Farhod va Shirin muhabbatini vasf etuvchi rivoyatlar X-XI asrlardan vujudga kela boshladi. Jumladan, Xorazmdagi Devqal'a yodgorligi bilan bog'liq rivoyatda Farhod odamzot bajara olmaydigan ishlarni yolg'iz uddalovchi dev sifatida tasvirlanadi. Bunday tasvirlar xalq og'zaki ijodining qissa, afsona, rivoyat kabi janrlarida turli-tuman ko'rinishlarda ko'plab uchraydi. O'tmish tarixnavisligida bunday folklor namunalaridan unumli foydalanilganligi ma'lum. Ulug' shoir doston muqaddimasida: «Qilib ko'nglimni bu andesha shaydo, Tavorix ayladim har sori paydo», - satrlarini bitganida, tarixiy manbalar bilan bir qatorda Sharq xalqlari og'zaki badiiy ijodidagi mavzuga oid turli janrlarda yaratilgan asarlarni ham nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ulug' shoir bu ko'chib yuruvchi sujetning badiiy talqinlari bilan yaqindan tanishib, uning yangi

namunasini ijod qilishga kirishadi va 54 bob (5782 bayt) dan tarkib topgan «Farhod va Shirin»ni 1484- (hijriy 889) yilda bunyodga keltiradi.

Doston an’anaga muvofiq hamd va na’tlar (1-5- boblar) bilan ibtido topadi. Ijodkor qalami ta’rifi ulug’ salaflar: Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy (6-bob) va Abdurrahmon Jomiy (7-bob) maqtovidan so’ng, dostonning yozishga nimalar sabab bo’lgani (8-bob) hamda asar rejasini tuzib olgani, tarixiy manbalarni ko’rib chiqqani, shu mavzuda yozilgan dostonlarda yo’l qo’yilgan xatolarni tuzatib, o’z g’oyalarini qay tarzda ifoda etmoqni niyat qilgani bayoni (9-bob) keltiriladi. Shundan so’ng zamon hukmdori Sulton Husayn Boyqaro (10-bob) va Shahzoda Badiuzzamon Mirzo madhi (11-bob)ga o’rin beriladi. Dostonning muqaddimaviy boblari mundarijasi ana shulardan tashkil topgan bo’lib, asosiy voqealar bayoni (12- 52- boblar) Chin xoqoni ta’rifi, farzandsizligi va Farhodning tug’ilishi bayoni bilan boshlanadi. «Farhod va Shirin» dostoni Sulton Husayn Boyqaroning o’g’li Shoh G’arib Mirzo madhi va shoirning unga nasihatlari (53-bob) hamda asar xotimasi (54- bob) bilan yakunlanadi.

Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin»i ilgari shu mavzuda ijod etilgan dostonlar, xususan, ulug’ salaflari Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy asarlaridan tubdan farq qiladi. Bu farq, avvalo, shoir dostonining badiiy qimmati, turkiy tilda bunyod qilingani hamda Farhodning bosh qahramon darajasiga ko’tarilganligida namoyon bo’ladi. Ulug’ shoir Xusravni Shirinning muhabbatiga noloyiq deb biladi. Biroq Alisher Navoiy asarlaridagi yangicha talqinni yuqorida aytilgan fikrlardangina iborat deya tushunish buyuk so’z san’atkori dostonining javharini yo’qqa chiqarib qo’yish bilan barobardir. Ta’kid etilganidek, ozar shoiri Orif Ardabiliy «Farhodnoma» dostonini yozib, Farhodni bosh qahramonlik shohsupasiga olib chiqqan edi. Bulardan tashqari, asar nomini o’zgartirilishi ham doston ruhini tubdan o’zgartirishga olib kelmasligi tayin. Jumladan, Alisher Navoiy talqinidagi Farhod ham shahzoda, Chin mamlakati xoqonining yakka-yu yagona va tilab olingan farzandi edi. Zarrin taxt, behisob mulk, davlat-u saltanat unga muntazir. Masalaning bu jihati uni Xusravga yaqinlashtirib qo’yadi. Ammo Alisher Navoiyni o’ylatgan, qalam ushlatgan mavzuning bu kabi shakliy jihatlari emas edi. Barhayot ishq mojarolaridan «Mavzun bir libos» sifatida foydalangan sayyor an’anaviy mavzu mohiyatini yangi o’zanga burib yuborish orqali kuzatilgan maqsadni naqshbandiya tariqati ma’naviy-axloqiy talablariga muvofiq keladigan komil inson hamda shahzoda timsolini yaratishdan iborat. Ulug’ shoir bunday ezgu niyatni "Hayrat ul-abror" dostonining 21-bobidayoq muxlislariga ma’lum qilib qo’ygan edi. Mazkur bob Bahouddin Naqshband va Xoja Ahrori Vali madhiga

bag’ishlangan ekan, muallif o’zining shu ta’limot muridi ekanligi bilan faxr etadi. Ana shu ulug’ ta’limot mas’uliyati Alisher Navoiy badiiy tafakkuri va sohir qalamini mohiyatan yangicha jilodagi doston yozishga undadi. Shuning uchun ham «Farhod va Shirin»da muayyan shaxsdan umum manfaati, shohdan ulus ehtiyoji, aysh-u ishratdan ishq dardi, hijron azoblari ustun qo’yiladi. Shuning uchun ustozlari sha’nini daxlsiz bilgan Alisher Navoiy sharqona va tariqat odobi doirasida ularning ayrim g’oyalariga qo’shilmasligini ma’lum qiladi. Ulug’ shoirning quyidagi misralarini xuddi shu ma’noda qabul qilmoq o’rinlidir:

Vale chekkanlar ushbu jomdin roh,
Sarosar bo’ldilar Xusravga maddoh.
Ki mulki andoq-u, oyini mundoq,
Sipohi andoq-,u tamkini mundoq.
Topib gah Maryam og’ushida orom,
Shakar halvosidin gahi olib kom.
Yaqindurkim bu shohi noz parvard,
Erur dard-u balo oyinida fard. (8, 45-46)

«Rosti-yu rusti» niginida naqshlangan va unga amal qilishga hamisha tayyor turgan shohgina raiyat g’amida bo’ladi. Bunday shoh behisob mol-mulk va go’zallar og’ushida farog’at topish ilinji bilan nafas olmaydi. Ishq - ilohiy javhar, uni muqaddas bilgan oshiqning ishrat manbayiga aylantirishi noravo. Ishq –dard-u balolar olovida toblanib, poklanishi mumkin. Ishq - mehnat, bunyodkorlik, fidoyilik, jasorat bilan nurli. Ana shular Xusravda yo’q. Shuning uchun ustozlar qalamida sayqallangan Xusrav Alisher Navoiy tabiatiga mos kelmaydi. Shuning uchun ulug’ Navoiy barcha ibratli fazilatlarga ko’ra Xusravning ziddi bo’lgan Farhod timsolini yaratish ishtiyoqi bilan qalam surdi. XV asrning ikkinchi yarmi Xurosonda murshidi komil Hazrat Jomiy bo’lgan naqshbandiya tariqatiga sidqan ixlos qilish bilan qanoatlanmaydi, inson manfaati va poklikdan o’zga iddaosi bo’lmagan o’sha o’lmas g’oyalarni badiiy ijod olamida keng targ’ib qilgan Alisher Navoiy «Farhod va Shirin»da ham ayni g’oyaviy uslubiga sodiq qoladi, «Dil ba Yor-u dast ba kor»ni farzona Farhodning ham harakat dasturiga aylantiradi. Muallifning bunday urinishi dostonning boshlanish boblarida kelgan mana shu satrlardayoq namoyon bo’ladi:

Zaruratkim solib bir o’zgacha tarh,
Bu mehnatnomani qilgimdurur sharh. (8, 46)

Ana shu ishoradan ravshanki, dostonda ifodalangan sevgi sarguzashtlari mehnat, hunar, qahramonlik, jasorat, sadoqat, yuksak insoniy birodarlik singari

qator oliyjanob g’oyalarni yuzaga chiqirish uchun xizmat qilgan. Shu bois Alisher Navoiy tasviridagi Farhodni yuz baloga giriftor qilgan yagona dard - bu uning Shiringa bo’lgan samimiy va beg’ubor muhabbati bo’ladi. Aslida bu javonmardning, ya’ni Farhodning fe’l – atvori va tabiatiga ishq o’ti endi ta’sir qilayotgani yo’q. U dunyoga ko’z ochgan kundanoq uning qismatida ishqiy mojarolar bitilgan edi. Shahzoda va taqdiri toj-u taxt qurshovida bo’ladigan Farhodni nimalar kutmoqda edi, degan savolga shoir uning ismi birinchi sharhi munosabati bilan yozadi:

Jamolidin ko’rungach farri shohi,
Bu fardin yorudi moh to bamohi.
Quyub yuz himmat-u iqbol-u davlat,
Hamul far soyasidin topdi zinnat.
Bu javharlarga chu isnod topti,
Murakkab aylagach Farhod topti. (8, 67)

Muammo qoidalariga amal qilgan ulug’ shoir shu olti satrda shahzoda Farhod nasibasiga nimalar bitilganligi, aniqrog’i, shu muborak ismning birinchi sharhini berayotir. «Farri shohiy»dan (shohlik savlati, izzati, qadru qimmati) «Far»ni (porloqlik, hashamat, shukuh, bezak) olib, unga «Himmat», «Iqbol» (arab yozuvida alif bilan yozilishi nazarda tutilgan) va «Davlat» so’zlarining bosh harflarini ilova qilish orqali (Far – h – o -d) yasalishi ko’rsatilmoqda. Boshqacha aytganda, toj kiyib, taxtda o’tirganida Farhodga o’sha fazilatlarning hamdam bo’lishi tayin edi. Odam Ato singari zuvalasi ishq sharobi-la qorilgan bu farxunda shahzoda nomining ikkinchi talqini esa quyidagicha beriladi. Bu o’rinda ham ulug’ shoir muammo qonun-qoidalariga ko’ra ish ko’radi:

Bu nav’ ermas ato qo’ymadi otin,
Ki ko’rgach ishq aning pokiza zotin.
Anga farzona Farhod ism qo’ydi,
Hurufi ma’xazin besh qism qo’ydi.
Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.
Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism o’ldi murattab. (8, 67)

Parchadan ikki jiddiy xulosa o’rtaga chiqadi. Birinchidan, tug’ilgan yosh chaqaloqqa bu ismni otasi qo’ygani yo’q. Azal kotiblari uning peshonasiga ishqiy qismatni katta qilib yozib qo’ygani uchun ham «Ustodi ishq» unga Farhod nomini ravo ko’rdi. Ikkinchidan, ushbu nom shunchaki qo’yilgan eemas. U «tarakkub» (bir necha moddaning birikishidan hosil qilish) talaboti asosida yuzaga kelgan sirli nomdir. Chinakam ishq yo’lini tanlab olgan va uni

yuksak ilohiy ne’mat maqomida qabul qilgan oshiq hech qachon arzongina visol nashidasi payida bo’lmaydi . «Otadan o’g’il» - deganlariday Odam Atoning zurriyodi bo’lgani uchun ham Farhod pokiza ishqning kuyish, kuydirish orqali poklanishga olib boruvchi tanti yo’liga munosib ko’rildi. Bunday sharafni uning nasibasiga «Ustodi ishq» - Alloh munosib ko’rgani uchun ham «firoq», «rashk», «dard», «oh», «hajr» so’zlari birinchi harflarini tarakkub etishni loyiq topdi. Aksariyat hollarda arab yozuvida «a» harfi ifodasini topmay qoladi. Shu qoidaga asosan Farhoddan ikkinchi harf «fard» bo’lgani, ajralib chiqqani (yozilmasligi) uchun nom - so’zning arab alifbosidagi imlosida uning ko’rilmasligi lutf san’ati orqali shama’ qilinadi.

Alisher Navoiy Farhodning ma’naviy-jismoniy kamolotini uning bolalik yillaridan boshlaydi:

Uchunchi oy ravon bo’ldi savodi,
Burung’i yilda Qur’on bo’ldi yodi.
Agar bir qatla ko’rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo’q erdi ul varaqni.
O’qub o’tmak, uqub o’tmak shiori,
Qolib yodida savha-savha bori. (8, 70)

Farhodning hunarga bo’lgan ishtiyoqi yilning to’rt fasliga moslab uning uchun bunyod etilayotgan hashamdor qasrlar qurilishi jarayonida yanada yorqinroq ko’zga tashlanadi. Shu o’rinda Alisher Navoiyning naqshbandiya tariqatining sidqiy muridi ekanligini yana bir karra his qilish qiyin emas. Asarning faqatgina XV bobida naqqosh, naqshin, naqshpayvand, naqshband kabi so’z-u birikmalar 15 martaga yaqin ifoda etiladi. Shuningdek, Farhodning qirilish jarayonida qo’l keladigan hunarlarni, ayniqsa, teshaga suv berib toblash, tosh kesish, naqsh solishni mohirlik bilan o’rganishida ham o’sha mayl seziladi. Aslida asarning 12-bobidan Farhodni Shaxs, Oshiq, ma’naviy-ma’rifiy olami shakllangan inson pag’onasiga ko’tarish uchun tayyorlash jarayoni boshlanadi, «Tabiiy, riyoziy, ilohiy» fanlarni mukammal o’zlashtirgan Farhod qiyosida «Arastu kichik bir shogirdi»ga aylanib qoladi. Farhod – shahzoda, uning istiqbolida taxt turibdi. Toj-u taxt esa qo’shin bilan himoya qilinadi. Uni sarkarda boshqarishi, ehtiyoj tug’ilganda oldinda shohning o’zi ot surishi va birinchi qilichni uning o’zi chopishi lozim. Shuning uchun xoqon suyukli Farhodini jismoniy jihatdan shakllantirishga alohida e’tibor qiladi. Muallifning o’z e’tirofi bilan aytganda: «Bo’lub o’n yoshqa umrining mururi, Yigirma yoshcha qad-du jism-u zo’ri» bo’lib qoladi. Pahlavonsifat Farhod harbiy ilm-u mashqlarni ham maromiga yetkazib o’rganadi. Natijada «Qilichi zarbasi olinda har marz, Shigof andoqki suvdin yer aro darz» darajasiga ko’tariladi. Bunday

qudrat-u shiddat faqat harb maydoni uchun emas, balki ishq-u hunar olami uchun ham zarur edi. Shundan bo’lsa kerak, dostonning 14-bobida Mulkaro sarkorligida yilning to’rt fasliga mo’ljallangan to’rt qasrning bunyod etilishi tashvish - taraddutlari boshlanadi. Keyingi boblarda esa (14-15-boblar) Farhodning toshyo’nuvchi Qoran, musavvir – naqqosh Moniy bilan tanishuv jarayonlari kechadi. Farhod – Alloh marhamatiga muyassar inson. Uning kuch-quvvatiga munosib fahm-u farosati, aql-u zakovati, zehni idroki bor. Alisher Navoiy ana shu tarzda uni komillikning ibratli maqomiga ko’tarish uchun tayyorlay boradi. Farhod Qoranning po’lat teshaga suv berishi sir-u asrorini o’rganadi. Bunday tesha xoroni – tog’ning eng qattiq toshini pichoq suvni yoxud yog’ni kesganday kesadi. Alisher Navoiy ijodiy uslubining tarkibiy qismi bo’lgan dalillash, ishontirish san’atlariga «Farhod va Shirin»da ayricha urg’u beriladi. Shundan bo’lsa kerak, asarda vazifasiz, muallaq turuvchi lavhani topib bo’lmaydi. Ana shu ma’noda muallif Farhodning kasb o’rganishini asoslash barobarida uni hunarli, iymon – e’tiqodi but, Alisher Navoiyning o’z so’zlari bilan aytganda «Demonkim ko’ngli pok-u ham o’zi pok, Tili pok-u so’zi pok-u o’zi pok» naqshbandiya soliki maqomiga ko’tarib qo’yadi. Alisher Navoiy talqinicha, Farhod o’n to’rt yoshida balog’atga yetdi, uning qalbida ishq o’ti paydo bo’ldi. Aslida Farhod qismatida ishqdan dardnoklik u dunyoga kelgan kundan mavjud edi. Biroq shahzoda va uning atrofidagilar bu hazinlikning sababini idrok etolmasdi. Xoqon buyrug’i bilan qurdirilgan yilning to’rt fasliga mos hashamatli qasrlar ham Farhod qalbidagi tushkun kayfiyatni dunyo go’zalliklari bilan forig’ etish yo’lidagi bir urinish bo’ldi. Chin hukmdori farzandi ko’nglini g’ashlik g’uboridan ozod qilish maqsadida bir yil davomida to’rt qasrda bazm uyushtirdi. Biroq bunday tadbirlar bilan shahzoda holida hech qanday o’zgarish paydo bo’lmadi. Xoqon dilbandining ruhiyatidagi o’sha tushkun kayfiyatni siquv ostiga olish orzusi bilan yashar, ammo o’zining barcha sa’y-harakatlari besamar ketishidan ajablanardi. U mamlakat taxtini shahzodaga topshirish vaqti keldi, deb o’ylaydi. Xoqon Farhodning bu ishga har jihatdan mos ekanligini yurak-yurakdan his etardi. Toj-u taxt o’g’lini anduhlar girdobidan xalos etishiga ishonardi. U saroy ahlini chaqirib ulkan yig’in o’tkazadi. Farhodga taxti oldidan joy berib dilidagilarni tiliga keltira boshlaydi. Shoh Alloh bergan toj-u taxtdan minnatdorligini, buning ustiga Tangri unga Farhoddek solih farzand in’om etganidan mamnunligini bayon etadi. Keyinchalik muddaoga o’tib, yagona tilagi o’zining farzandi arjumandini taxt uzra ko’rish ekanligini Farhodga quyidagicha ma’lum qiladi:

Ki, o’lmasdin burun ochib ko’zumni,

Sarir uzra yigit ko’rsam o’zimni.
Ki, ya’ni toj-u taxt-u saltanat ham,
Sipoh-u mulk-u mol-u mamlakat ham.
Bori o’lsa sening birla muzayyan,
Seni o’z o’rnima qilsam muayyan.
Sanga tutsam musallam podsholiq,
Xaloyiq ustida kishvarxudoliq.
Manga shahlikda qulluq ham qil emdi,
Atoliq ham, o’g’ulluq ham qil emdi. (8, 114)

Farhod qalbini xufton qilgan g’am-anduh bulutlarini quyosh yanglig’ kuydiruvchi cho’g’, uni oyinafom etib, shahzoda ko’ngliga ma’shuqi mutloq jamolini jilvalantiruvchi o’t dunyo zeb-u ziynatlari-yu amal martabasi bo’lmay, balki azal kotiblari uning peshonasiga bitgan ishq edi. Shu bois u juda ko’p hayotiy dalillar keltirib xoqon taklifini rad etadi. Biroq Chin hukmdori qarorida sobit turgani uchun yosh shahzoda otasining ko’ngil istaklariga qarshilik ko’rsatishga botinolmaydi. Vaziyat undan bir oz chekinishni talab etmoqda edi. Vujudga kelgan siyosiy holatni to’g’ri baholay olgan Farhod taklif etilgan ishning ulug’ligi-yu o’zining hali yosh va tajribasizligini, shu choqqacha barcha ishlardan g’ofil bo’lib, faqat aysh-ishrat bilan band bulganligini, shu sababli podshoh inoyat etsa, bir-ikki yil kichik xizmat bilan boshqaruv sirlarini o’zlashtirishi lozimligini bayon etadi. Xoqonga uning fikri ma’qul bo’ladi. Alisher Navoiy asardagi ushbu badiiy lavhalar vositasida Farhodni temuriy shahzodalarga ibrat qilib ko’rsatish bilan bir qatorda doston qahramonining qalban mol-dunyoga qiziqmasligi va darvesh tabiatligini namoyon qiladi. Shuningdek, shoir yana o’sha fikrini dalillash ijodiy uslubiga sodiq qolib, xoqon xazinasidan o’rin olgan sandiqda pinhon tutiluvchi Iskandar oynasiga e’tiboni qaratadi. Bu bilan ijodkor asar tugunini voqealar rivojiga ulash imkonini yaratadi. Sandiqda yashirin saqlanuvchi tilsimlangan oyna har biri Aflotunga teng to’rt yuz nafar dono olimlar tomonidan yaratilgan bo’lib, uning tilsimi yyechilsa, oyna g’ayb sirlarini oshkor qila boshlashi lozim. Biroq bu ishni amalga oshirish g’oyatda murakkab edi.

Iskandar oynasini ko’rishni istagan kishi Yunonistonga safar qilib, Suqrot yashaydigan qorong’u g’orga yetib borishi lozim bo’lgan. Bu yo’lda uch manzil bo’lib, ularning har birida bir ofat bor edi. Birinchisida – Ajdarho, ikkinchisida – Ahriman dev, uchinchisida bulardan ham mudhishroq balo kishiga ro’baro’ keladi. Mana shu ofatlardan g’olib kelgan insongina sunggi – to’rtinchi manzil – Suqrot yashaydigan qorong’u g’orga yetadi. Agar Suqrot tirik bo’lsa, uni izlab kelgan kishini mushkullardan xalos etadi, biroq u hayot

qaydida bo’lmasa, uning ruhiga tavajjuh (chuqur tafakkurga berilib o’zi istagan odamni huzuriga olib kelish va u bilan yuzlashish) qilishi lozim bo’lgan. Shundagina Suqrot ruhi keluvchiga uning kelajagini aytib berarkan.

Iskandar oynasi tilsimining yechimi nimada ekanligini anglagan shahzoda yunon safariga chiqishni ixtiyor etadi va bu qaroridan atobegi Mulkoroni voqif qiladi. Xoqon vaziri bilan ayni masala xususida uzoq bahslashgandan so’ng, Farhod bilan birga borishni, ya’ni yunon mulki tomon lashkar tortishni ma’qul ko’radi. Taniqli adabiyotshunos N.Komilov Farhodning yunon safarini suluk yo’liga kirib, ma’rifat manzillarini (maqomotni) bosib o’tish deb biladi. Chin shahzodasi zo’r qobiliyat bilan zohiriy bilimlarni o’zlashtirgan, ammo ular tilsimotlar, ya’ni ilohiy sir-asrorni ochishga kifoya qilmaydi. Olimning fikricha: «Irfoniy-botiniy bilimlarni egallab, ilm ul-yaqin darajasidan haq ul-yaqin darajasiga ko’tarilish ko’ngil oynasida g’ayb jamolini aks ettira olish uchun esa u (Farhod - R.V., H.E.) – piri komil ta’limini olishi kerak edi. Farhodning xazinadagi ko’zguni billur sandiq ichidan ololmay (chunki u tilsimlangan) Yunonistonga safari, Suqrot huzuriga otlanishiga zarurat shundan kelib chiqadi» (Komilov N. Tasavvuf. Bitinchi kitob. Tokent: «Yozuvchi», 1996, 204-bet). N.Komilov mazkur tadqiqotida dostondagi obraz va timsollarning ramziy-majoziy xususiyatlari ham juda to’g’ri tahlil qilingan. Jumladan, Farhodning Yunonistonda hakim Suhayloga uchrashi – shahzodaning tariqat yo’lidagi birinchi piridan saboh olishidir. Hakim Suhaylo besh yuz yil hayot qaydida bo’lib, Farhodning kelishini ilhaqlik bilan kutadi. U qadimgi Eron afsonaviy donishmandi va munajjimi Jomospning bashoratida Chin shahzodasi Iskandar tilsimini yechadi, - deya fikr bildirilganligini aytadi hamda Farhod yengib o’tishi kerak bo’lgan to’siqlar: ajdaho va devdan xabar beradi. Shuningdek, shahzoda Axriman devni yengib juda katta boylikka ega bo’lishi, biroq bularning hammasi Xoqonga tuhfa qilinishi lozimligi, o’zi uchun esa Suqrot bilan uchrashish va Iskandar tilsimiga nazar solish kifoya ekanligi Jomosp bashoratida qayd etilganligini bayon etadi. Hakim Suhaylo Farhodning tariqat yo’lidagi ilk piri bo’lganligi bois unga ilohiy ishq sirlarini o’rgatadi. Avvalo, ta’kidlash o’rinliki, dostonda keltirilgan bu obraz bilan aloqador badiiy timsollarning ma’no-mohiyati majozda o’z ifodasini topgan. Jumladan, Suhaylo Farhodga ajdahoni yengish uchun bir necha otashgohlardan yurib yiqqan samandar yog’ini tuhfa etadi. Samandar – afsonaga ko’ra, o’tda kuymaydigan qush bo’lib, u - ishq, ajdaho esa – nafs timsoli. Demak, Farhodning piri unga ishq bilan ko’ngilni oyinafom etish, nafsni mag’lub qilish sirlarini o’rgatadi. Shahzoda Suhayloning so’zlariga amal qilib, Axriman devni o’ldiradi. Uning bo’ynidagi lavhani olib o’sha yordamida Jamshid jomini

qo’lga kiritadi. Jom aylanasida esa Suqrot huzuriga olib boruvchi yo’l haqidagi yozuv mavjud edi. Ayni choqda dostonda ifodalangan dev saltanat – hokimlik ramzi bo’lib, jom – Farhodning ishq o’ti bilan shaffoflanayotgan qalbidir. Shahzodaning ishqqa tashna qalbi ulug’ pirga tomon intilishda davom etadi. Zero, tasavvuf ta’limotiga ko’ra, shayxlar o’z muridlarini ma’lum muddat tarbiya qilgandan so’ng, salohiyati o’zlaridan yuqori bo’lgan boshqa pirlardan ta’lim olishni tavsiya etganlar. Farhod ham Suhaylo yordamida komillik sari ildamlayotgan bo’lsa-da, hali u tilsimni yechish imkoniyatiga ega emasdi. Shahzodaning irfoniy bilimlarining oshganligi esa Xizr alayhis-salomga duch kelishida namoyon bo’ladi:

Padid o’ldi falakdek marg’zore,
Quyosh yanglig’ ichinda chashmasore.
Zuloliy chashmayi hayvon masallik,
Bo’lur har qatra andin jon masallik.
Qirog’inda daraxti ko’kka hambar,
Bu hayvon suyi ul Xizri poyambar.
Yetib Farhod anda bo’ldi xurram,
Yig’ochqa bog’labon raxshini mahkam.
Hamul suv ichra g’usli ayladi pok,
Yubon g’am chirkini bo’ldi tarabnok.
Sujud etti tilab maqsudig’a yo’l,
Tazarru’ aylabon ma’budig’a ul.
Ko’targach boshini ko’rdi sabzpo’she,
Yuzi nuroni andoqkim surushe.
Chu ko’rdi oni, holi topti tag’yir,
Buyurdi lutf-u shafqat ko’rguzub pir
Ki, ey farzand, g’amdin bargaron bo’l,
Bu ishkim koming o’lmish, komron bo’l.
Meni Xizr anglakim, tuttum yo’lingni,
Ki, to bu yo’lda tutqoymen qo’lungni. (8, 163)

Farhodning istiqbolida osmondek keng ko’lamli ko’kalamzor, uni qarshisida obi hayot chiqarib turgan buloq hozir bo’ladi. Buloq suvining har qatrasi jondek shirin va yoqimli, qalblarga huzur baxsh etadi. Obi hayot bulog’ining qirg’og’ida ko’kka bo’y cho’zgan bir daraxt mavjud bo’lib ayni ashyolar ramziy mohiyat kasb etadi: obi hayot manbayi buloqni - tiriklik, osmon bilan bo’ylashuvchi daraxtni esa - Xizr payg’ambar timsoli deyish mumkin. Shahzoda xursand bo’lib otini daraxtga bog’laydi va buloq suvi bilan g’usl qilib poklanadi. U Allohga tazarru’ qilarkan, maqsadiga erishmoq uchun

Yaratgandan inoyat so’rab ibodat qiladi. Farhod sajdadan boshini ko’targanida, uning nigohi yashil kiyimli Surush (Jabroiy alayhis-salom) yanglig’ bir nuroniy cholga ko’zi tushadi. Bunday kutilmagan manzaradan Farhodning ruhiy holatida o’zgarish paydo bo’ladi. G’aybdan yetgan ulug’ pir shahzodaga lutf-u shafqatini namoyon etib, unga «farzand» - deya murojaat qiladi. Nuroniy mo’ysafid shahzodaning tanlagan yo’li uning baxti ekanligini va bu yo’lda unga baxtiyor bo’lishlikni tilarkan, o’zining Xizr ekanligini aytadi. Xizr Farhodga hamisha madadkor bo’lishini bildiradi. Ko’rinadiki, Farhod ishq sirlaridan voqif bo’la boshlagani bois g’aybdan kelgan madad timsoli Xizr payg’ambar maslahati bilan jomga qaraydi, unda Suqrot maskan tutgan tog’ va qorong’u g’orni ko’radi. Farhod bu ulug’ zot oldiga borish uchun eng mudhish manzil hisoblangan sher va «temir paykar» odamlar – robotlar maskaniga duch keladi. Sher - g’azab, temir paykarlar esa – dunyo mo’jizalari ramzi. Farhod Axriman devdan tortib olgani saltanat timsoli – Sulaymon xotami bilan sherni daf etadi. Temir paykar bilan jangda Xizrdan olgan tasbihiga tayanib g’olib chiqadi va qorong’u g’orni jomi Jamshid – ko’ngli shu’lasi bilan yoritib Suqrot huzuriga yetadi.

Alisher Navoiy Suqrotni nihoyatda ehtiros bilan ta’riflaydi. Shoir nazdida u burjlar orasidagi quyosh bo’lib, olam allomalari uning oldida shogirddirlar. Tog’ o’rnidan tebranmaganidek, u dunyoviy ne’matlardan tog’dek etak uzgan donishmanddir. Uning ko’ngli shu qadar kengki, unda olamning avvalidan oxirigacha bo’lgan davr zuhurlangan. Yuzi - ilohiy nur ko’zgusi, o’zi g’aybiy sirlarni mukammal anglagan zotdir. Farhod, Chin xoqoni, Mulkoroni Suqrot ochiq yuz bilan kutib oladi. Dastlab Xoqonga yuzlanib, uning bu yerga juda ko’p ranj chekib kelganini, evaziga Sulaymon uzugi-yu Jamshid jomiga, yana bir qancha dur-ru javohirlarga ega bo’lganini so’zlaydi. Suqrot xoqonni yana ikki xushxabar bilan xushnud etadi. Biri uning umri juda uzoq bo’lishi haqida ulug’ hakimning bashorati bo’lsa, ikkinchisi har qanday kasallikni daf etuvchi yumaloq toshni tuhfa qilinishidir. Xoqon keksayganida uni og’ziga solib, biroz tutib turgandan so’ng, suvini yutsa qayta yasharadi. Ayni vositalar tufayli uning umri uzayib ajdodlari ichida u qadar uzoq hukmronlik qilgan boshqa bir zot topilmaydi. Suqrot Mulkoroga qarata shoh tirik ekan, vazirlik unga hamisha nasib etishini bashorat qiladi. Mulkoro keksayganida kasalliklardan forig’ qiluvchi tosh yordamida shoh uni ham yashartirishini bayon qiladi. Suqrot yana shoh va uning vaziri taqdirida to’rt unsurning ikkitasi: yer va suvdan xatar bo’lishi, Alloh xohishi bilan bu xatarlar bartaraf qilinsa, ular besh yuz yil umr ko’rishlarini ta’kidlaydi.

Xoqon va Mulkoro Suqrot oldidan chiqib ketganlaridan so’ng, donishmand Farhodni yoniga chorlaydi. Chin shahzodasining kelishini u intizorlik bilan kutganini so’zlab, murodi hosil bo’lgani uchun Allohga shukronalar qiladi. Vaqt qisqaligi uchun tezda maqsadga o’tib, Farhodga abadiylik haqidagi mulohazalarini bildiradi. U shahzodaga dunyoning foniyligi, umrning o’tkinchiligi, Iskandar mulki-yu Nuh hayoti nasib etsa ham, hayotning bir kun intiho topishini bayon etadi. Alloh vaslini umid qilgan kishigina abadiy yashashini ma’lum qiladi. Buning uchun o’sha yo’lni ixtiyor qilgan inson o’zligidan kechib, mahbubi Mutlaqni topishi lozim. Dengiz tubiga sho’ng’imay, tengsiz durni topib bo’lmagani singari, kishi o’zligidan kechmay Uni topolmaydi. Majoziy ishqni haqiqiy ishq maqomiga ko’tarilishi o’zlikdan kechishning nishonasidir. Tong paytida nurlar sochilib quyosh paydo bo’lganidek, majoziy ishq ham hijron-u iztiroblar olovida toblanib, sayqal topadi. Shoir majoziy ishq haqiqiy ishqqa eltuvchi yo’l ekanligini nihoyatda go’zal tasvirlaydi:

Majoziy ishq bo’ldi subhi anvar,
Haqiqiy ishq anga xurshidi ovar. (8, 181)

Ko’rinadiki, ulug’ shoir talqinicha, ishqi majoziy - yorug’ tong bo’lsa, ishqi haqiqiy – Sharq quyoshidir. Abadiy ishqning chaqmog’i chaqnaganida, uning bir alangasi majoziy ishqni kulga aylantiradi. Suqrot Farhodga ham majoziy, ham haqiqiy ishq nasib etishini, uning dovrug’i butun olamga mashhur bo’lishini, otasidek yuzlab xoqonu podshohlar unutilsa ham, shahzodaning yaxshi sifatlari jahon ichra abadiy qolishini so’zlab, Suhaylo singari u ham foniy olamdan o’tadi. Xoqon, Mulkoro va Farhod Suqrotning dafn marosimini o’tkazadilar. Donishmand yashagan tog’ va uning atrofida ulkan shahar barpo etib, vatanga qaytadilar.

Chin shahzodasi Iskandar oynasining tilsimini yechishga muvaffaq bo’ladi. Bu tilsim – komil inson Suqrotning qalbi edi. Unda Farhod Shirinni, o’zini va o’z boshidan kechirishi lozim bo’lgan voqealarni ko’radi. Suqrot ta’kidlaganidek, Farhodni maqsad sari eltuvchi yo’l – ishqi majoziy bo’lib, unda oshiqning jismi yonib erishi – o’zligidan foniy bo’lishi talab etiladi. Buning uchun bir mazhar – ilohiy jamol siymosida aks etgan kishi lozim edi. Shunday vazifani Shirin o’taydi. Shahzoda ko’zguda go’zal mahbubasini ko’rib, hushidan ketadi. Tabiblar dengiz safariga chiqishni tavsiya etadilar. Dengizda kuchli to’fon sodir bo’lib, Farhodni xoqon va Mulkorodan ajratib qo’yadi. Xo’tandan Yaman tomon yo’l olgan savdogarlar kemasi ulkan dengizda bir taxta ustida hushsiz yotgan Farhodni ko’rib, uning hayotini saqlab qolishadi. Kemaga qaroqchilarning hujum qilishi va Farhodning mislsiz

qahramonlik namunalarini ko’rsatib savdogarlarni ofatdan asrashi, Shopur bilan tanishib, Arman mamlakati tomon yo’l olishi, bu yerda mashaqqatlar girdobiga qolgan xalqning holiga achinib, «Nahr ul-hayot» arig’i, «Bahr ul-najot» hovuzining barpo etishga kirishi dostondagi Farhod obrazining har tomonlama yetuklik sari intilishini badiiy ifoda etgan jozibali lavhalardir. Shuningdek, Shirinni ilk bor ko’rgan shahzodaning behush bo’lib yiqilishi, Xusravning Shiringa o’ylanish orzusi bilan unga sovchi yuborishi, murodi hosil bo’lmagach, Arman mamlakatini qamal qilishi, yana Farhodning jasoratiga dushmanning ojizligi-yu, hiyla bilan uni tuzoqqa ildirishi singari badiiy lavhalarning barchasi Farhodning majoziy ishq yo’lida chekkan hijron iztiroblarining asardagi in’ikosidir. Ayni choqda, dostonda Shirinning Chin shahzodasi ishqiga bo’lgan mayli yolqinlanib namoyon bo’lganligi nihoyatda joziba bilan tasvirlangan. Ikki sevishgan qalbning bir-biriga nisbatan pok muhabbatiga Xusrav Parvezning rahna solishga urinishi dostondagi qahramonlararo zidiyatning kuchayishiga sabab bo’lgan. Ana shunday ruhiy holatlarni boshidan kechirayotgan Shirin Mehinbonudan Xusrav sovchilarining so’zini eshitganida, o’zining bu zolim shohga nisbatan nafratini quyidagicha bayon etadi:

Manga ne yor-u ne oshiq havasdur,
Agar men odam o’lsam, ushbu basdur!
Agar Bonu iloje bilsa, qilsun,
O’zumni o’ltururmen yo’qsa, bilsun! (8. 293)

Alisher Navoiy tasviridagi Farhodning ishqqa va o’z sevgilisiga munosabatini oydinlashtirishda uning Xusrav Parvez bilan qilgan munozarasi katta ahamiyat kasb etadi:

...Dedi: nedun sanga olamda pesha?
Dedi: ishq ichra majnunluq hamisha...
Dedikim: ishq o’tidin de fasona,
Dedi: kuymay kishi topmas nishona.
Dedikim: kuymagingni ayla ma’lum!
Dedi: andin erur joh ahli mahrum!
Dedi: qay chog’dun o’ldung ishq aro mast?
Dedi: ruh ermas erdi tang’a paypast...
Dedi: bu ishq tarki yaxshiroqdur!
Dedi: bu sheva oshiqdin yiroqdur!
Dedi: ol ganj-u qo’y mehrin nihoniy,
Dedi: tufroqqa bermon kimyoni!..
Dedim: shahg’a bo’lma shirkat andesh!

Dedi: ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!..
Dedi: kishvar beray kech bu havasdin!
Dedi: bechora kech bu multamasdin!
Dedi: ishq ichra qatling hukm etgum!
Dedi: ishqida maqsudumg'a etgum! (8, 323-325)

Mazkur parcha bir necha jihatdan e'tiborni tortadi. Ishq va junun – oshiq qismatida markaziy halqa. Chunki bu o'rinda majnunlik jismoniy-ruhiy xastalik emas. Jazba yoxud junun – ishqning maqomlaridan biri. Bunday bosqichdagi ishq majoziy yoxud haqiqiy bo'lsin, uning vatani dildir va u boshqa har qanday tuyg'udan ustun turadi. Junun holatiga yetgan oshiqni ma'shuqadan keladigan hijron, g'am, anduh, jabr-u jafo qilcha bezovta qilmaydi. Ishqning kuydirishini oshiq o'zi uchun sharaf deb biladi va uni quvonch bilan peshvoz oladi. Negaki, ana shu sinovlarsiz poklanish baxti muyassar bo'lmaydi. Shuning uchun ham Farhod muhabbatni shahvoniy hirsni qondirishning vositasi deb biluvchi Xusravga pisanda qilayotir. Kuyishni so'z bilan yetkazib bo'lmaydi, uni jisman va qalban tuymoq lozim.

Munozarada o'rtaga qo'yilgan masalalardan yana biri ishq va uning tarki (undan voz kechish) muammosidir. Sadoqat shevasini shior aylagan oshiqlar uchun ishqdan kechmoq - o'zidan kechmoq, o'lim bilan barobardir. Insonning oliyjanob fazilatlaridan biri so'zining ustidan chiqish, lafzini himoya qila olishi hisoblanadi. Oshiqlar ahli bu borada ibratdir. Xuddi shunday dadil munosabat ishq va ganj, ishq va zar (boylik) xususida ham namoyon bo'ladi. Fidoyi oshiq nigohida ishq-muhabbat daxlsiz dargoh hisoblanadi. U sotilmaydi va sotib olinmaydi. Farhodning Xusravga bergan javobida buni yorqin sezishimiz mumkin. Ishq ruhiy-ma'naviy xazina. Javohirot xazinasi esa uning qiyosida tuproq bilan teng. Ishq - kimyo. Kimyoni faqatgina kimyo bilan yonma-yon qo'yish mumkin. Kimyo yoxud kimiyo Sharq mumtoz adayuiyotida qo'llanadigan va serjilo so'z istilohlaridan biridir. Kimyo fanning nomi. Yana bir tushuncha ham mumtoz adabiyotda keng tarqalgan bo'lib, asarlardan asarga ko'chib yashaydi. O'sha aqidaga ko'ra, shu fan vositasida mis, qalayi kabi ma'danlarni (hatto tuproqni) oltinga aylantirish mumkin ekan.

Kimyo – ajoyib, noyob, nodir narsa. Har qanday ortiqchaliklardan arigan, pokiza sohadir. Farhod lafzida ana shu ma'noda istifoda etilgan ishq pok ruhiy-ma'naviy tuyg'u. Xazina esa bu sharafdan benasibdir. Bunday qochirim o'z mantiqiy zaminiga ham ega. Negaki, biror-bir ma'dan tabiatda kimyoviy nuqtayi nazardan sof holida emas, balki qotishma, qorishiq tarzida uchraydi. Ulug' shoir shu qonuniyatni nazarda tutadi va ishq kimyosini xazina bilan bir safga qo'yish uchun rozilik bermaydi. Ilmiy-adabiy asarlarda «kimyoyi vujud»

atamasi ham uchraydi. Mazkur ibora vujudni poklovchi, vujudni saralovchi iksir ma’nolarida keladi. Odam vujudi uchun iksir vazifasini komillik maqomiga ko’tarilgan ulug’ zot – pir, shayxning nazari yoxud favqulotda ta’sir qilish kuchiga ega bo’lgan narsa tuyg’ular o’tashi mumkin. Tabiiyki, ikkinchi omil ishq-u oshiqlikdir.

Ulug’ shoir she’rlarida «ishq ichra shoh-u gado tengdur, balki gado fuzun», - degan g’oya yashaydi. Farhod tilida o’sha mazmun yana bir karra aks-sado bermoqda. Ishq iksir ekan, u poklanishga moyil barcha qalblardan makon topishi muqarrar. Ayonki, o’sha safda shoh ham, gado ham tura oladi. Alisher Navoiyning gadoga urg’u berishi o’z tagma’nosiga ega. Shohning suyangan toji, taxt-u baxti, joh-u davlati bor. Gadoda esa yolg’iz ishq iksiri mujassam. Uning gadoligiga esa o’sha ishq boisdir. Chunki oshiqning ko’ngil xazinasi ana o’sha boylikdan o’zgasini qabul qila olmagani tufayli gadolik holatiga tushgan. Shundan ishq iksiri tufayli Farhod toj va mamlakatdan «tozalanib», oshiqlik shevasini shior aylagan edi. Xusravning qatl haqidagi do’g’-u dabdabalarni ham Farhod nihoyatda sovuqqonlik bilan, seskanmay qabul qiladi. Bahouddin Naqshband hazratlari nuqtayi nazaridan «O’lim do’stning do’st huzuriga (Alloh dargohiga) tashrifi ekan, bundan xafa bo’lmoq ne hojat?» Darvoqe, odamning dunyoga kelishi Uning xohish – irodasi ekan, qaytishi–o’limi ham bandasini o’z huzuriga da’vati emasmi? Komil musulmon rutbasidagi Alisher Navoiy uchun bunday islomiy qarashlar kunday ravshan edi. Shundan bo’lsa kerak, uning qalamidan sayqal ko’rgan Farhod pinagini buzmay «ishq yo’lida qurbon bo’lish mening maqsadimdir»,-deya turaveradi.

Dostondagi ilohiy ishqdan mahrumlik, dunyoviy zulmning timsoli bo’lgan Xusrav Parvez Farhodning javoblaridan nihoyatda ta’sirlanadi. Uni dorga osmoqchi bo’ladi, biroq vaziri Buzrug Ummidning taklifi bilan Chin shahzodasi Salosil (Zanjirlar) g’orida bandilikda saqlanadi. Shunday qilib ma’rifat martabalaridan odimlab, ruhiy-ma’naviy yuksaklikka tomon harakatlanayotgan oshiq bilan jaholat, makr-hiyla, beburdlik, g’ofillik botqoqlarida botib borayotgan zolim orasidagi to’qnashuv asar sahifalarini g’oyat ziddiyatli lavhalar bilan boyitadi. Suqrot ta’kid etgan: «Haqiqat ahli zindoniydur asru»,-degan hukm shahzoda qismatida ham mavjudligi namoyon bo’ladi. Farhod Suqrotdan olgan ta’limi asosida tutqunlikdan xolos bo’lish imkoniyatiga ega edi. U shunday qudrat sohibi ekanligini namoyon ham qiladi. G’or yo’lida qum va olmos tashlanganligi-yu, besh yuz qorovul tayinlanganiga qaramay, bemalol temir darvozani ochib chiqib ketaveradi. Biroq nigohbonlar Xusrav tomonidan o’limga hukm etilishini istamay, yana zanjirlar g’origa kelishni ixtiyor etadi. Shopur bu xabardan voqif bo’lib, hushsiz yotgan

Shiringa Farhodning tirik ekanligini aytadi. U oshiq va ma’shuqalarning ishq haroratidan jo’shib bir-birlariga intiqlik bilan yozgan maktublarini ularga yetkazib turadi. Biroq ezgulik jaholat qurboniga aylanadi. Xusrav yana makr-hiyla yo’liga o’tadi. Hiyla-nayrangi falaknikiga o’xshash, qaddi ikki bukilgan qari kampirni Farhod huzuriga yo’llaydi. Firibgar zol Xusrav Arman mamlakatini bosib oladi, Mehinbonu u bilan yarashadi, Shirinni unga berishga rozi bo’ladi, ammo Shirin bunga chidolmay o’zini halok etadi, deb Farhodni ishontiradi. Bu makkora kampir afsonasidan Farhod ichida yuz minglab tig’ tushib, u faryod ko’taradi:

G’irovi tortibon Farhodi mazlum,
Dedi: Bas qilki, bo’ldi qissa ma’lum.
G’araz gar jon edi, olding ana hoy,
O’luk tandin ne istarsen yana voy.
Ko’ngil qonim ichardin to’yg’il emdi,
Meni o’z mehnatimg’a qo’yg’il emdi.
Debon qo’pti jahondin silkibon qo’l,
Adam dashtig’a hijron aylabon yo’l.
Yoshidin tog’da solib sel rezi,
Demakim sel rezi rustaxezi.
Bu seli jismining qasrin qo’ng’orib,
Hayoti xayli ham ul suvg’a borib. (8, 402)

Alisher Navoiy Farhodning keyingi ayanchli ahvolini tasvirlarkan, uning butun vujudi sekin-asta parokanda bo’layotganiga e’tiborni qaratadi. U - g’oyatda ta’sirli ko’ngil g’ashlarini bag’riga olgan hajr dashtining oviga aylanadi. Hajr esa o’tkir qilichdan ham og’ir yara bo’lib, uning bag’rini ikki pora qiladi. Farhod fig’on tortib o’rnidan turishga har qancha harakat qilmasin, holsizlanib yiqiladi. Ajal buzg’inchisi jismidan quvvatini oladi, natijada uning ko’zi oldida olam qorong’u go’r bo’lib ko’rinadi. Qorog’ulikda toshlar tomon talpinganida, jismidagi suyaklar sina boshlaydi. Shunda u boshlarini toshlarga urib yig’laydi. Farhod charxga, g’am tig’i, anduh toshi, ajal, qiynoq, azob, hijron g’ami, tog’, metinday qattiq tog’ toshi, hayvonlarga nolalar qila boshlaydi. Uning o’limi oldidagi bu afg’onlarida hayotga tashnalik tuyg’usi nihoyatda bo’rtib ko’rinadi. Shundan so’ng u bodi saboga iltijo qilib Chin-u Xito mulkiga yo’l olishini, xoqonga uchrab ota yuzini ko’rolmay armon bilan o’lgan farzandidan unga xabar yetkazishini o’tinadi. Shuningdek, bu o’tinch zamirida Farhodning salomi mushtipar onasi, Mulkoro va Bahrom, ustozlari Moniy va Qoranga ham yo’llanganligini ifodalaydi. Do’sti Shopurdan qabrining toshidan hamisha voqif bo’lishini iltimos qilib jon taslim etadi:

Buzulg’on joni jononig’a tushti,
Balo o’ti buzuq jonig’a tushti.
Ul o’t bir nav’ kuydirdi vujudin,
Ki, kul qildi vujudi tor-u pudin.
Qilib jononini otin tilga ta’lim,
Tutub jonon otin, jon etti taslim. (8, 419)

Farhodning o’limi yirtqich hayvonlarga ta’sir qilib, ular makkora kampirni burda-burda qilib tashlashadi.

Chin shahzodasining halok bo’lganligi haqidagi xabar tezda tarqaladi. Uning dushmani bo’lgan Xusrav Shirin visoliga yetish orzusidan shodlansa-da, Allohning g’azabiga uchrashidan qo’rqardi. Nima bo’lganda ham Mehinbonu qasriga kordonlari-ishbilarmon kishilarini yuboradi. Mehinbonu Farhodning o’limiga bir onadek aza tutgan bo’lsa-da, avvalo, qamalda qolgan xalqning ayanchli ahvoli va arkoni davlatning mulohazalariga tayanib, Xusravning taklifini qabul qiladi. Shirin esa bir necha bor o’z joniga qasd qilishga urinadi, biroq atrofdagilar bunga mone’lik qilishadi. U juda ham beqaror, betob bo’lib qoladi. Mehinbonu Xusravdan ruxsat olib, Shirinni istirohat uchun Farhod keltirgan suv va qurdirgan qasr tomon yuboradi. Bu orada Shiringa oshiq bo’lib qolgan Xusravning o’g’li Sheruya o’z otasini o’ldiradi. Voqealar rivojida Shopur tutqunlikdan ozod bo’ladi. Shirin Farhodning jasadi qo’yilgan uy eshigini ichkaridan mahkamlab, oshig’i bag’rida mangu uyquga ketadi:

Bu yanglig’ ko’rgach sarvi cholok,
Anga ham xobaliq qildi havasnok.
Qo’yubon ro’y-barro’ do’sh –bardo’sh,
Bo’lub o’z bedili birla ham og’ush.
Ko’nguldin shu’laliq ohe chiqordi,
Ko’zi hamxobadek uyqug’a bordi.
Ne uyqu, kimsa andin qonmas uyqu,
Qiyomatqa degil uyg’onmas uyqu. (8, 446)

Shirin husn-u malohatda yakto bo’lgan, Farhodning mahbubi Mutlaq visoliga erishish yo’lidagi mazhar bo’lish bilan bir qatorda oshig’i singari ulug’ niyatni ko’nglida tukkan oshiq edi. Uning ham jismi hajr qiynoqlaridan afgor bo’lib borar, ko’ngli g’ashlik saltanati hukmronligiga tobe’ bo’lib qolgandi. Farhodning mangu orom olayotganini ko’rib unga havas qiladi. Xayolan sevgilisining yuziga-yuz, taniga-tanini qo’yib o’zini uning og’ushiga ko’radi. Ko’nglidan o’tli bir oh chiqib, ko’zi Farhodniki singari mangu uyquga ketadi. Ko’rinadiki, Farhod va Shirinning o’limi ular qalbidan o’rlagan o’tli oh natijasida sodir bo’ladi. Bu Suqrot bashorat etgan chaqin bo’lib, uning

shu’lasidan ishqi majoziy harorat olib ishqi haqiqiyga aylanadi. Bu sevishganlar ruhining jism zindonidan ozod bo’lib, abadiylik olamiga ravona bo’lishidir. Ayni choqda ranj-u mashaqqatlar natijasida poklangan ko’ngil hijron iskanjalaridan jonini o’tli bir oh bilan xalos etadi. Shunday o’lim Mehinbonu qismatida ham uchraydi. Ulug’ shoir Shirinning jonsiz tanini ko’rgan Mehinbonuning foniy dunyoni tark etishini quyidagicha tasvirlaydi:

Chu Bonu ko’rdi mundoq turfa holat,
Andin xud bor erdi jondin malolat;
Chiqib gardun sori afg’oni oning,
Fig’oni birla chiqti joni oning.
Chu Shirin joni erdi onsiz o’ldi,
Damekim o’ldi onsiz jonsiz o’ldi. (8, 447-448)

Dostonning asosiy vaqealari qirqqa yaqin fazl egalari bo’lgan donishmandlarning bir xil tush ko’rishi hamda Farhodning ko’kaldoshi Bahromning Armman o’lkasiga lashkar tortib Sheruyani mag’lub etishi va yurtda adolat o’rnatilishi bilan nihoyalanadi. Asardagi tush lavhasi undagi yetakchi g’oyani teran tahlil etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Unda tasvirlanishicha, benihoya go’zal jannat bog’ida Farhod va Shirin bir qasr ichra nurdan yasalgan taxt uzra barqaror turadilar. Mehinbonu ham shu yerda, sevishganlarning ota-onalari ham bu zavq-u shavqdan bahramand emishlar. Shoirning xulosasiga ko’ra, ishq o’tida poklanganlar va ularning yaqinlari Farhodu Shirinning

Vujudin o’rtab ul so’zu gudozi,
Haqiqatqa badal bo’ldi majozi, (8, 449)-

tufayli bu saodatga loyiq ko’rildilar.

Dostonda idrok etilishi nihoyatda murakkab bir mavzudan bahs etiladi. Jumladan, xoqon, Mulkaro, Bahrom, Qoran, Moniy, Mehinbonu, Shopur singari obrazlar ham zohirbin kishilar vakili bo’lsalar-da, ular ilohiy fayzdan bahramand bo’lib, komillik sari intiluvchi Farhod va Shiringa zulm qilishmaydi, ularga madadkor bo’lishga tayyor turishadi. Xusrav, Buzrug Ummid, Sheruya, makkora zol esa nafs bandalari, ularning qalbi zulm va qabohat, makr-hiyla maskanidir. Alisher Navoiy Farhod va Shirin singari komil insonlarni komil jamiyat vujudga keltirishi va avaylab asrashi lozimligidan o’quvchilarga saboq beradi. Bahromning g’alabasi, Arman o’lkasida adolatning tantana qilishi buning yorqin namunasidir. Asardagi Suhaylo, Xizr, Suqrot obrazlari orqali Haqsevarlik, insonsevarlik g’oyalari ilgari suriladi. Shunigdek, ular vositasida inson olamning gultoji ekan, uning tafakkur doirasi kengligi, ma’rifati, hamida axloq-u najib fazilatlari bilan o’zini komillik rutbasida

ko’rishga qodirligiga ishora etiladi. Doston so’ngidan Shoh G’arib Mirzoga nasihatlarning o’rin olishi zamirida esa ulug’ shoirning adolatli jamiyat qurish orzusi o’z ifodasini topgan.

9.4. «Layli va Majnun» - ishqiy, fojeaviy doston. Asarning tuzilishi, yetakchi obrazlari va badiiyati

Alisher Navoiy «Xamsa»sining uchinchi dostoni musulmon mintaqa xalqlari adabiyotida keng shuhrat qozongan Layli va Majnunning dardchil ishqiy sarguzashtlariga bag’ishlangan. Bu sayyor mavzu nihoyatda qadimiy bo’lib, manbalarda e’tirof etilishicha, uning badiiy talqini namunalari VII asrning ikkinchi yarmidan arab adabiyotida vujudga kela boshlaydi. Dastlab qadimgi ko’chmanchi arab qabilalari orasida paydo bo’lgan mazkur mahzun qissaning tarixi va tadrijiy takomiliga doir ilmiy tadqiqotlarda Majnunning tarixiy shaxsligi masalasi munozarali ekanligi qayd etiladi. Jumladan, arab manbalarining ayrimlarida el orasida Bani Omir qabilasiga mansub bo’lib, Majnun nomi bilan tanilgan shaxsning haqiqiy nomi Qays ibn Mulavvah yoki Qays ibn Muod bo’lganligi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, ba’zi manbalarda Majnunning haqiqiy nomi Mahdiy ibn Muod yoki al-Buhturiy ibn al-Ja’d tarzida ham uchraydi. Qays o’z qabiladoshi Laylini sevgan va shu muhabbatning hijron iztiroblariga doir mungli she’rlar ijod etgan. Shunday qaydlar IX asrda yashagan Ibn Qutaybaning (vafoti 889) «Kitob ush-she’r va shuaro» asarida ham mavjud. VIII asr va IX asrning boshlarida yashagan ba’zi arab tarixchilari, jumladan, Avon ibn Hakim al-Qalbiy (vafoti 764) hamda Hishom al-Qalbiy (vafoti 819)lar esa Majnunning tarixiy shaxsligini inkor etishadi. Ularning fikricha, Majnun tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziydir, uning nomi bilan bog’liq she’rlar esa, o’z yaqin qarindoshlaridan birining qiziga oshiq bo’lgan ummaviylar xonadoniga mansub bir yigitning g’azallari bo’lib, u o’z nomini oshkor etmaslik uchun Majnun taxallusini qo’llagan. Yetti yildan ziyodroq davr ichida musulmon davlatlarida sayohatda bo’lgan fors-tojik adibi Nosir Xusrav esa o’zining «Safarnoma» asarida Arabistonda unga Layli hamda Majnun nomi bilan bog’liq joylarning xarobalarini ko’rsatishgani haqida ma’lumot beradi. Ko’rinadiki, Majnunning tarixiy shaxsligi qanchalik bahsli bo’lsa, uning to’qimaligi va unga nisbat berilgan she’rlarning muallifi masalasi ham shunchalik munozaralidir. Shunday qilib, mavzu tarixiga oid aksariyat ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, dastlab Majnunga nisbat berilgan mungli she’rlar zamirida VIII asrda arab adabiyotida uning sevgisiga oid rivoyatlar paydo bo’la boshlagan. IX asrdan boshlab esa bunday to’qima

voqealar miqdor jihatidan ancha ko’payib keng xalq ommasi orasida shuhrat qozongan, uning yangi-yangi tahrirlari paydo bo’lgan. X asrga kelib Majnun nomi, unga nisbat beriluvchi she’rlar hamda uning Layliga bo’lgan yoniq muhabbati haqidagi voqealar tizmasi Arabiston sarhadlaridan oshib, sayyor sujet sifatida musulmon xalqlari orasida keng tarqala boshlaydi.

Layli va Majnun haqidagi dardchil ishqiy sarguzashtlar va bu mahzun voqealar tizimining to’laqonli badiiy asar sifatida shakllanib, yozma adabiyotdan mustahkam o’rin olishida taniqli ozar shoiri Nizomiy Ganjaviyning «Layli va Majnun» (1188) dostoni asos bo’ldi. Albatta, bizning bu ta’kidimizning shu mavzuda yaratilgan mustaqil asarlarga tegishli ekanligi yangi manbalarda kashf qilinib, ayni yo’nalishning o’q ildizlari VIII-IX asrlarga (hatto undan oldinroq ham) daxldor bo’lib qolishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Shuningdek, yuqorida qayd qilib o’tganimizdek, she’riy satrlarda Layli va Majnunlar nomining tilga olinib, ularning nomurod muhabbatiga doir armonli lavhalarga ishora qilish johiliyat davridan boshlanib, hozirga qadar davom etayotganligi adabiy haqiqatdir. Shayx Nizomiyning asari esa nomlari qayd etilgan maxsus badiiy yaratmalar ijod qilinishining debochasi hisoblanadi. Turk adabiyotshunosi Agah Sirri Levend «Arab, fors va turk adabiyotlarinda Layli va Majnun hikoyasi» (Anqara, 1957) nomli tadqiqotida ayni mavzu bilan bog’liq voqealar asosida yuqorida sanalgan tillarda yuz ellikdan ortiq nomdosh, biroq bir-birinini mutlaqo aynan takrorlamaydigan dostonlar bunyodga kelganligini e’tirof etgan edi. Salohiyatli olim mazkur kitobida o’zi qo’lga kiritishga erishgan asarlar haqida mulohaza yuritadi, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirishga muvaffaq bo’ladi. Asar oxirida Layli va Majnun mavzusidagi dostonlar va ularning muallifi to’g’risida ixcham ma’lumotnomadan iborat ro’yxatni ilova qiladi. Biroq Agah Sirri Levendning bu qaydlarini ham hali tugal deb bo’lmaydi, Chunki o’sha mavzuda juda katta jug’rofiy hududlarda yozilgan barcha asarlar ro’yxatini bir muallifning tugal to’plashi qiyin, albatta. Masalan, Shamsuddin Shohin (1859-1893) 1888-yilda Buxoroda tojik tilida «Layli va Majnun» dostonini yozdiki, bu asar, hatto shu muborak zaminda istiqomat qilayotgan ko’pchilik mutaxasislarga ham tanish emas. Bunday dalillarning yana ko’plab topilishi muqarrardir.

Ulug’ o’zbek shoiri Alisher Navoiy «Xamsa»ning uchinchi dostonini ijod etayotganida, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marog’aviy, Shayxim Suhayliylarning shu mavzuda yozilgan asarlari bilan yaqindan tanish edi. Buyuk salaf va tengdoshlarining ushbu mavzuga oid masnaviylariga yuksak ehtirom bilan baho bergan ulug’ shoir "Layli va Majnun" dostonini yozishdan ko’zlagan maqsadi bu sayyor sujetni yanada takomillashtirish, unga

sayqal berib, yangicha jilo baxsh etish ekanligini quyidagi misralarida aks ettiradi:

Avvaldin ko’p ayladim taammul,
To ko’nglima kirdi bu taxayyul.
Kim, Ganjada ganjlar yoshurg’on,
Har ganjigakim yasadi qo’rg’on.
Yo hind najoti hinduviyzod,
Kim, qasrlarni qildi obod.
Har qal’a uchun kerakdur shahr,
Ham qasrg’a bog’-u sabzadin bahr.
Bo’lsa manga fursat ul qadar chog’
Kim, shahr ila tarh solibon bog’.
Bog’ini riyozi xurram etsam,
Shahrini savodi a’zam etsam. (8, 43)

Shoir ko’chirilgan iqtibosning dastlabki baytida ko’ngliga mana shu o’y kelguniga qadar juda teran mulohaza yuritganini ifoda etadi. Shubhasizki, bu taxayyul «Layli va Majnun» dostonining eskizi, umumiy rejasi edi. Bunday ishoralar parchaning keyingi misralarida yanada tepanroq badiiy in’ikosini topgan. Jumladan, «Ganjada ganjlar yoshurg’on»,- deganda, ulug’ shoir Nizomiy Ganjaviyning «Panj ganj»ini nazarda tutadi. Har ganjdan yasalgan «qo’rg’onlar» esa o’sha ganjina tarkibidagi dostonlardir. Ayni masnaviylari bilan Nizomiy Ganjaviy Sharq xalqlari orasida mashhur bo’lgan sayyor sujetlarni bir joyga to’pladi, ularga badiiyat libosini kiygizib, har birini ulkan bir qo’rg’on monand to’laqonli badiiy asar holida yozma adabiyot olamiga olib kirdi.

Amir Xusrav Dehlaviy ham o’z navbatida o’sha «qo’rg’onlar»ni yangi go’zal qasrlar bilan obod qildi. Alisher Navoiy mantiqiy-badiiy tafakkurini tadrijiy rivojlantirar ekan, qasrni ko’zni qamashtiruvchi bog’-u bo’stonlar bilan bezash lozimligini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy nigohida, Layli va Majnunning dardchil ishqiy sarguzashtiga bag’ishlangan Nizomiy Ganjaviy dostoni bir qo’rg’on bo’lsa, Xusrav Dehlaviy masnaviysi unga yanada ko’rkamlik baxsh etgan qasrdir. Ulug’ shoir o’zining turkiyda bunyod qilingan dostoni haqida ham badiiy mushohada yuritishni unutmaydi. Alisher Navoiyning talqinicha, o’z qalami tuhfa qilgan doston o’sha «qal’a»lar ichra «savodi a’zam» -ulkan shahar hamda qasrlar husniga husn qo’shuvchi «riyozi xurram» - gullab-yashnagan bog’dir. Baytlarda keltirilgan bunday ajoyib tamsillar vositasida Alisher Navoiy salaflar yaratgan asarlardan yuksak badiiy zavq olib, ta’sirlanganini, ular istiqbolida turib, o’sha masnaviylar «panjasiga panja

urishga» yaroqli doston yozishday g’oyat murakkab vazifani bo’yniga olganligini o’quvchilardan sir tutmaydi.

Alisher Navoiy «Layli va Majnun» dostonining xotimasida ham salaflari ijodi hamda o’z asarining fazilatlari xususida qiyosiy badiiy mushohada yuritadi:

Men xastaki, bu rag’qamni chektim,
Tahriri uchun qalamni chektim.
Yozmoqqa bu ishqi jovidona,
Maqsudim emas edi afsona.
Mazmunig’a bo’ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli
Lekin bu raqamga keldi mazmun,
Afsona anga libosi mavzun.
Bu erdi g’arazkim ul guruhe
Kim, so’zda ayon qilib shukuhe,
Bu noma uchun bo’lib raqamkash,
Safha yuzin ettilar munaqqash.
Gar nuktalari jahonni tutti,
G’avg’olari ins-u jonni tutti.
Chun forsi erdi nukta shavqi,
Ozroq erdi anda turk zavqi,
Ul til bila nazm bo’ldi malfuz.
Kim, forsiy anglar o’ldi mahzuz.
Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu afsonani hikoyat
Kim, shuhrati chun jahong’a to’lg’ay,
Turk elig’a dog’i bahra bo’lg’ay. (9, 310-311)

Keltirilgan mazkur iqtibosda ulug’ shoir ushbu sayyor mavzuning badiiy talqini xususidagi ikki muhim jihatga o’quvchi e’tiborini qaratadi. Dastlab asar muallifining bu «jovidona» - abadiy ishq haqida doston yozishdan muddaosi shunchaki afsona so’zlash bo’lmay, balki bag’rida turk xalqi «zavqi»ni yashirgan davrning ulug’ dardlarini badiiy umumlashtiruvchi bir doston yozishdan iboratligini yoniq satrlarda ifodalashga erishadi. «Afsona anga libosi mavzun» misrasi orqali turkiy dostonda qadimiy mavzu har jihatdan yangicha badiiy jilo topganligiga ishora qilinadi. Bu holat, ayniqsa, qahramonlar ichki kechinmalari tasvirida yaqqol namoyon bo’ladi. Asardagi tabiat manzaralari ham doston ishtirokchilarining murakkab ruhiy holati badiiy ifodasiga xizmat qildiriladi.

«Layli va Majnun» dostoni «Xamsa» tarkibidagi nisbatan ixcham masnaviylardan biri bo’lib, aruzning hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maf’uvlu mafo’ilun fauvlun --v v-v- v--) bahrida bitilgan. Doston 38 bobdan iborat. Asarning dastlabki to’qqiz bobi an’anaviy muqaddima (hamd, na’t, ustozlar, Sulton Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo madhi va «Ul tun mahobati ta’rifi») bo’lib, 10-bobdan asar asosiy voqealarining badiiy ifodasi boshlanadi. Masnaviyda qalamga olingan Layli va Majnun fojeaviy ishqiy sarguzashtlari tasviri sevishganlarning vafoti bilan intiho topadi. Dostonnning so’ngi uch bobi uning xotimasidir. Unda «Ishq ta’rifidakim.. .», Shohzoda Sulton Uvays Bohodir madhi hamda ulug’ shoir «dard navhasi» («dard nolasi»), deya e’tirof etgan «Layli va Majnun» voqealari yakuniga bag’ishlangan boblarga ham o’rin berilgan.

Asarning «Ul tun mahobati ta’rifi» nomli 9-bobini o’ziga xos boshlanma tarzida talqin etish mumkin. Ulug’ san’atkor bu bo’limda navoiyona bir uslub bilan buyuk ustozlari asarlariga bo’lgan o’zining cheksiz ehtiromini go’zal badiiy ifoda etadi hamda tun va hotif (g’aybdan ovoz beruvchi) obrazlari vositasida «Ma’nisi daqiq-u lafzi shirin», «dard-u so’zi ko’prak» bo’lishi nazarda tutilgan dostonining asosiy voqealari tasviriga kirishadi. Tun, chaqin, yomg’ir timsollari va ishqqa berilgan ta’rif-u tavsiflar orqali ulug’ shoirning tayanch muddaosi asar qahramonlari ruhiy holati va ichki kechinmalarining jozibador tasvirini yaratish ekanligi anglashilib turadi. Ulug’ shoirning vujudi qorong’u zulmat asiri bo’lganda, u taxayyul otiga erk beradi. Xayol tavsani (chopqir oti) Arabistonga yetishi bilan ishq hidini tuygani bois chopishdan to’xtaydi. Axir, u ishq vodiysiga yetgan edi-da! Bu vodiydan o’tish esa nihoyatda mushkul. Boz ustiga otning oyog’i ham oqsoqlanib qoladi. Bu ham etmaganidek, bulut ko’z yummay yosh to’ka boshlaydi. Tungi shamolning dahshat solib esishi yomg’ir shiddatini kuchaytiradi. Ba’zan-ba’zan Tur tog’i uzra chaqnagan chaqin quyosh Sharqni yoritganidek tog’ni shu’lalantiradi. Mana shunday vahimali tun bag’ridagi chaqin yog’dusida Hay qabilasi ko’zga tashlanadi. Xayolot olamiga g’arq shoir bunday hayratli manzaradan ko’z ocholmay qoladi. U (shoir - satrlarda harakatlanuvchi qahramon) tong yeli tun kulini supurganidagina, bir lahza orom oladi. U yana aql-u hushini egallagan tun tavsilotlari haqida o’z-o’ziga savol bilan murojaat qiladi: «Bu tunmi yoki balo dashtidan nishona - qorong’u kunmi?! Har tomondan ofat yog’iladi, nahotki, jahonda shunchalik ko’p jaholat bor bo’lsa?! Bu qanday zulmatli vodiy ekanki, hatto, nafas yo’lini qorong’ulik tutadi?!» Ulug’ shoir – she’r qahramoni poyonsiz savollariga javob topishga ulgurolmay g’oyibdan nido keladi:

Kim: “Keldi bu dasht – ishq dashti,
Jon ofati keldi sarguzashti.
Har barqki ko’rdung ozori ishq,
Har lam’asi barqi xanjari ishq.
Har tiyra sahob zulmat andud,
Gardun uza ishq o’tidin dud.
Yomg’ur dema, qatrayi bahoron,
Ishq aylabon anda tiyrboron.
Darranda sibo’kim solib sho’r,
Bu dashtda har taraf ushog’ mo’r. (9, 53)

Shu tariqa hotif - g’oyibdan kelgan sado ulug’ shoirga Layli va Majnunning jonso’z ishqi haqida hikoya qiladi. Ayni mavzuda o’ziga qadar qalam tebratgan ulug’ salaflr hamda unga shunday noyob asarni bunyod etish uchun to’g’ri yo’l ko’rsatgan hotifga tasannolar aytiladi:

Ul nav’ki hotif etti irshod,
Men ham qildim fasona bunyod. (9, 57)

«Layli va Majnun» dostonida ishq talqini «Xamsa» tarkibidagi boshqa masnaviylarga nisbatan batamom ayricha yo’sinda hal etiladi. Dostonda naql qilinishicha, Qays Hay qabilasida joylashgan maktabga o’qish uchun beriladi. U o’qishga kelgan kuni Layli xasta bo’lgani sababli mashg’ulotda yo’q edi. Layli sog’ayadi va maktabga keladi. Qays Laylini va u Qaysni ko’radi, nigoh-nigohga tushishi bilan qalblarga ishq otashi tutashadi. Firoq va hijron azoblari o’sha kundan boshlanadi. Ushbu dostonda qahramonlar holatida sukr (mastlik, sarxushlik, o’zidan ketish) alomatlari bag’oyat baland. Layli va Majnun visol onlaridagi qarashlar to’qnashuviga dosh berolmaydilar va ular tabiatida mastlik, behushlik kayfiyati yuz beradi. Ilk uchrashuv manzarasi Laylining tuzalganidan shodlangan ustodning hamma shogirdlarini darsdan ozod qilgandan so’ng, Layli va qizlar gulshan sayriga chiqqanlarida sodir bo’ladi. 5-6 yoshlardagi bu norasida go’daklar bir-birlariga ro’baro’ kelganlarida, Qays bexosdan ishq haqida so’zlaydi. Uning ruhiy holatida jiddiy o’zgarishlar paydo bo’ladi. Qaysning hushidan ketishi Laylini sarosimaga soladi. Ikki kanizak kelib qizni bu tashvishdan xalos etishadi. Majnundagi junun - ishq tufayli. U o’ta yuksak harorat bilan Laylini (uning timsolida Allohni ham) sevadi. Biroq bu muhabbatga Laylining otasi rozi emas. Chunki Qays mansub bo’lgan Bani Omir qabilasi mavqe-e’tibor jihatidan Hay qabilasidan birmuncha past. Shunday gapni davlat-u sarvar xususida ham aytish o’rinlidir. Barcha to’siqlar ana o’sha nuqtadan boshlanadi. O’rtaga Ibn Salom qo’shiladi. U arablarning

Bani Asad qabilasidan. Dostonning 18-bobida Ibn Salom xususida shunday satrlar bor:

Ham xayli Bani Asadg'a voli,
Yuz xayli Bani Asadcha moli. (9, 128)

Laylining otasiga ma'qul kelgan jihat ham Ibn Salomning ana o'sha nufuzi, molidir. Doston voqealarining keskin tus olishi Ibn Salom sovchilarining katta sovg'a-salom bilan Layli mansub xonadonga kelishidan boshlanadi.

Qaysdagi ishq jununi kun sayin emas, hatto, soat sayin ortar edi. Qabila oqsoqollarining maslahati bilan Qays islom olamining muqaddas sajdagohi – Ka'baga olib boriladi. Muborak va muallaq mo'jizaviy tosh – «Hajar ul-asvad» qarshisida Qays Yaratganga munojot qilib, o'z «dardi»ga shifo tilashi lozim edi. Qarang, Qays Egamdan nimalarni iltijo bilan so'raydi:

Ko'nglumga fazo harimi ishq et,
Jonimg'a g'izo nasimi ishq et!
Ishq isidin et damimni mushkin.
Ishq o'tidin et yuzumni rangin!..
Jonimg'a sol ul sharorani ham,
Boshimg'a ur ushbu xorani ham.
Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab!
Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab!
Derlar manga: «Ishqni unutgil,
Layli g'amidin kanora tutgil,»
Alloh, Alloh bu ne so'z o'lg'ay,
Ul qavmg'a Tengri uzr qo'lg'ay...
Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin ragimda qon qil.
Dardini najotim et, Ilohi,
Yodini hayotim et, Ilohi! (9, 145-146)

Majnunning ushbu munojoti g'oyaviy mazmuni, ishqqa bo'lgan baland mas'uliyati jihatidan Farhodning Xusrav dilan qilgan munozarasiga juda yaqin turadi. Alisher Navoiy qalami bilan nash'-u namo topgan bu yuksak e'tiqodli oshiqlarning ma'naviy-ma'rifiy olami boy. Ular shunchaki bulhavas oshiq emas, balki xudoboxar, sabr-u bardoshli, hayo va iboni shar'iy axloq talablariga rivoya qilishni bir lahza ham unutmaydigan, iymon-e'tiqodi butun insonlardir. Ulug' shoir kitobxon qalbida shubha uyg'otmaslik maqsadida ularni tanho qoldiradi, dil rozini aytish uchun shart-sharoit hozirlab beradi. Biroq sevishganlarning barcha sa'y-u harakatlari ruhiy-ma'naviy muloqot

doirasidagina qolib ketadi. Na Farhod va na Majnun faoliyatida odobsizlik, jismoniy yaqinlashishga mayl alomatlari, shariati islomiya ahkomlariga xilof harakatlar ko’zga tashlanmaydi. Aniqrog’i, shar’iy axloqiy talablar ularni ma’lum nuqtaga tortib turadi. Shuningdek, qanoat va qone’lik tamoyillari ham borki, Farhod-u Majnunlar unga qat’iy rioya qiladilar. «Layli va Majnun» dostonida «Farhod va Shirin»dagi Shopurni xotirga keltiruvchi bir timsol mavjud. To’g’ri, ularning mavqe va ijtimoiy hayotdagi o’rni birday emas. Shopur – Eron farzandi, u jahongashta tijoratchi, dunyo kezgan, yurt ko’rgan «base achchiq-chuchuklarni» boshidan kechirgan inson. Muhimi, u faqat pul topish, uni sanash va mo’may foyda izidan quvuvchi, ma’naviy olami qashshoq kimsa emas. Shopur – ma’rifatli, fahm-u farosati joyida bo’lgan shaxs. U o’z va o’zgalar qalbi ila sirlasha oladi. Shuning uchun u Farhodni o’zi uchun kashf qiladi, uning qalbi tubida pinhon darddan ogoh bo’la oladi. Shunday jasur, hozirjavob, hunarli insonga madad qo’lini cho’zishni o’zi uchun sharaf hisoblaydi. Farhod va Shopurdagi ma’naviy-ma’rifiy uyg’unlik ularni shu qadar yaqinlashtiradiki, natijada bu ikki birodar yagona maqsad yo’lida birday xizmat qiladi. Shopur tabiatida Axiy («Sab’ayi sayyor»dagi birinchi hikoyat qahramoni)ga xos fazilatlar namoyon bo’ladi. «Layli va Majnun»da Navfal shunday qiyofada ko’zga tashlanadi. Avvalo, mushohada qilib ko’raylik, Shopur, Navfal, Axiylarning voqealar to’qimasiga olib kirilishi hayot haqiqatiga rost keladimi? Ular sun’iy ravishda o’ylab topilgan to’qima timsollar emasmi? Dadil javob berish mumkinki, ushbu qahramonlar o’zlari mansub asarlarda faoliyat ko’rsatmasa, o’sha dostonlarda norasolik, kemtiklik yuz berardi va o’sha badiiy yaratmalarning adabiy-ma’rifiy qadri bu qadar yuksakda bo’lmas edi. Xalqiyatda «ahli dard» degan ibora mavjud. Uning paydo bo’lishi esa tasodifiy emas. Dard bor joyda uni his etuvchi, himmat qo’lini cho’zuvchi insonlarning bo’lishi shak-shubhadan xolidir. Fikrimizcha, o’shanday zaminda «ahli dard» iborasi tug’ilgan. Navfal ana shunday ahli dardlardan biri edi. U tasodif bilan sahroda jonivorlar bilan sirlashib, qalbiga taskin berib yurgan Majnun bilan uchrashib qoladi. Navfal – o’z ma’naviy olamiga ega sarkarda. U faqat nayzabozlik qilish, qilich chopishni emas, insonlar qalbiga quloq tutishni ham biladi. Qaysning tashqi ko’rinishi uni hayratga soladi. Biroq u bilan muloqot jarayonida Navfal uchun juda ko’p sohalarga oydinlik kiritiladi. Sarkardaning Qaysga doir tasavvuri ijobiy tomonga o’zgaradi. Ayniqsa, Qaysdagi boy ma’naviy-ma’rifiy olam Navfalni hayratga soladi va unda shunday dardmand (ishq dardiga giriftor), bama’ni yigitga madad berish istagi tug’iladi. Navfal Laylining otasiga murojaat qiladi, uni yo’lga solmoqchi, murosaga keltirmoqchi bo’ladi. Biroq sarkardaning

bunday savobli urinishlari hayf ketadi. Tabiiyki, muloqotda mag'lubiyatga uchragan shijoatli Navfal jismoniy kuchga tayanmoqchi bo'ladi. Sarbozlari bilan Laylining otasiga qarshi jangga hozirlik ko'radi. U Layli mansub qabilani, uning sardorini kuch bilan taslim qilish maqsadida qurol ishlatish payiga tushadi. Ishqday daxlsiz insoniy tuyg'uning zo'ravonlik qurshovida qolishi va uning shu yo'l bilan hal etilishi Alisher Navoiyga ma'qul emas edi. Biroq asarga o'sha voqealar tasvirini kiritmaslik ham tabiiylikka xilof bo'lardi. Shuning uchun ulug' shoir ana shunday tang vaziyatdan chiqishning xolisona va tinch yo'llarini izlaydi. Dostonga kiritilgan tush manzarasi tasviri ana o'sha ijodiy izlanishlarning samarasidir.

Asardagi tasvirga ko'ra, Majnun tushida Laylini ko'radi. Layli o'z sevgilisiga xabar beradi: «Agar Navfal qabilamiz (Hay qabilasi) ustiga qo'shin tortsa, otam meni o'ldirmoqchi». Bu shum xabar Majnunga yashinday ta'sir qiladi va u Navfal huzuriga boradi. Majnunning iltijolari tufayli sarkarda jang qilish fikridan qaytadi. Lekin u Majnun bilan mutlaqo xayrlashib ham ketmaydi. Sarkarda Navfal jo'mardlarcha yo'l tanlaydi. O'zining bo'yga yetgan qizini Majnunga nikoh qilib bermoqchi bo'ladi. Shunday qilib, bir kechada bir yoqda Layli va Ibn Salomning, ikkinchi tarafda esa Navfalning qizi va Majnunning nikoh to'ylari bo'lib o'tadi. Muhimi, har qanday vaziyatda ham Alisher Navoiy o'z qahramonlarini himoya qiladi, ular pokligiga ozor yetkazadigan barcha urinishlar oldini olish, bartaraf qilishning tabiiy, ishonarli omillarini topadi. Nikoh to'ylari bo'lib o'tadi, biroq Alisher Navoiy talqinidagi qahramonlarning pokligiga qilcha bo'lsin, xalal etmaydi. Navfalning qizi bilan Majnun tanho qoladilar. Kelin Qaysga iltijoli nazar tashlab, o'z sevgilisi borligi va otasi irodasiga qarshi borolmay, to'yga rozi bo'lganligini ma'lum qiladi. Ayonki, o'zi ishq o'tidan yonayotgan Qays Navfal qizining irodasiga zid borolmas edi. U o'sha lahzadayoq kelinga taloq-rozilik berib, o'zi Najd tog'tga qarab yo'l oladi. Ibn Salom va Laylilarning mushkuli ham ana shunday ishonarli darajada hal etiladi. Kuyovning xafaqon xastaligi bor edi. Orzusining ushalishi va to'y shodiyonalaridan ko'proq ichib qo'yganligi sababli Ibn Salomning o'sha kasali jazaba qiladi. U hushsizlanib yotib qoladi. Fursatdan foydalangan Layli kelin libosida uni tark etadi. Shu tariqa Layli va Majnunlarning pokizaligi saqlab qolinadi. Asar xotimasida jisman birlashish baxtiga muyassar bo'lmagan oshiq-u ma'shuqalar ruhan shunday baxtga erishadtlar.

Alisher Navoiy ikki sevishgan qalb sohiblarini yana o'sha qorong'u tun qo'ynida uchrashtiradi. Layli Ibn Salomning notobligi tufayli dashtga yo'l olgan bo'lsa, Majnun ham taqdir taqazosi bilan kitobxonga tanish ishq

vodiysiga ravona bo’lmoqda edi. Tasvir va tamsillar o’zgaradi. Kitobxon ko’z o’ngida dahshatli bir manzara emas, aksincha, sokin ruhiyat hukmron bo’lgan ishq vodiysida sevishganlar fardlashadilar. Oshiq-ma’shuqlar bir-birlarining vasliga etishganidan butun borliq xushnud tin olmoqda: hayvonlar, o’simliklar – barcha-barcha mavjudot sukut saqlaydi. Pok muhabbat sohiblari ruhan birlashadilar. Ikkilik o’rnini birlikka – tavhidga bo’shatib beradi:

Majnun sog’inib o’zini Layli,
Aylar edi noz-u ishva mayli.
Layli o’zini sog’indi Majnun,
Shukr ettiki, yori erdi maqrun.
Ul bu bo’ldi-yu lek bu ul,
Topmadi aroda ikkilik yo’l.
Har ishki o’tib haloklikdin,
Ayru emas erdi poklikdin.
Ishq ahli bu nav’ o’lsalar pok,
Gar vasl muabbad o’lsa nebok?
Oshiqi murodi kom bo’lg’ay,
Oshiqlik anga harm bo’lg’ay.
Alqissa ul ikki yori dilband,
Chun qildilar o’yla vasl payvand.
Payvandi sipehrning uzuldi,
Ohangi jafo yana tuzildi.
Yolg’on kunlariga bo’ldi rog’ib,
Kim, qildi tulu’ subhik ozib. (9, 250)

Layli va Majnun o’rtasidagi pok muhabbat sevishganlarni Ruhi mutlaqqa yaqinlashtiradi. Ular bir-biriga mazhar bo’lganligi bois pok ishq bilan shunday ma’naviy yuksaklikka ko’tariladilarki, natijada qalblari ilohiy fayzdan bahra oladi. Tong otishi bilan hajr iztiroblari yana qalbida o’sha haroratli muhabbat tug’yon urganlarni o’z iskanjasiga ola boshlaydi. Majnun Najd tog’idan makon topadi. U vahshiy hayvonlar va qushlar bilan unslashib, Layli qabilasini kuzatardi. Tabiat Qaysni o’z bag’riga chorlaydi, unga tasalli beradi, mehr ko’rsatadi. O’g’illarining Navfal uyidan ketganini eshitgan ota-ona ham g’am-anduhlarga bardosh berolmay dunyodan o’tishadi. Majnun tushida ularning vafotidan voqif bo’ladi. U qabristonga kelib ham ota-onasi, ham sevgilisidan ayrilgani uchun zor-zor yig’laydi, nihoyatda ko’p iztirob chekadi. Farhodning Shirinning o’lgani haqidagi xabarni eshitganidan so’ng jismi parokandalikka yuz tuta boshlagani singari Majnunning tanasi ham zaiflasha boshlaydi. Ayni choqda Qaysning boshiga tushgan bu kulfatlarga o’zini sababkor bilgan

Laylining ruhiy holatida ham shunday o’zgarishlar kuzatiladi. Qattiq iztirobdan Layli tanasida kuchli harorat paydo bo’ladi. Tabiblar bu kasallik oldida ojiz edilar. Shu tariqa Layli ahvoli borgan sari og’irlashadi. U onasiga so’nggi armonlarini so’zlarkan, Majnunning kelishini, unga o’z farzandlariga qilgan munosabatlari yanglig’ mehr ko’rsatishlarini o’tinib so’raydi. Qays ayni paytda g’oyat xastahol yotardi. Tasodifan quloqlariga bir nida kelib, Laylining o’lim oldida ekanliginidan xabar beradi. Majnun jismida zaiflik sodir bo’lgan bo’lsa-da, qoplon yoinki tog’ kiyigi singari Hay qabilasi tomon yo’l oladi. Layli endi onasiga aytadigan vasiyatlarini tugatish arafasida edi:

Layli qilibon safarg’a niyat,
Aylardi anosig’a vasiyat.
Har nuktaki aylabon guzorish,
Majnunni qilur edi suporish.
Kim, kirdi uy ichra yori joni,
Yo’q, yo’qki rafiqi jovidoni,
Bir-biriga nazar kushod topti,
Ham bu ham ul murod topti.
Jonig’a ul fido qilib jon,
Bu jon beribon nechukki jonon. (9, 280)

Shunday qilib, Layli va Majnunning dardchil ishqiy sarguzashtlari ikki sevishganlarning vafoti bilan yakunlanadi. Ulug’ shoir «Xamsa»ning ikkinchi dostoni «Farhod va Shirin»da pok ishq insonni ruhiy-ma’naviy yuksaklikka ko’tarishi asar qahramonlari sarguzashti asosida tasvir etilgan edi. «Layli va Majnun»da ayni g’oyaning yangicha jilodagi badiiy ifodasi ko’zga tashlanadi. Farhodning ma’rifat martabalaridan odimlashida Suhaylo, Xizr, Suqrot singari donish ahli qo’l bergan bo’lsa, Majnunga Navfal madadkor bo’ladi. Biroq ishq falsafasini teran anglash bobida Navfal Farhodga madadkor bo’lgan ulug’larga tenglasha olmaydi. U jismoniy kuchga ishonadi. Hay qabilasi boshlig’i, Ibn Salom singari obrazlar timsolida ilohiy fayzdan bebahra kishilarning qiyofasi namoyon bo’ladi. «Layli va Majnun»dagi jozibadorlik qahramonlarning ruhiy holati tasviri, tabiat manzaralarining ramziy-majoziy mohiyat kasb etishi, tush lavhalarining kelajakdan xabar berishida yaqqol ko’zga tashlanadi.

9.5. «Sab’ayi sayyor» -Navoiy nazmining yetti sohir tufhasi

Alisher Navoiyning «Sab’ayi sayyor» (Yetti musofir) dostoni ulug’ shoir «Xamsa»si tarkibidagi masnaviylardan tuzilishiga ko’ra tubdan farq qiladi. Dostonning tuzilishi «Ming bir kecha», «To’tinoma» asarlari singari bo’lib,

uning boblari voqea ichida voqea tarzida joylashtirilgan. 1484-yilda ulug' shoirning o'z e'tirofiga ko'ra bor- yo'g'i to'rt oyda Yakunlangan dostonning hajmi besh ming bayt atrofidadir. Bahrom Go'r va uning ma'shuqasi Diloromning sevgi sarguzashtlari asarning qoliplovchi, etti iqlim yo'lidan keltirilgan etti musofirning etti rangdagi qasrda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy muammolarlan bahs etuvchi voqealari qoliplanuvchi hikoyatlardir.

Asarning bosh qahramoni Bahrom Sharq xalqlari adabiyotida juda ko'p murojaat etilgan an'anaviy obrazlar sirasiga mansub. Uning zamiri qadimiy mifologiYaga borib taqalishi bilan bir qatorda, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Sosoniy hukmdorlardan Varaxran V (hukmronligi 418-438) bilan ham bog'liqdir. Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam» asarida Bahromning go'r (kiyik) oviga mayli ko'proq bo'lgani uchun xalq orasida «Bahrom Go'r» laqabi bilan tanilganligini e'tirof etadi. Shuningdek, muallif Bahromning shijoatliligi, jasurligi bilan aloqador tarixiy ma'lumotlarni ham keltiradi. Unga ko'ra, Sosoniy hukmdor Yazdijurd vafot etgach, undan zulm ko'rgan arkoni davlat mamlakatni uning o'g'li Bahromga topshirishni istashmaydi. Ardasher naslidan Kisro nomli kishini taxtga o'tqazadilar. Bundan xabar topgan Bahrom No''mon bilan Yazdijurd saltanatini egallashga harakat qiladi. Arkoni davlatga uning uchun toju taxt otameros ekanligini ta'kidlaydi. Bahrom va Kisro o'rtasida talosh bo'lgan saltanat tojini ikki och arslon orasiga qo'yishga va bu ochofatlarni mahv etgan qahramon mamlakat podshohi bo'lishiga qaror qilinadi. Kisro bosh salomatligini g'animat bilib bu ishdan voz kechadi. Bahrom esa arslonlarni halok qilib mamlakat tojini boshiga kiYadi va adolatli siyosat Yurgizadi (Alisher Navoiy. Asarlar. O'n besh tomlik. 14-tom, Toshkent, 1967, 218-bet).

Bahrom Go'r haqidagi rivoyat va afsonalar hamda tarixiy manbalardagi ma'lumotlardan ijodiy foydalangan taniqli fors-tojik Shoiri Abulqosim Firdavsiy Yozma adabiyotda ilk bor Shu mavzuga bag'ishlangan doston ijod etdi. Shoir «Shohnoma»si tarkibidan o'rin olgan ushbu asarda Bahromning Shohligi tarixi va u bilan bog'liq juda ko'plab afsona hamda rivoyatlar o'zining badiiy talqinini topgan. Doston muallifi asarda Bahromni nihoyatda shavkatli va adolatli podshoh, vatanparvar bahodir, pahlavon va mohir ovchi sifatida tasvirlash bilan birga uning aysh-ishratga mayli Yuksakligi hamda qahr-g'azabi quyushqonidan chiquvchi dahshatli shaxs ekanligini ham badiiy ifoda etadi. Dostondagi Shoir qalamida badiiy sayqallashtirilgan eng mashhur lavha-Bahromnin Munzir tomonidan unga hadya etilgan kanizak xushovoz xonanda Ozoda

bilan ovga chiqishidir. Shoh Bahrom o'zining kiyik ovlashdagi san'atini ko'z-ko'z etish maqsadida Ozodadan qarshisidagi jonivorlarni qanday otishni so'raydi. Ozoda tomonidan qo'yilgan shartga ko'ra, u ota kiyikning ikki shoxini o'q bilan kesib tashlab uni ona kiyikka, ona kiyikni esa o'q otib ota kiyikka aylantirmog'i, Shuningdek, keyingi kiyikning oyog'ini o'q bilan uning qulog'iga bog'lamog'i lozim edi. Shoh Bahrom Ozodaning shartlarini qoyil maqom qilib bajaradi, biroq kanizak uning mohirligini olqishlamagani uchun uni ot bilan toptab o'ldiradi.

Ulug' ozar Shoiri Nizomiy Ganjaviy «Panj ganj»ining to'rtinchi dostoni «Haft paykar» («Etti go'zal»)da ham Firdavsiy asaridagi singari ov lavhasi qalamga olinadi. Bundagi kanizaning nomi Fitna bo'lib, u Bahromga faqat kiyikning oyog'ini uning qulog'iga bog'lashni shart qilib qo'yadi. Amir Xusrav Dehlaviy «Xamsa»sidagi «Hasht behisht» («Sakkiz jannat») dostonida esa Bahromning kanizagi sifatida tanitilgan Dilorom ov chog'ida ota kiyikni ona kiyikka, ona kiyikni esa ota kiyikka aylantirishni talab etadi. Har ikkala ijodkor asaridagi kanizak obrazi mag'rurligi bois jazolansa-da, o'limga hukm etilmaydi. Oradan ancha vaqt o'tgach, ular Bahrom bilan qayta topishadi. Nizomiy Ganjaviy dostonining asosiy qismi Bahromning tug'ilishi bilan boshlanadi. Shoir zolim ota Yazdijurddan Yaxshi farzand tug'ilishi mumkinligi, buning hammasi tarbiyaga borib taqalishiga e'tiborni qaratadi. Dastlab No''mon, keyinchalik uning o'g'li Munzir tarbiyasini ko'rgan Bahrom adolatli hukmdor bo'lib etishadi. Xusrav Dehlaviy «Hasht behisht» dostonining asosiy voqealarini Bahromning taxtga chiqishi lavhasi bilan boshlaydi. Shoir Bahrom Go'r haqida sakkizta hikoya so'zlashni muhim deb biladi. Hikoyalar hind folklori namunalari asosida ijod etilgan bo'lib, ulardagi ko'tarinki ruh, baytlarning badiiy san'atlar bilan mohirona ziynatlanganligi o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi. Alisher Navoiy zamondoshlaridan Ashraf Marog'aviy «Xamsa»si tarkibida ham Bahrom Go'r sarguzashtlariga bag'ishlangan «Haft avrang» («Etti taxt») nomli doston mavjud. Asarni qiyosiy o'rgangan taniqli adabiyotshunos S.Hasanov quyidagi umumlashma-xulosalarini bayon etadi: «Ashrafning «Haft avrang» asari alohida sujet va kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy va Alisher Navoiy dostonlaridan keskin farq qiladi. Ko'plab Shoirlarning tatabbu'si uchun asos bo'lgan Bahrom va Ozoda haqidagi afsona esa asarda o'z aksini topmagan. Buning asosiy sababi, Yuqorida aytganimizdek, Ashraf ana shu afsona asosida Bahromning o'z kanizagiga

bo’lgan muhabbati haqida asar Yaratishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ymaydi. U odil Shoh Bahrom haqida doston Yaratmoqchi. Shuning uchun ham Bahromning kanizagi bilan ovda bo’lib o’tgan voqealariga Ashraf to’xtamay, Bahrom tarixiga e’tibor beradi (Hasanov S. Navoiyning etti tuhfasi. Toshkent: /. /ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi,1991,39-bet).

Alisher Navoiy ulug’ salaflari asarlarini teran o’rganib o’zining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-falsafiy qarashlarini dostonda ifodalash niyatida an’anaga sodiq qolgan holda, Yangicha ruhdagi doston Yozishga intiladi. Ulug’ shoirning bu sa’y-harakatlari dostonning nomlanishidanoq ko’zga tashlanadi:

Lutf bu nazm aro bag’oyatdurur
/araz ammo eti hikoyatdurur.
Chunki qoyim eti musofir edi
Ki,alar sayr ishiga mohir edi.
Bo’ldi chun bu raqam ishi tayyor,
Qo’ydum otini «Sab’ai sayyor».(10, 409)

Buyuk so’z san’atkorining asar xotimasidagi e’tirofiga ko’ra, ushbu doston ko’p qirrali ma’no va mazmun bilan boyitilgan bo’lib, undagi asosiy maqsad etti hikoyatda o’z ifodasini topgan. Buning sababi ijodkor tanlagan hikoyat so’zlovchilar sayru sayohat ishiga mohir bo’lgan, dunyo ko’rgan musofir-darveshlardir. Shu bois doston ijod etilgach, Shoir uni «Sab’ayi sayyor» - etti kezuvchi, sayr qiluvchi deb nomlaydi.

Alisher Navoiy «Sab’ai sayyor»ining Yana bir o’ziga xos muhim jihati qoliplovchi hikoya sanalgan Bahrom va Dilorom ishqiy sarguzashtlarining etti hikoya bilan san’atkorona bir butunlik hosil qilishida namoyon bo’ladi. Unga ko’ra, aysh-ishrat, mayxo’rlik va ovga berilgan Shoh Bahrom dashtda musavvir Moniyni Uchratib qoladi. Moniy xojasi chang chalishda mashhur bo’lgan parichehra Diloromni Xito davlatining bir yillik xiroji evaziga sotmoqchi ekanligini aytib, Shohga kanizakning suratini ko’rsatadi. Bahrom suratni ko’rib qizga g’oyibona oshiq bo’lib qoladi va Xito mulkiga odamlarini Yuborib bir yillik xiroj evaziga Diloromning vasliga erishadi. Bahrom mahvashi bilan birga ov qilar, uning qo’lidan boda ichar, changda yoqimli nag’malar chalgan suyuklisining san’atidan zavq-shavqqa to’lar, xullas, vaqtini xushnudlik va baxtiYorlik bilan o’tkazar edi. Shu tariqa Shoh Bahrom mamlakat, sipoh ishini unutadi, el-ulus unga malomat qila boshlaydi. YAqinlari

Shohni bu ko'ngilsizliklardan voqif qilishadi. Hukmdor Dilorom singari parichehralar vasliga erishish uchun podshohlik vosita ekanligini o'ylab «tarki ishq etgali» bahona qidira boshlaydi. Mahvashi bilan ovga chiqqan shirakayf Shoh qarshisida hozir bo'lgan kiyikni qanday otishni undan so'raydi. Dilorom kiyikning ikki oyog'ini band etib, keyin uni bo'g'izlashni taklif qiladi. Bahrom otgan dastlabki o'q kiyikning bir oyog'idan o'tib ikkinchisiga qadalishi natijasida o'ljaga tuzoq qo'yiladi. Keyingi o'q bilan shirakayf hukmdor kiyikni bo'g'izlaydi. Bahrom sevgilisidan maqtov kutadi, biroq Dilorom bir ish bilan muntazam Shug'ullanishning natijasi Shunday bo'lishini bildiradi. Shoh g'azablanadi. Uning holatidagi o'zgarishni ko'rgan Dilorom misol tariqasida o'zi chang chalaganida,barchaning hushi og'ib qolishini aytadi. Hukmdorning qahr-g'azabi Yanada alangalanadi va sevgilisining boshini kesishni buyurmoqchi bo'ladi, biroq atrofidagilarning ayol kishiga tig' ko'tarish mumkin emasligini ma'lum qilishi Diloromning joniga oro kiradi. Bahromning bo'yrug'i bilan Diloromni o'z sochlariga bog'lab dashtga tashlab ketadilar. Saroyga qaytib tong ottirgan Shoh ma'shuqasini so'raydi. Bo'lib o'tgan voqealardan xabar topgach, qilmishidan iztirobga tushadi, hatto, o'zini o'ldirmoqchi bo'ladi, biroq Shohlik g'ururi yo'l qo'ymaydi. Bahrom o'zini idora etolmay ikki kun hushsiz yotadi. O'ziga kelgach, Diloromni izlashga tushadi. Shoh sahrodan sevgilisining na o'ligini va na tirigini topa oladi. CHodir qurib o'sha yerga tunashga to'g'ri keladi. Bahrom dahshatli tunni Diloromning siymosini ko'z oldiga keltirgan holdacheksiz sahro va uzun tun bag'ridagi chodirda o'tkazadi. Hukmdor sevgilisini qo'msaydi, vijdon azobida qiynaladi, o'zini-o'zi urib ingraydi, nihoyat, tongga Yaqin hushidan ketadi. Bahromga tobe Shohlar va beklar sarosimaga tushib ulug' hukmdorni Shahardagi bir boqqa olib keladilar. Uning muhlik- halok qiluvchi ishq, zolim firoq azobidan jismu aqli omon qolmaydi:

Gah-gahi cheksa erdi nolai zor,
Jismi zori topar erdi ozor.
So'zi ichra yo'q erdi hush asari
Yo'q erdi o'z degonidan xabari.
Xaylidin kimda-kim bor erdi bilik,
Borcha yig'lab Yuvdilar ondin ilik. (10, 129)

Arkoni davlat to'rt Yuz tabibni chaqirib Bahromni davolash lozimligin aytadilar. Hakimlar Shoh ishq dardiga mubtalo bo'lganini ma'lum qilishadi. Ularning fikricha, ishq dardi-o't, tabib muolajasi esa –

xasdir. Bas Shunday ekan, o'tni xas bilan daf etib bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da jiddu jahd bilan Bahrom jismiga sihat kirishi ilinjida hukamo sa'y-harakatda bo'ladilar. «Ikki yil tarki xo'rdu tob aylab, Ish saranjomig'a shitob aylab» qilingan tabiblar muolajasi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shoh Bahrom savdoyiligi ancha barham topadi. Hukmdorni bu darddan Yanada xalos etish uchun hakimlar taklifi bilan etti iqlim podshohi etti qasr bunyod etishga kirishadi. Shoh Bahrom o'zini avvalgidan ham sog'lom his qila boshlaydi. Ulkan imoratlar qurib bitkazilgandan so'ng, tabiblar maslahati bilan Moniy ularni etti rangda nihoyatda maftunkor qilib bezaydi. Shoh Bahrom ulardan zavqlanib kundan-kun dardini unuta boshlaydi. Uning tamomila sog'ayishi uchun qasrlarni bezash ishlari nihoyalangach, etti iqlim Shohi o'zlari qurdirgan etti qasrda qizlarini joylashtirishlari, Shoh Bahrom haftaning har kunini bir qasrda xursandchilik bilan o'tkazib, etti go'zalni o'z nikohiga olishi maqsadga muvofiq deb topiladi.

«Sab'ayi sayyor» dostonidagi qoliplovchi hikoyaning so'nggi bobi mana shu o'rinda nihoyalanib, asarning asosiy qismini tashkil etuvchi etti musofir hikoyatlariga o'rin beriladi. SHanba kuni qora qasrda hinduvash go'zal harir kiyimlarda Shoh Bahromni qarshi olib, hukmdorga e'zoz ko'rsatadi. Tabiblar boshqa iltifotni ta'qiqlashgan edi, buni mahvash bilardi. Kech bo'lgach, u o'z pardasiga nihon bo'ladi. Podshoh uyqusizlikdan aziYat chekadi. Duch kelgan musofirni keltirishni mulozimlariga buyuradi. Birinchi iqlimdan kelgan musofir insoniyat baxt saodati uchun muhim hisoblangan biradarlik, insonparvarlik vabaynalmilallik g'oyalari ilgari surilgan Farrux bilan Axiy haqidagi hikoyatni so'zlaydi. YAkshanba. Sariq qasr. Zarbob kiyimlar kiygan Bahrom sariq libos kiygan rumlik go'zal bilan oltin qadahda sariq may ichib, zo'rg'a kunni kech qiladi. Rumdan tashrif buyurgan musofir Zayd zahhob (Zayd zargar) sarguzashtlarini hikoya qiladi. Shu tariqa dushanba kecha Yashil qasrda Shahrisabzlik musofir «Sa'd», seshanba kecha gulgun qasrda tarozlik musofir «Jo'na va Mas'ud», choranba kecha moviy qasrda Shoh Bahrom huzuriga kelgan musofir «Mehr va Suhayl», payshanba kecha sandal (qoramtir-sarg'ish) rangli qasrda tashrif buyurgan musofir «Muqbil va Mudbir», nihoyat, juma kecha kofuriy (oq) qasrda xorazmlik musofir «Dilorom» hikoyasini so'zlab beradi. Shunday qilib, Shoh Bahrom firoqida o'rtanayotgan sevgilisi Diloromning taqdiri bilan bog'liq ma'lumotlarni xorazmlik sayyoh hikoyasidan bilib oladi. Ulug' shoir bunday yo'l tutish bilan qoliplovchi hikoyat va ichki hikoyatlar orasidagi

Yaxlitlikni ta’minlagan bo’ladi, natijada Bahrom va Diloromning ishqiy sarguzashtlari bilan ijodkorning o’quvchiga taqdim etmoqchi bo’lgan tayanch g’oyaviy niyatlarini o’zida mujassamlashtirgan etti hikoyat o’zaro butunlik hosil qiladi. Xamsanavislikda dong taratgan Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy dostonlarida esa asarning qoliplovchi qismi bilan hikoyatlar o’rtasidagi bog’liqlik mavjud bo’lmay, ular mustaqil voqealar tizimidan tashkil topgan alohida asarlarga o’xshab qolgandi.

Alisher Navoiy «Sab’ai sayyor»da ulug’ salaflari asarlarini Yuqori baholab, Shu bilan birga ularning dostonlaridagi haqiqatdan yiroq bo’lgan ba’zi lavhalarga ham o’zining munosabatini bildirdi. Avvallo, ustozlar badiiy tafakkurining mahsuli bo’lgan Bahromda «moYai dard»-insonga xos bo’lgan haqiqiy sevgi mavjud bo’lmasa-da, uni ishq aro tengsiz deya e’tirof etilishi Shoir e’tiroziga sabab bo’ladi:

Biri bukim yo’q anda moYai dard,
Qildilar ishq so’zidin ani fard.(10, 54)

Ulug’ shoirning ikkinchi e’tirozi «Haft avrang» va «Hasht behisht»da qalamga olingan ba’zi lavhalarning hayotiy emasligi bilan bog’liq:

Yana biri bukim anda ba’zi ish,
Zohiran nomunosabat tutmish(10, 54)

Nizomiy Ganjaviy dostonida to’rt yil No’’mon qo’lida Yamanda tarbiyalangan Bahrom ustozining tavsiyasiga ko’ra, Eronda Munzir bilan bahavo tepalikda qasr qurish uchun joy izlaydilar. Buyuk binokor Simnor «Havarnaq» («Ichkilik ichadigan joy») qasrini bunyod etadi. Bu ulkan imoratni tomoshasiga kelgan Bahrom ilgari umuman kirmagan xonada bo’lib, etti go’zal qizning survtini ko’radi. Keyinchalik Bahrom mana shu etti iqlim Shohining qizlari uchun etti qasr qurdiradi. Amir Xusrav Dehlaviy dostonida esa haddan tashqari ovga berilib ketgan Bahrom Go’rni poytaxtga qaytarish uchun etti qasr bunyod etib, ularning har birida etti go’zal joylashtiriladi. Alisher Navoiy har ikkala asardagi qasrlar qurilishi lavhasi Shoh Bahromning aysh-ishrati tasviri uchun keltirilganligi, Shuningdek, etti malikaning Bahromni uxlatish uchun afsona so’zlashlari tabiiy emasliini qayd etadi. Shoir salaflari talqinidagi odatu sifati g’aflat bo’lgan Bahromning uxlashi uchun afsonaga hojat bormi, deya o’rinli ta’kidlaydi:

Anga xud g’aflat o’ldi da’bu sifat,
Uyqusig’a fasona ne hojat?(10, 55)

«Sab’ayi sayyor» dostonidagi qasrlar qurilishi, ularning Moniy tomonidan etti rangda bezatilishi, Shuningdek, ularda etti iqlim Shohlari qizlarining joylashtirilishi hamda etti musofir hikoyati Bahromning ishq dardi- savdoyilikdan xoli bo’lishi va Diloromning keyingi taqdiridan voqof etilishiga xizmat qildiriladi. Demak, Alisher Navoiy talqinidagi Bahrom ustoz xamsanavislar dostonidagi bosh qahramondan farqli o’laroq ishq-muhabbat nuqtayi nazaridan Diloromga befarq bo’lolmaydi. Undagi «moYai dard», Shohni savdoyilikka duchor etuvchi sevgi maishatparast va xudbin hukmdorni Chinakam oshiq maqomiga ko’taradi. «Haft paykar» va «Hasht behisht» dostonida tasvirlangan nodon Bahrom vasfiga ortiqcha berilgan ijodkorlar Alisher Navoiyning Yana bir e’tiroziga sabab bo’ladi:

Kim munungdek ikki vahidi zamon,
Har bir o’z vaqtida faridi zamon.
Buyla nodon uchun Yozib avsof,
Ang’a qilg’aylar o’zlarin vassof
Madhini behisob Yozg’aylar,
Balki mavzun kitob Yozg’aylar.
Har bir ul nazmida ko’rub ko’p ranj,
Qilg’ay o’z «Panj ganj»iidin bir ganj.
Olloh, Olloh, ne ganj bo’lg’ay bu!
Sarbasar elga ranj bo’lg’ay bu!
Bo’la olmas bu ish magar bu tavr
Ki, desang ul iki Yagona davr.
Baski, ustod edilaru komil,
Bo’ldilar g’arralig’ bila g’ofil. (10, 55-56)

Alisher Navoiy «Xamsa»sining o’zagini insoni komilning jismoniy-ma’naviy balog’atiday hamma zamonu makonlar uchun birday qadrli bo’lgan mavzu tashkil etar ekan, muallif har biri hajman, mazmunu mohiyatan bir dostonga teng keluvchi «Sab’ayi sayyor» tarkibidagi She’riy qissalarda o’sha mavzuning muayyan olmos qirralarini Yoritishni niyat qiladi. Shoir dostonida o’sha qissalar hayot atalmish doshqozonda obdon pishgan, har birining ibratli sarguzashtlari mavjud bo’lgan musofir darveshlar tilidan keltiriladi. SHanba kunini zohiriy va botiniy g’alayonlar og’ushida o’tkazgan Bahromning tun zulmati Yaqinlashganidan dilxunligi ortib boradi va u mulozimlarga jahongashta bir qissaxon topishni buyuradi:

Kim yo’luqsa manga keltursunlar,

Baytul –ahzonima etursunlar.
Kim, necha nukta oshkor desun,
Sarguzashtin fasonavor desun.(10, 140-141)

Shoh Bahromning bu farmoni oliysi ijro etildi va dunyo ko'rgan, olam bo'ylab takror safaru sayohatlarda bo'lgan jahongashta musofir uning huzuriga keltiriladi. Ana shu musofir Bahromga Axiy va Farruxlarning ibratli hayot sarguzashtlari haqidagi qissani so'zlab beradi. Sarandib poytaxti bo'lgan, Xindu Xitoy va Kashmirga qadar hukmi o'tadigan davlat podshohi Jasratxon qirq yildan ziyodroq hukmronlik qilgan, Yoshi saksondan oshgan, adlu amniyat yo'lini tutib saltanat surgan inson. Shohning behisob boyligi, farovon mulki, havas qilgudek, taxtu baxti bor, ammo ko'nglidagi Yagona armoni –taxt vorisligini ta'min etuvchi farzandi yo'q. Jasratxonning munojotu iltijolari ijobat bo'lib, keksaygan chog'larida Farrux ismli o'g'il ko'radi. Shahzodalarga xos tarbiya ko'rib kamolga etgan Farruxga keksa va donishmand otasi mamlakat taxtini ishonib topshirishni ixtiyor etgani asarda quyidagicha tasvir etilgan:

Yoshi saksong'a tegru etmish edi,
Ko'nglidin umr zavqi ketmish erdi.
Istar edi tirikligida o'zi,
Yorumoq o'z charog'i birla ko'zi,
O'g'liga mulku taxtu tojin ham,
Hind molin, Xito xirojin ham,
Beribon Yuz tafaxxur aylar edi.
Lek Farrux tanaffur aylar edi.(10,142-143)

Doston muallifining mayli Farrux tarafida. Shuning uchun uni himoya qiladi. Farruxning qalbi saltanatni xushlamay turibdi. Uning faqrga moyilligi baland. Faqr-saltanatning ziddi. Xoksorona turmush, jismoniy-botiniy tahorat, ma'rifat zinapoYalari orqali Haqiqatning nurli olamiga kirib borish – faqr yo'lining bekatlaridir. Farrux tabiatida Shunday ishtiyoq makon tutdi. Faqr-tariqat ostonasi. Tariqat esa ishqning kuydiruvchi olovlarida jizg'anak bo'lib poklanish, ma'rifat sharobidan sarxushlik orqali qalban-ruhan asliyatga qaytishdir. Ana shu jarayon badiiy asarlarda turfa ramiy-majoziy manbalarda namoyon bo'ladi. Ma'shuqa vasli qo'l ostidagi buyum, do'kondagi mato emas. Shundan-da, kimdir unga etadi, kimgadir u mutlaqo nasib qilmaydi. Alisher Navoiy Farruxni ana shunday murakkab, g'oyat ziddiyatli bir olamga Yuzlashtirib qo'yadi. Tunlardan birida Farrux tush ko'radi. U olamon

oqimida suzib Yuribdi. Katta tuya, uning ustida to’rt tomondan qora parda bilan o’ralgan taxtiravon. Osmon gumbazini eslatuvchi taxtiravon to’rt tarafga mushku anbarning muattar hidlarini anqitib o’tmoqda. Bexosdan ko’tarilgan shamol tufayli qora parda ko’tarilib, quyoshday Shu’la sochuvchi sohibjamolning qiyofasi ko’rindi. Manzara Farruxning sabru qarorini oldi. Noz uyqu qUchoqidagi quloqlariga «Bu er Quddusdur»- so’zlari kiradi. Uyg’onib ketgan Farrux ruhiyatidagi inqilobiy o’zgarishlar ana shu nuqtadan boshlanadi. Ulug’ shoir o’z suyukli qahramonini saroy doirasidan, toju taxt tashvishlaridan «Yulib olib» katta oddiy insonlar hayoti qa’riga otadi. Albatta, Farrux uchun bu azobu alam. Biroq Ulug’ shoir uni oldindan Shunday tirikchilik tarziga tayyorlaydi. Bunday jarayonning ibtidosi faqr yo’lining intihobida ko’ringan edi. Faqr-ozga qanoat, dabdabaYu hasham, kibru havo, birovlar mehnatidan foydalanish kabi holat –hodisalardan saqlanish. Farrux dunyo ko’rish bahonasi bilan otasidan ruxsat oladi. Biroq u tanho emas. Atrofida mulozimlar, sarbozlar, xizmatkorlar... Ayni jihatlar ishq yo’liga ziddir, Chunki ishq mardlikni, mayl-xohishni, tarafayn intilishni xush ko’radi Zar va zo’r aralashadigan nuqta uchun musaffo ishq begona. Ulug’ shoir Farruxni ana o’sha qurshovdan tabiiy va ishontirarli qutqazish uchun vosita izlaydi. Asarda berilgan ikkinchi tush tasviri ana shu vazifani ado etadi. Farruxning ikkinchi tushida u borishi lozim bo’lgan makon ta’kidlanadi: «Muroding taxtiravonida ko’rganing sohibjamol bo’lsa, bu erlarda Yurma, Halabga bor», degan ovoz uning quloqlari ostida aks sado beradi. Halab-katta, serodam Shahar. Biroq unda ichimlik suvi tanqis. ehtimol, jug’rofiy jihatdan Shundaydir. Ammo Alisher Navoiy uchun Farruxni o’z qurshoviga olgan odamlardan xalos qilish shart. Shuning uchun Ulug’ shoir kitobxonni ikkilantirmaydigan chora izlaydi. Vaziyatni hisobga olgan Farrux kunning tun pardasi ortiga o’tishini kutadi. Hamma uyquga ketgach, qog’oz-qalam olib, sheriklariga maktub Yozadi. U endi boshiga ishq savdosi tushganligini ham Yashirmaydi. Hamrohlik qilganlari uchun ularga minnatdorchilik bildirib xayrlashadi. Farrux Shu erdan Shohona liboslariga vido aytadi. Qora namatdan tikilgan kiyimda Shahar ko’chalari bo’ylab sayohatini davom etadi. Farruxning sheriklari uyg’ongach, uning maktubi orqali bo’lgan voqeadan xabar topishadi. Uni izlashni befoyda ekanini his etgan qo’shin va mulozimlar Sarandibga qaytib ketishadi. Bir necha kunlik ochlik, tashnalik va ruhiy iztiroblar o’zini ko’rsatib qo’yadi. Farrux madorsizlikdan Halab Shahridagi musofirxonalardan birida yotib qoladi:

Shahr aro qo’ya urdi ko’y-bako’y
Telba Yanglig’ Yugurdi so’y-baso’y.
Oqibat kunji gulxani topti,
YOtib o’zga palosini yopti.
Garchi gulxan kuli makoni aning,
Lek do’zax o’tida joni aning.
Anga bu hol soldi kofir ishq.
To ne qilg’ay ishini oxir ishq.(10, 151)

Halabda Axiy ismli boy-badavlat kishi Yashaydi. To’qri, bu gavjum Shaharda sarvatu hashamatli insonlar va saxovatcheshalar ko’p, ammo ular Axiy emas. Uning o’zgalardan butkul farq qiladigan fazilati- oliy darajadagi javonmardligidadir. Akademik A. P. Qayumov ta’biri bilan aytganda: «Axiyda muruvvat va futuvva mujassam» («Ishq vodiysi chyechaklari», 194-bet). Shundan bo’lsa kerak, u har kuni erinmay Shahar musofirxonalarini bir-bir aylanadi, muhtojlarga himmat qo’lini cho’zadi Axiy uchun bunday odat- qalb ehtiyoji. Ana shunday «sayr»lardan birida taqdir Farrux bilan Axiyni Uchrashtirib qo’yadi:

Xojae bor edi Halabda g’aniy,
Mehmondorliq shiori fani...
Ko’ngli behad rahimu tab’i saxiy,
Shahr xalqi ichinda oti Axiy...
Go’yi ul kun Axiyi sohibxayr,
Shahr atrofini qilur edi sayr.
Kim, buzug’ni vatan qilib Farrux,
Qo’ydi idbor tufrog’i uza ruh...(10, 154-155)

Shunday qilib, Farrux odamlari bilan behol Axiyni uyiga olib keladi, hammomda cho’miltirib toza kiyimlar kiyintiradi. Kechki ovqat va suhbatlar jarayonida musofir yigitning Yuragida o’tli bir dard borligi, u o’sha azobda qovjirayotgani seziladi. Biroq Farruxdan biror gapni aniqlashning imkoni bo’lmaydi. Tajribali xoja yo’l izlaydi va nihoyat, uning xayoliga bir reja keladi. Axiy Farruxni gapirtirish uchun sharobdan foydalanadi. Maydan sarxush bo’lib qolgan musofir yigit sevgi dostonini boshlaydi. Muloqot jarayonida aytilgan belgilarni o’z xonimida ko’rgan Axiy ruhiy iztirobga tushadi, ammo bunday holatini mehmoniga bildirmaslikka harakat qiladi. Farrux bilan muloqotini tugatib, mehmoni uyquga ketganidan so’ng, o’z xonasiga kirgan Axiy jufti haloli bilan suhbat quradi. O’z Axiysini joni dilidan sevgan sohibjamol erining so’zlaridan hayratga tushadi:

CHekdi gulrux nafir ila faryod,
Ki: « Nedin mundog’ aylading bedod,
Ne ko’rub manga bu sitam qilding?
Qismatim to abad alam qilding!»(10, 162)

Axiy xotini bilan muomila- munosabatini davom ettirar ekan, uning to’la roziligini kutmasdan umr yo’ldoshiga taloq beradi. She’riy qissa qahramonining bunday raftori har qanday kitobxonni ham hayratga solishi tabiiy, Chunki Sharq xalqlari uchun ayol mo’tabar xilqatdir. Chindan ham eri ishtirokida ayolning husnu jamolini maqtash, unga nisbatan ortiqcha harakatlar qilish ayanchli fojealarga yo’l ochib berishi turgan gap. Axiy ham Mo’min unga ham bu talablar begona emas. Ulug’ shoir bizning dilimizda kechayotgan tub holatlarni takror va takror aqlu farosat mezonida tortib, zaruriy toshlarni qo’yishga ulgurgan.

Asarda Axiyning ichki ruhiy kechinmalari va xotini bilan bog’liq holatlarga doir nozik ishoralar bor. Biroq ushbu javonmardning tutgan yo’li oddiy insoniy munosabatlar doirasiga sig’maydi:

Jazm qildi Axiyi daryo dil,
Qaydin o’lg’onni xasta shaydodil.
Dedi fikr aylabon muruvvat ila,
Topti bu nuqtani futuvvat ila.
Kim: bu Yanglig’ g’aribu ham oshiq,
Ishq tavrida bu sifat sodiq...
Menki oning g’omiga qolurmen,
Dardiga chora izlab olurmen.
Qilmasam, o’lsa, ul muruvvat emas,
Oni Yaxshi muruvvat ahli demas.(10, 162)

Keltirilgan iqtibos bir qator savollarga dadil javob bera oladi. Axiy uchun tasavvuf- qismat. U Shunchaki boy-badavlat, himmatu karamni Yashash dasturiga aylantirgan emas. Axiy ma’rifati baland, dunyo ko’rgan, hayotdagi har qanday hodisa (xoh Yaxshi, xoh Yomon) atrofida sovuqqonlik ila mushohada Yuritish qobiliyatiga ega shaxs. Shuning uchun xotini bilan aloqador muammolardan u hayratu dahshatga tushmadi, esankirab qolmadi, chora izladi. Axiy tasavvuf olami talabu tamoyillarini pishiq biladigan solikkina emas, o’sha nazariy ko’rsatmalarni o’z badanida sinovdan o’tkazishga qodir va Shunday imtihonlardan dadil o’ta oladigan «darYoyi dil» inson. Birovga pichoq sanchishga qasd qilgan banda o’z jismiga hech bo’lmaganda, nina suqib ko’rishi lozim. Axiy-tariqatning ikki katta jilg’asini bir o’zanga oqiza

olgan solik. Futuvvat (boridan bermoq) va muruvvat (borini bermoq) uning ikki kaftida turgan. Muayyan sharoit Shulardan qaysini talab qilsa, Axiy o'shasini qo'llagan. Farruxning o'sha dilidagi ruhiy holati borini ayamay berishni talab qilardiki, Axiy vaziyatni to'g'ri baholashdan tashqari, juda o'rinli qaror ham qabul qildi. She'riy qissa vrqealari Shu yo'sinda tabiiy jonli davom etadi. Axiy o'z xotinini Farruxga shar'iy nikoh qilib beradi. Etarli mol-mulk va yo'l anjomlarini hozirlab, kelin-kuyovlarni Sarandibga kuzatib qo'yadi. Farrux Yodgor sifatida uning namat libolarinigina olib qoladi. Yo'lda kuyov kelinning Yuragiga qo'l solib ko'radi. Uning ko'zlaridan Yosh o'rnida qon oqayotganligini ko'rgan Farruxning taajjubi oshadi va kelin bilan jiddiy suhbatlashadi. Ana shu muloqot jarayoni anchagina jumboqlarni yechib beradi. Farrux bor haqiqatdan xabar topdi va unig Axiy va axiylikka bo'lgan sidqu sadoqati Yuz chandon oshdi. Farrux o'sha lahzada sadoqat shevasiga sodiq bu sohibjamolni o'ziga singil deb e'lon qildi va Shunday munosabat boshlandi. Axiyning «omonati xiyonatsiz» muhofazaga olindi.

Farrux vataniga etib bordi. Vorisiylik me'rosi-taxt unga nasib bo'ldi. Musofiratni boshidan kechirgan, dunyo g'alvalariYu oddiy insonlar turmushidan ogoh bo'lgani uchun ham u davlatni adlu amniyat, iymoni insof, dinu diYonat talablari asosida Shunday boshqarishni afzal ko'rdi. Farrux Shoh tutingan singilni ham unutmadi, uning uchun maxsus qasr qurdirib, o'sha yerda farovon Yashash tarzining barcha shart-sharoitlarini hozirlab berdi. Bularning hamma-hammasi Shoirga ma'qul, ammo Farrux yo'lga qo'ygan boshqa bir fazilat mavjudki, doston muallifining bosh murodi ham Shu edi:

Axiy ishin shior aylab edi,
Tavrini ixtiyor aylab edi.
Mehmonxonai Yasab oliy,
/urabo andin o'lmayin xoli.
Gah o'lur erdi otlanib soyir,
Shahrining davriqa bo'lub doyir.(10, 172)

Farrux tufayli axiylik- muruvvateshalik harakati Shomu Halabdan to Hindistonu Xitoyga qadar bo'lgan katta hududda Shuhrat tutdi, O'z izdoshlarini topdi. «Sab'ai sayyor»dagi Farrux Alisher Navoiyning ma'naviy-ruhiy farzandi ekan, uning tomirlaridan navoiYona falsafa yo'g'rilgan qonning oqqanligi Shak-Shubhasiz. Farrux axiYona sayrlaridan birida kutilmagan mo'jizaviy holat ustidan chiqdi:

„„ Ushbu kunkim Axiyg'a erdi bu hol

Sayr aro erdi Shohi farruxfol.
Ul buzuq sori Chunki soldi nazar,
Qildi o’z holi xotirig’a guzar.
So’rdi ul Yonki: «Ne g’arib erkin
Ki, bu mehnat anga nasib erkin?»
O’z palosini oshno ko’rdi,
Notavone palos aro ko’rdi.
Dedi: “Qo’p, ey g’aribi tiyra maosh!”
Axiy uyg’ondiYu ko’tardi bosh.
Shahni ul tanidiYu oni Shoh,
Otidin tushti Shoh tortib oh.
Shoh tushgan zamon Axiy qo’pti,
Ul muni qUchtiYu bu er o’pti.(10, 172)

O’z xotinini Farruxga nikoh qilib bergan, molu sarvat bilan yo’lga kuzatgan Axiy Shahzodaning oshiqlik libosini (palosini), qora namatdan tikilgan kiyimlarini olib qolgan edi. Oradan bir muncha vaqt o’tdi, ancha suvlar oqib bo’ldi. Baxt qarshisida badbaxtlik hamisha shay turarkan. Omadsizlik omad payini qirqish ilinjida uni hamisha ta’qib qilarkan. Axiy bilan ham Shunday bo’ldi. Shum raqiblarning qo’li baland keldi. Axiy fitna va g’urbatning qurboni bo’ldi. Halab podshosi uning mol-mulkini musodara qilib, o’zini o’limga mahkum etdi. Axiy sadoqatli do’stlari Yordamida Halabdan jonini olib chiqishga ulgurdi. Axiy tomonidan o’z xotinining Farruxga nikoh qilib berilishi, iltifot va e’tibor bilan kuzatib qo’yilishi raqiblaringa omad keltirdi. Yurt podshosi hech qanday taf’ishsiz fitnachilar gapini ma’qulladi va Yuqoridagidek hukmni e’lon qildi.

Umrini inson ma’rifati yo’lida baxsh etgan Axiyni ham Ulug’ shoir balolar domiga tashlab qo’ymaydi, uni o’z muhofazasiga oladi. Farrux Axiyni ko’rishi bilan darrov uni tanidi va o’z og’ushiga oldi. U zamon podshosi edi. Ular o’rtasidan tushgan ayriliqlardan bir necha yil o’tgan edi. Shularga qaramay Farrux aslligini ko’rsatdi.

Ishq dardiga chalinib, uning g’amidan tatiy boshlagan oshiq, albatta, qora libos (aksariyat pashmina) kiYadi. Maxsus g’amxonalarda o’sha iztiroblar “nashidasini suradi”.Yana bir ommaviy holat ham Yashab keladi. Dardmandning darddoshi, sirdoShu homiysi timsoli ham og’zaki hamda Yozma badiiy adabiyotimizning “sinashta va taniish” timsollariga aylanib qolgan. O’sha belgilar birinchi musofir hikoyati qahramonlari taqdirida ham namoyon bo’ladi. “Oyning o’n beshi qorong’u, o’n beshi yog’du”,- deydi dono xalqimiz. Farrux esa o’sha

zulmatni nurafshon etgan oy misol uni o’z panohiga oldi. Xotinining hech qanday xiyonatsiz, Yangidan nikoh bilan unga qaytardi. Saroydan nufuzli lavozim berdi. Sarandibda o’zini Halabdagidek his etmog’i uchun barcha shart-sharoitlarni muhayyo ayladi. Biroq Axiy egnidan qora libosini tashlamadi, sababi:

Qora rang elga toju torakdur,
Kim bu rang ichradur, muborakdur.(10, 176)

“Sab’ai sayyor”dagi Zayd zahhob sarguzashtlariga bag’ishlangan ikkinchi She’riy qissada Ulug’ shoir Yurt hukmdorlarini nihoyatda sergak va hushYor, zukko va tadbirkor bo’lishga chaqiradi. Mamlakatni idora etishda ilmu hunar ahlining madadidan foydalanishning afzalliklari, ayni choqda, podshohning e’tiborsizligi bilan Shu ijtimoiy tabaqa vakillarining ba’zi nopok harakatlariga yo’l ochilishi natijasida saroy fisqu fujur, adovat, qalloblik makoniga aylanishi haqida fikr Yuritiladi. Zayd tabiblikda tyengi yo’q shifokor, falsafa bobida tengsiz faylasuf, xullas, har jihatdan usta va uddaburon inson. Uning Yagona nuqsoni – hiylagarlik va firibgarlik bilan boylik orttirish. Ilmu hunari bilan podshohning eng Yaqin kishisiga aylangan Zayd hukmdordan ikki ming botmon oltin talab etib ulkan taxt barpo etishga kirishadi. Zargar tabiatidagi nuqsonli illatlar g’olib kelib bunyod etilayotgan oltin taxtning juda katta ichki qismi kumush bilan “bezatiladi”. Keyinchalik saroy a’Yonlari Zaydning bu qilmishini fosh etishga tushishadi. Hukmdor taxtining Yuqori qismidan o’rin olgan to’rt tovus qanotlarini Yoyib, Humo qushi misol unga baxt-iqbol tilagandek soyabon bo’lardi. Taxtning pastki minoralarida joylashgan to’tilar esa: “Shohg’a kom o’lsun, Anga bu taxt mustadom o’lsun” deyishardi. Saroy ahli ikki to’tini almashtirib, ulardan biriga: ”Taxt ro’kashdur”, ikkinchisiga esa: “Musannifi g’ashdur“,- so’zlarini o’rgatishadi. Shu tariqa Zaydning qallobligi fosh bo’lib, u zindonband etiladi. Ilmu hunari, nafsini tiYa olishi bilan tutqunlikdan ozod bo’lgan Zayd butparastlar vatani bo’lgan QustantaniYaga yo’l oldi. Bu erda butparastlikni Yaxshi o’zlashtiradi, Buyuk diniy arbobga aylanadi. U qallobligidan voz kechmaydi. Oltindan Yaratilgan butlarni o’zi Yaratgan temir butlar bilan almashtirib Yurtiga qaytadi. Hukmdor xastalanib yotgan edi. U Zaydni ko’rishni istaydi. Zargar podshohi xazinasini oltin butlar bilan boyitib, uni kasallikdan forig’ etadi va Yana hukmdorning Yaqin kishtsiga aylanadi.

Uchinchi iqlimdan kelgan musofir “eshigi hojat ahlining vatani” bo’lgan Misrdagi badavlat bir kishining o’g’li Sa’dning ishqiy

sarguzashtlari haqidagi qissani hikoya qiladi. Sa'd Yashil kiyimli ikki musofirni o'z uyiga mehmon qiladi. Suhbat asnosida ulardan biri Kesh yoki Shahrisabz deb ataluvchi Shahardagi bir ibodatxonada bir kecha tunagan kishiga ikki qush kelajagidan xabar berishini bildiradi. Ikkinchisi esa ko'rilgan tushdan so'ng nima qilishini bilmagan kishiga bir g'orda Yashayotgan donishmand Faylaqus Yordam berishini aytadi. Sa'd otasining fotihasini olib yo'lga tushadi. Ibodatxonada tunaydi. Tongga Yaqin uyquga ketgan Sa'dning tushida bir qush: " Kim nasibing pariy bo'lmish, Ki Yuzi mehri xovariy bo'lmish",- desa, sherigi: "Kim seni dev qilg'usidur asir, Solib ikki oyog'ingga zanjir ,- deya ma'lumot beradi." Shundan so'ng, Sa'dni Shahrisabzga boshlagan musofirlar Faylaqus Yashaydigan g'orga olib borishadi. Donishmand yigitning nomini, bu Yurtlarga nima sababdan kelganligi, ko'rgan tushini Sa'ddan hech narsa so'ramay so'zlab beradi.Faylaqus o'z tarixini ham hikoya qiladi va yigitning taqdirida Shahrisabz Shohining go'zal qiziga uylanishi uchun Uch shartni bajarishi bitilganligini bildiradi. Faylaqusdan o'rgangan ilmlari asosidaa Sa'd Qatron nomli qora devni engadi, donishmandning savollariga javob beradi, sehrgardan g'olib keladi. Shundan so'ng yigit Yashil qasrda Shahrisabzlik malikaga uylanib baxtli hayot kechiradi. Hikoyatda ezgulikka da'vat, inson tafakkur olaimni ma'rifat nurlari bilan Yoritib ko'ngil ozodaligini ta'minlash saodat asosi ekanligi, bunday ma'naviy kamolotga erishgan ustoz tadbirlarining afzalliklari kabilar badiiy ifodasini topgan.

"Sab'ai sayyor"dagi to'rtinchi hikoyat Shoh Juna va cheksiz saxovat sohibi bo'lgan Mas'ud sarguzashtlariga bag'ishlangan. Dehli podshohi Junaning boyligi nihoyatsiz bo'lib, huzuriga kelgan kishilarga saxovat ko'rsatishi, adolatli siyosati bilan mashhur edi. Qissada tasvirlanishicha, tog'u toshlardan oshib podshohga meva olib kelgan bir muhtoj bog'bon Junaning unga bo'lgan munosabatidan ranjiydi, bundan xabardor bo'lgan hukmdor bog'bonga himmat ko'rsatadi. Bir kun Shohning huzuriga kelgan mehmon unga g'ayri tabiiy bir ko'zguni tortiq qiladi. Uning g'aroyibligi Shundaki, kimki yolg'on gapirsa, ko'zguda uning Yuzi qora bo'lib aks etadi. Mehmon oliyhimmatlik va saxovatda Junani tyengi yo'q, deya ta'rif etadi, biroq mehmon podshohning talabi bilan oynaga Yuzlanganida, uning Yuzi qora rangda akslanadi. Shunda mehmon saxovatda Hotami toyni ortda qoldiruvchi Mas'ud haqida ma'lumot beradi. Juna Mas'udning uyiga mehmon bo'ladi. Uning oliyhimmatligi va mehmondo'stligiga qoyil qoladi.

Taroz viloyatining valiysi Jaypur zolim va pastkash inson edi. Juna tezda Jaypurning o'rniga Mas'udni hokim qilib tayinlaydi. Alamzada Jaypur o'z noyibi Mallu bilan Mas'uddan o'ch olish payiga tushadi. Mas'udning uyiga uyushtirilgan ziyofatdan so'ng, uyquga ketgan xonadon sohibini Mallu arqon bilan bog'lab Shahar chetidagi bir chohga tashlaydi. Malluning go'zal, oy Yuzli qizi Gulrux Mas'udni sevib qoladi. U sevgilisini chohdan ozod etadi. Voqealar rivojida Mas'ud Juna saroyiga borib qoladi. Hukmdor Jaypur bilan Malluni qatl etadi.

Hikoyatda oliyhimmatlik va pastkashlik, insof va insofsizlik, adolat va zulm, to'g'rilik va munofiqlik o'rtasidagi ayovsiz kurash qalamga olingan. Ulug' shoir mamlakat hukmdorlariga Junani, viloyat hokimlariga esa Mas'udni ibrat namunasi qilib ko'ratishga harakat qiladi. Asardagi g'ayri tabiiy ko'zgu timsoli hikoyatda ilgari surilgan yetakchi g'oyani o'quvchiga muayyan tarzda yetkazishga imkon Yaratgan bo'lsa, Mas'udning Junaga tortiq qilgan jom, oy Yuzli qiz va Gulgun laqabli oti saxovatpeshalikni ulug'lash hamda voqealar tizimining YaxlitlaShuviga xizmat qildirilgan.

Beshinchi iqlimdan kelgan musofir mehr-oqibat, vafo-sadoqat, shijoat va qahramonlik g'oyalari ilgari surilgan Mehr va Suhaylning ishqiy sarguzashtlariga bag'ishlangan qissani hikoya qiladi. Adan mamlakatida Jobir ismli bir qaroqchi bo'lib, u dengiz sayohatiga chiqqanlarga zo'ravonlik ko'rsatish yo'li bilan katta mol-mulk sohibi bo'lishni odat qilgan edi. Kunlardan bir kun dengiz sayohatini ixtiyor qilgan Bihishti saroy Shahrining hokimi Navdarning sohibjamol qizi Jobirning tuzog'iga tushadi. Zolimning hujumidan omon qolgan Mehrning Yaqinlari Jobir qarorgohiga keltiriladi. Kemadagilar orasida Zuhra misol go'zal qiz ham asir tushganini eshitgan Jobir Mehrni ko'rishni istaydi. Qiz uning huzuriga keltirilgach, qaroqchilar boshlig'i huShudan ketadi. Bu holat bir necha marotaba takrorlangach, Mehr qasrga eltib qo'yiladi, uning odamlariga esa vataniga qaytishga ijozat beriladi. Mehr Yaman Shohi No''monning o'g'li Suhaylga unashtirilgan edi. No''mon Suhaylni dengiz yo'li bilan ko'p sovg'a-salomlar ortilgan kemada to'y kunini belgilash maqsadida Navdarning oldiga junatadi. Kema dengizda bo'ronga Uchraydi. Keyinchalik Jobir boshliq qaroqchilar qarshiligiga duch keladi. Suhayl Jobirga qarshi mardonavor kurashadi, biroq Jobir hiyla yo'liga o'tib Suhaylni asir oladi va uni birorta asir hali omon chiqmagan chahga tashlaydi. Farzandlarini zolim Jobirning asiri bo'lganini eshitgan Navdar quruqlikdan, No''mon esa dengizdan

qaroqchilarga qarshi jangga kirishadi. Navdar o'rmonda bir go'zal kiyikni Uchratib, uning ortidan quvib ketadi. Oqibatda Shoh lashkaridan ayrilib dushman qo'liga asir tushadi. Ulug' shoir Shu lavhadan so'ng, "Sab'ai sayyor"ning bosh qahramoni, ovga mayli juda Yuksak bo'lgan Bashrom va barcha Shohlarga o'git bo'larli quyidagi sarlarni bitgan:

Shah tilar bo'lsa Shohlik, qilmoq,
Sipohidin kerakmas ayrilmoq.
Shahni derlar sipoh birla Shoh,
Shoh emasdur yo'q ersa anda sipoh.
Shahg'a xayl o'lsa fath aning ishidur,
Bir kishi Rustam o'lsa bir kishidur,
Shahlig' oyinin aylabon zanbo'r,
Aylamas besipah sukunu murur.
Uchsa yolg'uz ko'rarga oqu qaro,
Ne tafovut ulu Yana bir aro.
Borsa shatranj Shohining sipahi,
Ko'rki, bormu hisob ichinda Shahi.
Chunki Navdar adug'a bo'ldi asir,
So'ydilar har ne kiyganin bir-bir.(10,295-296)

No''moning kemalari ham dengizda to'fonga Uchraydi. Bu tabiiy falokat No''monning kemalarini va sanoqsiz askarlarini dengiz tubiga olib ketadi. O'zining omon qolishiga ham ishonmagan No''mon Jobirga asir tushadi. Mehrning tadbiri bilan chohdan ozod bo'lgan Suhayl Jobir oldiga peshvoz chiqib: "Sen agar zohir etting itlikni , Men sanga ko'rguzay yigitliki",- deya dushmanini halok etadi. Shu tariqa adolat tantana qilib sevishganlar visolga erishadilar. Navdar va No''mon mamlakatlari birlashtirilib uning taxti Suhaylga ishonib topshiriladi.

Oltinchi iqlimdan kelgan musofir cho'lu biyobonda ko'p Yurib tajriba orttirgan, dili pok, ko'ngli ochiq, sabr-toqatli Muqbil, dengiz sayrida ustasi farang, biroq o'zining yolg'onchiligi, Yaramas odatlari bilan kishilarga ziYon tkazuvchi Mudbir haqidagi qissani so'zlab beradi. Baxtar nomli mamlakatdan Xovar Yurtiga otlangan bu ikki yo'lovchi tabiati tamomila bir-biriga qarama-qarshi. Bu zidlik "Vodiyi hamim"("Qaynoq vodiy")dan o'tish jarayonida Yorqin namoyon bo'ladi. Muqbil taqdiriga tan berib, sabr-toqat bilan Tangriga Shukronalar qilib, toatu ibodatni kanda qilmay manzil tomon davom etsa, Mudbir taqdirga tan berish o'rniga falakdan shikoyatlar qiladi, Tangriga Shak keltiradi. Ular dengiz safarida to'fonga Uchrab bir orolchaga borib qoladilar.

Sandal daraxti ostidagi chashmaga cho'milish jarayonida Muqbilga Allohning inoyatidan bahramand bo'lish nasib etadi. U chashmada cho'milganda, pariy misol bir qizni sevib qoladi. Mudbirning tani esa chashma suvi haroratining Yuqoriligidan kuYa boshlaydi. U yolg'onchilik qilmaslikka so'z berib, buloqdan suv ichgan edi. Yana yolg'onchilik qilsa, Yorilib o'lishini bilardi. Biroq Mudbir eski odatidan voz kecha olmaydi. Ikki yo'lovchi dengizda sandal daraxtlari ortilgan ulkan kemaga duch kelishadi. Kemadagi odamlar ochlikdan halok bo'lishgan edi. Kema Xovar Yurtiga yo'l oladi. Mamlakat podshohi oldida yolg'on gapirgan Mudbir Yorilib o'ladi. Muqbil esa o'sha chashmada ko'rgani Xovar podshohining qiziga uylanadi. Hikoyatda kishilarni sabr-qanoatga undash g'oyalari ustuvorlik qiladi.

Ettinchi iqlimdan kelgan musofir Shoh Bahromga bir tomondan, o'zi Xorazm o'lkasining mashhur sozandasi bo'la turib, taqdir taqazosi bilan bu Yurtga kelib qolishining tafsilotlari, ikkinchi tomondan esa Diloromning sarguzashtlaridan bahs etuvchi qissani hikoya qiladi. She'riy qissadan ma'lum bo'lishicha, Xorazmga Xitoy savdogari chang chalishda mashhur bo'lgan kanizagi bilan kelganida, uning ovozasi butun o'lkaga tezda tarqaladi. Xojaning molu dunyosi behisob, osmondagi oyga o'xshash go'zal, samodagi Zuhra misoli mashhur sozanda bo'lgan kanizagining ta'rifigaa so'z ojiz. U chang chalib musiqaga jo'r bo'lganida, eshituvchilar jon beishga ham tayyor edi. Xorazm Shohi ham bu qizning ta'rifini eshitib, uning kuyi va husnu jamoliga mahliyo bo'ladi. Kanizakni sevib qolgan Shoh oraga sovchilar qo'yadi, biroq xoja Haq uni davrning Yagonasi va dunyodan toq o'tadigan qilib Yaratganini ma'lum qiladi. Shoh esa qizning visoliga zo'rlik bilan erishishga harakat qiladi . Uni majburan haramiga olib keladi. Shunda qiz qo'liga changgini olib Shunday mungli kuy kuylaydiki, saroy a'Yonlari va Shoh uyquga ketadi. Bu hol bir necha bor takrorlanadi. Shoh oppoq kiyimli kanizak visoliga zo'rlik bilan erishish mumkin emasligini anglagach, xojani ota, qizni esa singil sifatida qabul qiladi. Ettinchi iqlimdan kelgan musofir mashhur sozanda bo'lib, kanizakning san'atini eshitgan xalq Xorazm mashshog'iga bo'lgan iltifotini o'zgartiradi. Xorazm xalqi bazmlarining dostonnavozi bo'lgan mashhur sozandaning ishi kasodga Uchraydi va u arz qilib xoja hamda uning kanizagining oldiga boradi. Boshqa hunari yo'qligi, lozim topishsa, Shu kanizakka shogird tushishini aytadi. Shunday qilib, o'zaro ahdlaShuvlardan so'ng, Xorazm mashshog'i kanizakdan musiqa sirlarini o'rgana boshdaydi. Kanizakning kuyida qandaydir dard, alam bor. U

sozandadan tunlari afsona so'zlashni iltimos qilar, so'z firoq, hajr haqida ketganida o'ksib-o'ksib yig'lardi. Xorazm sozandasi kanizakning ko'nglidagi sirlarini bilishga harakat qiladi. Qiz esa, avvalo, taftishni bas qilishni taklif qiladi. Agar ko'nglida pinhon saqlangan siridan voqif bo'lishni juda istasa, bu o'lkadan bosh olib ketishga so'z berishini mashshoqdan talab qiladi. Shunday qilib, Dilorom Bahromga turmushga chiqqani, o'jarligi bois sahroda o'z sochlariga bog'lab tashlab ketilgani, uni ko'rishga kelayotgan xojasi kanizakni sahroda hushsiz va holsiz holda Uchratgani, hushiga kelgach, Bahromdan uzr so'rash uchun uning oldiga borishni qanchalik talab qilmasin, xojasi Xorazmga olib kelganini so'zlab beradi.

Shoh Bahrom ettinchi iqlim musofiridan Diloromning hayot ekanligi haqidagi xabarni eshitgach, Shohligini ham unutib afsona so'zlovChini qUchoqlab oladi. Hukmdor tong otishi bilan Xorazmga borishga ahd qiladi, biroq arkoni davlatning maslahati bilan xoja va Diloromga maktub bitib har ikkalasini saroyga chorlashni ma'qul ko'radi. Shunday qilib, sevishganlar qayta topishadi. Ular etti qasrda bazm uyushtirishadi. Etti darvesh hikoyasidan xulosa chiqarmagan Shoh Bahrom Yana ovga beriladi. U ovlagan jayronlar tanasi er Yuzini qoplaydi, qonlari ariq bo'lib oqadi. Ko'k Yuzini qoplagan bulutlardan tomayotgan yomg'ir selga aylanadi. Ov maydoni Yumshoq, usti o'tlar bilan qoplangan edi. Jonivorlarning behad ko'p oqizilgan qoni bilan aralashgan yomg'ir suvlari botqoqlikni hosil qiladi va Shoh Bahrom hamda uning hamrohlarini er Yutadi. Alisher Navoiy doston so'ngida Shoh Bahromni tushida ko'rganligini bayon qiladi. Hukmdor Shoirga nihoyatda Yuksak ehtirom bilan munosabatda bo'ladi. Husayn Boyqaroni o'ziga o'xshashligini aytib, uning davlatiga xayr-saodat tilaydi. Bu bilan Ulug' shoir Shoh Bahrom qissasidan barcha podshohlar xulosa chiqarishi lozimligini ta'kidlaydi.

"Sab'ai sayyor" dostoni uchun asos bo'lgan hafta kunlari, ularga homiylik qiluvchi, qadimdan muqaddaslashtirilgan etti sayyoraga xos ranglar bilan qasrlarning bezatilishida o'ziga xos ramziy majoziy ma'no "Yuklangan". Taniqli adabiyotshunos S. Hasanovning "Navoiyning etti tuhfasi"(Toshkent, 1991) asarida bu masalaga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, shanba kuni Zuhal (Kayvon, Saturn) sayyorasi bilan bog'liq bo'lib, qasrning rangi Bahromning Yurish-turishi - barcha-barchasi Shu rangda tasvirlanadi. Bu rang, avvalo, sevgilisidan ayrilgan Shoh Bahromning musibatli kunlarini anglatsa, dastlabki hikoya qahramonlari

Axiy va Farruxlar uchun muruvvat, Yaxshilik va saodatli hayot ramzidir. Bu bilan Shoir inson axloqi, Yurish-turishi uning taqdirini belgilaydi, degan g'oyani ilgari suradi. Shuningdek, qora rang Yoshlik va baxt ramzi deya ham talqin qilinadi. Bunday xulosaga kelishda Axiy va Farrux sarguzashtlarining dostondagi tasviri imkon beradi. Demak, Shoir har bir rangning o'ziga xos ramziy- majoziy ma'no qirralariga alohida e'tibor qaratadi. Shoir qahramonlar ruhiy holatini Yanada Yorqinroq tasvirlashda, ranglarning ramziy- majoziy ma'no qirralaridan san'atkorona foydalanishda davom etarkan, bu uslubiga dostonning asosiy voqealar tizimining Yakuniga qadar sodiq qoladi.

YAkshanba kuni Quyosh sayyorasi homiyligi bilan bog'liq bo'lib, Shoir talqinida oltin rang tiniqlik, xursandchilik-oliyjanoblik ramzidir. Shuningdek, bu rangga xos bir oz o'zgaruvchanlik, tovlanish unga sharmandalik va nafrat uyg'otish ma'nolarining ramziy ifodasini ham beradi. Natijada dostondagi oltin rang Diloromidan ajralgan hukmdorning ishq dardiga chalinib xastalanganligini anglatish bilan bir qatorda, ilmu hunar ahlining ba'zi nuqsonlaridan bahs etuvchi Zayd zahhobning qallobligi, firibgarligini ifodalaydi. Dushanba kun Oy sayyorasi bilan bog'lanib, Shoh Bahrom Yashil qasrda afsona tinglaydi. YAshil- tasavvufiy ta'limotga ko'ra, hayot ramzi sanaladi. Uchinchi iqlim musofiri tomonidan so'zlangan qissa qahramoni Sa'd ulug' piri Faylaqus o'gitlari asosida baxtli hayotga erishadi. Ayni choqda bu rang samoviy mavjudotlar bilan bog'lanishni anglatadi. Shu bois Sa'd ikki musofir va uzlatda chekingan Faylaqusdan madad oladi. Shuningdek, bu hikoyat bilan Shoir Shoh Bahromni baxtli hayot uchun kurashga undaydi. Seshanba kuni Mirrix (Mars, Bahrom) sayyorasi homiyligida o'tadi. Shu bois Shoh Bahrom Shu sayyora rangi bilan bog'liq qizil qasrda kunni o'tkazadi. Bu rang qoliplovchi hikoyat qahramoni xastaligining avj nuqtasini ifodalaydi. Keyingi qasrlar bilan aloqador ko'k, sandal va oq rang hukmdor tanasidan kasallikning asta-sekin barham topa boshlaganini bildiradi. Shuningdek, ranglar asta-sekin so'na boshlashi Bahrom hayotining so'nggi damlari Yaqinlashganidan darak beradi. Ulug' shoir dostonida qizil rang ezgulik kuchlarining Yovuz kuchlar ustidan qonli kurash bilan g'olib kelib baxtga erishish ramzi sifatada qo'llanadi. Hikoyatdagi ezgulik kuchlari-Juna, Mas'ud Yovuzlik kuchlari bo'lgan Jaypur, Malluni hayot uchun kurashda mag'lub etadi. CHorshanba kuni Utorid (Merkuriy) sayyorasi homiyligida o'tadi. Shoh Bahrom Shu sayyora rangiga uyg'un bunyod etilgan moviy qasrda bazm

uyushtaradi. Dostonda ko'k yoki moviy rang qandaydir bezovtalik va g'amgin holatni eslatadi. Bu Shoh Bahrom ruhiy holatining beshinchi iqlimdan kelgan musofir qissasi qahramonlari zolim Jobir qo'lida tutqunlikda qolgan sevishgvnlar Mehr va Suhayl iztiroblari bilan mushtarakligini bildiradi. Hikoyat davomida hukmdorlarning juda ko'p lashkarlari vafot etishi esa moviy rangning motam ramzi ekanligini dalillaydi. Mushtariy (YUpiter) sayyorasining homiyligida o'tadigan payshanba kuni Shu samo Yoritqichi rangi bilan aloqador sandal rangli qasrda Shoh Bahrom uchun bazm uyushtiriladi. Sandal shifobaxshlik va xotirjamlik ramzi. Xovar mamlakati podshohining qizi sandal daraxtidan shifo topishida bunga ishora bor. Muqbilning har qanday holatda ham qanoat bilan xotirjam harakati uni baxtga eltadi. Mudbir esa fojeali o'lim topadi. Shoh Bahrom ruhiy kasallikdan asta-sekin tuzala boshlaydi, biroq uning axloqiy tuzalishi, aytilganlardan xulosa chiqarishi uning irodasiga bog'liq. Nihoyat, juma kuni sodir bo'ladigan voqealar Zuhra (Venera) sayyorasining hukmiga bog'liqligi bois uning rangi bilan aloqador kofuriy (oq) qasrda Shoh Bahrom qissasi davom ettiriladi. Oq rang poklik va sofdillik ramzi bo'lganligi bois Bahrom uzoq ayriliqdan so'ng, Diloromning vasliga qayta etishidan darak beradi. Shuningdek, bu rang keksalik, inson hayotining poyoniga etishidan nishona tarzida ham talqin qilinadi. Shu bois o'zini axloqiy jihatdan tuzatishga iroda topa olmagan Bahromning hayoti fojeali Yakuni topadi.

Ko'rinadiki, Ulug' shoir "Sab'ai sayyor" dostonida Shoh Bahrom va Diloromning ishqiy sarguzashtlaridan bahs etuvchi qoliplovchi qissa hamda inson ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi etti hikoyatni Yagona voqealar tizimiga ega bo'lgan Yaxlit doston holida Yuksak san'atkorona mahorat bilan ijod etgan. "Xamsa"ichidagi xamsa deya nomlash mumkin bo'lgan bu doston XVIII asrda Yozma va og'zaki adabiyotimizda Bahrom va Gulandom turkumining paydo bo'lishi, XIX asrda qashg'arlik /aribiy tomonidan «Shoh Bahrom va Dilorom», Umar Boqiy qalamiga mansub «Qissai haft manzari Bahrom» singari ko'plab asarlarning vujudga kelishiga zamin hozirladi.

"Saddi Iskandariy"- "Xamsa"ning xotimaviy dostoni. Asarning mavzu va g'oyalar olami, hikoyat va masallar tahlili

"Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori") – Alisher Navoiyning adolatli va ma'rifatli hukmdor rahnamoligida markazlashgan davlat

barpo etish, xalq osoyishtaligi va Yurt ma'murligini ta'minlash, o'zaro toj-taxt kurashlari, ixtilofu nifoqlarga barham berish singari umumbashariy g'oyalarini o'zida badiiy ifoda etgan dostondir. Ulug' shoir "Xamsa" tarkibidagi boshqa asarlarida bu masalaga alohida e'tibor berib, Anushervoni odil, Sulton Muhammad Xorazmshoh, Shohi /oziy, Chin xoqoni, Xusrav Parvez, Bani Omir va Hay qabilasi boshliqlari, Ibn Salom, Bahrom singari katta-kichik hukmdorlar obrazini ijod etdi. Mazkur asarlarda o'sha hukmdorlarning Yaxshi a'mollari Yuksak san'atkorlik bilan vasf etilgan bo'lsa, ularning tabiatidagi noqisliklar tanqid ostiga olindi. "Hayrat ul-abror" dosonida "Iskandarning etti iqlim mamolikin panjai tasarrufig'a kiYurg'oni va xoli ilik bila olamdin rixlat markabin surgoni" (14- maqolatdan so'ng keltirilgan hikoyat)ni ibrat namunasi qilib ko'rsatgan Buyuk mutafakkir "Saddi Iskandariy"da odil va ma'rifatli, ma'naviy yetuk Shoh obrazini Iskandar timsoliga mujassamlashtirdi. Bu bilan Shoir "Xamsa" tarkibidagi boshqa dostonlarida ilgari surilgan ijtimoiy–siyosiy qarashlarini "Saddi Iskandariy" dostonida Yanada takomillashtirib, o'zi orzu qilgan hukmdorning mukammal obrazini asar qahramoni misolida badiiy tasvirladi.

Iskandar tarixiy shaxs bo'lib, u eramizdan oldingi IV asrda (356-323) yashagan Buyuk jahongir Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi nomidir. Sharh xalhlari orasida bu ulug' sarkarda Iskandar Zulqarnayn, Iskandari Rumiy, Iskandar Maqdon nomlari bilan atalgan. Aleksandr nomi Shu so'zga talaffuz jihatidan uyg'un "Iskandar" so'zi bilan ifodalangan bo'lsa, "Rumiy" va "Maqdon" uning vatanini anglatgan. "Zulqarnayn" Iskandarning ilohiylashtirish zaminida unga nisbatan berilgan sifat bo'lib, ikki shoxli degan ma'noni bildiradi. Manbalarda ma'lumot berilishicha, Shoh juda qadim zamonlarda YAqin Sharqda ilohiy qudratning timsoli sanalib, xudolar singari shoxli tarzda tasavvur qilingan. Aleksandr Makedonskiyninng tarbiyasi bilan uning ustozi Aristotel' (Arastu) (er. av. 384-322) Shug'ullangan. eramizdan avvalgi 336 yilda otasi Filipp o'ldirilgach, Aleksandr Makedonskiy taxtga chiqadi. 26 Yoshida Doro III ni yengib, Eronni egallaydi. Keyinchalik u Movarounnahr va Hindistonni zabt etadi. Dunaydan Hind daryosigacha bo'lgan katta hududda ulkan mamlakat barpo etadi, nihoyat, er. av. 323 yilda 33 Yoshida vafot etadi.

Aleksandr Makedonskiyning harbiy Yurishlari haqida antik davr tarixchilaridan Arrian Flaviy va Plutarx asarlarida ma'lumot beriladi. Yunon tarixchisi Arrian Flaviy Iskandar haqidagi rivoyatu afsonalarning

vujudga kelishi sababini uning jahongirlik Yurishlarida ishtirok etgan askarlar faoliyati bilan bog'laydi. Unga ko'ra, Iskandar jangdan vataniga qaytayotgan askarlariga forslar va midiYonlarni, baqtriYaliklar va Shaklarni, Kaspiy dengizga qadar cho'zilgan hududda Yashovchi parfiYonlarni, xorazmiylarni va girkanlarni qanday bo'ysundirgani haqida hikoya qilib berishni aytgan ekan. Hikoyachilar tarixiy faktlarga nisbatan taxayyul va uydirmaga ko'proq berilishlari natijasida bir qancha afsona va rivoyatlar vujudga kelgan. Keyinchalik XI-XII asrlarda Ovrupada Iskandar haqidagi ritsarlik romanlari ijod etilgan.

Sharq Yozma badiiy adabiyotida atoqli fors-tojik Shoiri Abulqosim Firdavsiy ilk bor Iskandar haqida doston ijod etdi. Asarning bosh qahramoni «Shohnoma» tarkibidagi bir qator sosoniy hukmdorlarga bag'ishlangan dostonlardagi yetakchi obrazlardan keskin farq qilmaydi. Shoir Buyuk jahongirga bag'ishlangan ushbu masnaviysida uning Doroga qarshi janggi, insonlarni Ya'juj-ma'jujlardan xalos etish uchun g'ov qurishi singari lavhalar bilan Iskandarni adolatli va najotkor hukmdor qiyofasida tasvirlasa-da, sarkardaning ko'plab jangovor Yurishlarining sababi, mohiyati va oqibatini ochib bermaydi. 1203-1211 yillarda ulug' ozar Shoiri Nizomiy Ganjaviy «Panj ganj»i tarkibidan o'rin olgan «Iskandarnoma» dostonini ijod etib, xamsachilikda Iskandarning jahongirlik Yurishlari va hukmronligiga bag'ishlangan alohida doston Yozish an'anasini boshlab berdi. 1300-1301 yillarda Amir Xusrav Dehlaviy «Xamsa»sining so'ngi dostoni «Oyinayi Iskandariy» ijod etildi. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostoni 1384 yilning sentYabr' – oktYabr' oylarida nihoyasiga yetkazdi. Bu ma'lumot taniqli adabiyotshunos B.Valixo'jaevning «Mumtoz siymolar» (Toshkent, 2002, 179-bet) kitobida bir necha dalillarga tayanilgan holda qayd etiladi. Shu yilning 28 dekabrida Abdurrahmon Jomiy «Xiradnomai Iskandariy» dostonini Yozib tugatdi.

Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostoni uchun Iskandar Zulqarnaynning jahongirlik Yurishlari tarixini asos qilib olsa-da, Ulug' shoir asarida tarixiy Iskandar _ Aleksandr Makedonskiydan tubdan farq qiluvchi Yangi bosh qahramon obrazini Yaratdi. Buyuk mutafakkir o'z davriga qadar Yozma va og'zaki badiiy adabiyotning turli janrlarida sayqallashib, takomillashib borgan Iskandar obrazi va uning hukmronligi, jangovor Yurishlari badiiy lavhalaridan ijodiy foydalandi. Shuningdek, bu asar «Xamsa» tarkibidagi boshqa masnaviylarda ilgari surilgan yetakchi g'oyani takomillashtiruvchi, Yaxlit janr hisoblangan «Xamsa»ning

Yakunlovchi dostoni bo’lgani uchun uning tuzilishi navoiYona badiiy tafakkur bilan alohida mohiyat kasb etdi. «Saddi Iskandariy»da nazariy-axloqiy doston sanalgapn «Hayrat ul-abror» va sujetli dostonlar «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ayi sayyor» asarlariga xos tuzilishning o’zaro YaxlitlaShuvi ko’zga tashlanadi. Dostonning asosiy voqealari Iskandarning tug’ilishi, Faylaqus uni valiahd deb e’lon qilishi, Faylaqus vafotidan so’ng, Iskandarning taxtga chiqishi lavhalarini o’zida mujassamlashtirgan XV bobdan boshlanadi. Bu bob asar voqealar tizimining muqaddimasi sanaladi. Keyingi tartibda keluvchi har to’rt bob mazmunan bir-biri bilan uzviy bog’langan bo’lib, asarning alohida bir qismini tashkil etadi. Unda Iskandarning sarguzashtlariga oid biror bir lavhani tasvirlashdan oldin hukmdorning to’g’ri yo’l tutganini nazariy jihatdan asoslash uchun avvalgi Uch bobda ma’lum bir masala xususidagi Shoirning mulohazalari (maqolat, Chunonchi, himmat, adolat avf xususida), uni tasdiqlovchi biror hikoya yoki masal va Arastuning ayni masalaga oid qarashlari keltiriladi. Asardagi har to’rt bobning dostonning bir qismini tashkil etishi Iskandar sarguzashtidan bahs etuvchi boblarning so’ngida keltirilgan lavhaga Yakun Yasovchi saqiy, mug’anniy va Shoirning o’ziga murojaati o’rin olganligida ham ko’riladi.

Sakson to’qqiz bobdan tashkil topgan dostonning muqaddimasi sanalgan XV bobda Alisher Navoiy talqinidagi Iskandar tarixiy Iskandar - Aleksandr Makedonskiydan tamomila farqli ekanligiga ishora qilinadi. Ma’lumki, tarixiy manbalarda Iskandar Zulqarnayn nasl-nasabi xususida turlicha ma’lumotlar Uchraydi. Ba’zilar uni Eron Shohi Doro II ning o’g’li desa, boshqa asar mualliflari jahongirning shajarasini Misr firavnlariga borib taqalishini qayd etadi. Alisher Navoiy dostonidagi Iskandar esa asrab olingan farzand, uning naso-nasabi ma’lum emas. Asarda tasvirlanishicha, shikordan qaytayotgan Rumu Rus podshosi Fayloqus otining sarkashligi tufayli endigina tug’ilgan, Yordam bo’lmagani uchun madorsizlanib chalajon holiga kelgan chaqaloqni qo’liga oladi. Unga Iskandar nomini berib, o’g’il va valiahd deb e’lon qiladi.”Hayrat ul-abror”ning “Adab dab’i”dagi bobida o’rtaga qo’yilgan talablarning amaldagi ijrosini Iskandarning jismoniy-ma’naviy Shakllanish jarayonida ham his qilish mumkin. Iskandarga ta’lim va tarbiya berish uchun zamonasining eng zo’r donishmandlari jalb qilinadi.

Naqumohis olinda dastur edi,
Ki hikmatqa olamda mashhur edi. (11,90)

Iskandar bilan Arastu hamsaboq edi. Uning ma'naviy-ma'rifiy Shakllanish yillari ana o'shanday muhitda kechdi. Zamonasining Yaktolari-allomai davronlardan insonShunoslikni, Insonni qadrlash ilmini o'zlashtirdi. Tarafayn sa'y-u harakatlar tufayli zamon Iskandari:

Bori ilm aro o'yla sohib kamol,
Ki komil aningdek topilmok mahol(11, 91)-

martabasiga ko'tarildi. Ulug' shoir asarlarning asosiy voqealari to'qimasiga talay hikmat va hikoyatlarni kiritganki, bu uning mantiqiy bo'liqligi, g'oyaviy mazmuni nuqtayi nazaridan ta'sirchan bo'lishini ta'min etgan. Aytilganlar jihatidan "Iskandar va gadolikni ixtiyor etgan Shahzoda muloqoti" tarzida nomlash mumkin bo'lgan She'riy hikoyat ahamiyatli. Mag'rib davlatlaridan birini o'z tasarrufiga olgan jahongir odatiga ko'ra o'sha Yurt Shohlaridan biriga taxtni topshirishi kerak edi. Mulozimlari munosib nomzot topmay qaytishadi. Iskandarning takroran talablari oqibatida go'ristondan go'sha topgan, aftodahol kiyingan, hamma yog'i kir Shahzodani uning huzuriga olib kelishadi . Podshoning taxtini unga topshirish bobidagi urinishlar befoyda ketadi, Chunki Shahzoda faqirlikni Shohlikka alashtirishni istamaydi. Iskandar o'z qarorida turib olgach, Shahzoda uning oldida quyidagi to'rt shartni ko'ndalang qo'yadi:

Biri andin o'ldi hayoti abad,
Ki yo'qdir aning intihosiga had:
Yana bir yigitlikka topmay halal,
Qarilik ila bo'lmag'ay ul badal,
Yana bir g'inoyi muabbatdurur,
Ki olinda iflosg'a raddurur,
Yana shodlig'kim yo'q aning g'ami,
Adam bo'lg'ay ul surning motami(11, 102)

Tabiiyki, ushbu shartlarning ijrosi bir emas, minglab iskandarlarning ham qo'lidan kelmaydi. Garchi Alisher Navoiy o'z Iskandariga jahongirlik bobida mag'lubiyatni ravo ko'rmaydi, ammo ma'naviy-irfoniy olamda uni qo'llab-quvvatlash Buyuk mutafakkirning ham qo'lidan kelmaydi. Gadolik faqr yo'lini tanlagan Shahzoda oldida ma'rifiy-ruhiy mag'lubiyatga duch kelgan Iskandarning tilidan quyidagilarni Shoir tan oldiradi:

...Ki bu dayr aro topsang ogohlik,
Sanga faqr berdi, manga Shohlik.
Agarchi meni ayladi arjumand,

Sang’a berdi himmatni mendin baland.(11, 103)

Alisher Navoiyning o’lmas “Xamsa”si uning Yakuniy dostoni “Saddi Iskandariy”da hamon yechimini topmagan bunday jumboqlar benihoya ko’pdir. Tahlil etayotganimiz hikoyatdagi dastlabki savol Iskandarni dovdiratib qo’ygan edi. Iskandar huzuriga kelayotgan Shahzoda ikki qo’lida ikki kalla suYagini ham ushlab kelgan edi. U qarshisida Shohona salobat bilan o’tirgan Iskandarga ma’noli nigoh tashlar ekan, birinchi savolini o’rtaga qo’yadi: Kalla suyaklaridan qay biri Shohniki-yu, qaysinisi gadoniki? Javob-sukut. Darvesh mantiqiy-ma’rifiy shiddatga zarb berar ekan, so’raydi:

...CHu o’lganda birdur bu ikki mato’,

Tiriklikda nevchun qilurlar nizo’.(11, 102)

Insoniyat avlodi qachon bu jumboqni ijobiy hal qiladi, yolg’iz Parvardigorgagina ayon, xolos. Alisher Navoiy Iskandar taqdiridagi ikki qutb-jismoniy (jahongirlik da’vosidagi janglar) va ma’naviy-ma’rifiy munozarani Yonma-yon qo’yib badiiiy ifodalashda davom etadi. Yurtda iymonu adolat bilan hukmronlik qiladigan Shohning bo’lishi shart. Ikkinchidan, badiiy adabiyotda Yashab kelayotgan markazlashgan davlat g’oyasi borki, Alisher Navoiy ham unga xayrixohlik qiladi. Biroq bu boradagi kurashlar jangsiz kechmaydi. Jang - vayronalik, begunoh odamlarning qonini to’kilishiga boisdir. Bunisi Alisher Navoiyga ma’qul emas. Asar davomida bir-biriga zid ana shunday tuyg’ular muallifni o’z iskanjasiga oladi. «Saddi Iskandariy»da o’shanday tang vaziyatdan nozik chiqib ketilgan o’rinlar bilan birga, ikkilanishlar, chalkashliklar ham ko’zga tashlanib qoladi. Mana bir misol. Faylaqus saltanati zamonida Rumu Rus davlati Eronga, Doroga ming tovuq tuxmi kattaligidagi olmos hajmida boj to’lar edi. Taxt Iskandarga o’tgach, u o’sha xirojni to’lamay qo’yadi. Doroning elchilariga u tuxum tug’adigan tovuqlarning o’lgan, endi yo’q, tarzida javob qaytaradi. Bundan darg’azab bo’lgan Eron tojdori bir chavgon shari, tayog’i va bir xalta kunjut berib, takror elchilarni Yuboradi. Bu bilan Doro aytmoqchi: Sen hali bolasan, toj-taxt da’vosini qo’ya turib, chavgon o’ynab Yur. Mening kunjut donalariday behisob qo’shinim borki, sen uning zarbiga tob berolmaysan. elchilarni ramziy ashyolari bilan qabul qilgan Iskandar hushYorlik ko’rsatadi. U mulozimlariga bir to’da och tovuqlarni haydab kelishni buyuradi. elchilar ko’z oldida xaltadagi kunjut tovuqlarga beriladi va bir necha daqiqada uning nom-nishoni ham qolmaydi. CHavgon tayog’i va shar (koptok)ni Iskandar o’zicha talqin qiladi: Dunyo koptop (shar) singari aylana va

Yumaloq. Doro uning ixtiyorini menga qo'yib beribdi... elchilar ko'rgan va eshitganlarini Doroga aytib berishadi. /azab otiga mingan Eron podshohi Iskandar davlati ustiga qo'shin tortadi. Jang muqarrar, chiqmaslikning iloji yo'q. Iskandar ham mudofaaga otlanadi. O'rtada tog' tizmalari. Urushning boshlanishiga fursat bor. Iskardar xos yigitlari bilan tog' kullalaridan biriga chiqib, Doro qo'shinini kuzatadi. Ular mo'ru msalax singari behisob, keti ko'rinmaydi. Hayratga tushgan Iskandarni xayol og'ushiga oladi. Shunday bir kayfiyatda uning ko'zi ikkinchi bir kulla ustida o'zaro urushayotgan kakliklarga tushadi. Biri-semiz, ikkinchisi - ozg'in. Kutilmagan hodisa Yuz beradi, havoda bir burgut paydo bo'ladi va chang urib semiz kaklikni olib ketadi. Iskandar o'zicha fol ochadi: Semiz kaklik-Doro, ozg'ini- men. Uni burgut olib ketdi, g'alaba esa menda qoldi... Navqiron jahongir o'z qarorgohiga qaytadi, unga Eron tarafidan elchilar borligini ma'lum qilishadi. Iskandarning muloqotidan ma'lum bo'ladiki, Eron qo'shini sarkardalari Shohga qarshi isyon ko'tarishgan va unga suiqasd qilingan. Iskandar elchi libosida Doro huziriga kirib boradi. (Keyinchalik ana shu lavha asosidagi hikoyat «Lison ut-tayr»ga kiritiladi). Eron Shohi Chindan ham tiriklikning oxirgi daqiqalarini boshidan kechirayotgan ekan. Iskandar o'zini tanishtiradi. Ulug' shoir Doroning Uch vasiyati badiiy talqiniga urg'u beradi: Menga qasd qilib, qonimni oqizgan sarkardalarni jazola. Men ularni bolaligidan tarbiyalab Shu darajaga olib kelgan edim. Menga xiyonat qilgan bu nonko'rlar seni ham, albatta, aldaydi. Mening avlod-ajdodlarimga ozor berma, qizim Ravshanakka uylangin. e'tibor qiling, Alisher Navoiy juda katta nazokat ko'rsatadi. Har bir ishora-yu lavhaning hayotiy-shar'iy jihatlarini hisobga oladi. Bulardan eng asosiysi-kitobxonni ishontirish muammosiki, asarda uning yechimi ham Yaxshi taassurot qoldiradi. Ana shu to'qimalarning barchasi sodir bo'lishi tayin bo'lgan katta xunrezlikka chap berishga qaratilgandir. Shunga Yaqin manzara Kashmirning olinishida ham ko'zga tashlanadi. Badiiy adabiyotda Kashmir sehru jodu vatani sifatida ham ma'lum.

Iskandar va uning qo'shini Kashmirda ajib bir to'siqqa duch keladilar. Shahar qal'asi Shunday silliqki, uni hech narsa qilishning iloji yo'q. Alisher Navoiy tasviridagi Iskandar sarkarda, davlat arbobi, donishmand va valiy maqomiga etgan shaxs. U qo'lga kiritayotgan g'alabalarning tayanch omili ham bor. U tanho emas. Iskandar zabardast olimlar qurshovida harakat qiladi, ularning maslahatlariga quloq tutadi. Kashmirning zabt etilishida ham Shu manzara namoyon bo'ladi. Sehrli

devorni qurgan olimlar Iskandardan Uch kunlik muhlat so'rab, sabr qilishni maslahat ko'rishadi. Aytilgan muddatda katta miqdordagi toshni balandga va uzoqqa ota oladigan qurolni Yasab berishadi. Uning Yordamida Iskandar Kashmir tilsimini ochadi va bu Shaharni qo'lga kiritadi. Shu Yurt podshosi Malluning qizi Mehrinozga uylanadi. Qarang, bu o'rinda ham asar muallifi o'z Iskandarini himoya qila oladi. «Saddi Iskandariy» dostonining markazida turgan bosh masala YA'juj va Ma'jujlarning insoniyat boshiga soladigan qironini oldini olishga xizmat qiladigan sad (to'siq) -devorni bunyod etishdir. Aslida bu mavzu sayyorligining teran tomirlari Qur'oni Karimdan boshlanadi. Ayniqsa, ilohiy kitob «Qahf» surasining 83-98-oyati karimalari ayni mavzu uchun g'oyaviy asos vazifasini ado etgan. Shu gapni Alisher Navoiy dostoni haqida ham aytish mumkin. Mulohazalarimizni dalillash uchun «Qahf» surasi 94-96-oyati karimalarini nazardan o'tkazaylik: «Ular: «Ey Zulqarnayn, Shak-Shubhasiz, (Shu tog'lar ortidagi) YA'juj va Ma'juj (qabilalari) er Yuzida buzg'unchilik qiluvchilardir. Bizlar senga bir (miqdor) to'lov to'lasak, biz bilan ularning o'rtasiga bir sad chekib (bir to'g'on qurib) berurmisan?-dedilar. U «Zulqarnayn aytdi: «Parvardigorim menga ato etgan (saltanat) sizlar beradigani (mol-dunyodan) YaxShiroqdir. Bas, sizlar menga (mol-dunyo bilan emas, balki) kuch-quvvat bilan Yordam beringlar, men sizlar bilan ularning o'rtasida bir devor bino qilay. Sizlar menga temir parchalarni keltiringlar. To (temir parchalari) ikkala tog' bilan barobar bo'lgach, (Zulqarnayn: «Bosqonlar bilan) dam uringlar»,-dedim. Bas, qachon u (temir-tersaklarni qizdirib) o't qilgach (eritgach) dedi: «Menga eritilgan mis ham keltiringlar, u (temir parchalarning) ustidan quYurman» (Qur'oni karim. O'zbkcha izohli tarjima. 213-bet). Sharq xalqlari adabiyoti tarixida Yaratilgan deyarli barcha Iskandarnomalarda Ilohiy kitobdagi Shu lavhalar asos vazifasida keladi. Jumladan, «Saddi Iskandariy»da ham ikki tog' oralig'ida YA'juj va Ma'jujlar Yuradigan yo'l ustida haybatli Yoysimon devor barpo etiladi. Turli metall qotishmalaridan qad rostlagan devorning o'sha maxluqlarga qaragan Yuzasi oqish-kulrang ma'danlar bilan silliq qilib pardozlanadi. Bular-ramz. Insoniyat tafakkurining Yovuzlik yo'lini to'sish bobidagi chorasi, kashfiyotidir. Qay zamonlar uchun bunday sadlar-to'siqu to'g'onlar o'zining ramziy «burchi»ni bajarib, insoniyat qalbiga dalda berib kelgandir.

Alisher Navoiy o'z Iskandari uchun XV asr sharoitida inson aqlu zakovati qodir bo'lgan barcha mo'jizaYu ezguliklarni ravo ko'radi, biroq

uni haddan ziyod taltaytirib ham qo'ymaydi. Dunyoning baqosizligi, foniyligini unga har daqiqada eslatib turadi. Arastu bilan qilgan muloqotlari orqali ana shu tuyg'uni uning Shuuriga singdira boradi. Ayni balog'at Yoshida (o'ttiz Uchda) uni o'lim bilan ro'baro' qilib qo'yadi. Ulug' shoir Iskandarning achchiq qismati orqali insoniyatga dahshatli haqiqatni Yana bir karra ravshan ko'rsatadi.

Azal kotiblari belgilangan lahzalar etsa, na mol-dunyo, na mansabu saltanat, na suyangan tog'laring joningga oro kirolmaydi. Sen dunyodan to'ymagan ko'zlaringni jovdiratib ketasan, ular esa chapak chalib qola beradi! Iskandariy Maqduniy bilan ham Shunday bo'ldi, qazosi etganini his qilgach, ko'zi ochildi, ammo endi kech edi. Jahongir Shundagina afsus qildi:

Ne qilg'on xayoli bori xom emish,
Havas jomi ko'nglimga oShom emish.(11, 522)

O'shanday lahzada onasini (tutingan onasi Bonuni) esladi. O'sha mushtipar nazdida farzandlik burChini ado eta olmaganidan nadomat chekdi. Undan rozi-rizolik tiladi, gustohliklarini afv etishini o'tindi:

Demon qilsam erdi o'g'ulluq sanga,
Qabul aylasam erdi qulluq sanga.(11, 523)

Bunday holat-hodisalar inson avlodi peshonasida naqsh topgan bitikka o'xshaydi. To'rt mUchasi sog', ishi avjida, kuch-quvvati to'lib-toshib Yurgan paytlarida inson xudbinlik, hirsu havas etagida Yuradi. Boshi yostiqqa etgach, afsus tortadi. Iskandar bilan ham Shunday bo'ldi. Ulug' shoir tili bilan aytganda: «Necha sarvari baxti farxundasan, Alar bandadur, sen dog'i bandasan», Ha, ba'zan ma'naviy-ma'rifiy dunyosi boy odam ham bandaligini unutib qo'yar ekan, Chunki o'rtadagi (Alloh bilan orif o'rtasidagi) hijob yo'qolgan emas, ma'naviy-ma'rifiy Shakllanish jarayoni maromiga etmagan. Iskandar ham qalbida Shunday bo'shliq borligini tuydi... Dostonda ular jahongirning onasiga Yozgan maktubida alam va dard bilan ifodalanadi. O'sha jonso'z maktub oxirida esa Iskandarning vasiyatlari beriladi. «Hayrat ul-abror»da ular ayrim lavhalar Shaklida keltirilgan bo'lsa, «Saddi Iskandariy»da uning bafurja tasvirini ko'ramiz.

Iskandarning ancha keng Shuhrat tutgan bu vasiyati Uch banddan iborat. U onasiga murojaat qilar ekan, ta'kidlaydi: «Boshim uzra ko'p iztirob aylamang, Jahonni azodan xarob aylamang». Masalaning bu qabilda qo'yilishi shar'iy talablarga to'la mos keladi. Negaki, islomiy ta'limotga ko'ra, odamning tug'ilishi-Xudoning berishi, uning o'limi-

Yaratganning bandasini o’z huzuriga da’vat etishi, olishidir. Falsafiy-mantiqiy jihatdan tug’ilish muqarrar ekan, o’lim ham haqdir. Iskandarning ikkinchi vasiyati mulozimlariga qaratilgan va She’rdagi ifodasi quyidagicha:

Qiling naql jahdu jid aylab bori,
Skandarni IskandariYa sori.
Tiriklikda ul er edi ma’manim,
O’lum vaqti ham aylangiz madfanim.(11, 526)

Ostona, kindik qoni tomgan zamin parchasi –Vatanning boshlanishidir. Odamiyligi bor, o’zini qadrlay oladigan inson uchun o’sha go’sha mo’tabar sajdagohdir. Iskandarning vasiyatida ana o’sha muborak tuyg’u ustuvor. U – ibrat maktabi. Iskandarning Uchinchi vasiyati – falsafiy-mantiqiy teran. Uning zamirida Alisher Navoiyning Yurak nidosi ham Yashirin. U zamon, zabon, makon nuqtayi nazaridan sadhad bilmaydi. Iskandarona –NavoiYona bu ibratnoma –pandnoma butun insoniyat avlodiga qaratilganligi, umumbashariyligi bilan ham ahamiyatlidir.

...CHiqoring bir ilgimni tobutdin,
Hamul nav’kim rishta yoqutdin.
Ki el solib ul sori hayrat ko’zi,
Na hayrat ko’zi, balki ibrat ko’zi,
Bu panjaki barmoqlari chekti saf,
Jahonni jahon ahlidin urdi kaf.
Kafi ichra oldi jahon kishvarin,
Baru bahrning la’l ila gavharin.
CHu urdi ajal ilgi tabli rahil,
Baqo bo’yniga soldi habli rahil.
Jahondin shal ilgi misoli borur,
Nechukkim Chinor ilgi xoli borur.
Angakim madadkor bo’lg’ay bilik,
Jahon Shug’lidin bori chekkay ilik.(11,526-527)

Hikmat maqomidagi bu gaplar Iskandarning tilidan aytilayotir. U oddiygina podshoh emas, deyarli butun jahonni o’z tasarrufiga olgan hukmron. U – molu dunyosi, durru javohirotining son-sanog’i, hisobu kitobini bilmaydi. Uning diydalari eru suv osti-usti ajoyibotlariga to’yib-to’yib boqdi. Uch Yurtning Uch sanamini og’ushiga olib, aysh-ishrat ham surdi. Tobutdan qo’lni, ochiq panjalari bilan chiqarib qo’yish xalqimizda qasam bilan barobardir. Qaysidir jiddiy orzusi ushalmagan insongina bu

fano dunyosidan ochiq ko’z yoxud qo’l bilan armonli ketadi. Ulug’ shoir bularni biladi. Kitobxon Yuragida Shunday Shubha kechmasin uchun vasiyat so’ngidagi bayt ilova qilingan. Darvoqe, aytilganlar Iskandarning armoni emas, o’ttiz Uch yillik umr sabog’ining qaymog’idir. U – chaqiriq, u – da’vat, u – ibrat, u – jahongirdan qolgan Yodgorlik. Zero, hech bir boylik ma’naviy-ma’rifiy zahiraday bardavom emas. Alisher Navoiy «Xamsa»si ana shunday umumbashariy g’oyalarni badiiy ifoda etganligi bilan qimmatlidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1.Xamsa ijod etish uchun «Panj ganj»ning qanday xususiyatlari bu adabiy janrga xos bo’lgan me’yor sifatida belgilandi?

2.Sharq xalqlari adabiyoti tarixida Shayx Nizomiyga izdoshlik qilish an’anasi qanday yo’nalishlarda davom etdi?

3.Alisher Navoiy «Xamsa»si va uning Yaratilishi tarixiga doir nimalarni bilasiz?

4. “Hayrat ul-abror”dan keltirilgan maqolat va hikoyatlarning mazmun-mohiyati, g’oyasi nimalardan iborat?

5. Ulug’ shoir “Farhod va Shirin” dotonini ijod etarkan, uni Yangicha tarhda Yaratish niyatini qanday tamsillar vositasida badiiy ifoda etgan? Xuddi Shu holat “Layli va Majnun”da qanday bayon etiladi?

6. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida ulug’ salaflariga ijodiga qanday munosabat bildiradi, ularning Xusrav, Shirin va Farhod muhabbati mojarolaridan bahs etuvchi dostonlari xususidagi turkiy xamsa ijodkorining e’tirozlari nimalardan iborat?

7. ”Fadhod va Shirin” dostonidagi yetakchi obrazlarning ramziy-majoziy xususiyatlarini izohlang.

8. Layli va Majnun dardchil ishqiy sarguzashti mavzusining tarixiy asosi va tadrijiy takomili xususida nimalarni bilasiz?

9. Dostondagi tun va tush lavhalarining o’ziga xos xususiyatlari haqida so’zlang.

10. Layli va Majnunning pok sevgisi haqidagi mushohadalaringizni bayon eting. Majnunning Ka’ba ziYorati lavhasini Sharhlashga harakat qiling.

11. Shoh Bahromning ishqiy sarguzashtlari mavzusining tarixi va tadrijiy takomili haqida gapirib bering.

12. “Sab’ai sayyor”dostonining Shoh Bahrom ishqiy sarguzashtlariga bag’ishlangan asarlardan jiddiy farqlanuvchi jihatlari nimalarda namoyon bo’ladi?

13. Dostondagi hukmdorlar obraziga oid fikrlaringizni bayon eting.

14. Dostondagi hikoyatlar, qasrlarning ranglari bilan qoliplovchi hikoyatning qanday bog’liqlik jihatlari mavjud?

15. Shoh Bahrom obrazini Farhod, Majnun obrazlaridan qaysi jihatlariga ko’ra farqlanadi? Shoir “Sab’ai sayyor”da oshiqlak va Shohlik haqidagi qanday falsafiy qarashlarini bayon etadi?

16. Dostondagi tush lavhasining ijtimoiy ahamiyati nimalardan iborat?

17. Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlarning keng tarqalishini qadimgi tarixchilar qanday izohlashadi?

18. “Saddiy Iskandariy”ning nomlanishida qanday majoziy ma’no mujassam? Uni boshqa dostonlar nomlari bilan izohlashga harakat qiling.

19. “Iskandar va gadolikni ixtiyor etgan Shahzoda muloqoti”da qanday umumbashariy muammolar xususida fikr Yuritiladi?

20. Iskandarning adolatli Shoh ekanligi dostondagi qaysi lavhalarda o’z ifodasini topgan? Ulug’ jahongir vasiyatining mohiyati nimalardan iborat?

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

1. «Panj ganj»ga to’la javobiya Yozgan Shoirlar. 2. «Panj ganj»ning ayrim dostonlariga javob Yozgan Shoirlar. 3. «Panj ganj» dostonlarini erkin – ijodiy tarjima qilgan Shoirlar.

4.Ibrohim Adham va Robiyai AdviYa. 5.Shoh /oziy va zoli zar. 6.Hotami Toyi va o’tinchi chol. 7.No’shiravoni odil. 8.Farhod. 9. Shirin. 10.Chin xoqoni. 11.Mulkoro. 12. Moniy, Boniy, Qoran. 13.Ajdarho, Axriman dev, «temir paykar». 14.Suhoylo. 15.Xizr alayhis-salom. 16.Suqrot. 17.Mehinbonu. 18.Xusrav Parvez. 19. Buzrug Ummid. 20. Makkora zol. 21.Sheruya. 22.Bahrom. 23.Layli. 24.Majnun. 25.Hay va Bani Omir qabilasi boshliqlari. 26.Ibn Salom. 27.Navfal.28.Zayd. 29.Shoh Bahrom. 30.Dilorom. 31.Jasratxon. 32.Farrux. 33.Axiy. 34.Zayd zahhob. 35.Sa’d. 36. Juna.37.Mas’ud. 38.Mallu. 39.Jaypur 40.Mehr. 41. Suhayl. 42.Navdar. 43.No’’mon. 44.Jobir. 45.Muqbil. 46.Mudbir. 47.Faylaqus. 48.Iskandar. 49.Arastu. 50.Doro. 51.Bonu.

Adabiyotlar

1.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 7-11-tomlar.Toshkent: «Fan» 1991-1993. (Izoh: Ushbu manbalarga murojaat etilganda, qavs ichida jildi va sahifasini ko'rsatish bilan kifoyalanildi).

2. Abduqodirov A. Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug'ati. Xo'jand – 1997, 96 bet.

3. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. Maqolalar to'plami. Toshkent: "Fan", 1993.

4. Alisher Navoiy "Xamsa"si (maqolalar to'plami). Tadqiqotlar. Toshkent: "Fan", 1986. 144 bet.

5. Axmedov T. Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni. Toshkent: "Fan", 1970.

6. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003, 129-185 betlar.

7.Vohidov R., Mahmudov M. Ma'naviyat – komilliksaodati. Toshkent: «Ma'naviyat», 1997.

8. Vohidov R., Mahmudov M. Iymon - qalb gavhari. Toshkent: «Ma'naviyat», 1999.

9. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. G'.G'ulom nomidagi ASN. Toshkent, 1974.

10. Erkinov S. Navoiy "Farhod va Shirin" va uning qiyosiy tahlili. Toshkent: "Fan", 1971. Yana: "Farhod"ning vorislari va "Shirin"ning izdoshlari. "Fan va turmush", 1976, 8-son, 10-11-betlar.

11. Polyakova E. Bir sevgi fojeasi. "Guliston", 1976, 7-son, 28-bet.

12. Qayumov A. "Hayrat ul-abror" talqini. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi ASN., 1977; Yana: "Farhod va Shirin" sirlari. Toshkent – 1979; Yana: Ishq vodiysi chyechaklari. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi ASN., 1985. 256 bet.

13. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent: «Fan», 1996.

14. Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfasi. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa birlashmasi, 1991.

"Lison ut-tayr" –falsafiy masal doston

"Lisonut tayr"("Qush tili") Alisher Navoiy hayotining so'ngi yillarida ijod etilgan falsafiy, ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta'limiy doston bo'lib, unda Haq,

Borliq va Inson munosabatlariga doir ulug’ mutafakkirning teran mushohadalari badiiy in’ikosini topgan. Shoir asarning hamd bobida Tangri taoloning Buyuk Yaratuvchanlik xususiyatlarini vasf qilar ekan, Allohning butun olamni vujudga keltirishdan ko’zlagan maqsadi Inson ekanligini quyidagi satrlarida badiiylashtiradi:

Ofarinishdan qilib inson g’araz
Oning aylab xalq ichinda beevaz
Ko’nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra o’zin pinhon qilib (12, 9)

Ulug’ shoir dunyoqarashiga ko’ra, Allohning olamni Yaratishdan maqsadi inson bo’lgani bois uni butun Yaratiqlar orasida beevaz, Ya’ni tengsiz qilib vujudga keltirdi. Odamning ko’nglini irfon-tafakkur bilan olamni anglash xazinasiga aylantirgan Buyuk Tangri o’zini mana shu ko’ngil tilsimi ichra Yashirdi. Demak, inson ulug’ YaratuvChini o’z ko’nglidan izlamog’i, ishq o’ti, dard kuli bilan poklanib shaffof holga kelgan ko’ngil ko’zgusida jilvalangan Alloh jamolini ko’rish baxtiga muyassar bo’lmog’i lozim. Buning uchun riyozat bosqichlaridan sabot va matonat bilan o’tib, ma’naviy komillik rutbasiga ko’tarilish talab etiladi. Yuksak badiiy salohiyat sohibi bo’lgan Alisher Navoiy olamdagi eng oliy mavjudot sanalgan insonga ilohiy ne’mat sifatida in’om etilgan ong, Shuur va fikrlash qobiliyati ilm bilan uning ko’nglini Yanada ma’nan boyitishni, natijada Alloh sifatlarini o’zida mujassam qila boshlagan ko’ngil bilan Yaratuvchi orasida ruhan birlik hosil bo’lishini qushlar tilidan majoziy tasvirlaydi. Sharq xalqlari adabiyotida mavjud bo’lgan bunday adabiy tajriba Alisher Navoiyni maktab ostonasiga endi qadam qo’ygan davrlaridanoq oShufta qilgan edi. Ulug’ shoir hijriy qamariy hisob bilan 60 Yoshga to’lganida, ana shu ruhda Yozilgan Shayx Fariduddin Attorning “Mantiq ut –tayr” dostonini bolalik davridayoq yod olganini e’tirof etadi. (12, 293 –297).

Fors tojik adabiyotining yirik namoyandasi Fariduddin Attor 1148-1151 yillar orasida NiShopur Yaqinidagi Kadkana qishlog’ida tavallud topgan. Uning asl nomi Muhammad bo’lib, Shoir otasi Abubakr binni Ibrohimdan meros qolgan attorlik do’konida faoliyat ko’rsatgan va tabiblik bilan Shug’ullangan. Fariduddin Attor juda ko’plab ilohiy –irfoniy mohiyat kasb etuvchi asarlar hamda bir qator g’azal va qasidalar muallifidir. Manbalarda Shoirning 1219-1221 yilarda vafot etganligi qayt etiladi.

Alisher Navoiy “Lisonut tayr”da Fariduddin Attorning vahdat (Alloh bilan birlashish) sirlari tavsiriga bag’ishlangan nazm va nasrda ijod etilgan adabiy merosini juda Yuksak baholaydi. Shoir olamdagi dengiz va konlarda

bor narsalar Attor do’konida (ijodida) ham Yuzlab mavjudligini e’tirof etadi. eng muhimi, “Mantiq ut-tayr”muallifi asarlarida insonni tubanlik botqog’idan poklovchi g’oyalar o’zining badiiy ifodasini topgan:

Odami tab’ini jahl aylab zalil
Har Yomon axloqdin qilsa alil.
Bo’lg’oli zoyil har andoq illati,
Bu do’kon ichra muhayyo sharbati.(12, 28)

Alisher Navoiy dostondagi ulug’ salafiga bag’ishlangan bobda Fariduddin Attorning “Musibatnoma”si ko’ngilga tushgan musibatga tasgin berishi, “Ilohiynoma”si ilohiy sirlarning tugal Sharhi ekanligi, “Ushturnoma” (“Tuyanoma”)sida har xil nozik ma’nolar go’yo nortuyalar kabi tizib qo’yilganligi, “Lujjai hiloj ”(“Umr bulog’i”) asaridagi ma’no durlarining har birining qiymati butun bir mamlakat xirojiga tengligini bayon etadi. Shuningdek, Shoirning qasida, g’azal va ruboiylariga Yuksak baho beradi hamda “Nasr ila chun tazkira mavjud etib, Avliyo arvohini xushnud etib” baytida Fariduddin Attorning ”Tazkirot ul –avliyo” asarini nazarda tutadi. Alisher Navoiy Shoirning nomlari keltirilgan asarlari qanchalik tahsinga sazovor bo’lsa, uning”Mantiq ut -tayr”dostoni ham Shunchalik e’zozga arzigulik ekanligini ta’kidlaydi va Shayx ruhidan madad olib Shu yo’sinda asar Yozish niyatini bayon qiladi.

“Lison ut-tayr”dostoning xususiyatlari haqida ko’pgina olimlar, jumladan, E.EBertel’s, V.Zohidov, N.Mallaev, B.Valixo’jayev, A.Hayitmetov, SH.SHaripov, N.Komilov, R.Vohidov, H.Ne’matov, M.Mahmudov, I. Haqqul, S.Olim kabilar ilmiy tadqiqotlarida o’z munosabatlarini bildirishgan. Asarni eski o’zbek Yozuvidagi dastlabki tanqidiy matn holidagi nashri (Toshkent:”Fan,”1965) SHarofiddin eshonxo’jaev tomonidan amalga oshirildi. Joriy Yozuvimizdagi nashri (Alisher Navoiy. Asarlar. 15-tomlik, 11-tom, T:”Fan,”1965) ham SH.Eshonxo’jaev sa’y –harakatlari bilan chop etildi. O’lkamizda milliy istiqlol shabadalari esa boshlagan davrlarda “Lisonut tayr”ga munosabat ancha o’zgardi. Adabiyotshunos V. Rahmonov asarning asl matnini “O’zbek adabiyoti bo’stoni”rukni ostida keng o’quvchilar ommasiga taqdim etdi. Unda olim “Ko’ngillar hamrozi”nomli so’zboshisi bilan ishtirok etib, dostonning nashri, o’rganilishi tarixi haqida teran mulohazalarini bayon etdi. Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to’plami”(20-tomlik)ning 12- jildi “Lisonut tayr”ga bag’ishlangan bo’lib, uni ham izohlar bilan SH.Eshonxo’jaev nashrga tayyorladi. (Toshkent:”Fan,”1996).

“Lisonut tayr” 193 kichik bobdan tarkib topgan bo’lib, dostonning 13 bobi an’anaviy muqaddimani tashkil etadi. Unda hamd, munojot, na’t,

chahorYorlar : Abu Bakr Siddiq , Umari Foruq, Usmon Zunnurayn, Hazrati Aliga bag'ishlov va hikoyatlar hamda Shayx Fariduddin Attor madhiga o'rin berilgan. Asarning asosiy voqealar tizimi 14-bobdan boshalnadi. Kunlarning birida guliston, dengiz, o'rmon va sahro qushlari o'z guruhlari bilan bir erga jam bo'lib majlis qiladilar. Ular muhabbat bilan kuy kuylab, Yana osmonga parvoz qilmoqchi edilar, Chunki bu bazmda ularning o'rinlari belgilangan emasdi-da. Shu bois qushlar orasida nizo chiqdi. Bu kelishmovchilikning sababi tojdorlar poygohda qolib, tojsiz qushlar to'rga chiqib olishgani-yu, hunarlilar o'rnini hunarsizlar egallab olgani va to'rdagilar quyida joylashgan qushlarga nopisandona munosabat ko'rsatganlari bo'ldi. Ular sodir bo'lgan mojaroni qizg'in muhokama qildilar hamda insof va diYonatli, Yaxshi tartib o'rnata oladigan va adolatli podshoga muhtoj ekanliklarini ma'lum qildilar. Qushlar orasidagi g'avg'o-to'polon va uning muhokamasi ishtirokchisi bo'lgan Hudhud (PopiShak) aql nuridan bahramand, boshini to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi toj bezab turgan, sharafi izzati Yuksak qush edi. U Shoh izlab, uni topa olmay hayron bo'lib turgan qanotli jonivorlar davrasiga devonavor kirib Qof tog'ida Yashovchi Anqo, butun olamda Simurg' nomi bilan Shuhrat topgan zoti oliy qush haqida so'zlaydi:

Barcha olam qushlarig'a Shoh ul,
Holingizdin mo'-bamo' ogoh ul.
Ul yoqin sizga-u siz ondin yiroq,
Vasl anga oyin, vale sizga- firoq.
Har parida Yuz tuman rangi ajib,
Lek har rangida Yuz naqshi g'arib,
NaqShu rangidin xirad ogoh yo'q,
/ofil erkonga xirad ikroh yo'q.
Kim xirad idrokidin afzundur ul,
Mundin idrokig'a topmas aql yo'l.
Siz tuShub ul Shohdin behad baid,
Ul yoqinroq sizga min hablil varid.
Har kishi bo'lsa tirik ondin yiroq,
Ul tiriklikdin o'lim ko'p YaxShiroq.(12, 33)

Qushlar Hudhudning so'zlaridan shodlanib, Simurg' haqida surishtira boshlaydilar. Shunda Hudhud Simurg'dan ba'zi nishonalar so'zlaydi. Keyin uning tunda Chin Shahri uzra parvoz etgani, Simurg' parvozidan butun Shahar Yorishib xalq beShuur bo'lib qolgani, podshoh qush qanot qoqqanida, bir pari erga tushib bu par butun Chin mamlakatini hasham-bezakka o'rab Yuborganini bayon qiladi. Simurg' haqida afsona eshitgan qushlar tabiatida shavq o'ti

alangalana boshlaydi, ular bunday Shohdan ayri Yashash mumkin emasligini tushunib etishadi. Hudhud qushlarni Simurg'ni izlashga targ'ib etadi va To'ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kaklik, Tozarv (Tustovuq), Durroj (Qirg'ovul), Shohboz (LoChin), Shunqorga alohida-alohida murojaat qilib, ularni Simurg' vasliga erishishga chorlaydi.

Hudhud qushlarni ishq sirlaridan voqif qildi. U vasl va hijron haqida so'zladi. Qushlarga o'zlarining hijronda qolganliklari malol kelib, ular vasl haqida Shirin xayolga berildilar, Qanotli jonivorlar bu yo'lda qanchalik mashaqqatu azob bo'lmasin, barchasiga bardosh berib Shoh oldiga borishga qaror qilishdi. Qushlar keng samo uzra parvoz qilib ulug' maqsad yo'lida qanot qoqa boshlaydilar. Bir necha kun ko'kda katta jamoani tashkil etib ko'ngildagi ezgu niyatga etish ilinji bilan harakatlanayotgan qushlar bir sahrodan Uchib o'tishadi. Yo'lda juda ko'p qiyinchiliklar ranju alamlar ularga Yuzlanadi. Odatiy hayot tarzining o'zgarishi qushlarni toliqtiradi. Ular o'zlari nochor ahvolda ekanliklarini Hudhudga bildiradilar. Hudhud qushlarni to'plab bir vodiyga qo'nadi va ularning arz-dodlarini tinglaydi. Qushlar birin-ketin maqsadning ulug'ligi, yo'lning sermashaqqatligi-yu, o'zlarining ojizu notavonliklarini vaj qilib o'z uzrlarini bayon qiladilar. Ba'zilari o'zlarini Shoh bilib boshqa Shoh izlashga ehtiyoj yo'qligini ham ro'kach qilishadi. Shunda Hudhud To'tiga hiylagarlikni kasb qilgan Yashil chakmon kiygan kishi, Tovusga masqaraboz hindu, Bulbulga Shohga oshiq bo'lgan gado, Qumriga uquvsiz bog'bon, Kabutarga ishyoqmas tanbal kishi, Tog' kakligiga tolei past qallob kishi, Tozarvga Muqbil va Mudbir, Qarchig'ayga bir tog'lik odamning sayyoh Yurgan ayiqni qo'lga o'rgatishi, Shunqorga bir podsho bazmida o'zini bo'yra Shohi deb e'lon qilgan masqaraboz, Burgutga hunarsizlikda Yagona bo'lgan zo'r pahlavon qismati, Kuf (Boyo'g'li)ga ganj umidida jonidan ayrilgan telba, Humoyga savdogarning arzimas besh-o'n dirhami evaziga dengiz tubidan sadaf izlovchi g'avvos, O'rdakka Makka atrofini suvda bir necha bor aylanib pulga hirs qo'ygani bois haj farzini ado etmay dengizga g'arq bo'lgan savdogar haqidagi hikoyatlarni so'zlaydi. Bu hikoyatlar uzrini bayon etgan qushlarning tabiatidagi noqisliklar bilan uyg'unligi, ayni choqda ularda inson tabiatidagi illatlar keskin tanqid ostiga olinganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Hudhud majlis nihoyasida Tovuqning uzrini tinglaydi. U Yaratuvchi tomonidan Toquqqa bir erda muqim Yashash hukm qilinganligini bahona qiladi. Dostonda Shu o'rinda Hudhud tilidan quyidagi ibratomuz fikrlar baytlar bag'riga singdiriladi:

Bor oningdek qushki ochmay bolu par,
Sidra Shohi ustida aylar maqar .

Keldi xilvatgohi oning anjuman,
Sayr etar lekin eri doim vatan.
Arsh parvoz o’ldiYu sidranishin,
elga zohir aylamay parvoz ishin.
ermas ul Simurg’din ayru dame,
Vaslidin ko’ngliga o’zga olame.
Etmayin jonig’a hajoidin gazand,
Surati vaslida har dam naqshband.(12, 87)

“Lison ut-tayr”qahramonlari orasida ko’kda parvoz etish bobida o’n to’rt qushning eng ojizi Tovuqdir. Bu borada O’rdak ham Tovuqqa o’xshab ko’rinsa-da, uning suvda bemalol suza olishi sayru sayohatdagi imkoniyatini ancha kengaytirgan. Har ikkala jonivorning ham Ucha olish imkoniyatini asardagi boshqa obrazlar bilan qiyoslaydigan bo’lsak, ularning qushligi, albatta, o’ta shartltdir. Alisher Navoiy ana shu ikki obrazni shartli ravishda qushlar safiga qo’shish bilan insonni komillik rutbasida ko’rish, Haq vasliga etish xususidagi o’zi e’tiqod qo’ygan naqshbandiYa tariqati g’oyalarini badiiylashtiradi. Buni Tovuq uzriga javoban Hudhud tilidan aytilgan Yuqoridagi misralar misolida Yaqqol ko’rish mumkin. Asarda Tovuq umumiy nom sifatida Xo’rozga nisbatan qo’llanilgan. Shu bois bu jonivor Tangri taqdir etgan qismatidan so’zlarkan, Yaratganning o’zi unga subhi Shomda elni toatga-namozga chorlashni va bir joyda sokin Yashashni hukm qilganligi, erlik bobida esa unga omad berib bir necha chiroyli kelinlarni in’om etganini ta’kidlaydi. Xullas, Tovuq Qof tog’iga borib Simurg’ning vasliga etishni o’zi uchun ushalmaydigan orzu deb biladi. Tabiiyki, uning ojizu notavonligi fikrlarining ancha o’rinli ekanligini dalillaydi. Biroq Hudhud osmonning ettinchi qavatida o’sadigan sidra daraxti Shohida maqom tutib, qimirlamay turadigan qush Simurg’dan bir nafas ham ayri emasligini misol keltirib Tovuqning uzrini inkor etadi. NaqshbandiYa tariqatidagi shiorlarni kasb etgan qush “Xilvat dar anjuman” aqidasiga amal qiladi. Botinda Allohni zikr qilib, u haqda mushohada Yuritadi. Shuningdek, bir joyda muqim turuvchi bu qush “Safar dar vatan” aqidasini ham amalda tadbiq etadi. U botinan parvoz etib, uni elga oshkor qilmaydi. Shu bois u Simurg’ vaslidan bir nafas ayri emas. Tabiiyki, asarda Tovuq va sidra shoxini maqom etgan qush bir erda muqim Yashovchi avom va orifning majoziy timsollaridir. Orif insonga in’om etilgan ulug’ ne’mat taxayyul, tafakkur qilish va muroqabadan bahra olib, ko’nglini Allohning jilvagohiga aylantirdi, avom esa buni xayoliga ham keltirgan emas.

Hudhud har bir qushning uzrini tinglab, ularga munosib javob qaytargandan so’ng, qushlar o’zlarining Simurg’ga bo’lgan nisbatlarini

so’raydilar. Hudhud Simurg’ zuhuridan so’z ochib, uning butun olam go’zalligini o’zida saqlovchi zoti avval bir maxfiy xazina ekanligini, keyinchalik u ko’zguda jilvalana boshlaganini so’zlaydi. Olamdagi barcha qushlarning Shakli uning hikmatga to’la soyasidan iboratligini ma’lum qiladi. Asarda Hudhud tilidan ifodalangan fikrlarning dalili sifatida “Ul Shoh hikoyatikim, husnini zohir qilurg’a ko’zguni vasila qildi”, va “Iskandarning elchilikka borg’on hikoyati”ga o’rin beriladi. Qushlar Hudhuddan bu yo’lning ahvolini surishtira boshlaydilar. U bu yo’ldagi kishining eng oliy sifati ishq bo’lmog’i lozimligini ayon qiladi. Qushlar dostondagi eng yirik hikoyat, ta’bir joiz Yuo’lsa, She’riy qissa deb nomlash mumkin bo’lgan Shayx San’onning ishqiy sarguzashtlarini tinglagach, Simurg’ vasliga erishishga qat’iy qaror qilishadi. endi ularning horib charchaganlari tamoman unut bo’lib, ixtiyorlarini ishq qo’llaridan olib qolgan, barchalari shavq o’tidan beqaror edilar. Ko’ngildagi niyatni amalga oshirish qat’iyati mashaqqatli yo’ldagi to’siqlardan mardonavor o’tishni talab qilardi. Biroq qushlar to’dasida zoru zaif, ojizlar ham bor. Butun jamoani ezgu maqsad sari boshlovchi bir rahbarga ehtiyoj seziladi. Qushlar Shunday rahbar sifatida Hudhudni tanlaydilar, biroq u bu ishni o’z zimmasiga olmaydi. Qushlar nomiga qur’a tashlanadi. Qur’a tashlash natijasiga ko’ra, Hudhud qushlar to’dasini Simurg’ning manzili tomon boshlovchi rahbar bo’ladi. Qanotli jonivorlar rahbarlari rahnamoligida bir necha kun parvoz etib benihoya cheksiz kulfat va hajr Shomiga qiyos qilgulik bir vodiyga kelib qolishadi. Qushlardan biri bu yo’l nima sababdan bo’m-bo’shligini so’raganda, Hudhud ularga BoYazid Bistomiyning bir tunda maxluq jinsidan asar bo’lmagan vodiyni kezishi haqidagi hikoyatni so’zlab beradi. Qushlar ko’nglida vahima, qo’rquv hukmronlik qila boshlaydi, ammo ular ortga qayta olmas edilar. Shu bois olis manzilga etish uchun ko’ngilda xotirjamlik paydo qilish maqsadida bir erga to’planadilar va Yana Hudhudni savolga tuta boshlaydilar. Hudhudning javoblvri ularni zzgu maqsad sari sabot bilan harakat qilishga chorlaydi. Ayniqsa, qushlarning rahbari o’z mulohazalarini dalillovchi payg’ambaru ulug’ Shayxlar, darveShu zolim Shohlar hamda oddiy xalq vakillari sarguzashtlari bilan bog’liq ibratli hikoyatlarni so’zlashi ularni Yanada ruhlantiradi. Dostondagi Shayx Najmiddin Kubroning so’zi va itga tushgan ko’zi, Shayx Abu Sayid Abulxayr, Odam Safiy alayhis-salom, Shayx Abu Turob Naxshabiy, zolim podshoh va ikki darvesh, Shayx Xaraqoniy, Basra Shahridagi bir ochko’z kishining choponiga tikilgan boyligi bilan suvga g’arq bo’lishi, o’zini darvesh qiyofasida ko’rsatgan bangi, Arastu va uning kofirlar ibodatxonasidan chiqqan go’zalga oshiq bo’lgan shogirdi, Sulaymon va Azroil, Misrdagi bir oliyhimmat kishi, Odamga sajda qilmagan Azozil, Shoh

Ibrohim Adham, qiyomat kuni Jom Shayxi mast Zinda Pilning Tangriga murojaati, Xoja Muhammad Porso, Majnun al- haq, BoYazid Bistomiyni tushda ko'rgan murid, Shayx Abu Bakr NiShopuriy, Xoja Abdulla Ansoriy, Abu Said Xarroz, Shahzoda va uning oshiqlari singari hikoyatlarda insonning nafsoniyat iskanjasidan xalos bo'lib, komillik rutbasini qozonishi g'oyasi o'zining badiiy ifodasini topgan.

Hudhud asl manzilga etish uchun etti vodiy: talab, ishq, ma'rifat, istig'no (ehtiyojsizlik), tavhid (birlik), hayrat va faqru fano (faqirlik va yo'qlik)ni bosib o'tish lozimligini bayon etadi. Har bir vodiy haqidagi Hudhudning mulohazalari hamda ularni quvvatlantirish uchun keltirgan ibratli hikoyatlar qushlarni doimo ruhlantirib turadi. Oqibatda ulardan o'ttiztasi etti vodiydan o'tib Simurg' manziliga etadi. Qushlar Simurg' jamolini ko'rsatib o'zlarini foniylikdan boqiylikka erishtiradi, degan xayol bilan yo'lga chiqishgan edilar, biroq ular yetib kelganda, manzillarining qay tomoniga boqishmasin, unda o'zlarining akslarini ko'ra boshladilar:

Ko'rdilar o'zni qayonkim tushti ko'z,
Olloh-Olloh ne ajoyib dur buso'z.
Kim qilib Simurg'ni o'ttiz qush havas,
O'zlarin ko'rdilar Si murg'u bas.(12, 268)

Ulug' shoir keltirilgan iqtibosda tajnis badiiy san'atiga murojaat etib, qushlar sayridan ko'zlangan maqsad mohiyatini kitobxon Shuuriga kutilmagan tarzda singdiradi. Bu Simurg' jamolini ko'rish orzusida ne-ne dengizu quruqliklardan o'tgan o'ttiz qush si murg' (fors-tojikcha o'ttiz qush) sifatida o'zlarini ko'rishlarida namoyon bo'ladi. Shoir riyozat, azob-uqubat chekish poklanish asosi ekanligini nafsoniyatni yenggan insonda ruhoniyat-ma'naviyatdan boshqa narsa qolmasligini qushlar tili va qushlar timsollarida ifodalaydi. Shuningdek, Alishnr Navoiy Alloh, olam va odam birligi falsafasidan kelib chiqib quyidagi xulosani bayon etadi:

O'z vujudingg'a tafakkur aylagil,
Har ne istasang o'zingdin istagil.(12, 270)

" Lisonut tayr"da o'z odatiy hayot tarzidan uzilib, ezgu maqsad sari yo'l olgan qushlarning dastlabki sinovlarga bardosh berolmay uzrxohlik qilishlarida, ularning tabiatida haddan ziyod kibr-havoga berilish mayli ustuvorligi sezilib turadi. Jumladan, Shunqor Hudhudga uzrini bayon qilarkan, o'zining qushlar Shohi ekanligini e'tirof etadi. Hatto, mening barcha ahvolimni: qushlar orasidagi zotimni ham, otimni ham Yaxshi bilasan, deya Hudhudga sha'ma qiladi. "Xo'b emas bir Shah qo'Yub boshig'a toj, O'zga Shahg'a zohir etmak ehtiyoj",- derkan o'zidagi menlikdan iftixor

tuyayotganligi sezilib turadi. Hudhudning javobida esa o’zini podsho deb bilgan bu kibrli qush ayovsiz tanqid qilinadi:

Har kishi ermen debon ermu bo’lur,
Kelmas ishni ilkidin demu bo’lo’r.
Qavmi nodonkim degaylar seni Shoh,
Butni yo o’tni degondektur iloh.(12, 76)

Hudhud tilidan so’zlangan hikoyat ham g’oyatda ibratli. Unda ko’ngil Yozish niyatida butun mamlakatga katta to’y bergan ulkan hukmdor bazmida bir behayo razil kishi o’zini bo’yra Shohi deb e’lon qilganligi bayon etiladi. Hikoyatdan anglashilishicha, bir necha nokas masxaraboz do’stlarini ham o’ziga o’xshash Yasantirgan bo’yra Shohining kiyimi, o’q-Yoy soladigan xaltasi, qalqon va bayrog’i ham bo’yradan edi. Masxarabozlar guruhi turli buzuq, bid’at o’yinlar namoyish eta boshlaydi. Ularning boshlig’i o’zini mamlakat Shohi kabi tutib, ko’rsatayotgan hazillarini Chin deb biladi. Bazm nihoyasiga etgandan so’ng, bu ablah o’zicha ta’ziYa tutdi. Uni ushlab olib, soyaboni va tojini boshiga urdilar, bo’yra to’nini esa buzib, kuydirib Yubordilar. Alisher Navoiy hikoyani quyidagi bayt bilan Yakunlaydi:

Bo’ldi bu hangomadin ogohlig’i,
Kim tamasxur ermish oning Shohlig’i.(12, 77)

Ko’rinadiki, bo’yra Shohi bo’lib o’tgan voqealardan so’ng, o’zining Shohligi masxara bo’lishdan boshqa narsa emasligini anglaydi. Asardagi qushlar ana shunday o’gitu hikoyatlar ta’sirida tabiatlarida mahkam o’rnashgan takabburlikdan xalos bo’la boshlaydilar. Hudhud Simurg’ vasliga eltuvchi yo’lni tanlaganlar uchun eng oliy sifat ishq ekanligini e’tirof etarkan, ishq ahlidan maslahat yiroqligi-yu jonon uchun jonu jahonidan kechish hech gap emasligini so’zlaydi. Uning fikricha, oshiq tanu jondan ham, aqlu huShu kufru iymondan ham, oru nomus, mazhabu islomdan ham fard bo’lmog’i lozim. Ishqqa faqat shavq, Yonish va dard munosibdir. Shayx San’on rivoyati asosida vujudga kelgan asardagi eng jozibali She’riy qissa qushlar ko’nglini bu yo’ldagi kulli sifat bo’lgan ishq bilan ziynatlaydi.

Alisher Navoiy talqinidagi Shayx San’on – ko’ngli g’ayb sirlaridan ogoh, Ka’bada Shayxul-mashoyix maqomiga erishgan ulug’ zot. Shohlar uning ostonasida gadolik, ogoh kishilar unga qulluq qilishdan iftixor tuyadilar. U biror g’amgin kishi haqida duo qilsa, malaklar to’dasi qo’l ko’tarib ”omin”deydi. Har biri Junayd Bog’dodiy, BoYazid Bistomiy maqomidagi to’rt Yuz as’hobu muridi uning atrofida. Duolari doimo ijobat bo’lguvchi bu Shayx tushida biror narsa ko’rsa, Shubhasiz, bu voqea uning o’ngida ham ro’y beradi. Shayx San’on bir necha tun bir xil tush ko’radi:

Kim matofi erdi bir begona bum,
Aylasa ma’lum, ul bum erdi Rum.
Onda bir dayr ichra erdi zoru mast,
Mastlig’din dayr elidek butparast. (12, 97)

Shayx tushida begona bir erni tavof qilar edi. Keyin ma’lum bo’lishicha, bu er – Rum ekan. U erdagi bir butxona ichida zoru mast holda turgan Shayx mastlikdan o’sha ibodatxona ahli kabi butparastlikka Yuz tutgan edi. Bu balodan saqlanib bo’lmasligiga ishonch hosil qilgani bois irshod maqomidagi ulug’ murshid tushda ko’rgan mamlakatiga safar qiladi. Tariqat piriga to’rt Yuz murid ham bu yo’lda hamroh bo’ladilar. Ular Rumga etib borgach, Shayx San’on ko’nglida Yuz xil to’palonlar tug’yon ura boshlaydi. U hamrohlari bilan qayerga bormasin, banogoh, oldlarida g’alati butxona paydo bo’lardi. Dunyo dunyo bo’lib bu xil butxonani sira ko’rmagan, uning toqi osmon gumbaziga etar, juftu toqida esa ko’pgina sirlar Yashirin edi. Dostonda uning tasviri o’ziga xos mubolag’ali tarzda ifoda etilgan:

Kunguridin raxnalar imon sari,
Ishq shaynining namudori bari.
Ta’biYa har kungirida toshlar,
Ishq tig’idin kesilgan boshlar.
Ahli din boshig’a parron qilg’ali,
Odam uzra sangboron qilg’ali,
Fitna xaylig’a mamar darvozasi,
Fitnagar toqi sipehr andozasi.(12, 98-99)

Bu ajib butxona tasviriga bag’ishlangan baytlardagi mazmunda islom dini peshvosi boshiga tuShuvchi ishq savdosining nihoyatda og’ir sinovlariga ishoralar borligini sezish mumkin. Barchasi ishq dog’ini oshkor etuvchi butxona kungiralari imonga rahna soladi. Kungiralarida saf tortgan toshlar ishq tig’idan kesilgan boshlarni eslatadi. Go’yo bu toshlar din ahlining boshini Uchirib Yuborish, olam uzra ularni toshbo’ron qilishga mo’ljallangandek. Darvozasi fitna to’dasi Yurib o’tadigan joy, fitnagar toqi esa bu hunarda falakdan andoza olgan. Bularni ko’rgan Shayx tanasida harorat ko’tarila boshlaydi. Xastahol, parishon har tarafga qarab turganida, uning qarshisida Yuziga parda tortilgan bir go’zal paydo bo’ladi. Shu payt shamol kelib, uning Yuzidagi pardani ko’tarib Yuboradi va quyosh englig’ ma’shuqa jamolining nuri har tarafga Yoyilib ketadi. Tarso qizining husnu jamoli Shayx San’on ko’ngliga chaqnagan chaqin bo’lib, uning es-hushini o’zidan begonalashtiradi:

Qasr uza bu Shakl ila tarso qizi,
Bal quyosh ayvonida Iso qizi.

Shayx ko’ngliga choqilg’och o’yla barq,
Shu’la daryosig’a joni bo’ldi g’arq.(12, 102)

Shayx San’on nihoyatda ezilgan va zaif holda butxona tuprog’ida xoru zor holda yotadi. U o’z holiga yig’lab, o’tkazgan tunining nihoyatda uqubatli, do’zax o’tining tuniga o’xshash vahimali ekanligini bayon qiladi. As’hobu murid nasihatlarini inobatga olmaydi. Ularning o’gitlariga rioya qilmoq uchun kishi o’zligini yo’qotmagan bo’lishi lozimligini bayon qiladi. erta tongda ibodatga kelgan butxona ahli Shayxning bu holidan juda mamnun bo’ladilar. Nihoyat, nomusga chiday olmagan muridlar Shayxni yolg’iz tashlab ketishga ahd qilishadi. Shayx bir oy davomida tahqirlangan holda yotadi. Tarso qizi bu holning sababchisi o’zi ekanini bilsa-da, bilmaslikka oladi. Kunlarning birida behud yotgan Shayxning oldiga nozli husni bilan butun olamga o’t soluvchi tarso qizi kelib, u bilan hamsuhbat bo’ladi. Shayx butxona ichida bu xil xor, ishq bandiga giriftor bo’lishi va joniga Yuz xil balolarning Yuzlanishiga sabab - tarso qizining Yuzini ko’rgani ekanligini aytadi. Shunda qiz Yoshi to’qson bilan Yuzga borib qolgan, eng oliy sifat egasi bo’lgan murshiddan bunday so’zlarni eshitganiga hayratlanib, unga ta’na qiladi. Shayxni beqarorlikda, tili bilan ko’ngli bir emaslikda ayblaydi. Shayx o’zining haqiqiy oshiq ekanligini bayon qilgandan so’ng, tarso qiz o’zining quyidagi shart va jurmona (jarima)larini oshig’iga taklif etadi:

Kim mening vaslim tamanno aylamish,
Ixtiyor etmak kerakdir to’rt ish:
May ichib, zunnor olib, bo’lg’onda mast,
Kuydirib Mushafni, bo’lmoq butparast.
Ishqning bu to’rt erur Shukronasi,
Yona ikki ish erur jurmonasi.
Kim erur bu to’rt takbiri fano,
Ul iki bu to’rt ifnosi Yano.
Xo’kbonlig’ keldi bir yil Yonadi,
Bo’lmoq otashgoh o’ti devonasi.
Shayx agar bu dayr aro oshiq esa,
Ishqining da’vosida sodiq esa.
Bu edi Shukrona ham, jurmona ham,
Ko’p balolar bormu mundin Yona ham.
Gar mening vaslim sanga matlub erur,
Hamnishin bo’lmog’lig’im marg’ub erur.
Bu deganlarni qabul etmak kerak,
Vasl ko’yida nuzul etmak kerak.(12, 115-116)

Shayx San’on tarso qizning vasliga etish uchun barcha shartlarni bajaradi: may ichib, zunnor bog’laydi, butparastlikni qabul qilib, Qur’onni o’tda kuydiradi. Bir yil davomida kunduzlari cho’chqa boqadi, tunlari otashgohda o’t yoqish bilan mashg’ul bo’ladi. Uning ixtiyoridagi to’rt Yuz as’hobu murid Shayxni bu ahvoldan xalos qilishga hech imkon topa olmagach, har yoqqa tarqalib ketishadi. Shayxning fano maqomiga erishgan bir muridi bo’lib, u hayotda ishq savdosi bilan juda ko’p to’qnashgan kishi edi. Murshid Rum safarini ixtiyor etganda, uning doimiy hamrohiga aylangan bu sodiq izdoshi taqdir taqazosi bilan boshqa mamlakatni maskan tutgandi. Murid Ka’baga qaytadi. Shayxdan panoh istab xonaqoh tomon Yuzlanadi, biroq u erdan baror kishini topa olmaydi. Shayx muridlarining xalfasi bo’lgan bu kishini bo’lib o’tgan voqeadan xabardor qiladilar. Barcha as’hobu muridlarni bir erda to’plab, Shayx ahvolini diqqat bilan o’rgangan “sohib dardi rindi boxabar“ faqr aro muridlik shartini buzganlarni qattiq qoralab, jumladan, Shunday deydi:

Shayxkim pir erdiYu sizlar murid,
Borchag’a irshodidin behbud umid.
Faqr aro sharti irodat keldi bu,
Kimni qilsa murshidi farxundaxo’.
Xayl as’hobi tashabbuh aylamak,
Tangriga lekin tavajjuh aylamak.
Gar taalluq bo’lsa, gar tajrid anga,
Har ne qilsa aylamak taqlid anga.
Siz vafosizlarg’a faqr atvori hayf,
Ahli taqvo xirqau dastori hayf.(12, 124)

Dard sohibi bo’lgan murid so’zlaridan anglashiladiki, Shayx San’onni Rumda yolg’iz qoldirgan izdoshlar faqrlik shartiga vafosizlik qilganlar. Faqrlikdagi muridu murshidlik munosabatlari buzilgan. Unga ko’ra, kimki qutlug’ tabiatli bo’lib murshidlik qilsa, muridlari ham unga o’xshash bo’lishlari lozim. Bundagi asosiy talab tangriga tavajjuh qilish – Allohga Yuzlanmoqdir. Shunday ekan, pirning qilgan amallaridan murod – “tangriga tavajjuh”dan boshqa narsa emas. Shu bois Shayx Yaxshi-Yomon kunlarida nima ish qilgan bo’lsa, muridlar ham unga taqlid etishlari lozim edi. Biroq ular ”faqr ahli atvori” – faqrga taaluqlilar sifatiga amal qilmadilar. Dard sohibi bo’lgan murid haligi jamoa bilan birgalikda Rumga yo’l oladi. Shayx esa butun inom-ixtiyorini tarso qizga topshirgan edi. U telba oshiq bo’lib, maydan mast holda bexudlik dardiga mubtalo bo’lgan, unda imonu islom, aql, zuhdu taqvodan asar qolmagan edi. O’zligini tamoman unutgan oshiq oldiga kelgan as’hobu muridni

tanimaydi, ulardan Yuz o’girib, cho’chqalar to’dasi tomon qaraydi. Shayxning ko’zi ishq g’avg’osidan xiralashib qolganini e’tirof etgan sodiq murid safdoshlariga Allohga hamdu sanolar aytib Ka’baga qaytishni maslahat beradi. O’zi esa Shaharga borib, otashparastlar booshlig’iga maqsadini ayon qiladi. Ko’nglida Shayxning bu darddan xalos bo’lishini niyat qilib xudoga munojot qilish, duo o’qish bilan vaqtini o’tkazadi. Tangri uning iltijolarini qabul qiladi. Sodiq murid tushida Muhammad payg’ambarni ko’radi. Alloh rasuli muridning sidq ila qilgan iltijolari ijobat bo’lganini ayon qilib, jumladan, Shunday deydi:

Sidq ila tuz niyatingga ofarin!
Sa’Yu oliy himmatingga ofarin!
Oncha zohir aylading ajzu niYoz,
Kim tarahhum birla hayyi korsoz.
Ayladi ajzu niYozingni qabul,
Nolau so’zu gudozingni qabul.
Tengri maxfiy hikmatin izhorida,
Sayr dashtida, suluk atvorida.
Solik ollida qo’Yuptur voridot,
Kim o’zin qutqarmay ondin yo’q najot.
Shayxingizg’a voride erdi qavi,
Ko’rmagan andoq bu paydo rahravi.
Haq najot etti karomat, shod bo’l,
Shukr aylab qayg’udin ozod bo’l.
CHun sanga Yuzlandi ko’p ranju taab,
Haq bu lutf aylarga sen bo’ldung sabab
. Sharh qildi chun rasulloh bu roz,
SHodlig’ ashkin to’kib sohib niYoz.(12, 127-128)

Alloh rasuli sodiq murshidning sadoqatiga tahsinlar aytib, Tangri o’z maxfiy hikmati namoyishida bu yo’lga kirganlarga voridot-olami g’ayb narsa-hodisalarini suluk ahliga zohir qilishini bayon etadi. Payg’ambar alayhis-salomning e’tiroficha, kishi o’zini bulardan qutarmay najot topa olmaydi. Shayx San’on Shunday bir sinovga yo’liqqanki, bu ahvolga hech bir yo’lovchi tushmagan edi. Alloh rasuli Shayxga sodiq muridning sa’y- harakatdari Haq lutfiga sabab bo’lganini ayon qiladi. erta tongda barcha as’hobi muridlar xalifa boshchiligida Shayx makon tutgan manzilga yo’l oladilar tarso qiz oshig’iga g’oyibdan ogohlik etgan edi. U kofirlar kiyimini tashlab, Yana hirqa kiYadi va butun jamoa Ka’ba sari ravona bo’lishadi.

Tarso qiz tushida Iso payg’ambar kirib Shayx San’on orqasidan Ka’baga borishini, Shayxdan kechirim so’rab, uning jufti haloli bo’lishi lozimligi haqida

xabar beradi. Nasroniy qizi Shayx oyog'ining izi bo'lishni istab Ka'ba tavofi uchun yo'lga tushadi. Azim biyobonda qizni vahima, qo'rquv, hayrat bosib kela boshlaydi. Azob-uqubatlar shiddati uni holsizlantiradi:

CHun yiqildi hushi zoyil bo'ldi pok,
Etti tufrog' uzra xoru dardnok.(12, 131)

Oliy darajali Shayx va "muridi rahravi ogohga" bu hodisa ayon bo'ladi. Ular butun jamoa bilan voqea Yuz bergan joyga etib kelishadi. Tarso qiz Shayxga juda ko'p urxohlik qilib, islom dinini qabul qiladi va bir oh chekib oshig'i qo'ynida jon beradi. Shayx San'onnin Ka'ba ziYoratiga borgandan so'ng, qazo uning Yoriga qo'shganligi She'riy qissaga Yakun Yasovchi quyidagi baytlarda o'z ifodasini topgan:

Shayxga alqissa etti chun farog',
Dayr ishidin Ka'bag'a aylab Yarog'.
Yorni dafn etti ishq ayvonida,
Dinu iymon ahli go'ristonida.
Ka'badin andoqki qildi azmi dayr,
Dayrdin ham Ka'bag'a ko'rguzdi sayr.
Tengriga arz etti umri momazo,
To ani ham Yorig'a qo'shdi qazo.(12, 135)

Alisher Navoiy talqinidagi Shayx San'on hikoyati o'zining nihoyatda jozibadorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Sulukni ixtiyor etgan solik kulli sifat bo'lgan ishq bilan ziynatlanarkan, Tangrining maxfiy hikmatlari ko'z oldida namoyon bo'lishi uchun juda mushkul sinovlarga bardosh berishi, "Tangriga tajavvuh"gina solikni oliy maqomga ko'tarishi She'riy qissada o'z ifodasini topgan. Shoir Rumdagi butxona, tarso qizi tavsifini bayon etishda nihoyatda Yuksak badiiy salohiyat sohibi ekanligini namoyish etadi. As'hobu muridlarning Shayx San'onga nasihatlari, ayni choqda o'zligini unutgan murshidning ularning o'gitlarini keskin rad etishi, tarso qizning dashnomlariga javoban keksa oshiqning ishq mayidan sarxushligini ifodalovchi so'zlari asar bosh qashramoni qiyofasini Shunday ochib beradiki, oqibatda Shayx San'onning ishqiy kechinmalari, dardu alamlari o'quvchi ko'z oldida aniq gavdalanadi.

"Lison ut-tayr" dostonida insonning ma'naviy kamolot pillapoYalaridan odimlashishiga to'siq bo'lib, uni tubanlik, razillik botqoqlariga eltuvchi eng katta dushmani bo'lgan nafsga qarshi kurashda murosasiz bo'lishga da'vat etiladi. Ko'ngil istaklari nafs tizginiga o'tsa, uning oqibati halokat bilan Yakunlanadi. Jumladan, O'rdak uzriga javoban aytilgan hikoyatda "moYai savdo dimog'iga tushib", bir Yurtda o'n kun turmay dengiz orqali savdo-sotiq

bilan Shug’ullanib Yurgan savdogar suvga g’arq bo’lib, katta bir baliqqa em bo’lishi o’z ifodasini topgan. Savdogar Makka atrofini necha bor suvda kezib chiqqan bo’lsa-da, ko’ngil istaklarini o’z izmiga olgan nafs uning Alloh oldidagi farzini ado etishiga imkon bermaydi. Shuningdek, bir qush “Bir nafas gar bo’lmasa ilkimda siym, Hajridin jonimg’a bor o’lmakka biym”,- deya o’z nuqsonini so’zlab shikoyat qilganida, Hudhud basralik bir xasis kishining halokati haqida hikoya qiladi. Unda tasvirlanishicha, o’sha tuban tabiatli kishi juda katta xazina to’plab ularni erga ko’madi. Kunduzlari ham osmonda Yaraqlagan Yulduzlar kabi ko’zni oluvchi oltinlarining bir qismini tanimga quvvat, jonimga sihat bo’ladi, deb o’ylab to’niga tikib oladi. Baxil kishi bir kun savdo-sotiq qilish uchun daryo sohiliga keladi. U erda savdo qilgan molidan tushgan harom pullariga ovqatlanadi. Shundan so’ng, daryo qirg’og’iga borib qo’llarni Yuvayotganda, to’ni og’irlik qilib suvga g’arq bo’ladi.

Ko’rinadiki, “Lison ut-tayr ”da qalamga olingan turli hikoya, masal va qissalar uning Yaxlit bir doston holda Shakllanishida hamda asardagi asosiy mavzu insonni komillik rutbasida ko’rishni har tomonlama to’laqonli tasvirlashda imkon Yaratgan. Dostonda Simurg’-Haq vasliga vosil bo’lish niyatida harakatlanayotgan kibrli qushlarga turli toyifa vakillari bo’lgan kishilar, Shuningdek, avliyo va nabilar, Haq oshiqlarining Yashash tarzi, orzu-intilishlari, maqsadlari ibrat namunasi sifatida keltiriladi. Alisher Navoiy dostonda o’zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini turli majoziy, tarixiy va to’qima obrazlar vositasida tasvirlarkan, inson ko’nglini ma’rifat nurlariga oshno qilishni eng muhim muddao deb biladi. Ulug’ shoir “Lison ut-tayr” asari bilan dostonlar turkumidan tashkil topuvchi xamsachilikda qanchalik Shuhrat qozongan bo’lsa, alohida doston ijodkori sifatida ham Shunday maqom sohibi bo’ldi. Alisher Navoiy dostonlari faqatgina turkiy adabiyot tarixida emas, balki Sharq xalqlari mumtoz badiiy ijodiyotida muhim hodisa bo’lganligi ko’plab ijodkor va olimlar tomonidan e’tirof etildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1.Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarining Yozilishi tarixi haqida gapirib bering.

2.Shoir ulug’ salafi Fariduddin Attorning qaysi asarlari haqida ma’lumot beradi?

3. Dostonning qisqacha mazmunini hikoya qiling.

4.Asardagi Simurg’, Hudhud va qushlar timsollarining ramziy-majoziy xususiyatlari nimalardan iborat?

5. Hudhudning Tovuqqa qilgan nasihatlarida qanday ma’no mujassam?

6.Shayx San’on She’riy qissasining umumiy mazmunini hikoya qiling. Shayxning as’hobu muridlar nasihatini rad etishi, tarso qizning oqibatda islom dinini qabul qilishini izohlang.

7.Alisher Navoiy talqinidagi «sohibi dardi rindi boxabar» muridning boshqa muridlardan farqi nimada? Nega u boshqalarni faqr aro muridlik shartini buzganlikda ayblaydi?

8.Dostonda nafsga berilishning ayanchli oqibatlari haqida qanday hikoyatlar keltirilgan?

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

1. Farididdin Attor. 2. “Musibatnoma”. 3.”Ushturnoma”. 4.”Lujjai hiloj”. 5.”Tazkirat ul-avliyo”. 6.”Mantiq ut-tayr”. 7. Hudhud, Simurg’ va o’n to’rt qush. 8.Shayx San’on. 9.Tarso qiz. 10. Fano maqomiga erishgan murshid. 11.Talab. 12.Ishq. 13. Ma’rifat. 14. Istig’no. 15. Tavhid. 16. Hayrat. 17.Faqru fano.

ALISHER NAVOIYNING NASRIY ASARLARI

Reja:

1.Ilmiy – filologik tadqiqotlar.

2.Ustozlarga bag’ishlangan yodnomalar.

3.Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlar.

4.“Mahbub ul-qulub” pandnomasi

Adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy. Asarlar. 12-15 tomlar.

2.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 17-tom, Toshkent: “Fan”, 2001.

3.Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent, 2002.

4. Vohidov R. Navoiyning ikki durdonasi. Toshkent: “Fan”, 1992.

5.Ramazonov N. “Nasoyim”ning o’ziga xos xususiyatlariga doir. “Navoiyning ijod olami” kitobida. Toshkent: “Fan”.2001, 152-187-betlar.

6.Hayitov SH. “Mahbub ul-qulub”da tasavvufiy jilolar. Toshkent: “Fan”, 1996.

7. Hayitov SH. Barkamol inson timsoli. Toshkent: “Fan”, 2003.

Alisher Navoiy XV asr nasr an’analarini Yangicha ruhda davom ettirib, turkiy nasrni ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, ilohiy-irfoniy, axloqiy-ta’limiy mohiyat

kasb etuvchi juda nodir asarlari bilan boyitdi. Ulug' mutafakkirning nasriy asarlarini quyidagi tasnif asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir:

I.Ilmiy-filologik tadqiqotlar: «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mezon ul-avzon», «Risolai muammo»

«Majolis un-nafois» («Nafosat ahli majlislari») **– XV asrda Movarounnahr va Xurosonda yashagan 459 ijodkor hamda adabiy hayot bilan aloqador voqealardan bahs etuvchi noyob tazkiradir. Asar 1491 yilda vujudga kelgan bo'lib, u 1498 yilda muallif tomonidan qayta tahrir qilingan. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»ning kirish qismida tazkirada Sulton Husayn Boyqaro tavalludi (1438)dan asar Yozilgan davrgacha faoliyat ko'rsatgan Shoir va She'riyatga aloqador siymolar haqida ma'lumot berilganligini qayd etadi. Ayonlashadiki, «Majolis un-nafois»da muallif o'zi bilan bir davrda Yashab qalam tebratgan Shoirlarning badiiy ijodiga oid adabiy-tanqidiy qarashlarini ifoda etgan, Shuningdek, zamondosh tab' ahli hayoti va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni Yozib qoldirgan.**

«Majolis un-nafois» muqaddima, sakkiz majlis va xilvatdan iborat. Muqaddimada asarning Yozilishi sabablari bayon etiladi. Tazkiraning sakkiz majlisini Uchga tasnif etish mumkin:

1.I-III majlislar. Bunda nomlari keltirilgan Shoirlar bilan Alisher Navoiyning Uchrashgan-Uchrashmagani, ular bilan muloqotda bo'lgan-bo'lmagani asos qilib olingan. Jumladan, tazkira muallifi Uch-to'rt Yoshlarida mashhur mutasavvif Shoir va faylasuf Qosim Anvor (vafoti H. 735, M. 1432)ning g'azallarini sevib yod olgani va adabiyot muhiblari davrasida ulardan namunalar o'qib, suhbatdoshlarini xushhol qilganini xotirlab, «tayammun (biror ishni o'ngdan boshlash – R.V., H.E.) jihatidin bu muxtasarni (tazkirani ma'nosida – R.V.,H.E.) alarning sharif ismi bila ibtido qil»ganini uqtiradi hamda «tabarruk bo'lgani uchun» bu Ulug' shoir g'azallaridan ikki matla' keltiradi. Alisher Navoiy bolalik chog'laridanoq Qosim Anvor She'riyatining ixlosmandi bo'lgan va umrining oxirigacha bu ulug' Shayxga bo'lgan e'tiqodi Shoirni hech qachon tark etmagan: «...Va ul hazratning muborak marqadi (qabri – R.V., H. e.) Jom viloyatida Harjut qasabasidadur. Va faqir hamul ostona joro'bkashlaridinmen», - deya e'tirof etadi tazkira muallifi. Alisher Navoiy Qosim Anvorni o'zi ko'rmagan bo'lsa-da, nihoyatda hurmat qiladi. Shu bois asar muallifi «Majolis un-nafois»ning o'zi shaxsan Uchratish sharafiga musharraf bo'lmagan ijodkorlarga bag'ishlangan «avvalg'i

majlisi»ni Amir Qosim Anvor nomi bilan boshlashni ulug' saodat deb biladi va Shoir haqida ancha mufassal ma'lumot beradi.

2.IV –VI majlislar. Bu fasllarda She'riyatga daxldor shaxslar – fozillar, mirzozodalar hamda Xurosondan tashqari hududlarda Yashovchi fozil va donishmand kishilar haqida ma'lumot beradi.

3. VII –VIII majlislar. Ettinchi majlisda Shoir hamda nazmga mayli Yuksak bo'lgan Amir Temur va temuriy Shahzodalar xususidagi mulohazalarga o'rin berilgan bo'lsa, sakkizinchi mijlis Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan.

Arab va fors-tojik adabiyotida tazkirachilik an'anasi Alisher Navoiy davriga qadar juda katta tarixiy taraqqiyot bosqichini o'tadi. Abu Mansur as-Saolibiyning «YAtimad ad-dahr...», Muhammad Avfiyning «Lubob ul-albob», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat ush-Shuaro» asarlari tazkirachilik ravnaqiga muhim hissa bo'lib qoshildi. «Majolis un-nafois», avvalo, turkiy tilda Yaratilganligi bilan Yuqorida nomlari keltirilgan tazkiralardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, unda XV asrda Yashab turkiy va fors-tojik tilida ijod etgan zullisonayn Shoirlar haqida ma'lumot beradi. Asarning XVI –XVIII asrlarda to'rt marta Faxriy Hirotiy, Muhammad Qazviniy, Shoh Ali, Abulboqi SHarif Razaviylar tomonidan fors-tojik tiliga tarjima qilinishi tazkirada davr adabiy muhiti har tomonlama mufassal Yoritilganligidan dalolat beradi.

XV asrdagi zullisonaynlik an'anasi haqida Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asari nodir ma'lumotlar beradi. Mana, o'shalardan ayrimlari: Alisher Navoiy turkigo'y Shoir Yusuf Amiriy xususida fikr Yuritar ekan, Yozadi: «Mavlono Amiriy turk erdi va turkcha She'ri Yaxshi voqe' bo'lubdur, ammo Shuhrat topmabdur. Va bu bayt aning «Dahnoma»sidindur:

Ne emakdin, ne uyqudin solib so'z,
Emakdin to'Yub uyqudin Yumub ko'z.

Va forsiyda Shayx Kamol tatabbu'i qilibdur. Bu matla' avningdurkim:

Ro'zi qismat har kase aysh baxshi xud sitond,
/ayri zohid k-o' riyozatho kashidu xushk mond.

Aning qabri Badaxshon sari Arhang saroyidadir (Alisher Navoiy Asarlar. 12-tom, 22-bet).» Ko'rinadiki, Alisher Navoiy Yusuf Amiriyga samimiYat bilan munosabatda bo'ladi, uni o'z davrining iste'dodli ijodkori tarzida hurmat bilan eslaydi. Yusuf Amiriyning hayot yo'li va adabiy merosiga doir amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar ulug' o'zbek

Shoiri ko’rsatmalarining hayotiy va ilmiy xulosalar ekanligini tasdiqlaydi. Davlatshoh Samarqandiy o’z tazkirasida Yusuf Amiriy haqida ma’lumot berar ekan, uning Shohruh Mirzo saltanati zamonida Shuhrat qozonganligini ma’lum qiladi. Yusuf Amiriydan bizgacha yetib kelgan va ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo’lgan kichik She’riy Shakldagi asaralardan tarkib topgan devoni, «Dahnoma», «CHog’ir va bang» munozarasi kabi ma’naviy merosi zamondoshlari tomonidan aytilgan samimiy mulohazalarning to’g’riligini ko’rsatadi. Yusuf Amiriy o’z zamonasining zullisonayn Shoiridir.

«Majolis un-nafois»da Yana bir Shoir haqida quyidagilar qayd etilgan: «Mavlono Hoji Abdulhasan – turkdur, ammo tolibi ilmlikka mashg’ul bo’lib, biror nima modda hosil qilibdur, chun tab’i xo’b erdi, She’r ayturg’a mashg’ul bo’ldi. Bu turkcha matla’ aningdurkim:

Kelibtur ul gulu bir hafta turub boradur,
Bu o’t ko’ngulga tuShub jonni kuydurub boradur.

Muammo fanida dag’i Yaxshi erdi. «BoYazid» ismig’a bu latif muammo aningdurkim:

Har ki binad sarvi man boloi zeboi turo,
Bar kanori didai, ravshan kunad choi turo.»
(Alisher Navoiy.Asarlar.12-tom,26-bet)

Alisher Navoiy tomonidan fors-tojik tilida Yozilgan muammosi latif asar sifatida e’tirof etilgan Mavlono Hoji Abdulhasanning ham har ikki: turk-o’zbek hamda fors-tojik tillarida nafis She’rlar Yaratuvchi zullisonayn ijodkor bo’lganligiga Shak-Shubha qolmaydi.

Adabiy dalillar XV asrning birinchi Yarmida o’zbek adabiyotida katta jonlanish Yuz berganligini ko’rsatadi. Bu holatni Shu adabiyotda rang-barang She’riy Shakllarda Yaratilgan sara asarlarda, salohiyatli ijodkorlar safining ko’pligi misolida ko’rish mumkin. Yana bir muhim tomoni Shundaki, adabiyot maydoniga shiddat bilan kirib kelgan iqtidorli qalam sohiblari bir xalqning ma’naviy merosidan bahra olish, uni boyitish bilan kifoYalanmay, ikki xalq ma’naviy chashmalaridan nur emib, ular zavqi, armoni, orzu-istagini hisobga olgan holda dilbar asarlar Yozishgan. Ana shu tariqa turkiy xalqlarga mansub qalam ahli o’z ona tili bilan bir qatorda fors-tojik tilida ham g’oyaviy-badiiy barkamol asarlar ijod eta boshladi. Bunday xayrli urinishlar tufayli zullisonayn ijodkorlar safi to’lishib bordi. «Mavlono Qutloiy,- deydi Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasida,- Sulton Ma’sud Mirzo mulozimi erdi. SHo’x tab’ kishi

erdi. Turkiy va forsiy She’rda jald erdi. Bu turkcha matlasi mashhurdurkim:

/uncha gar nisbat qilur o’ziga dildor og’zini.
ey sabo eli, to’laqon ayla zinhor og’zini.»
(Alisher Navoiy. Asarlar. 12-tom, 26-bet)

Shu tariqa, «Majolis un-nafois»da turkiygo’y va zullisonaynligi bilan Shuhrat qozongan Mavlono Naimiy, Harimiy Qalandar, Mavlono Tarxoniy, Darvesh Nozukiy, Mavlono Lutfiy, Mavlono YAqiniy, Mavlono Muqimiy, Mavlono Kamoliy, Mavlono Latifiy, Mavlono SHavqiy, Mavlono Ziyo, Mavlono Gadoiy, Abulqosim Bobur Mirzo, Mavlono Bilol kabi tab’ ahli haqida ham g’oyat samimiy fikru mulohazalar bildirilib, ularning har ikki tildagi ajoyib baytlaridan namunalar keltiriladi Ana shu ro’yxatning o’ziyoq, XV asrning birinchi Yarmida adabiy muhit g’oyat gavjum bo’lganligidan darak beradi. Masalaning Yana bir muhim tomoni sifatida o’sha adabiy hayotda ikki tillilikka bo’lgan ishtiyoqning tobora balandlashib borganini ko’rsatadi.

«Majolis un-nafois»ga xos bo’lgan xususiyatlardan Yana biri Shuki, unda Xuroson va Movarounnahrdagi adabiy va madaniy hayotning ravnaqiga muhim hissa qo’shgan temuriy hukmdor va Shahzodalar haqida ham ma’lumotlar keltiriladi. Tazkiraning ettinchi majlisi ulug’ sohibqiron Amir Temur shaxsining badiiy adabiyotga munosabatini oydinlashtirish bilan ibtido topadi. Muallif Buyuk hukmdorni «muluk shajarasining bo’stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron», - deya ta’riflaydi va quyidagi ma’lumotlarni bayon etadi: «Temur Ko’ragon – anorallohi burhonahi, agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo’b mahal va mavqeda o’qubdurlarkim, aningdek bir bayt o’qug’oni ming Yaxshi bayt aytqoncha bor» ( ). Ayonlashadiki, Amir Temur garchi badiiy ijod bilan Shug’ullanmagan bo’lsa-da, juda ko’plab nazmiy va nasriy asarlardan xabardor bo’lgan, ulardan namunalar yod bilgan va adabiy davralarda faol ishtirok etgan.

Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»da temuriy Shahzodalardan Shohg’arib Mirzo ijodi xususida kengroq to’xtaladi, Shuningdek, uning turk va fors-tojik tilidagi asarlaridan nisbatan ko’p namunalar tanlab tazkiraga kiritadi: «Shohg’arib Mirzo – sho’x tab’lig’ va mutasarrif zehnlik va nozik tahayYulluq va daqiq taaqqulluq yigitdur. Nazm va nasrda naziri ma’dun va mutahayyila va hofizada adili noma’lum. Ov va

qush xotirig’a marg’ub va qurro va o’qush ko’ngliga mahbub. Bu matla’ aningdurkim:

Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor,
Qaysi bir shamshod qad sarvi xiromonimcha bor.

Bu matlasi ham Yaxshi voqe’ bo’luubturkim:

Tarki mehr aylab agarchi bo’ldi jonon o’zgacha,
To tirikman qilmagumdur ahdu paymon o’zgacha.

Bu matlasi xos xayol va g’arib ado topibdurkim:

Porso Yorimga may ichmak shior o’lmish Yana,
Baski tortarman sabu, engnim figor o’lmish Yana.

Bu forsiy matlasi ham bag’oyat oshiqona tuShubturkim:

Bozam baloi chon g’ami on mohpora Shud,
ey voy, on mariz ki dardash du bora Shud.

Bu matlasi ham bag’oyat oshiqona va muxlisona va muassirona voqe’ bo’lubturkim:

Doston, hargah guzar sui mazori man kuned,
CHoi taqbiram duoi choni Yori man kuned

Devon ham jam’ qilibdur. Yaxshi matlalari bu muxtasarga sig’mas, magar Yana bir kitob bitilg’ay» (Alisher Navoiy. Asarlar 12.tom, 175-bet). Alisher Navoiy bu ijodkorga samimiy munosabatda bo’ladi. Bu bejiz emas, albatta. Tazkira muallifining o’zi mazkur sahifada bir ishoradayoq o’sha samimiYatni qo’zg’atgan omilning manbai borasida gapiradi. Shohg’arib Mirzo – Shahzoda. U – Husayn Boyqaroning farzandi. Ammo Shohg’arib Mirzo tabiatan boshqa Shahzodalardan, Shuningdek, o’z aka-ukalaridan farq qiladi. Uning mayli ov, qush janglari singari ko’ngil ochish o’yinlaridan anchagina uzoqda. Bularning teskarisi o’laroq, uning o’qish, o’rganish, ijod bilan band bo’lishga rujui baland. Zotan, Shohg’arib Mirzo tabiatidagi bu tomonlar Alisher Navoiyga ma’qul. Shuning uchun ham ulug’ o’zbek Shoiri Shohg’arib Mirzoni

ayricha ehtirom ila xotirlaydi. Manbalarning guvohligidan ayonki, Shohg'arib Mirzo Shunchaki ermak yoki Shuhrat uchun onda-sonda badiiy ijodga murojaat qilgan Shahzodalardan emas. Aksincha, ijod dardi uning asosiy mashg'uloti, qalb zarurati sifatida doimiy hamdami bo'lgan.

«Majolis un-nafois»ning sakkizinchi majlisi Sulton Husayn Boyqaro ijodiga bag'ishlangan. Alisher Navoiy tazkirada maktabdosh do'stini madh etar ekan, uni saltanat sohibi sifatida emas, balki nazm bog'ining bog'boni, so'z gulshanining sohibqironi, hakami tarzida sharaflashni o'z oldiga bosh maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun tazkira sohibi Sulton Husayn Boyqaro faoliyatidan ana shu maqsadga xizmat qila oluvchi dalillar tanlab, o'shalar Sharhi bilan Shug'ullangan. Alisher Navoiyning ta'kidicha, «ul hazratning (Sulton Husayn Boyqaroning – R.V., H.E.) xo'b ash'ori va marg'ub abyoti bag'oyat ko'ptur va devon ham murattab bo'lubtur» (O'sha asar, 179-bet). «Majolis un-nafois» muallifining guvohligiga ko'ra, mazkur devon asosini g'azal janrida bunyod etilgan She'rlar tashkil qiladi. Shuningdek, uning tuzilishi ham an'anaviy Shaklda bo'lib, to'plamga She'rlar arab alifbosi sirasida joylashtirilgan. Alisher Navoiy o'sha devondan e'tiborga arzigulik matlalarni tanlaydi, ularni ixcham, biroq mazmundor Sharh va baholar bilan to'ldirib, tazkirasiga kiritadi. Shu ma'noda, «Majolis un-nafois»ning sakkizinchi majlisi Husayn Boyqaro ijodiy faoliyati ustida tasavvur paydo qila oluvchi Yaxlit tadqiqotni xotirga keltiradi. Tazkira muallifi nazarida Sulton Husayn Boyqaro baytlarida qo'llanilgan She'riy san'atlar ham chetda qolmaydi. Alisher Navoiy asar tabiati ko'tara olishi mumkin bo'lgan darajada maktabdosh do'sti misralarining g'oyaviy mazmuni, Shakl va mazmun muvozanatini taminlashdagi mahorati ustida ancha jonli, his-hayajondan xoli bo'lmagan fikrlarni o'rtaga tashlaydi. Masalan, «be» harfi bilan intiho topuvchi g'azallardan biri xususida «Majolis un-nafois»da o'qiymiz: «Bedillig'idin telba ko'nglin tilay borg'onin bu g'azalda oxirigacha musalsal aytilibdur va zebo deyilibdur:

Telbarab itgan ko'ngilni istadim har Yon borib,
Tog'u daryovu biyobonlarni bir-bir axtarib...

Firoq zulmidin jong'a o't va ko'nglida tobin o'tqa tushgan qil pechu tobig'a tashbih qilibdur va g'arib tashbih voqe' bo'lubtur:

ey firoqing zulmidin jonimda o't, ko'nglimda tob,
O'tqa tushgan qil kabi jismim aro ham pechu tob.»

(O’sha asar, 180-bet)

Ta’kidlash o’rinliki, Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro She’riy merosi xususidagi mulohazalari ayrim nuqsonlardan ham xoli emas. Xususan, o’sha davr tasvir uslubi ta’sirida aytilgan jimjimador, mubolag’ali jumlalar, baho me’yorining buzilishi hollari, his-hayajon bilan aytilgan iboralar ham Uchrab turadi. Ana shunday holat qator harflar bilan tugallanuvchi baytlardan oldin yoxud keyin kelgan taziranavis izohlarida ko’zga tashlanadi. Jumladan, «zol» harfi sarlavhasidan keyin Shunday jumlani o’qiymiz: «Bu harfda dag’i muqaddam turkigo’y Shuarodin, xoh Mavlono Lutfiy va xoh Mavlono Sakkokiykim Muvoraunnahrda malikul kalom erdilar, nazarg’a kelmaydur, hamono yo’qtur

Qildi ruhafzo labing kulmak bila jonimni axz,
Yig’latib kofir ko’zung ham naqdi iymonimni axz»
(O’sha asar, 183-bet).

Ana shu qabildagi ta’kidlar “ha”, “xe”, “se”, “sod”, “zod” singari o’nlab harflar bilan Yakunlanuvchi baytlardan oldin keltirilgan izohlovchi jumlalarda ham Yaqqol namoyon bo’ladi. Fikrimizcha, bunday o’rinlarda Alisher Navoiy aqidalarida Husayn Boyqaro salohiyatini boridan orttirib ko’rsatish, uni ma’lum darajada ilohiylashtirish mayli borday ko’rinadi. Alisher Navoiy “Majolis un- nafois”ning sakkizinchi majlisida Husayn Boyqaroni nuktasanj va hofizasi o’tkir shaxs sifatida ham ko’rsatishga urinadi. Muallifning bunday harakati, ayniqsa, o’sha majlisning ikki o’rnida Yaqqol namoyon bo’ladi. Bulardan biri Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiylar o’rtasida Amir Xusrav Dehlaviy bayti munosabati bilan bo’lgan suhbat bayonida bo’lsa (O’sha asar, 207-208- betlar), ulardan ikkinchisi tazkira muallifi va Mavlono Qabuliylarning hamkorlik munosabatlariga tegishlidir. Unda hikoya qilinishicha, Mavlono Qabuliyning “tab’i turkiy va forsiy nazmg’a muloyim” bo’lib, u Hirot Shahri uchun musofir hisoblanadi (O’sha asar, 208 –209 - betlar). Qunduz va Hisor tarafidan kelib qolgan bu Yosh yigit Sulton Husayn Boyqaro dargohiga yo’l topish uchun o’sha zamonning an’anasiga ko’ra nazmiy vositadan foydalanmoqchi bo’ladi. Shu maqsad bilan Mavlono Qabuliy bir g’azal Yaratib, uni Alisher Navoiy imtihonidan o’tkazadi. Buyuk Shoir g’azalning matlasidan keyingi baytini quyidagicha tuzatib beradi:

Sarv moyil bo’ldikim, ungay ayog’ing tufrog’in,

Yo’qsa har soat sabo tahrikidin ham bo’lmadi.

Mavlono Qabuliy saroy mulozimlaridan biri orqali mazkur g’azalni zamon hukmroniga yetkazishga muvaffaq bo’ladi. Tortiq etilgan g’azalni ko’zdan kechirgan Sulton Husayn Boyqaro o’sha She’r ikkinchi baytining Alisher Navoiy qalamiga daxldorligini his etadi va masalani oydinlashtirish muddaosida Mavlono Qabuliyni saroyga chaqirtiradi. Shuningdek, o’sha maqsadni o’zida mujassam etgan savol bilan Alisher Navoiyga ham murojaat qiladi. Xullas, o’z aqidasiga qat’iy ishonch paydo qilgan Shoh, Alisher Navoiy va Mavlono Qabuliylar obro’yiga futur yetkazmaslikni ko’zlab masalani jamoat oldida oshkora hal etishdan saqlanadi. Shu kichkina bir lavhaning o’zidayoq Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro faoliyatidagi uslubShunoslik, ziyraklik va andeshaning baland ekanligini ko’rsatishga erishadi.

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida Sharq adabiyotshunosligida Shakllangan ikki an’ana: tazkirachilik va biror Shoir She’rlariga Sharh bitish uslubi ko’zga tashlanadi. Asar muallifi “Majolis un-nafois” tazkirasi vositasida XV asrda Xuroson va Muvarounnahrda Yashab ijod etgan tab’ ahliga aloqador muhim ma’lumotlarni manguga muhrladi, Shuningdek, Yuqorida ta’kidlangan ikki uslubni turkiy adabiyotshunoslikka olib kirdi va uning ravnaqiga muhim hissasini qo’shdi.

«Muhokamat ul-lug’atayn» («Ikki til muhokamasi»)

Alisher Navoiy o’zining ulkan dengizga qiyos etishga arzigulik badiiy ijodi bilan turkiy adabiyotni jahoniy mavqega ko’tardi, ayni choqda, bu til imkoniyatlarini o’sha davrda mashhur bo’lgan arab, fors-tojik, hind tillaridan qolishmasligini amalda isbotladi. Ulug’ shoir turkiy til yetukligini nazariy jihatdan ham asoslash niyatida 1499 yilning dekabrida “Muhokamat ul-lug’atayn” risolasini Yozib tugatdi.

“Muhokamat ul-lug’atayn”da so’z durga qiyoslanadi, uning daryosi ko’ngil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, so’zning durdan tafovut etiladigan jihatlari benihoya ko’pligi, uning “sharafidin o’lgan badang’a ruhi pok et”ishi, “kasifidin (qo’polligi, nojo’Ya aytilishidan – H.E.) hayotlig’ tang’a zahri halok xosiYati zuhur et”ishi bayon qilinadi. Shu tariqa insonga in’om etilgan ilohiy ne’mat so’z so’zlashdan muddao ma’no ekanligi asarda o’z ifodasini topadi: “.. .Ammo chun alfoz va iboratdin murod ma’nidir va mazkur maxluqotdin maqsud insondur va ul mazhari maoniy va bayon, so’z aning so’zidadir va takallum aning kalomida borur”( ).

Alisher Navoiy turkiy tilning “fasohatu diqqati” (ravon, yoqimli, qoidaga muvofiqqu nozikligi – H.E) va “balog’atu vus’ati”(badiiy ifodaYu keng imkoniyatlari – H.E.) haqidagi rad etib bo’lmas fikrlarini risolada bayon qilish uchun uni o’zi mukammal bilgan fors-tojik tili bilan chog’ishtirishni ma’qul topadi. Bu uslub muallifning risola Yozishdan ko’zlangan maqsad-muddaosini amalga oshirish uchun eng to’g’ri imkoniyat edi. Alisher Navoiy turkiy til haqidagi umumlashma-xulosalarini boshqa bir til imkoniyatlari bilan qiyoslamay bayon qilsa, uning nazariy mulohazalari Shunchaki o’z ona tilini madhidangina iborat bo’lib qolishi mumkin edi. Shu bois risola muallifi har ikkala tilning zukko bilimdoni, bu tillarda o’lmas badiiy asarlar ijod etgan taniqli Shoir sifatida asardagi turkiy tilning fazilatlariga oid mulohazalarini juda asosli dalillar bilan quvvatlantiradi. “Muhokamat ul-lug’atayn”da turkiy-o’zbek va fors-tojik tillari imkoniyatlarini taqqoslashdan Yana bir muddao: o’sha davrda fors-tojik tilida ijod qilishga mayli ko’proq bo’lgan o’zbek Shoirlarini turkiy tilning “fasohatu diqqati, balog’atu vus’ati”dan xabardor qilish edi. Alisher Navoiy risolada fors-tojik tilida jahoniy mavqega ega bo’lgan badiiy asarlar ijod etilgan bo’lib, turkiy tilda bu jarayonning rivoji ancha sust borayotganligiga e’tiborni qaratadi, Shuningdek, buning sabablarini izohlashga harakat qiladi. Muallifning fikricha, Shoirlar turkiy tildagi ko’p ma’noli so’z va ifodalarni etarlicha anglab, ularni She’riyatda mahorat bilan qo’llash mehnatidan qo’rqadilar, mushkullardan zadalanib, osonlikka mayl qiladilar. Ikkinchi sabab: ba’zi idrokli so’z san’atkorlari o’z zamonasidagi hukmron an’ana doirasida qolishni ma’qul ko’radilar. Uchinchi sabab: Yosh ijodkorlar o’zlariga ma’qul bo’lgan asarlarini tajribali Shoirlarga ko’rsatib e’tirofga sazovor bo’lishni istaydilar. Biroq o’sha taniqli so’z san’atkorlari forsiygo’ylardir, ular turkiy tildan bahramand emaslar. Shu bois endi ijod yo’liga kirib kelayotgan Shoirlar turkiyga emas, forsiyga mayl ko’rsatadilar. Alisher Navoiy turk Shoirlarini nihoyatda latofatli bo’lgan o’z ona tillarida ijod qilishga da’vat etadi va zamon hukmdori Sulton Husayn Boyqaro tomonidan bu haqda maxsus farmonlar qabul qilinganligini eslatadi: “... Va iltifot va ehtimom Yuzasidan ba’zi ma’nolar topib, nazm qilurg’a hukmlar ham jori bo’ldi va so’z uslubig’a ta’yinlar va adosig’a ta’limlar ham izhori bo’ldi” Turkiy til va adabiyot ravnaqini niyat qilib risola Yozishga kirishgan muallif o’z ona tilining fors tiliga xos bo’lmagan, muhimi, badiiy ijod uchun juda qo’l keladigan ba’zi xususiyatlarini “Muhokamat ul-lug’atayn”da bayon qiladi.

Ma’nodoshlik – badiiy uslub ziynatidir. Alisher Navoiy masalaga mana shu nuqtayi nazardan Yondashib, turkiy tildagi bir sinonimik qatorni tashkil qiluvchi so’zlarning barchasini fors-tojik tilida Uchratib bo’lmasligiga diqqatni

jalb etadi. Buning isboti sifatida “Muhokamat ul-lug’atayn”da fors tilida muodidi bo’lmagan Yuzta fe’lning ro’yxati keltiriladi. Jumladan, “sipqarmoq” va “tomshimoq” so’zlari haqida bildirilgan mulohazalar turkiy til nafosatini Yaqqol namoyon etishi bilan ahamiyatlidir:

“Shuaro akobiridinki, ba’zi “may” ta’rifida mubolag’a qilibdurlar va bu mu’taddun bih amredurki, may ichmoq qavoidida so’z ko’p surup, zarofat nihoyatsiz zohir qilurlar. Biri sipqarmoq lafzidurki, mubolag’a mundir o’tmas. Turkcha nazmda bu matla’ bordurkim.

Bayt:

Soqiyo, tut bodakim, bir lahza o’zimdin boray,
SHart bukim, har necha tutsang labo-lab sipqaray.

Oyo! Bu sipqaray lafzi mazmunig’a etganda, forsiy She’rda ne iloj qilg’aylar. Va tomshimoqki, g’oyat zavqdin bot ichmas va lazzat topa-topa, oz-oz ichar. Bu g’arib ma’ni adosida turkchada bu matla’ borkim,

Bayt:

Soqiy chu ichib, menga tutar qo’sh:
Tomshiy-tomshiy ani qilay no’sh.”

“Muhokamat ul-lug’atayn”ning muhim xususiyatlaridan Yana biri Shuki, unda turkiy tilda Shakldosh so’zlarning juda ko’plab Uchrashiga alahida e’tibor qaratiladi. Bu tajnis va iyhom badiiy san’atlari bilan ziynatlangan baytlar, She’rxon tuyg’ularini junbushga keltiruvchi tuyuqlar ijod etish uchun qo’l keluvchi til imkoniyatidir. Alisher Navoiy risolada ot (ism), ot (hayvon), ot (otmoq) va it (ko’pak), it (yo’qol), it (itar) Shakldosh so’zlarining She’riyatda qo’llanishiga misol tariqasida ikki tuyuq keltiriladi va bir necha jinsdosh so’zlarning ma’nosini izohlaydi.

“Muhokamat ul-lug’atayn” adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham o’ziga xos mavqega ega bo’lgan mo’’tabir manba sanaladi. Unda muallif o’zining devonlari, “Xamsa” tarkibidagi dostonlari, “hiqiqat asrorin majoz suratida ko’rguz”gan “Lison ut-tayr” va boshqa asarlari ro’yxati-yu ularning nihoyatda ixcham tavsifini keltiradi. Shuningdek, risolada fors-tojik adabiyotining yirik darg’alari Xoqoniy, Anvariy, Nizomiy, Sa’diy, Xusrav Dehlaviy, Salmon Sajaviy, Xojui Kirmoniy, Ashraf, Abdurrahmon Jomiy kabilarning turli janr taraqqiyotida qo’shgan hissalari, adabiy ta’sir masalalari muxtasar tarzda bayon etiladi. Asarda Amir Xusrav Dehlaviyning ijodiga Yuksak baho beriladi, jumladan, Shoirning “Daryoi abror” qasidasi haqida iftixor bilan aytgan o’z fikrlari risolada qayd etiladi: “YUz ming baytdin ortug’ devonlarim g’azaliyoti va qasoyid va masnaviylarim abyoti agar olam

sahifasidin mahv bo’lsa va bu qasida qolsaki, anda ma’ni istifosi vofiydur, bu fan ahlig’a mening fazoyilim dalili kofiydur” Ishq mavzusini nihoyatda Yuksak ehtiros bilan She’rlari bag’riga singdirgan bu ulkan so’z san’atkorining mo’jizakor badiiy uslubi Alisher Navoiy va boshqa ko’plab tab’ ahliga manzur bo’lgandi. “Muhokamat ul-lug’atayn”da Abdurrahmon Jomiy “Daryoi abror”ga tatabbu’ qilib, “Lujjat ul-asror nomli qasida Yozganligi, bu badiiyat durdonalari ta’sirida Alisher Navoiyning “Tuhfat ul-afkor”i vujudga kelgani haqidagi qimmatli ma’lumotlarga o’rin beriladi. Risolada muallifning Amir Xusrav Dehlaviy, Sa’diy, Hofiz Sheroziy, Abdurrahmon Jomiy singari Buyuk so’z san’atkorlarining ijodiga katta qiziqish va ehtirom bilan munosabatda bo’lganligi Yaqqol namoyon bo’ladi. Ayni choqda Alisher Navoiy turkigo’y Shoirlardan Mavlono Lutfiy ijodini ham ana shunday Yuksak maqomga munosib deb biladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida turkiy tilning badiiy ijod uchun muhim bo’lgan fazilatlari forsiy tilni kamsitmagan holda qiyoslash usuli bilan nazariy va amatiy jihatdan asoslanadi. Muallif til va adabiyot masalalarini bir-biriga bog’liq holda tahlil qilib turkiy til va badiiy ijod ravnaqi uchun muhim umumlashma-xulosalarini bayon etadi. Risolada Sulton Husayn Boyqaroning o’zbek tili va adabiyotiga munosabatini Yorituvchi, Shuningdek, Ulug’ shoirning o’z hayoti, ilmiy-badiiy ijodi, adabiy ta’sir masalalari bilan aloqador ma’lumotlarning keltirilishi mumtoz adabiyotimiz tarixini o’rganish uchun nihoyatda muhimdir.

Alisher Navoiy adabiyot nazariyasiga oid ikki risola ham Yozdi. Ulardan biri adabiyotshunoslik tarixida o’ziga xos mavqega ega bo’lgan “Mezon ul-avzon” (“Vaznlar o’lchovi”) asaridlir. Risolada aruz nazariyasiga aloqador umumiy ma’lumotlar keltirilishi bilan bir qatorda, muallif tomonidan unga qo’shimcha va Yangiliklar ham kiritiladi. Jumladan, “Muhokamat ul-lug’atayn”da aruz istilohining kelib chiqishi, ruknlar, asllar, bahrlar va bahrlar doirasi, taqti’ (paragdima) va boshqa masalalar tushunarli tilda izohlanadi. Arab, fors-tojik va turkiy She’riyatning o’ziga xos vazni asarda deyarli har doim chog’ishtiriladi, ular o’rtasidagi umumiylik, Yaqinlik va farqli jihatlar misollar bilan oydinlashtiriladi. “Mezon ul-avzon”da har Uchula xalq badiiy ijodida qo’llanib kelingan aruzning o’n to’qqiz bahridan tavil, madid, basit, vofir va komil bahrlarida turkiy tilda juda oz ijod etilgani ta’kidlanadi.

Alisher Navoiyning aruz nazariyasiga qo’shimcha va Yangiliklar kiritgani aruz bahrlari Yuzasidan tuzilgan doiralarni to’ldirishi va Yangi doiralar Yaratishida namoyon bo’ladi. Masalan, u arab She’riyatiga xos tavil, madid va basit bahrlari asosida tuzilgan, keyingi davrlarda fors-tojik tilida

asarlar Yaratilmagan “Doirai mushtabiha”ni “Mezon ul- avzon”ga kiritadi. Shuningdek, asar muallifi o’zi ixtiro qilgan “Doirai mujtamia”hamda “Doirai muxtalita” haqida ma’lumot beradi.

Alisher Navoiy tomonidan Sharq poetikasining tarkibiy qismi bo’lgan aruz ilmini turkiy She’riyat qonun-qoidalari asosida Yoritishi o’z davri va keyingi asrlarda yashagan ijodkorlar uchun asosiy qo’llanma vazifasini o’tadi. Shuningdek, olimning muammo janri va uning o’ziga xos xususiyatlariga bag’ishlab fors-tojik tilida Yozgan “Mufradot”asari ham adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi.

II.Ustozlarga bag’ishlangan yodnomalar**. XV asr 80-yillarining oxiri 90- yillarning ibtidosi Alisher Navoiy uchun katta yo’qotishlar davri bo’ldi. 1489 yilda 14-15 Yoshlarida tanishib “iltfoti zotiysi (shaxsiy iltifoti – R.V., H.E.) bu faqir bila bor erdi va farzand der edilar”,-deya keyinchalik o’kinch bilan xotiralar bitgan Shoir ota maqomidagi aziz kishisi Sayyid Hasan Ardasherdan bir umrga ajraldi. “Alar tariq va ravishi bu faqirni andoq shefta qildikim, bir kun alar mulozamatig’a etmasam erdi, sabru toqatim qolmas erdi va alar ham kelib ahvol so’rarlar erdi: “Tashvishe bo’lmamish bo’lg’aykim, bukun sendin xabar topa olmaduk”,-tarzida ma’naviy-ruhiy jihatdan nihoyatda bir-biri bilan Yaqinlik tuygan bu ikki nozik qalb sohiblarining manguga qadar o’zaro vidolashishlari, Shubhasiz, katta yo’qotsh bo’ldi. 1592 yil 8 noYabrda Shoirning mehribon ustozi va hamdardi, samimiy maslahatchisi Abdurrahmon Jomiy, 1493 yilda qirq yillik qadrdoni Pahlavon Muhammad ham bu foniy dunyoni manguga tark etishdi. Alisher Navoiy XV asr Xuroson mamlakatining adabiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida juda Yuksak mavg’qega ega bo’lgan bu ulug’ zotlarning nomlarini abadiylikka muhrlash, ularning Yuksak insoniy fazilatlarini ibrat namunasi sifatida ko’rsatish maqsadida «Xamsat ul- muttahayyirin» (1493-1493), «Holoti Pahlavon Muhammad» (1493-1494) va «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» singari yodnomalarni ijod etdi. Ushbu asarlar Navoiy davri nasri uslubining qonun-qoidalari asosida Yozilgan bo’lib, ularda o’rni bilan She’riy parchalar, hikoyat va rivoyatlar keltiriladi. YOdnomalardagi ijodkor mushohadalari, asar qahramonlari bilan bog’liq badiiy lavhalar axloqiy-ta’limiy mohiyat kasb etishi bilan qimmatlidir. Nuriddin Abdurrahmon Jomiy vafoti munosabati bilan Yozilgan «Xamsat ul-mutahayyirin» asari asosida aytilgan fikrlarni quvvatlantirishga harakat qilamiz.**

Abdurrahmon Jomiyning vafoti Alisher Npvoiy uchun katta yo'qotish, behad judolik edi. Uning ruhiyatida quzg'algan to'fon, ayriliq soya solgan iztirob asarning debochasidayoq seziladi. «Agarchi ahli olamg'a motam Yuzlandi, ammo sohib motam bu nomurodi so'gvor erdim va soyir avlodi odamg'a azo voqe' bo'ldi va lekin sohib azo bu noshodi ta'ziYat shior etdim» (Asarlar, 14-tom, 7-bet). Asar nomidagi «xamsa»-besh raqami uning tarkibiga, tuzilishiga tegishli. YA'ni yodnoma muqaddima, Uch maqolot va xotima – besh qismdan tashkil topgan. Muallif bu haqda quyidagilarni Yozadi: «... chun bu risola xayolg'a keldi, binosin bir muqaddimava Uch maqola va bir xotimag'a qo'Yuldi va besh daf'a so'zg'akim, o'quvchilarg'a ko'p mujibi tahayYur erdi, Xamsat ul-mutahayyirin» tasmiYa qilindi» (Asarlar,14-tom, 8-bet). Ayonlashadiki, asarning «Besh hayrat» tarzida nomlanishi uning tuzilishiga ishoradir.

Asarning muqaddimasida Abdurrahmon Jomiyning tarjimayi holi, shajarasi, tahsil yillari, Yashash manzillari haqida fikr Yuritiladi. Alisher Navoiy o'rtaga qo'yilgan mazkur masalalarni Yoritishda aniq hujjatlarga, Abdurrahmon Jomiyning o'z asarlariga tayanadi. Ma'lumki, fors-tojik adabiyotining Buyuk allomasi o'z vafotidan besh yil oldin «Rashh ul-bol» («Yurak tomchilari») sarlavhali holiYa qasidasini Yaratgan edi. Muqaddimada ana shu manzumaga tez-tez murojaat qilinadi.

YOdnoma muallifi ustozining inson, olim, Shoir va jamoat arbobi sifatida Shakllanish jarayoniga, mudarris va madrasalar qurshovida o'tgan yillari tavsilotiga jiddiy e'tibor qiladi. Muqaddimadagi ayrim ishoralar Abdurrahmon Jomiy Allohning xos bandalariga ko'rsatayotgan inoyatlaridan bebahra bo'lmagan, degan xuloosaga kelishga imkon beradi.

«Alar to'rt yo besh Yoshlarida, - Yozadi Alisher Navoiy asar muqaddimasida, - endi maktabga borur vaqtlariermish, hazrati mavlono (Faxriddin Lo'ristoniy – R.V., H.E.) alarni o'z qoshlarida o'lturturub, barmoq bila havoga mashhur otlarni: «Umar» yo «Ali»dek bitir ermish va alar taammmul bila o'qir ermishlar va hazrati mavlono alarning tufuliYatda bu nav'zinh va zakosidin mutabassim, mutaajjib bo'lur ermishlar» (Asarlar 14-tom, 10-bet). Abdurrahmon Jomiy tahsil yillaridayoq naqshbandiYa xojalari ta'sirida tarbiya ko'radi. Shayx Bahouddin Umar, BoYazid Puroniy, Muhammad Asad ta'limotlari bilan voYaga etadi. «Qutbi tariqat va g'avsi haqiqat» Mavlono Sa'diddin Koshg'ariyga katta ixlos qo'ydi, uni o'zining ma'naviy piri sifatida tanidi. Muhammad binni Hasan binni Abdulloh binni Tovus binni Hurmuz binni

Shayboniy Nuriddin Abdurrahmon Jomiyning o'zi ham keyinchalik naqshbandiYa xojalari silsilasiga qo'shildi.

«Xamsat ul-mutahayyirin»ning avvalgi maqoloti ikki hikmat sohibi o'rtasida kechgan g'aroyib voqealar, hayratli holatlar, latif sarguzashtlarni o'zida mujassam etganhikoyatlardan tuzilgan. Bunday lavhalarning Abdurrahmon Jomiy va Alisher Navoiylar taqdirida ko'plab sodir bo'lganligi tabiiydir. Asar muallifi ulardan o'n ettitasini tanlabo'quvchilariga taqdim etadi. Aytish joiz, mazkur lavhalar turmush ikir-chikirlari, shaxsiy xudparastlik doirasida o'ralashidb qolgan emas. Ularda katta axloqiy, tarbiyaviy, adabiy mavzularga daxl qilinadi, latif tabassum, nozik mutoyiba, lutf va muloyim qochirimlarni qo'llash orqali hayotda kuzatiladigan illatlar ustidan kulinadi. Ayrim hikoyatlarda topqirlik, zakovat, badihago'ylik qadrlanadi. Shuningdek, Alisher Navoiy va Abdurrahmon Jomiy o'rtasida qizg'in ijodiy musobaqalar, o'zaro ruhlantirish, aql va zehnni charxlashga xizmat qiluvchi sinovlar bo'lib turganligi anglashiladi.

Jomiy va Navoiyning o'ttiz yildan ziyodroq muddatga cho'zilgan hamkorlik tarixida turli sahifalar, ibrat olsa, ergashsa arzigulik an'analar nihoyatda ko'p. Ayni zamonda poklik, halollik, iymon va diYonatgina hukm surishi mumkin bo'lgan ijod olamida kuzatilmagan yoxud kamyob hodisalar bu ikki alloma tajribasida namoyon bo'ladi. Aytilgan muddao tasdig'i uchun avvalgi maqolotning hikoyatlariga murojaat qilaylik. Sulton Husayn Mirzoning boshiga musibat tushadi. Uning o'g'li Ahmad Husayn vafot etadi. Ta'ziYa izhor etmoq uchun Abdurrahmon Jomiy va Alisher Navoiylar «Bog'i safed»ga boirshadi. Alisher Navoiy Shu musimbat munosabati bilan Yozgan marsiyaning mana bu satrlarini o'sha davrda astagina Abdurrahmon Jomiy qulog'iga o'qib beradi:

Gar sham' murd, mehri falakro mador bod,
Gar qatra rext, obi baqoro qaror bod.

Ulug' o'zbek Shoirining mazkur bayti Jomiy ijodiy imkoniyatlarini ilhomlantirgan va u qog'oz hamda qalam so'rab olib, quyidagi misralarni o'sha azo dasturxoni atrofida Yozib, Alisher Navoiyga o'qib bergan.

Farzand mevaest zi shoxi daraxti umr,
Gar z-on ki meva rext, shachar poydor bod.

Mo'jizani qarang, muShoira udumiga qat'iy rioya qilingan va Alisher Navoiy matlasiga munosib javob bayti vujudga kelgan. Har ikki bayt satrlaridagi mazmun va hatto tashbehlar ham g'oyat uyg'un. Alisher Navoiy matlasida tazod She'riy san'atining chiroyli namunasi qo'llangan.

Birinchi satrda olamni tark etgan o'g'il – o'chgan shamga, ota esa falakda kezuvchi va mangulikka daxldor Quyoshga qiyoslanadi. Albatta, bu bilan o'zbek Shoiri Muzaffar Husaynni o'lmas zot darajasiga ko'tarmoqchi emas. Balki u hayot va tabiatda amal qiladigan qonuniyatga asoslangan. Quyosh – yog'du vanur manbai. Farzandning bunyodkori esa ota va onadir. Ular bardam-baquvvat bo'lishsa farzandlarning paydo bo'lishi tabiiydir. Ikkinchi satrda ham o'sha san'at va mantiq rishtasi izchil amal qiladi.farzand – ota jismining qatrasi. Ota vujudida o'sha qatralar boqiy bo'lsa bo'lgani, to'kilganlar – o'lganlar o'rnini qoplashi muqarrar. Matla zamirida donishmand xalqimizning insonparvarlikka asoslangan urflari, taskin-tasallisi yotadi. Chunki ta'ziYa izhor etishdan murod, marhum xotirasini shod qilish bilan birga, tiriklarga ruhiy madad, dalda, hamdardlik bildirishdir. Zotan, manguga ketganlar qaytib kelmaydi. YAngi tug'ilganlar esa o'z nomu nasibasi, taqdiru tarixi bilan Yorug' dunyoga ko'z ochadi...

Abdurrahmon Jomiyning bayti ham javobiya aytilayotgan satrlar yo'nalishida va ancha rangin chiqqan. Uning talqinicha, ota daraxt, farzand Shu daraxt umri shoxlarining mevasidir. Zero, daraxt shoxlari va samaradorligi ko'p jihaidan uning parvarishi hamda Yashovchanligiga bog'liq. Umr uzoqqa cho'zilsa, bardamlik poydor bo'lsa, shox ham hosil ham serob bo'ladi. Modomiki Shunday ekan, daraxt shoxlaridan hosilning bemavrid to'kilishidan o'ksinish Yaramaydi. Manba – asos omon bo'lsa, Yana son sanoqsiz mevalarning tug'ilishi tabiiiydir. Tahlil etilgan She'riy misralarning Yana bir jihatini aytmay iloj yo'q. Jomiy va Navoiylar qo'llagan tashbehlarning zamini mustahkam. Badiiyat hayot haqiqati talablariga rost keladi. Ko'rinadiki, bir-birini qalb-qalbdan his etmay, badiiy tafakkurda mushtaraklik tuymay turib, bunday hamohang She'riy misralarni Yaratish imkondan tashqaridir. Ikkinchidan, ayni misralar har qanday o'quvchida qiziqish uyg'otadi, Abdurrashmon Jomiy va Alisher Navoiylar o'rtasida kechgan samimiy va sadoqatli birodarlikdar ibrat olishga undaydi.

YOdnomaning ikkinchi maqolti Jomiy va Navoiyning maktublaridan tuzilgan. Bu ikki hikmat sohibi o'rtasidagi insholar – munshaotning ko'p bo'lganligi Shak-Shubha tug'dirmaydi. Asar muallifi ularning barchasini keltirishdan saqlanadi. Saralaydi, bag'oyat muhim va hayratangiz hisoblanganlarinigina ikkinchi maqolotga kiritadi. Shunday qilib, yodnomadan o'n bir yo'naltirilgan va javob maktublari (jami yigirma ikki) o'rinolgan. So'nggi maqolatdagi ma'lumotlar Abdurrahmon

Jomiy ijodiyotini o’rganishda qanchalik ahamiyatli bo’lsa, navoiyshunoslik uchun ham Shu qadar zarurdir. Chunki ushbu maqolotda Jomiy qalamidan chiqqan talay asarlarning «tarjimayi holi» berilgan. Xuddi Shunday gapni Alisher Navoiyning aksariyat badiiy Yaratmalari xususida ham aytish joizdir. Ikki ulug’ ijodkor o’rtasida kechgan beg’ubor birodarlik, xolisona ijodiy muShoiralar o’sha nodir durdonalarning doYasi bo’lib xizmat qilgan. Maqolot boshidayoq Alisher Navoiy Abdurrahmon Jomiyning kattaYukichik o’ttizolti asari ro’yxatini ilova qilar ekan, «bu faqir alar tasnifiga bois bo’libmen va bu ma’ni kutub va rasoilda mazkurdir», -deya ta’kidlaydi.

«Xamsat ul-mutahayyirin»ning xotimasi garchi hajm jihatidan ixchamdir, ammo qamrovi nuqtayi nazaridan ancha ko’lamli. Xotima avvalida Abdurrahmon Jomiy huzurida yoxud ishtirokida o’qilgan asarlar, risolalar ro’yxati keltiriladi. Aruz, qofiya, muammo, tasavvuf ta’limoti va tarixi, ilohiyotga atalgan bunday risolalar srni o’n beshga etib qoladi. Bular o’ttiz yildan ko’proq davr ichida kechgan bahamjihat hayot, muhokama-munozara, bamaslahat ijod ayyomining hosilasidir. Xotimada Yana besh hikoyat ham ilova qilingan. Mazkur lavhalarda Abdurrahmon Jomiy tabiatida mavjud bo’lgan karomatlar haqida fikr Yuritiladi. Xotima oxirida Nuriddin Abdurrahmon Joiy vafoti, dafn marosimi tafsilotlari va Alisher Navoiyning Shu munosabat bilan Yozgan marsiyasi matni keltiriladi. Ustod Sadriddin Ayniy mazkur marsiyani «Eng jonso’z chiqqan asar» sifatida qadrlagan. Darvoqe , Ulug’ shoir Alisher Navoiy qalamida sayqal topgan mazkur asarni qancha madh etsa, Shuncha oz.

...Do’ston, dar hama fan nodirai olam ku?
Afzalu afsahi achnosi bani odam ku?
Dar biyobone tamannosh xaloiq murdand,
Ba davoi xama on Xizri Masiho dam ku?..

Do’stlar, hamma fanda olam Yagonasi qani?
Odjam bolalari jinsini afzali va eng fosihi qani?
Orzusi biyobonida xaloyiq halok bo’ldi,
Hammaning da’vosi bo’lgan Isinafas Xizr qani?
(P. SHamsiev tarjimasi. Asarlar, 14-tom, 257-bet)

III. Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlar: «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Nasoyim ul-muhabbat», «Vaqfiya».

«Tarixi muluki Ajam» («Ajam Shohlari tarixi»). 1488 yilda Yozib tugatilgan bu asar «Muhokamat ul-lug’atayn»da «Zubdat ul-tavorix»

(«Haqiqatlar qaymog’i») tarzida tilga olinadi hamda uning podshohlar tarixiga bag’ishlanganligi ta’kidlanadi: «... «Xamsa» Shug’lidin chun farog’at topibmen, taxayyulum geti navardin salotin tarixi dashtig’a chopibmen, chun noma savodi zulmatidin «Zubdat ul-tavorix» adosin tuzupmen, salotin o’lgan otin hayvon suyi bila tirguzupmen» ( ). Ajam Shohlari tarixiga bag’ishlangan tarixiy va badiiy asarlar Alisher Navoiyga qadar ham juda ko’plab Yaratilgan edi. Ulug’ shoirning o’z asarlari, jumladan, «Xamsa» tarkibidagi dostonlarida ham Anushirvoni odil, Xusrav Parvez, Bahrom, Iskandar singari Shu silsilaga mansub bo’lgan hukmdorlar obrazi mavjud. Bu holat Shoirning Ajam Shohlari tarixidan juda Yaxshi xabardor ekanligi, ular bilan aliqador tarixiy dalillar hamda afsonaYu rivoyatlarni mukammal bilganligidan dalolat beradi.

«Tarixi muluki Ajam»ni Yozishda muallif Firdavsiyning «Shohnoma», Jaloliyning «Jome’ ut-tavorix», /azzoliyning «Nasihat ul mulk», Hamdulloh al-Mustafiyning «Guzida» asarlari, Shuningdek, «Tarixi Tabariy», «Tarixi Banokatiy», «Qozi Baydoziy» kabi tarixiy manbalarga tayanadi. Jumladan, asarda Bahrom binni Shopur nomli zolim podshoh haqida: «Banokatiy debturkim, aning zulmidan anga el g’avg’o qildilar va ul g’avg’oda halok bo’ldi»,-deya qayd etiladi. Shuningdek, «Tarixi muluki Ajam»da «derlarkim», «debdurlarkim» so’zlarining tez-tez Uchrashi Yuqoridagi fikrni quvvatlantiradi.

Alisher Navoiy Ajam Shohlarining peshdodiylar, Kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar singari to’rt sulolasiga mansub hukmdorlari tarixini muxtasar bayon etish bilan zamonasi uchun juda muhim bo’lgan bir necha ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, adabiy maqsadlari, orzu-istaklarini amalga oshshishini ko’zda tutadi. Asarda to’rt sulolaga mansub podshohlarning deyarli hammasi afsonaviy hukmdor Kayumarsdan boshlab, sosoniylarning so’ngi vakili, Eronning arablar tomonidan istilo qilinishi qurboni bo’lgan Yazdi Jurdi ShahriYorgacha tavsif beriladi va ularning bashariYat tarixi uchun podshoh sifatida qilgan Yaxshi-Yomon ishlari muxtasar bayon etiladi. Bu bilan Alisher Navoiy Ajam Shohlari hukmronligi silsilasini ma’lum tartibiga asos soladi, Shuningdek, Sharq adabiyotida keng qo’llangan o’sha hukmdorlar obrazining mifik xususiyatlariga oid ma’lumotlarni umumlashtiradi. Ulug’ mutafakkirning bu xizmati turkiy va fors-tojik adabiy aloqalari rivojining Yuksak cho’qqisi sanalgan XV asr uchun nihoyatda muhim edi.

«Tarixi muluki Ajam» an’anaviy tarixnavislik uslubida Yaratilgan bo’lib, unga turli afsona va rivoyatlarga o’rin berish bilan uning badiiy qimmatini oshirishga, qiziqarli bo’lishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi. Hukmdorlar hayotidan keltirilgan bu adabiy lavhalar ijtimoiy-

siyosiy, axloqiy-ta’limiy mohiyat kasb etib, o’zaro urush-taloshlarning sababkori bo’lgan temuriyzodalarni ogohlikka da’vat etishi bilan ahamiyatlidir. «Tarixi muluki Ajam»da podshohlarning Yurttalablik da’vosi bilan chiqishlaridan ko’ra ko’proq mulk ma’murligiYu Yurt osoyishtaligi yo’lida ko’rsatgan jonbozliklariga e’tibor qaratilishi, zolim podshohlarning ayanchli qismatining bayoni zamirida muallifning temuriylarning siyosiy vaziyatni to’g’ri baholashlaridan umidvorligi mujassamlashgan ko’rinadi. Alisher Navoiy Xo’shang, Jamshid, Faridun, ManUchehr, Taxmosb singari peshdodiy, Bahrom Go’r, Feruz, No’shiravon, Turon Duxt kabi sosoniy hukmdorlarni adolatli Shoh sifatida tasvirlaydi. Jumladan, Feruz binni Yazdi Jurd haqida quyidagilarni Yozadi: «Feruz binni Yazdi Jurd musulmon va oqil va kordor va odil podshoh erdi. Adolat bilan mamolikni obod qildi va saxovat bilan raoYoni xushnut va shod etti. Aning saltanati zamonida etti yil qahat voqe’ bo’ldi va raoyodin xirojni soqit qildi. Bu etti yil hech kishidin hech nima tilamadi»( ).

Alisher Navoiy Xo’shangni «odil va xiradmand podshoh erdi», Jamshidni esa «jamolu husnga beShubha va benazir va kamolu fazlda beadil erdi»,-deya ta’riflaydi. Xo’shangni mamlakatni ilm va qonun bilan boshqarishga urungani, tarixda birinchi bo’lib kitob bitgani, toshdan temir chiqargani, yog’ochdan uylarga eshik Yasagani, konlar topgani, otga egar Yasagani va boshqa obodonchilik ishlarini e’tirof etadi. Asarda Jamshid haqidagi ma’lumotlar ham Shu tariqa bayon etiladi. Uning juda ko’p binolar qurdirgani, bu inshaotlar qurilishi nihoyasiga etgach, katta bazm uyushtirgani, o’sha qutlug’ kun «Navro’z» deya atalgani asarda o’z ifodasini topgan. Alisher Navoiy: «Jamshid saltanatining zamoni etti Yuz yilga etishdi»,-deganda ko’proq uning mifologik qahramon ekanligini nazarda tutgan bo’lishi mumkin.

«Tarixi muluki Ajam»da ashkoniylar sulolasining so’ngi vakili Doro III zolim podshoh sifatida tasvirlanadi. Iskandarning Doro taxtini tortib olishi ijobiy hodisa sifatida talqin etiladi. Shuningdek, asar muallifi Iskandar haqidagi juda ko’p ma’lumotlardan xabardor bo’lgani holda, uni vali deya ta’riflaydi, biroq «ba’zilar unga nubuvvat isnodi qilibdurlar» tarzidagi ayrim tarixchilarning Iskandarga payg’ambarlik nisbatini berganliklariga e’tiroz bildiradi. Asarda Bahrom Go’r adolatli Shoh bo’lsa-da, uning g’ururga, kayf-safoga berilishi, shaxsiy manfaatlar qurboniga aylangani bois mamlakat va xalqini Yomon ahvolga solib qo’yishiga e’tibor qaratiladi. Podshohning ana shu illatlari uning saltanatini xavf ostiga qoldiradi, faqat u qattiq kurashlar olib borgani uchun taxtini egallaydi.

Alisher Navoiy «Tarixi muluki Ajam»da Sulton Husayn Boyqaro tarixini ham Yozish niyatida ekanligini e’tirof etadi. Ushbu istak asar xotimasida

keltirilgan masnaviyda o’z ifodasini topgan. Unda Ulug’ shoirning odil Shoh haqidagi falsafiy qarashlari Husayn Boyqaro timsolida badiiylashtiriladi. Biroq muallifning bu orzusi amalga oshmagan ko’rinadi.

«Tarixi muluki Ajam» teran ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy mazmunga ega bo’lgan asar bo’lib, u bilan muallif turkiy tilda tarixiy asar Yozishning o’ziga xos uslubini namoyon etdi. Asar tilining soddaligi, uslubining ravonligi bilan keyingi davrlardagi tarixnavislik ravnaqiga muhim hissa bo’lib qo’shildi. Asardagi She’riy parchalar, hikoyatu rivoyatlar o’tmishda tarixnavislik badiiy ijod bilan uyg’un uslubda olib borilganligini dalillaydi. Shuningdek, «Tarixi muluki Ajam» ulug’ o’zbek Shoiri dostonlarini o’rganish, Eron mifologiYasi bilan Yaqindan tanishish hamda Alisher Navoiyning o’ziga xos nasriy uslubini ilmiy tadqiq etishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

«Tarixi anbiyo va hukamo» (Payg’ambarlar va faylasuflar tarixi). Bu asar hijriy 890- 904 (melodiy 1485-1498) yillar oralig’ida Yozilgan bo’lib, u bashariYatni iymon-e’tiqodga da’vat etuvchi, o’zlarining hamida axloqi, Yuksak insoniy fazilatlari bilan kishilarga o’rnak bo’luvchi, hayratomuz mo’jizalari bilan Allohning biru borligi, Yagonaligiga iymon keltirishga undovchi payg’ambarlar va ilmu hikmat sohibi bo’lgan donishmand – faylasuflar hayoti, hikmatli so’zlaridan tarkib topgan. Ma’lumki, payg’ambarlar tarixiga oid rivoyatu hikoyatlarni o’zida mujassamlashtirgan asarlar Alisher Navoiy davriga qadar ham Yaratilgan. Jumladan, «Tarixi Tabariy», «Tarixi Banokatiy» singari mo’tabar manbalarda ba’zi podshohlarning Yurishlari bilan bir qatorda payg’ambarlar qissalari ham keltiriladi. Shuningdek, Nosiruddin Rabg’uziyning «Qisasi Rabg’uziy» asari turkiy adabiyotda ayni mavzuga bag’ishlangan eng yirik nasriy asar sifatida ma’lum va mashhurdir. Alisher Navoiy ham bu mavzuga murojaat etib, turkiy xalqlarni ulug’ nabilar hayoti bilan bog’liq qissalar va hakimlarning purma’no fikrlaridan bahramand etishni ulug’ saodat deb biladi.

«Tarixi anbiyo va hukamo» ikki qismdan tarkib topgan. Asarning dastlabki qismida Odam alayhis-salomdan boshlab Nuh, Ismoil, Ya’qub, Yusuf, Muso, Horun, Sulaymon, Iso, Luqmoni hakim singari ulug’ payg’ambarlar hamda As’hobi qahf voqeasi haqida ma’lumot beriladi.

Asarning payg’ambarlar tarixiga bag’ishlangan dastlabki qismi Odamning Yaratilishi voqeasi bilan boshlanadi hamda «As’hobi qahf va ba’zi mutafarriq axbor» bayoni bilan nihoyalanadi. Anbiyolar haqidagi qissalar uslubining sodda va ravonligi, xalq og’zaki badiiy ijodiga Yaqinligi bilan ulug’ adibning boshqa nasriy asarlaridan farq qiladi.

Asarda nomlari keltirilgan payg’ambarlar bilan boqliq voqealar dastlab muayyan qahramonni tanishtirish xarakteridagi boshlanma bilan ibtodo topadi. Adib ularni tanishtirish jarayonida turli manbalardagi ma’lumotlarni o’quvchiga yetkazishga harkat qiladi. Jumladan, Luqmoni hakim haqidagi bir-birini inkor etuvchi quyidagi fikrlar asarda o’z ifodasini topgan: «Ta’rix ahlidin ba’zi ani hukamo silkida mazkur qilibturlar. Va ko’prak el ani payg’ambar debturlar. Va ba’zi rivoyatda mundoqdurki, tengri taolo nubuvvat va hikmat orasida muxbir qildi. Har taqdir bila «Va laqad otayno Luqmonal hikmata»ning sha’nidadur. Bo’la olurki bovujudi nubuvvat hikmat dog’i anga nasib bo’lmish bo’lg’ay. Rangi qora erkandur. Duvut alayhis-salom suhbatig’a musharraf bo’lur erdi. Va andin ko’p g’aroyibqa vujud tutar erdi. Ba’zi debturlarkim, qul erdi va ozod bo’lg’onida muxtalif rivoyat bor» (Asarlar, 15-tom, 131-bet). Ko’rinadiki, muallif islom tarixiga oid manbalardagi ma’lumotlarni umumlashtiradi, bir-birini inkor etuvchi qarashlarni asarda Yondosh keltiradi va ulardan ba’zilarini Qur’oni karim oyatlari asosida quvvatlantiradi. Muallif Luqmoni hakimni «tengri taolo nubuvvat va hikmat orada muxbir qil»ganiga ishonch hosil qilgani bois uning qutlug’ nomini asarning ham anbiyolar, ham donishmandlar faslida keltiradi.

Alisher Navoiy payg’ambarlar qissalarini imkon qadar muxtasar va sodda tilda bayon qilishni maqsad qilganligi asardagi ba’zi ishoralardan ayonlashadi. Jumladan, «Muso va Horun alayhis-salom» qissasida Muso payg’ambarning tug’ilishi, go’dakning Allohning cheksiz inoyati bilan Fir’avn zulmidan asrab qolinishi hamda Shu’ayb alayhis-salom qo’ylarini boqishi voqealari ixcham bayon etiladi. Shu’ayb payg’ambar Musoni Safura ismli qiziga uylantirib, o’n yildan so’ng Odam SafiYullo jannatdan chiqargan hassasini unga beradi. Muso payg’ambar Misrga yo’l oladi. Shu o’rinda Alisher Navoiy Muso alayhis-salomga payg’ambarlik a’molining nasib etishini quyidagicha tasvirlaydi: «CHun Muso alayhis-salom besh kun Yuridi, Turniso tog’ig’a etishti. Oltinchi kecha kim havo sovug’ bo’lub, bulut olamni tiyra qildi. Safurag’a tug’urur dardi paydo bo’ldi va o’tqa ehtiyoj bo’ldi va ul tog’ sori mutavajjih bo’ldikim, o’t keturgay. Ko’p Yurgondin so’ngra etkoch, ul Yorug’liq bir daraxtda erdi, Muso alayhis-salom etkoch, daraxtqa chiqti. Va ul Yorug’luq qoshida quyosh nuri tiyra ko’rundi, ammo yig’ochni kuydirmay, Yafrog’ va shoxlarni tozaroq qilib erdi. Muso alayhis-salomg’a hayrat g’olib bo’lib dedi: YO rab, bu na hol erkin? Ani «ana olloh» nidosi kelib, Muso alayhis-salomning davlatmand boshig’a risolat toji qo’Yuldi va saodatmand egniga nubuvvat xil’ati kiyduruldi va Yadi bayzo va aso mo’jizasi karomat bo’ldi. Va oroda o’tkon mukolama «Toho» surasida ma’lum bo’lur» (Asarlar,

15-tom, 209-210-betlar). Ayonlashadiki, muallif asarining asosiy manbasi Qur’oni Karim bo’lgani bois ba’zi voqealar tafsilotlari xususida undagi muayyan suralarga ishora qilinadi. Qissada Muso alayhis-salomning Fir’avn bilan muloqot qilishi va uni «tengri taolo ubudiYatiga (bandalikka – R.V., H.E.) dalolat» qilishi, Fir’avn esa undan mo’jiza ko’rsatishni talab etishi lavhalari asar payg’ambarlar mo’jizalari bilan o’quvchini ko’proq tanishtirish maylida bunyod etilganidan dalolat beradi. Bu hodisa Iso alayhis-salom qissasida ham o’z ifodasini topgan. Muso alayhis-salom hassasini tashlaganida, u ajdarhoga aylanadi. Haybatidan bir necha kishi halok bo’ladi. Fir’avn hushidan ketadi, o’ziga kelib, Muso alayhis-salomdan hassani olishni iltimos qiladi. Alloh elchisi ajdarhoni «Yadi bayzo» (oppoq qo’l; zo’r, kuch, qudrat – R.V., H.E.) ko’rsatib qo’liga olganida, u Yana hassaga aylanadi. «Tarixi anbiyo va hukamo»dagi Sulaymon alayhis-salom bilan bog’liq qissada Sulaymon payg’ambarning ulug’vorligi-yu, biroq uning bu hashmati Tangri taollo qudrati oldida zarrachalik qadrsizligi bayonidan iborat rivoyatlarga o’rin beriladi. Qissa so’ngida keltirilgan ruboiyda dunyoning o’tkinchiligi mo’r – ilon bilan aloqador hayotiy tamsil vositasida o’z ifodasini topadi. Ruboiy nafsdan g’alib kelish, ma’naviy-ruhiy kamolotga da’vat ruhida ijod etilgani bilan ahamiyatlidir:

Olamni Sulaymong’a xalq aylab ma’mur,
Hukmi soldi jinu bashar xaylig’a sho’r.
Oxir chu ajal anga maqom ayladi go’r,
Tufroq ichida qildi vatan o’ylaki mo’r.
(Asarlar, 15-tom, 231-bet)

«Tarixi anbiyo va hukamo»ning ikkinchi qismi «Hukamo zikri» deb nomlangan bo’lib, unda bashariYat tarixida katta nufuzga ega bo’lgan Luqmoni hakim, Fishog’urs, Jomosp, Buqrot, Buqrotis, Suqrot, Aflotun, Aristotilis, Balinos, Jolinus, Batlimus, Sodiq, Buzurjmehr singari olimlar haqida ixcham tavsif va ma’lumotlar beriladi, ularning hikmatli so’zlaridan namuna keltiriladi. «Hukamo zikri»ning eng muhim fazilati Shundaki, Shoir o’sha faylasuflar tomonidan aytilgan purma’no fikrlarning asl mohiyatini bir bayt She’rda umumlashtiradi. Baytlar nihoyatda ta’sirchanligi va xotirada oson muhrlanishi bilan ahamiyatlidir. Umuman olganda, «Tarixi anbiyo va hukamo»ning har ikkala faslida ham insoniyat tarixida evrilishlar paydo etgan Buyuklarning hayoti, hikmatli so’zlaridan ibrat olishga da’vat etiladi, insonnning komillik rutbasini qozonishi uchun asos bo’lgan umuminsoniy qadriyatlar haqida fikr Yuritiladi. Fikr tasdig’i sifatida «Hukamo zikri»dan tanlangan ayrim parchalarni keltirish bilan kifoYalanamiz:

Buqrot hakim. Fishog’ursning shogirdidur. Va Bahman chog’ida erdi va tibb ilmida mohir erdi va tasonifi bor. Va fusuli Buqrot ul jumladindurkim, atibbo qoshida bag’oyat mu’tabardur. Ul debturkim, umr qisqadur, ish uzun. Oqil uldurkim, bu qisqa umrni bir nimaga sarf qilg’aykim, zaruratroqdur, Ya’ni oxirat maslahati va tengri taolo rizosi.

She’r:

Kishiki qildi amal tengri rizosi bila,
Haq etti oxiratin komu muddaosi bila.

(Asarlar. 15-tom, 239-bet)

Aristotilis. Aflotunning shogirdidur. Iskandarning vaziri erdi. Aning so’zlaridin budurkim, podshoh uluq rudg’a o’xshar va atboi arig’larg’akim, ul ruddin ayrildilarkim, rud suyig’a har hol bo’lsa, arig’lar suyig’a hamul holdur. Ul chUchuk bo’lsa, bular chUchuk; ul achig’ bo’lsa, bular achig’; ul loy bo’lsa, bular loy. Bas, podshohg’a vojibdur g’oyat hikmat va e’tidol bila maosh qilmoq, to xayl va hashami anga mutobaat qilg’aylar.

She’r:

Shoh daryo va xalq erur anhor,
Ikkisining suyig’a bir maza bor.

(Asarlar. 15-tom, 240-bet)

Buzurjmehr. No’shiravoni odilning vaziri erdi. Aning so’zlaridindurkim, ustodimdin so’rdimkim, yigitlikda ne qilmoq Yaxshi va qarilig’da ne qilmoq? Dedikim, - yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilig’da ani amalg’a kelturmak Yaxshidur.

She’r:

Yigitlig’da yig’ ilmning maxzani,
Qarilig’ chog’i xarj qilg’il ani.

(Asarlar. 15-tom, 241-242-betlar)

Nas«oyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabbodalari»)– xalqni Haq va haqiqat sari yo’llash, bashariYatni ilohiy ma’rifatga etishtirishdek ulkan vazifani o’z zimmasiga olgan ulug’ ulamo va urafo, mashoyixu avliyolar haqida bitilgan noyob manbadir. Hijriy 901 (1496) yilda vujudga kelgan o’zbek nasri va tasavvuf adabiyotining mumtoz namunasi sanalgan bu asarning to’liq nomini muallif «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat» («Ulug’lik xushbo’yliklarini taratuvchi sevgi shabbodalari») deya e’tirof etadi. Tazkira Abdurahmon Jomiyning «Nafohat ul-uns» asari asosida vujudga kelgan, Alisher Navoiy uning Yozilishi tarixini quyidagicha bayon etadi: «Doim oShufta xotirg’a kelur erdi va parishon xayolg’a evrilur erdikim, ul kitob alfozi forsiydur, arabiyg’a payvasta va iborati ishorat ahli tiliga vobasta va ul tillar

vuqufidin bahravarlar va ul iboratu ishoratdin bexabarlar ul alfozdin o’z qobiliyatlari xurdida va ishtig’ollari muqobalasida naf’lar toparlar va fayz elturlar.

Ammo turk ulusidin ba’ziki, ko’ngul sidqu safosig’a bahramanddurlar, bu kimiyo asar so’zlar ta’sirig’a Tengri inoyatidin arumand, ul alfozg’a vuquf qillatidin ul fayzdardin mahrum va haqoyiqning daqoyiqi ularga noma’lum. Xotirg’a kechmishkim, agar sa’y qilsam, bu kitobni turk tiliga tarjima qila olg’aymuman va ul daqoyiqu mushkulotni ravshanroq alfoz va ochuqroq ado bila o’tkara olg’aymuman? – deb mutaammil erdim. Va ne bu xayolu muddaodin o’zumni o’tkara olur erdim va ne ishning azimlig’i va dushvorlig’i jihatidin Shuru’ qila olur erdim.

To ta’rix to’qquz Yuz birdaki, ul kitobning ta’lifidin yigirma yil o’tub erdi, Tengri taolo tavfiqi birla bu ulug’ ishg’a ilik urdum va bu azim amrg’a qalam surdum.» (MAT, 17-tom, 12-bet). Ayonlashadiki, Alisher Navoiy turkiy xalqlarni «bu kimyo asar» («Nafohat ul-uns» – R.V., H.E.)da nomlari keltirilgan ulug’lar bilan Yaqindan tanishtirish maqsadida uni o’zbek tiliga tarjima qiladi. Abdurahmon Jomiyning «Nafohat ul-uns min hazorat ul-quds» asari 1476-1478 yillarda Yozilgan bo’lib, muallif tazkiraning bunyod etilishida Alisher Navoiy da’vatkor bo’lganligini e’tirof etadi. Demak, ana shunday asar Yozish zarurati ulug’ o’zbek Shoiri ko’nglida yillar davomida Yashab kelgan.

«Nasoyim ul-muhabbat» muallifi Sharqona xokisorlik bilan «ushbu kitobni tarjima yo’sini ila bunyod ettim»,-deya ta’kidlagan bo’lsa-da, tadqiqotchilar tazkira Yangi ma’lumotlar bilan boyitilgani, unga juda ko’p o’zgarishlar kiritilganini e’tirof etishadi. Jumladan, «Kirish», «Muqaddima», «Asosiy qism» va «Xotima»dan tarkib topgan asarning «Kirish» va «Muqaddima» qismi bevosita Alisher Navoiy qalamiga mansub. Tazkira muallifi ulug’ Shayxlar nomlari zikr etilgan «Nasoyim ul-muhabbat»ning asosiy qismini quyidagicha mukammallashtirganini ham bayon etgan: «Va Hazrat Shayx Fariduddin Attor q.s. bitigan «Tazkirrat ul-avliyo»din ba’zi kibor mashoyixkim, «Nafohat ul-uns»g’a doxil bo’lmabdur erdi – har qaysisin munosib mahalda doxil qildim va Hind mashoyixi Sharhi ham oz mazkur erdi, mumkin bor tilab , topib hazrat Qutb ul-avliyo Shayx Farid Shakarganj q.a.din so’ggi mashoyixgacha ilhoq qildim va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, oni dog’iHazrat Shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy r.din bu zamong’acha ulcha mumkin bor tilab topib, zikrlarniva ba’zi holotu so’zlarin o’z mahalida darj qildim. Va Hazrat Maxdumi n.m.n.ning oti va muosiru musobih mashoyix q.a. zikri dag’ikim, ul mutabarrak kitobda yoo’q erdi, munda qo’shdum va ul kitobda dag’i avliyoulloh zikridin ba’zi so’zkim, zamon ahlig’ako’p muhtoj un-

ilayh ermas erdi itnob vahmidin tarkin tutdum va bu tarjimadin o’ksuttum va chun bu valoyat riYozi muhabbat nasimig’a muhib va futuvvat shamimig’a sabab bo’ldi» (MAT. 17-tom, 12-13-betlar).Shunday qilib, Alisher Navoiy «Nafohat ul-uns»da 618 (584 erkak, 34 ayol) mutasavvif haqida berilgan ma’lumotlarni 770 taga yetkazadi, ulardan 35 tasini ayol avliyolar sha’niga bildirilgan fikrlar tashkil etadi. Bunda muallif Farididdin Attorning «Tazkirat ul-avliyo» Shayx Farid Shakarganjning Shu yo’nalishda Yozidgan asaridan foydalandi hamda turk mashoyixlari, Shuningdek, Abdurahmon Jomiy va o’ziga zamondosh bo’lgan ulug’lar nomlarini manguga muhrlaydi.

«Nasoyim ul-muhabbat»ning muhim fazilatlaridan biri uning «Bu toyifaning a’molu af’ol va muomilotu riYozitidin ba’zini zikr qilmoq» nomli muqaddima qismida avliyo va mashoyixlarning a’mol (ishlari), af’ol (fe’llari), muomalat (Yashash tarzi) va riyozat (iroda ruhlarini Chiniqtirish)lari bayon etiladi hamda tasavvuf ahlining tavba, halol, luqma talabi, Shariat rioyati, namoz, zakot, ro’za, haj, yetuk axloq, bazli mavjud (o’zidagi narsalarni boshqalarga ravo ko’rish), hilm, rizo, sabr, sidq riyozat kabi sifat va xislatlar Sharhlanadi. Bulardan tashqari, ma’lum kasb-hunar bilan halol luqma topib faoliyat ko’rsatgan Shayx Muhammad Sakkok (pichoqchi), Shayx Abu Hafz Haddod (temirchi), Shayx Abulabbos Omiliy (qassob), Shayx Ibrohim Ojuriy (xisht avalabdur), Mirchai Safolfurush (doshgar), Adulhasan Muzayyin va Shayx Bannon (hammol), Shayx Abulhasan (najjor), Xoja Bahouddin Naqshband (kimxo naqshini bog’lamoqqa mashhur) kabilar hayotini ibrat qilib ko’rsatadi. Alisher Navoiy ilohiy fayzdan bahra olishning eng oliy sifati luqmayi halol ekanligini uqtirib quyidagilarni bayon etadi: «Va soyir mashoyixi kibordin ham ko’pi halol luqma kasbig’a muzdurluq qilibdurlar, o’tin toshibdurlar va halol luqma bu ishda kulliydurki, ondin fayzu ma’rifat zoYanda bo’lur» (MAT.17-tom, 15-16- betlar).

«Nasoyim ul-muhabbat» musulmon mintaqa xalqlari ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida Yuksak nufuzga ega bo’lgan tasavvvuf tarixi, uning tarmoqlari va ulug’ mashoyixu avliyolari haqida ma’lumot berishi, Shuningdek, tasavvufning nozik jihtlari bilan turkiy xalqlarni tanishtirish yo’lida Yozilgan ilk tazkira bo’lganligi bilan ahamiyatlidir. Bulardan tashqari, bu mo’tabar manba Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy singari o’z davrining asr ijtimoiy peshqadam ziyolilari bo’lgan ulug’ zotlar dunyoqarashining Shakllanishida bevosita ta’sir etgan shaxs va asarlar bilan Yaqindan tanishishga imkon Yaratadi.

Alisher Navoiyning «Vaqfiya» (h.886, m.1481) asarida o’zining davlat arbobi sifatidagi faoliyatlarida qanday ijtimoiy-siyosiy tamoyillarga asoslanib

ish tutgani, o’z ixtiyoridagi mulk va mablag’lardan asosan qanday niyatlarda foydalangani, Shu mablag’lar hisobida qurdirgan bino, madrasalarda o’rnatgan tartiblari, vaqf qildirgan erlari, mulklari va bog’lari haqida ma’lumot keltirilgan. Asar XV asr ijtimoiy-siyosiy, madaniy, iqtisodiy hayoti tarixini, Shuningdek, Ulug’ shoir hayoti va faoliyatinining ko’pgina qirralarini o’rganishda ishonchli manba vazifasini o’taydi.

4. «Mahbub ul-qulub» pandnomasi («Ko’ngillarning sevgani»). – Alisher Navoiyning eng so’nggi yirik nasriy asari bo’lib, hijriy 506 (1500) yilda Yozilgan. Unda Ulug’ shoir va adib, olim va Buyuk mutafakkirning barokatli umri davomida ko’rgani, kuzatgani, boshidan kechirgani, hayotiy tashvishlarining qalb qatlamu qavatdaridan sizilib chiqqan lo’nda umumlashma-xulosalari o’z ifodasini topgan. Musajja’ san’atining nodir namunasi sanalgan bu noyob asarning bunyod etilishi sabablarini muallif quyidlagicha izohlaydi: «Bu muqaddimotdin maqsud bukim, har ko’yda Yugurubmen va olam ahlidin har nav’ elga o’zumni etkurubmen, Yaxshi va Yomonning af’olin bilibmen va Yomonu Yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen. Xayr va shardin (Yomonlik, gunohlardan – R.V., H.E.) no’sh va nish ko’ksumga etibdur. Laim (past, xasis, nokas – R.V., H.E.) va karim zaxm va marhamin ko’nglum dark etibdur va zamon ahlidin ba’zi as’hob (suhbatdosh – R.V., H.E.) va davron xaylidin barxi ahbobki (ayrim do’stlar –R.V., H.E.) bu hollardin xabarsiz va ko’ngullari bu xayr va shardin asarsizdur.

Nazm:

Ne bo’lg’ay ul kishikim, Shahdu mayin totmabdur»
Ki vaslu hajr kibi ul chUchuk durur, bu achig’.
Bilur zalil musofirki po’Ya aylarda
Qumu to’zong Yumshog’, xoradur qattiq.

Bu nav’ as’hob va ahbobga intiboh (tanbeh –R.V., H.E.) qilmoq va alarning bu holatdin ogoh qilmoq vojib ko’rindiki, har toyifa xisolidin (xulqlaridan – R.V., H.E.) vuquflari (xabardorliklari –R.V., H.E.) va har tabaqa ahvolidin Shuurlari bo’lg’ayki, munosib el xizmatig’a shitob qilg’aylar va nomunosib el suhbatidin ijtinob vojib bilg’aylar (uzoqlashgaylar – R.V., H.E.) va bari el bila maxfiy rozlaridin so’z demag’aylar. Va shayotin (shaytonlar – R.V., H.E.) makru firibidin boziy emagaylar. Har nav’ el suhbat va xususiyatiki, alarg’a havas bo’lg’ay, bu faqirning tajribasi alarg’a bas bo’lg’ay» (Asarlar.)

Nihoyatda katta hayotiy tajribaga ega bo’lgan adibning axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ma’rifiy mavzudagi muayyan

qarashlarining teran badiiy ifodasidan tarkib topgan «Mahbub ul-qulub» pandnomasi Uch qismdan iboratdir:

«Avvalgi qism – xaloyiq ahvoli va af'oli aqvolining kayfiyati» («Xaloyiqning ahvoli va fe'l-atvori hamda so'zlarining kayfiyati»).

«Ikkinchi qism – hamida af'ol va zamima xisol xosiYatida» («Yaxshi qiliq va Yomon xislatlar xususiyatida»).

«Uchinchi qism – hamida natijasi va zamima xisol xosiYatida» («Yaxshilikning natijasi va Yomon xislatlarning oqibati»).

«Mahbub ul-qulub»ning birinchi qismida egallagan vazifasi, ko'rsatilajak ta'siri jihatidan jamiyat taraqqiyotida belgili mavqega ega qirq to'qqiz toyifa ahlining fe'l-atvori aqvoli xususida fikr Yuritiladi. Bu safda Shohdan gadogacha bo'lgan aksariyat toyifa a'zolarini Uchratish mumkin. Ro'yxatda zikr etilgan sohalardan ko'pchiligi bevosita ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etmaydi. Lekin o'sha jarayonning rivoju ravnaqida muaychn o'rni, ta'siri bor. Yana asar muallifi aksar toyifa ahli faoliyatiga tanqidiy munosabat bildiradi. Shunday qilib, odil sultonlar, islompanoh beklar, zolim va fosih Shohlar, vazirlar, nomunosib noiblar, noqobil sadrlar, fosih bahodirlar, Shayx ul-islom, qora cherik (qo'shin), qozi, mufti, mudarrislar, kotiblar, mutribu mug'anniylar, tijorat ahli, olib sotarlar, bozor kosiblari singari turfa toyifalarga doir gohida muloyim, ba'zan nafratli qarashlar bayon etiladi. Ulug' adib boshqa asarlarida kuzatilgani kabi odio Shoh haqidagi falsafiy qarashlarini «Mahbub ul-qulub»da badiiy ifodalarkan, avvalo, adolatli podshohni Yurt ma'murligiYu xalq osoyishtaligining asosi deb biladi. Muallif bir umr o'zi orzu qilgan hukmdorning ta'rifu tavsifini asarda nihoyatda katta ehtirosu o'ziga xos tashbehlar voitasida badiiylashtiradi: "Odil podshoh Haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va ra'fat. Quyosh bila abri bahordek qora tufrog'din gullar ochar va mulk ahli boshig'a oltun bila durlar sochar. Fuqaro va notavonlar aning rifq va madorosidin osuda, zalama va avonlar aning tig'i siyosatidin farsuda. Harosatidin qo'Yu qo'zi bo'ri xavfidin emin va siyosatidin musofir qaroqchi vahmidin mutmain"(Asarlar.) Pandnomada zolim, johil va fosiq podsho esa butun Yomonligu razolatning sababkori sifatida talqin etiladi. Uning zulmidan obod erlar vayronaga, kabutar toqchalari boyqush oshYoniga aylanadi, bunday Shoh bazmida boda seli tug'yon qilib, u sel mulk ma'murligini vayron etadi. Alisher Navoiy saroy amaldorlarining Yaxshi yoki Yomon a'mol sohibi bo'lishlarini ham hukmdorga bog'liq holda talqin etadi:

«Bu Yomon podshohshki bo'lg'ay vaziri ham Yomon, andog'ki, Fir'avn nayobatida Homon.

Bayt:

O'ylakim Shah, morg'a bo'lg'ay madad ham ja'fariy,

YO vaboyi xalqqa toun ham o'lg'ay bir sariy.

Tengri mundoq balolarni adam chohidin vujud taxtgohig'a kelturmasun va yo'qlug' zindonidin borlig' Shahristonig'a etkurmasun» (Asarlar).

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub»da saroy amaldorlari, Shoh atrofidagi mansabdorlar va boshqa nufuzli tabaqa vakillari bo'lgan: vazirlar, nomunosib noiblar, bediYonat sadrlar, riyoi mashoyixlarning kirdi-korlarini keskin qoralaydi, ulardan nafratlanishini ochiqdan-ochiq namoyon etadi va o'z istagiga ko'ra bunday toyifa vakillari qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozimligini ham bayon etadi. Jumladan, adib vuzaro haqida fikr Yuritarkan, o'z zamonasida hech bir durust vazir ko'rmaganligini, qachonlardir Osaf ismli bir vazirgina insofli bo'lganligini e'tirof etadi. Majididdin, Nizomulmulk singari Husayn Boyqaro saltanatining «ishonchli ustunlari» sanalgan vazirlar o'z manfaatlari yo'lida hamma narsani,hatto, insonni ham qurbon qilishga tayyor turganliklariga bir necha marta guvoh bo'lgan ulug' mutafakkir bunday toyifa vakillarini keskin tanqid qiladi: « bu zolimlar Yurtni barbod berguvchilardir va mulk ahli yig'ishtirg'onlarni yitirguvchilardur. Avlo ulkim, bular zikrida xoma surmag'ay. Zahr berib bemor o'lturguvchi tabib, bularning holig'a mushobehdur va qarib... Bular, jumlasi chayonlar, xaloyiqqa etkurur ziYonlar» (Asarlar) .

Aytilganlarga qiyosiy nazar tashlanadigan bo'lsa, Alisher Navoiyning o'ttiz birinchi fasldagi jumlalari o'zining samimiYati, xayrixohona ohangi bilan diqqatni jalb etadi. Chunki mazkur fasl «duhqonalr zikriga atalgan». Fasl boshidayoq o'sha mehr, muloyimlik Yarq etib ko'zga tashlanadi. «Dehqonki dona sochar, erni Yormog' ila rizq yo'lin ochar» (Asarlar, 13-tom, 29-bet). Ixchamgina jumla. «Sochar», «ochar» so'zlari musajja' san'atini hosil qilgan. Jarangdorlikni, qofiyadoshlikni ta'min etgan. Dehqonning sharafi Shundaki, u saraton oftobida kuygan qiyofasi, qadoqli qo'llari bilan nazokat Yaratadi, ro'zini mo'l-ko'l qiladi. Odam Atodan meros kishtu korni kanda qilmay, takomillashtirib keladi. Ulug' adib mulohazalarini sayqalli davom ettiradi: «Qo'shi ham ikki zo'r pahlavon, Yukiga bo'Yun sunub olida ravon, ish qilurda hamdam va hamqadam, dehqon alarni surarda andoqki Odam.

Olam ma’murligi alardin, olam ahli masrurligi alardin. Har qayon qilsalar harakot, elga ham qut etkarur, ham barakot.» (Asarlar. 13-tom, 30-bet).Matndagi «pahlavon», «ravon», «hamdam», «hamqadam», «Odam», «ma’murligi», «masrurligi», «harakot», «barakot» so’zlai saj’ni - qofiyadoshlikni vujudga keltirgan. Parchada talmeh san’ati - Odam Atoning qo’sh haydashiga ham nozik ishora bor. So’z tanlashda ulug’ adibning bepoyon dalasiday bag’ri keng tanti dehqonga ixlosu muhabbati namoyon bo’ladi. Ho’kizlar – pahlavon, ravon va o’z sohibiga hamdamu hamqadam...

«Ruh ul-amin», «Surush» unvonlari bilan ham badiiy adabiyotda eslanadigan farishta Jabroiyning Odam Atoga aytgan gaplarini eslaylik: «O’z qo’ling bilan dehqonchilik qilib, qut-baraka topgin!» Alisher Navoiyning jumlalarida o’sha so’zlar va ohang aks-sado beradi. Dehqonchilik Allohning inoyati bilan va farishta Surush rahnamoligida boshlangan hunar. Shuning uchun unda xayru baraka, himmatu karam, halollik ustuvor. Fikrimizcha, Alisher Navoiy masalaning ana o’sha jihatlarini ham inobatga olgan holda dehqon haqidagi madhiyani Yanada chuqurlashtira boradi: «Dehqonkituzluq bila dona sochar, har biriga etti Yuz eshigini ochar.Sichqon dona ko’karguncha, urub xirmon qilib mahsulin ko’targuncha; qurtu qush andin bahramand va dasht vahshi aning bila xursand. Mo’rlar uyi andin obod va go’rlar xotiri aning bila shod. Kabutarlarga andin mastlig’, to’rg’aylarg’a andin nishotga hamdastlig’. O’roqchig’a andin ro’ziy, boshoqChining Yorub andin ko’zi.» Mazkur jumlalar mutolaasi har qanday kitobxonni ham to’lqinlashtirishidan tashqari, uning Alisher Navoiy dahosiga zehnu zakovati, quvvai hofizasiYu mahoratiga ixlos-e’tiborini chandon ko’taradi. Bu qadar sinchkovlik, ziyraklik va dehqon mehnatining mayda-chuydasiYu mashaqqatlarini nazardan qochirmaslik san’atiga tan bermay iloj yo’q.

«Mahbub ul-qulub»ning birinchi qismida bayon etilgan fikrlar ulug’ adibning hayotiy tajribalari umumlashiasi bo’lib, unda atrofdagi voqea-hodisalardan doimo ogoh bo’lishga da’vat etiladi. Bu da’vat Yurt sarvaridan tortib oddiy fuqarogacha taalluqlidir. Shuningdek, ushbu bobda turli ijtimoiy tabaqa vakillarining adib nafrat bilan keskin tanqid qilgan fe’l-atvoridan mumkin qadar tezroq voz kechiish, Yaxshi fazilatlar sohibi bo’lib, komillikka erishish uqtiriladi. Asarning ikkinchi qismida komillikka erishish yo’li tasavvuf tamoyillari nuqtayi nazaridan asoslanadi. Ushbu qismdan Yomonliklardan mosivo bo’lishning eng to’g’ri

yo'li nafsni riyozat bilan mahv etib, sabru qanoat bilan pok Yashash, ruhni Chiniqtira borib, hamida axloqqa erishish xususida fikr Yuritiladi. Nafsni mag'lub etib, ilohiy fayzdan bahra olishning dastlabki bekati – tavbadir. Tavbadan murod Haq yo'liga kirgan solikning barcha Yomon ishlardan ogoh bo'lib, ulardan butkul voz kechishi, har taraflama poklanishidir. O'n fasldan tarkib topgan asarning ikkinchi qismida tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze' va adab, zikr, tavajjuh, rizo, ishq singari tasavvufiy istilohlar Sharhlanadi. Shuningdek, har bir axloqiy masala nazariy jihatdan umumlashma tarzida bayon etilganidan so'ng, aytilgan fikrlarni dalillash maqsadida bir hikoyat keltiriladi. «Mahbub ul-qulub»ning ikkinchi qismi tuzilishiga ko'ra «Hayrat ul- abror» dostonidagi maqolat va hikoyatlarga o'xshab ketadi.

Pandnomaning Uchinchi qismi turli foydali pand va hikmatlar, Shuningdek, 127 tanbehdan tarkib topgan. Asarning mazkur bobi oldingi boblarda bayon etilgan ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarni Ulug' shoirning maqollarga uyg'un hikmatli so'zlari bilan birmuncha kengaytiradi va umumlashtiradi. Keltirilgan tanbehlar adibning uzoq yillar davomidagi hayotiy kuzatishlari hosilasi bo'lib, o'ziga xos hukmlardan iborat. Ular saj' va boshqa badiiy san'atlar bilan ziynatlangani bois o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etadi. Quyida ularning ayrimlaridan namunalar keltiramiz:

Vafog'a hayo bila payvastaliq, andoqki, hayog'a vafo vobastaliq.

Tanbih.

Mazlumg'a baxshoyish ko'rguzki zolimdan osoyish ko'rgaysen. Zerdastlarg'a naf' etkur, agar tilasangki, zabardastlardin zarar ko'rmagaysen. Xiradmand muxolifatdin qochar va muxolifatqa muloYamat eshigin ochar. Zanbur g'avg'osidin nish mutasavvardur va asal savdosidin no'sh muyassar.

Tanbih.

Fosiq lim donishvaredur o'z nafsig'a zolim, g'aniyi baxil nodonedur o'z ziYonig'a muxil. Bu ikki kishi umr zoyi' o'tkardilar va go'rga hasratva armon olib bordilar. Biri ulkim, ilm o'rganurg'a ranj tortti va amal qilmadi, biri ulkim, mol yig'arg'a emgak chekti va sarf qilurin bilmadi.

Qit'a:

Olimkim ilmi erdi beamal,
YO g'aniykim molig'a buxl erdi Yor.
O'ldilar Yuz hasratu armon bila ,
elga bo'ldi ishlaridin e'tibor.

Tanbih.

Yomonlarg'a lutfu karam, Yaxshilarg'a mujibi zarar va alam.MuShukka rioyat kabutarg'a ofatdur. SHog'ol jonibin tutmoq tovuq tuxmin qutqarmoqdur.

Fard:

Bo'rini qo'zi bila qilg'on semiz,

Kiyik jam'u xaylig'adur rahmsie.

Tanbih.

Kim moldin nekim bahra oldi aningdur, har nekim asradi o'zganing. Zaxmat bila topqoningni o'zungdin ayama va mehnat bila yiqqoningni do'stlar bila dushmanlar uchun asrama.

Bayt:

Mol uldurkim el andin olsa bahr,

Dushman andin topsa tengdur no'Shu zahr.

(Asarlar, 13-tom,)

keltirilgan iqtiboslar xalq maqollari kabi ixcham, ammo qalblarda o'chmas taassurot qoldirishi bilan ahamiyatlidir. Pandnomada badiiy umumlashma mayli nihoyatda baland ekanligi seziladi. Shuningdek, unda hasbi hol ruhi ham o'zini namoyon qilib turadi. «Mahbub ul-qulub»dagi falsafiy mushohada, umumlashmalar ulug' adibning so'nngi tahriri sanaladi. Alisher Navoiyning muayyan bir masalaga doir qarashlarida yillar o'tishi bilan tafovut paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. «Mahbub ul-qulub»da oldingi asarlardi bildirilgan mulohazalar tahrirga Uchragan, badiiy jihatdan Yanada sayqallashtirilgan bo'lishi tabiiy, Chunki Shu asardan keyin Ulug' shoirga ko'p Yashash ham, Yozish ham nasib etmadi.

«Xamsa» She'riyat mulkida Shohlikka munosib bo'lsa, «Mahbub ul-qulub» nasr bobida Shunday sharafga muyassardir. Ulug' adibning maktublardan tashkil topgan «Munshaot», umrining so'ggi yillarida Yozilgan «Munojot» asarlari, devonlari tarkibidagi «Debocha»lar ham adib nasriy asarlari namunasi sanaladi. Alisher Navoiy turkiy nazmu nasrning Shoh asarlarini ijod etganulug' so'z san'atkoridir. Asrlar davomida bu Buyuk daho qalamiga mansub bebaho ilmiy-adabiy meros insonning ma'naviy kamolotiga munosib xizmat qilib kelmoqda. Ular ilhom manbai sifatida Shoir yashagan davridanoq ijodkorlar qalbida Yangi-yangi fikrlar paydo bo'lishi, o'ziga xos ehtiroslar uyg'onishiga bois bo'ldi. Asrlar davomida Ulug' shoir g'azallariga muxammaslar bitilmoqda. Uning ulkan ilmiy-badiiy merosi jahonning turli tillarida tarjima qilindi. Og'zaki va Yozma adabiyotda Ulug' shoirning hayoti va

faoliyatiga bag’ishlangan asarlar ijod etildi. Bularning barchasi Alisher Navoiy nomining mangulikka daxldorligidan dalolatdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1.Alisher Navoiyning qaysi asarlari ilmiy-filologik tadqiqotlar sanaladi?

2/Majolis un-nafois»ning Yaratilishi tarixi, tuzilishi va asosiy xususiyatlari haqida so’zlang.

3.«Majolis un-nafois» ilgari Yozilgan tazkiralardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

4.Tazkirada Shoh /arib Mirzo va Husayn Boyqaro haqida qanday ma’lumotlar keltirilgan?

5.«Muhokamat ul-lug’atayn»ning vujudga kelishi sabablari nimalardan iborat?

6. Risolada turkiy tilning o’ziga xos qanday fazilatlari haqida fikr Yuritiladi?

7.Alisher Navoiy forsiy tilda jahoniy mavqega ega bo’lgan badiiy asarlar Yaratilgani holda turkiy tilda bu jarayonning sust borayotganligini qanday izohlaydi?

8.«Muhokamat ul-lug’atayn»ning adabiyotshunoslik uchun muhim jihatlari nimalarda namoyon bo’ladi?

9.Alisher Navoiy adabiyot nazariyasiga oid qanday asarlar Yozgan?

10.Shoirning ustozlariga bag’ishlangan yodnomalari qaysilar? Ularning Yaratilishi tarixi haqida nimalarni bilasiz?

11. «Xamsat ul-mutahayyirin»ning tuzilishi va asosiy mazmunini gapirib bering.

12.Ulug’ adibning tarix, tasavvuf va din tarixiga oid asarlari qaysilar?

13. «Tarixi muluki Ajam»da qaysi sulolalar haqida ma’lumot beriladi? Asarda odil Shoh va zolim Shoh sifatida kimlarning nomlari tilga olingan? Ularning odil yoki zolimligini ko’rsatuvchi jihatlar nimalardan iborat?

14. «Tarixi anbiyo va hukamo» necha qismdan iborat hamda unda qaysi payg’ambarlar va olimlarning nomlari tilga olingan?

15.«Tarixi anbiyo va hukamo»dagi qissalarning bir-biriga uyg’un va farqli jihatlari nimalardan iborat?

16. «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasining Yaratilishi tarixi haqida so’zlang.

17. Tazkiraning «Muqaddima» qismida nimalar haqida fikr Yuritiladi? Ma’lum kasb-hunar bilan rizq topib faoliyat ko’rsatgan Shayxlar kimlar?

18. Alisher Navoiyning «Vaqfiya» asarida qanday ma’lumotlar keltiriladi?

19. «Mahbub ul-qulub»ning Yaratilishi tarixi, uni Yozishdan muallifning ko’zlagan asosiy maqsadlari nimalardan iboratligini so’zlab bering.

20. Asar necha qismdan iborat? Uning har bir qismida qanday masalalar haqida fikr Yuritiladi?

21. Asardagi odil Shoh va zolim Shoh iasvirida muallif ularning qaysi jihatlariga e’tiborni qaratadi?

22. «Mahbub ul-qulub»dagi dehqonlar ta’rifi boshqa ijtimoiy toyifa vakillari, jmladan, vazirlar haqida bildirilgan mulohazalardan nimasi bilan farq qiladi?

23. «Mahbub ul-qulub»ning tarbiyaviy ahamiyati haqida so’zlang.

Zahiriddin Muhammad Bobur

Reja:

1. BoburShunoslik tarixiga bir nazar.

2. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ilmiy – adabiy merosi.

3.Bobur Mirzo She’riyati. G’azallarining mavzulari va badiiyati.

4. Shoirning ruboiy va tuyuqlari tahlili.

5. «Boburnoma» - qomusiy asar.

Adabiyotlar:

1. Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002, 260-302-betlar.
2. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Toshkent: «Ma’naviyat», 1999.
3. Gulbadanbegim. HumoYunnoma. Toshkent: «Fan», 1959.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent, 1960.
5. Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 568-608-betlar.
6. Uil’Yam erskin. Bobur Hindistonda. Toshken: «CHo’lpon», 1995.
7. O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 3-tom. Toshkent: «Fan», 1978, 42-88-betlar.

BoburShunoslik tarixiga bir nazar. Zahiriddin Muhammad Bobur – Shoir, adib, She’rShunos – adabiyotshunos, donishmand faqih (islom qonunShunosi), tilshunos, elShunos, mantiq va riYoziyot ilmlaridan puxta xabardor jamoat arbobi sifatida o’zidan bebaho ma’naviy meros qoldirdi. Boshqa odamlarnikidan deyarli farq qilmaydigan mo’’jazgina ko’ksida sherning Yuragi va jur’atini ko’tarib o’tgan bu mukarram zot aql bovar qilmaydigan kashfiyotlar bilan Yuzma-yuz Yashab o’tdi, o’zidan sara ma’naviy xazina va nom qoldirish uchun kurashdi.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi eng noyob ishonchli manba, Shubhasizki, uning «Boburnoma»sidir. Shuningdek, bu Ulug’ shoir va sarkardaning qizi Gulbadanbegimning «HumoYunnoma», Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarlari ham «Boburnoma» maqomiga Yaqin turuvchi asarlar sirasiga mansub. Buning boisi Shuki, Gulbadanbegim va Muhammad Haydar Bobur Mirzo bilan Yaqindan

muloqotda bo’lishgani bois o’z asarlarida Buyuk hukmdorning faoliyati, shaxsiYatiga aloqador qimmatli ma’lumotlarni keltirishgan. Hasanxo’ja Nisoriyning «Muzakkir ul-ahbob» (1566) tazkirasida ham Bobur Mirzo bilan aloqador ishonchli qaydlar o’z ifodasini topgan. Xuddi Shunday fikrni Hindistonni idora qilgan boburiy hukmdorlar AkbarShoh, JahongirShoh, Shoh Jahon zamonida vujudga kelgan tarixiy asarlar borasida ham aytish mumkin.

Hindiston inglizlar tomonidan fath etilgandan so’ng, aniqrog’i, XVIII asrdan boshlab Boburning hayoti, faoliyati, ijodi kabi masalalar Ovrupa Sharqshunoslarining diqqatini o’ziga jalb etdi. Vitsen, Jon Leyden, U. erskin, R.M. Kalenot, Pave de Kurteyl, Denison Ross, A.Beverijd xonim, Len Pul’, e. Xolden, V.X. Moreland va boshqa tadqiqotchilar Boburning hayoti va faoliyatini o’rganish, asarlarini nashr va tarjima qilish bilan Shug’ullandilar. Bu olimlar orasida ingliz tarixchisi Uil’Yam erskinning olib borgan izlanishlari mutaxasislar tomonidan juda ko’p e’tirof etilmoqda. SHotlandiYalik katta er egasining o’g’li bo’lgan Uil’Yam edinburg universitetida tahsil olgandan so’ng, 20 yil (1803-1823) Bombayda istiqomat qilgan. «Boburnoma»ning 1809 yilda Jon Leyden (1875-1811) boshlagan tarjimasini U. erskin nihoyasiga yetkazgan. Shuningdek, U. erskinning «Temuriylar avlodidan bo’lmish Bobur va HumoYun davridagi Hindiston tarixi» nomli 600 sahifaga Yaqin hajmdagi yirik tadqiqoti 1854 yilda muallif vafotidan keyin nashr etilgan. Olimlarning e’tirof etishicha, U. erskin fors tilini mukammal bilgan va temuriylar sulolasi tarixini sinchiklab o’rgangan. O’zining ular haqidagi ilmiy xulosalarini asoslashda, «Tabokati Akbariy», «Tarixi Rashidiy», «Xulosat ul-Akbar», «Xulosat ul-tavorix», «SHajarat ul-atrok» kabi ko’plab ilmiy-tarixiy qo’lyozmalardan keng foydalangan. Ingliz olimining ushbu yirik tadqiqoti qisqartirilgan holda G’ofurjon Sotimov tomonidan tarjima qilinib nashr etildi (Uil’Yam erskin. Bobur Hindistonda. Toshken: «CHo’lpon», 1995).

Rus Sharqshunoslaridan N.I.Il’minskiy, N.I.Pantusov, S.I.PolYakov, N.I.Vaselovskiy, V.V.VYatkin, A.Samoylovich, V.Bartol’d, afg’on olimlaridan Ahmad Ali Kohzod, Abdulhay Habibiy, GulChin Maoniy, hind olimlaridan Zokir Husayn, Nurul Hasan, S.A.SHarmi, R.P.Tripatxi, P.Saron, Kanunga, turk olimlaridan Fuod Kupruluzoda, Rashid Rahmati Arad kabilar ham Bobur faoliyati va merosi bilan Shug’ullandilar.

Boburning hayoti, faoliyati, ilmiy, badiiy merosini o’rganish, asarlarini nashr etish borasida o’zbek olimlari ham muayyan ishlarni amallga oshirdilar. Adibning Shoh asari «Boburnoma»dan parchalar 1928 yilda Abdurauf Fitratning «O’zbek adabiyoti namunalari» majmuasida e’lon qilindi. Shundan so’ng bu asar 1948-1949 yilda 2 jildda, 1960, 1989 yilda tuzatilgan holda nashr

etildi. Umuman, boburShunoslik ravnaqida YAhyo G’ulomov, Vohid Zohidov, Homil YOqubov, Porso SHamsiev, Sabohat Azimjonova, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Said Aliev, B.Valixo’jaev, S.Hasanov kabilarning ilmiy tadqiqotlari muhim hissa bo’lib qo’shildi.

Boburning Shuhratining jahonga Yoyilishida turli mamlakat Yozuvchilarining ham munosib hissasi bor. Jumladan, hind adibi Muni La’l Bobur va boburiylar haqida oltita roman Yozganligi e’tirof etiladi. Shuningdek, turli manbalarda frantsuz Yozuvchilari Flora Anna Stilning «Boburxon», Fernand Grenandning «Bobur», Amerika adiblari Harold Lembning «Bobur - sher», Vamber Gaskonining «Bobur va uning avlodlari yoki Buyuk Mo’g’ullar» romanlari mavjudligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. O’zbek Yozuvchi va Shoirlaridan Pirimqul Qodirov, Barot Boyqobilov, Xayriddin Sultonovlar Bobur haqida roman, esse-roman, qissa va dostonlar ijod etishdi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng, Bobur va uning ilmiy, adabiy merosiga milliy istiqlol g’oyasi tamoyillari nuqtayi nazaridan munosabat ko’rsatila boshlandi. Uning diniy asarlari, jumladan, «Mubayyin» nashr etildi. Mamlakatimizda Bobur xalqaro jamg’armasi tuzilib, o’zining serqirra faoliyatining amalga oshira boshlagani boburShunoslikda muhim voqea bo’ldi.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ilmiy – adabiy merosi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil 14 fevralda (hijriy 888 yil muhaaram oyining 2-kuni) Farg’ona viloyatini idora qilayotgan temuriy hukmdor UmarShayx Mirzo xonadonida dunyoga keldi. Ma’lumotlarga ko’ra, Zahiriddin Muhammad ismini Yosh Shahzoda uchun o’sha davrdagi Movarounnahrning atoqli ulamolaridan bo’lgan Xoja Nasriddin Ubaydulloxon tanlagan. Keyinchalik chig’atoylar arabcha «Zahiriddin» so’zini talaffuz etishga qiynalganliklari bois ota-onasi uni Bobur deb ataydigan bo’lib qolishgan. Shunday qilib, rasmiy hujjatlarda Ulug’ shoir, adib va hukmdor nomi Zahiriddin Muhammad Bobur tarzida qo’llana boshlangan (Erskin U. Bobur Hindistonda. Toshkent, 1995, 8-9-betlar). UmarShayx Mirzo Sulton Sohibqiron Amir Temurga to’rtinchi avlod - evara sanaladi. Uning shajarasi: UmarShayx Mirzo – Abusaid Mirzo – MironShoh – Amir Temur. Boburning onasi Qutlug’ Nigorxonim o’zbeklashgan mo’g’ul turklariga mansub bo’lgan Toshkent hokimi YUnusxonning qizidir.

UmarShayx Mirzo temuriy hukmdorlar orasida toj-taxt kurashlari keskinlashgan bir davrda Farg’ona viloyatini idora qildi va bu kurashda faol ishtirok etdi. Pokiza e’tiqodli, Hazrat Xoja Ubaydulloga irodati bor, ravon

savodli bu temuriyzoda Boburning ma’lumotiga ko’ra: «Xamsatayn (Nizomiy va Dehlaviy «Xamsa»larini – R.V., H.E) va masnaviy kitoblarni va tarixlarni o’qub edi. Aksar «Shohnoma» o’qur edi. Tab’i nazmi bor edi, vale She’rg’a parvo qilmas edi.» (10-bet.) Tabiatida «hamisha mulkgirlik dag’dag’asi bor» bo’lgan UmarShayx Mirzo Yurttalablik da’vosi bilan Samarqandga bir necha bor Yurish qiladi. Farg’ona viloyatining osmonida urush bulutlari qalqib Yurgan damlarda fojeali vafot etadi.

Bu voqea 1494 yilda sodir bo’ldi. UmarShayx Mirzoning akasi Sulton Ahmad Mirzo va Toshkent hokimi Mahmudxon (UmarShayxning qaynog’asi va Sulton Ahmadning kuyovi) o’zaro ittifoq tuzib Farg’ona viloyatiga Yurish boshlaydi. «Boburnoma»da Sulton Mahmud va Sulton Ahmadning «UmarShayx Mirzoning badmaoshlig’idin mutpzarrir» (qo’polligidan zarar – R.V., H.E) ko’rganliklari bunday harakatning sababi sifatida keltiriladi. Axsi qal’asi (Axsikat) UmarShayx Mirzo saltanatida Andijondan keyin ikkinchi mavqega ega bo’lgan qal’a bo’lib, podshoh ko’p vaqtini o’sha yerda o’tkazar edi. «Boburnoma»da UmarShayx Mirzoning fojeali vafoti haqida quyidagilar qayd etiladi: «... Bu asnoda g’arib voqea dast berdi, mazkur bo’lub edikim, Axsi qo’rg’oni baland jar ustida voqe’ bo’lubtur, imoratlar jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to’rtida UmarShayx Mirzo kabutar va kabutarxona bila Uchub, Shunqor bo’ldi. O’ttiz to’qquz Yoshar erdi» (9-bet). Taomilga ko’ra, Farg’ona viloyatining taxti to’ng’ich o’g’il Bobur Mirzoga topshirildi. Shunday qilib, Bobur Mirzo «Tengri taolo inoyati bilan va chahorYoru bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sakkiz Yuz to’qson to’qquzda Farg’ona viloyatida o’n ikki Yoshda podshoh bo’ldum»,-deya e’tirof etadi. Yosh hukmdor mamlakatni idora eta boshlagan davr nihoyatda tahlikali edi. Unga avval otasining Yaqin beklaridan Shayx Mazidbek, keyinchalik Boboquli Bobo Alibek bek atka sifatida tayinlanadi. Bobur Alloh inoyati va beklarning rahnamoligida Farg’ona viloyatida o’z idora uslubini saqlab qoladi. O’ratepa, Xo’jand, Marg’ilonni zabt etib Quvaga Yaqinlashgan Sulton Ahmad qo’shinlari kutilmaganda katta talofat ko’radilar: «Biri bukim, - talofat sabablarini bayon etadi «Boburnoma» muallifi, - Quboning botqoqlik qora suyi bor, ko’prigidin o’zga erdin kechib bo’lmas, qalin cherik kelib ko’prukda tiqilib, qalin ot va teva bu qora suvga yiqilib zoye’ bo’ldi. Uch – to’rt yil mundin burunroq CHir suyining guzarida ulug’ shikast topib edilar, bu voqea andin yod berib, cherik eliga vahmi g’olib bo’ldi.

Yana biri bukim, ul fursatga andoq ot o’lati bo’ldikim, tavila-tavila otlar yiqilib o’la kirishdi» (18-bet). Qo’shini to’zigan, ustiga-ustak katta talofat

ko’rgan Sulton Ahmad sulh tuzib, Samarqandga qaytishga majbur bo’ladi. Quva voqeasidan so’ng xastalanib qolgan Samarqand hukmdori O’ratepada vafot etadi. Sulton Mahmudning esa Axsining qamal qilishi natija bermay, u ham orqaga qaytishga majbur bo’ladi. Bu jang Yosh taxt sohibi Boburning birinchi va juda muhim g’alabasi edi.

Bobur Mirzo mamlakatda osoyishtalikni barqaror qilish uchun juda ko’p ter to’kishiga to’g’ri keldi. U mahalliy hukmdorlarning o’zboshimchalikka Yuz burishlari avjiga chiqqan davrda Farg’ona viloyatini idora qilmoqda edi. Bunday boshbodoqchilik taxt sohibi hayoti uchun ham nihoyatda tahlika solardi. Boburning ukasi Jahongir Mirzoni Shoh qilish maqsadida fitna uyushtirgan Hasan Ya’qub boshchiligidagi beklar unga qarshi suiqasd uyushtirishdi. Bobur va uning tarafdorlari sa’y-harakati bilan fitna o’z vaqtida fosh etildi, qo’lga olingan isyonchi beklar jazolandi. Yovuz niyati amalga oshmaganidan alamzada bo’lgan Hasan Ya’qub Samarqand sari yo’l oladi. Biroq qabih maqsadi Yana xuruj qilib Axsi tomon kelganida, Qo’qon Yaqinida vafot etadi. Bobur Mirzo katta va notinch viloyatni boshqarish uchun Andijon atrofidagi Shaharlarda bir necha marotaba Yurishlar qilishga majbur bo’ladi.

1495 yilda Sulton Ahmad o’rnida bir muddat hukmronlik qilgan ukasi Sulton Mahmud vafotidan so’ng, uning o’g’illari Mas’ud, Boysung’ur Mirzo, Sulton Ali o’rtasida Samarqand taxti uchun o’zaro urushlar boshlanadi. Sulton Ali Samarqandni egallaganda, bu urush alangalari Yanada yolqinlasha boshlaydi. Bobur Mirzo ham ulug’ sohibqirio Amir Temur poytaxtini qo’lga kiritish ilinjida Samarqand tomon lashkar tortadi. Bu payt Sulton Mas’ud Mirzo Shahrisabzni o’z idorasi ostiga olib, Samarqandga tahdid sola boshlagan edi. Hisor va Qunduzdan Sulton Husayn Mirzo qo’shinining xavfi ham mavjud edi. Uch-to’rt oy Uch tarafdan Samarqandga qarshi hujum uyushtirilgach, Sulton Ali nomidan Xoja YAhyo kelib, ittifoq va hamjihatlikdan so’z ochadi va Bobur Mirzo bilan o’zaro keliShuvga erishadi. Biroq oradan ko’p vaqt o’tmay, Samarqand taxtini Boysung’ur Mirzo qo’lga kiritadi.

1497 yilda Bobur Mirzo mingga Yaqin qo’shin bilan Samarqandni qo’lga kiritish uchun jangga otlanadi. Shahar etti oy qamal qilinadi. Boysung’ur Mirzo Shayboniyxondan madad kutadi, biroq Shayboniy qo’shinlarining Yordami besamar ketadi. Natijada Shahar hukmdori Qunduzga XusravShohdan panoh izlab ketishga majbur bo’ladi. Bobur Mirzoni Samarqand Shahri ulug’lari, beklar mamnuniyat bilan qarshi oladilar. «Boburnoma»da muallif bu voqeani iftixor bilan quyidagicha bayon etadi: «Rabiulovval oyining avoxirida (1497 yil noYabr’ – R.V., H.E.) kelib arkta

Bo’stonsarog’a tushtum. Tengri taoloning inoyati bila Samarqand Shahri va viloti muyassar va musaxxar bo’ldi» (43-bet). Sharqning eng yirik, boy va mashhur Shaharlaridan biri bo’lgan Samarqandning qo’lga kiritilishi Yosh hukmdorni nihoyatda sevintiradi. U keyinchalik «Boburnoma»da bu azim Shaharning tabiatiYu masjid va madrasalarini, Ulug’bek mirzo barpo etgan rasadxonaYu saroy va maqbaralarni ehtiros bilan tasvirlaydi. Afsuski, Bobur Mirzoning sevinchi uzoqqa cho’zilmaydi. Etti oy qamal ichida qolgan Shahar nihoyatda xarob holda edi. Ozuqa zahiralari tugagan, dehqonchilik o’zaro urushlar natijasida izdan chiqqan, Shahar aholisi aftoda bo’lib qolgan edi. Yosh hukmdor bu ahvoldan qutilish choralarini qanchalik izlamasin, biror maqbul tadbirni amalga oshirish imkondan tashqari edi. Bobur Mirzo qo’shinlari Samarqanddan hech qanday o’lja qo’lga kirita olmaydi. Avvalo, hukmdorlarining o’zi xalqni talashga mone’lik qiladi. Oqibatda oziq-ovqat tanqisligi seziladi, Shuningdek, askarlar uylarini sog’ina boshlaydilar. Bitta-bitta bo’lib qochishga tushadilar. «Boburnoma»da ta’kidlanishicha, avval Xonquli Bayonquli, Yana Ibrohim Bekchik, keyin esa mo’g’ullarning barchasi qochadi. Sulton Ahmad Tanbalning qochishi Yosh hukmdorga qarshi Yana bir fitnaning uyushtirilishiga omil bo’ladi.

«Bu fitnalarni angiz qilg’uvchi, mundin qochib borg’onlarni Yomonlikka tez qilg’Uchi xud Uzun Hasan xaromnamak ekandur,-deya ta’kidlaydi Bobur Mirzo.- Borchasi Ahmad Tanbal borg’on bila zohir va oshkora Yomonliq maqomida bo’ldilar» (49-bet). Yosh temuriyzoda Samarqandni qo’lga kiritish uchun qo’shin tortganida, Andijonni Ali Do’st tog’oyiga, Axsini esa Uzun Hasanga ishonib topshirgandi. Samarqanddek Shahri azim Bobur Mirzo tasarrufiga o’tganida esa u og’ir xastalikka duchor bo’ladi. «Andoqkim, to’rt kungacha tilim tutildi,- deya xotirlaydi muallif «Boburnoma»da, - og’zimg’a paxta bila suv tomizurlar erdi. Mening bila qolg’on bek va begot va yigit Yalang mening tirilmagimdin ma’Yus bo’lub, har kim o’z fikrida bo’ldilar» (50-bet). Bobur Mirzo Xoja Abdullo Mavlono qozini qochoqlarning ba’zilarini jazolash, ba’zilarini esa qayta Samarqandga Yuborish niyatida Uzun Hasanning oldiga jo’natadi, biroq Uzun Hasan Bobur Mirzoga qarshi uyushtirilgan fitnaga boshchilik qilmoqda edi. Bu orada u Ahmad Tanbal bilan til biriktirib, Axsi va Andijonni Jahongir Mirzoga olib berish payida bo’ladi.

To’lun Xoja Bobur Mirzoga e’tiqodli bo’lgan mo’g’ul beklaridan edi. U ham qochoq mo’g’ul askarlariga nasihat qilib, ularni hukmdorlariga itoat qilishga chaqirish vazifasi bilan Farg’ona viloyatiga Yuboriladi. Biroq g’aflatda qolgan To’lun Xoja Uzun Hasan va Ahmad Tanbal tomonidan

mag’lub etiladi hamda o’ldiriladi. Xoja Mavlono Abdullo qozi Xoja Ubaydulloning muridlaridan bo’lib, Bobur Mirzo oilasi e’tiqod qo’ygan pirlardan edi. Bu ulug’ zot Bobur Mirzoning davlatxohligi uchun o’z ixtiyoridagi o’n sakkiz ming bosh qo’yni Shu hukmdorga xayrixoh bo’lgan yigitlarga ulushadi. Andijon taxti tobora tahlika ostiga qola boshlagan davrda Boburning onasi Qutlug’ Nigorxonim va eson Davlatbegim bilan kengashib, Samarqand hukmdoriga bir necha marta maktub Yuboradilar. Natijada Samarqanddek Shahri azimda Yuz kun hukmdorlik qilgan Bobur Mirzo 1498 yilning fevralida Andijonga safar qilishga majbur bo’ladi. Bir hafta yo’l Yurib Bobur qo’shinlari Xo’jandga kirib keladi. Bu orada bir kishi Yosh hukmdor Samarqandni tashlab chiqqan kuni Ali Do’st tog’oyi Andijonni isyonchilarga topshirganihaqidagi xabarni yetkazadi. Ma’lum bo’lishicha, isyonchilar Andijonni qamal qilganda, Uzun Hasan Bobur Mirzoning betobligi, uning tili tutulib, og’ziga paxta bilan suv tomizayotganliklarini Ali Do’st tog’oyiga aytib ont ichadi. Bundan sarosimaga tushgan Ali Do’st tog’oyi isyonchilarga qal’ani ochib beradi. Bobur Mirzoning Xo’jandga yetib kelganidan xabar topgan «munofiqi namakharom mardak» (Uzun Hasan – R.V., H.E.) Xoja Abdullo Mavlono qozini ark darvozasida beizzatona osib Shahid qiladi. Bu voqea Yosh temuriyzodaga nihoyatda qattiq ta’sir ko’rsatadi. «Boburnoma»da uning tafsilotlari quyidagi alamli jumlalarda o’z ifodasini topgan: «... to podshoh bo’lub edim, to o’zumni bilib edim, bu yo’sunluq ranj va mashaqqatni bilmaydur edim» (51-bet).

Andijonni deb Samarqandni qo’ldan ketgazish va taqdirning alamli «hazil»lariga duchor bo’lib bir yo’la har ikkalasini boy berishdek muvaffaqiyatsizligu Yutqazishlar metin iroda sohibi bo’lgan Bobur Mirzo belini bukolmaydi. U ota meros saltanatni tiklash niyatida tog’asi, Toshkent hokimi Mahmudxondan madad so’raydi. Birgalikda Andijonni egallash uchun olib borilgan janglar natija bermaydi. Bobur Mirzo goh Xo’jand, goh O’ratepa, goh Konibodom atrofidagi qishloqlarda bo’lib, tog’alarining ko’magi bilan ba’zan Andijonga, ba’zan esa Samarqandga tahdid solib turdi. Nihoyat, Xo’jandga etib keladi, ammo bu er nisbatan kichikroq qasaba bo’lgani bois Bobur tasarrufidagi ikki Yuzdan ortiqroq qo’shinni zo’rg’a saqlab turishi mumkin edi. Shu sababli Bobur Mirzo O’ratepani idora qilib turgan Yana bir tog’asi Muhammad Husayn Ko’ragon do’g’latdan Yor Yayloq kentidagi Pashog’ar qishlog’ida qishlashga ruxsat so’raydi. Bu er Xoja Abdullo Mavlono qoziga qarashli bo’lib, u Samarqand yo’lida joylashgani uchun Bobur Mirzoga juda ma’qul manzil edi. Sarson-sargardonlikda kun kechirayotgan Yosh hukmdor ko’nglida xiralashib qolgan umid chirog’i fatilasini tozalab unga

qayta yolqinlashish baxtini hadya etgan muhim voqea ham aynan ana shu muqaddas zaminda Yuz beradi. «Boburnoma»da hikoya qilinishicha, Xoja Abulmakorim ham quvg'inga Uchrab, darbadarlikda umr kechirayotgan edi. Bu ulug' zot Bobur Mirzoning ahvolidan xabar topib, unga juda aChinadi va Yosh hukmdor haqiga duo qiladi. Bu hol Bobur Mirzoga qattiq ta'sir qiladi. Shu kuni peshin namozi vaqtida dara tarafda bir otliq paydo bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha u Ali Do'st tog'oyining navkari ekan. Otliq unga bir maktubni tutqazadi. Unda Bobur Mirzo gunohidan kechsa, Ali Do'st tog'oyi Marg'ilonni uning ixtiyoriga topshirishi bayon qilingan edi. Bobur Mirzo kutilmagan bu taklifni qabul qiladi va Uch kun yo'l Yurib, Ali Do'st tog'oyining xoinlik yo'lini tutmasligiga ishonch hosil qilishgach, ikki Yuzu qirq kishiga Yaqin qo'shin bilan Marg'ilonga kirib boradi. Boburning hukmronligi Ahmad Tanbal va Uzun Hasanning zolimligidan ko'p aziYat chekkan xalq uchun nihoyatda zarur edi. Shu bois o'z hukmdoriga xoinlik qilgan bu ikki ittifoqChining Marg'ilonni qamal qilishi ularga hech qanday naf keltirmaydi. Bu orada Bobur Mirzo tomonidan Andijonning janubiga Yuborilgan Qosimbek boshchiligidagi Yuz kishilik qo'shin Ibrohim Sori askarlarini Axsi qal'asigacha quvib boradi. Vaziyatning bunday tus olganidan xabar topgan Uzun Hasan Marg'ilon qamaliga jalb etilgan to'dasini Axsi tomon harakatlanishga bo'yruq beradi. Uning yigitlari Sirdaryoni kesib o'tishda Boburning otliq askarlarga asir tushadi va o'limga mahkum etiladi. Uzun Hasanning Andijonga chekinishdan boshqa chorasi qolmaydi. Biroq Shahar hokimining Bobur tomoniga o'tgani u va hamrohlarini juda tang ahvolga qoldiradi. Nihoyat, Uzun Hasan o'zi boshqarib turgan Axsi qo'rg'oniga, Ahmad Tanbal va unga qo'shilgan Jahongir Mirzo esa O'shga tomon yo'l oladi. Shunday qilib, ikki yillik sarson-sargardonlikdan so'ng, hijriy 904 yil zulqa'da (1499 yil iYun') oyida 16 Yoshli Bobur Mirzo otameros poytaxti Andijonni qayta egallaydi. Ahmad Tanbal O'shga etib borgach, tayoq va toshlar bilan qurolllangan xalqning g'azabiga Uchraydi. Bu erda o'zining ortiqchaligin anglagach, Jahongir Mirzo bilan hamkorlikda Qashg'arga Yaqin tog'lar orasidagi Yorkent tomon ketadi. Axsida Bobur mirzoning ta'qibiga duchor bo'lgan Uzun Hasan esa mag'lubiyatini tan olib, mol-mulki, oilasi va hamrohlari bilan birgalikda Qorategin orqali Hisorga yo'l oladi.

Bobur Mirzoning mo'g'ul askarlariga javob berib Yuborishi, o'zining mardona tan olishicha, «bemulohaza hukm qilg'oni» edi. Bunga Yosh hukmdor atrofidagi beklarning qo'lga kiritilgan mol-mulkni Uzun Hasandan qolgan mo'g'ul askarlari bilan baham ko'rishni istamaganliklari sabab bo'ldi. Askarlari soni oz bo'lgan Bobur Mirzoning ehtiyotsizlik bilan chiqargan bu

hukmi to’rt mingga Yaqin mo’g’ul askarlarining Ahmad Tanbal tomon o’tishiga imkon Yaratdi. Shuningdek, Toshkent hokimi Mahmudxonning o’g’li Sulton Muhammad Xonikaning besh-olti ming kishilik qo’shini ham Ahmad Tanbalning iltimosiga ko’ra unga ko’makka keldi. Shunday bo’lishiga qaramay, Borbur Mirzo bek va askarlari dushmanga qarshi mardonavor kurash olib borishdi. O’sh, O’zgand, Andijon, Xo’tan, Koson qal’asi, Axsi, Beshharan qal’asida Bobur Mirzo qo’shinlari goh dushman bilan Yuzma-yuz keldi, goh turli tadbirlarni amalga oshirdi. Ahmad Tanbal Beshharan qal’asida Yashiringanda, natijasiz urushlardan bezgan Ali Do’st, Qambar Ali singari sarbozlar Boburni sulh tuzishga ko’ndirishga harakat qildilar. 1500 yil fevral’ oyi oxirida tuzilgan sulhga ko’ra, Axsi, Koson va ular atrofidagi mulk Jahongir Mirzo ixtiyoriga o’tadi. Sirdaryo Bobur va Jahongir Mirzo saltanati o’rtasida chegara sifatida belgilanadi. Andijon va boshqa qasabalar Bobur Mirzo tasarrufida qoladi. Shuningdek, Shahzodalar mamlakat ishlarini yo’lga qo’ygach, birgalikda Samarqandga Yurish qilishi, Samarqand qo’lga kiritilsa, uning taxti Bobur Mirzoga, Andijon esa Jahongir Mirzoga berilishiga ham kelishiladi.

Movarounnahrda Shahzodalar o’rtasidagi ziddiyatlar tobora keskinlashib bormoqda edi. Bunday muxolifat Sulton Ali Mirzo va Muhammad Majid Tarxon o’rtasida ham paydo bo’ladi. Bu Shahzodalar hamkorligidan hech ish chiqmasligi aniq edi. Sulton Ali Mirzo mo’g’ullardan Abdulvahob degan kishini Bobur Mirzo huzuriga Yuborib, uni Samarqandga kelishga da’vat etdi. Bobur Mirzo Jahongir Mirzoga kishi Yuborib, zudlik bilan Samarqandga Yurish qilishini xabar qiladi. Axsida tuzilgan sulh Jahongir Mirzo tomonidan Bobur Mirzo saltanati hududiga daxl qilish imkonini bermasdi. Biroq Bobur qo’shinlari Quvaga yetib kelganda, Ahmad Tanbalning ukasi Xalil O’shga hujum qilgani ma’lum bo’ladi. Bobur Mirzo bo’lib o’tgan voqeadan qanchalik ranjimasin, Samarqand tomon Yurishni Yana davom ettiraveradi. Yosh hukmdor Ali Do’st va Qambar Ali singari ulug’ beklarning keyingi harakatlaridan ularga tayanish har doim ham Yaxshilikka olib kelmasligini sezib qoladi. Shuningdek, Muhammad Majid Tarxon boshliq beklar ham Mir Mo’g’ulni Yuborib, Andijon hukmdorining Samarqandga kelishiga ko’z tikib turishgandi. Shunday qilib, Bobur Mirzo; «Samarqanddek poytaxt turg’uncha, ne kiroyi ul qilg’aykim, Andijondek er uchun kishi avqot zoe’ qilg’ay» (70-bet), -degan fikr bilan yo’lda davom etadi.

Bobur Mirzo qo’shinlari O’ratepaga yetib kelganda, Shayboniyxon DabusiYa qal’asida Boqi tarxonni mag’lubiyatga Uchratib, Buxoroga Yurish qilgani haqida xabar keladi. Xon Yurti deb nomlangan manzilda Majid tarxon

boshliq Samarqand beklari Bobur Mirzoni iliq kutib olishadi. Beklar bilan birgalikda o’tkazilgan mashvaratdan Samarqandning yirik din peshvolaridan biri Xoja YAhYoning nufuzidan foydalanib Amir Temur poytaxtini jangsiz qo’lga kiritish mumkinligi ma’lum bo’ladi. Biroq Xoja YAhyoga Yuborilgan vakil tayinli javob keltirmaydi. Bobur Mirzo va unga hamroh bo’lgan beklar Shahrisabzga etib kelishadi. Bu erda bir-ikki hafta bo’lganlarida, Sulton Ali Mirzo Samarqandni Shayboniyxon ixtiyoriga topshirganligi ayonlashadi. Voqea tafsilotlarini hikoya qilgan «Boburnoma» muallifi uning sababini Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabegimning «bilmasligidin va beaqllig’idin» ekanligini ta’kidlaydi. Zuhrabegim o’zining oshiqona maktubida Shayboniyxonga turmushga chiqsa, o’g’li unga Samarqandni jangsiz topshirishini bayon qiladi. Bundan ustalik bilan foydalangan Shayboniyxon Shaharni qo’lga kiritgach, Sulton Ali Mirzoni qatl ettiradi. Zuhrabegimni navkarlaridan biriga in’om qiladi. Xoja YAhyoga Xurosonga ketishga ruxsat beradi va ketidan kishi qo’yib, uni ham o’ldirtiradi. Shunday qilib, 1500 yilda temuriylarning ko’hna poytaxti Muhammad Shayboniyxon tasarrufiga o’tadi.

Bir muddat Shahrisabz – Hisor hududlarida sarson-sargardon kezgan Bobur Mirzo Samarqand xalqining ko’magiga ishonib, ikki Yuz qirq kishilik navkari bilan Shaharga hujum qiladi. Etmish-sakson chog’li Bobur yigitlari tunda qal’aga norvon qo’yib, Feruza darvozasini egallaydilar. Tong otishiga Yaqin Bobur Mirzo Samarqandga kirib keladi. Bo’lib o’tgan voqeadan Shahar ahli hali to’la xabardor emas edi. Temuriy hukmdorni tanib qolgan do’kondorlar u haqda duo qilishardi. Ko’p o’tmay Shahar xalqi voqeadan xabar topadi. Qo’llariga tosh va tayoq ko’targan kishilar to’rt Yuz-besh Yuz chamasi Shayboniy tarafdorlarini o’ldirishdi. Nihoyat, etti ming askariy quvvatga ega bo’lgan tajribali hukmdor Shayboniyxondan juda oz miqtordagi qo’shin bilan 19 Yoshli temuriyzoda Samarqandni tortib oldi. Xalq Bobur Mirzoni qo’llab-quvvatlashda davom etadi. SHovdor, Sug’d va atrofdagi qo’rg’onlar uning idorasi ostiga o’ta boshlaydi. Shayboniyxon Buxoroga chekindi. Bu orada Boqi tarxon Qarshi, G’uzorni, Abulmuhsin Mirzo Qorako’lni qo’lga kiritadi. Shayboniy qo’shinlari har tarafdan quvilib, Buxoro atrofida to’planishga majbur bo’lishadi.

Yosh temuriy hukmdorning qadimiy poytaxtni nihoyatda xavfli va tajribali dushmandan tortib olishi xabari Xuroson poytaxti Hirotga ham etib boradi. Bobur Mirzo Ulug’ shoir va davlat arbobi Alisher Navoiydan maktub oladi. Ayni choqda xatga javob Yozib, unga turkiy bayt ham bitganligini e’tirof etgan «Boburnoma» muallifi o’zining «kitobati»ga Ulug’ shoirning javobi etib kelguniga qadar «tafrika va g’avg’o» bo’lganligini bayon qiladi. Bobur Mirzo

endigina badiiy ijod bilan Shug’ullanib She’r mashq qila boshlaganini inobatga olsak, Ulug’ shoir Alisher Navoiyning maktubi siyosiy mavzuga, aniqrog’i, Shayboniyxonni mag’lub etgan Bobur Mirzoning ulkan g’alabasiga bag’ishlangan bo’lishi ehtimoldan xoli emas.

Bobur Mirzo Andijondan chiqqandan so’ng, uning oila a’zolari Yuz tashvish va mashaqqatlar bilan O’ratepaga etib kelishgandi. Samarqand fathidan nihoyatda shodlangan Yosh hukmdor oilasini bu azim Shaharga olib keladi. U amakisi Sulton Ahmad Mirzoning qizi Oyisha Sultonbegimni o’z nikohiga olgan edi. Ko’p o’tmay Samarqandda to’ng’ich farzandi Faxruniso dunyoga keladi, biroq bu shodlik uzoq davom etmaydi. Faxruniso chillasidan chiqmay vafot etadi.

Bobur mirzo o’zini Buyuk poytaxt taxtida ko’rib qanchalik quvonsa, har zamon tahdid solish xavfi kuchli bo’lgan Shayboniyxonning ulkan qo’shinidan ham Shunchalik tashvishlanardi. Bu tashvish Yosh hukmdordan juda ko’p ulkan vazifalarni bajarishni talab etardi. Buni teran idrok etgan Shahzoda Samarqand mudofaasini mustahkamlash maqsadida Yon atrofdagi temuriylar saltanati hukmdorlariga elchilar Yuborib, ulardan Yordam so’raydi. Toshkent hokimi Sulton Mahmuddan to’rt –besh Yuz, Jahongir Mirzodan Ahmad Tanbalning inisi Xalil boshchiligida Yuz-ikki Yuz kishilik qo’shin ko’makka keladi. Biroq: «Sulton Husayn Mirzodek sohib tajribalik podshohdinkim, SHaboqxonning af’ol va atvorini Mirzodin YaxShiroq kishi bilmas edi, hech kishi ko’makka kelmadi. Badiuzzamon Mirzodin ham kishi kelmadi. XusravShoh xud o’zining tavaxxumidin kishi Yubormadi» (79-bet). Temuriy hukmdorlar orasidagi bunday parokandalik o’zining bahodirona ruhi, mustahkam irodasi va uzoqni ko’ra bilish qobiliyati bilan Shuhrat qozongan Bobur Mirzoning Yakkalanib qolishiga sabab bo’ldi. Bundan foydalangan Shayboniyxon 1501 yilning bahorida Yana qo’shin to’play boshlaydi. Qorako’l, DabusiYani qayta qo’lga kiritib, Samarqandga tahdid soladi. Shu yili may oyining boshlarida Shayboniyxon o’z xatti-harakatlari bilan raqibini jang maydoniga jiddiy hozirlik ko’rishga majbur etadi. Ora-sira kichik to’qnaShuvlar bo’lib turdi. Boqi tarxon ming-ikki ming kishilik qo’shini bilan Keshga kirib borgan edi, ikki kun orasida Bobur Mirzoga kelib qo’shilishi taxmin qilinardi. Toshkent hokimi Sulton Mahmud tomonidan Yuborilgan Sayid Muhammad Mirzo do’g’lat tongga Yaqin ming-bir Yarim ming kishilik lashkari bilan ko’makka kelishi kutilardi. Munajjimlarning Yanglish ma’lumotlari Bobur Mirzoni madadga chiqqan kuchlar etib kelmasdan jangga kirishga undadi. Qo’shin to’rtga bo’lindi. Ko’hak daryosi bo’yida raqib bilan ro’baro’ bo’lindi. Natijada Bobur Mirzo qo’shini juda katta talofatga Uchradi.

Ibrohim tarxon, Ibrohim Soru, Ahmad Tanbalning ukasi Xalil hamda ularning eng Yaxshi yigitlari jang maydonida halok bo'lishdi. Shayboniyxon qo'shiniga qarshi chiqish halokatga olib keladi, deb o'ylagan Mazid tarxon, Qambar Ali singari ulug' beklar XusravShoh tomonga qochishdi. erta tongda Xoja Abulmakorim, Qosimbek va boshqa beklar bilan mashvarat o'tkazib, Samarqand qo'rg'onini berkitishga qaror qilinadi. Yosh hukmdor Shahar markazidagi Ulug'bek madrasasining tomi ustida oq uy o'rnatib, Qosimbek bilan mudofaani boshqarib turdi.

Og'ir kunlar boshlandi. Keyingi yillarda Samarqand tez-tez Yuz berib turgan o'zaro urush va isyonlar tufayli boyliklari talnagan, ancha kuchsizlanib qolgan edi. Shayboniyxonning besh oylik qamaliga qarshi Bobur Mirzoning o'ziga Yaqin beklar va sarbozlari hamda xalq ommasi jasorat ko'rsatishlariga qaramay, ochlik, suvsizlik Shahar aholisining tinka madorini quritdi. «Elga bisYor tanqislik bo'ldi,- deya xotirlaydi «Boburnoma» muallifi. – Anga ettikim, faqir va miskin it etini, eShak etini yiYa kirishtilar. Otqa bo'g'uz kam yoft bo'ldi. Daraxtlarning bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba bo'ldikim, bori afroqlardin tut Yafrog'i va qora yig'och Yafrog'i otqa sozvorroq emish. Ba'zi quruq yig'ochlarning randa qilib, taroshasini suvg'a ivitib otg'a berurlar edi» (83-bet). Oziq zahiralari tugab, atrofdan biror bir madad kutishga umid qolmagach, sarbozlar bir-ikki kishi bo'lib qocha boshlaydi. Bu orada Shayboniyxon sulh taklif qiladi. Hech qanday umidi qolmagan Bobur Mirzo sulhga rozilik beradi. Parokandalikka Yuz burgan temuriy hukmdorlarning noahilligi tufayli ulkan g'alabasini mudofaa qila olmagan Yosh Shahzoda azim Shahar Samarqandning Shayxzoda darvozasidan ichkilari bilan chiqib ketadi. Biroq Bobur Mirzoning opasi Xonzodabegim Shayboniyxonga asir tushadi va unga turmushga chiqishga majbur bo'ladi.

1501-1502 yillar Bobur Mirzo hayotida sarson-sargardonchilikning achchiq alamlari bilan qarshilashish davri bo'ldi. O'lim tahlikasidan zo'rg'a qutilgan Yosh Shahzoda va uning hamrohlari Jizzaxda ochlik shiddatidan ham birmuncha xalos bo'ladilar. Ular O'ratepaga etganlarida, Bobur Mirzoning xolasi Xo'b Nigorxonim olamdan o'tganligi haqida xabar keladi. Qon-qarindoshlari bilan ko'rishmaganiga 13-14 yil bo'lgan Qutlug' Nigorxonim Toshkentga yo'l oladi. Bobur Mirzo esa O'ratepa hukmdori Muhammad Husayn Mirzo Do'g'latdan Dehkat qishlog'ida qishlashga ruxsat oladi. Bir necha kun o'tgach, Bobur Mirzo ham Toshkentga, tog'asi Sulton Mahmudxon huzuriga boradi. Xon O'ratepani Bobur Mirzoga berishni ma'lum qiladi, biroq Muhammad Husayn Mirzo bu ishni amalga oshirmaydi. Bobur Mirzo yigitlaridan ayrimlari u bilan Dehkatda birga qolishni istamay Andijonga ketish

uchun ruxsat so’raydi. Qosimbek bu kishilar bilan Shahzodaning kiyimlaridan birini ukasi Jahongir Mirzoga Yuborishni maslahat beradi. Bobur Mirzoo ukasiga bo’rkini in’om qilishni lozim topadi. Qosimbek Ahmad Tanbalga ham biror sovg’a Yuborishni so’raganda, Shahzoda garchi istamasa-da, o’zi uchun No’Yon Ko’kaldosh Samarqandda tayyorlagan katta qilichini jo’natadi. Keyingi janglarning birida Ahmad Tanbal ixtiyoriga o’tgan Shu qilich Bobur Mirzoning boshini nishonga oladi. Dubulg’aning mustahkamligi uning salomatligini saqlab qoladi.

Samarqandda mustahkam o’rnashib olgan Shayboniyxon Toshkent xoniga qarashli Shohruhiya va Beshkentga hujum uyushtirganda, Bobur Mirzo tog’asiga Yordamga otlanadi. Sovuqning shiddatidan kunda ikki-Uch kishi halok bo’lardi. Yosh Shahzoda suvning tez oqishidan faqat o’rtasi muzdan bir oz xoli bo’lgan arig’da 16 marta sho’ng’ib atrofdagilarni ko’rsatgan jasorati bilan katta dushmaniga qarshi kurashga da’vat etadi. Shayboniyxon bahor kelishi bilan O’ratepani talab ketganida, Bobur Mirzo Maschoda edi. U bu erda uysiz, vatansiz tog’lar orasida sarson-sargardon Yurishidan naf yo’qligini o’ylab Yana Sulton Mahmudxon oldiga borishga qaror qiladi. Xuddi Shu payt Ahmad Tanbal o’z qo’shinlari bilan xonga qarshi yo’lga chiqqandi. Bu urush Sulton Mahmudni ancha cho’chitib qo’yadi. Bobur Mirzo Toshkent xoniga kichik tog’asi Sulton Ahmad – Olachaxon bilan birgalikda Shayboniyxonga qarshi kurashish rejasini aytmoqchi bo’lib turgan paytda Olachaxon bir Yarim mingga Yaqin navkar va Bobur Mirzoga mo’g’ulcha sovg’a-salomlar bilan kirib keladi. O’zaro keluShuvga ko’ra Ahmad Tanbalga qarshi kurashda Bobur Mirzoga omad kulib boqadi. U osonlik bilan O’shni qo’lga kiritadi. O’zgand aholisi kishi Yuborib Shaharni Yosh temuriyzoda ixtiyoriga topshirishadi. Marg’ilon xalqi Shahar dorug’asini urib quvlab Yuboradilar. Shunday qilib, Andijonni hisobga olmaganda, Sirdaryo janubidagi Farg’ona viloyatining katta qismi Bobur Mirzoni o’z hukmdorlari sifatida tan oladi. Andijon qal’asini zabt etish uchun olib borilgan kurashda Ahmad Tanbalning Andijondagi hukmronligiga chek qo’yadi. Sulton Mahmudxon Andijon va daryoning quyi qismidagi erlarni Sulton Ahmad Olachaxonga berishga qaror qilganini e’lon qiladi. Bobur Mirzoga esa Axsi beriladi. Shayboniyxonga qarshi kurashda Samarqand qo’lga kiritilgach, u Yosh temuriyzodaga, Axsi esa Olachaxonga topshirilishiga kelishib olinadi. Shu orada Ahmad Tanbal Shayboniyxonga kishi Yuborib, unga itoat qilishini va birgalikda mo’g’ul xonlariga qarshi kurashish istagini bildiradi. Shayboniyxonning Farg’ona viloyatiga Yurish qilish haqidagi xabaridan sarosimaga tushgan mo’g’ul xonlari orqaga chekinadilar. Ularning O’sh va Marg’ilonda qo’ygan ishonchli kishilarini xalq

haydab chiqaradi. Bobur Mirzo bo’lib o’rgan voqealarga qanday baho berishga hayron qoladi. Vaziyatning o’z foydasiga hal bo’lganiga ko’zi etgan Ahmad Tanbal bir kuni tongda Uch ming qurolli qo’shini bilan Yakkalanib Axsi qo’rg’oniga qolgan Bobur Mirzoga qarshi tasodifan hujum qiladi. Ayovsiz va tengsiz jangda Bobur Mirzo qal’adan zo’rg’a qochib qutiladi. Axsi Yaqinidagi Sang degan manzilga etganlarida hamrohlari bilan 8 kishini tiashkil qilardi, xolos. Fidoyi beklar Yosh hukmdorni yolg’iz qochib ketishiga imkon berishadi. Bobur Mirzo nihoyatda mustahkam irodasi, g’ayrat-shijoati bilan keyinchalik Yana Andijonda, tog’alari huzurida to’rt oy turadi. Movarounnahshrda markazlashgan davlat barpo etishga ko’zi etmagach: «... tokay bu Farg’ona viloyatida sargardon bo’lub turmoq kerak, bir tarafga talab qiloyin», (108-bet) – degan fikr bilan Xuroson sari yo’l oladi.

Xuroson mamlakati o’z davrining eng kuchli hukmdorlaridan bo’lgan Sulton Husayn Boyqaro tomonidan idora etilardi. Bobur Mirzo ikki ukasi, jiyani Mirzoxon va jami ikki Yuz-Uch Yuz kishilik hamrohlari bilan safarga otlanadi. Hisor vodiysi va Qunduz hukmdori XusravShohga Yuborilgan elchi undan «ko’ngulga yoqqudek so’z keltirmadi». Bu temuriyzodadan zulm ko’rgan ko’plab sarboz va lashkarboshilar Bobur Mirzoga kelib qo’shila boshlaydi. QabadiYonga yetib kelganda, akasi XusravShoh bilan arazlashib qolgan Boqi CHag’aniYoniy Bobur Mirzoga kishi Yuborib uni o’z hukmdori sifatida tan oladi. Shayboniyxon Agdijonni qo’lga kiritib, Hisor va Xurosonga hujum qilish xavfi tobora kuchayib borayotgan bir paytda, unga qarshi mardonavor kurasha oladigan Bobur Mirzoning Shuhrati orta boshladi. Husayn Boyqaroning Shayboniyxon hujumiga qarshi mudofaani mustahkamlash haqidagi Bobur Mirzoga yo’llagan xati ko’plab jangu jadallar Shohidi bo’lgan Yosh Shahzodani qanoatlantirmaydi. U kuchli g’anim ustiga birgalikda hujum qilish tarafdori edi. Shayboniy qo’shinlari shitob bilan Qunduz tomon yo’llanganini eshitgan XusravShoh mudofaani ta’minlay olishiga ko’zi etmay Shaharni tashlab chiqadi va Bobur Mirzoga odam Yuborib, o’zining taslim bo’lganini ma’lum qiladi. XusravShohdan Yuz o’girgan askar va qabilalar hisobiga son jihatidan ancha ko’paygan, Shuningdek, undan qolgan qurol, sovut, ot anjomlari bilan o’zini tiklab olgan Bobur Mirzo uchun o’zaro urushlardan kuchsizlanib qolgan Kobul taxtini egallash nihoyatda muhim edi. 1504 yilning oktYabrida hududi ancha kichik bo’lgan Farg’ona viloyatini tashlab, sarson-sargardonlikni boshidan kechirgan Bobur Mirzo Kobul va G’aznani jangsiz qo’lga kiritib, ulkan davlat taxtini egallaydi.

1505 yilning iYun’ oyida Bobur Mirzoning onasi Qutlug’ Nigorxonim vafot etadi. Bu davrda Hisor va Qunduzni bo’ysundirgan Shayboniyxon

Samarqandga borib Yangi Yurishlarga hozirlik ko’rmoqda edi. U Xorazmni bosib oladi, Balxni qamal qiladi. Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro Shayboniyxonga qarshi kurashda Bobur Mirzoni ham taklif qiladi. Uning: «... Sulton Husayn Mirzodek Temurbek o’rnig’a o’lturg’on ulug’ podshoh yig’noq qilib, atrof va javonibdin o’g’lonlari va beklarini tilatib, Shayboniyxondek g’animning ustiga ozim bo’lg’onda el oyoq bila borg’onda, biz bosh ila borg’aymiz, el tayoq bila borg’onda – biz tosh ila borg’aymiz» (146-bet),- degan fikrlari bu taklif unga nihoyatda ma’qul bo’lganidan dalolat beradi. Biroq o’z davrining yirik hukmdori bo’lgan ikki temuriyzoda ko’risha olmaydilar. 1506 yilning may oyida Sulton Husayn Boyqaro vafot etadi. Uning taxti ikki o’g’li: Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzolar tomonidan boshqarila boshlandi. Shayboniy qo’shinlari Balxni bosib olib, Badaxshonga tahdid sola boshladi. Temuriy hukmdorlar 1506 yilning 26 oktYabrida Murg’obda to’planishdi. Kuchli g’animga qarshi birgalikda kurash ko’klamda amalga oshirilishi rejalashtirildi. Shundan so’ng Bobur Mirzo Badiuzzamon va Muzaffar Mirzolarning taklifi bilan Hirotga yo’l oldi. U erda Sulton Husayn Boyqaro maqbarasini ziYorat qiladi. «Bog’i Navda bir necha kun bo’ldim,- deya xotirlaydi Bobur, - ani munosib ko’rmay Alisherbekning uylarini tayin qildilar. Hiriydan chiqquncha Alisherbekning uylarida edim» (170-bet). Alisher Navoiy istiqomat qilgan uy UnsiYa deb nomlangan. Ulug’ shoir vafot etgan bo’lsa-da, UnsiYadagi avvalgi tartib hali o’zini saqlab turardi. Yigirma kun davomida Hirotda yashagan Bobur Mirzoning siyosiy faoliyat bilan bir qatorda, adabiy faoliyatga bo’lgan mayli ham orta boshladi. Unga Hirotda qishlash taklif qilinadi, biroq u etarli mulozamat ko’rsatilmaganligi hamda toju taxtdan xavotiri ortib borgani bois Kobulga yo’l oladi. Qosimbekning taklifi bilan Qandahor yo’li yiroq bo’lganligidan tog’ yo’lidan borishga qaror qilinadi. Qor yog’a boshlagan edi, bu erlarda hatto Yozda Yurish ham mashaqqat edi. CHaxcharon degan manzilga etganlarida, qor otning uzangisiga etadi, aksar erlarda otning oyog’i erga tegmas edi. Boz ustiga, yo’l boshlovchiga ehtiyoj tug’iladi. Mahalliy aholidan biror kishini boshlab kelishga Yuborilgan yigitlar Uch-to’rt kun o’tib, yo’lni puxta biladigan kishini topolmay qaytadilar. Umrida bunday mashaqqatga kamroq duch kelgan Bobur Mirzoning ko’nglida kechgan fikrlarini badiiy jilolantirgan quyidagi matlasi tiliga kela boshlaydi:

CHarxning men ko’rmagan javru jafosi qoldimu,
Xasta ko’nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?

Mashaqqatli kunlar o’tib Kobulga etganlarida, Bobur Mirzo Yana qarindoshlarining pand berib qo’yganlariga guvoh bo’ladi. Kobul saroyida tarqalgan mish-mishlarga ko’ra, Xuroson beklari va mirzolari Bobur Mirzoni

hibsga olib zindonga tashlagan emishlar. Temuriyzodaning ona tarafidan buvisi Shoh Begim o’zining sevikli nevarasi Xonmirzo (asli ismi Sulton Vays)ni Shoh qilib ko’tarish maqsadida Shaharda qolgan mo’g’ul beklarini birlashtirib, uning nomiga xutba o’qittirish taraddudida edi. Isyon bartaraf etiladi. qarindoshlar kechiriladi.

Shayboniyxon Balxni qo’lga kiritgach, jang maydonini kengaytirishga botinolmay Movarounnahrga qaytadi. Bu qulay fursatdan foydalana olmagan temuriylar Xuroson taxtini dushman qo’liga topshirishga majbur bo’lishadi. 1507 yil may oyida katta qo’shin bilan Xurosonga kirib borgan Shayboniyxon Hirotni egallaydi. Mamlakatning boshqa viloyatlari ham sekin-asta Shayboniyxon idorasi ostida birlashadi. Ana shu janglarning birida uning lashkarlari Eron hududiga o’tib talonchilik qiladilar. Bundan g’azablangan Eronning qudratli hukmdori Shoh Ismoil mustahkam intizomli va janglarda Chiniqqan qo’shin bilan Xurosonga qarshi hujumga o’tadi. 1510 yilda Eron qo’shinidan katta talofat ko’rgan Shayboniyxon lashkarlari Marvda qamalda qolib yengiladi, hukmdori vafot etadi.

1507 yilda Bobur Mirzo temuriylar sulolasining ikkinchi poytaxti Hirot qo’ldan ketgandan so’ng, o’g’li HumoYun tug’ilgan Shu yilda o’zini podshoh deb e’lon qildi. Bu bilan Bobur Mirzo temuriylar sulolasi inqirozga Uchragan bo’lsa, u Yangi sulola boburiylarga asos solganini ma’lum qilgan bo’ldi. Shoh Ismoil Shayboniyxonga hujum uyushtirib turgan bir paytda Bobur Mirzo ham azaliy dushmaniga qarshi kurashdi. 1512 yilda u Amudaryodan kechib, Hisorga tomon yo’l oldi. Hisor, Ko’lob, Qunduz va Badaxshonni qo’lga kiritgan Bobur mirzo Movarounnahrda o’z hokimiyatini qayta barpo etishga intilardi. U Qunduzda bo’lganida, Shoh Ismoildan sovg’a-salom keltirgan elchilar Bobur Mirzo uchun sira kutilmagan voqeaning sodir bo’lishiga sabab bo’ladilar. Shoh Ismoil Bobur Mirzoning opasi Xonzodabegim va uning o’g’li Xurrambekni hurmat-ehtirom bilan elchilar hamrohligida ukasi oldiga jo’natgan edi. Bobur Mirzo bu davrda 28 Yoshda edi. O’n yillik ayriliqdan so’ng, opa-uka bir-birlariga qanday murojaat qilishlarini bilmas edilar. XurramShohga Balx hokimligi beriladi, biroq ikki yil o’tgach, u vafot etadi. Xonzodabegim qolgan umrini Kobulda, podshoh ukasi huzurida hurmat-ehtiromda o’tkazadi.

Bu voqea Shoh Ismoilning Bobur Mirzo bilan o’zaro ittifoq t’uzishiga zamin hozirladi. Xonmirzo o’z hukmdori nomidan Shoh Ismoilni ulkan g’alaba bilan tabriklab, Movarounnahrdagi avvalgi saltanatini tiklash haqidagi Bobur Mirzoning iltimosini unga yetkazdi. Shayboniyxon mag’lubiyatga Uchragan bo’lsa-da, uning qarindoshlari mamlakatning kuchli markazlarini o’z qo’llarida saqlab turar edi. Uning o’g’li Temur Sulton Samarqandda, jiyani Ubaydulloxon

Buxoroda, amakisining o’g’li Jonibek Sulton Andijonda, Abulxayrning o’g’li Ko’chimxon Turkistonda, uning o’g’li SuYunbek esa Toshkentda hukmronlik qilar edi. Bobur Mirzo Shoh Ismoildan madadga kelgan o’qchi askarlar, Yaqin atrofdagi qabilalardan qo’shilgan otlig’u piyodalar – jami oltmish mingga etib qolgan qo’shin bilan Qarshiga hujum qildi. Ubaydulloxon Qarshini tashlab Buxoroga yo’l oldi. Buxoro qo’lga kiritilsa, Qarshi o’z-o’zidan taslim bo’lishini anglagan Bobur Mirzo Ubaydulloxondan oldin Buxoroga etib boradi. Keyinchalik 1512 yilda Sohibqiron Amir Temurning poytaxti Samarqand Uchitnchi marta Bobur Mirzo ixtiyoriga o’tadi. Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, Bobur Mirzo tomonidan Shoh Ismoilning qizilboshlar qo’shiniga hurmat ehtirom ko’rsatishi sun’iy va shia mazhabi o’rtasida ixtilof chiqishiga sabab bo’ladi. Bulardan tashqari, Samarqand hukmdori qizilboshlar qo’shiniga qaytib ketish uchun ruxsat berishga bir oz Shoshiladi. Shoh Ismoilning Iroqqa ketganidan xabar topgan Shayboniyxon avlodlaridan bir qismi Toshkentga, Ubaydulloxon boshchiligidagi bir guruh esa Buxoroga otlanadi. SHiddatli janglardan so’ng Bobur Mirzo Buxorodan Samarqandga chekinishga majbur bo’ladi. Shahar qamal qilinadi. qishdan endigina chiqqan Shahar aholisi qamalga bardosh bera olmas edi. Qarshilik ko’rsatishning foydasiz ekanligini anglagan Bobur Mirzo poytaxtni tashlab, Hisor tomon yo’l oladi.

Dushman Hisorni qamal qilganda, Bobur Mirzo qo’l ostidagi askarlarini to’plab, zudlik bilan mudofaani tashkil qiladi va Shoh Ismoilning Balxdagi qo’shinlari qo’mondoni Bayramxondan Yordam so’raydi. Yordamchi kuchlar etib kelishi bilan Shayboniylar chekina boshlaydi. Shu orada Shoh Ismoil Amir Najim boshchiligidagi katta qo’shinni Bobur Mirzo huzuriga Yuboradi. Amir Najim, Bayramxon kelib qo’shilishi bilan Bobur Mirzo qo’shinlari oltmish mingga etadi. Bunday katta kuchga qarshilik ko’rsatishga ojiz bo’lgan Shayboniylar mudofaaga o’tishga majbur bo’lishadi. Qarshi qamal qilinganida, Shahar qal’asi Ubaydulloxon boshchiligida qattiq himoya qilinadi. Amir Najimning o’n besh ming kishilik Shahar aholisining Yoshi, jinsidan qat’iy nazar barchasini qilichdan o’tkazish haqidagi buyrug’ini Bobur Mirzo to’xtatib turishga urinadi. Biroq temuriyzoda bu jangda ikkinchi shaxs edi. Amir Najimning xunrezliklari mahalliy aholining g’azabini qo’zg’atdi. U G’ijduvonni qo’lga kiritish uchun hujumga o’tganda, muvaffaqiyatsizlikka duch keldi. Ubaydulloxonga Temur Sulton qo’shini kelib qo’shiilib, qo’qisdan Eron qo’shiniga qattiq zarba berdi. Yaxshi qurollangan Shayboniylar qizilboshlarni mag’lub etdi. Jangda Amir Najim o’ldirildi. G’ijduvondagi omadsizlik Eroniy qo’shinining tarqab ketishiga sabab bo’ldi. Shayboniylar qo’shinining ko’payishi va Movarounnahrda mustahkam o’rnashib olganliklari

Bobur Mirzoning qayta Buxoro va Samarqandni qo’lga kiritishiga umid qoldirmadi. Shoh Ismoil va Bobur Mirzo o’rtasidagi aloqa Shu tariqa xotima topdi. Movarounnahrda temuriylar hukmronligini tiklab, yirik va markazlashgan davlat tuzish uchun olib borilgan keyingi urinishlar ham natijasiz Yakunlandi. Bobur Mirzo Yana Kobulga qaytdi.

Temuriylarning ikkinchi poytaxti Hirot Shayboniyxon tomonidan istilo qilinishi BoburShohning Hindistonga bo’lgan ishtiyoqini Yanada orttirgan edi. Shunday bo’lishiga qaramay, u Hindistonday ulkan mamlakatni 1526 yilda o’z idorasi ostida birlashtirishga muvaffaq bo’ldi.

BoburShoh 1519-1525 yillarda Hindistonni egallash uchun hal qiluvchi keng miqyosli beshta jangni amalga oshirdi. Bu ulkan mamlakatni bo’ysundirish nihoyatda og’ir kechdi. «Boburnoma»da muallif ilgari Hindistonni fath etgan Sulton Mahmud G’aznaviy va afg’onistonlik Shahobiddin Muhammad G’uriylarning harbiy qudrati o’zining imkoniyatlaridan nihoyatda Yuqori bo’lganini ta’kidllaydi. Unda qayd etilishicha, Sulton Mahmud G’aznaviy Hindistonga Yurish qilganida, Xurosonday ulkapn mamlakat, Xorazm vohasi va Samarqand unga tobe’ edi. Son jihatidan nihoyatda katta bo’lgan qo’shini Yuz ming – ikki Yuz ming kishiga etar edi. Sulton Shahobiddin G’o’riy bu mamlakatga hujum qilganda, uning akasi Xuroson mamlakatining podshosi edi. Bir Yuz yigirma minglik qo’shin bilan bu o’lkaga kirib keldi. Har ikkala hukmdorga qarshilik ko’rsatgan kuch Hindiston rojalari bo’lib, bepayon bu mamlakat Yagona boshqaruv ostida birlashmagan edi. BoburShoh sarson – sargardonchilikning alamli kunlarini boshidan kechirib, vaqti-vaqti bilan ko’plab talofatlar ko’rib Yurt va saltanat ishtiyoqi bilan Hindistonga Yuzlandi. Uning idorasi ostida bo’lgan Badaxshon, Qunduz, Kobul va Kandahor viloyatlari zo’rg’a o’zini tutib turar, bu viloyatlar Yuz ming kishilik qo’shinga ega bo’lgan Shayboniylarga Yaqin bo’lganligi uchun ularga madad kuchlarini Yuborib turish zarurati mavjud edi. BoburShoh 1525 yilda beshinchi marta hal qiluvchi hujum uyushtirganda Hindiston mamilakati Behradan Bahorgacha Sulton Ibrohiy Lo’diy nomli afg’on tasarrufida edi. BoburShohning o’n ikki ming kishilik lashkariga uning Yuz ming kishiga Yaqin azamat qo’shini va mingta jangovor fili qarshi turardi.

Panjob viloyati zabt etilgandan so’ng, Dehli sultoni Ibrohim Lo’diyga qarshi kurashda BoburShohning kuchli harbiy salohiyati unga omad keltirdi. U «to’g’lama» deb nomlangan harbiy tadbirini amalga oshirib, Ibrohim Lo’diyga qattiq shikast yetkazdi, ikki-Uch oy vatandan yiroqda bo’lgan yigitlarining sustligini ko’rib BoburShoh ular oldida otashin nutq so’zladi. Barchani ruhini ko’tarib, jangga safarbar qildi. Zambaraklarni ishga soldi va otliqlardan

mohirlik bilan foydalanib Panipatda Ibrohim Lo’diyni mag’lubiyatga Uchratdi. 1526 yil 25 aprelda Dehlida BoburShoh nomiga xutba o’qildi. Shu bilan u Yangi sulola boburiylar sulolasining ulkan mamlakatiga asos soldi. Biroq xavf-xatar tamomila bartaraf etilgan emas edi. Hind va afg’on feodallari o’zaro ittifoq tuzib CHitora hokimi Rano Sango boshchiligida BoburShohga qarshi bosh ko’tardilar. Bo’lib o’tgan shiddatli janglar 1527 yilning 16 martida BoburShohning g’alabasi bilan Yakunlandi. Bu g’alaba Hindistonday ulkan mamlakatda turli din va millat vakillaridan tashkil topgan xalqlarning Yagona markazlashgan davlat boshqaruvi ostida uzil-kesil birlashtirdi. BoburShoh va uning avlodlari Hindistonning xo’jalik hayoti, madaniyati va obodonchiligiga katta e’tibor bilan qarashdi. Uning saroyida ko’pgina olimlar va Shoirlar to’planishdi. Mahalliy xalq vakillarining urf-odatlariga nihoyatda katta ehtirom bilan munosabatda bo’lgan BoburShoh farzandlariga ham bu masalaning muhim jihatlarini teran o’rgatdi. Natijada ulug’ bobosi faoliyatining davomchisi bo’lgan AkbarShoh hindlardan olinadigan g’ayridinlik solig’i – juz’Yani bekor qildi, ayrim qabilalarning vafot etgan erkak bilan tirik beva xotinini birga kuydirish odatini man qildi, boshqa turdagi mahalliy din urf-odatlariga xolis munosabatda bo’ldi. Shu va boshqa faoliyatlariga ko’ra yirik davlat va jamoat arbobi Javohirla’l Neru BoburShoh va boburiylar haqidagi o’zining Yuksak bahosini samimiy muhabbat bilan asarlarida bayon etdi.

Sarson-sargardonlikda kechgan umr, bir necha bor hayotiga suiqasd uyushtirilishi (jumladan, Hindistonda uning ovqatiga zahar solib beriladi), vatandan yiroqlik BoburShoh sog’ligiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. U «Boburnoma»da keltirilgan ruboiylarning birida kasallikning tobora xuruj qila boshlaganini bayon etadi:

Jismimda isitma kunda mahkam bo’ladur,
Ko’zdan o’chadur uyqu, chu oqShom bo’ladur.
Har ikkisi g’amim birla sabrimdek,
Borg’on sayi bu ortadur, ul kam bo’ladur.

Yigirma besh – yigirma olti kun davom etgan bu kasallik dori-darmon bilan o’nglanmaydi. Uyqusizlik va tashnalik BoburShohni holdan toydiradi. U hayotning achchiq-chUchugini ko’rgan tajribali podshoh sifatida Yaqinlariga vasiyatini ma’lum qiladi. HumoYunga adolatli siyosat Yuritishni, ukalari bilan oralarida bo’lgan gina-kudratlarni unutishni ta’kidlaydi. Umrini jangu jadallarda o’tkazgan BoburShoh 1530 yilning 26 dekabrida Agrada vafot etadi. Keyinchalik uning xoki vasiyatiga ko’ra Kobulga ko’chiriladi.

Bobur Mirzoning tumri to’s-to’polon, urush-yurishlarda o’tgan bo’lsa ham, o’z davrining ilg’or fani Yutuqlarini juda o’tkir va betakror aql-zakovati bilan puxta egalladi. Atigi qirq etti yil umr ko’rgan olijanob inson va ulug’ Shoh avlodlarga o’zining bebaho adabiy, ilmiy merosini qoldirdi. U yigirma Yoshida (1503 yilda) «Xatti Boburiy»ni kashf qildi. Sharq mumtoz adabiyotining turli janrlarida ajoyib She’rlar Yozib, devon tartib berdi. «Boburnoma»day ulkan hajmli tarixiy-badiiy asarini Yaratib, turkiy nasr imkoniyatlarining beqiyos ekanligini amalda isbotladi. Adabiyotshunoslik borasida turkiy aruzning xususiyatlarigaoid «Muxtasar» asarini Yozdi. Din asoslariga bag’ishlangan She’riy risolasi «Mubayyin»ni Yaratdi. Shuningdek, naqshbandiy tariqatining peshvosi Xoja Ahrori Valining «VolidiYa» asarini She’riy usulda turkiy tilga tarjima qildi. Bulardan tashqari, Bobur Mirzoning musiqa va harbiy bilimlarga oid risolalar Yozgani ham manbalarda bayon etiladi, biroq bu asarlarning taqdiri hamon noma’lumligicha qolmoqda.

Bobur Mirzo She’riyati. G’azallarining mavzulari va badiiyati. Bobur Mirzo She’riyati uning ko’nglida nihon saqlangan tuyg’ularining salohiyatli Shoir qalamida sayqallashtirilgan badiiy in’ikosidir. Bu She’riyat Sharq mumtoz adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy singri yetuk Shoirlari nazmiy an’analarining o’ziga xos davomi hamda boburona uslubdagi takomili bo’lishi bilan nihoyatda qimmatlidir. Bu ulug’ so’z san’atkorining nazmiy Yaratmalari XVI asrning yirik muarrixlari Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy» asari hamda Shu davrda Yashab ijod etgan adabiyotshunos Hasanxo’ja Nisoriyning «Muzakkirul ahbob» tazkirasida nihoyatda Yuksak bahoga munosib ko’riladi. Zamondoshlari turkiy She’riyatda Alisher Navoiydan so’ng biror Shoir Bobur Mirzochalik go’zal badiiy durdonalar ijod etolmaganligini e’tirof etishadi. Bizningcha, Ulug’ shoirning She’riy merosi quyida keltirilgan faxriya baytidagi fikrga uzukka ko’z qo’ygandek mosdir:

Iroqu forsga gar etsa sening bu She’ring, ey Bobur,
Oni hifz etkusi Hofiz, musallam tutqusi Solmon.

Bobur Mirzoning manzum asarlari lirik turning turli janrlarida ijod etilgan devoni, Shuningdek, «Mubayyin», «VolidiYa» singari masnaviylaridan iboratdir. Manbalarda qayd etilishicha, Shoirning lirik merosi jamlanib, ikki devon holida tartib berilgan. Ularning biri 1519 yilda Kobulda tuzilib, o’sha vaqtning o’zida Samarqandga Yuborilgan Kobul devoni, ikkinchisi esa 1528-

1529 yillarda tartib berilgan Hindiston devonidir. Bu ikki devon keyinchalik bir devon holiga keltirilgan bo'lishi mumkin. «Boburnoma»ga ilova Yozgan noma'lum kotibning quyidagi qaydlari Shunday xulosaga kelishga imkon hosil qiladi: «... nazm va nasr va turkiy va forsiyni bebadal aytur erdi. Alalxusus turkiy devoni bordurkim, anda toza mazmunlar topib aytibtur... » (460-bet). Bobur Mirzo devonlarining qo'lyozma nusxalari Parij Milliy kutubxonasida, Hindistonning Rampur Shahridagi «Rizo» kutubxonasida, Haydaroboddagi «Salarjang» muzeyi fondida, Erondagi «Saltanat» kutubxonasida va TurkiYada mavjud. Mazkur qo'lyozma nusxalar asosida ingliz olimi Renison Ros (1910 yil), turk olimi Fuot Ko'pruluzoda (1912-1913 yillar), rus Sharqshunosi A.N.Samoylovich (1917 yil), o'zbek olimlari S.Azimjonova va A.Qayumov (1958, 1965 yil), Saidbek Hasanov (1982 yil)lar Shoirning lirik merosini nashr etishdi. 1993 yilda S.Hasanov Bobur Mirzoning Parij devoni nusxasini «Mahrami asror topmadim...» nomi bilan chop etdi. olimning ta'kidlashicha, ushbu devon nusxasida Shoir hayotining O'rta Osiyo davrida ijod etilgan She'rlari o'rin olgan. Shuningdek, 1983 yilda afg'onistonlik olima SHafiqa Yorqin tashabbusi bilan Ulug' shoirning She'rlari Kobulda «Devoni Zahiriddin Muhammad Bobur» nomi bilan ham nashr etildi. Keyinchalik adabiyotshunos A.Abdug'afurov ana shu nashr asosida «Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon» (Toshkent: «Fan», 1994) asarini e'lon qildi.

Bobur Mirzo devonida lirik turning g'azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit'a, fard, muammo kabi janrlarida ijod etilgan She'rlar jamlangan. Ular orasida g'azal, ruboiy, tuyuq janrida ijod etilgan She'rlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning nazmiy asarlari, jumladan, g'azallarida an'anaviy ishq mavzusi yetakchilik qiladi. Ijodkorning ma'shuqa ta'rif-tavsifi, hijron iztiroblari, visol umidi, She'r qahramonining turli ruhiy holatlari tasviriga bag'ishlangan oshiqona g'azallarida muallif sohir musavvir Yanglig' She'rxon ko'z o'ngida turli manzaralarni namoyon eta oladi. Undagi so'z sehri, misralarning quyma va ravonligi, uslubning soddaligi, o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi. Jumladan, Bobur Mirzo ishq balosining har dam jafo keltirishini ta'kidlagani holda, undan ayri tusholmasligini quyidagicha badiiylashtiradi:

Baloi ishqki, har dam manga jafoyedur,
Bu ishqdin kecha olmon ajab baloyedur.

«Ajab baloye» tarzida ta'riflangan ishq She'r qahramonining taqdirida bitilgani bois uni hijron iztiroblari bilan qarshilashtiradi. Bu iztiroblarning

nihoyatda mubolag’ali tasviri ma’shuqa ishqida o’rtanayotgan oshiqning ruhiy holatini Yanada teranroq idrok etishga imkon Yaratadi:

Hajr o’lturdi meni, anglasam erdi muncha,
Do’stlar, Yordin ayrilmas edim o’lguncha.
Zohido, do’zax o’tindin meni ne qo’rqutasen,
Hajr o’ti qoshinda ko’rmasmen ani Uchquncha,
Ul quyosh mehrini bir zarra manga ko’rguzmas,
Kavkabi ashk to’kub bo’lsam garduncha.
Husnda ortuq agar bo’lsa Yuzi Laylidin,
Men taqi bormen aning ishqida Yuz Majnuncha.
Rindlar olida hayvon suyini ko’p o’kasen,
ey Xizr, bormu ekin ul su mayi gulguncha.
Boburo, She’ringga gar solsa quloq, ul Shohing,
Bo’lg’usidur so’zungga qadr duri maknuncha.

Bobur Mirzo She’riyatida Yorqin namoyon bo’lib turuvchi fazilatlardan biri Shundaki, Shoir so’zlarning turli ma’no qirralaridan mahorat bilan foydalanadi. Yuqoridagi g’azalning matlasidayoq Shunday holat ko’zga tashlanadi. Ijodkor «Hajr o’ti o’lturdi meni» deganda, She’r qahramonining ayriliq azobidan afgor bo’lishi, tanining majruhlanib tamomila holdan toyishini nazarda tutadi. Zero, o’lgan odamning o’z qotili hajr ekanligini «anglashi» mantiqqa zid, Shuningdek, hajr o’tidan nolib do’stlariga «o’limi» sababini bayon qilishi ham o’sha hayotiy tamoyilga mos emas. Aksincha, ikkinchi baytda hajr va do’zax o’tining o’zaro muqoyasasi asosida oshiq ruhiy holatidagi aftodalik tasvirining She’rxon ko’z o’ngida Yorqin gavdalanishiga erishish Shoirning Yana bir badiiy mahoratidir. Mazkur baytda zohidga murojaat etilishidan ayonlashadiki, Bobur Mirzo She’riyatidagi asosiy qahramon hisoblangan oshiqning himmati baland. Uning nazarida hajr o’ti oldida do’zax o’ti bir Uchquncha ham emas. Zohid do’zax azobidan qo’rqqani bois jannat tamaida toat-ibodat bilan mashg’ul bo’lsa, She’r qahramoni hajr azobidan zaiflashib tashlandiq holga tushgan bo’lsa ham, ma’shuqa diydoridan bahra olishdan noumid emas. Shu bois Uchinchi baytda tasvirlanganidek, oshiq quyoshdan ayri tushgan gardunday ko’z Yosh Yulduzlarini to’kib o’rtansa ham, uning ma’shuqasi - quyosh bir zarra mehr ko’rsatishni istamaydi. Baytda qo’llangan quyosh, kavkab, gardun timsollari insonga xos ma’naviy hamda tabiiy hodisalar orasida ijodkor tomonidan ajib bir mutanosiblik kashf etilganidan dalolat beradi. Gardun ma’shuqasi quyoshning mehrini (jamolini –

R.V., H.E.) ko’ra olmagani bois tunda kavkab Yoshlarini to’ksa, oshiq Shunday iztirobni ma’shuqasi hajrida boshidan kechiradi. Quyoshni ma’shuqa ma’nosida qo’llash Shoirga istiora asosida hayotiy tamsilni She’r qahramoni holatiga tashbeh qilish imkonini Yaratadi. Natijada baytda hosil qilingan hajrning mubolag’ali tasviri She’rxon tuyg’ularini jumbushga keltiradi. To’rtinchi baytda Yor go’zalligi Laylidan ortiq bo’lsa, uning oshig’i ham Yuz Majnuncha ishqda sobit bo’la olishi badiiylashtirilgan. Keltirilgan talmeh ishq yo’lida Majnun bilan hammaslak bo’lgan She’r qahramonining o’rni kelganda hajr iztiroblarini nazarga ilmay maslakdoshini ham ortga qoldira olish fazilatiga ega ekanligini badiiy ifodalashga xizmat qildirilgan. Beshinchi baytda qo’llanilgan rind va Xizr timsollari ishqning muqaddasligini She’rxonga Yanada teranroq anglatishga imkon paydo qiladi. Undagi «mayi gulgun» majozan – ishq, Xizr alayhis-salom rindlarga maqtagan «hayvon suyi» esa – mangulik, abadiy hayot ramzidir. Yashirin inkor ma’nosini ifodalovchi ikkinchi misradagi savolning o’zidan ayonki, mangulik suvining qadr -qimmati ishqdagi shavqu zavqqa teng bo’lolmaydi. Mumtoz badiiy adabiyotning faol timsollaridan biri bo’lgan rindda ishq iztiroblaridan zavqlanish hissi baland. Uning tabiatidagi o’sha ko’tarinkilik ishqni may timsolida qo’llash bilan ifoda etiladi. G’azalning maqtasi Bobur Mirzoning o’ziga xos faxriya baytidir. Shoir bu She’rni eshitgan Shoh – ma’shuqa uning qadrini Yashiringan durga loyiq ko’rishini ishonch bilan e’tirof etadi. Sharq mumtoz adabiyoti an’analari uslubida ijod etilgan mazkur g’azalda Shoir zohid, rind, Xizr singari badiiy timsolllardan sohir so’z san’atkori sifatida foydalanib, hajr iztiroblaridan o’rtanayotgan, ayni choqda, ma’shuqa visolidan noumid bo’lmagan She’r qahramonining ruhiy holatini katta mahorat bilan tasvirlay olgan.

Bobur Mirzo oshiqona g’azallarining aksariyati ta’rif-tavsif tarzidagi g’azallardir. Ularda ma’shuqaning qiyossiz go’zalligi o’ziga xos badiiy timsollar vositasida tasvirlanadi:

Ko’ngulga bo’ldi ajoyib qaro soching,
SHikasta ko’ngluma ermish qaro balo soching.

Ushbu matla’ bilan boshlanuvchi Bobur Mirzo qalamiga mansub bo’lgan g’azal o’zaro adabiy ta’sir mahsulidir. Ulug’ shoir Alisher Navoiyning «Ko’zung ne balo qaro bo’lubtur, Kim jonga qaro balo bo’lubtur» (MAT. 1-tom, 141-142-betlar) matlali mashhur g’azali bor. Taniqli adabiyotshunos, akademik B.Valixo’jaevning ma’lumotiga ko’ra, ushbu matla’ Alisher Navoiyning do’sti Mirzobekka tegishli bo’lib, Ulug’ shoir Shu matla’ asosida

tazmin g’azal ijod etgan (Qarang: Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent, 2002, 283-284-betlar). Alisher Navoiy g’azalida ma’shuqaning ko’zi, Yuzi tilga olinib, vasf etilsa, Bobur Mirzo tasvir markazini ma’shuqaning sochiga qaratadi. She’r qahramoni ko’ngliga «balo» bo’lgan «qora soch» o’zining «ajoyib»ligi bilan ajralib turadi. Agar unga Shunday sifat bo’lmasa edi, «balo» so’zi o’zida ijobiy ma’no mujassamlashtirmasdi. Natijada siniq, majruh holda bo’lgan ko’ngulda «qaro» bo’lgan «balo soch» ma’shuqaning jafokorligini She’rxon ko’z o’ngida gavdalantirgan bo’lardi. Holbuki, She’r qahramoni har ikkala misrada ham ma’shuqaga tushgan ishqining sababkori sifatida uning qop-qora sochlarini nazarda tutadi. Baytda qo’llangan tarde aks badiiy san’ati unga o’zgacha joziba baxsh etgan. Birinchi misradagi «balo, qaro» so’zlari keyingi satrda «qaro balo» tarzida takrorlanib ishq iztiroblarining ma’shuqa sochlari Yanglig’ «balo» va «qaro» ekanligi o’z ifodasini topgan. Sochning qoraligi uning maftunkorligiga ishora bo’lsa, ishq iztiroblarining qoraligi oshiqning qismatida ulardan jabr ko’rish bitilganligidan darak beradi. Baytda dastlab ishq iztiroblarining istiorasi bo’lib kelgan «balo» so’zi oshiq ko’ngliga qanchalik ozor yetkazmasin, undan ayri tushishning o’zi falokat bo’lganligi bois undagi «ajoyib»likka urg’u berilgan. Keyingi misradagi «balo» esa «qoyil qolarli» ma’nosini o’zida mujassamlashtirib turibdi. Zero, ko’ngli qattiq ozor ko’rgan kishining qalbida ishq iztiroblarini sola olgan maftunkor sochga qoyil qolmasdan iloj yo’q. Bobur Mirzo g’azaliyotida tez-tez murojaat etilgan badiiy timsollardan biri – sochdir. Shoir ko’pincha She’r qahramoni ruhiy holatlari bilan sochning sifatlari orasida uyg’unlik topishga intiladi:

Sochining savdosi tushti boshima boshdin Yana,
Tiyra bo’ldi ro’zg’orim ul qaro qoshdin Yana.

Baytda ko’p ma’noli so’zlarning turli ma’no qirralaridan mahorat bilan foydalanilganligi «sochining savdosi», «boshima boshdin» birikmalarida Yaqqol namoyon bo’lgan. «Sochining savdosi», Shubhasizki, ma’shuqaning ishqidir. «Boshima» so’zida sevikli ishqining oshiq taqdirida Uchragani nazarda tutilgan bo’lsa, «boshdin» so’zida esa «qaytadan, takror» ma’nosi o’z ifodasini topgan. Ishtiqoq badiiy san’ati vositasida qo’llaniladigan o’zakdosh so’zlarning matnda alohida-alohida Yangi ma’no anglatishi, «sochining savdosi» birikmasining ko’chma ma’noda qo’llanishi She’rxonga o’zgacha zavq bag’ishlaydi. O’sha ma’shuqasining ishqi oshiq ko’nglida qayta alangalanganligi bois She’r qahramonining hayoti «ul qaro qoshdin Yana» tiyra bo’ladi. Ma’shuqaning «soch»i va «qosh»idagi maftunkorlik ularning

qoraligida namoyon bo’lgan bo’lsa, oshiq hayotining tiyraligi uning boshiga tushgan musibatlarda o’z aksini topgan. Ko’rinadiki, Shoir qora rangni ham go’zallimk, ham musibat ma’nosida qo’llab baytda tazod badiiy san’atining o’ziga xos namunasini vujudga keltirgan.

Bobur Mirzo oshiqona g’azaliyotida tabiiy va insoniy go’zallikdan zavqlanish, ularni bir butun holatda tushunib, har ikkalasi orasida mavjud bo’lgan go’zal mutanosibliklarni Yuksak ehtiros bilan tasvirlash holati ko’proq namoyon bo’ladi. Shoirning «Yorlig’ingkim, jon bila men xastadurmen zor anga» misrasi bilan boshlanuvchi g’azali fikrimizning Yorqin dalilidir. Bu g’azal taniqli adabiyotshunos B.Valixo’jaevning diqqatini ham o’ziga jalb etgan. Olim Bobur Mirzo g’azaliyoti haqida fikr Yuritgan tadqiqotlarida mazkur asarni tahlil jarayoniga tortib qimmatli mulohazalarini bayon etgan (Qarang: O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 3-tom, Toshkent: «Fan», 1978, 55-56-betlar. Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent, 2002, 282-283-betlar). Shoirning aksariyat g’azallari singari etti baytdan tarkib topgan ushbu g’azalda ijodkor ma’shuqa va uning go’zalligini Yorning Yorlig’i – boshga o’raydigan ro’molchasi timsolidan mahorat bilan foydalanib badiiylashtiradi:

Yorlig’ingkim, jon bila men xastadurmen zor anga,
Xasta jonlar rishtasidindur magar har tor anga.
evrulur boshingg’avu goho Yuzungga Yuz qo’yar,
Bu jihatdin ot emish gulpechu gah gulzor anga.
Bir chamandur sahnikim, bo’lg’ay binafsha sarbasar,
Tegrasi gulzordurkim, bo’lmag’ay bir xor anga.
Yorlig’ing tokim, Yuzu ko’zungga tegmish bordurur,
YUz maningdek zoru Yuz ming men kibi bemor anga.
ey ko’ngul, Yuz pora qilsa Yor tiyg’i, g’am ema,
Lutf etib gar bog’lar o’lsa Yorlig’ini Yor anga.
Ko’nglum istar Yorlig’ingni, balki andin bir nasim,
Etsa Boburg’a erur jon birla minnatdor anga.

Shoir g’azalining matlasidanoq Sharq, jumladan, o’zbek ayollarining nafosatu nazokati timsoli bo’lgan Yorlig’ - ro’molcha tavsifini unga maftun bo’lgan She’r qahramonining holati bilan Yondosh tasvirlaydi. Ro’molcha - qiyiq xasta jonlarning toridan to’qilgani bois She’r qahramoni uning bemoriYu zoriga aylangan. Ijodkor bir-biriga daxli bo’lmagan voqeylik o’rtasida aloqadorlik borligiga o’quvchini ishontiradi. Shu tariqa, ma’shuqa boshidagi Yorlig’ oddiylikdan xalos bo’lib, muqaddaslik kasb etadi. Uning bu sifati jon

iplari uni to’qishda tor bo’lganligida namoyon bo’ladi. Yorliqqa jon baxsh etilgani uchun (uning torlari – jon rishtalari) u ma’shuqa boshida tinim bilmay evriladi. Ba’zan seviklining boshiga, ba’zan esa go’zal Yuziga Yuz qo’yadi. Shu bois uning nomi goh «gulpech», goh «gulzor»dir. Shoir Yorlig’ning turli rangdagi gullar bilan nafis bezatilganligini uning ma’shuqa Yuziga Yuz qo’yishi, Yorning visoliga erishishi bilan aloqadorlikda tasvir etadi. Natijada ma’shuqa va uning ro’molchasi go’zalligining bir-biri bilan chambarchas bog’liqligi tasviri She’rxon ko’ngliga o’zgacha zavqu shavq olib kiradi. Ijodkor Yana Yorlig’ tavsifiga urg’u berib, o’sha zavqu shavqning Yanada yolqinlashib borishiga zamin hozirlaydi. Uning sahni bir chaman, boshdan-oyoq binafshazor, chekkalari gulzor bo’lsa ham, unda biron bir tikan ko’rinmaydi. Ana shunday beqiyos nafislik namunasi bo’lgan Yorlig’ning go’zal ma’shuqaning Yuzu ko’ziga tegib turishi She’r qahramoniga o’xshash Yuz oshiqni zor-u, Yuz-ming oshiqni bemor qiladi. Bobur Mirzo She’riyatiga xos bo’lgan yetakchi uslubiy jilolardan biri kutilmaganda tajnis badiiy san’ati vositasida so’z o’yini qilish g’azalning tahlil jarayoniga tortilgan mazkur beshinchi baytida ham qo’llangan. Baytning dastlabki misrasida Shoir «Yuz» so’zini ma’shuqa uzvi ma’nosida qo’llagan bo’lsa, ikkinchi satrda esa uning raqam ma’nosidan foydalanilgan. O’rnida qo’llanilgan badiiy san’at jozibasi She’rxon ehtirosini Yanada ko’tarilishiga sabab bo’lgan. Keyingi baytda She’r qahramoni ko’ngliga murojaat qiladi: «Yorning jafo tiyg’i seni Yuz pora qilsa ham g’am ema, vaqti kelib, Yor lutf ko’rsatsa, o’sha jarohatlarni go’zal Yorlig’i bilan bog’lasa, hammasi unut bo’ladi.» Go’zallikka oShufta ko’ngilning uning visoliga etish umidi bir lahza bo’lsin so’nmaydi. Maqtadagi xulosa Shunday mulohaza Yuritishga imkon beradi. Unda tasvirlanishicha, ko’ngil Yorlig’ni istaydi, Bobur uchun undan esgan bir nasim ham kifoYa, u Shunga munosib ko’rilsa, joni bilan minnatdor bo’lardi.

G’azalda Yor va Yorlig’ go’zalligi, oshiqning iztirobu xursandchiligi, uning orzu-niyatlari Shu qadar nafisu nozik did bilan ifodalanganki, She’rxon ko’z o’ngida ham mahbuba go’zallilgi gavdalanadi, ham oshiqning ichki tug’yonlarini qalbdan his etish imkoniyati hosil bo’ladi. She’rning ravon uslubda, turkiy g’azaliyotda keng qo’llangan vazn (ramali musammani mahzuf – foilotun foilotun foilotun foilun)da bitilganligi uni qayta-qayta o’qishga undaydi. Shoirning oshiqona g’azallariga xos bo’lgan bu fazilat uning muallifi Yuksak salohiyat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, Bobur Mirzo Alisher Navoiyning «Koshki» radifli g’azaliga Yozgan tazmin g’azali («Ko’rmagay erdim jamoli olam aro koshki» misrasi bilan boshlanuvchi) va

boshqa adabiy ta’sir asosida vujudga kelgan She’rlari haqida ham Shunday fikrni aytish mumkin.

Bobur Mirzo She’riyatida hayotning achchiq-chUchugini tatib ko’rgan hukmdor Shoirning taassurotlari: g’alabadan masrurlik, qarindoshlarning pand berib qo’yishidan shikoyat, borliq go’zalligidan zavqlanish, ona-vatandan judolik va uni qo’msash tuyg’ulari bilan bitilgan, Shuningdek, pand-nasihat ruhida Yozilgan g’azallar ko’plab Uchraydi. Shoir ijodining ilk bosqichlarida Yaratilgan g’azallarida ham Yuqorida e’tirof etilgan mavzulardan bahs etiladi. Jumladan, Amir Temurning poytaxti bo’lgan Samarqanddek azim Shaharni ikki marotaba qo’lga kiritib, ikki marotaba Shayboniyxondek kuchli g’anim ixtiyoriga topshirish iztirobi, atrofdagi temuriy hukmdorlar, Shuningdek, mo’g’ul tog’alarining layoqatsizligidan Yakkalanib qolish azobi hamda Andijon taxtidan ham ajralib sarsonlikda kechgan kunlar alami Shoirning «Topmadim» radifli g’azalida o’z ifodasini topgan. Yosh qalamkash va hukmdor taqdirning bunday achchiq «hazili» ko’ngliga juda qattiq ta’sir etganligini g’azal matlasidayoq ayon qiladi:

Jonimdin o’zga Yori vafodor topmadim,
Ko’nglumdin o’zga mahrami asror topmadim.

Shoir ko’nglida tug’yon urgan yolg’izlik hissi alamlari, «dahri dunparvar»ning ko’rsatgan jafolaridan aftoda hol bo’lib qolgani, qalbi «bu olamning safo»si borligiga Shubha bilan qaraganini «Qoldimu?» radifli hasbi hol ruhida Yozilgan mashhur g’azalida badiiy ifoda etadi. Bobur Mirzoning oshiqona g’azallarida ham ruhiga qattiq ta’sir ko’rsatgan qismat «o’yin»laridan nolib, o’z holini bayon etish holatlari kuzatiladi. Bu – tabiiy. Ayni mavzu boshqa ijodkorlarning oshiqona g’azallarida ham qaysidir ma’noda o’z ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Biroq Bobur Mirzoning oshiqona g’azallarida hayotiy voqelikdan ko’p jabr ko’rgan hukmdor-Shoir obrazi Shu qadar Yorqin gavdalanadiki, She’rxon beixtiyor uning siymosini ro’parasida ko’rgandek bo’ladi:

Mening ko’nglumki, gulning g’unchasidek tah-batah qondur,
Agar Yuz ming bahor o’lsa, ochilmog’i ne imkondur.

Agar ul qoshi yosiz bog’ gashtin orzu qilsam,
Ko’zumga o’qturur sarvu ko’ngulga g’uncha paykondur.

Shoir ko’nglini g’unchaga tashbeh etarkan, uni Yashil pardalarni Yorib, endi jamolini ko’z-ko’z qilishga hozirlik ko’rayotgan «tah-batah» qizil Yaproqlari bilan qonga evrilgan qalbi orasida o’xshashlik borligiga diqqatni jalb etadi. Baytda g’unchadagi go’zallik bilan jabr-sitamlardan qon Yutgan ko’ngul o’rtasida o’zaro zidlik hosil qilingan. Bu qarama-qarshilikni paydo bo’lishida har ikkala o’xshashlikdagi qizil rang asos bo’lib xizmat qilgan. Keyingi misrada tazod Yanada tadrijiy rivojlantirilgan. G’unchaning bahor kelishi bilan sekin-asta ochilib gulga aylanishi tabiiy, biroq She’r qahramonining ko’ngli Yuz-ming bahor kelsa ham ochilishi – shodlanishi imkonsizdir. Keyingi bayt oshiqona mohiyat kasb etib, unda oshiqning ma’shuqasiga bo’lgan sadoqati «o’q» - «sarv», «g’uncha» - «paykon» tashbehi vositasida badiiy ifoda etilgan.

Bobur Mirzo g’azaliyotida borliq go’zalligidan zavqlnish, o’lchab berilgan umrni behuda sarflamaslikka da’vat ruhida Yozilgan g’azallar ham Uchraydi:

Yoz fasli, Yor vasli, do’stlarning suhbati,
She’r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.
Yoz faslida chog’ir ichmakning o’zga holi bor,
Kimga bu nash’a muyassar bo’lsa, bordur davlati.
Ishq dardini chekib, har kimki topsa vasli Yor,
Ul zamon o’lg’ay unut Yuz yilg’i hijron shiddati.
Do’stlarning suhbatida ne xush o’lg’ay bahsi She’r,
To bilingay har kishining tab’i birla holati.
Gar bu ishni muvofiq topsang Uch vaqt ila,
Mundin ortuq bo’lmag’ay, Bobur, jahonning ishrati.

Laffu nashr badiiy san’atidan mahorat bilan foydalanish Bobur Mirzo She’riyatidagi yetakchi uslubiy jilolardan biridir. Yuqoridagi g’azalning matlasida laffu nashri nomurattab qo’llanganligi Yaqqol ko’zga tashlanadi. Undagi tartibning o’zgarganligi birinchi misrada keltirilgan tushunchalarga ikkinchi misrada o’rni almashgan holda hukm chiqarilganligidir. «Yor vaasli» bilan «ishq dardi» orasida mutanosiblik mavjud bo’lsa, «Yoz fasli»ga «She’r bahsi»dan ko’ra «bodaning kayfiti» uyg’unroqdir. Zero, Yoz yigitlik ramzi bo’lsa, «bodaning kayfiyati» undan masrurlik, shodlanishni ifodalaydi. «Do’stlarning suhbati» esa «She’r bahsi» bilan qiziydi. Shoir g’azalning beshinchi baytida ayni fikrga urg’u berganligi ham mulohazalarimizni quvvatlaydi. eng muhim xulosa g’azal maqtasida o’z ifodasini topgan: Aytilgan

Uch ish Uch vaqtda muvofiq topilsa, jahonning ishrati bundan ortiq bo'lmaydi. Ko'rinadiki, g'azalda hayotsevarlik, insonparvarlik g'oyalari yetakchilik qiladi. Borliq go'zalligidan bahra olish, umrning takrorlanmas qimmatli onlarini shodu xurramlik bilan do'stlar davrasida o'tkazish g'azaldagi Uch tayanch fikr sifatada namoyon bo'ladi. Do'stlar davrasi bilimdonlik maydoni hisoblangan She'r bahsi bilan Yanada farahli ekanligi, ishq dardida o'rtanib mahbuba vasliga vosil bo'lish oliy saodat sanalishi baytlar bag'riga singgan olijanob g'oyalardir.

Bobur Mirzo g'azaliyoti rang-barang mavzularda ijod etilganligi, unda muallifning samimiy hislari va taasssurotlari ravon uslubda badiiy ifodalanganligi bilan nihoyatda qimmatlidir. G'azallardagi boburona uslub unda tasvir etilgan mavzuni She'rxon ko'z o'ngida aniq gavdalanishiga imkon Yaratadi. eng muhimi, ularning badiiy jihatdan mukammalligidir. Bobur Mirzo badiiy jihatdan barkamol g'azallari bilan Alisher Navoiydan keyin o'zbek g'azalchiligi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

Shoirning ruboiy va tuyuqlari tahlili. Bobur Mirzo She'riyatida ruboiy janrida bitilgan asarlar ham alohida ahamiyatga molik. Sharq mumtoz adabiyotida asosan ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy mohiyat kasb etgan ruboiy janrining mavzu doirasi keyinchalik ancha kengayib bordi. Turkiy adabiyotda Alisher Navoiy o'zining ruboiylari bilan bu janrda rang-barang mavzuda ijod qilish mumkinligini amalda isbotlagan bo'lsa, Bobur Mirzo Shu an'anani Yanada ravnaq topishida o'z hissasini qo'shdi. Shoirning ruboiylari g'azallarida kuzatilgani kabi sodda va ravon uslubda ijod etilgan. Ijodkor g'azallarining aksariyati oshiqona mavzuda bitilgan bo'lib, ularda o'rni bilan Shoirning hasbi holiga murojaat etilgan bo'lsa, ruboiylarida Shoirning ko'rgan-kechirganlari, tarjimayi holi, vatan sog'inchi va hijron iztiroblari mavzusi yetakchilik qiladi. Shuningdek, Shoir orifona, oshiqona, axloqiy-ta'limiy mohiyat kasb etuvchi ruboiylarning ham muallifidir.

Bobur Mirzo She'riyatida Allohga solih banda bo'lish umidi balqib turgan, uning rizoligiga erishishdek ulug' saodatga musharraf bo'lish orzusi ufurgan hamda ulug' Tangrining Buyukligini vasf etuvchi ruboiylar mavjud. Jumladan, quyidagi ruboiy Bobur Mirzoning hayot sinovlaridan o'tgan bukilmas irodasi Allohning rizoligiga erishish yo'lida ham benazir ekanligini dalillaydi:

YO qahru g'azab birla meni tufroq qil,
YO bahri inoyatingda mustag'raq qil.

YO rab, sengadur Yuzum qaro, xoh oq qil,
Har nav’e sening rizong erur, andoq qil.

Shoir Allohga murojaat qilib, Yaratgan istagiga ko’ra, uning qahru g’azabiga Uchrab tuproq, Ya’ni xoru zor bo’lishga ham yoki Uning lutfu karamidan bahra olib, inoyat dengizida cho’mishga ham tayyor ekanligini e’tirof etadi. She’r qahramoni bir banda sifatida Tangri oldida gunohkor ekanligini «sengadur Yuzum qaro» jumlasida badiiylashtiradi. So’nggi misrada esa Allohning rizoligiga erishish istagida har narsaga tayyor turganligi o’z aksini topgan. XV asrda Movarounnahru Xurosonni idora qilayotgan temuriy hukmdorlar orasida naqshbandiYa tariqatining ulug’ peshvolariga e’tiqod qo’yish odat tusini olgan edi. Temuriy Shahzodalar ulug’ Shayxlarga Yuksak hurmat ko’rsatish ruhida tarbiyalanib, ularning komil inson haqidagi Yuksak axloqiy-ta’limiy qarashlaridan juda erta bahra olishga ulgurardilar. Bobur Mirzo ham Farg’ona viloyatida dong taratgan naqshbandiYa tariqatining ko’zga ko’ringan vakillaridan biri Xoja Abdullo Mavlono qoziy hamda Movarounnahru Xurosonda Buyuk ma’naviy arbob sifatida tanilgan Xoja Ahrori Valiga ulkan ixlos qo’ygan edi. «Boburnoma»da bu ikki ulug’ zotdan birining sharofatli duolari, birining esa ruhiy madadi bois Yosh Shahzoda tang ahvoldan omon qolganligiga dalolat beruvchi lavhalar keltirilgan. Ulardan ba’zilarini Yuqorida ko’rib o’tdik. Bobur Mirzo She’riyatida naqshbandiYa tariqatining o’lmas g’oyalari badiiy ifodasini topganligiga Shubha yo’q. Shoir ruboiylarida ilohiy va majoziy ishqni bir o’zanga solingan holda ravon uslubda vasf etilishining sababi ham uning qalbi botiniy ma’rifat nurlari bilan Yoritilganidir. Mana bu ruboiylarga e’tibor qiling:

ey Yor sening vaslingga etmak mushkil,
Farxunda hadisingni eshitmak mushkil.
Ishqingni dag’i bartaraf etmak mushkil,
Boshni olibon har sari ketmak mushkil.

Keldim sanga Yuz umid bila, ey moh,
Lekin Yondim Yuzingni ko’rmay, Yuz oh.
Hamsuhbatu hamrohni netay u yo’lda,
Darding manga hamsuhbatu ishqing hamroh.

Zakovatli Shoirning mazkur She’rlaridagi mazmunni istang samoga ulang, xohlang erga olib tushing. Har ikki holatda ham bosh mohiyat – ishq va

sidq, ishq va dard, ishq va sadoqat, ishq va ishonch kabi tuyg'ularning ohori saqlanadi. Oshiqning ma'shuqa dardi va vasliga etmoq ilinjidan o'zga tashvish va taraddudi yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Bobur Mirzoning qalbida Yongan ishq alangasi uni sira tark etmagan. To'g'ri, u komil muslim bo'lgani holda Shariatning barcha talablariga rioya qila olmadi. SHarobga ruju qo'ygan paytlari, ma'jun kayfi bilan diliga taskin bergan damlari bo'ldi. Lekin Shu bilan bir qatorda u o'sha gunohlaridan komil sadoqat bilan tavba ham qildi.

Bobur Mirzo Yuksak nazokatli inson sifatida ko'ngilchan, mehr-shafqatli shaxs edi. Qizi Gulbadanbegimning «HumoYunnoma» asaridagi juda ko'p lavhalar Shunday xulosaga kelish uchun asos beradi. Aytilganlarga qanoat hosil qilish uchun asardan bir lavha ko'chirish foydadan xoli emas: «Rano Sango bilan jang bo'ldi. Xudoning inoyati bilan podsho g'alaba qozondilar va g'oziy bo'ldilar. Rano Sangoning fathidan bir yil o'tgach, onam – Mohimbegim (HumoYun Mirzoning onasi) Kobuldan Hindistonga jo'nadilar. Men ham podsho dadamni ko'rgani u kishi bilan birga bordim. Onam ko'lga etganlarida podsho hazratlari Uch otliq mahofa Yubordilar... Podsho dadam hazratlari to ot kelturgunlaricha sabr qilmay, piyoda yo'lga tushib, Nincha Mohim uylari oldida biz bilan Uchrashdilar. Onam otdan tushmoqchi bo'ldilar, lekin podsho dadam qo'ymasdan o'zlari onamning otlari jilovidan ushlab, o'z uylariga etguncha piyoda ketdilar...» (HumoYunnoma. Toshkent: «Fan», 1959, 35-b.) Bobur Mirzo ruboiylaridan birida ifodalangan lavhani xotirga keltiradi:

Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen,
Sen Shu'lasenu men ul Shu'lag'a quldurmen.
Nisbat yo'qtur deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale sanga quldurmen, -

deb Yozgan edi. Ruboiydagi Gulu Bulbul, Shu'laYu Parvona, Shohu Gadolarga Yuzaki qarab, hayotiy oshiqu ma'shuqalarning o'xshatilmishlari sifatida Sharhlash mumkin. Aslida mazkur majoziy timsollar tasavvuf mulkidir. Masalaning zaminiy jilosini inobatga oladigan bo'lsak, Bobur Mirzo faqat Yozmagan, balki naqshbandiYaning ilm va amal, ishq va amal xususidagi qat'iy talablarini ado etishga ham harakat qilgan.

Bobur Mirzo She'riyatida, jumladan, ruboiylarida Vatan sog'inchi va hijron iztiroblari eng ko'p nazarga tashlanadigan tuyg'ulardir. Shundan bo'lsa, kerak ayrim tadqiqotchilar «Hajriy» Boburning ikkinchi taxallusi degan fikrga urg'u berdilar. Vatanni unda turib ardoqlash bilan uni yo'qotib sevish o'rtasida eru osmoncha tafovut borligi ayon. Bobur Mirzo qalb nidolari mag'zini

teranroq chaqmoq uchun ikkinchi holatni loaqal tasavvur qilib ko’rmoq lozim bo’ladi. Bobur Mirzo jisman Vatandan uzilgan bo’lsa-da, u ruhan Vatan bilan Yashab o’tdi. Qachonlardir ona Yurtga qaytish Uchquni uning qalbida so’nish bilgan emas. Fikrimizga daho Shoirning mana bu satrlari guvohdir:

Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig’ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim ermasmen.

Fikrimizcha, ushbu ruboiy Bobur Mirzo ijodining 1512 yilga qadar bo’lgan davriga taalluqli. Chunki u hali bu yillarda Movarounnahrdan butkul ko’ngul uzmagan edi. Uchinchi Yurishning muvaffaqiyatsizligi uning Shirin orzularini chil-parChin qildi. Shundan keyin uning Yuragida o’z sarhadlarini Hindistonga qarab kengaytirish orzusi makon tutdi. Ba’zan Shoir misralarida umidsizlikning ko’zga tashlanishi ham o’sha murakkab ruhiy isyonlarning mevasidir.

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
YUz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.
Sarrishtayi ayshdin ko’ngulni zinhor
Uz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Barcha urinishlari zoe ketgan Shoir o’lim to’shagidagi so’nggi nafasida ham Yurtining bir tilim qovunini qo’msab, ochiq ko’z bilan foniy dunyo bilan vidolashgan. Yurt va Yurtdoshlari diydori bu jahongashta Vatan fidoyisi uchun hamon qiyomat qarzdir.

Istiqlol sharofati tufayli Bobur Mirzo shaxsi va ma’naviy olami qasrida ham xush havolar esdi. Zug’um va zo’ravonlik chekindi. Ulug’ shoir va sarkarda haqida erkin gapirish bizga nasib qildi. Bu boradagi armonlar ushala boshladi. Buyuk davlat va ma’naviyat arbobi tavalludining 510 yillik to’yi tantanalari bu yo’ldagi ulkan umidli qadamdir. Shu munosabat bilan Andijonda uning mahobatli haykali o’rnatildi. Yuksakda, ot ustida o’tirgan bu zoti mukarram ona Yurt jamoliga suqlanib, to’yib-to’yib boqish sharafiga erishdi. Yurtdoshlari azim bir bog’ barpo qilib, uning bir go’shasida Bobur Mirzoning ramziy qabrini o’rnatdilar. Asliga qaytgan (tuproqdan bunyod bo’lib, tuproqqa aylangan) Shoir muqaddas Vatan bag’rida erkalanib orom olmoqda. Suronli

hayotini ezgulikka baxshida etgan insonga uning nashidasi ikki chandon bo'lib qaytdi.

Bobur Mirzo She'riyatidagi muallifining Yuksak badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilib turuvchi janrlardan biri tuyuqdir. Shoir an'anaviy tuyuq janrida ijod qilish bilan cheklanib qolmay, uning to'rt misrasi ham tajnisli qofiyadan tarkib topgan, tajnis radif o'rnida qo'llangan, tajnisdan oldin hojib mavjud bo'lgan, Shuningdek, qit'a Shaklidagi tuyuqlarni Yaratdi. Bulardan birini tahlil jarayoniga tortishga harakat qilamiz:

Vasldi so'z derga yo'q Yoro manga,
Hajr aro rahm aylagil, Yoro manga.
O'qung etti ko'p Yamon Yoromanga,
Mahrami lutfing bila Yoro manga.

Bobur Mirzoning boshqa tuyuqlari singari ushbu She'ri ham oshiqona mavzuda ijod etilgan. Uning an'anaviy tuyuqlardan (odatda, tuyuq a-a-b-a tarzida qofiyalanadi) farqi to'rtala misrasining ham o'zaro tajnisli qofiyalanganligidadir. Tuyuqda oshiqning ruhiy holati o'z ifodasini topgan bo'lib, Shaklan bir xil bo'lgan to'rt so'z uning She'rxon ko'z o'ngida Yanada aniq gavdalanishiga bois bo'lgan. Qofiyalanuvchi «Yoro» so'zi ilk misrada «majol, quvvat», ikkinchi misrada «ey Yor», Uchinchi misrada «Yara, jarohat» so'nggi satrda esa «Yara, Yordam ber» ma'nosida qo'llangan. She'r qahramoni vasldan so'z aytishga majoli yo'qligini «Yoro» so'ziga urg'u berish bilan badiiy ifoda etadi. Keyingi misrada hajrning iztirobli qiynoqlariga dosh berolmasligiga amin bo'lgan oshiq Yoridan rahm aylashni o'tinadi. Uchinchi misrada esa oshiqning ma'shuqa o'qidan Yomon Yaralanganligi o'z ifodasini topgan. Yorning o'qi – uning nigohlari, oshiqning Yaralangan uzvi esa – Shubhasizki, uning qalbidir. Qalbdagi jarohatni bartaraf etish uchun Yorning oshiqqa Yaqinlik va lutf ko'rsatishi Yordam bo'la oladi. Ko'rinadiki, Shoir oshiqning hajr iztiroblaridan ozurda bo'lgan ko'ngul kechinmalarini tuyuqning janriy xususiyatlaridan mahorat bilan foydalanib badiiy ifoda etgan. Tuyuqning bu turi birmuncha murakkab bo'lib, u Shoirdan to'rt misrasi ham tajnisli so'z qo'llashni talab etadi. Buning uchun ijodkor tildagi Shakldosh so'zlarning turli ma'nolarini teran tushunmog'i lozim. Bobur Mirzo ana shu talablarga javob beradigan Shoirgina emas, balki undan ham ancha Yuqori turadigan ijodkor edi. Bu hol uning qalami mahsuli bo'lgan ruboiy va tuyuqlarida ham Yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir ruboiylari o'zining purma'noligi hamda taxallusning turli satrlarda qo'llanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Umuman

olganda, Shoir o’zbek mumtoz adabiyotida har ikkala kichik janrning ravnaq topishiga munosib hissa qo’shdi.

«Boburnoma» - qomusiy asar. Zahiriddin Muhammad Bobur o’z davrining katta bilimdoni sifatida asrida mavjud bo’lgan barcha bilimlarni puxta o’rgandi va o’zlashtirdi. Undagi ana shu donishmandlik zarrama-zarra asarlariga ko’chib bordi. Xususan, o’lmas «Boburnoma»ga kelib muallifdagi keng qamrovli bilim zahirasi o’zining butun tajassumini topdi. Natijada qomusiy asar – «Boburnoma» vujudga keldi. Ushbu javohir xazinasi paydo bo’lgan zamonidayoq, o’zi va muallifiga beqiyos Shuhrat keltirgan ediki, bu an’ana hozirga qadar davom etmoqda. «Boburnoma» va uning muallifi bu sha’nu shavkatga to’la sazovor. Chunki «Boburnoma» badiiy, tarixiy, yodnoma asar sifatida adabiyotshunos va tarixchi, tilshunos va urfShunos, tabiyot va jug’rofiYa sohasi, Shuningdek, Yana bir qator mutaxasssislarga qimmatli ma’lumotlar bera oluvchi bebaho ganjinadir. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarga Yashab, turfa tillarda so’zlashgan Sharqshunoslar diqqatini jalb etdi, dunyo kengliklarida aks sado berib keldi.

«Boburnoma» – Zahiriddin Muhammad Boburning goh ixtiyoriy, goh majburiy tarzda janggohlarda kechgan sarguzashtlarining aql va ko’ngul mezonlarida o’lchangan esdaliklaridir. Bu tarixiy-badiiy asar 1494–1430 yillardagi, Bobur Mirzoning Farg’ona viloyatining hokimi bo’lganidan boshlab Kobulda o’zini podshoh deb e’lon qilgani va nihoyat, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solishi bilan bog’liq voqealarni o’z ichiga qamrab oladi. Asar dastlab «Vaqoe» nomi bilan atalganligini muallifning o’zi ruboiylaridan birida zslatib o’tadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko’rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko’rdum.
Har kim bu «Vaqoe»ni o’qur, bilg’aykim,
Ne ranju ne mehnatu ne g’amlar ko’rdum.

Bobur Mirzo esdaliklari keyinchalik «Voqeoti Boburiy», «Tuzuki Boburiy», «Tavorixi Boburiy», «BoburiYa» tarzda atalib, nihoyat, «Boburnoma» nomi bilan Shuhrat qozondi. Jahondagi eng nodir memuar namunasi sifatida e’tirof etilgan bu noyob durdonaning Yozilishi tarixi haqida turli xil fikrlar bildirilgan. Ko’pchilik tadqiqotchilar Bobur Mirzo dastlabki yillardan boshlab o’z sarguzashtlari va turli xil tarixiy voqealarni xotira daftarlarida aks ettirib borgan va keyinchalik hayotining Hindiston davrida

«Boburnoma»ni Yozgan, degan fikrni ilgari suradilar. Taniqli adabiyotshunos, akademik B.Valixo'jayev«Boburnoma»ning Yozilish sanasi 925 hijriy – 1518-1519 yildan boshlanib, keyingi yillarda sodir bo'lgan voqealar tarixiylik tamoyiliga ko'ra ketma-ket Yozib borilganligini keltirilgan asosli dalillarga tanib e'tirof etadi. Shuningdek, olim «Boburnoma»da hijriy 910, 915-924, 927-931 yillardagi, Ya'ni 16 yillik voqealar bayonining Uchramasligini mavjud qo'lyozmalardagi kamchiliklar sifatida emas, balki muallifning o'ziga xos uslubi sifatida baholaydi. Shu bois tadqiqotchi «Boburnoma»dagi 16 yilga tegishli bo'lgan voqealar bayonining Uchramasligini asarning Yaxlitligiga katta ta'sir ko'rsatmaydi, deya ta'kidlaydi (Qarang: O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 2-tom, Toshkent: «Fan», 1978, 64-77-betlar. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent, 2002, 290-297-betlar).

«Boburnoma» o'ziga xos tuzilishga ega bo'lgan nasr namunasidir. Unda ma'lum bir sanaga oid muhim bir voqea hikoya qilinadi, so'ng voqea sodir bo'lgan joy (viloyat, Shahar)ga tavsif beriladi. Uning geografik o'rni, o'simlik va hayvonot dunyosi, xalqining urf-odatlari, yirik inshoatlari o'quvchiga tanishtiriladi. Bo'lib o'tgan voqeaning asosiy ishtirokchilari xususida asarda mufassal ma'lumot keltiriladi. Chunonchi, muallif ularning tug'ilgan yili, nasl-nasabi, Shaklu shamoyili, xulq-atvori, urushlari, viloyati, avlodi, xotinlari, umarosi haqida bilganlarini bayon qiladi. Shu tariqa o'quvchi asarning bosh qahramonlari boshidan kechirgan jangu jadallarni ko'z o'ngidan o'tkara boshlaydi. Asarning sodda va ravon uslubda Yozilganligi kitobxonni voqealar girdobiga chorlaydi. U XV – XVI asrdagi Muvarounnahru Xuroson, Afg'onistonu Hindistondagi ko'plab tarixiy shaxslar, bu mamlakatlardagi turli viloyatlarning tabiati, Shaharlari va ulardagi memoriy Yodgorliklar, asar muallifining jangu jadallardagi ruhiy holati bilan bir qatorda, uning bunyodkorlik faoliyati, ilmu ijodi bilan Yaqindan tanishadi. Shunday qilib, «Boburnoma»da, eng avvalo, ancha mufassal tarzdagi muallifning hayotiga doir qaydlar hamda Husayn Boyqaro, UmarShayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmudxon, Shayboniyxon, XusravShoh, Badiuzzamon Mirzo, Muzaffar Mirzo , Mo'min Mirzo singari katta-kichik toju taxt egalari, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va san'at arboblari haqida atroflicha hikoya qilinadi.

00 Bobur Mirzoda tajassumini topgan badiiyatga ixlos va ishtiyoq, baland iqtidor va She'riy salohiyat asarning umumiy ruhiga o'z ta'sirini o'tkazib, muhrini bosgan. Uning mutolaasi bilan mashg'ul bo'lgan kitobxon sahifalardagi har bir lavha tasvirida buni Yorqin his etadi.

Fikrimizcha, asar ta’sir kuchini baland ko’targan, uning serzavq va o’qishliligini ta’min etgan omillardan biri ham ana shu fikriy teranlik, Yuksak hissiyot va Shoirona zavqdir. Bobur Mirzo qonida jo’shib turgan She’riyatga bo’lgan baland mehr uni, hatto mag’lubiyat va ruhiy tushkunlik chulg’agan damlarda ham tark etmaydi. Aksincha, unga madad va dalda beradi, so’lg’in kayfiyatini ko’taradi, umid va ishonch sari boshlaydi. Zabardast adibdagi mana shu ikki qarama-qarshi qutb talvasasi «Boburnoma»da o’chmas iz qoldirgan.

Asarning 1501 –1502 yillar voqealari bayoni qismdan o’sha tushkunlik, ruhiy qiynalish azob-iztiroblari aks etgan mana bu mo’’jaz parchani olib ko’raylik:

«Bizga qurbon iydi Shohruhiyada bo’ldi. Betavaqquf o’tub, xon qoshig’a Toshkantga bordim. Bu ruboiyni aytib edim. Ma’lum qofiyasida taraddudim bor edi, ul mahalda She’r mustalahotig’a muncha tatabbu’ qilmaydur edim. Xon xushta’b kishi edi, She’r aytur edi, agarchi saru somonlik g’azali kamroq edi, bu ruboiyni xonga o’tkarib, taraddudimni arz qildim. Ko’ngul tingudek shofiy javob topmadim... Ruboiy budur:

YOd etmas emish kishini mehnatda kishi,
SHod etmas emish ko’ngulni g’urbatda kishi.
Ko’nglum bu g’ariblikda shod o’lmadi hech,
G’urbatda sevunmas emish, albatta, kishi» (156-bet).

Bobur Mirzoning mana bu matlasida ham Shu ruhiy holat hukmron:

Jonimdin o’zga Yori vafodor topmadim,
Ko’nglumdin o’zga mahrami asror topmadim. (157-bet).

Ko’rinadiki, ham Farg’ona, ham Samarqandni qo’ldan chiqargan Zahiriddin Muhammad Bobur She’riy sehrga suyangan, dil rozini unga to’kib solgan va Shu bilan oShufta qalbiga tasalli bergan. Yana muhimi Shundaki, Bobur Mirzoga xos adabiy odat – dalillar, voqealar, shaxslarga xolisona qarash xususiyati Shu parchadan ham zohir bo’ladi. Garchi Toshkent hokimi unga arzigulik javob qilmagan bo’lsa-da, ulug’ adib uning fazilati – tab’i nazmi borligi va xushfe’lligini, Shuningdek, nuqsoni – tuzukkina iste’dodi bo’la turib, Yaxshi asarlar Yarata olmaganini ro’yi rost ko’rsatib o’tadi.

«Boburnoma»dagi mana shu parchalar ham g’oyat muhimdir. «Ul fursatlarda birar, ikkirar bayt aytur edim. Vale g’azal tugatmaydur edim. Birgina turki ruboiy aytib yibordim. Ruboiy:

Ishlar bori ko’nglungdag’idek bo’lg’usidur,
In’omu vazifa bori buyrulg’usidur.
Ul g’allau muhmalki deb erding, berdim,
Muhmalg’a bo’Yu g’alladin uy to’lg’usidur.

Mullo Binoiy bu ruboiyning so’nggi misrasi qofiyasini radif qilib, o’zga qofiya bilan bir ruboiy aytib o’tkardi:

Mirzomki Shohi bahru bar bo’lg’usidur,
Olamda hunar birla sar bo’lg’usidur.
Bir muhmal uchun muncha inoyat bo’ldi,
Musta’mal agar desam, nelar bo’lg’usidur.

Ul fursatda Xoja Abulbaraka Firoqiy Shahrisabzdin Samarqandga kelib edi. Dedimkim, o’Shul radif va qofiyada aytmoq kerak edi. Bu ruboiyni Xoja Abulbaraka aytdi. Ruboiy:

Bu javrki qildi davr surulg’usidur,
Sultonu karam ul uzrni qilg’usidur.
To’kulg’an agarchi to’lmas, ey soqiy,
To’kulg’onimiz bu davrda to’lg’usidur» (143-bet).

Ko’chirilgan parcha bir necha fikrni o’rtaga tashlash imkonini beradi. Bulardan birinchisi, Yuqorida ta’kidlanganidek, She’riyatning Bobur Mirzo uchun oShufta ko’ngilga tasalli berish vositasi vazifasini o’tagani, ayni choqda, ijodkor to’lqinli ruhiy olamining asarga singib borishidir. Ikkinchidan, ko’zdan kechirilgan lavhalar Bobur Mirzo ijodiy takomil yo’lini tiklashda, muallif asarlarining paydo bo’lish tarixi, Shu bilan bog’liq ravishda u yoki bu asar maydonga kelgan paytdagi uning shaxsiy kayfiyatini (albatta, Ulug’ shoir hamma She’riy asarlarining ham emas) aniqlashda «Boburnoma»ning zaruriy manba ekanligini ko’rsatadi. Yana, Shu kichik bir manzaraning o’zi Zahiriddin Muhammad Boburning ijod ahliga xayrixohlik bilan qaraganidan, ularga moddiy va manaviy madad ko’rsatib turganidan dalolat beradi. Bobur Mirzo ruboiysi va unga Kamoliddin Binoiyning javobiya She’ri buning Yorqin dalilidir. Kamoliddin Binoiyning bu ruboiysi ikkinchi bir jihatdan ham g’oyat muhim. YA’ni, uning o’zbek tilini Yaxshigina bilganligi va ba’zan bu tilda qalam tebratib, Shiringina She’rlar bitib turganligidan nishonadir.

Bobur Mirzoning sertashvish va mashaqqatli hayotidan Yana bir lavha. Muallif Yozadi: «Ushbu chashmadin Yuqori Mascho doxilidur. Quyi palg’arg’a taluqdur. Ushbu chashma boshida, chashma yoqasidagi toshida qazib, bu Uch baytni sabt ettim:

Shunidanki, Jamshedi farrux sirisht,

Ba chashmamae bar sange navisht:
Barin chashma chun mo base dam zadand,
Biraftand to chashm barham zadand:
Giriftem olam ba mardiYu zo’r,
Valekin naburdem bo xud ba go’r.

Ul Ko’histonda bu rasmdurkim, toshqa qazib, abyot va nimalar bitirlar.» bu She’riy parcha nashrga tayyorlovchilar tomonidan quyidagicha izohlangshan: «Eshittimki, qutlug’ tabiatli Jamshid bir buloq boshida tosh ustiga Shunday deb Yozgan ekan: «Bu buloq tepasida bizlar singari ko’p kishilar kelib o’lturdilar, ketdilar va yo’q bo’ldilar. Olamni mardlik va zo’rlik bilan oldik, lekin o’zimiz bilan go’rga eltmadik» (155-bet).

Keltirilgan iqtibos Bobur Mirzo hayotining 1501 – 1502 yillaridan bir lavhadir. Movarounnahrga hujum boshlagan Shayboniyxon zarbasiga qarshilik ko’rsata olmagan Bobur Mirzo Dahkatga va undan Obburdanga, u erdan esa Maschoga o’tadi. eslatilgan chashma Obburdandan sal quyiroqda joylashgan ekan. Ammo bu misolni keltirish murod bular emas. Balki Bobur Mirzoning ijodiy faoliyatidagi muhim bir nuqtani – adabiy san’at ma’nosidagi zullisonaynlik va fors-tojik adabiyotiga bo’lgan ehtiromining nihoyat balandligini ta’kidlashdir. Uning har bir jumlasi olam-olam mazmun tashiydi. Bu o’z-o’zidan qo’lga kelmaydi, albatta. Bunda muallif zakovati va til bilishdagi donishmandliginamoyondir. Bobur Mirzo o’zidagi ana o’sha ilohiy inoyatni chuqur tushungan va unga doimiy amal qilgan. Shu vajdan duch kelgan voqeani, qo’lga tushgan ma’lumotni «Boburnoma»ga kiritmaydi, balki ularni tanlaydi, saralaydi, zarur, Yangi va o’quvchi uchun foydali bo’lishi mumkin bo’lganlarini bu nodir kitobiga kiritadi.

Mascholiklarning toshga bitish odati ana shunday nozik, muhim va Shu joy ahli uchun xos hodisa ediki, Bobur Mirzo uni ilg’ab oldi, «Boburnoma»ga kiritdi va o’zi amal qildi. Bobur Mirzoning bu juz’iy harakatida Shirin bir orzu, umidbaxsh ramz Yashirinday tuyuladi. YOki ulug’ sarkarda va Shoir toshdagi bitiglar umri Yashovchanligining o’z asarriga ko’chishini nihoniy orzu qilib o’rgan bo’lsa, ajab emias. Mashaqqatlarga to’la qisqa umri davomida badiiy ijod bilan mashg’ul bo’lgan, o’zbek va fors-tojik tillarida ba’zan o’ynoqi She’riy asarlar bunyod etgan, necha ilmiy risolalar meros qoldirgan va nihoyat, «Boburnoma»day Yuksak ma’naviy xaxinani Yaratgan Bobur Mirzoning o’sha ezgu istagi rost bo’lib chiqdi. Uning tabarruk nomi va latif satrlari jonsiz va sovuq toshdan vorislarining qaynoq qalbiga ko’chdi va asrlar osha ular bilan

birga Yashab, nafis bir zavq hadya etib, sinchkov muxlislari tilida aks-sado berib kelayotir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan lavhalar Bobur Mirzo hayotining fojealarga to'la davrlariga to'g'ri keladi. Ikki karra Samarqandni qo'ldan chiqargan Buyuk sarkardaga Andijon taxti ham buyurmadi. Ahmad tanbal xiyonat yo'lini tutdi va Bobur Mirzoni Shaharga kiritmadi. Yigitlari to'rt tomonga tarqalib ktdilar. Ahmad Tanbal ta'qibini susaytirmadi. Bu etmaganidek, uning muborak boshi uchun katta boylik ham va'da qildi. Ana shu yo'sin taqdir shamoli Bobur Mirzoni Badaxshon kentlariga uloqtirdi. Yusuf dorug'a kabi yigitlari ham xiyonat yo'liga o'tib oldilar. Ikki kundir taxt sohibi tuz tatigan emas. Bunday g'arib holatlar unga kuchli ta'sir ko'rsatdi va o'z iboralari bilan aytganda «o'zumni o'lumga qaror berdim» (175-bet). Bobur Mirzo tang vaziyat bilan Yuzma-yuz keldi. Boz ustiga, Yusuf dorug'a «Yana bir mardak» bilan birga o'ljani olishga Shoshilmoqda.

Dunyodan umidini uzgan Bobur Mirzo oxirat yo'lini tanladi. Musulmonligi g'olib keldi. Ariqda oqayotgan suvdan tahorat olib, vidolaShuv namoziga cho'kka tushdi. Ikki raka'tlik namoz munojoti uchun peshonasini erga qo'ygan Bobur Mirzoni lahzalik g'aflat uyqusi elitdi. Tush ko'radi. Xoja Ahrorning o'g'li YAhYoning farzandi Xoja Ya'qub qashqa ot mingan bir dasta yigitlari bilan ro'parasida turibdilar. Aytdilar, buni sizga Xoja Ahror Yubordilar va dedilarkim «har erda mushkul ish tushsa, bizni nazarig'a kelturub yod etsun, biz anda hozir bo'lurmiz» (175-bet). Xushxabar kayfiyati bilan boshini ko'targan Bobur Mirzo Yana o'lim tahlikasiga duch keldi. Yusuf o'z sherigi bilan uni bandi qilishga Shoshilmoqda edi. Tarvuz qo'ltiqdan tushdi, xayol o'z holicha qoldi.

Yo'q, mo'jiza ro'y berdi. Otlar dupuri quloqqa chalinadi. Bobur Mirzoning 10-15 chog'lik sadoqatli yigitlari uni izlab kelgan edilar.ularni ham uning Karnon kentida nochor ahvolda ekanligidan tushlarida Xoja Ahrori Vali xabardor qilganlar. Bugina emas, ulug' Xoja uning istiqbolli kelajagi haqida ham bashorat qilgan ekanlar (175-176-betlar).

Aytilganlar afsona emas, rostgo'y Bobur Mirzoning o'z iqrori. Muhimi, o'sha lavhalar rost bo'lib chiqdi va hayot qiyosida o'zini oqladi. Ko'ziga tik boqqan o'limlardan xalos topib, Yangidan dunyoga kelgan Bobur Mirzo «tokay bu Farg'ona viloyatiga sargardon bo'lib turmoq kerak, bir tarafga talab qiloyin» (176-bet) tarzida qat'iy hukm chiqardi va mulki afg'on tomon yo'l oldi. Ana shu tariqa ilohiy inoyat ila yo'g'rilgan bu ulug'zot umr yo'lida naqshbandiYa arbobi Xoja Ahror zulmat bag'rini chok etuvchi mash'ala vazifasini o'tagan.

Yuqorida ko’zdan kechirilgan juda ko’p sonli dalilllar, manzaralardan ayonki, Zahiriddin Muhammad Bobur tabiatidagi san’at va adabiyotga bo’lgan g’oyat baland muhabbat, Yurakdan shaydolik faqatgina uning She’riy asarlari doirasida qolib ketmagan, balki adib va adabiyotshunosning adabiy-tanqidiy qarashlariga ham ko’chgan. Muallif tabiatidagi ko’lamli qarashlar ijod ahli va adabiy muhit manzaralarini baholashda ravshan ko’rinadi.

Bobur Mirzo «Boburnoma»da o’nlab qalam sohiblari xususida qimmatli ma’lumotlarga joy berib, g’oyat sharafli va muhim savob ishni bajarib ketdi. Uning bu sharofatli ishi, birinchidan, XV asrning ikkinchi Yarmidagi Xurosonu Movarounnahrning gavjum adabiy muhiti haqida boy taassurot bersa, ikkinchidan, Bobur Mirzoning aruz nazariyasiga oid chuqur ilmiy, rang-barang ma’lumotlarga boy «Muxtasar» asarining tug’ilishiga doYa bo’lgani Shak-Shubha qoldirmaydi. Buni «Muxtasar» - «Risolai aruz»da keltirilgan badiiy parchalar juda ko’pchilik qismining Shu davr adabiy muhitigaga taalluqli ekanligi, unda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Badriddin Hiloliy, Muhammad Solih, Amir Shayxim Suhayliy, Mavlono Osafiy, Kamoliddin Binoiy, Bihishtiy, Hisomiy, Sayfiy Buxoriy kabi Shoirlar She’rlarining misol sifatida tez-tez keltirilishi ham quvvatlaydi. Ikkinchidan, «Boburnoma»da Hirot adabiy maktabida tarbiya topgan, unda balog’atga etib, Shuhrat taratgan tab’ ahlining nomi bot-bot ko’zga tashlanadiki, bu ham Bob’bur Mirzoning o’sha Shahar madaniy hayotiga katta qiziqish bilan boqqanligini ko’rsatadi.

Bizning ushbu xulosamizni «Boburnoma»da keltirilgan mana bu jumlalar ham quvvatlaydi: «Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamson edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis Hiri Shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg’ullug’i bYuor edi, himmati va g’arazi ul edikim, ul ishni kamolga tegurg’ay» (239-240-betlar). Ko’zdan kechirilgan parchaning Yana bir fazilati Shundaki, o’sha jumlalar asar muallifining Sulton Husaayp Boyqaro saltanati davrida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar homiysi, sarkori bo’lgan Hirot adabiy muhiti haqida o’rtaga tashlanadigan mulohazalarining devochasi vazifasini o’taydi. Bobur Mirzo ana shu Yakunlovchi hukm, xulosaning isboti uchun davr madaniy hayotidan xilma-xil dalilllar keltirib, kitobxonlarni qanoatlantiradi.

Bobur Mirzo tomonidan «Boburnoma»ga kiritilgan nodir ma’lumotlar faqat adabiy hayotga tegishli bo’lmay, balki keng qirralidir. Unda Shoirlar bilan bir qatorda taniqli xattotlvr, musiqa olamining donishmandlari, zamona zukkolari tomonidan e’tirof etilgan tmudarrislar, naqqoshu musavvirlar, tarix sohasining bilimdonlari va hokazolar haqida ham ixYaam, aniq va odilona fikrlar o’rtaga tashlanadi.

O’shalardan ayrimlarini ko’rib o’taylik. «Boburnoma»da Mavlono Shayx Husayn, Mullozodai Mullo Usmon, Mir Jaloliddin kabi olimlar nomi zikr etilgan. Bobur Mirzoning xasssosligi Shundaki, ular haqida kichkina bir jumlada katta haqiqatni ifodalashga erishgan: «Yana Mavlono Shayx Husayn edi... Hikamiyot va aqliyot va kalom ilmini xo’b bilur» (240-bet). «Yana biri Murtoz edi, Hakamiyot va ma’qulotni Yaxshi bilur edi, aning uchun bu laqab bila mulaqqab bo’lubturkim, bisYor ro’za tutar erkandur» (240-bet). «Yana bir Mir Jaloliddin muhaddis edi. Hadis ilmini Xurosonda oncha bilur kishi yo’q edi, xeyli muammardur» (240-bet). Muhimi Shundaki, Bobur Mirzo har bir tarixiy shaxsning o’ziga xos xislatiga, ajralib turuvchi fazilatiga alohida e’tibor bilan qaragan.

«Boburnoma»da madaniy hayot talqini haqida gap ketar ekan, unda yetakchi qaydlarni adabiyot ahliga doir mulohazalar tashkil etishini zo’r qoniqish bilan ta’kidlash joizdir. «Boburnoma»ning bu sohadagi ma’lumotlarini, eng avvalo, ikki qismga ajratish mumkin. Birinchisini turli ijtimoiy tabaqalardan chiqqan va Shu sohaning fidoyilari sifatida tanilgan ijodkorlar borasidagi gaplar tashkil etadi. Ikkinchi guruhga arkoni davlat vakillaridan tab’i nazmi bo’lganlari kiradi. Bobur Mirzoning ijodkorlar haqidagi ma’lumotlari tarixiylik nuqtayi nazaridan haqqaniy va ishonchli bo’lganligi bilan ayricha e’tiborga loyiq. To’g’ri, uning fikrlari ba’zan bir yoqlamalikdan, shaxsiy mayl aralaShuvidan ham xoli emas.Ulkan adib qarashlaridagi bunday juz’iy nuqsonlar o’z vaqtida o’zbek adabiyotshunosligiga paydo bo’lgan ishlarda qayd qilingan va munosib baho berilgan edi. Taniqli olim B.Valixo’jayevo’zining «XV – XIX asrlar o’zbek adabiy-tanqidiy qarashlari tarixidan» nomli tadqiqotida Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy-tanqidiy qarashlari ustida ham batafsil to’xtaladi va Shayboniy*xon – Bobur, Muhammad Solih – Bobur munosabatlari misolida uning qarashlarida shaxsiy raqobat ta’siri, tarafkashlik alomatlari borligini ko’rsatadi (SamDU. Asarlar, 138-nashr, 104-bet). Lekin Boburning dunyoqarashida chegaralangan aqidalar emas, balki mavjud turmushga, hayotga va uning go’zalligiga, inson va uning fazilatlariga qiziqish, ularni qo’llvash asosiy o’rinni egallar edi. Uning lirikasi ham, «Boburnoma»si ham va Shularda ifoda etilgan adabiy-tanqidiy qarashlari ham Shunday dunyoqarashga asoslanadi. Shuning uchun Bobur Mirzoning adabiy-tanqidiy qarashlari bugungi adabiyotshunoslik talablariga to’la mos keladi va XV - XVI asrlar adabiyotini o’rganishda ishonchli manba bo’la oladi.*

Bobur Mirzoning Sulton Husayn Boyqaro saltanati davridagi Shuaro xususidagi ma’lumotlari Alisher Navoiyning tabarruk nomi bilan ibtido topadi.

«Boburnoma» muallifi Alisher Navoiy haqida nisbatan mufassalroq to'xtalgan va aytish mumkinki, ulug' o'zbek Shoirining hayot yo'li, ijodiyoti bobidagi asosiy nuqtalarni qamrab olishga erishgan. Jumladan, Alisher Navoiyning Sulton Husayn Boyqaroga tegishliligi, Xuroson davlati tizimida tutgan mavqei, tabiati, san'at ahliga g'amxo'rligi, oilaviy hayoti va vafoti singari masalalar uning Yozuvlarida aksini topadi. Jumladan, Bobur Mirzo Yozadi: «Yana Alisherbek edi, begi emas edi, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar... Samarqandga bordi... Alisherbekning mijozi nozuk bila mashhurdir. el nazokatini davlatining g'ururidin tasavvur qilur edilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozuk mijoz ekandur... Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay... O'g'ul va qiz va ahli ayol yo'q, olamni tavri fard va jariyda o'tkardi... Mirzo (Sulton Husayn Boyqaro – R.V., H.E.) bilan ko'rishib qo'pquncha bir holat bo'ldi, qo'polmadi, ko'tarib eltdilar. Bir bayti hasbi hol voqi' bo'lubtur.

Bu dard ilaki o'larmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu balog'a ne chora qilg'aylar» (233-b.).

Biz bu erda Bobur Mirzo bergan ma'lumotlarning Alisher Navoiy shaxsiYati va ijtimoiy faoliyatiga taalluqli o'rinlarini ko'chirdik. Aytish kerakki, Bobur Mirzoning bu mushohadalari ixcham xulosalar bo'lib, ularga Buyuk Shoirning Yuzlab olijanob ishlari asos bo'lgan. Bobur Mirzo Alisher Navoiyning kichik zamondoshi sifatida o'sha xayrli ishlarning aksariyatini eshitgan, Hirotda uning uyida yashagan paytidaa ko'rgan va Yuqoridagi xulosalarga kellgan. Bu parchada Bobur Mirzo zukkoligining tasdiq etuvchi kichkina bir lavha diqqatni o'ziga tortadi. U ham bo'lsa, Alisher Navoiy tabiatidagi nozik mijozlik bilan bog'liqdir. Garchi Aliher Navoiy haqida ma'lumot beruvchi manbalarning aksariyati masalaning bu tomoniga ishora qilsa-da, Bobur Mirzochalik ravshan va chuqur tavsif bermaydi.

Bobur Mirzoning donishmandligi Shundaki, Alisher Navoiy tabiati, fe'lu atvoridagi o'sha jihatni qayd etadi, el orasida Yurgan gaplarga ham ishora qiladi, ularning barchasini to'plab aql va adolat mezonidan o'tkazgach, qat'iy hukmini o'rtaga tashlaydi. O'zining o'rtaga tashlagan lo'nda mushohadasi tasdig'i uchun Bobur Mirzo Alisher Navoiy faoliyatining Hirot davriga emas, balki Samarqanddagi yillariga ishora qiladi. eotan, mantiq va odillik ham Shuni taqozo etardi.

Alisher Navoiy Samarqandda oddiygina tolibi ilm bo'lgan chog'larida, hatto o'z tirikchiligini zo'rg'a tebratgan bo'lsa-da, tabiatida o'sha noziklik mavjud edi. Modomiki Shunday ekan, bu holat na munosabatva na boylik,

molu dunyo bilan bog'liq, balki uning qoni va joniga ona suti bilan sinnggan xususiyatdir.

Bobur Mirzo Alisher Navoiy ijodi haqida batafsil ma'lumotlar keltirar ekan, faqat ro'yxatni berish bilan kifoYalanmay, ularga o'z munosabati, nuqtayi nazarini ham bildirishga harakat qiladi: «Alisherbek naziri yo'q kishi edi, turkiy til bila to She'r aytubturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas... Yana ba'zi musannafoti borkim, bu mazkur bo'lg'onlarga boqa pastroq va sustroq voqi' bo'lubtur. Ul jumladin insholarini Mavlono Abdurahmon Jomiyga taqlid qilibtur» (233-b.).

Biz bu o'rinda ataylab Bobur Mirzoning tanqidiy fikrlarini ko'chirdik. Bobur Mirzo Alisher Navoiyning «Xamsa», «Xazoyin ul-maoniy» va «Lison ut-tayr» asarlarini e'tirof etadi hamda ularning katta mahorat mevasi ekanligini tan oladi. Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Xamsat ul-mutahayyirin», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Majolis un-nafois» kabi bir qator asarlari Zahiriddin Muhammad Boburga «pastroq» va «sustroq» bo'lib ko'rinadi.

Nazarimizda, masalaning bu tomoniga qo'shilish qiyin. Alisher Navoiy qalami ostidan chiqqan asarlarning badiiy mahorativa g'oyaviy yo'nalishi jihatidan bir xil mezonda o'lchash va teng qo'yish da'vosini mustasno qilgan holda keyingi asarlarining ham kamsitilishiga norozimiz. Shu o'rinda Yana bir nozik jihatni ham hisobga olishga to'g'ri keladi. Alisher Navoiy Yaratib qoldirgan ma'naviy meros Chinakamiga katta xazina. Undagi duru javohirlar miqdori va qimmatini aniqlash bir kishining qo'lidan keladigan ish emasligi o'z-o'zidan ayondir. Shu ma'noda Bobur Mirzo ma'lumotlariga tanqidiy qarash lozim. Bobur Mirzo bitta shaxs bo'lgani uchun ham u Alisher Navoiyning barcha asarlarini tahlil etish va xolisona baholashga qodir emasligi hech kimga sir emas.

Bu ishning murakkabligini bugungi navoiyshunoslik misolida ham ko'rish mumkin. Hozirga qadar Alisher Navoiy adabiy merosini tadqiq qilishga bag'ishlangan o'nlab doktorlik va Yuzlab nomzodlik tadqiqotlari Yozilgani, o'nlab ilmiy to'plamlar, elliklab turli hajmdagi kitoblarning bosilib chiqqanligiga qaramay, hali ham Buyuk mutafakkir ijodida o'rganilmagan, tadqiqotchisini kutayotgan sohalar juda ko'p.

Masalaning bu jihati Bobur Mirzo oldida turgan mushkilotni hisobga olib, uni to'g'ri tushunish zarurligini ko'rsatadi. Yana Alisher Navoiy o'z maktublarini yig'ishtirib, to'plam («Munshaot») tuzganligi Bobur Mirzoga Abdurahmon Jomiyga tanqidan tuyuladi. Adabiy jarayonda, dahosan'atkorlar faoliyatida ko'zga tashlanadigan Yaxshi, ijobiy an'analarni o'rganish, davom

ettirish sharafli ish. Bobur Mirzo ham taqlidni salbiy ma'noda qo'llamagan bo'lishi mumkin.

Bobur Mirzo Alisher navoiyning adabiy faoliyati xususidagi gaplarini davom ettirar ekan, uning «Mezon ul-avzon»i haqida Yozadi: «Yana «Mezon ul-avzon» otliq aruz bitibtur, bisYor madxuldur. Yigirma to'rt ruboiy vaznida to'rt vaznida g'alat qilibtur. Ba'zi bahurning avzonida Yangilibtur, aruzga mutavajjih bo'lg'on kishiga ma'lum bo'lg'usidur» (233-b.). bobur Mirzo «Boburnoma»da «Mezon ul-avzon»dagi nuqsonlarni qayd qilgani holda, «Muxtasar» - «Risolai aruz» asarida bu haqda hech narsa demaydi. Mazkur asar ustida maxsus ilmiy kuzatishlar olib borgan va uni nashrga tayyorlagan Saidbek Hasan «Boburnoma»dagi ma'lumotlarga qaytib, u haqda o'z fikrini bayon etadi: «Fikrimizcha, - deydi Saidbek Hasan «Muxtasar»ga Yozgan so'zboshisida, - Bobur «Mezon ul-avzon»ning xattot tomonidan Yanglish ko'chirilgan nusxasidan foydalanib, keyinchalik esa mazkur ruboiy vaznlarida nuqsonlar yo'qligini aniqlagach, bu haqda gapirishni lozim topmagan bo'lishi kerak» (10-b.).

Saidbek hasanning bu fikriga qo'shilsa bo'ladi. Chunki Shunday holat Yuz bermaganida, Bobur Mirzo bu masalaga qaytgan va yo ishora qilgan bo'lardi. Alisher Navoiy va Bobur mirzo munosabatlari haqidagi bahsimizning na bir e'tirozli parchasini keltirish bilan Yakunlaymiz. «Boburnoma» sohibi Alisher Navoiyning zullisonayn ijodkor ekanligini inobatga olib, uning fors-tojik tilidagi merosi haqida Yozadi: «Forsiy devon ham tartib qilibtur. Forsiy nazmda «Foniy» taxallus qilibtur, vale aksar sust va furudtur» (233-b.).

Zahiriddin Muhammadning bu fikrlariga munosabat bildirishdan avval Shu masalaga taalluqli ayrim parchalarni ko'zdan kechiraylik. Alisher Navoiyning o'o'zi Yozadi: «Yana forsiy g'azaliyot devoni Xoja Hofiz tavridakim, jami' suxan adolar va nazm piyrolar nazarida mustahsan va matbu'dur tartib beribmenkim, olti mingdin ab'yoti adadi ko'prakdur...» (Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik, 14-jild. Toshkent,1967, 125-b.). Fors-tojik adabiyotining tenggi yo'q san'atkori Abdurahmon Jomiy Alisher navoiyning «Tufhat ul-afkor» qasidasini mutolaa qilar ekan, undan olgan zavq va taassurotlarini nazmga ko'chiradi (Qarang: Jomiy va Navoiy. Toshkent: «Fan», 1966, 39-b.). alisher Navoiyning o'zi olti ming baytdan ziyodroq fors-tojik tilidagi asarlarining zamon donishmandlariga manzur bo'lib, ular tahsiniga sazovorligini qayd etadi. Uning «Tuhfat ul-afkor» falsafiy qasidasi Buyuk Jomiyning Yuksak bahosini olganligi, hatto, ramziy sovg'alar (bo'rk va ro'mol) bilan taqdirlangani ma'lum. Abdurahmon Jomiy qalb daftarida

Alisher Navoiy merosiga doir bunday samimiy gaplarni ko'plab Uchratish mumkin.

Fors-tojik adabiyotining zukko donishmandi akademik A.M.Mirzaev Alisher Navoiyning fors-tojik tilidagi merosi bilan uzoq yillar Shug'ullandi va qimmatli xulosalarga keldi. Olim Alisher Navoiyning o'sha tildagi merosiga tayanib, uni XV asr adabiyotining Abdurahmon Jomiydan keyingi Buyuk siymosi tarzida qadrlaydi (Bu haqda murojaat etilsin: Mirzoev A.M. Navoiy va Hofiz. «Navoiy va adabiy ta'sir masalalari» to'plamida. Toshkent: «Fan», 1968,62-b.). Fikrimizcha, aksariyat asarlari «sust va furud» bo'lsa, Alisher Navoiy bu qadar taqdirga sazovor bo'lmagan bo'lar edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Abdurahmon Jomiyga baland e'tiqod, ixlos va hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Uni Hirot Shoirlarining «saromad va sardaftari» tarzida qayd qilar ekan, samimiYat ruhi ufurib turgan qalb so'zlarini izhor etadi: «Ul jumladin biri Mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo'q edi. She'ri xud ma'lumdir. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta'rifqa ehtiyoji bo'lg'ay...» (240-b.).

Bobur Mirzoning Abdurahmon Jomiyhaqidagi aqidalari Shular bilan xotimalanmaydi. Balki asarining boshqa o'rinlarida ham ustoz ijodkorning tabarruk nomini tilga oladi, undan cheksiz hurmatini darig' tutmaydi. Jumladan, fors-tojik adabiyotining ko'zga ko'ringan arboblaridan biri Abdullo Xotifiyning yodga olganda, uning Abdurahmon Jomiyga Yaqin qarindoshligi borligini ta'kidlab o'tadi: «Yana Abdullohi masnaviygo'y edi, Jomdindur. Mulloning xoharzodasi bo'lur, taxallusi «Xotifiy» edi. «Xamsa» muqobalasida masnaviylar aytibdur. «Haft paykar» muqobalasida aytqon masnaviysiga «Haft manzar» ot qo'Yubdur. «Iskandarnoma» muqobalasida «Temurnoma» aytibdur. Bu masnaviylardin «Layli va Majnun» mashhurroqtur. Agarchi latofati Shuhraticha yo'qtur» (243-b.).

Ko'rinadiki, zahiriddin Bobur Xotifiy ijodiyotining yetakchi qirralarini qamrab olishga intilgan. Lekin xotimada Yana boburona uslub g'olib keladi, Xotifiydagi katta ijodiy qobilitdan ko'z Yummagani holda, uning shaxsiYatidagi latofatsizlikni tanqid qiladi. Muhimi, Bobur Mirzo ma'lumotlari Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois»idagi qaydlariga rost keladi. Alisher Navoiy ham Abdullo Xotifiydagi balandparvozona Yurishni ma'qul ko'rmaydi. «Agarchi zohir Yuzidin, - deb Yozadi Alisher Navoiy, - Hazrati Maqdumi Nuranga o'zin qarobat tutar, ammo ma'ni Yuzidin bag'oyat yiroqdur» (Alisher Navoiy. Asarlar. 12-jild. Toshkent: «Fan», 1966, 76-78-b.). Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ma'lumotlari deyarli bir-biriga monand. Faqat birgina

masnaviy nomida tafovut bor. Alisher Navoiy: « «Iskandarnoma» muboqalasida «Zafarnoma» nazmiga mashg'ul erdi»,-deb Yozadi. Bobur Mirzo esa uni «temurnoma» tarzida keltiradi. Alisher Navoiy u haqda ma'lumot berganda, Abdullo Xotifiy asarini endi Yozishga kirishgan edi. Zahiriddin Bobur esa bu Shoir masnaviysini nihoyasiga yetkazgandan keyinuni ko'rgan bo'lishi mumkin. Muallif esa o'z masnaviysini dastlab «Zafarnoma» deb atagan va ijodiy ish intihosida uning nomini o'zgartirgan bo'lsa, ajab emas. Shunday qilib, ijodkor shaxsi, uning xatti-harakatiga munosabat masalasida Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur qarashlarining bir-biriga hamohangligi Aldullo Xotifiyga berilga ma'lumotnoma misolida Yana bir karra Yorqin namoyon bo'ladi.

«Boburnoma»da tab'i nazmi bo'lgan bir qator temuriy Shoh va Shahzodalar, vaziru vuzarolarning nomlari ham zikr etilgan. Yuqorida ko'rganimiz singari bu o'rinda ham Zahiriddin Bobur jiddit va imkon qadar odillik bilan mavjud adabiy dalillarni ko'zdan kechiradi, ularga shaxsiy munosabatini bildiradi. Chunonchi, UmarShayx Mirzo, Hasan Ya'qubbek, Kichik Mirzolar haqida Bobur Mirzo mulohaza Yuritar ekan, ularning fe'lu atvoridagi o'ziga xos jihatlarini ko'rsatishga intiladi. Masalan, Hasan Ya'qubbekning «kichik ko'ngulluk, Yaxshi tab'liq, chust va chaspon»ligini e'tirof etar ekan (70-71-b.), UmarShayx Mirzoning «tab'i nazmi bor»ligi, «vale She'rga parvo qilmas»liginiko'rsatadi (64-b.). bobur Mirzoning Shahzodalardan Muhammad Husayn Mirzo va Shohg'arib Mirzolar haqidagi fikrlari ham alohida e'tiborga molikdir. «Boburnoma» sohibi Muhammad Husaynning tab'i nazmi borligini aytib, undan bir bayt keltirsa (225-b.), Shohg'arib Mirzo haqida nisbatan kengroq to'xtaladi: «Yana Shohg'arib Mirzo edi, - deb Yozadi Bobur Mirzo o'sha asarida,- bukri edi. Agarchi hay'ati Yomon edi, tab'i xo'b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg'ub edi. «G'aribiy» taxallus qilur edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy va forsiy She'r aytur edi. Bu bayt aningdurkim:

Dar guzar didam pariro'e Shudam devonaash,
CHist nomi o', kujo boshad nadonam xonaash.

(Mazmuni: Guzarda bir pariYuzni ko'rib, devona bo'ldim. Uning ismi nima, uyi qayerdaligini bilmadim.)

... Otasining zamonida o'q naql qilidi. Andin o'g'ul, qiz qolmadi» (224-b.). bu parchaning qimmati Shundaki, qayta-qayta ta'kidlanganidek, obur Mirzo uchun na joy, na mavqe, na husnu chiroy, balki shaxsning u yoki bu soha uchun qilgan xizmati, o'ziga xos fazilatu belgilari, ma'lum sohada qo'shgan Yangiligi birinchi o'rinda turadi. Muallif ana shu talablar doirasida

u yoki bu san’atkor, Shoir va tarixiy shaxsga baho beradi. G’aribiy garchi bukri bo’lsa-da, «kalomi marg’ub», Bobur Mirzo uchun o’sha fazilat muhim va Shuning uchun u haqda samimiYat bilan mulohaza Yuritadi.

«Boburnoma»ning qator sahifalarida Sulton Husayn Boyqaroga alohida ixlos va muhabbat bilan muomalaada bo’linadi. Muallif u haqda bilganlarini kitobxon bilan baham ko’radi. Zahiriddin Boburning Sulton Husayn Boyqaro saltanati, Yurishlari, arkoni davlat, nasl-nasabi, shajarasi haqidagi ishonchli ma’lumotlari XV asr tarixini o’rganishda muhim manbadir. «Boburnoma» muallifi Sulton Husayn Boyqaroning Shoirlik salohiyatini keng Sharhlaydi: «... Tab’i nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi «Husayniy» edi. Ba’zi baytlari Yomon emastur. Vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadur, bovujudkim, ham Yosh, ham saltanat bila ulug’ podshoh edi, kichiklardek qo’chqor saxlab, kabutar saxlab, kabutar o’ynar edi, tovuq ham urushqa solur edi» (222-223-b.). Keltirilgan parchadan ko’rinadiki, «Boburnoma» sohibi Husayn Boyqaro faoliyatiga har tomonlama baho berishga erishgan.

Tahlil jarayoniga tortilgan iqtiboslardan ayonlashadiki, «Boburnoma» o’z muallifi adabiy-tanqidiy qarashlarini o’rganishda bebaho dalillar bera oladi. Shuningdek, unda o’nlab fors-tojik, o’zbek tilida hamda har ikki tilda ijod qilib, o’lmas asarlar Yaratib qoldirgan Shoirlar haqida g’oyat aniq va zarur ma’lumotlarni keltirgan. Masalaning bu jihati «Boburnoma»ning o’zbek va tojik adabiyotshunosligi uchun XV – XVI asr birinchi Yarmi adabiyoti tarixini o’rganishda muhim manba sifatidagi qimmatini oshiradi. Ikkinchidan, bir qavm, bir qardosh maqomidagi o’zbek va tojik xalqlari adabiy birodarligi nurli sahifalari sifatida xizmat qiladi.

Mavzuga oid savollar:

1. Bobur Mirzo hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi mo’tabar manbalardan qaysilarini bilasiz?
2. Ulug’ hukmdor va ijodkorning hayoti va faoliyati borasida ilmiy izlanishlar olib borgan Sharqshunos olimlardan kimlarni bilasiz?
3. Bobur Mirzo nomining jahonga tanilishida ijod ahlidan kimlarning xizmatlari singgan?
4. «Boburnoma» muallifi otasi UmarShayx Mirzo haqida qanday ma’lumotlar keltiradi?
5. Bobur Mirzoning Farg’ona viloyati taxtiga o’tirishi tarixi haqida so’zlang.

6. Yosh hukmdorning Samarqandni egallab, keyinchalik bira to’la bu azim Shahar va Andijon taxtini qo’ldan berib qo’yishiga sabab nima?

7. Bobur Mirzoning : «Samarqanddek poytaxt turg’uncha, ne kiroyi ul qilg’aykim, Andijondek er uchun kishi avqot va zoe’ qilg’ay»,-degan fikrlarini izohlashga harakat qiling.

8. Etti ming askariy quvvatga ega bo’lgan tajribali hukmdor Shayboniyxondan juda oz sonli qo’shin bilan o’n to’qqiz Yoshli temuriyzoda Samarqandni tortib olib, nima sababdan uni Yana qo’ldan chiqaradi?

9. Bobur Mirzoning sarson-sargardonlikda o’tkazgan yillari haqida ma’lumot bering.

10. Kobul va G’azna Bobur Mirzo ixtiyoriga qachon o’tdi?

11. Husayn Boyqaroning Shayboniyxonga qarshi birgalikda kurashda Bobur Mirzoni ham taklif etganini Yosh temuriyzoda qanday qabul qildi?

12. Bobur Mirzoning Hirotda o’tkazgan kunlari haqida nimalar bilasiz?

13. Xonmirzoning isyoni haqida gapirib bering.

14. Muqammad Shayboniyxoning taqdiri nima bilan Yakun topadi?

15. Bobur Mirzo o’zini podshoh deb e’lon qilishining boisi nima?

16. Shoh Ismoil tomonidan kelgan elchilar Bobur Mirzo uchun qanday kutilmagan voqeaning sodir bo’lishiga sababchi bo’ldilar?

17.Bobur Mirzo Samarqandni Uchinchi marta qo’lga kiritganida, Yana qanday xatolari tufayli uni tashlab ketishga majbur bo’ldi?

18. BoburShohning Hindistonni egallashi tarixi haqida nimalarni bilasiz?

19. Bobur Mirzo qanday adabiy, ilmiy asarlar muallifi sanaladi?

20. Shoirning manzum asarlari deganda qaysi manbalar nazarda tutiladi?

21.Bobur Mirzo She’riyatidagi yetakchi janrlar qaysilar? Ularning mavzulari, o’ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

22. Shoir tuyuq janrini uning qanday ko’rinishlarini ijod etish bilan Yanada boyitdi?

23. «Boburnoma»ning Yozilishi tarixi, tuzilishi va o’ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

24. «Boburnoma»da muallifning o’z asarlari Yozilishi tarixi xususida qanday lavhalar keltirilgan? Asar asosida Bobur Mirzoning adabiyot va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyati haqida so’zlang.

25. Asarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Boyqaroning ijodiy faoliyatiga qanday munosabat bildiriladi?

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Gulbadanbegim «HumoYunnoma». Mirzo Haydar «Tarixi Rashidiy». Hasanxo'ja Nisoriy «Muzakkirul ahbob». Vitsen. Jon Leyden. U. erskin. R.M. Kalenot. Pave de Kurteyl. Denison Ross. A.Beverijd xonim. Len Pul'.E. Xolden. V.X.Moreland. N.I.Il'minskiy. N.I.Pantusov. S.I.PolYakov. N.I.Vaselovskiy. V.V.VYatkin. A.Samoylovich. V.Bartol'd. Ahmad Ali Kohzod. Abdulhay Habibiy. GulChin Maoniy. Zokir Husayn. Nurul Hasan. S.A.SHarmi. R.P.Tripatxi. P.Saron. Kanunga. Fuod Kupruluzoda. Rashid Rahmati Arad. Abdurauf Fitrat. YAhyo G'ulomov. Vohid Zohidov. Homil YOqubov. Porso SHamsiev Sabohat Azimjonova. Aziz Qayumov. Hamid Sulaymon. Said Aliev, B.Valixo'jayevS.Hasanov. Muni La'l. Flora Anna Stil «Boburxon». Fernand Grenand «Bobur». Harold Lemb «Bobur - sher». Vamber Gaskoni «Bobur va uning avlodlari yoki Buyuk Mo'g'ullar». Pirimqul Qodirov. Barot Boyqobilov. Xayriddin Sultonov. UmarShayx Mirzo. Sulton Ahmad Mirzo. Sulton Mahmudxon. Ali Do'st tog'oyi. Uzun Hasan. Jahongir Mirzo. Xoja YAhyo. Xoja Mavlono Abdullo qozi. Oysha Sultonbegim. Shayboniyxon. Boysung'ur Mirzo Sulton Ali Mirzo. XusravShoh. Xonmirzo. Shoh Ismoil. Ibrohim Lo'diy. Rano Sango. «Kobul devoni». «Hindiston devoni». «Xatti Boburiy». «Boburnoma», «Muxtasar». «Mubayyin». «VolidiYa».

Muhammad Solih va uning «Shayboniynoma» dostoni

Reja:

1.Muhammad Solih hayoti va ijodining o'rganilishi tarixi.
2. Hayoti va faoliyati
3. «Shayboniynoma» - tarixiy-jangnoma doston.

Adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik, - jild. Toshkent: «Fan»,

2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma.

3. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: «O'qituvchi», 1976, 609-633-betlar.

4. Muhammad Solih. Shayboniynoma. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.

5. O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 3-tom. Toshkent: «Fan», 1978, 88-104-betlar.

Muhammad Solih hayoti va ijodining o’rganilishi tarixi. Muhammad Solih - o’zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandalaridan biridir. XV asrning ikkinchi Yarmi XVI asrning 30-yillarida Yashab ijod etgan bu iste’dodli Shoir haqida Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Zayniddin Vosifiyning «Badoye’ ul-vaqoye», Xondamirning «Habib us-siYar», Hasanxo’ja Nisoriyning «Muzakkir ul-ahbob», Somiyning «Tuhfai Somiy», Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy», Lutf Alibek Ozarning «Otashkada» kabi qator manbalarda so’z Yuritiladi va turli baYozlarda uning ijodidan namunalar keltiriladi. Shuningdek, Shoir qalamiga mansub «Shayboniynoma» dostonidagi muallif tarjimayi holiga oid qaydlar ijodkor haqida ma’lum tasavvurlarni hosil qilishda imkon beradi.

Muhammad Solih – zullisonayn Shoir. U turkiy va fors-tojik tillarida ijod qildi. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» da Shoirning «Tab’ida xeli diqqat choshni bor»ligini, xattotlib bobida ham qobiliyatli ekanligini e’tirof etadi va uning quyidagi matlasini namuna sifatida keltiradi:

Nayam oShufta, gar po’shid kokul mohi tobonash,
CHi g’am az tiyragiyi shab, chu boshad subhi poyonash ( ).

(Mazmuni: Yorning kokili Yorqin oydek Yuzini yopib turgan ekan, undan parishon emasman. Oxirida Yana tong otishi ma’lum ekan, tunnning qorong’iligidan ne g’am?)

Alisher Navoiy nazariga tushgan ushbu bayt ijodkorining yetuk Shoir ekanligidan dalolat beradi. Unda oshiqning ma’shuqa visoliga vosil bo’lishiga ishonchi keltirilgan tamsil asosida Yorqin namoyon bo’lgan. Shoir Yorning qop-qora kokilini – tunga, uning Yorqin oydek Yuzini tongga o’xshatadi. Tundan so’ng tong otishi Yor jamoli Yuzidan sochlarini olishi bilan uyg’undir.

Ulug’ mutafakkir Alisher Navoiyning tazkirasida Muhammad Solihning «Shayboniynoma» dostoniga munosabat bildirilmaydi. «Majolis un-nafois»dagi qaydlar Muhammad Solih ijodining dastlabki bosqichiga taalluqlidir. «Shayboniynoma» esa Shoir ijodining ikkinchi bosqichi, uning Shayboniyxon xizmatiga kirganidan keyingi davriga tegishli bo’lib, doston ijodetiladigan vaqtda Alisher Navoiy bu foniy dunyo bilan vidolashgan edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da Muhammad Solihning g’azaliyotini qoniqish bilan e’tirof etgan holda, Shayboniyxonga bag’ishlangan turkiy masnaviysini «bisYor sust va furudtur» - deya baholash bilan

kifoYalanib qolmaydi. «Boburnoma» muallifi «ani o’qug’on kishi Muhammad Solih She’ridin bee’tiqod bo’lur» (163-b.), - deya ta’kidlaydi.

Muhammad Solih sohib devon Shoir sifatida go’zal nazmiy durdonalar Yaratgan bo’lsa-da, undan ayrim namunalargina bizgacha yetib kelgan, xolos. Adabiyotshunos Akromjon Ibrohimov Yuqorida nomlari tilga olingan mumtoz manbalar asosida Muhammad Solih lirik merosi haqida ma’lum tasavvvur hosil qilish uchun ulardan namunalar keltiradi (Qarang: O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 3-tom. Toshkent: «Fan», 1978, 92-94-betlar). Tadqiqotchi diqqatini o’ziga jalb etgan Shoirning quyidagi bayti ijodkor haqida Yaxshigina taassurot qoldirishi bilan ahamiyatlidir:

Asiri olami surat mabosh Solehi nodon,
Biyo ba olami ma’ni, ki olami digar ast in.

(Mazmuni: Surat olamining asiri bo’lma, ey nodon Solih, Ma’no olamiga kelki, bu olam boshqa olamdir) (O’sha kitob. 92-b.).

Taniqli adabiyotshunos A. Hayitmetov «Hayotbaxsh chashma» kitobida (Toshkent, 1974, 136-b.) Shoirning 2 ta, e. SHodiev esa «O’zbekiston madaniyati» gazetasida (1972 yil 11 iYul’) 10 ta g’azalini turli baYoz va majmualardan aniqlab e’lon qilishdi. Biroq Shoirning devoni haligacha ilm ahliga ma’lum emas. Shu bois Muhammad Solihning ijodiy salohiyatini, adabiyotimiz tarixida tutgan mavqeini hozirgacha to’la holatda saqlanib qolgan «Shayboniynoma» dostoni asosida baholash mumkin.

Dostonnning qo’lyozma nusxalari juda oz bo’lib, uning 1510 yilda, Shoir hayotligi davrida ko’chirilgan nusxasi bizgacha yetib kelgan. Bu noyob nusxa AvstriYa poytaxti Vena kutubxonasida saqlanadi. Mazkur qo’lyozma taniqli Sharqshunos olim Herman Vanberining diqqatini o’ziga jalb etgan. Olim 1885 yilda Shu nusxa asosida asarning nemischa tarjimasi bilan Venada nashr ettirdi. Shu tariqa «Shayboniynoma» XIX asrning oxirlaridan qayta ilm ahli nazariga tushib qoldi. 1908 yilda rus Sharqshunos olimi P.M.Melioranskiy o’sha qo’lyozmaning fotonusxasi va H.Vamberi nashri asosida Sankt-Petrburgda asarning ikkinchi nashrini amalga oshirdi. Keyinchalik dostondan parchalar turli majmualardan o’rin ola boshladi. O’zbekistonda «Shayboniynoma»ning to’la nashrini 1961 yida Nasrulla Davron chop ettirdi. 1989 yilda taniqli olim ergashali SHodiev dostonni qayta nashr ettirdi. Har ikkala nashr uchun ham rus olimi P.M.Melioranskiy e’lon qilgan nusxa asos bo’lib xizmat qilgan. e.SHodiev «Shayboniynoma»ni qayta nashr etish jarayonida N.Davron nashridagi ayrim matniy nuqsonlarni bartaraf etishga jiddiy e’tibor qaratadi (Qarang: Muhammad Solih. Shayboniynoma. Toshkent: G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989, 9-10-b.). muhammad

Solihning hayoti va ijodi haqida nomzodlik dissertatsiYasini (1950 yil) Yozgan A.Ibrohimov Shoir haqida atroflicha ma’lumot beradi va «Shayboniynoma»ni teran tahlil qilishga harakat qiladi (Qarang: O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 3-tom. Toshkent: «Fan», 1978, 88-104-b.). ayni holat taniqli adabiyotshunos N.Mallaevning «O’zbek adabiyoti tarixi» (Toshkent: «O’qituvchi», 1976, 609-633-b.) kitobida ham kuzatiladi.

Hayoti va faoliyati. Muhammad Solih 1455 yilda Xorazmda dunyoga keldi. Uning otasi Amir Nur Saidbek temuriy hukmdorlardan Ulug’bek va Jo’gi Mirzo saroydaridagi e’tiborli kishilardan biri bo’lib, keyinchalik Abu Said Mirzo idorasi ostida bo’lgan Xorazm viloyatida ancha vaqt hokimlik qilgan. Bobosi Amir Shoh Malik esa Ulug’bek Mirzoning vasiysi va tarbiyachisi, Shuningdek, Amir Temur va Ulug’bek Mirzo saroylarida katta nufuzga ega bo’lgan amirlardan edi. Muhammmad Solih onasining nomi ma’lum emas. «Shayboniynoma»da uning Buxorodan ekanligini dalillovchi bir bayt Uchraydi:

Men bu so’z birla Buxoro keldim,
O’z onam uyini manzil qildim.

(Muhammad Solih. Shayboniynoma. Toshkent, 1989, 274-b. Izoh: Bundan keyin ushbu manbaga murojaat etilganda, qavs ichida sahifasini ko’rsatish bilan kifoYalanamiz – R.V., H.E.)

Abu Said Mirzo Hirot poytaxt Xuroson mamlakatini o’z tasarrufiga o’tkazgandan keyin, Husayn Boyqaro harbiy salohitini tiklash niyatida mamlakatning turli viloyatlarini qo’lga kiritish uchun harakat qila boshlaydi. 1467 yilda Husayn Boyqaroning Shunday jangovor harakatlaridan biri Xorazmni qo’lga kiritishga qaratilgan edi. Manbalarda ma’lumot berilishicha, mudofaa choralarini Yaxshi tashkil etolmagan Xorazm amirlari Husayn Boyqaroning hujumiga bardosh berolmay qochib ketadilar. Bundan g’azablangan Abu said Mirzo hamma amirlarini Xorazmga jo’natib gunohi ayon bo’lgan har bir kishiga jazo berish haqida farmon beradi. Xorazm himoyasiga beparvo munosabatda bo’lganlikda ayblangan Amir Nur saidbek zudlik bilan Hirotga olib kelinadi. Abu Said Mirzo uning butun mol-mulkini talon-taroj ettiradi, o’zini esa Ixtiyoriddin qal’asiga qamattiradi. Keyinchalik Nuriddin Abdurahmon Jomiyning iltimosiga ko’ra Amir Nur saidbek avf etiladi. Bu voqeadan so’ng bir oz muhtojlik azobiga giriftor bo’lgan Amir Nur Saidbek keyinchalik o’z mavqeini qaytatiklashga erishadi. U Yana katta amirlar qatoridan joy olishga muvaffaq bo’ladi. Biroq bu nufuzini saqlab qolish unga nasib qilmaydi. 1469 yilda Hirot taxti Husayn Boyqaro idorasi ostiga

o’tgandan so’ng, Abu Said Mirzoning ko’plab qin amir va beklari jazoga tortiladi. Ayni paytda Marv Shahrida bo’lgan Nur Saidbek ham qatl qilinadi.

Muhammad Solih «Shayboniynoma»da Yoshlik yillarida bo’lib o’tgan bu voqealarni quyidagicha xotirlaydi:

Laqabi Solihu o’zi tolih,
Nur Said o’g’li Muhammad Solih.
Mundoq ayturki, xudodin taqdir,
CHun otam ishiga berdi tag’yir –
CHiqdi Xorazm diYori qo’lidan,
Xivaqu Kot hisori qo’lidan.
Tushti andin guzori Marv sori,
Anda sovrildi evu eli bari.
Ayladi no’sh Shahodan jomi,
Anga no’sh o’ldi saolat jomi.
Mani gardun sitami qildi etim,
Ayladi kishvari g’am ichra muqim.
Xorliqlar bila o’stum bisYor,
Zorlig’lar bila ko’rdum ozor.
Har falokatki bo’lur dunyoda,
Hech qaysidin eman ozoda (32-33 b.).

Muhammad Solih mana shunday kulfatlar bilan qarshilashganiga qarmay Yoshlik chog’larida qunt va havas bilan o’qiydi.zamonasining ulug’ donishmandi va Shoiri, naqshbandiYa tariqatining yirik peshvosi Abdurahmon Jomiydan tahsil oladi. U arab va fors-tojik tilini mukammal o’rganishga harakat qiladi. Shu tillarda bitilgan adabiy asarlar bilan Yaqindan tanishadi. SHkningdek, tarix, falsafaga oid asarlarni sevib mutolaa qiladi. Xattotlik sirlarini puxta o’rganib, bu sohada ancha muvaffaqiyat qozonadi. Shoirning o’z e’tirofiga ko’ra, u goh Xurosonda, goh Samarqandda temuriy hukmdorlar saroyida xizmat qiladi. Jumladan, u Sulton Husayn Boyqaro saroyida mulozimlik qiladi. Biroq bu faoliyat uzoqqa cho’zilmaydi. Muhammad Solih otasi mol-mulkining talon-taroj bo’lishi hamda fojeali vafot etishiga temuriylar sababchi bo’lganidan nafratlanganligi bois Shayboniyxon xizmatiga o’tganligini ta’kidlaydi. Alisher navoiy esa «Majolis un-nafois»da uning saroydan ketishini quyidagicha izohlaydi: «Anga ham g’arib sahv (xato – R.V., H.E) tushtikim, Sulton Sohibqiron (Husayn Boyqaro – R.V., H.E.) qullig’idin g’aybat (ko’zga ko’rinmaslik, Yashirinish – R.V., H.E.) ixtiyor qildi. Ba’zi derlarki, bexudlig’ (aqlsizlik – R.V., H.E.) olamida Yamon musohiblar (do’stlar – R.V., H.E) ani bu Yamon yo’lg’a tutubturlar» ( ). Shunday

qilib, Muhammad Solih Alisher Navoiy e’tirof etgan «Yamon muhosiblar»idan biri Mullo Abdurahimning taklifi bilan 1499 yilda Shayboniyxon xizmatiga o’tadi.

Bu davrda Movarounnahrni tarqoqlik va boshbodoqlik bilan idora etayotgan temuriy hukmdorlarga qarshi mulktalablik iddaosi bilan ketma-ket hujum uyushtirib turgan Shayboniyxon Muhammad Solihning taklifini mamnuniyat bilan qabul qiladi. U Shoirga «amir ul-umaro» («amirlar amiri»), «malik ush-Shuaro» («Shoirlar sultoni») unvonlarini beradi. Shayboniyxonning bunday iltifoti o’ziga xos siyosiy ahamiyatga molik edi. Bu bilan u temuriylardan norozi bo’lgan yirik amaldorlar, olimu Shoirlarni o’ziga og’dirib olishga intilardi. Shayboniyxon «samimiYat»iga ishongan Muhammad Solih singari mulkni idora etishga qodir, harbiy salohiyatga ega bo’lgan kishilar unga sadoqat bilan xizmat qila boshladilar. Bunday xizmat har qanday mukofotga loyiqligini teran idrok etgan Shayboniyxon, manbalarda ma’lumot berilishicha, Buxoroni egallab, Samarqand tomon otlanganida, Muhammad Solihni o’z o’rnida Buxoroda qoldiradi.

Muhammmad Solih Shayboniyxonning juda ko’plab Yurishlarida u bilan birga ishtirok etadi. Bir oz muddat Qunduzda bo’ladi. 1504 yilda Shayboniyxonning ukasi Sulton Mahmud vafot etgach, hukmdorining ruxsati bilan Buxoroga keladi. 1504-1505 yillarda Xorazmning qamal qilinishida qatnashadi. Shayboniy qo’shinlari Xorazmga otlanib Qorako’lga kelganda, CHorjo’y hokimi Amir Yorali uni sovg’a-salomlar bilan qarshi olib, o’zining taslim bo’lganini ma’lum qiladi. Shayboniyxon Muhammad Solihni CHorjo’y hokimi qilib qoldiradi. Viloyatda tartib-intizomni o’rnatgan Muhammad Solih Yana hukmdori ortidan Xorazmga yo’l oladi. Bu orada qamalda qolgan Xorazm hokimi Chin So’fi Xuroson hukmdori Husayn Boyqarodan madad so’raydi. Husayn Boyqaro Shayboniyxonni chalg’itish maqsadida goh Qunduz, goh CHorjo’y va Movarounnahrning boshqa viloyatlariga hujumlar uyushtira boshlaydi. Muhammad Solih Yana CHorjo’yga qaytadi. Shahar qal’asini mustahkamlaydi, askarlarni jangga tayyorlaydi. «Shayboniynoma»dan ma’lum bo’lishicha, temuriy hukmdorlar Muhammad Solihni o’zlariga og’dirib olish niyatida unga elchi Yuboradilar. elchi CHorjo’y hokimining asli chig’atoy ulusidan ekanligini eslatib quyidagilarni bayon qiladi:

Dedilar: «Sen chig’atoy elisen,
Ushbu erda CHig’atoy xayli sen.
Na deb o’zbek bila yovar bo’ldung?
Xong’a bu Yanglig’ chokar bo’ldung?» (298-b.).

Muhammad Solihning temuriylardan nafratlanganligi, ularga nisbatan ko’nglida kek saqlab turgani quyidagi javoblarida ham Yanada Yorqinroq namoyon bo’ladi:

Men dedim: «Senga javobim o’qtur,
Mundin o’zga base so’zum yo’qtur.
Javringizdin otam o’ldi netoyin,
Boshima qayg’u o’kuldi netoyin?
Men otom qoni bila qotlonomen,
Men o’zum jonim uchun qotlonomen» (298-b.).

Muhammad Solih Yana qaytib Xorazmga, Shayboniyxon huzuriga boradi. Xurosonning chegara viloyatini qo’lga kiritgunlariga qadar o’sha yerda qoladi. Shoirning 1506 yildan keyingi hayoti haqida ma’lumotlar juda oz saqlanib qolgan. Manbalarda e’tirof etilishicha, u Ashxobod Yaqinidagi Neso Shahriga dorug’a etib tayinlanadi. Bu erda u Shayboniyxon vafot etgunga qadar, 1510-1511 yillaprgacha faoliyat ko’rsatganligi taxmin qilinadi. Keyinchalik u Buxoroga qaytib, umrining oxiriga qadar Shu erda istiqomat qilgan. Ilmiy manbalarda Shoirning vafot etgan sanasi Lutf Alibek Ozarning «Otashkada» asaridagi qaydga asoslanib hijriy 941, melodiy 1535 yil ekanligi ma’lum qilinadi.

«Shayboniynoma» - tarixiy-jangnoma doston. XVI asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy voqeylik, temuriylar sulolasining tarix sahnasidan chiqib ketishi va Shayboniylar sulolasi hukmronligiga asos solinishi tarixnavislik hamda badiiy ijodda o’z ifodasini topa boshladi. Bundan manfaatdor bo’lgan Muhammad Shayboniyxon temuriylardan arazlab uning xizmatiga bel bog’lagan Shoiru olimlar, Shuningdek, o’z saroyida faoliyat ko’rsatayotgan ijodkorlarni Yuqoridagi voqeylik tarixiga oid adabiy, tarixiy asarlar Yozishga da’vat etardi. Natijada Mullo SHodiyning 76 bobdan iborat «Fathnomai xoniy» («Xonning g’alabasi») nomli manzumasi, Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma» va «Futuhoti xoniy» («Xonning g’alabasi») nomli tarixiy asarlari Ro’zbehoning «Mehmonnomai xoniy» asari vujudga keldi. Bulardan tashqari, noma’lum muallif tomonidan «Tavorixi guzida - nusratnoma» deb ataluvchi nasr namunasi hamda Muhammad Solihning «Shayboniynoma» dostoni o’zbek tilida ijod etildi.

«Shayboniynoma» - Muhammad Shayboniyga bag’ishlangan doston bo’lib, uning temuriylarga qarshi Yurishlari asarda o’z ifodasini topgan. Doston 76 bob, 8902 misradan iborat. Dostonning 16 bobi an’anaviy muqaddimadan tarkib topgan. Unda Alloh hamdi, munojot, Muhammad

payg’ambarga bag’ishlangan na’t (1-3-boblar), so’z ta’rifi (4-bob), Shayboniyxon aqlining, ilmining, faqri va sulukining, hilmining, Qur’on o’qurining, tab’ining, qilichining, jibasining, karamining, hunarining ta’rifu tavsifi (5-14-boblar), kitob nazmining sababi (!5-bob) va Mullo Abdurahimning ta’rifi (16-bob)kabilar o’rin olgan. Asarning asosiy voqealari 17-bobdan boshlanadi. Bu boblarda 1499-1500 yillarda Shayboniyxonning Turkistondan Samarqandga qo’shin tortib kelishi, Samarqandni bosib olish uchun dastlabki urinishlarining barbod bo’lishi va chekinishi, Buxoro viloyatining hokimi Boqi Tarxon va uning qo’shinini DabusiYa qo’rg’onida (hozirgi Ziyovuddin Yaqinid) qamal qilib Buxoroni bosib olishi voqealaridan boshlab 1506 yilda Xorazmni bosib olib g’alaba bilan Buxoroga qaytishigacha bo’lgan voqeylik tarixiylik tamoyili asosida badiiy ifoda etiladi.

Dostonning Yozilgan sanasi asarda ko’rsatilgan emas. Shayboniyxonning Hirotni egallashi va o’z nomiga xutba o’qitganligi voqeasi «Shayboniynoma»da ifoda etilmaganligiga ko’ra, uni 1506-1507 yillarda Yozilgan, deyish mumkin.

Muhammad Solih asarning bosh qahramoni Shayboniyxonni ilohiy siymo sifatida haddan ortiq madh etadi. Dostonning to’rtinchi bobida ilohiy ne’mat sanalgan so’z ta’rifiga o’rin berilganidan so’ng, so’zi «ishqi jahoni»Yu «g’ayb lisoni» bo’lgan, o’zi «oshiq»u «orif», «Tangrining soyasi» Shayboniyxon madhiga o’tiladi. «G’aybdan oti Muhammad bo’l»gan Shayboniyxon, Shoirning fikricha, har jihatdan Yakto. U nafsi ustidan g’olib kelgan zot. Dini iymon yo’lida g’azot qiluvchi bu ulug’ xonning niyati shariYatga ziynat, ahli islomga quvvat berishdan iboratdir. Tangri amrini jon qulog’i bilan eshituvchi bu xon adolatini ehson bilan namoyon qiladi. Shuningdek, muallif Shayboniyxonning Qur’on tilovat qilishi, ilmiYu hilmi haqida quyidagi ehtirosli baytlarni bitadi:

SuYubon asrag’oni qur’ondur,
YUgurub quvlag’oni shaytondur.
Nafsini o’ziga dushman bildi,
Dushman o’lturmokini fan bildi.
Nuktasi nuktai qur’oniydur,
Majlisi – majlisi ruhoniydur.
Dardmandona chekibon ovoz,
Qilsa qur’on o’qimoqni og’oz.
Yig’latur tengrisevar qullarni,
Bog’latur dev kelur yo’llarni.
Ilm ahlini ajoyib istar,

Jahl qilg’onni bag’oyat qistar.
IshiYu kuchi bori hilm bila,
So’ziYu uni bori ilm bila (25-26-b.).

Muhammad Solih o’z hukmdori ta’rifu tavsifini Yuqoridagi ehtirosli baytlarda ifodalash bilan cheklanib qolmaydi. U «Hazrati imom uz-zamon, xalifat ul-rahmon Shayboniyxonning aqlining ta’rifidur», «Ul hazratning tengri inoyat qilg’on ilmining tavsifi», «Ul hazratning faqrining bayoni va sulukining dostonidur», «Ul hazratning hilmining hikoyatidur», «Ul hazratning qur’on o’qurining rivoyatidur», «Ul hazrat tab’ining maddohligi», «Ul hazratning qilichining madhguzorligi», «Jibasining sifati», «Hunarlarining vasfi» singari qator boblarda Shayboniyxonni ko’klarga ko’tarib maqtaydi. Bu ham etmagandek dostonning asosiy qismida ham bosh qahramon ta’rifiga tez-tez murojaat etiladi. Uning Shayboniyxon haqida: «Podshoh ulduru andin o’zga, Koinot ichra ko’runmas ko’zga» (27-b.) mazmunidagi balandparvoz fikrlari muallifning niyati bosh qahramon shaxsiYatini benazir, ideal qahramon darajasiga ko’tarishdan iboratligini Yaqqol namoyon qiladi. Shu bois Muhammad Solih Shayboniyxon shaxsini ulug’lash maqsadida uni ko’proq dinu iymondan so’zlatishga harakat qiladi. Jumladan, Xonikaxon va Alachaxonni mag’lub etgan Shayboniyxon ularga pand-nasihatlar qiladi. Nafsi ammoraning etti boshli ilonga o’xshatib, ular: «shavkat», «hasad», «jahl», «badxo’y»-Yomon odat, «g’azab», «tuli amal» -dunyoga hirs qo’yish, «o’lmoqi xalq ila dag’al»-xalqqa qo’pol munosabatda bo’lish ekanligini anglatadi. Shuningdek, Shayboniyxon mo’g’il xonlariga inson tanasida mavjud bo’lgan bu ilon- nafsi ammoraning yo’qotish uchun ko’p riyozat chekish kerakligi haqida va’z o’qiydi. Ayni holat Muhammad Solih orzusidagi hukmdorni tasvirlash imkonini hosil qiladi. Shoir Shayboniyxonning juda ko’plab xunrezliklar qilganiga guvoh bo’lsa-da, uni darveshtabiat podshoh sifatida tasvirlaydi:

Bordur ul podshohi nekandesh,
Toshtdin xonu ichidin darvesh.
Ichida bo’lmasa erdi bu hol,
Qoydin o’lg’oy edi zohir bu maqol.
Ko’p karomate ko’rubmen xondin,
Ko’p maqolat eshitibmen xondin (207-b).

«Toshidin xonu ichidin darvesh» - o’rta asr ijodkorlari orzusidagi hukmdor tasviri. Muhammad Solih Shayboniyxon siymosida Shunday podshohni ko’rishni orzu qiladi. To’g’ri, uning hukmdori haqida bitgan balandparvoz baytlarida taxaYoyulga erk berganligi, mubolag’aviy tasvirlar

vositasida Shayboniyxonni tarixiy shaxsdan adabiy qahramon darajasiga ko’targanligi anglashilib turadi. Biroq ayni holat Shoirning dostonnavislikdagi bir usuli sifatida namoyon bo’lganligini unutmaslik lozim. Muallif «Shayboniynoma»da qanchalik taxayyulga erk bermasin, u hayotiylikdan tamomila uzilib qolmaydi. Zero, ijodkor tarixiy voqealar tasvirida xolislikka rio qilishga harakat qiladi. Doston tarafkashlik va biryoqlamalikdan xoli bo’lmasa-da, uning ko’pgina o’rinlarida hayotiy haqiqat balqib ko’zga tashlanadi. Bu holat Shoirning adabiy niyatlaridan biri ko’rgan-kechirganlarini nazmga solishdan iboratligida namoyon bo’ladi. Shoir Shayboniyxonni vasf etarkan, bir o’rinda o’sha maqsadini o’quvchiga ayon qiladi:

Har neki ko’rdum cherikida bir-bir,
Borchasin nazm ila qildim tahrir (39-b.).

Muhammad Solih temuriy hukmdorlar haqida fikr Yuritganda, ularni tahqirlash, mazax qilishga intiladi. Bu bilan Shoir dilidagi alamini Yumshatishga harakat qiladi. Uning Shayboniyxonni ko’klarga ko’tarib, temuriylarni qattiq tanqid qilishi tarixiy haqiqatga nisbatan biryoqlama, tarafkashlik bilan munosabatda bo’lganligini dalillaydi. Biroq temuriylar inqirozi sabablari bayon etilgan ba’zi o’rinlardagi Shoirning fikrlarini xolisona qabul qilmaslikning iloji yo’q:

Bul jamoatki, ko’rarsen holo,
Tana – tirno bilan boshlab g’avg’o.
Ichadurlar kecha – kunduz boda,
Dinu iymon soridin ozoda.
Bir – biri bila muxolif borcha,
Bir – biridin taqi xoyif borcha.
Atodin bordur o’g’ul noxushnud,
Atoni o’g’ul etayder nobud.
Ato ham bordur o’g’uldin bezor,
O’lturur o’g’lini yig’latib zor (34-b.).

Temuriy hukmdorlar orasidagi boshbodoqchilik Zahiriddin Muhammad Boburning Movarounnahrda markazlashgan davlat barpoetish orzusi bilan olib borgan harakatlarini chippakka chiqardi, uning Yakkalanib qolishiga sababchi bo’ldi. Ota – o’g’il va aka – uka orasidagi toj – taxt kurashlari Shayboniyxonga ancha qo’l keldi.

Muhammad Solihning dostonnavislikdagi ikkinchi uslubi – ko’rgan-kechirganlarini bayon qilishi asar bosh qahramonining juda ko’plab kirdikorlarini fosh etishga sabab bo’ldi. Ijodkor Shayboniy va uning tarafdorlarini ijobiy, temuriylarni esa salbiy qahramon holida tasvirlashga

harakat qilsa-da, ba’zan o’zi bilib-bilmay tarafdorining haqiqiy basharasini ochib tashlaydi. Bu holat goh xalq ommasining tilidan bayon etilsa, goh Shayboniyxonning turli Shahar va qo’rg’onlarni qamal qilishida, Shuningdek, g’alaba nashidasini surib qilgan pastkashliklarida namoyon bo’ladi. Shayboniyxon dostondagi dastlabki voqealar tasviridanoq o’quvchiga Yomon taassurot qoldira boshlaydi. Jumladan, u Buxoroni zabt etgach, Boqi Tarxonning mol-mulkini talon-taroj qilish bilan cheklanmaydi, uning o’n ikki Yoshli nabirasiga ham uylanadi. Dostondagi norasida bir qizchaga nisbatan Shayboniyxonning «oshiqona» munosabati tasviri uning sha’niga bitilgan balandparvoz baytlarning maishiy bu buzuq hukmdor bilan hech qanday aloqadorligi mavjud emasligini ko’rsatadi:

Keldi ulug’ onasi xidmatg’a,
Bir nabira chekibon hazratg’a.
Ul nabira o’n ikki Yoshida,
Lek Yuz fitna oning boshida.
Aqd etib oni qo’lig’a oldi,
Naqdi ishqini ko’ngulga soldi.
Ul nabiraning atosi - Barlos,
Bo’ldi Barlosg’a xon qarindosh.
Bo’ldi xon ko’ngli base moyil ango,
Ko’ksi uzra yosodi manzil ango (44-45-b.).

Dostonda Shayboniyxon tabiatidagi bunday pastkashlik Samarqandni olish arafasida Sulton Alining onasi Zuhrabegimning unga elchi Yuborib, farosatsizlarcha taklifini bayon etishi va unga javoban o’zini g’oyibona oshiq sifatida ko’rsatgan Shayboniyxon Shaharni qo’lga kiritgach, Zuhrabegimni birovga in’om qilishida, Sulton Alini esa qatl etishida ham namoyon bo’ladi. Shuningdek, uning Boburning opasi Xonzodabegimga oshiqi beqaror bo’lib, Samarqandni uning visoliga erishish uchun zabt qilganini pesh qilishi ham o’quvchida Yomon taassurot qoldiradi. Bu ham etmagandek Shayboniyxon qayerni qo’lga kiritsa, o’sha yerning hukmdorini tahqirlash, mazax qilishda davom etadi. Toshkent hokimi Sulton Mahmudxonni asir olib, uning oila a’zolaridan Yosh qizchani o’z nikohiga oladi. Muhammad Solih hukmdorining bu nomunosib qiliqlarini ham xursand bir kayfichtda, katta ehtiros bilan vasf etadi. Yosh qizchaning Shayboniyxon oldiga kelishini Sulaymon oldiga kelgan Bilqisga qiyoslaydi. Boshqalarning fojeasidan lazzatlanish kayfiyatida bitilgan bu doston kishi ko’nglida nafrat paydo qiladi.

Shoir Shayboniyxonni benazir, o’zi orzu qilgan hukmdor sifatida tasvirlashga qanchalik harakat qilmasin, uning ko’rgan-kechirganlari tasviri

oldingi adabiy niyatini amalga oshirishda mone’lik qiladi. Shu bois dostonda taxayyulga erk berish uslubidan haqqoniy tasvir uslubi yetakchilik qila boshlaydi. Voqelikni boricha tasvirlash, unga va tarixiy shaxslarga muallifi munosabatidan qat’iy nazar, «SHayboiynoma»ni o’zbek mumtoz adabiyotidagi dastlabki tarixiy – jangnoma joston bo’lishini ta’min etgan. Dostondagi ana shu yetakchi uslubiy jilo Shayboniyning xalq boshiga solgan og’ir kunlarini fosh etishga ham imkon Yaratgan. U qaysi bir Shaharni, qo’rg’onni ololmasa, uni uzoq muddat qamal qiladi. qamalda qolganlarning tinkasini quritib, ochlik azobiga giriftor qiladi. Buni dostondagi juda ko’plab lavhalar misolida aytish mumkin. Avvalo, Shuni ta’kidlash o’rinliki, muallif Shayboniyxonning harbiy salohiyatini ko’rsatish uchun Shahar va qo’rg’on qal’alarini nihoyatda baquvvat, uni muhofaza qiluvchilarni esa o’ta tajribali ekanligiga e’tiborni qaratadi. Jumladan, dostonda DabusiYa qal’asi quyidagicha tasvirlanadi:

Voqean qal’alari mahkam edi,
Kinavar xalqi taqi hamdam edi.
Qal’asi qal’ai Haybar Yanglig’,
Haybari ellari kofar Yanglig’.
Qal’aning avji Surayyo erdi,
Tubida xandaqi daryo erdi.
Yana atrofida jarlar behad,
O’tmoq andin qututub musta’bad.
Qush Ucha olmas edi jarlaridin,
Uchsa kechgay edi parlaridin (69-b.).

Bunda Shoir o’sha davrdagi qal’alarning ancha mustahkam bo’lganligiga diqqatni qaratadi. Shunday bo’lsa-da Shayboniyxon bu qal’ani zabt etadi. Oqibatda esa:

Bir tuman xalq qirildi bori,
Bo’ldi zohir sifatiqahhori.
Kim yog’iqsa Shahi Shayboniyg’a,
Ushbu kun kelgusidur jonig’a (73-b).

Muhammad Solih minglab odamlarning halok bo’lishini o’zining Yagona «adolat mezoni» Shahi Shayboniyxonga qarshi chiqqanligining oqibati, deya baholaydi. Unga bo’ysunmaganlar fojealar girdobida qolib, ayanchli ahvolda vafot etadi. Masalan, Shayboniyxon Sulton Ali qo’lidan Samarqandni tortib olgach, Qorako’l, Qarshi G’uzor va Kesh kabi Shaharlar aholisixonga qarshi isyon ko’taradi. Shayboniyxon bu isyonlarni bartaraf etish uchun Shahar qal’alarini qamal qilish uslubidan foydalanadi. Ikki oy davom etgan Qarshi qamali o’lat kelib chiqishi bilan Yakunlanadi:

Tashqari elga g’animat tushti,
Ichkari elga o’lat yopushti.
Goh Yuz kishi o’ldi bir kun,
Goh o’n kent eli bo’ldi bir kun.
Bo’ldi andoq o’latikim davron,
Ul o’latni ko’rub o’ldi hayron.
Iki oykim qabal erdi anda,
Oz kishi qoldi o’Shul qo’rg’onda.
Qolg’ani ham bori bemor edilar,
G’ussaYu g’am qo’lida zor edilar (67-b.).

Bu holat Samarqand, Andijon, Urganch va boshqa Shaharlarning aholisi boshiga ham tushadi.

«Shayboniynoma»dagi Samarqandni Bobur Mirzo qo’lidan tortib olish uchun qamal qilinishi voqealari alohida ahamiyatga molik. Unda muallif tarixiy voqealarga xolislik tamoyillari nuqtayi nazaridan baho berishdan tamomila chekingani ko’zga tashlandi. Ijodkor Bobur mirzo va uning tarafdorlarini qora bo’yoqlarda tasvirlash uchun atayin taxayyul uslubiga murojaat etadi. U o’zi Shohidi bo’lmagan voqea-hodisalarni aynan ana shu badiiy uslubga tayanib o’z aqidalariga uyg’un holda tasvirlaydi.natijada dostonda badiiy ifodasini topgan Samarqand Shayxulislomi Abulmakorim hamda Bobur Mirzoning Shahar aholisiga murojaati Shoirning adabiy niyatini Yorqin namoyon qilish maqsadida biryoqlamalik bilan tasvirlanadi. Avvaliga Abulmakorim qamalda qolgan Shahar aholisini Bobur Mirzodek sulton borligi hamda qal’a devorlarining mustahkamligi bilan tinchlantirishga harakat qiladi. Uning tilidan badiiy ifodalangan Muhammad solih fikrlari vositasida Shayboniyxon zulm va zo’ravonlikka asoslangan hukmdor ekanligi fosh etiladi:

Dedi : «Ey xalq, bilinglar tahqiq,
Kim budur xo Shayboniyg’a tariq.
Kim bu qo’rg’onni qo’lig’a olsa,
Fathining ko’sini munda cholsa,
Bo’lur o’g’lonlaringiz barcha asir,
Ag’niyo dog’i bo’lur borcha faqir.
Qo’lungizdin chiqor ayvonu saroy,
FoqaYu faqr qilur sizni gadoy.
Bir labi nong’a bo’lursiz muhtoj,
Borcha ul xong’a bo’lursiz muhtoj» (78-b.).

Bunday tasvirlar kitobxon ko’z o’ngida muallifning sodir bo’lgan voqea-hodisaga haqqoniy nigoh bilan nazar solganini namoyon qilgandek bo’ladi.

Biroq Shoir keyingi lavhalarda Abulmakorim so’zlaridan ta’sirlangan xalqning Shahar mudofaasini tashkil etishga astoydil bel bog’laganliklarini ularning tilidan masxaraomuz va istehzo bilan tasvirlaydi:

Olishib qal’ani biz soqlog’ali,
Solishib qal’ani biz soqlog’ali.
Itlarimizgacha hosil so’yoli,
It eti Yoyirgo ko’ngul qo’yoli.
Angocha soqlag’oli qo’rg’onni,
Jonig’a etkuroli ul xonni (80-b.).

Samarqand ayni pishiqchilik paytida qamal qilinadi. Ona-er saxovatidan tamomila uzilib qolgan Shahar aholisi bu davrda katta oziq zahirasiga ega emasdi. Dostonda tasvirlanishicha, o’sha yili qovun va uzum juda mo’l bo’lgan. Shoir uzumning surxak, la’li Yakdona, bedana kabi navlari tasviriga e’tiborni qaratadi. Anorlar qizarib kelganda, qo’rg’ondagi aholining holi ancha Yomonlashib qoladi. Ayni holat Muhammad Solih va uning hukmdoriga xush yoqadi. Shu bois Shoir tasviridagi tabiat go’zalliklari kitobxonga zavq uyg’otmaydi, aksincha, Shayboniyxon tilidan badiiy ifoda etilgan quyidagi baytlar uning g’azabini qo’zg’aydi:

Bizga yo’q hechtarafdin tashvish,
Qabomoqdin base yo’q YaxShiroq ish.
Toshqori mevaYu oshliq bisYor,
Harna lashkarga kerak bor tayyor (88-b.).

Shayboniy qo’shinlari Samarqand qal’asini ishg’ol etish uchun bog’-rog’larga qiron keltiradi. Mevalari pishib turgan daraxtlar tomiriga bolta urilib, ulardan norvonlar Yasaladi. Bunday mudhish manzaralarning guvohi bo’lgan Shoir ba’zan tutaqib ketadi. Shahar aholisining xoru zor, talon-taroj bo’lgani va ochlik azobiga giriftor etilganiga aChinadi. Shunday bo’lsa-da ijodkor o’z hukmdori va uning lashkarini qoralay olmagani uchun bunday mudhish voqealarning sababkori Shu bog’-rog’larning egalari ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu erlarning soshiblari o’ta xasis odamlar. Chunonchi, ular erga tushib yotgan olmani qullariga olishni ta’qiqlaydilar. Bemor o’z xizmati uchun bir anor olishni xohlasa, unga qo’pol muomalada bo’ladilar. Oqibatda nafs ularga hujum qilidi. Bog’ egalari Tangri ne’matlaridan mahrum etildi. Ko’rinadiki, Muhammad Solih sodir bo’lgan tarixiy voqealarga o’z munosabatini bildirib, kitobxonni fikrlariga ishontirishga harakat qiladi. Biroq Shoirning olti oy davom etgan azob-uqubatlar, qahraton qihda jon saqlash imkoniyatiga ega bo’lmagan minglab muhtoju himoyasiz kishilarning halok

bo’lishini ehtiros bilan tasvirlashi kitobxonni o’z fikrlaridan yiroqlashishga majbur qiladi:

CHun Samarqand bu nav’ o’ldi xarob,
Bo’ldi ko’p qaht bo’lurg’a asbob.
Kuz bu nav’ erdi ulusning holi,
Yozg’a Shahr o’ldi ulusning holi.
Qish qotig’ kediYu ko’p yog’di qor,
O’ldi ochu Yalong’och el bisYor.
Ko’chalar bo’ldi o’lukdin mamlu,
Shahar bo’ldi yigrudek usru (121-b.).

Muhammad Solih Shahar ko’chalari o’likdan to’lib ketgani, ularga na kafan, na tobut, na tuproq topilganini ham, jonsih tanlar e’zoz qilinmagani-yu, ularga janoza o’qilmaganini ham Yuqorida kuzatilganidek tantanavor uslubda badiiy ifoda etadi. Bunday mudhish voqeaning guvohi bo’lgan osmon ko’z Yosh to’kib, ko’cha-ko’yda yotgan murdalarni Yuvadi. Keyinchalik yoqqan qor esa ularni kafanga o’ragan bo’ladi:

Avvalo bir necha yog’di yomg’ur,
Tomdi ko’kning Yoshi muldur-muldur.
YUvdi ul qaht oro o’lgonlarni,
Shahr aro ev-eli bo’lgonlarni.
YOg’di yomg’ur so’ngidin muncha qor,
Kim, o’luklarga qilib mehr izhor.
Borchasin ko’mdiYu qildi pinhon,
el ko’zidin kim erur endi Yomon (124-b.).

Muhammad Solih faqat Samarqand Shahri qamali tasvirida emas, boshqa Shahar va qo’rg’onlarning qal’alari Shayboniyxon tomonidan o’rab olinishi lavhalarida ham o’sha badiiy uslubiga sodiq qoladi. Masalan, u Shayboniyxon Urganchni qamal qilganda Husayn Boyqaro kengash chaqirgani, o’z holini bayon qilib aytgan so’zlari va temuriyzodalarning xatti-harakatlari tasvirida xayolot olamiga beriladi. Qamalda qolgan Shahar aholisining fojeali qismatini ehtiros bilan tasvirlaydi. Ochlik azobidan jon saqlash ilinjida qolgan kishilar it va eShak etini eyishga majbur bo’lishadi:

O’zga qo’rg’onda o’la boshladi el,
It etiga o’luka boshladi el.
eShaku it eti doru bo’ldi,
Davr qo’rg’onda bu tavr evruldi (309-b).

Bunday falokatli voqealarga ko’p guvoh bo’lgan Shoir loqaydlik va beparvolik bilan ko’rgan-kechirganlari tasvirini davom ettiradi. Shahar

aholisining hatto o’lgan odamning go’shtini eyishga majbur bo’lgani ijodkorga jiddiy ta’sir ko’rsatmaydi. Muhammad Solih bu hodisani Shunchaki ochlikdan qutilish yo’li, deya baholaydi:

Edilar Yoshg’ina o’g’lonlarni,
Ju’din qutqaribon jonlarni (313-b.).

Shayboniyxon va uning tarafdorlari qamal va xalqni o’ldirish bilan cheklanib qolmaydi. U zabt etgan erlarini talon-taroj qiladi, xotin-qizlarni tahqirlaydi, ularning sha’niga isnod keltiradi.Muhammad Solih hukmdorining bu xatti-harakatlarini qanchalik oqlashga urinmasin, ko’p o’rinlarda uning zolimligini fosh etib qo’yadi. Dostonning mana shu xususiyatlari uning mumtoz adabiyotdagi mavqeini belgilashda asosiy mezon bo’lib xizmat qiladi.

«Shayboniynoma» biryoqlamalik va tarafkashlik mahsuli sifatida vujudga kelgani bois doston tanqidiy nuqtayi nazardan o’rganishga loyiqdir. Unda o’nlab Shayboniyzodalar va temuriylarning nomlari keltiriladi. Hayotining jangu jadallarda kechishi Shoir ijodining badiiyatiga ham o’z nuqsini urgan ko’rinadi. Buni birgina ikki sulolaga oid hukmdorlar nomlarining dostonda ro’yxatsimon qaydlar holida keltirilishida ha ko’rishimiz mumkin. Asarda tasvirdan ko’ra bayonchilikning ustun qo’yilishi uning ishtirokchilari siymosini kitobxon ko’z o’ngida gavdalantirish imkonini bermaydi. Biroq aytilgan mulohazalar Shoir badiiy tasviriy vositalarga etarlicha e’tibor qilmagan, deya xulosa chiqarishga asos bo’lolmaydi. Dostondagi qal’alar, Samarqand atrofidagi bog’-rog’lar tasvirida Shoir tashbeh, tashxis, talmeh, sifatlashlardan mahorat bilan foydalanadi. Dostonning ayrim o’rinlarida Shoirning badiiy salohiyatini ko’z-ko’z etuvchi baytlar mavjud bo’lsa-da, undagi mazmun, Chin insoniylikka xos bo’lmagan g’o tasviri o’quvchining nafratiga sazovor bo’ladi. Jumladan, Toshkent hokimi Sulton Mahmud Xonikaxon mag’lub etilganda, uning eng kichik qizi Shayboniyxonga tortiq etiladi. Muhammad Solih dostonning mana shu lavhalarida o’sha norasida pok qizchaning mubolag’aviy tasvirini keltiradi:

Dedilar: «Borchasidin zeboroq,
Husn ichra borchasidin ra’noroq.
Yosh bila dog’i kichikroq boridin,
Baxt ila bori biyikroq boridin.
Bor emish xong’a munosib mohi,
Ul sanamlar arosida Shohi.
Sarv oning qomatidin sharmanda,
Zulfiga anbari sor banda.
Munfail ko’zlaridin ohuyi Chin,

Ichi qon bog’ladin g’amdin miskin.
Chin mo’g’ulChin ul erur olamda,
Yo’qtur ul tavr bani odamda.
Na Xito mulkida andoq topilur,
Na Xo’tan Shahrida ul nav kelur.
Lo’’bati Chin degonning o’zidur,
Surati Chin degonning o’zidur» (219-220b.).

Shoir tasvir jarayonida mubolag’a badiiy san’atiga ko’proq murojaat etganligi Yaqqol ko’zga tashlanadi. Ayni choqda o’sha qizchaning husn va «baxt»da Yaktoligi «kichikroq» va «biyikroq» so’zlarini qarshilantirish bilan muayyanlashtirilgan. Keyingi baytlarda Shoir muddaosini amalga oshirishda husni ta’lilga murojaat etiladi. Sanamlar orasida Shoh bo’lgan bu qizning qomatidan sarvning qomati uYaladi. Uning Shahlo ko’zlari oldida Chin ohusining ko’zlari xijolat chekadi. Ko’rinadiki, Shoir Yuksak badiiy salohiyat sohibi sifatida qahramonlar siymosini kitobxon ko’z o’ngida Yorqin gavdalantirishga harakat qiladi. Biroq bu holat dostonning ba’zi lavhalaridagina kuzatilgani, Shunda ham o’quvchi ko’z oldida ta’riflanayotgan qahramon siymosidan ko’raShayboniyxonning maishiy buzuqligi ko’proq namoyon bo’lishi bois undagi badiiyat o’z kuchini yo’qotganday tuyuladi. Ayni holatni ijodkor juda ko’p murojaat etgan qarshilantirish uslubida ham kuzatish mumkin:

Toshqori chu meva bisYor o’ldi,
Ichkori xalq dilafkor bo’ldi.
Toshqori meva sarosar pishti,
Ichkori ochlig’idin el shishti.
Oqibat qolmadi nomus elga,
Bo’ldi g’avg’oYu g’alomus elga.
(Samarqand qamali, 92-b.).

Umuman olganda, «Shayboniynoma» o’zining sodda va ravon uslubda Yozilganligi, o’ziga xos badiiyati bilan XVI asr o’zbek mumtoz adabiyotida Yaratilgan adabiy asarlardan ajradib turadi. U o’z davri o’zbek adabiy tilining muhim Yodgorligi bo’lishi bilan ham ahamitlidir. Asar ijodkori dunyoqarashining murakkabligi, tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar tasvirida tarafkashlik, biryoqlamalik unsurlarining ko’pligidan qat’iy nazar, uning juda ko’plab lavhalari tarixiy haqiqatni tiklashga imkon Yaratadi. Dostonning ayni jihatlari uning adabiy-tarixiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, «Shayboniynoma» - tarixiy-jangnomaning mumtoz adabiyotimizdagi ilk namunasi bo’lishi bilan qimmatlidir.

Mavzuga oid savollar:

1.Muhammad Solih hayoti va ijodi haqida ma’lumot beruvchi manbalar qaysilar? Ularda tilga olingan qaysi ma’lumotlar Shoir hayoti va ijodini o’rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi?

2. «Shayboniynoma» dostonining nashrlari haqida so’zlang.

3. Shoirning otasi Amir Nur Saidbek taqdiri haqida nimalarni bilasiz?

4. Muhammad Solihning Yoshlik yillari haqida gapirib bering.

5. Uning Shayboniyxon xizmatini ixtiyor etgandan keyingi hayoti haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?

6.Muhammad Shayboniyxonga bag’ishlab Yozilgan adabiy, tarixiy asarlar qaysilar?

7. «Shayboniynoma»ning tuzilishi, Yozilishi tarixi haqida so’zlang.

8.Dostonda Shayboniyxon obrazi qanday tasvirlangan.Fikrlaringizni dalillarga tayanib isbotlashga harakat qiling.

9. Shoir temuriy Shahzodalar tavsifida nimalarga ko’proq e’tibor beradi?

10. Shoirning «Shayboniynoma»ni ijod etishdagi ko’zga Yaqqol tashlanib turuvchi badiiy uslublari haqida gapirib bering.

11.Shayboniyxon Sulton Ali Mirzo ixtiyoridagi Samarqandni o’z tasarrufiga o’tkazganda, qayerlarda xalq qo’zg’olonlari bo’lib o’tdi?

12. Dostonda tasvirlangan Shahar va qo’rg’onlarning qamal qilinishi lavhalari haqidagi mulohazalaringizni bayon qiling.

13. Asarning badiiyati, o’zbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan o’rni nimalardan iborat?

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Alisher Navoiy «Majolis un-nafois». Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma». Zayniddin Vosifiy «Badoye’ ul-vaqoye». Xondamir «Habib us-siYar». Hasanxo’ja Nisoriy «Muzakkir ul-ahbob». Somiy «Tuhfai Somiy». Mirzo Haydar «Tarixi Rashidiy». Lutf Alibek Ozar «Otashkada». Herman Vamberi. P.M.Melioranskiy.Nasrullo Davron. ergashali SHodiev. Amir Nur Saidbek. Abu said Mirzo. Husayn Boyqaro. Abdurahmon Jomiy. Muhammad Shayboniyxon. Mullo SHodiy «Fathnomai xoniy». Kamoliddin Binoiy «Shayboniynoma», «Futuhoti xoniy». Ro’zbeho «Mehmonnomai xoniy». «Tavorixi guzida - nusratnoma». Xonikaxon. Alachaxon Abulmakorim. Chin

So’fi.

Xoja - hikoYanavis adib

Reja:

1.Xoja va uning adabiy merosining o’rganilishi tarixi.
2. Adibning hayoti va faoliyati.
3. «Miftoh ul-adl» va «Gulzor»dagi hikoyalar tahlili.

Adabiyotlar:

1.Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: «O’qituvchi», 1976, 645-669-betlar.

2. Mirzaahmedova M. Xoja Toshkent: «Fan», 1975,

3.Poshshoxo’ja. «Miftoh ul-adl» va «Gulzor»dan. Toshkent: O’zdavnashr, 1962.

4. O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 3-tom. Toshkent: «Fan», 1978, 117-133-betlar.

Xoja va uning adabiy merosining o’rganilishi tarixi. Xoja taxallusibilan ijod qilgan ulug’ mutafakkir adib va Shoir Ibodulla Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahobjoja o’zining muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy mazmunda bitilgan kichik nasriy hikoyalari bilan Shuhrat qozongan yirik ijodkordir. Adibning hayoti va ijodiy faoliyati haqida uning o’z asari «Gulzor» hamda XVI asr adabiy hayot oynasi bo’lgan Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkir ul-as’hob» tazkirasida ma’lumot keltiriladi.

Kichik nasriy hikoyalardan tashkil topgan «Miftoh ul-adl» («Adolat kaliti»), «Gulzor» singari asarlar hamda «Maqsad ul-atvor» nomli pand-nasihat mazmunidagi doston ijod etgan bu ulug’ so’z san’atkorining hayoti va ijodiy faoliyati asosan XX asrning birinchi Yarmidan o’rganila boshlandi. Bu boradagi dastlabki izlanishlarni taniqli adib va adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat boshlab berdi. Xojaning hayoti va ijodiy faoliyati haqida nomzodlik dissertatsiYasini Yozgan olima Marg’uba Mirzaahmedova bu haqda quyidagi mulohazalarini bayon etadi: «Fitrat tomonidan «Miftoh ul-adl» hikoyalarining nashr etilishi Xoja ijodini o’rganish va va unga dastlabki qiziqish boshlanishidan darak beradi» (Mirzaahmedova M. Xoja. Toshkent: «Fan, 1975, 5-b.). Tadqiqotchi A. Fitrat, N.Mallaev, V.Zohidov, S. Qosimov singari adabiyotshunoslarning bu boradagi izlanishlarini ilmiy jihatdan tahlil qildadi. A.Fitrat «O’zbek adabiyoti namunalari» (Toshkent – Samarqand, 1928)

majmuasida «Miftoh ul-adl»dan sakkizta hikoyaga o’rin beradi. Biroq olim asar muallifi noma’lum ijodkor tomonidan ijod etilganligini e’tirof etadi, Shuningdek, u «Miftoh ul-adl» Yozilgan davrini XIV asr sifatida ko’rsatadi. Bu fikr keyingi yillarda nashr etilgan majmualarda, hatto taniqli Sharqshunos olim Y.E.Bertels tadqiqotlarida ham o’z hukmronligini saqlab qoladi (Qarang: O’sha kitob. 3-12-b.).Adabiyotshunos V.Zohidov Xoja va uning asarlari haqidagi maqolalarida «Miftoh ul-adl» XVI asrning taniqli adibi Xoja tomonidan Shayboniyxonning o’g’li Muhammad Temur Sultonga bag’ishlabYozilganligini ma’lum qiladi (Zohidov V. «Miftoh ul-adl» va «Gulzor» haqida. «O’zbek adabiyoti tarixidan (to’plam). Toshkent, 1961). Shuningdek, olim S.G’anieva bilan hamkorlikda har ikkala asardan namunalarni nashr ettirdi (Poshshoxo’ja. «Miftoh ul-adl» va «Gulzor»dan. Toshkent, 1962.).adibning hayoti va faoliyatiga oid mavjud fikrlarga aniqlik kiritish adabiyotshunos A.Ibrohimovning ilmiy izlanishlarida ham ko’zga tashlanadi. Tadqiqotchi «Xoja hayoti va ijodi haqida ba’zi ma’lumotlar» («O’zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1965 yil, 4-son)nomli maqolasida Hasanxoja Nisoriy adibning o’g’li ekanligini keltirilgan asosli dalillar bilan isbotlaydi. Xojaning hayotiga doir birmuncha mufassalroq ma’lumotlar Ismoil Bekjonning «Shoir va davlat arbobi» («O’zbekiston adabiyoti va san’ati»gazetasi. 1991 yil 15 mart) nomli maqolasida Uchraydi.

Ulug’adib va Shoir, zamonasining yirik davlat arbobi bo’lgan Xljaning hayoti, ijodiy merosining o’rganilishi tarixidan ayon bo’ladiki, bu borada adabiyotshunosligimiz oldida yechimini kutib turgan muammolar hali juda ko’p. Avvalo, adib asarlarini to’la holda qayta nashr etish davrimizning kechiktirib bo’lmaydigan vazifalaridandir. Shuningdek, adibning ijodiy merosi Yuqorida nomlari keltirilgan qator maqolalar va M.Mirzaahmedovaning risolasida ham adib hikoyalari davr mafkurasi nuqtayi nazaridan tahlil jarayoniga tortilganligini unutmaslik lozim. Bulardan tashqari, ularda ilohiy-irfoniy mazmunda bitilgan hikoyalarni tahlil etishdan ochiq-oydin voz kechilganligi ko’zga Yaqqol tashlanadi. Aytilganlarni inobatga olib, biz ham mavjud manbalar asosida ijodkorning hayoti va ijodi haqida fikr Yuritishga harakat qildik.

Adibning hayoti va faoliyati. Podshohxoja 1480 yilda Xurosonning Niso viloyatida zamonasining yetuk ziyolilaridan bo’lgan, turkiy va fors-tojik tillarida dilbar She’rlar va nasr namunalarini ijod etgan Abdulvahobxoja binni Sulaymonxoja oilasida dunyoga keladi. Manbalarda ma’lumot berilishicha, bu kishining shajarasi turk mashoyixlaridan Zangi otaga, undan esa Ahmad

Yassaviyning ustozlari Arslonbobga borib taqalgan. Abdulvahobxoja Bug’raxonning qizi Anbar onaga uylangan va Niso viloyatida istiqomat qilgan. Uning «Orif» taxallusi bilan ijod qilganligi ilohiy va irfoniy ilmlardan Yaxshi xabardor bo’lganligidan dalolat beradi.

Oila muhiti Podshoxojani ilmga havasini juda erta uyg’otgan ko’rinadi. Ma’lumotlarga ko’ra, u dastlab otasi qo’lida, keyinchalik Niso va Marv madrasalarida tahsil oladi. Fozil kishilar xonadonida tarbiya topgan Podshoxoja adabiyot bilan birga fiqh, tasavvuf, riYoziyot va handasani puxta o’rganadi. Uning Yoshlik yillari Husayn Boyqaro saltanatining tobora inqirozga Yuz tuta boshlagan davriga to’g’ri keladi. Tarixdan ma’lumki, badiuzzamon Mirzoning o’g’li qatl etilgandan so’ng (1497 yil oktbr’) ota-o’g’il, aka-ukalar o’rtasidagi adovat Yanada alangalanadi. Badiuzzamon Mirzo va uning tarafdorlari bo’lgan temuriy Shahzodalar otalariga qarshi qilich qayrab jang maydoniga otlanadilar. Bu davrlarda, aniqrog’i, 1496 yildan Podshoxoja rasmiy lavozimlarda faoliyat ko’rsata boshlaydi. U Niso va Obivard hokimi Kepak Mirzo (asli ismi Muhammad Muhsin Mirzo – R.V., H.E.) tomonidan vaqf mulki hisob-kitoblarini Yurgizuvchi – sadrlik lavozimiga tayinlanadi. Podshoxojaning bu muhim vazifaning necha yil davomida ado yetib kelgani haqida ma’lumotlarga ega emasmiz. Biroq tarixiy voqealarga tayanib Shuni aytish mumkinki, Yosh Shoir bu faoliyatini uzoq yillar davom ettirgan emas. Shayboniyxon 1507 yilda Hirot o’z tasarrufiga o’tkazgach, Kepak Mirzo hamda Abumuhsin Mirzo Mashhad Yaqinidagi mavzelardan birida Shayboniyxonning o’g’li Temur Sulton va Ubaydulloxon tomonidan asir olinib qatl etiladi. SHkningdek, bu ikki Shahzodaning Yaqinlari ham Shu davrda yo asir olingan, yo o’ldirib Yuborilgan. Xoja 1500 yildadanoq temuriylarga xizmat qilishni to’xtatgan ko’rinadi. 1508 yilning aprel’ oyida Shayboniyxon Movarounnahrga qaytayotib, Nisoga to’xtaydi va Hirotdan Muhammad Solihni chaqirtirib, uni Shu viloyatning hokimi etib tayinlaydi. Bu davrda Podshoxoja yetuk Shoir va adib sifatida ancha tanilgan edi. Shayboniyxon unga Durun nohiYasining hokimligini ishonib topshiradi. 1508-1510 yillarda adib valiahd Temur Sultonga bag’ishlangan «Miftoh ul-adl» nomli asarini Yozadi.

1510 yilda Muhammad Shayboniyxon Hirotni Ismoil Safaviy qo’shinlariga jangsiz topshirib, mustahkam istehkom sifatida Marvga chekinadi. U Yaqin atrofdagi hokimlar, jumladan, Xojani o’z oldiga chaqiradi. Shu yilning 10 dekabrida esa qurshovda qolib, fojeali o’lim topadi.ubaydulloxonning o’z vaqtida etib kelishiXoja, Shayboniyxonningg boshqa ayonlari va ichkilarini o’limdan qutulib qolishiga sabab bo’ladi.

Bu mudhish voqealardan keyin, Xoja bir muddat Samarqandda, 1513 yilning oxiridan Buxoroga kelib Yashay boshlaydi. 1514 yilgacha u Temur Sulton, keyinroq Ko'chkunchixon xizmatida bo'ladi. 1515-1516 yillardan e'tiboran esa u Karmana hokimi Jonibek Sulton xizmatida sadrlik lavozimida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Jonibek Sulton Xojaning halol va pok insonligiga amin bo'lgach, unga sadrlikka qo'shib eshik og'oligi lavozimini ham beradi. Adibning bu davrdagi hayoti birmuncha osoyishta kechadi. Shu bois u Nizomiy Ganjaviyning «Panj ganj»iga javoban Jonibek Sultonga bag'ishlangan «Maqsat ul-atvor» dostonini Yozadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Shoir Karmanadagi siyosiy barqarorlikka ishonib xamsa Yozish fikrida ham bo'lgan. Biroq davlat ishlari, harbiy safarlar ijodkorning bu orzusini amalga oshirishga imkon bermagan.

1529 yilda Jonibek Sulton vafot etadi. Shu yilning Yozida Ubaydulloxon Xojani sadrlikka ishga oladi. Kuzda esa u Hirotni qamal qiladi.Shahar aholisi bilan har ikkala tomonning manfaatlarini ko'zlab sulh tuzishga erishgani uchun Ubaydulloxon adibni Shahar Shayxulislomigi va Abdulla Ansoriy mozori Shayxligiga tayinlaydi. 1533 yilda Ubaydulloxon bosh xonlikni qabul qilgandan so'ng, Xoja Buxoroga kelib, sadri a'zamlik mansabiga ko'tariladi. 1534 yilda Ubaydulloxon Xurosonga navbatdagi zafarli Yurishini amalga oshiradi. U NiShopurga kelganda, katta harbiy yig'in o'tkazadi. Mashvaratda 1526 yidan beri Balx viloyatini idora etayotgan Kistan Qaro ibn Jonibek ham ishtirok etadi. Uotasi Jonibek Sulton huzurida ko'p yillar faoliyat ko'rsatib, davlatni idora etish borasida katta tajribaga ega bo'lgan Podshoxojani Balxga Yuborishni Ubaydulloxondan iltimos qiladi. Shunday so'ng Xoja Balxda avval sadrlik, ko'p o'tmay Shayxulislomlik vazifasini bajaradi. U bu Shaharda o'ziga xos adabiy muhit tashkil etishga harakat iladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1539 yili Kistan Qaroi Odilga bag'ishlab «Layli va Majnun»dostonini, «Gulzor» asarini Yozadi. 1543 yilda Balx hokimi Kistan Qaro ruhiy kasallikka chalinganidan keyin, Xoja o'z vazifasidan kechib, ijod bilan mashg'ul bo'ladi. Adib 1566-1567 yillarda Buxoroda vafot va Bahouddin Naqshband maqbarasi Yoniga dafn qilinadi.

«Miftoh ul-adl» va «Gulzor»dagi hikoyalar tahlili. Xojaning «Miftoh ul-adl» va «Gulzor» asarlari XI asrdan o'ziga xos an'ana tusini olgan pand-nasihat ruhida Yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansubdir. Turkiy Yozma nazm namunalarida bu hodisa ilk 'or Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida qahramonlarning o'zaro suhbatiga tayanish uslubida o'z ifodasini topgan. Ahmad Yugnakiy ayni mavzuni biror bir voqealar tizimi ega bo'lmagan «Hibat ul-haqoyiq» dostonida hadislar asosida

badiiylashtiradi. Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonida o’quvchiga pand-nasihat berish maqola va She’riy hikoyalar, «Lison ut-tayr»da esa Hudhud tilidan so’zlangan hikoya va masallar tarzida amalga oshiriladi. Xojaning kichik nasriy hikoyalardan tarkib topgan «Miftoh ul-adl» va «Gulzor» asarlari ko’proq fors-tojik adabiyotining taniqli namoyondalari Kaykovusning «Qobusnoma» , Shayx Sa’diy Sheroziyning «Guliston», «Bo’ston»,turkiy mumtoz adabiyotning eng yirik vakili, ulug’ mutafakkir adib Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarlariga o’xshab ketadi. Sa’diy Sheroziyning «Guliston» asari XIV asr ijodkori Sayfi Saroyi tarafidan «Gulistoni bit turkiy» tarzida erkin-ijodiy tarjima qilinishi uning musulmon mintaqa xalqlari orasida ancha Shuhrat topganligidan dalolat beradi. Bunday kichik nasriy hikoyalar ijod etish an’anasi Xoja davriga qaldar Nosiruddin Rabg’aziyning «Qisasi Rabg’uziy» asarida ham ma’lum ma’noda Uchrashi kuzatiladi. Ko’rinadiki, Xoja o’ziga qadar vujudga kelgan boy adabiy an’anadan ilhomlanib o’z asarlarini ijod etishga kirishadi. Ayni holat adib hikoyalari qahramonlari sifatida tanlangan Iskandar, Doro, No’shiravon, Sulton Mahmud, Sulton MalikShoh, Bahrom Go’r kabilarning XVI asrga qadar badiiy adabiyotda tarixiyshaxslikdan allaqachon badiiy obraz darajasiga ko’tarilganligi, ular haqidagi xalq og’zaki ijodida mavjud bo’lgan turli hikoya va rivoyatlar mumtoz ijodkorlar qalamida sayqallanib sayyor sujetga aylanib qolganligi ham tasdiqlaydi. Shuningdek, Xoja o’sha kichik nasriy Yaratmalarida turli ijtimoiy tabaqaga mansub bo’lgan kishilar: Shohlar, vazirlar, amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, cho’ponlar, darveshlar, o’g’rilar, bezorilar obrazini Yaratadiki, u holat ham an’ana tusini olishga ulgurganligi ayon haqiqat.

«Miftoh ul-adl», «Gulzor» asarlarining ko’plab qo’lyozma nusxalari bir kitob holatida muqovalangan. Shu bois «Miftoh ul-adl» «Gulzor»ning ttarkibi sifatida talqin qilingan. Ulardagi mazmun vauslubning uyg’unligi Shunday xulosaga kelishga asos bo’lgan bu holat har ikkala asardan e’lon qilingan parchalarning manbai qaysi asar ekanligini aniqlash imkonini bermaydi. Biz «Gulzor» hamda «Miftoh ul-adl» asarlarining o’ziga xos xusisYatlarini M.Mirzaahmedovaning fikrlariga tayanib Yoritishga harakat qilamiz (Bu haqda mufassal ma’lumot uchun qaralsin – Mirzaahmedova M. Xoja Toshkent: «Fan», 1975, 35-59-betlar).

«Gulzor» kichik muqaddima, kitobning tasnifi va ta’lifibobi hamda davlatni boshqarishda insof va adolat bilan ish ko’rish, raiyatga munosabat, axloq va adab masalalariga bag’ishlangan qirqqa Yaqin hikoya to’plamlaridan tashkil topgan. Asar Yagona voqealar tizimiga ega emas. Asarda hikoyalardan

tashqari bir qancha qit’a, ruboiy, masnaviy, g’azal va boshqa janrdagi She’riy parchalar mavjud. Kitob so’ngida She’riy xotima berilgan.

«Gulzor» asaridan o’rin olgan lirik parchalar Xoja hikoyalarida ilgari surilgan g’oya mazmunini muayyanlashtirish, qissadan hissa chiqarish xarakterida bitilgan.

«Miftoh ul-adl» o’n besh bobdan iborat bo’lil, unda olimlar, odil sultonlar, zolim sultonlar va zolim beklar, sultonlarga mute’ bo’lmoqlik, sultonlar va beklar vazirlar bilan mashvarat qilmoqlari, hukm qilmoq bayoni singari mavzulardagi ijodkorning mulohazalari hadislarga tayanilgan holda keltiriladi va fikr tasdig’i uchun turli hikoyalarga o’rin beriladi (1-7-boblar). Bular orasida «Iskandar va Mag’rib sulton», «Iskandar va Doro», «Sulton Mahmud, vazir va ikki boyqush», «Sulton Mahmud G’aznaviy va AYozi Xos», «Bahrom Go’r, uning vaziri Rostiravshan va cho’pon», «Mahmud G’aznaviy va tolibul ilm», «No’shiravon va Ozarbayjon begi», «Mo’min podshoh va tundagi o’g’rilar» singari tadqiqotchilar tomonidan shartli nomlangan hikoyalar muhimdir. Asarning 8-15- boblarida da’vo qilmoq, ont ichmoq, o’g’rilik, zino haddi, quzb haddi, ta’zir haddi, g’azod haddi, sayd qilmoqning bayoni kabilar haqida adibning mulohazalari keltiriladi.

«Miftoh ul-adl» va «Gulzor»dagi ko’plab hikoyalarning bosh qahramonlari hukmdorlardir. Xoja o’z davrining yirik jamoat arbobi, peshqadam din peshvosi sifatida diniy qadriyatlardan nur olgan, Qur’oni karim hamda hadisi sharif g’oyalari badiiy ifoda etilgan o’zining kichik nasriy durdonalari bilan zamon hukmdori va Shayboniy Shahzodalarga pand-nasihat qilishni nazarda tutadi. Shu bois uning hikoyalarida podshoh, vazir va beklar obrazi juda ko’plab Uchraydi. Ayniqsa, adib Iskandar va No’shiravon obrazlarini adolat timsoli darajasiga ko’tarishga harakat qiladi. Hikoyalaridan birida tasvirlanishicha, bir viloyat hokimining odilligi va Yurtining ma’murligi Iskandarni hayratga soladi:

Iskandar Zulqarnayn bir viloyatga boribdi. U erda suru-suru qo’ylar bo’lib, cho’poni yo’q ekan, mevalari pishib yotgan bog’lar bor-u, bog’boni yo’q ekan, mol-matalarga to’la do’konlar bor-u, qorovuli yo’q ekan. Iskandar bu viloyatning tartib-qoidalaridan nihoyatda taajjublanibdi. Shunda u viloyatning podshohi: «Bizning oramizda biror kishi muflis (qashshoq) bo’lsa, barimiz yig’ilib, mol jam qilimb, ul kishini mol va amvol bilan hamda jamiyatda o’zlarimiz birlan teng qilurmiz...» -debdi. Iskandar bu viloyatning tartib-qoidalaridan g’oyat shod va mamnun bo’libdi.

Iskandan Zulqarnayn adolati bilan dong taratgan hukmdor bo’lsa-da, viloyat hokimi bu borada undan Yanada tajribaliroq bo’lib chiqadi. Adib mulkning ma’murligi-yu, xalqning saodati hukmdorga bog’liqligini keltirilgan ixcham hikoyada badiiy tasvir etadi. Hukmdor va xalqning bir-birini Yaxshi anglashi, ularning o’zaro jipsligi nurli kelajakka asos bo’lsa, noahillik esa mamlakatni vayron etib, ulus boshiga qonli musibatlar keltirishi tarixiy haqiqatdir. Adib zamonasining yirik mutafakkiri sifatida ayni mavzuda juda ko’plab hikoyalar ijod etgan. Bular orasida «No’shirvon va Hakim» tarzida shartli nomlangan quyidagi hikoya nihoyatda ibratlidir:

No’shirvon beklari va hakimlarini yig’ib, xalq bilan qanday munosabatda bo’lish haqida kengashganida, beklar oli-soliqni ko’paytirib, qo’shinni mustahkamlash kerak, deydilar. Donishmand Abuzarjumhur esa, bu xato yo’ldir, bu yo’l el-yurtni ham, davlatni ham xonavayronlikka olib boradi, deydi. Uning taklifi bilan beklar bir joyga, uning o’zi boshqa bir joyga ovga chiqadilar va shokorlarini podshoga keltirib beradilar. Beklar birinchi kuni ko’p ov ovlaydilar, biroq ikkinchi kuni ovsiz qaytadilar, Chunki birinchi kundagi dahshatli ov hayvonlar va qushlarni to’zg’itib, qo’rqitib qo’ygan edi. Donishmand esa oz bo’lsa ham, har kuni ov Yuilan qaytadi. Podsho uning oliq-soliqni ko’paytirishga qarshi e’tiroozi to’g’ri ekanini e’tiorof qilib adolat bilan ish ko’radi.

Raiyatni tadbir ila rom qil,
Adolat saririda orom qil.
Raiyatga adl ila qilsang maosh,
Kam o’lmas saxo sufrasi ichra osh.
CHiqorg’il raiyatni g’am chohidin –
Yonmog’oysen oning dudi ohidin.
Sitamkash agar oh cheksa sahar,
KuYar ohuning o’tidin bahru bar.
eshik yopma mazlumning Yuziga,
Ko’zung och, quloq sol, oning so’zig’a...

Ko’rinadiki, No’shiravon atrofidagi zolim bek va hokimlar podsho hamda xalq orasida ziddiyat chiqarishga harakat qilishadi. Hukmdorning kengash o’tkazishi ana shunday nizoning oldini olishga xizmat qiladi. O’zaro fikr almashinish asosida No’shirovon bek va hokimlarnga o’z bahosini bera olish imkoniyatiga ega bo’ladi. Abuzarjumhurning tadbirkorligi va nihoyatda donoligi esa xalqni kulfatlardan asraydi. Hikoyada halol va tadbirli

donishmandlarni saroyga chorlash, ular bilan kengashib el-ulus manfatiga muvofiq farmonlar chiqarishga undash g’oyasi o’z ifodasini topgan. Unda qissadan hissa chiqarish xarakterida bitilgan masnaviyning keltirilishi ham g’oyatda ibratlidir. Masnaviyda sitamkashning tong saharda chekkan ohidan baru bar (quruqlik-suvlik) – butun olam kuyishi nihoyatda ta’sirchan ifoda etilgan. She’riy parcha so’ngida mazlumlarga mushfiq bo’lish, butun vujud bilan ularni tinglashga dja’vat etiladi. G’am-tashvishli kishilarning musibatiga sherik bo’lish hadislarda o’z ifodasini topgan eng olijanob fazilatlardanlir. Adib Yoshligidan ilohiy-irfoniy ilmlardan puxta xabardor bo’lgani bois o’z asarlarida ularga juda ko’plab murojaat etganligi ko’uzatiladi.

«Miftoh ul-adl» va «Gulzor»da zolim podshohlarni to’g’ri yo’lga soluvchi donishmand vazirlar obrazi tez-tez ko’zga tashlanuvchi hikoyalar ham o’rin olgan. Ularning donoligi ba’zan taklif etgan tadbirlarida namoyon bo’lsa, ba’zan voqea-hodisalardan ibratli xulosa chiqarishlarida ko’zga tashlanadi. Sulton Mahmudning vaziri boyqushlar suhbatini hukmdoriga to’g’ri talqin qilib yetkazishi bilan uni adolat yo’liga boshlaydi:

Sulton Mahmud G’aznaviy zolim, uning vaziri Xo’ja Hasan dono va odil ekan. Ular kunlardan bir kun ovga chiqishibdi. Vazir Shaharning chetida sayrayotgan ikki boyqushni ko’rib oh tortibdi. Yig’labdi. Bundan taajjublangan Sultonga u : «Ul bir boyqush bul boyqushga aytaturkim, ikkimiz quda bo’laylik, qizingni maning o’g’lumg’a bergil, taqi qolin ne tilar bo’lsang berayin, der. Ul aytaturur: maning qizimning qolinig’a o’n ming buzug’ uy kerakdur. U aytaturur: agar Sulton Mahmud tirik bo’lsa, bir yildan so’ng Yuzming uy desang ham berayin, dedi. Man Shul so’zg’a yig’ladim», - deydi, Sulton: «Man Shuningdek zolimtururmankim, maning zulmimdin bir yilda Yuz ming uy xarob bo’lur?! –deganda, vazir: «andoq ermish» deydi. Shunda Sulton: «ne qilmoq kerak?», deb so’rasa, vazir: «adl qilmoq kerak va taqi zulm qilmoqdin tavba qilmoq kerak...», -deb javob beradi. Sulton Mahmud qilgan ishlariga tavba qiladi, adolat bilan davlatni boshqaradi, «kechalar darveshlarning libosin kiyib, eshikdin eshikka Yurur erdi: qayda bir tul xotun yo bir miskin bo’lsa, anga ehson qilur erdi.»

Hikoyada zolim hukmdor pand-nasihat bilan to’g’ri yo’lni ixtiyor etishi mukin, degan g’oyaga badiiy libos kiydirilgan. Dono va oqil vazir Xo’ja Hasan podshoning zulmkorligini ro’yi rost, betgachoparlik qabilida emas, balki majoziy ma’no taShuvchti tamsilni Sharhlash yo’li bilan ayon qiladi. Bu kichik nasr namunasi o’ziga xos uslubda, taxayyul mahsuli sifatida vujudga kelgan.

Xoja ijodida bunday hikoya namunalari ancha topiladi. Avvalo, ijodkor boyqushlar xalq nazarida, baxtsizlik va xarobalik ramzi ekanligidan mahorat bilan foydalanganligini ta’kidlash lozim. Hikoya o’ziga xos nasr namunasi bo’lib, unda adib janr talablaridan chekinganligi kuzatilmaydi. Unda ortiqcha ashyo timsolining Uchramasligi, dialogdan mahorat bilan foydalanilganligi ijodkori badiiy salohiyatining Yuksakligidan dalolat beradi. Adibning boshqa hikoyalari ham xuddi ana shunday fazilatlarni o’zida mujassamlashtirganligi bilan ahamiyatlidir.

Xoja hikoyalari orasida axloqiy-ta’limiy mohiyat kasb etuvchi, insonni ma’naviy komillikka da’vat etuvchi hikoyalar ham mavjud. Ma’naviy komillikning asosi – navfni mag’lub etmoq. «Shayx va murid» hikoyasida buning uchun kishidan nimalar talab qilinishi haqida bahs Yuritiladi:

Bir murid Shayxning oldiga kelib, o’zining ko’p gunoh qilganini aytadi va Shayxdan tavba va inobat berishni so’raydi. Shayx, sening ko’ngling bir hovuzdir, unga besh arig’dan suv kiradi, sen loyqa suv bilan hovuzni iflos qili’san, Shu arig’lar suvi yo’lini bog’lasang, hovuz toza bo’ladi, «bir arig’ - ko’zingning yo’lidirkim, musulmonlarning ahli – ayoliga xiyonat birlan boqmag’aysan. Yana bir arig’ - og’zingning yo’lidirkim, andin Yomon, harom nimalarni emag’aysan. Yana bir arig’ - ilik - qo’llaringdurkim, kishini nohaq urub, mollarini olmag’aysan. Yana bir arig’ - oyoqlaringning yo’lidurkim, aning birlan nomashru’ yo’llarg’a bormag’aysan, misli bo’zaxona va sharobxona va mafsaqa. Yana bir arig’ - quloqlaring yo’lidurkim, g’iybat so’zldarni eshitmagaysan», deydi. Murid bularni qabul qiladi, ko’ngil hovuzi pok bo’ladi.

Halollik va poklik – insonni komillik rutbasiga eltuvchi yo’ldir. Hikoyadagi Shayx obrazi irshod maqomiga etgan ulug’ zot. Shu bois u tsavvufning olijanob g’oyalaridan o’z muridini xabardor qiladi. Ko’ngil pokligiga faqatgina so’zdatavba qilish bilan erishib bo’lmaydi. Buning uchun insonning xatti-harakatlaridan poklik balqib turishi, u ezgu xulq sohibiga aylanishi bilan erishiladi. Shayxning so’zlari – adibning fikrlaridir. Insonni razillik olamidan tamomila xoli holda komillik maqomida ko’rish Xojaning ezgu orzularidan biri ekanligi hikoyadan anglashilib turadi. Shuningdek, adib o’z asarlarida xudbinlikni qattiq qoralaydi. «Sulaymon va obi hayot» hikoyasi buning Yorqin namunasidir:

Bir kishi Sulaymonga obi hayot keltiribdi. Sulaymon kishilarni, hayvonlarni, qushlarni yig’ib suvni ichish-ichmaslik haqida kengashibdi. Kengashga faqat butimor degan qush kelmagan ekan. Butimorni chorlash uchun Sulaymon ot yuboribdi. Butimor kelibdi. Sulaymonning taajjubiga butimor: «Ot vafo dashtida o’tlog’on ermasdur va it vafo dargohidin ketkon ermas», -debdi. Obi hayot masalasida esa u agar bu suv barcha Yor-do’stlaringga, qarindoshlaringga etsa, ichsangbo’ladi, bo’lmasa befoyda, Chunki hamma o’lib ketaveradi, yolg’iz o’zing qolasan, bunday hayotning ma’nisi bormi debdi. Bu gap Sulaymonga ma’qul tuShubdi, u obi hayotdan voz kechibdi.

Tiriklik Yoru dildor ila xushtur,
Tiriklikni netarsan bo’lmasa Yor?!
O’luk sonida ko’r, tema tiriktur –
Kishikim, yo’q anga Yori vafodor.
Kishi yolg’uz jahonda bo’lmadi shod,
Nechakim bo’lsa olamda namudor...

Ko’rinadiki, Xoja hikoyalarida doimo olijanob g’oyalar ulug’lanadi. Insonni baxtli va saodatli ko’rish orzusi uning barcha asarlarida qaysidir jihati bilan aks etgan. U kichik hikoyalar ustasi sifatida ularga insoniyat uchun nihoyatda muhim bo’lgan umuminsoniy qadriyatlar, o’lmas g’oyalarni singdira olgan. Hikoyalar sodda va ravon uslubda Yozilganligi, o’ziga xos tuzilishi, g’oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligi va til xususiyatlari nuqtayi nazaridan nihoyatda qimmatlidir.

Mavzuga oid savollar:

1.Xojaning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beruvchi mo’tabar manbalar hamda uning o’rganilishi tarixi haqida ma’lumot bering.

2. Adibning oila muhiti haqida nimalar bilasiz?

3.Xoja sadrlik faoliyatini qachondan boshlagan, u Shayboniylar xizmatiga o’tib qanday lavozimlarda faoliyat ko’rsatdi?

4. «Miftoh ul-adl» qachon Yozilgan va kimga bag’ishlangan?

5. «Maqsad ul-atvor» dostonining Yozilishi tarixi haqida gapirib bering.

6. Adibning Balxdagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyati haqida so’zlang.

7. «Miftoh ul-adl» va «Gulzor» asarlari uslubi, g’oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko’ra mumtoz adabiyotimizdagi qaysi asarlarga o’xshash?

8. «Gulzor» va «Miftoh ul-adl» asarlarining bir-biridan farqli, o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

9. Xoja hikoyalarining mavzu rang-barangligi, obrazlari haqida gapirib bering.

10. Hukmdorlar hamda axloqiy-ta’limiy mavzuda bitilgan hikoyalarni g’oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qiling.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

Hasanxoja Nisoriy «Muzakkir ul-as’hob». A.Fitrat. V.Zohidov. N.Mallaev. S.Qosimov. M.Mirzaahmedova. A.Ibrohimov. I.Bekjon. Muhammad Temur Sulton. Abdulvhobxoja binni Sulaymonxoja. Husayn Boyqaro. Abu Said Mirzo. Badiuzzamon Mirzo. Mo’min Mirzo. Kepak Mirzo. Shayboniyxon. Ubaydulloxon. Muhammad Solih. Ko’chkunchixon. Jonibek Sulton. «Gulzor». «Miftoh ul-adl», «Maqsad ul-atvor». Iskandar. No’shiravon. Abuzarjumhur. Sulton Mahmud. Xo’ja Hasan. Shayx va murid Sulaymon va obi hayot.

Zahiriddin Muhammad Bobur – Shoir, adib, She’rShunos – adabiyotshunos, donishmand faqih (islom qonunShunosi), tilshunos, elShunos, mantiq va riYoziyot ilmlaridan puxta xabardor jamoat arbobi sifatida o’zidan bebaho ma’naviy meros qoldirdi. Bu ma’naviy xazina esa o’ziining betakrorligi bilan jahon xalqlari diqqatini o’ziga jalb qilib kelmoqda. **Zahiriddin Muhammad Bobur o’z davrining katta bilimdoni sifatida asrida mavjud bo’lgan barcha bilimlarni puxta o’rgandi va o’zlashtirdi. Undagi ana shu donishmandlik zarrama-zarra asarlariga ko’chib bordi. Xususan, o’lmas «Boburnoma»ga kelib muallifdagi keng qamrovli bilim zahirasi o’zining butun tajassumini topdi. Natijada qomusiy asar – «Boburnoma» vujudga keldi. Ushbu javohir xazinasi paydo bo’lgan zamonidayoq, o’zi va muallifiga beqiyos Shuhrat keltirgan ediki, bu an’ana hozirga qadar davom etmoqda. «Boburnoma» va uning muallifi bu sha’nu shavkatga to’la sazovor. Chunki «Boburnoma» badiiy, tarixiy, yodnoma asar sifatida adabiyotshunos va tarixchi, tilshunos va tabiyot, jug’rofiYa sohasi, Shuningdek, Yana bir qator mutaxasssislarga qimmatli ma’lumotlar bera oluvchi bebaho ganjinadir. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarga Yashab, turfa tillarda so’zlashgan Sharqshunoslar diqqatini jalb etdi, dunyo kengliklarida aks sado berib keldi. Shuning uchun bo’lsa kerak,**

G’arbu Sharqda uning shaxsi va qoldirgan adabiy merosi tadqiq manbai sifatida o’rganilmoqda. Biz mazkur malakaviy bitiruv ishimizda amalga oshirilgan mana shu tadqiqotlarni umumlashtirib o’rganishga harakat qildik va quyidagilarni xulosalar sifatida ta’kidlashimio’ mumkin.

- «Boburnoma» o’ziga xos tuzilishga ega bo’lgan nasr namunasidir.
- «Boburnoma» ijtimoy-siyosiy, madaniy hayotga doir keltirilgan dalillarning mohiyati va ilmiy qimmati nuqtayi nazaridan g’oyat muhim bo’lib, bevosita Shu vazifani zimmasiga olgan tazkiralar bilan bemalol raqobat qila olishga qodir asarlardandir. Mazkur asar, eng avvalo, o’z muallifining qamrovli faoliyati va ijodiyoti haqida mukammal tasavvur hosil qila olishi bilan qadrlidir. Asarda tarixiy shaxs, sarkarda, davlat va jamoat arbobi Bobur Mirzo bilan bir safda yetuk olim, donishmand adabiyotshunos, zukko tanqidchi va zabardast Shoir qiyofasidagi Bobur Mirzo ham harakat qiladi, qadam tashlaydi. Bobur shaxsi va “Boburnoma” asariga haqidagi ushbu fikrlar G’arbu Sharq adabiyotshunoslari tadqiqotlarida qayta-qayta e’tirof etilgan.
- ***Tahlil jarayoniga tortilgan tadqiqotlardan ma’lum bo’ladiki, «Boburnoma» o’z muallifi adabiy-tanqidiy qarashlarini o’rganishda bebaho dalillar bera oladi. Shuningdek, unda o’nlab fors-tojik, o’zbek tilida hamda har ikki tilda ijod qilib, o’lmas asarlar Yaratib qoldirgan Shoirlar haqida g’oyat aniq va zarur ma’lumotlarni keltirgan. Masalaning bu jihati «Boburnoma»ning o’zbek va tojik adabiyotshunosligi uchun XV – XVI asr birinchi Yarmi adabiyoti tarixini o’rganishda muhim manba sifatidagi qimmatini oshiradi.***
- Asarda muhim tarixiy voqealar tiniq, haqqoniy, Yuksak taqakkur ifodasi orqali bayon qilinganligi bois jahon xalqlari e’tiborini tortdi. Boshqa tillarga qayta va qayta nashr qilindi.

Muhimi,

Ko’pchilik tadqiqotchilar Bobur Mirzo dastlabki yillardan boshlab o’z sarguzashtlari va turli xil tarixiy voqealarni xotira daftarlarida aks ettirib borgan va keyinchalik hayotining Hindiston davrida «Boburnoma»ni Yozgan, degan fikrni ilgari suradilar. Taniqli adabiyotshunos, akademik B.Valixo’jayev«Boburnoma»ning Yozilish sanasi 925 hijriy – 1518-1519 yildan boshlanib, keyingi yillarda sodir bo’lgan voqealar tarixiylik tamoyiliga ko’ra ketma-ket Yozib borilganligini keltirilgan asosli dalillarga tanib e’tirof etadi. Shuningdek, olim «Boburnoma»da hijriy 910, 915-924, 927-931 yillardagi, Ya’ni 16 yillik voqealar bayonining Uchramasligini mavjud qo’lyozmalardagi kamchiliklar sifatida emas, balki muallifning o’ziga xos uslubi sifatida baholaydi. Shu bois tadqiqotchi «Boburnoma»dagi 16 yilga tegishli bo’lgan voqealar bayonining Uchramasligini asarning Yaxlitligiga katta ta’sir ko’rsatmaydi, deya ta’kidlaydi (Qarang: O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 2-tom, Toshkent: «Fan», 1978, 64-77-betlar. Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. Toshkent, 2002, 290-297-betlar).

Mavzuga oid tayanch tushunchalar:

1. «Majolis un-nafois». 2. «Muhokamat ul-lug’atayn» 3.«Mezon ul-avzon». 4.«Mufradot». 5.«Xamsat ul-mutahayyirin».6.«Holoti Sayyid Hasan Ardasher». 7.«Holoti Pahlavon Muhammad». 8. «Tarixi muluki Ajam», 9.

«Tarixi anbiyo va hukamo». 10. «Nasoyim ul-muhabbat». 11. «Vaqfiya». 12. «Munojot». 13. Devonlar tarkibidagi «Debocha»lar.